

VOLUME 2, ISSUE 4

Scientific Journal

# ERUS

Educational Research in Universal Sciences



Scientific Journal Impact Factor: 5.564

ISSN: 2181-3515

Economics  
Exact Sciences  
Natural Sciences  
Medical Sciences  
Arts and Culture  
Technical Sciences  
Philological Sciences  
Pedagogical Sciences  
Psychological Sciences  
Social Sciences and  
Humanities

zenodo



PKP|INDEX

2023/4

ISSN 2181-3515  
VOLUME 2, ISSUE 4  
APRIL 2023



<https://erus.uz/>

**EDUCATIONAL RESEARCH IN UNIVERSAL SCIENCES**  
**VOLUME 2, ISSUE 4, APRIL, 2023**

**EDITOR-IN-CHIEF**

***M. Kurbonov***

*Professor, Doctor of Pedagogical Sciences, National University of Uzbekistan*

---

**EDITORIAL BOARD**

***Sh. Otajonov***

*Professor, Doctor of Physical and Mathematical Sciences, National University of Uzbekistan*

***I. Tursunov***

*Professor, Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Chirchik State Pedagogical University*

***B. Eshchanov***

*Professor, Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Chirchik State Pedagogical University*

***J. Usarov***

*Professor, Doctor of Pedagogical Sciences, Chirchik State Pedagogical University*

***G. Karlibayeva***

*Professor, Doctor of Pedagogical Sciences, Nukus State Pedagogical Institute*

***H. Jurayev***

*Professor, Doctor of Pedagogical Sciences, Bukhara State University*

***Y. Maxmudov***

*Professor, Doctor of Pedagogical Sciences, Termez State University*

***K. Ismaylov***

*Professor, Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Karshi State University*

***Sh. Sodikova***

*Doctor of Philosophy (Phd) in Pedagogical Sciences, National University of Uzbekistan*

***Sh. Pazilova***

*Doctor of Philosophy (Phd) in Pedagogical Sciences, Academy of the Armed Forces of the Republic of Uzbekistan*

***E. Xujanov***

*Doctor of Philosophy (Phd) in Pedagogical Sciences, Tashkent State Pedagogical University*

***H. Qurbanov***

*Doctor of Philosophy (Phd) in Pedagogical Sciences, Tashkent State Transport University*

***F. Khazratov***

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Pedagogical Sciences, Bukhara State University*

***M. Mansurova***

*Associate Professor, Candidate of Pedagogical Sciences, Tashkent State Transport University*

## AMALIY MASHG‘ULOTLARNI BAJARISH JARAYONIDA OLINGAN NATIJALARNI MAPLE DASTURI ASOSIDA TAHLIL QILISH

**Kurbanov Mirzaahmad**

O‘zbekiston Milliy universiteti professori

E-mail: [hayot1234.u@mail.ru](mailto:hayot1234.u@mail.ru)

**Kurbanov Khayotjon**

Toshkent davlat transport unversiteti (PhD)

E-mail: [kurbanov1949@bk.ru](mailto:kurbanov1949@bk.ru)

### ANNOTATSIYA

Maqolada umumiy fizikadan laboratoriya mashg‘ulotlarida olingan natijalar tahlil qilinib, Maple 12 dasturiy paket asosida murakkab grafiklarni kata aniqlikda chizish imkoniyatlariga qaratilgan.

**Kalit so‘zlar:** interfaol metod, innovatsion texnologiya, pedagogik texnologiya, axborot texnologiya, kompetensiya, magnit induksiyasi, intellektual salohiyati, ilmiy tasavvur, xotira, magnit kuch chiziqlari, tok, zaryad.

### ANALYSIS OF THE RESULTS OBTAINED IN THE PROCESS OF PRACTICAL EXERCISES ON THE BASIS OF THE MAPLE PROGRAM

**Kurbanov Mirzaahmad**

Professor of the National University of Uzbekistan

E-mail: [hayot1234.u@mail.ru](mailto:hayot1234.u@mail.ru)

**Kurbanov Khayotjon**

Tashkent State Transport University (PhD)

E-mail: [kurbanov1949@bk.ru](mailto:kurbanov1949@bk.ru)

### ABSTRACT

The article analyzes the results obtained in laboratory classes in general physics and focuses on the possibilities of drawing complex graphs with high accuracy based on the Maple 12 software package.

**Keywords:** interactive method, innovative technology, pedagogical technology, information technology, competence, magnetic induction, intellectual potential, scientific imagination, memory, magnetic lines of force, current, charge.

## KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION)

Bugungi kunda zamonaviy talaba uchun zarur bo'lgan va yetarli darajada keng qamrovli matematik masalalarni oson yecha oladigan juda kuchli va uzluksiz mukammallashtirilib borilayotgan Maple 12 dasturidan foydalandik. Shu bilan birga, ushbu dastur bir konkret holatda olingan natija to'g'ri ekanligini tekshirib ko'rish imkonini beradi. Zarur hollarda bajarilgan hisoblashlarni grafik yoki sonli ifodalarini olish mumkin. Yana dastur yordamida masalani yechish jarayonining batafsil yuqori aniqlikdagi tavsifini olish mumkin. Bunday paketlarning muhim tomoni shundaki, ulardan amalda foydalanish uchun dasturlashni bilish talab etilmaydi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ / METHODS)

Hozirgi kunda TDTrU «Fizika» kafedrasining laboratoriya xonalari xorijdan keltirilgan laboratoriya qurilmalari bilan jihozlangan [1, 255-262 b; 2, 155-173 b.]. Shu bilan birga axborot kommunikasion texnologiyalari resurslari bilan ta'minlangan. Laboratoriya ishlaridan olingan natijalarni AKT dasturlari yordamida tahlil qilib, kerakli natijalarni yuqori aniqlikda aniqlab, ularning grafiklarini chizish kabi ishlarni amalga oshiradilar [3, 81-86 .b; 4, 34-44 b.].

## NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS)

Masalan, «To'g'ri o'tkazgichning va chulg'amli o'tkazgichning magnit maydon induksiyasini o'lchash» laboratoriya ishi misolida ko'rib chiqamiz. Magnit maydoni materiyaning o'ziga xos turi bo'lib, magnit strelkaga, tokli ramkaga va harakatlanuvchi zaryadga ko'rsatadigan ta'sirida namoyon bo'ladi. Magnit maydonini tokli o'tkazgich, harakatlanuvchi zaryadlar, magnitlangan jismlar, shuningdek o'zgaruvchan elektr maydoni yuzaga keltiradi. Magnit induksiya vektori  $B$  magnit maydonining kuch xarakteristikasi hisoblanadi. Stasionar magnit maydonlarini yaqqol namoyish qilish uchun kuch chiziqlaridan foydalaniladi [5, 6-19 b.]. Maydonning har bir nuqtasida egri chiziqqa o'tkazilgan urinmalar shu nuqtada  $B$  vektorning yo'nalishi bilan mos tushadigan egri chiziqlar magnit maydonining kuch chiziqdari deyiladi. Bunday egri chiziqlar uzluksizdir. Kuch chiziqlari musbat zayarddan boshlanib, manfiy zaryadda tugaydigan potensial elektr maydonlaridan farqli o'laroq, magnit maydoni uyurmaviydir: uning kuch chiziqlari har doim yopiq va bir-biri bilan kesishmaydi.

## MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION)

Aylanma tok (1-rasm) halqa yuzasidan  $z$  masofada va uning o'qidan  $y$  masofada yuzaga keltiradigan magnit maydon induksiyasini topish uchun Bio-Savar-Laplas qonunidan  $dl$  va  $r$  uchun quyidagi ifodalarni olamiz:

$$dl = \begin{pmatrix} -R \cos \varphi \\ -R \sin \varphi \\ 0 \end{pmatrix} d\varphi, \quad \vec{r} = \begin{pmatrix} R \sin \varphi \\ -(R \cos \varphi - y) \\ z \end{pmatrix} \quad (1)$$

Ularning vektor ko'paytmasi quyidagicha bo'ladi:

$$[d\vec{l} \times \vec{r}] = \begin{pmatrix} \vec{i} & \vec{j} & \vec{k} \\ -R\cos\varphi & -R\sin\varphi & 0 \\ R\sin\varphi & -(R\cos\varphi - y)z & R(R - y\cos\varphi) \end{pmatrix} d\varphi = \begin{pmatrix} -Rz\sin\varphi \\ Rz\cos\varphi \\ R(R - y\cos\varphi) \end{pmatrix} d\varphi \quad (2)$$


U holda magnit induksiya vektorining komponentlari quyidagicha ko'rinishga ega bo'ladi:

$$B_x(y, z) = -\frac{\mu_0 IRz}{4\pi} \int_0^{2\pi} \frac{\sin\varphi}{(R^2 + y^2 + z^2 - 2Ry\cos\varphi)^{3/2}} d\varphi \quad (3)$$


$$B_y(y, z) = \frac{\mu_0 IRz}{4\pi} \int_0^{2\pi} \frac{\cos\varphi}{(R^2 + y^2 + z^2 - 2Ry\cos\varphi)^{3/2}} d\varphi \quad (4)$$

$$B_z(y, z) = \frac{\mu_0 IR}{4\pi} \int_0^{2\pi} \frac{R - y\cos\varphi}{(R^2 + y^2 + z^2 - 2Ry\cos\varphi)^{3/2}} d\varphi \quad (5)$$

$x = y = 0, z$  – ixtiyoriy son bo'lgan holda eng sodda va yaqqol ko'rinadigan natijalar olinadi.



1-rasm. Aylanma tok o'qidan  $y$  masofada yuzaga keltiradigan magnit maydon induksiyasi.



## 2-rasm. Aylanma tokning magnit maydoni. Magnit maydonining $B_y(y)$ va $B_z(z)$ proyeksiyalarining normirovkalangan qiymatlari.

Bu holda quyidagiga ega bo'lamiz:

$$B_x(0, z) = B_y(0, z) = 0, \quad B_z(0, z) = \frac{\mu_0 I R^2}{4\pi(R^2 + z^2)^{3/2}} \int_0^{2\pi} d\varphi = \frac{\mu_0 I R^2}{2(R^2 + z^2)^{3/2}} \quad (6)$$

Laboratoriya ishi bajarish natijasida olingan qiymatlar Maple12 dasturiy paket yordamida (6) tenglama asosida hisoblab chiqildi. Magnit induksiyasining  $B_y$  va  $B_z$  komponentalarining  $R=1$  m,  $z=2$  m,  $I=1$  A hol uchun  $y$  koordinataga bog'liqlik grafiklari dastur asosida chizildi (2-rasm).

### XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION)

Yuqorida bayon qilingan tizimlardagi, tenglamalarni amaliy yechishga bag'ishlangan bunchalik ko'p vositalar birinchi tartibli differensial tenglamalardan o'tkaziladigan nazariy va ayniqsa, laboratoriya mashg'ulotlari mazmuniga muhim tuzatishlar kiritish ikoniyatini beradi. Maple 12 tizimidan foydalanish, talabalar harakatdagi dastur doirasida yechishi kerak bo'lgan yuqori tartibli tenglamalarni yechish jarayonini sezilarlidarajada qisqartiradi. Shu bilan birga Maple 12 tizimi birharakatda mos tahlillar yordamida bir turdagi masalalar sinfini yechish imkonini beradi. Bunday tahlillar Maple 12 tizimi ma'lumotnomasida yozilgan. Bularning barchasi amaldagi dasturda mavjud yuqori tartibli tenglamalarni o'rganishga sarflanadigan vaqtini sezilarli qisqartirishga sharoit yaratadi, shuningdek, talabalarning xotira, ilmiy tasavvur, intellektual salohiyati va bilish faoliyatining rivojlanishiga, dasturiy vositalar bilan ishlashni o'rganishga, yaratuvchanlik, ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishga, mashg'ulot jarayonida talabalarning kasbiy kompetensiyalarini va fikrlash faoliyatini rivojlantirishga hamda ixtisoslik fanlarni yuqori darajada o'zlashtirishga zamin yaratiladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Matveev A.N. (1983). Elektrichestvo i magnetizm. Vishaya shkola.
2. Sodikova Sh.M., Otajonov Sh., Kurbanov M. (2020) . Lazerlar va ularning amaliyotdagi o'rni. *Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaaui*.
3. Kurbanov M. (2008). Fizikadan namoyish eksperimentlarining uslubiy funktsiyalarini kengaytirishning nazariy asoslari. *Monografiya. Fan*.
4. Mirsaatov R.M., Kurbanov H.M., Saydaliyeva SH.S., Mahmudova D.H.(2021). *Qurilishda fizika. Uslubiy qo'llanma*.
5. Mirsalihov B.A., Kurbanov H.M., Valihonov N.K.(2020). *Elektromagnetizm i Optika*.

## IQBOL MIRZO IJODIDA ZOOMORFIK METAFORANING POETIK VOSITA SIFATIDA QO‘LLANILISHI

**Rajabova Nilufar Qadamboyevna**

Qarshi davlat universiteti lingvistika: o‘zbek tili yo‘nalishi 2-bosqich magistranti

### ANNOTATSIYA

Ushbu ilmiy maqolada el suygan shoir Iqbol Mirzo ijodida uchraydigan zoomorfik metaforalar tasnifi va talqini yoritilgan. Zoomorfik metaforalarga misol sifatida shoir ijodidan turfa misollar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** metafora, zoomorfik, konnotativ ma’no, istiora, metaforizatsiya, etalon.

Metafora turlari o‘zining obrazlilik, ta’sirchanligi, badiiy ko‘chimni ifodalashi bilan alohida ajralib turadi. She’riyatda shoir ko‘chimlarning o‘ziga xos ko‘rinishi sifatida zoomorfemik metaforalardan foydalanadi. Zoomorfik metafora - bu hayvonlar va ularning tana a’zolari nomini ifodalovchi leksemalar ma’nosining metaforik usulda ko‘chishi bo‘lib, bu turga bo‘ri, tulki, ayiq, ilon, it, shox, dum, qanot kabi leksemalarning metaforik ma’no hosil qilishi kiradi. Metafora orqali ma’no ko‘chishida konnotativ ma’no yorqinroq aks etadi. Masalan, ot, eshak, qo‘y, it, bo‘ri, tulki, yo‘lbars, boyo‘g‘li, musicha, burgut, lochin, qaldirg‘och, bulbul kabi hayvon va qushlarning nomlari bo‘lgan leksemalar mavjudki, bu so‘zlar o‘z ma’nosidan tashqari, ko‘chma ma’noda juda keng qo‘llanadi. Otning baquvvatligi, eshakning aqlsizligi, qo‘yning yuvvoshligi, itning vafodorligi, mushukning ephilligi, tulkining ayyorligi, burgutning changallashdagi kuchlilik, lochinning ko‘zi o‘tkirligi kabi tipik xususiyatlari boshqa predmetlarga nisbatan metaforik usulda ko‘chiriladi, natijada konnotativ ma’no yuzaga keladi hamda matnning ta’sirchanligi oshadi.

Iqbol Mirzo ijodida qo‘llanilgan metaforalar badiiy pardoz bo‘libgina qolmay, shoirning ijodiy tafakkuri, til birliklaridan foydalanish mahorati to‘g‘risida ham ma’lumot beradi. Shoir tilimizdagi mavjud metaforalardan foydalanish barobarida o‘zi ham yangi metaforalar yaratadi. Metaforalar shoir she’riyatida turli ko‘rinishda namoyon bo‘ladiki, bu ijodkorning tafakkur doirasi keng ekanligi, xalqimizning urf-odatlarini, qadriyatlaridan yaxshigina xabardor ekanligidan dalolat beradi. Shu o‘rinda metaforaning yana bir turi zoomorfemik metaforalar haqida ma’lumot berib o‘tish joiz. Zoomorfik metaforada hayvonlar va ularning tana a’zolari nomini ifodalovchi leksemalar ma’nosining metaforik usulda ko‘chishi bo‘lib, bu turga qushlar va hayvonlarni ifodalovchi leksemalarning metaforik ma’no hosil qilishi kiradi.



Ma'lumki, poetik matnda Iqbol Mirzo tomonidan nazarda tutilgan ma'noning voqelikdagi ma'lum bir o'xshashlik asosida ko'chishi metaforaning asosiy, muhim belgilaridandir. Metaforani hosil qilishda obrazlilik yaratishdan tashqari matnda bo'yoqdorlik va ta'sirchanlikni yuzaga keltirish ko'zda tutiladi. Poetik matnning ifodali va ta'sirchan bo'lishi, lingvopoetik vositalarga, emotsional-ekspressiv so'z va iboralarga boy bo'lishi ijodkorning lisoniy zaxirasiga, ona tilimiz qonuniyatlaridan qay darajada xabardor ekanligiga bog'liq. Shuni ham alohida ta'kidlash lozimki, Iqbol Mirzo ijodida tilning boshqa ifoda-tasvir vositalari qatori metaforaning o'ziga xos estetik vazifasi boshqa matnlarga nisbatan yaqqol namoyon bo'ladi.

• Qushlar nomi bilan bog'liq zoomorfemik metaforalar:

Xalqimiz azaldan she'rni kuch-qudrat, lochin, burgut, qarchig'ayni buyuklik, musichani beozorlik, kabutarni beg'uborlik timsoli sifatida ulug'lab keladi. Shoir Iqbol Mirzo she'rlarida ham bir qancha zoomorfemik metaforalar qo'llangan bo'lib, ularning ayrimlarini tahlil qilish o'rinlidir.

1. Qaldirg'och so'zi orqali hosil bo'lgan metafora.

Yuqorida ta'kidlanganidek metafora tashbehga o'xshaydi, biroq orada o'xshatish vositasi bo'lmaydi. Agar quyidagi misolda "qoshi qaldirg'och dek" yoki "qaldirg'och kabi qayrilma qosh" jumalari qo'llanganda, u tashbeh bo'lar edi. "Qaldirg'och qoshligim" bu yerda shakily o'xshashlikka asoslangan zoomorfemik metaforadir. "Qaldirg'ochoyim" metaforasida esa qaldirg'ochdagi nozik va nafislik belgisi ko'chirilgan. Adabiyot nuqtai nazaridan esa har ikkalasi ham ochiq istiora, ya'ni yorga murojaatni yaqqol ifodalab turibdi. Shoir "qaldirg'och" so'zini metafora sifatida qo'llashida bu holat sezilib turadi:

Ey qaldirg'och qoshligim,

Kel, ahdimiz bir bo'lsin.

Qorako'z qaldirg'ochoyimsan o'zing,

Ko'ksim ayvon bo'ldi seni sog'inib. ("Seni sog'inib" she'ri 65- bet)

Ey qaldirg'och qoshligim,

Kel, ahdimiz bir bo'lsin.

Uchta odam bilgan gap

Qanday qilib sir bo'lsin? ("Tilla uzuk" she'ri 71- bet)

2. Bulbul so'zi orqali hosil bo'lgan metafora.

Uchta odam bilgan gap

Qanday qilib sir bo'lsin?

Davralarning guli men emas, boshqa,

Davroning bulbuli men emas, boshqa. ("Aldanib yashadim" 16- bet)

Ushbu misralarda bulbul so'zi metamorfik metaforani hosil qilgan. Bulbul xushovozligi bilan boshqa qushlardan ajralib turadi. Agar biror inson yoki

san'atkorning ovozi xushovoz bo'lsa yoki kimdir o'zi yashayotgan davrda e'tibor markazda bo'lsa "davraning bulbuli", "davronning bulbuli" jumalari qo'llanadi. She'rdan shoirning ruhiy iztirobi, aldovlardan zada bo'lgan ko'ngil nolalari aks etgan. Bunda belgi o'xshashligi asosida ochiq istiora yuzaga kelgan.

Yer tepib depsinar dumbul yuragim,

Eshilib buralar sunbul yuragim.

Ezilib yig'laydi bulbul yuragim

Nojinslar qo'lida tor ko'rgan chog'lar. ("Chog'lar" she'ri 137- bet)

Bu o'rinda bulbul so'zi orqali "nolalarga to'la" ma'nosi ifodalangan, ya'ni shu so'z bulbul so'ziga ko'chirilgan.

Bir bulbul sayradi tun bo'yi giryon,

Eman yaprog'idek dilgir, jonsarak.

Shu kech hadeganda yorishmadi tong,

Shu kech shafaqlarga belandi yurak. ("Bulbul" she'ri Muhammad Yusufga bag'ishlov 161- bet)

Yuqoridagi she'r shoir Muhammad Yusuf xotirasiga bag'ishlangan bo'lib, unda qo'llangan bulbul so'zi ham o'z ma'nosida, ham ko'chma ma'noda qo'llangan. Ko'chma ma'noda Muhammad Yusufga ishora qilingan. Xalq orasida sevimli bo'lgan shoir larga bulbul shoir e'tirofi ham qo'llanadi.

3.Turna so'zi orqali hosil bo'lgan metafora.

Ko'zlarida g'am gardidan surmalari

Uchib ketdi bu ko'ngilning turnalari. ("Ko'zlarida" she'ri 107- bet)

Turna (Gruidae) — turnasimonlar turkumi oilasiga mansub qush. 4 urug'ga birlashgan 15 turi mavjud. Yirik, oyoqlari va bo'yni uzun, qanotlari nisbatan keng. Yevropa, Osiyo, Shimoliy Amerika, Avstraliyada tarqalgan. Suvoldi yoki o'ta nam ekosistemalarda yashaydi. Mavsumiy migrasiya davrida qishlash joylariga katta gala bo'lib uchib ketadi. O'zbekistonda oq turna, kulrang turna va kichik turna uchib o'tish davrida uchraydi. Janubiy viloyatlarda kulrang turna qishlab ham qoladi. Oq turna Tabiatni muhofaza qilish xalqaro Ittifoqi va O'zbekiston Respublikasi Qizil kitoblariga kiritilgan.

Shoir "Uchib ketdi bu ko'ngilning turnalari" jumlasida turnaning bir joyda muqim turmasligi, boshqa o'lkalarga uchib ketishi nazarda tutilib, ko'ngildagi g'amlarni tark etganligi ifodalangan.

4.Musicha so'zi orqali hosil bo'lgan metafora.

Seni sog'inaman,

Mening qo'llarim –

Ikkita musicha qo'ynimda yashar  
Kaftingdan termoqlik istab donlarin  
Fursat to'kilishin xorg'in sanashar... ("Seni sog'inaman" she'ri 132- bet)

Musicha - yuvvosh, beozor qush. Badiiy asarda doimo ijobiy ma'noda qo'llaniladi. She'rda shoirning juda ham betakror istiora qo'llaganini guvohi bo'lamiz. She'rdagi ikkita musicha bu lirik qahramonning qo'llari. U yor kaftidan "don terish"ni intizorlik bilan kutgan beozor qo'llar. Oshiq o'z ma'shuqasi qo'llaridan beozorgina tutishni qumsamoqda. Bunday satrlar iqbol Mirzoning so'z qo'llash mahoratini aks ettirib beradi.

5.Kaptar, qush, qanot so'zlari orqali hosil bo'lgan metafora.

Kabutar - tinchli elchisi

Kaptarlar bir - birin suyib o'pishdi,

Xayolim sen tomon qush bo'lib uchdi.

Sen nechun ketding: men nechun ketkazdim?

Qanotimga o'zim shikast yetkazdim. ("Deraza pardasi" she'ri 176- bet)

Senga xatlar yozdim, yetib bormadi,

Yomg'irlarda qolib qunushdi kaptar. ("Senga xatlar yozdim" she'ri 47- bet)

Ko'ngil qushim senda, jon qushim senda,

Sham kabi mo'ltirab yonishim senda. ("Senda" she'ri 89- bet)

Misollarda qo'llangan qush, qanot, kaptar so'zlari zoomorfik metaforalar sifatida shoirning tuyg'ulari va ichki kechinmalarini ifoda etgan.

6.Qarg'a so'zi orqali hosil bo'lgan metafora.

Qarg'a — yovuzlik etaloni:

Ma'lumki, qarg'a qish oylarida o'zbeklar yashaydigan hududlarga uchib keladi. Qadimda qish odamlarga ko'p azob-uqubat, tashvish, ochlik olib kelganligi bois ular bu faslni uncha xush ko'rishmagan. Ularning mifologik dunyoqarashida qishni qarg'alar olib keladi, degan tasavvur ham bo'lganligiga shubha yo'q. Shunga ko'ra, qarg'a ularning ongida yovuzlik, yomonlik timsoli bo'lib shakllangan. Bundan tashqari o'zbek xalqi hayotida ranglar ham muhim ahamiyatga egaligini aytib o'tish o'rinlidir. Qarg'aning rangi qora. Qora rang salbiy belgiga egalikni; aza, motam, ifloslik, xunuklik ramzini bildiradi. Laylak esa oq rangli qush. Oq rang ezgulik, yaxshilik, to'g'rilik, tozalik, go'zallik ramzi sifatida o'zbek xalq tasavvurida shakllangan.

Uchib kelgunicha qora qarg'alar,

Va sariq chiroqlar yoqilguncha to

Uzr, hayot- mamot meniki bo'lar,

Meniki bo'ladi batamom dunyo. ("O'yin" she'ri 231- bet)

Ushbu misralarda qo‘llangan “Qara qarg‘alar” birikmasi yomon kunlar, ayriliq damlari ma‘nolarini o‘ziga ko‘chirgan. Qora so‘zi bilan yonma- yon qo‘llangani buning isbotidir.

“Ko‘nglingda nima bor, bilmayman” kitobidan olingan quyidagi she‘rda qo‘llangan qarg‘a so‘zi laganbardor, ikkiyuzlamachi insonlarga nisbatan qo‘llangan istioradir.

Bedilning ko‘zlarin ko‘rgan qarg‘alar

Chorbog‘imda tuproq titgan, afsuski. (“Afsuski” she‘ri 198- bet)

7.Chumchuq so‘zi orqali hosil bo‘lgan metafora.

Chumchuq - chaqimchilik etaloni.

...Chumchuqni bulbul deb yozgan sizmasmi,

Xayf sizning amal-u unvonlaringiz!

Yo‘q iymon og‘rig‘I dilni ezmasmi?

Og‘riq bermasmi yo‘q vijdonlaringiz? (“Savol” she‘ri 64- bet)

Iqbol Mirzo chumchuqdagi chaqimchilik etalonini, bulbuldagi tabiiy xushovozlikka qarama- qarshi qo‘yib, she‘rning ta‘sirchanligini oshirgan. Albatta, bu yerda qo‘llangan ikki qush nomi ikki toifa insonlarga nisbatan qo‘llangan. Chumchuq - tug‘ma iqtidorga ega bo‘lmagan mansabdor odamlar ramzi bo‘lsa, bulbul haqiqiy iqtidor egasi bo‘lgan insonlardir.

Shu ketishda buting yirib o‘lgaysan,

Havas qilsang simyog‘ochga qo‘ngaysan.

Xudo bersa, chumchuqboshi bo‘lgaysan,

Chumchuqmisan, chumchuqlarga hasad qil! (“Chumchuq bola” she‘ri 223- bet)

Ushbu she‘rda qo‘llangan chumchuq so‘zi har kim o‘z tengidagi insonlarga taqlid qilishi kerakligi tasvirlangan. “Chumchuqmisan, chumchuqlarga hasad qil!” misralari xalqning “Teng tenggi bilan”, “Ko‘rpangga qarab oyoq uzat” kabi maqollariga hamohang keladi.

8.Oqqush so‘zi orqali hosil bo‘lgan metafora.

Oqqush - mag‘rurlik timsoli:

Shoir I. Mirzo “Aylanayin” deb nomlangan she‘rida sevgan yorining yosh davriga nisbatan oqqush, alanga so‘zlarini qo‘llagan. O‘n olti yosh balog‘atga yetish pallasidagi mag‘rur davrni bildirgani uchun oqqush istiorasidan unumli foydalangan:

O‘n oltida oqqush bo‘lding, shaylanding,

Yigirmaga taqdirimga boylanding.

O‘ttizingda alangaga aylanding.

Endi o‘zim aylanayin, yor , sendan. (“Aylanayin” she‘ri 72- bet)

9. Laylak soʻzi orqali hosil boʻlgan metafora.

Laylak — ezgulik timsoli:

Ayonki, laylak obrazi oʻzbek xalq ertaklarida koʻp uchraydi. Ularning aksariyatida laylak ijobiy xarakterda tasvirlangan. Laylakning tabiatan beozorligi va goʻzalligi xalq tasavvurida ezgulik timsoli boʻlib, asosiy kontsept sifatida shakllangan. Iqbol Mirzo xalq tasvuridagi laylak obrazini sheʼrlari tilida tasvirlar ekan, uni ezgulik, qut-baraka maʼnolarida qoʻllashga harakat qilgan. “Oʻzbek tilining izohli lugati”da laylak soʻzining mazkur koʻchma maʼnosi qayd etilmagan. Shoirning ushbu sheʼrida ilon soʻzi ham metaforik maʼnoda qoʻllanilgan.

Nogʻorani yodga solar kuy chalsa,

Oʻzimizga oʻxshar feʼl-u tilaklar.

Agar polaponga xavf solar boʻlsa,

Ilonni boshini yanchar laylaklar. (“Laylaklar” sheʼri 104- bet)

Laylaklar soʻzi yovuzlikni ustidan ezgulikni gʻalaba qozonishi maʼnosida qoʻllangan kuchli istioraviy maʼnoga ega boʻlgan metaforadir.

10. Xoʻroz soʻzi orqali hosil boʻlgan metafora.

Xoʻroz zoomorfemik metaforasi oʻziga bino qoʻygan, qoʻlidan aniq bir ish kelmaydigan yigitlarga nisbatan koʻp qoʻllaniladi. Ayniqsa, joʻjaxoʻ roz shaklida qoʻllansa, salbiy darajasi kuchayadi. Iqbol Mirzo esa bu soʻzni gʻiybatchi odamlarga nisbatan qoʻllagan: yurmala shahridagi xoʻroz haykalchalari oltin qubbalarda turlicha akslanishi tasviri ortidan kuchli tanqidga yoʻgʻrilgan holda “Bizdayam uchraydi shunday xoʻrozlar” misralarini bera olish ham shoirning soʻz qoʻllash mahoratida usta ekanligini yana bir bor isbot etadi:

Bizdayam uchadi shunday xoʻrozlar,

Kim don sepsa, shuning quliman, - deydi.

Har xil tarmoqlardan berar ovozlari

Gʻiybat shudgoridan qurt terib yeydi. (“Xoʻroz” sheʼri 200- bet)

Iqbol Mirzo sheʼrlarida qoʻllangan zoomorfik metaforalardan qushlar bilan bogʻliq ayrim namunalarga izoh berdik. Ishning davomida esa hayvonlar nomi bilan bogʻliq zoomorfik metaforalarga eʼtibor qaratamiz.

• Hayvonlar nomi bilan bogʻliq zoomorfik metaforalar:

Oʻzbek xalqining tili va nutqida eng koʻp metaforizatsiya qilingan soʻzlardan biri it soʻzidir. Mazkur metafora shaxsning subʼektiv munosabatini bildirishda eng faol koʻchim sifatida xalq tilida qoʻllaniladi. Xarakterli tomoni shundaki, it soʻzi oʻzbek tilida etalon boʻlib kelgan metaforalar soni oʻndan ortiq boʻlib, ularning barchasi insonga nisbatan qoʻllangan. Buning sabablari sifatida quyidagilarni aytib oʻtish mumkin: 1) itni osonlik bilan qoʻlga oʻrgatish mumkin, uning tabiatida moslashuvchanlik juda kuchli. Shunga koʻra, it qoʻlga oʻrgatilgan eng dastlabki xonaki

hayvon bo‘lib, o‘zbek xalqining turmush tarzida muhim o‘rin tutadi; 2) it muntazam ravishda insonlarning ko‘z o‘ngida bo‘lganligi, insonlar ularning kayfiyati, harakati va tabiatidan yaxshi xabardor ekanligi sabab itga xos xususiyatlar ko‘chma ma’nodan insonga ko‘chirilgan. Shu va boshqa sabablarga ko‘ra it so‘zining majoziy ma’nodan qo‘llanishi ko‘p kuzatiladi. O‘zbek tilida it so‘zi ijobiy va salbiy ko‘chma ma’nodan qo‘llaniladi. It vafodorlik, sodiqlik timsoli sifatida o‘zbek xalq maqollarida ko‘p uchraydi. Iqbol Mirzo she’riyatida esa it metaforasi, asosan, salbiy ma’nodan ifodalangan.

1. It, Olapar so‘zi orqali hosil bo‘lgan metafora

It — yovuz odamlar timsoli:

Ushbu she’riy parcha shoirning “Odamlar” she’ridan. Bu o‘rinda itlar so‘zi juda yovuz, butun hayoti igvo va bo‘hton qilishdan iborat kishilar ko‘chma ma’nosida qo‘llanilgan. Izoh sifatida aytish mumkinki, “O‘zbek tilining izohli lugati”da it so‘zining boshqalarga zulm o‘tkazuvchi odam, malay ko‘chma ma’nosi izohlangan bo‘lib, O‘zbek xalqi tilida it so‘zining yovuz, butun hayoti ig‘vo va bo‘hton qilishdan iborat kishi ko‘chma ma’nosida qo‘llanilishi ko‘p kuzatiladi.

Ichida it hurgan odamlar,

Aybim izlab yurgan odamlar.

Sizga yordam bergim keladi,

Meni yomon ko‘rgan odamlar. (“Odamlar” she’ri 79- BET)

Olapar - vafodor do‘st timsoli.

Shoir “Olapar” nomli she’rida umrning bevafoqligiga qarama - qarshi holda vafodorlik ma’nosini Olapar itga nisbatan qo‘llagan. Bu o‘rinda itni ijobiy sifatiga urg‘u berilgan:

Olapar qayoqqa ketdikin,

Ko‘zlarini sog‘indim...

Olapar..

Umr - bevafo... ( 131- bet)

2. Ilon so‘zi orqali hosil bo‘lgan metafora

Ilon – makkorlik timsoli:

Ilon turkiy xalqlarda makkor insonlarni ifodalab kelsa, ba’zi xalqlarda go‘zallik va viqorni ifodalay ekan. Iqbol mirzo she’rlarida ham ilon so‘zi salbiy ma’nodan qo‘llangan. Tarixiy voqelikni tasvirlagan har ikki she’riy parchada ham ilon so‘zi yovuz insonlarni ifodalagan:

Xanjar charxlab berdim Abdullatifga.

Xonum deb yengimda saqladim ilon,

Faqat yulduzlarni soldim tartibga. (“O‘tinch” she’ri 159- bet)

Yoki yana bir misol:

“Yana keeling”, - deysan nigohing bilan,  
Ko'ksimda g'ijirlar hasratning toshi.

Eslayman,

qatora - bahaybat ilon,

Sibirlarga ketar o'n sakkiz yoshim. (“Sobiq askar” she'ri 105- bet)

3.Ohu so'zi orqali hosil bo'lgan metafora

Ohu - chiroyli ko'zli, hurkak qizlar timsoli.

Shoir she'rdagi poetic jozibani kuchaytirib, gulining ko'zi juda chiroyliligini oddiy tarzda aytmasdan, “gulijonning ko'zidan ohular uyaladi” deb nozik ifodalar bilan tasvirlagan. Bunda oshiq yigitni o'z yoriga bo'lgan samimiy muhabbati, erkalashi sezilib turadi:

“Gulijonning ko'zidan

Ohular uyaladi.

Kiprigini ko'tarsa,

Osmonlar suyanadi. (“Birinchi sevgi” she'ri 111- bet)

4.Kiyik, quralay so'zi orqali hosil bo'lgan metafora

Ohu so'ziga uyadosh bo'lgan kiyik va quralay so'zlarining ham she'riyatda qo'llanishi yor ko'zlarining go'zalligiga ishoradir.

Baodomqovoq qiyiq ko'zlari,

Begonadan tiyiq ko'zlari.

Quralaymi, kiyik ko'zlari

Mening Bag'dodimning qizlari. (“Mening Bag'dodimning qizlari” she'ri 171- bet)

5.Toychoq, yo'rg'a so'zi orqali hosil bo'lgan metafora

Iqbol Mirzoning ushbu she'rda o'tkir tanqid ruhi mujassam. Toychoq - yoshlar, yetishib kelayotgan yangi kadrlar bo'lsa, qari yo'rg'alar esa ba'zi mansabdan tushishni istamaydigan, yoshlarni qo'llab - quvvatlamaydigan insonlar tasviridir.

Afsuski, havoga do'nmas g'o'ralar,

Toychoqqa yo'l bermas qari yo'rg'alar.

(“Afsuski” she'ri 198- bet)

6.Tulpor so'zi orqali hosil bo'lgan metafora

Ushbu misralarda shoir tulpor so'zi orqali g'ururli insonlarni ifodalagan. She'rda yopiq istiora qo'llangan:

Oq tulporim, qorako'z,

G'ururi bor dilida.

Tilin qo'yib aytmas so'z

Birovlarning tilida. (“Toshpo'lat akaning qo'shig'I” she'ri 209- bet)

7. Baliq soʻzi orqali hosil boʻlgan metafora

Uchlik sheʼrda baliq timsolida jim turish maʼnosi bor. “tili boshiga yetdi” iborasini bu oʻrinda eslash kifoya.

Uvildiriq kabi

Baliq boʻlasanmi

Yo yem-

Xudo biladi. (60- bet)

8. Eshak soʻzi orqali hosil boʻlgan metafora

Ushbu parchada inson erki va har kimning bir- biriga yordami borligi tasvirlari keltirilgan.

Mustaqillik hammaqayam mukofot emas,

U kimgadir musibat shaksiz.

Boshvoqsiz eshak uzoq ketolmas ,

Mullaning ham yoʻli unmas eshaksiz. (“Mustaqillik” sheʼri 125- bet)

Iqbol Mirzo sheʼrlarida hayvonlar bilan bogʻliq metamorflardan tashqari hasharotlar bilan bogʻliq metaforalar ham talaygina.

• Hashoratlar nomi bilan bogʻliq zoomorfik metaforalar:

Oʻrgimchak soʻzi orqali hosil boʻlgan metafora

Misollarda oʻrgimchak toʻri baliq tutuvchi toʻr - maqsad maʼnosida, tuzoq – toʻsiq maʼnosida qoʻllangan.

Oʻrgimchak toʻrini daryoga soldim,

Tillo baliq tutib, ziyoga soldim. (“Telba xayol” sheʼri 122- bet)

Yoki:

Oʻrgimchak toʻrida

kamalak

jilosi...

Qiziq,

kinga atalgan boʻlsa bu tuzoq... (“Sanʼat” sheʼri 14- bet)

Kapalak soʻzi orqali hosil boʻlgan metafora

Kapalak- aldamchi (baʼzan yengiltak) qizlar timsoli.

Sheʼrda shoir aldamchi qizlarni kapalaklar soʻziga koʻchirib metafora hosil qilgan.

Oshiqib oʻtdim men, dil shoshdi,

Meni kapalaklar aldashdi. (“Koʻrdim” sheʼri 156- bet)

Chigirtka soʻzi orqali hosil boʻlgan metafora

Kapalak oʻzin urmas haroratsiz shuʼlaga,

Chigirtka ham joʻr boʻlmas begona ashulaga. (“Asragil” sheʼri 73- bet)



Kapalak va chigirtka soʻzlari orqali yopiq istiora berilgan. Bunda odamlardagi oʻziga daxldor boʻlmagan narsaga aralashish, egalik qilishga intilish illatlari qoralangan. Iqbol Mirzo sheʼrlarida qoʻllangan zoomorfik metaforalarni birgina tadqiqotda sigʻdirib boʻlmaydi. Bu borada maqola va tezislarda fikrlarni davom ettirish va zoomorflar lugʻatini yaratish ham oʻrinlidir.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Iqbol Mirzo sheʼriy asarlarida qoʻllangan zoomorfik metaforalar oʻzbek xalqining ijtimoiy va madaniy hayotida juda muhim oʻrin tutgan va kundalik turmushida muntazam munosabatda boʻlingan hayvon hamda parrandalar nomi boʻlib, ular majoziy maʼnoda ezgulik va yovuzlik, yaxshilik va yomonlik, toʻgrilik va egrilik, tozalik va ifloslik, goʻzallik va xunuklik, erkinlik va tutqinlik kabi tushunchalarni ifodalab kelgan. Alohida taʼkidlash oʻrinliki, oʻzbek tili boʻyicha yaratiladigan izohli lugʻatlarda shoir tomonidan qoʻllangan zoomorf metaforalarni qayd etish, ularning izohini keltirish maqsadga muvofiqdir. Chunki ular til va madaniyatimizning ajralmas tarkibiy qismidir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI: (REFERENCES)**

1. A.Hojiyev. Oʻzbek tili sinonimlarining izohli lugʻati. – Toshkent. 1974.
2. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: “Oʻqituvchi”, 2001. – 556 b
3. Iqbol Mirzo. Seni bugun koʻrmasam boʻlmas. Toshkent. Gʻafur Gʻulom. 2018.
4. IqbolMirzo. Koʻnglingda nimabor, bilmayman. – Toshkent: Sharq, 2020
5. Iqbol Mirzo. Koʻzlaringga termulsaydim. Toshkent. Sharq -2020.
6. Iqbol Mirzo . Agar jannat koʻkda boʻlsa .. Toshkent. Sharq-2018.
7. Iqbol Mirzo. Seni bugun koʻrmasam boʻlmas. – Toshkent: “Istiqlol”, 2005. – B. 27.
8. Iqbol Mirzo. Sizni kuylayman. – Toshkent, 2007. –

## ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANGAN HOLDA DARS MASHG'ULOTINI TASHKIL ETISH METODLARI

**Zokirov Sanjar Ikromjon o'g'li**

f.-m.f.b. PhD, TATU Farg'ona filiali

**Rahmatova Gavharoy Muhammadali qizi**

assistent, TATU Farg'ona filiali

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ta'lim jarayoniga o'yinli yondashuv va o'yin elementlaridan foydalanish usullari muhokama qilingan. Amaliy informatika ta'lim yo'nalishi talabalari bilan o'tkazilgan pedagogik tajriba va uning natijalari keltirilgan. Olingan eksperimental ma'lumotlarga asoslangan holda, o'quv jarayonida kompyuter o'yinlari elementlaridan foydalanish yuqori samaradorlikka erishishga imkon berishini ta'kidlangan.

**Kalit so'zlar:** kompyuter o'yinlari, gamifikatsiya, tadqiqodchilik, reproduktiv, ilyustratsiyalash.

### KIRISH

XI asrda insoniyat sivilizatsiyasi taraqqiyotida yangi davr – axborot jamiyati davri boshlandi. Axborot va telekommunikatsiyalarning jadal rivojlanishi, axborot texnologiyalarining jadal tarqalishi, jamiyat taraqqiyotining globallasuvi, xalqaro kommunikativ hayot muhiti, ta'lim, aloqa va ishlab chiqarishning shakllanishi, infosferaning rivojlanishi bilan tavsiflanadi. Axborot jamiyatining tashkiliy-texnologik asosini global axborot tarmog'i – Internet tashkil etadi.

Global Internet tizimining rivojlanishi jahon ta'lim tizimini evolyutsion takomillashtirish uchun yangi istiqbollarni ochdi. Bugungi kunda an'anaviy o'qitish usullari internet, elektron hisoblash tizimlari va telekommunikatsiya muhitiga asoslangan yangi o'qitish usullari bilan to'ldirilmoqda. Internet-texnologiyalari asosidagi tele-ta'lim va masofaviy ta'lim bir qator yangi funksiyalarni bajarishdan tashqari, o'zaro taqsimlangan hamkorlik, integratsiya, xalqaro Internet tarmog'iga kirish kabi muayyan tamoyillarni amalda qo'llashni talab qiladi.


Bugungi kunda aksariyat yoshlarning soatlab kompyuter ekrani qarshisida o'tirishi xech kimga sir emas. Faqat shunisi achinarliki, ular ana shu vaqtlarini

qandaydir “o‘zga sayyoraliklar bilan kurashish” yoki “maxsus xizmatning maxfiy topshiriqlarini bajarish” bilan o‘tkazadilar. Chunki yoshlar uchun kompyuter, eng avvalo o‘yinchoq kabi oddiy ko‘ngil ochar vosita. Shuning uchun odatda ularning kompyuter bilan tanishuvi kompyuter o‘yinlari orqali amalga oshadi. Lekin shuni unutmaslik kerakki, kompyuter o‘yinlari juda qudratli ijtimoiy-psixologik ta’sir ko‘rsatuvchi omil hisoblanadi. G‘oyaviy va grafik jihatdan mukammal yaratilgan, kishining butun diqqat-etiborini o‘ziga torta oladigan kompyuter o‘yinlari har qanday o‘quvchining ruhiy holatiga ta’sir qila olish xususiyatiga ega. Vayronkorlik, qonxo‘rlik, zulm, zo‘ravonlik kabi tuban g‘oyalar olg‘a surilgan o‘yinlarni muntazam o‘ynashlari natijasida yoshlarda bunday tushunchalarga nisbatan befarqlik tuyg‘usi shakllanishiga yo‘l ochiladi. Bu esa mamlakatimiz mustaqilligi, yurtimiz tinchoqsoyishtaligini saqlashga qilinayotgan urinishlar, yosh avlod ongiga ona yurtga muhabbat, yurtga sadoqat tuyg‘ularini singdirishga bo‘lgan harakatlarimizga to‘sqinlik qiladi. “yoshlar bilan ishlash Prezidentdan tortib vazirgacha, hokimdan tortib mahalla raisigacha – hammamizning eng asosiy ishimizga aylanishi zarur. Har qaysi hokim, har bir vazir, har qaysi mahalla raisi “Bugun men yoshlar uchun nima ish qildim? Ertaga farzandlarimiz manfaati uchun yana nima ish qilishim kerak?” degan savollarga javob beradigan, shunday e’tiqod bilan yashaydigan vaqt keldi” – degan edi Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev[1]. Shunday ekan global ravishda rivojlanish bilan bir qatorda turli mafkuraviy taxdidlar yuzaga kelayotgan bir davrda, yosh avlod qalbida milliy g‘oya va sog‘lom dunyoqarashni mustahkamlash, ularni xar qanday ma’naviy tajovuzga qarshi sobit tura oladigan, mustaqil fikrga ega, barkamol inson qilib tarbiyalash xar birmizning burchimizdir.

Yuqoridagi burchimizni amalga oshirish uchun, avvalo, chetdan kelayotgan xar qanday g‘oyaviy yot axborotlarning, jumladan kompyuter o‘yinlarining ta’siridan yoshlarimizni himoya qilish chora-tadbirlarini ishlab chiqishimiz lozim. Albatta internet tarmog‘i va xar xil xotira qurilmalari orqali muomalaga kiritilayotgan o‘yinlarni butunlay surib chiqarishning imkoni yo‘q. Xamonki ba’zi yoshlarni kompyuter o‘yinlarining salbiy ta’siridan qutqara olmas ekanmiz, bu ta’sirni engishning yo‘li menimcha, faqat bitta: chet el davlatlari firmalari tomonidan taqdim qilinayotgan befoyda o‘yinlar o‘rniga ular bilan raqobatbardosh, shu bilan birga milliy ruhda yaratilgan, ssenariysi aynan O‘zbekiston ta’lim tizimida o‘quvchilarni o‘qitishda qo‘llanilayotgan o‘quv dasturlari va DTSga mos keladigan o‘yinlar yaratishdir. Chunki fikrga qarshi fikr, g‘oyaga qarshi g‘oya, jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish eng to‘g‘ri yo‘l ekanligi hammaga ayon.

## ADABIYOTLAR TAHLILI

So‘nggi yillarda kompyuter o‘yinlaridan didaktik ta‘lim-tarbiya vositasi sifatida foydalanish masalasi ilmiy tadqiqotchilar, psixologlar va pedagoglar tomonidan keng miqyosda o‘rganilmoqda. Ayniqsa, maktabgacha ta‘lim muassasalarida ta‘lim-tarbiya jarayonini [2] tashkillash, kichik [3, 4] va o‘rta [5] yoshdagi o‘quvchilarning muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish, qolaversa, OTM larda maxsus fanlarni o‘qitishda kompyuter o‘yinlaridan foydalanishning samadorligini aniqlash borasida ko‘plab ishlar amalga oshirilmoqda [6]. Xususan, oliy va o‘rta ta‘lim tizimida informatika fanining ayrim bo‘lim va yo‘nalishlarini o‘qitish samadorligini oshirishda kompyuter o‘yinlaridan foydalanish usullarini ishlab chiqish va amalda joriy qilish borasida faol izlanishlar olib borilmoqda. Pavlova Ya.V. ishlarida [7] o‘quvchilarning kognitiv qiziqishini rivojlantirish uchun didaktik o‘yinlardan foydalanishning umumiy masalalari ko‘rib chiqilgan. Kompyuter didaktik o‘yini tushunchasi va uni informatika darslarida qo‘llash usullari ochib berilgan. K.L.Fadeyeva ishlarida [8] esa ta‘lim jarayonini rivojlantirishning samarali usullaridan biri “Gamifikatsiya” ekanligi ta‘kidlangan. Maqolada "Gamifikatsiya" tushunchasi insonning ijodiy qobiliyatlarini ochib berishga va uni muvaffaqiyatga undashga imkon beruchi jarayon sifatida ta‘riflangan. Ushbu maqolada ta‘lim jarayoniga o‘yinli yondashuv va o‘yin elementlaridan foydalanish sifatida “Gamifikatsiya” texnologiyasidan foydalanish usullari muhokama qilingan. Amaliy informatika ta‘lim yo‘nalishi talabalari bilan o‘tkazilgan pedagogik tajriba va uning natijalar keltirilgan. Olingan eksperimental ma‘lumotlarga asoslangan holda, muallif o‘quv jarayonida Gamifikatsiya elementlaridan foydalanish yuqori samaradorlikka erishishga imkon berishini ta‘kidlagan. Umuman olganda, “Gamifikatsiya” tushunchasi dastlab 2013 yillarda nashrlarda paydo bo‘lgan bo‘lsa, o‘tgan 10 yil davomida ushbu termin va u bilan bog‘liq holda kompyuter o‘quv o‘yinlaridan ta‘lim maqsadlarida foydalanishga bag‘ishlangan ilmiy maqolalar soni keskin ortib bormoqda (1-rasm).



1-rasm. “Gamifikatsiya” atamasi va kompyuter o‘yinlaridan ta‘lim maqsadlarida foydalanish masalalariga bag‘ishlangan maqolalar sonining dinamikasi [9].

I.I.Gusev tahlillariga qaraganda [9], e-library ochiq ilmiy nashrlar portalida 2016-2019 yillar oralig'ida e'lon qilingan ishlarning 700 ga yaqini ta'limda gamifikatsiya elementlaridan, hususan kompyuter o'quv o'yinlaridan foydalanishga bag'ishlangan maqola ekanligi ko'rsatilgan. Shundan 43% qismi universitet, 45% qismi maktab, 12% qismi qo'shimcha ta'lim miqyosida o'rganilgan. Oliy ta'limda geymifikatsiyani qo'llashning asosiy yo'nalishlari chet tili (70%), matematika (20%), informatika/dasturlash (10%) ekanligi aniqlangan.

### **FOYDALANILADIGAN METOD**

Ta'lim jarayonlari amaliyotida o'qitishning to'rtta asosiy metodidan foydalaniladi[10]. Bular:

- tushuntirish-illyustratsiyalash;
- reproduktiv;
- muammoli;
- tadqiqotchilik.

O'qitishning axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanilgan tadqiqotchilik metodi ta'lim oluvchilarning ma'lum tematika doirasida ilmiy-texnik tadqiqot olib borish jarayonidagi mustaqil ijodiy faoliyatini ko'zda tutadi. Bu metoddan foydalanilganda ta'lim faol tadqiqot, kashfiyot va o'yin natijasi sanaladi, buning natijasida, odatda, yuqorida sanab o'tilgan metodlardan foydalanilganidan ko'ra yoqimliroq va muvaffaqiyatliroq bo'ladi. O'qitishning muammoli metodi metod, ob'ekt va vaziyatlarni ularga ta'sir o'tkazish jarayonida o'rganishni ko'zda tutadi. Muvaffaqiyat qozonish uchun ta'sirlarga reaksiya qiladigan muhitning bo'lishi zarur. Bu ma'noda tengsiz vosita modellashtirish, ya'ni real ob'ekt, vaziyat yoki muhitning dinamikada imitatsion tasavvuri sanaladi.

Kompyuter modellari o'zining nozikligi va universalligi tufayli boshqa tur modellariga qaraganda qator jiddiy ustunliklarga ega. Modellarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalarida qo'llash vaqtning borishini sekinlashtirish yoki, aksincha, tezlatish, makonni toraytirish yo kengaytirish, qimmat, xavfli yoki real dunyoda umuman mumkin bo'lmagan amallarning bajarilishini imitatsiyalash imkonini beradi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalarining ta'limning boshqa texnik vositalariga qaraganda asosiy ustunliklari nozikligi, ta'limning turli modellari va algoritmlariga sozlash, shuningdek har bir ta'lim oluvchining xatti-harakatlariga yakka tartibda reaksiya qilish imkoniyati sanaladi. Bunday vositalardan foydalanish ta'lim jarayonini yanada faollashtirish, unga tadqiqotchilik va izlanuvchanlik xarakterini bag'ishlash imkonini yaratadi. Darsliklar, televidenie va kinofilmlardan farqli o'laroq, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ta'lim oluvchining xatti-harakatiga zudlik

bilan javob berish, turli toifadagi ta'lim oluvchilar uchun materialni takrorlash, tushuntirish, puxtaroq tayyorgarlikka ega bo'lgan ta'lim oluvchilar uchun yanada murakkab va o'ta murakkab materialga o'tish imkoniyatini ta'minlaydi. Bunda individual sur'atlarda o'qitish oson va tabiiy tarzda amalga oshiriladi.

Bilimlar hajmining ortib borishi va tahlil metodlarining murakkablashishi bilan ta'limni asosan ma'ruzalarni passiv tinglash hamda o'quv matnlarini o'qish tamoyili asosida tashkil etish tobora qiyinlashib bormoqda. Tanqidiy fikrlash, murakkab muammolarni tushunish va hal qilish malakalari, juda katta hajmdagi dastlabki ma'lumotlarni foydali umumlashtirish qila olish qobiliyati – bularning hammasi katta ahamiyat kasb etib, talabdan yanada faol bo'lishni talab etadi. Aynan, shu nuqtai nazardan kompyuter ta'lim sohasi uchun nihoyatda keng imkoniyatlar taqdim qiladi.

Shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalarining amaliy tomoni ulardan o'quv jarayonida foydalanish va kelgusida ta'lim tizimida o'quv jarayoni uchun ma'lumotlar bazasini va virtual stendlar yaratishdek muhim vazifani amalga oshirishga zamin hozirlaydi.

### **Kompyuter o'yinidan foydalanishning na'munaviy ssenariysi**

Tasavvur qiling, o'quvchi kechasi bilan uyida biror tarixiy davr yoki shaxs bilan bog'liq kompyuter o'yinini o'ynab, ertasiga darsga kelsa, o'qituvchi aynan o'sha davr adabiyoti yoki tarixini (tasodifan bo'lishi mumkin-ku!) og'zaki ravishda, boringki qandaydir surat yoki video materiallar bilan tushuntirishga harakat qilsa. Nima deb o'ylaysiz, kechagina o'yin vositasida o'zi shu davrda "yashagan" o'quvchi uchun bu dars qiziq bo'lishi mumkinmi? Dars davomida (yoki to'garak mashg'ulotlarida) o'quvchining o'yinidan-da qiziqarliroq, shu bilan bir qatorda mavzuga to'la mos keladigan o'yindan foydalanilsa-chi? Qanday deysizmi? Taxminan quyidagicha:

Mavzu: "To'maris" afsonasi (yoki Shiroq afsonasi)

Kompyuter o'yinining interfeysi va imkoniyatlariga bo'lgan talablar:

O'yin interfeysi va imkoniyatlarini yaratishda "To'maris" afsonasida ishtirok etgan tarixiy shaxslar, qo'shin bo'linmalari va ularning bo'lajak jangdagi vazifasi, o'sha davrda qo'llangan qurollar, geografik joy nomlari, sana va ob-xavo sharoiti, jang maydonining taxminiy rel'efidan foydalanilgan bo'lishi kerak. O'yindagi tarixiy shaxs va bo'linmalarni o'quvchilar sonidan kelib chiqqan holda bir yoki bir necha o'quvchi bir-biridan mustaqil ravishda boshqara olishi va albatta o'yinda kompyuter tarmog'idan foydalanish imkoni bo'lishi lozim. Bundan tashqari darsga oid unutilgan bilimlarni yodga solish uchun ma'lumotnoma tizimi bo'lishi kerak. O'yin xar safar yuklanganda To'maris va u yashagan davr, Eron shohi hamda uning xukmronligi bilan bog'liq tarixiy faktlar, mavzuning mazmuni videorolik, multfilm yoki xujjatli film sifatida qisqacha eslatib o'tilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Mashg'ulotni tashkil etish:

O'quvchilar umumiy ikki guruhga bo'linadi. Ulardan biri To'maris qo'shinini, ikkinchi guruh dushman qo'shinini boshqaradi (dushman qo'shinini boshqarish kompyuter zimmasiga yuklansa, sinf o'quvchilari bir jamoa bo'lib ishtirok etishlari mumkin bo'ladi). O'yinning imkoniyatidan kelib chiqqan holda har bir guruh yana bir necha kichik guruhlarga bo'lingan holda yoki har ikki guruh a'zolari (keyingi o'rinlarda umumiy holda A'ZO) mustaqil ravishda biror tarixiy shaxs yoki qo'shin bo'linmasini boshqarishi lozim. To'maris yoki bo'linma sardorlari sifatida boshqalarga nisbatan mukammalroq nazariy bilimga ega bo'lgan o'quvchilardan tanlab olinishi mumkin. O'yindagi tarixiy shaxs yoki qo'shin bo'linmasining alohida a'zo tomonidan boshqarilishi u yoki bu tomonning o'yinda g'alaba qozonishi uchun har bir a'zoning ma'lum bilimlar bilan qurollanishini taqozo etadi. Guruh a'zolari qanchalik ko'p bilim va mustaqil fikrlash qobiliyatiga ega bo'lsalar, ularning g'alabaga erishlari shunchalik oson bo'ladi.

### **Mashg'ulot natijasida erishiladigan yutuqlar:**

1. To'maris yoki bo'linma sardorlari sifatida boshqalarga nisbatan mukammalroq nazariy bilimga ega bo'lgan o'quvchilardan tanlanishi o'quvchilar o'rtasida bilim jihatdan raqobatlashish ruhini uyg'otadi. Ular sardorlarni boshqarish huquqini qo'lga kiritish uchun ham ko'proq mustaqil o'qishga harakat qiladilar;
2. A'zolarida har qanday muammoni bir jamoa bo'lib, axil xal qila olish ko'nikmasi shakllanadi;
3. O'quvchilarning mavzuga oid tarixiy shaxslar, qurollar, davrning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sharoiti, atamalar hamda tarixiy voqealar bilan bog'liq bilimlari nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham mustahkamlanadi;
4. Mustaqil yurtimiz tinchligini saqlashga xizmat qiladigan muntazam professional qo'shinimizga strategik fikrlash qobiliyati yoshlikdan shakllangan xarbiy kadrlarni etishtirib berish imkoni tug'iladi;
5. Asosiysi o'quvchilar o'yindan estetik zavq olishi natijasida ularda fanga bo'lgan qiziqish yanada ortadi;
6. O'yinda kutilmagan holatlarning yuzaga kelishi nafaqat o'quvchilar, balki o'qituvchilardan ham doimiy izlanishni talab qiladi.

### **XULOSA**

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, yuqoridagi kabi usulda mashg'ulotlarni tashkillashning bir qancha afzalliklari bilan bir qatorda ko'plab kamchiliklar ham mavjud albatta. Ulardan biri real tarixiy voqea bilan kompyuter o'yinlarining yo'qligi (O'zbekiston tarixini nazarda tutilyapti) bo'lsa, ikkinchisi jahon tarixi bilan bog'liq kompyuter o'yinlarining ko'p variantlilikidir. Bundan tashqari ular ta'lim uchun emas, balki ko'ngil ochish uchun yaratiladi. Bu haqida ko'plab kompyuter

o‘yinlari muallifi S.Meyer shunday deydi: «Biz yaratayotgan o‘yinlarning maqsadi ta’lim berish ekanligiga ishonchim komil emas. Firaxisda yaratilayotgan o‘yinlar, birinchi navbatda yuqori sifatli ko‘ngil ochar vositadir. Biz tanlaydigan mavzularda ta’lim elementlari uchrasa-da, kimgadir ta’lim berishni maqsad qilib qo‘ymaganmiz» Birinchi kamchilik natijasida umuman mashg‘ulot tashkil qilishning imkoni yo‘q. Ikkinchi kamchilik esa o‘quvchilarda noto‘g‘ri bilim va tasavvur hosil bo‘lishiga olib keladi. Xar ikki muammoning echimi bitta: milliy ruhda yaratilgan, ssenariysi aynan umumiy o‘rta ta’lim tizimida tarix va adabiyot fanlarini o‘qitish uchun chiqarilgan dastur va DTSga mos keladigan o‘yinlar yaratilishi kerak.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Mirziyoev, Sh.M. (2020). Yoshlar kelajagi bilan bog‘liq har qanday vazifa birlamchi ahamiyatga ega. Manba: <https://yuz.uz/news/shavkat-mirziyoev-yoshlar-kelajagi-bilan-bogliq-har-qanday-vazifa-birlamchi-ahamiyatga-ega>
2. Низомова Шохиста Шодиевна (2020). Способы использования компьютерных развивающих игр в дошкольном образовании. Проблемы педагогики, (6 (51)), 51-52.
3. Султанова, В. С., & Емельянова, Т. В. (2021). Компьютерные дидактические игры как средство формирования коммуникативных умений младших школьников. Актуальные вопросы теории и практики развития научных исследований, 30-32.
4. Варченко, В. И. (1998). Дидактические условия использования компьютерных технологий в начальной школе (Doctoral dissertation, ВИ Варченко).
5. Высоченко, В. А., & Архипова, А. И. (2007). Образовательные проекты с компьютерной поддержкой. Школьные годы, (13), 11-19.
6. Яценко, М. А., & Иеронова, И. Ю. (2019). Дидактическая компьютерная игра как средство обучения английскому языку в вузе. In Colloquium-journal (No. 13-2, pp. 288-291). Голопристанский міськрайонний центр зайнятости Голопристанский районный центр занятости.
7. Павлова, Я. В., & Сакович, С. И. (2019). Применение дидактических компьютерных игр в процессе обучения информатике. Вопросы педагогики, (11-1), 193-196.
8. Фадеева Клара Николаевна, & Герасимова Алина Германовна (2021). Использование инновационных информационно-коммуникационных технологий при обучении студентов вуза: Элементы геймификации. Вестник Чувашского государственного педагогического университета им. И. Я. Яковлева, (4 (113)), 211-219.



9. Гусев Иван Евгеньевич (2020). Геймификация как инструмент совершенствования профессиональной деятельности педагога в цифровом обществе (обзор публикаций). Проблемы современного педагогического образования, (68-1), 86-91.
10. Begimkulov U.Sh. va b. (2011). Pedagogik ta'limni axborotlashtirish: nazariya va amaliyot. Monografiya, Toshkent, 7-11 betlar.
11. С Зокиров, Г Рахматова. [Использование компьютерных игр в современном образовании: проблемы и решения](#). Engineering problems and innovations, 27-34.
12. С Зокиров, Г Рахматова, З Кадиралиева. [Современные методы подготовки высококвалифицированных кадров в области компьютерной инженерии](#). Engineering problems and innovations. 54-57.

## ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА ЎҚИТУВЧИНИНГ ПЕДАГОГИК МАҲОРАТИНИНГ ПЕДАГОГИК-ПСИХОЛОГИК АСОСЛАРИ

**Сафаров Н.Х**

Сурхондарё вилояти педагогларни янги  
методикаларга ўргатиш миллий маркази  
“Педагогика, психология ва таълим технологиялари” кафедраси мудир

### АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада таълимда ўқитувчи фаолиятининг муҳим аҳамияти, педагогик маҳорат, ўқитувчининг педагогик маҳоратининг компонентлари, педагогик маҳоратни шакллантирувчи омиллар замонавий ўқитувчининг бурчи ва масъулияти тўғрисида фикр ва мулоҳазалар юритилган.

**Калит сўзлар.** Педагогик маҳорат, замонавий ўқитувчи, таълим, шахсий фазилят, узлуксиз таълим, маданият, таълим жараёни.

Мамлакатимизда амалга оширилаётган таълим сиёсатининг муҳим омилларидан бири ёш авлодни ҳар томонлама етук, баркамол қилиб тарбиялашдан иборат. Инсон шахси ҳақида гап кетганда албатта кўз ўнгимизда комилликка интилган маънавий жиҳатдан етук жамиятнинг тараққий этишига муносиб ҳисса қўша оладиган юрт равнақининг бугуни ва эртасини ўйлайдиган шахсни келтирамиз. Шу ўринда президентимиз Ш.М.Мирзиёевнинг қуйидаги фикрларини келтирамиз: **“Ёшларимизнинг мустақил фикрлайдиган, юксак интеллектуал ва маънавий салоҳиятга эга бўлиб, дунё миқёсида ўз тенгдошларига ҳеч қайси соҳада бўш келмайдиган инсонлар бўлиб камол топиши, бахтли бўлиши учун давлатимиз ва жамиятимизнинг бор куч ва имкониятларини сафарбар этамиз”**.

Ўз келажагига бефарқ бўлмаган, ёруғ ва фаровон кунларини унинг эгалари бўлмиш ёш авлод истиқболида кўрган миллат таълим-тарбияга алоҳида эътибор қаратади.

Республикамизда амалга оширилаётган ижтимоий-иқтисодий ўзгаришлар, янгилашлар давр ўқувчи ёшларимиз тақдири, уларнинг ёруғ истиқболига мустаҳкам пойдевор бўлиб хизмат қилмоқда.

Республика таълим тизимида олиб борилаётган ислохотларнинг муваффақиятини таъминлаш, таълим муассасаларида фаолият олиб бораётган ўқитувчи, тарбиячи, ишлаб чиқариш усталарининг маънавий қиёфаси ҳамда касбий маҳоратларига боғлиқдир. Ўқувчи шахсни тарбиялаш иши ниҳоятда

мураккаб фаолият жараёни бўлиб, жуда қадимдан ушбу фаолиятга жамиятнинг етук намоёндалари жалб этилган. Мазкур ҳолат ёш авлод тарбияси, унинг ташкил этилиши мазмуни нафақат шахс камолоти, балки жамият тараққиётини ҳам белгилашда муҳим аҳамиятга эга эканлигини англатади.

Узлуксиз таълим тизимини амалга ошириш жараёнида ёш авлодни кўнгилдагидек ўқитиш ва тарбиялаш ҳақида гап борар экан бундай ғоят мураккаб ва кўп қиррали вазифани фақат юксак малакали ва педагогик маҳоратга эга бўлган ўқитувчилар билангина амалга ошириш мумкинлини таъкидлаш мумкин.

Ўқитувчининг шахсий фазилатлари ахлоқий баркамоллик, саховатпешалик, меҳрибонлик, талабчанлик, маънавий поклик, покизалик, вазминлик, мулойимлик, сабр-тоқатлилик ва бошқалардир.

Ўқитувчининг касбий фазилатлари: ўз соҳасининг пухти билимдони бўлиши, ҳунар усулларини содда усулда тушунтириш ҳаётий тажрибалар асосида тарбиялаш, шогирдларининг ютуқ-камчиликларини идрок эта олиш, нутқ маданиятига эга бўлиш шахсий намуна бўла олиш кабилар киради.

Барча касблар орасида ўқитувчилик касби ўзгача ва муҳим ижтимоий аҳамият касб этади. Зеро, ўқитувчи ёш авлод қалби камолотининг меъмори, ёшларга таълим-тарбия берувчи инсондир. Бугунги кунда у ёшларни ғоявий-сиёсий жиҳатдан чиниқтириб, табиат, жамият, ижтимоий ҳаёт, тафаккур тараққиёти қонуниятларини ўргатади, ёшларни меҳнат фаолиятига тайёрлаб, касб-ҳунар сирларини пухта эгаллашларида кўмаклашади ва жамият учун муҳим бўлган ижтимоий-иқтисодий вазиятларни ҳал этади. Ана шу маъсулият ўқитувчидан ўз касбининг моҳир устаси бўлишни, таълим олувчиларга тарбиявий таъсир кўрсатиб, уларнинг қизиқиши, қобилияти, истеъдоди, эътиқоди ва амалий кўникмаларини ҳар томонлама ривожлантириш йўлларини излаб топадиган касб эгаси бўлишни талаб этади.

Тадқиқотчи олимларимиз томонидан педагогик маҳоратга қуйидагича таъриф берилади: Педагогик маҳорат – ўқитувчининг шахсий (болажонлиги, хайрихоҳлиги, инсонпарварлиги, меҳрибонлиги ва ҳ.к.) ва касбий (билимдонлиги, зукколиги, фидойилиги, ижодкорлиги, қобилияти ва ҳоказо.) фазилатларини белгиловчи хусусият бўлиб, ўқитувчининг таълим-тарбиявий фаолиятида юқори даражага эришишини, касбий маҳоратини доимий такомиллаштириб бориш имкониятини таъминловчи фаолиятдир. У ўз фанини мукамал билган, педагогик-психологик ва методик тайёргарликка эга бўлган, ўқувчиларни ўқитиш, тарбиялаш ва ривожлантиришнинг оптимал йўлларини излаб топиш учун, амалий фаолият олиб борадиган ҳар бир ўқитувчининг касбий

фаолиятида намоён бўлади. Ўқитувчининг педагогик маҳорати қуйидаги компонентлари мавжуд.

1. Маданиятнинг юқори даражаси, билимдонлик ва ақл-заковатнинг юқори кўрсаткичи.
2. Ўз фанига оид билимларнинг мукамал соҳиби.
3. Педагогика, психология фанлари соҳасидаги билимларни пухта эгаллаганлиги, улардан касбий фаолиятда фойдалана олиш.
4. Тарбиявий ишлар методикасини мукамал билиши.
5. Педагогик инсонпарварлик талабларига бўйсунуш.
6. Касбга оид билимларни бошқа фанлар билан алоқадорликда мукамал билиши.

Ўқитувчининг касбий педагогик тайёргарлиги шартли равишда қуйидаги йўналишларда олиб борилади:

- 1) Ўқитувчининг шахсий фазилатлар бўйича тайёргарлиги.
- 2) Ўқитувчининг руҳий – психологик тайёргарлиги.
- 3) Ўқитувчининг ижтимоий – педагогик ва илмий – назарий жиҳатдан тайёргарлиги.
- 4) Ўқитувчининг махсус ва ихтисосликка оид услубий билимларни эгаллаб бориши.

Яна таъкидлаш жоизки, педагогик маҳорат ўқитувчи-тарбиячи шахсий ва касбий сифатларининг йиғиндиси бўлиб, ўқитувчи маҳоратини шакллантиришни таъминловчи омилларни, педагогик–психологик, методик билимларни доимий эгаллаб бориши лозим.

Ўқитувчининг юксак педагогик маҳоратни шакллантиришни таъминловчи омиллар қуйидагилар:

а) ихтисослик бўйича ўқув предметини, замон, илм–фан, техника тараққиёти даражасида мукамал билиши, унинг бошқа ўқув фанлари билан ўзаро алоқадорлигини таъминлаш малакасига эга бўлиши;

б) таълим олувчиларнинг ёш, физиологик, психологик ҳамда шахсий хусусиятларини ҳисобга олиши, уларнинг фаолиятини объектив назорат қилиши ва баҳолаши;

в) таълим жараёнини демократлаштириш ва инсонпарварлаштириш асосида ўз фаолиятини ташкил этиши;

г) ўқув – тарбиявий жараёни замон талаблари даражасида ташкил қилиш учун асосий педагогик– психологик, методик маълумотга эга бўлиши;

д) фанларни ўқитиш жараёнида замонавий ахборот технологиялари имкониятларидан кенг фойдаланишни билиши;

XXI асрга келиб ўқитувчининг вазифаси янада такомиллашиб бормоқда. Эндиликда глобал ўзгаришлар, фан-техника ва ахборот-коммуникация технологияларининг кун сайин ривожланиб бориши ўқитувчидан юксак маҳоратни, ўткир иродани, психологик қувватни, чуқур билим ва мулоҳазали бўлишни талаб қилади. Ўқитувчи педагогик, психологик ва мутахассислик йўналишлари бўйича махсус маълумот, касбий тайёргарлик, юксак ахлоқий фазилятларга эга ва таълим муассасаларида фаолият кўрсатувчи шахсдир.

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати: (REFERENCES)**

1. Ишмухаммедов Р., Абдуқодиров А., Пардаев А. Таълимда инновацион технологиялар (таълим муассасалари педагог-ўқитувчилари учун амалий тавсиялар). – Т.: «Истеъдод», 2008.
2. Омонов Н.Т., Хўжаев Н.Х., Мадярова С.А., Эшонов Э.У. Педагогик технологиялар ва педагогик маҳорат. - Т.: «Иқтисод-Молия», 2009.
3. Қурбонова Г.А. Бугунги кундаги ўқитувчининг педагогик маҳорат ва педагогик бурчи. Узлуксиз таълимни ривожлантиришнинг ижтимоий мониторинги, жараёнининг илмий асослари ва натижавийлиги. Илмий-амалий анжуманидаги маърузаси. - Т.: 2013.
4. Нишонова С. Шарқ Уйғониш даври педагогик фикр тарихида баркамол инсон тарбияси. Пед. фан. докт. дисс. - Т., 1998.

## SO‘ZLASHUV NUTQIDA LAQABLARNING QO‘LLANISHI

**Xusanova Zarifa**

SamDU, Samarqand

### ANNOTATSIYA

Laqablarning qo‘llanishi, avvalo, xalq jonli so‘zlashuv tilida paydo bo‘adi va undan so‘ng ommalashadi, keyin badiiy asar tiliga ko‘chadi. So‘zlashuvda laqablarning paydo bo‘lishi aholining geografik joylashuviga, etnik qatlamiga, kasb-hunariga, fe‘l-atvoriga bog‘liq bo‘libgina qolmay, balki laqab beruvchi subyektning yoshi, mashg‘uloti hamda intellektual salohiyati, shuningdek, ijtimoiy hayot bilan hamnafas yashashiga ham bog‘liq. Laqablar jonli so‘zlashuv tilining ilk elementlaridan biridir. Ushbu kichik tadqiqotda Samarqand aholisi jonli nutqidan olingan laqablar lingvistik tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** so‘zlashuv tili, shevalar, hududiy va etnik qatlam, laqab, ism-sharif, an‘anaviy va zamonaviy laqab, laqablar semantikasi, semantik maydon, ma‘no ottenkasi.

### АННОТАЦИЯ

Употребление прозвищ сначала появляется в разговорном языке народа, затем становится популярным, а затем переходит в язык художественных произведений. Появление прозвища в разговоре зависит не только от географического положения, этнической группы, профессии и характера населения, но и от возраста, деятельности и интеллектуального потенциала, а также от способности дающего прозвище жить с общественной жизнью в одном потоке. Прозвища являются одним из первых элементов разговорной речи. В этом небольшом исследовании лингвистически проанализированы прозвища, взятые из живой речи самаркандцев.

**Ключевые слова:** разговорный язык, диалекты, региональный и этнический слой, прозвище, имя, традиционное и современное прозвище, семантика прозвища, семантическое поле, тонкость значения.

## ABSTRACT

The use of nicknames, initially, appears in the spoken language of people, after that becomes popular, and then moves to the language of artistic works. The appearance of nicknames in communication does not only depend on the geographical location, ethnic layer, profession and craft, character and behavior of the nation, but also on the age, activity and intellectual potential, moreover, the ability of living in one stream with the social life of the subject who gives the nickname. Nicknames are one of the initial elements of spoken language. This small research analyses linguistically the nicknames taken from the spoken language of the population of Samarkand.

**Keywords:** spoken language, dialects, areal and ethnic layer, nickname, name and surname, traditional and modern nickname, semantics of nicknames, semantic field, subtlety of meaning.

Jahon tilshunosligida onomastik birliklarning kommunikatsiya jarayonida eng faol qo'llanadigan va o'z sotsiolingvistik xususiyatlariga ko'ra muhim ijtimoiy, semantik, estetik va lingvo-stilistik va etnomadaniy ma'lumotlar tashuvchi qismi bo'lmish antroponimlar: ism, familiya, laqab, kunya, unvon, niknomlarni ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan o'rganish muhim ahamiyatga molikligi e'tirof etilgan. Shu sababli dunyoning ko'plab mamlakatlarida ushbu leksik birliklarning tarixiy hamda zamonaviy ko'p tomlik izohli, qomusiy lug'atlari yaratilgan, ayniqsa, lisoniy muloqotda faol va keng qo'llanuvchi laqablarning evolyutsiyasi va zamonaviy holati atroflicha yoritilgan tadqiqotlar yaratilgan. Dunyo ilm-fanida antroponimik birliklarning barcha turlari, jumladan, laqablarni ijtimoiy-siyosiy, tarixiy-filologik, lingvomadaniy va etnomadaniy aspektlarda tadqiq etish borasida muayyan tajribalar to'plangan, ilmiy yo'nalishlar vujudga kelgan. Laqablarning tadqiq etish, ularni tasniflash va antroponimik tizimda tutgan o'rnini milliy madaniyatning ilmiy va g'oyaviy-badiiy takomilini, xalqlar va tillar o'rtasidagi aloqalar va o'zaro ta'sir, ijtimoiy munosabatlar, lingvomadaniy jarayonlarni baholashda muhim manba ekanligi tasdiqlangan.

Ma'lumki, jonli so'zlashuv tili umumxalq til ko'rinishlaridan biri bo'lib, bir tomonlama adabiy so'zlashuv tili, ikkinchi tomonlama esa hududiy shevalar bilan aloqada bo'lgan hamda qorishiq xarakteriga ega bo'lgan til ko'rinishidir. Og'zaki so'zlashuv tilining bunday xarakterli xususiyatlari hamda uning tilshunoslikka doir ilmiy-nazariy adabiyotda turlicha nomlanishi haqida mashhur turkolog-lingvist E.D.Polivanov atroflicha to'xtalib, quyidagilarni yozgan edi, ya'ni jonli so'zlashuv tili:

- a) dialekt va shevalar xarakteridagi so'zlashuv tili;
- b) oddiy so'zlashuv tili;
- d) adabiy so'zlashuv tili kabi variantlarga ega.

To'g'ri, bular turli xil ma'nolar ifodalaydi, biroq har bir ifodaning anglatgan ma'nosi bir-biriga yaqin bo'ladi [Polivanov, 1933:17-18]. Jonli xalq tilining bu har uch ko'rinishi tildagi o'zgarishlarni, ayniqsa, til leksik tarkibidagi o'zgarishlarni dastlab o'zida aks ettiradi va ularning bir qismini (ular adabiy normaga aylangach) adabiy tilga transfer qiladi. Bundan tashqari, jonli so'zlashuv umumxalq til ko'rinishlaridan biri bo'lib, u xalq so'zlashuv tili va adabiy til imkoniyatlari asosida shakllanib boradi. Ikkinchidan, jonli so'zlashuv tili imkoniyatlari chegaralangan bo'lib, aksariyat hollarda adabiy til normalariga mos kelmaydi. Ko'rinadiki, jonli so'zlashuv tili adabiy til va uning normalariga mos kelishi yoki mos kelmasligi mumkin. Shunga ko'ra jonli so'zlashuv tili va adabiy til o'rtasidagi leksik va grammatik aloqalar ham doimiy izchildir. Shu bilan birga, jonli so'zlashuv tilining unsurlari ma'lum bir tilda so'zlashuvchi jamoaning hammasi uchun umumiylik va majburiy xarakterga ega emas. Mamlakatimizning turli hududlarida tilimizning uch asosiy lahjasiga xos bo'lgan jonli so'zlashuv tili mavjudligi, bu sheva va jonli xalq tili qorishimi og'zaki-so'zlashuv nutqida har bir lahja va shevaning o'ziga xos jonli so'zlashuv tillari shakllangani va ular kundalik aloqa-aralashuvning adabiy tildan keyingi asosiy va muhim vositasi ekanligi ham ma'lum.

Laqablar jonli so'zlashuv tili mahalliy shevalar bilan chambarchas aloqada rivojlanadi va o'zida o'sha shevaning juda ko'p xususiyatlarini aks ettiradi. Jonli so'zlashuv tilidagi laqablar masalasida ham aynan ana shu holga duch kelamiz.

Bizning kuzatishlarimizga ko'ra, o'zbek tilining Xorazm (o'g'uz) lahjasi, Namangan viloyati Mingbuloq tumani shevalariga tayangan jonli jonli so'zlashuv tilida adabiy tildan farqli laqablar tizimi kuzatiladi va bu shevalardagi laqablar birmuncha o'rganilgan. Boshqa shevalarga asoslangan jonli so'zlashuv tilidagi laqablarni ilmiy o'rganishga hali hanuz kirishilmagan deyish mumkin.

Xorazm shevlaridagi laqablar masalasini maxsus o'rgangan X.M.Qodirova Xorazm shevalarida quyidagi laqablar uchrashini qayd etadi: "kälçik (*kalchik*) – manbada Gurlan, Qo'shko'pir shevalarida "soqov, duduq" odamlarga nisbatan aytilgan. Hozirgi kunda Xorazmning barcha hududlariga tarqalgan bo'lib, duduqlanib, ya'ni qiynalib, tutilib so'zlaydigan kishilarga laqab qilib beriladi: *Ayabek kälçik* (Og'obek kalchik). *Käl* (kal) – sochi yo'q odam. *Öqqi käl* (O'g'iljon kal), bu ayolning sochlari (nima sababdanligini hech kim bilmaydi) o'z-o'zidan bir kun ichida to'kilib qolgan. Shu voqea sabab uni hamma shu laqabi bilan chaqiradi...

*Pashsha* so'zining ma'nosi Xorazm shevalaridagi chivinni ifodalaydi: *Malut ç(i)bin* (*Mavluda chivin*). Odamning jussasi juda kichkina, lekin tirik, chidamli bo'lganligi sababli shu laqab berilgan. *Piyan* (*piyon*) – ichkilikdan kayfi oshgan, mast *Eyam piyan* (Egam piyon), *Aza:m piyan* (Azamat piyon)". Maqolada keltirilishicha,



Xorazm shevalaridagi laqablarning asosiy qismi kishilarning jismoniy fazilat va kamchiliklariga qarab qo'yilgan [*Qodirova, 2020:102*].

Facebook ijtimoiy tarmog'ining "Xorazm va xorazmliklar" ("Хоразм ва хоразмликлар") sahifasida yurtimizning bu mintaqasiga mansub bo'lgan kishilarning o'z shevalaridagi laqablar masalasini alohida muhokama qilganini kuzatish mumkin. 2018-yilning avgust-sentabr oylarida o'tkazilgan bahs va fikr almashuvlarida jami 68 nafar ishtirokchi Xorazm shevalarida, jonli xalq tilida azaldan mavjud bo'lgan va hozirda ham faol qo'llanadigan laqablar xususida qimmatli ma'lumotlar bayon qilingan [*facebook.com, 2022*].

Xorazmda insonlarning ismi bilan qo'shib aytiladigan laqablari sifatida birinchi navbatda kasb-hunar nomi yoki etnik mansubiyat (*qozoq, tojik, chuvash, turkman...*) nomlaridan foydalanish kuzatiladi. Boshqa bir guruhni esa *yonbosh, bodroq, po'rxon, nurat* kabi kelib chiqishi va ma'nosi noma'lum antroponimlar tashkil etadi.

M. Usmonov va Sh. Qosimovanning "Shevalarda laqablar etimologiyasi va ularning ishlatilishi (Mingbuloq tumani misolida)" maqolasida esa Namangan qipchoq shevalari misolida jonli xalq tilida laqablarning qo'llanilishi tahlil etilgan [*Usmonova-Qodirova, 2022*]. Ushbu maqolada Namangan viloyati Mingbuloq tumanida yashovchi sheva vakillarining laqablarini o'rganish ko'nikmalari, shuningdek, kelib chiqish sabablari, etimologiyasi, laqablarning ijobiy-salbiy, xususiy-umimiylik jihatlari va laqablarning qo'yilishining o'ziga xos tarixi, laqab qo'yilgan shaxs yoki oilaning etnik, ijtimoiy kelib chiqishi, belgi-xususiyatlari, kasb-kori, urf-odatlar, nuqsonlari yoritib berilgan. Bu kuzatishlarda ham xalq shevalariga asoslangan jonli so'zlashuv nutqida laqablar kishining shaxsiy jismoniy yoki axloqiy-ma'naviy fazilat yoki illatini, kasbini, etnik mansubligini, kasb-ko'rini ko'rsatish uchun xizmat qilishi alohida uqtiriladi. Bevosita hayotning maxsus talablari (xalq orasida ayni ism, familiya, kasb, yosh xususiyatlari)ga ko'ra laqablarning nutqiy muomalada faol qo'llanishi nutqiy-lisoniy norma darajasiga yetgani ko'rsatib beriladi.

Xuddi shunday tadqiqot Samarqand shahar maktab o'quvchilari, oliy o'quv yurti talabalari hamda Samarqand viloyatining turli tumanlarida istiqomat qiluvchi pedagoglar o'rtasida o'tkazilganda, shu narsa kuzatildiki, bu hududda qo'llanuvchi laqablar aholining etnik shakllanishi, ijtimoiy faoliyati, jismoniy va manaviy shakllanishi, shuningdek, texnologik rivojlanish ta'siri ostida paydo bo'lgan va hamon jonli so'zlashuv tilining asosiy elementlaridan biri sifatida saqlanib kelinmoqda. Xususan, Samarqand viloyat Tayloq tumani 16-maktabida o'tkazilgan tadqiqotlardan namuna keltiradigan bo'lsak, "*Tanka xola*" (semizli va doim o'quvchilarni urushganligi uchun), "*Nosqovoq*" (doim burni oqib yurgani uchun), "*Kuydirilgan kalla*" (doim tirjayib turgani uchun), "*Cho'chqaburun*" (burni pachoq bo'lgani uchun), "*Kosa*" (nutqiy xatolik tufayli "*kosinus*"ni kosa deb o'qigani uchun),

“*Roltonbosh*” (sochini “*Rolton*”ga o‘xshatib turmaklagani uchun), “*Pushkin malima*” (elektr toki urushidan keyin sochi Pushkinnikiga o‘xshab qolgani uchun), “*Sherqo‘zi*” (uyida sher, maktabga kelganda qo‘ydek yuvosh bo‘lib yurgani uchun), “*Fashfashak*” (fash-fash qilib nafas olgani uchun), “*Tulpor*” (o‘qituvchining nutqiy odati tufayli, o‘quvchilarga tanbeh berganda doim shu so‘zni ishlatgani uchun), “*Shlakablok*” (semiz to‘rtburchak bo‘lgani uchun), “*Wifi*” (hammaga internet uchun mb tarqatgani uchun), “*Ko‘mir*” (rangi qop-qora bo‘lgani uchun), “*Nimtagi*” (tojikchadan tarjima qilganda “yarimta” degan ma‘noni anglatadi, 11-sinf bo‘lsa-da, juda kichkina bo‘lgani uchun), “*Mikki Mouse*” (qora sharchalardan quloq yasab olgani uchun), “*Lagan*” (yuz shakliga ko‘ra), “*Laganbardor*” (hammaga yon bosib yurgani uchun), “*Qiyshiqdandon*” (tojikchadan tarjima qilganda “qiyshiq tish” manoni anglatadi), “*Babnik*” (o‘g‘il bola bo‘lsa-da, qizlarga yoqish uchun qoshini terib yurgani uchun) va hokazo.

Kuzatuvlar davomida anglashilgan yana bir jihat: laqab paydo bo‘lishida nafaqat laqablanuvchi obyektning imkoniyatlari, balki laqablovchi subyektning dunyoqarash, yoshi hamda intellektual salohiyati ham o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi. Jumladan, kishining “semizligi” uning laqabiga asos qilib olinganda, turli hududlarda bunday ma‘no ottenkasini ifodalash uchun turlicha laqablar qo‘yilgan. Masalan, “*Tanka*”, “*Shlakablok*”, “*Buxanka*”, “*Koptok*”, “*Panki*” (shirinlik nomi), “*Tarvuz*”, “*Lo‘ppi*”; rangi “sariq” bo‘lgani uchun “*Sariq*”, “*Sori*”, “*Rus*”, “*Tatar*”, “*Sariq chayon*”, “*Sariqpishak*”, “*Masha*”, “*Mashka*”, “*Sasha*” (ruslarning nomidan); tengdoshlariga nisbatan jussasi “kichkina” bo‘lgan kishilarga nisbatan “*Nimtagi*”, “*Mitticha*”, “*Kichkina*”, “*Pakana*”, “*Jo‘ja*”, “*Zborcha*”, “*Shifucha*” (multifilm qahramoni); xuddi shunday bo‘yi boshqalarga nisbatan uzun bo‘lgan, novcha kishilarga nisbatan esa “*Terak*”, “*Mirzaterak*”, “*Daroz*”, “*Kentavr*”, “*Shlanka*” kabi turlicha ism-laqablar qo‘yiladi. Bu kabi laqablarni subyektning holatidan kelib chiqib, shartli ravishda ikkiga bo‘lish mumkin, ya‘ni an‘anaviy va zamonayiv laqablar sifatida. An‘anaviy laqablar (“*Terak*”, “*Mirzaterak*”, “*Mitticha*”, “*Sariq*”, “*Lo‘ppi*”) tinglovchida juda tez reaksiya beradi, ammo zamonay laqablarda emosional-ekspressiv buyoq yashrin bo‘ladi, odatda, bunday laqablar subyek, obyekt hamda tinglovchining yoshi, mashg‘uloti bir xil, intellektual salohiyati barobar bo‘lgandagina o‘z ta‘sir darajasini ko‘rsatadi. Masalan, talabalarning tengdoshlariga nisbatan “*Shifu*”, “*Shifucha*”, “*Panda*”, “*Kentavr*”, “*Hulya chelik*”, “*doktor Xaus*”, “*Afrosiyob*” (*poyezd*), “*Ronaldo*” “*BBC*”, “*Evrika*” kabi laqablarni qo‘llashi ularning barchasi shu qahramonlar qatnashgan multifilm, filmlarni ko‘rganligi yoki zamon bilan hamnafas yashayotganligi va yangiliklardan muntazam xabardorligini isbotlaydi.

Ayni damda kuzatuvlar shuni ko‘rsatdiki, birgina so‘zning o‘zi bir necha kishida laqab sifatida qo‘llansa-da, ammo mohiyat kishilarning turli fazilat va xislatlarini

ochishga xizmat qilishi mumkin ekan. Xususan, “*Shifu*” laqabi shu laqab bilan yuritiluvchi obyektning birida bu laqab uning jussasiga, boshqa kishida chaqqonligiga, yana bir kishida aqlliligiga ishora beruvchi ma’no semalariga egadir. “Ronaldo” laqabini olgan bir yigit unga juda oxshaydi, ikkinchisi juda yaxshi futbol o‘ynab, “Ronaldo”ning fanati bo‘lgani uchun shu laqabni olgan. Yoki “Jo‘ja” laqabining semasida ham ikki xillik kuzatiladi: bir talaba sariqligi uchun deb izohlasa, ikkinchi talaba kichikligi uchun deb izohlagan. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, yuqorida ta’kidlaganimizdek, laqablar aholining etnik shakllanishi, ijtimoiy faoliyati, jismoniy va manaviy shakllanishi, shuningdek, texnologik rivojlanish ta’siri ostida paydo bo‘ladi va zamon talabiga ko‘ra yangicha nom olaveradi, bunda aksariyat hollarda mohiyat o‘zgaradi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, jonli so‘zlashuv va shevalarda laqablarning nutqiy qo‘llanishi uchun real ehtiyoj mavjud va shu sababli uning nutqiy ko‘lami bu kommunikativ muhitda adabiy tildagidan ancha keng.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. Поливанов Е.Д. Узбекская диалектология и узбекский литературный язык (К современной стадии узбекского языкового строительства). –Ташкент: Узгосиздат, 1933. с.17-18.
2. Qodirova X. M. Xorazm shevalaridagi laqablar va ularni tadqiq qilishning nazariy va amaliy ahamiyati / Nicknames in Khorezm dialects and the theoretical and practical significance of their study //«O‘zbek tilini dunyo miqyosida keng targ‘ib qilsih bo‘yicha hamkorlik istiqbollari» mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari 2020-yil, 19-20-oktabr. Toshkent – 2020. –B.100-104.
3. [https://www.facebook.com/groups/khorezmian/permalink/1874557629288807/?comment\\_id=1875280815883155](https://www.facebook.com/groups/khorezmian/permalink/1874557629288807/?comment_id=1875280815883155) (Aprel, 2022)
4. Usmonov M. M., Qosimova Sh. U. Shevalarda laqablar etimologiyasi va ularning ishlatilishi (Mingbuloq tumani misolida) <https://hozir.org/shevalarda-laqablar-etimologiyasi-va-ularning-ishlatilishi.html> (aprel, 2022)

## POEMACHILIK KECHA VA BUGUN

**Zamiraxon Ibragimova**

GulDU Magistratura bo'limi

Adabiyotshunoslik yo'nalishi

2-kurs 9-21 magistranti

### ANNOTATSIYA

Dostonchilik tarixiga bir nazar orqali istiqloq davri poemalari tahlil etilgan ushbu maqolada an'anaviy va yangicha ruhdagi poemalarda o'ziga xoslik, yangilik nimada ekanligi, shuningdek poemalarni jahon adabiyotidagi o'rni va ahamiyati borasidagi ilmiy xulosalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Erotizm, konvensiya, norveg didi, poemada an'ana, novatorlik, tarixiy dostonlar, zamon, tarixiy shaxslar tasviri, talmeh, badiiy san'atlar.

### ABSTRACT

In this article, which analyzes the poems of the period of independence through a glance at the history of epic writing, scientific conclusions are given about the originality and novelty of traditional and modern poems, as well as the place and importance of poems in world literature.

**Key words:** Eroticism, convention, Norwegian taste, tradition in poetry, innovation, historical epics, time, depiction of historical figures, talmeh, fine

Dostonchilik tarixiga nazar tashlab bu yo'nalishdagi asarlarni quyidagicha izoqlash mumkin. 1.Xalq folklori eposlari. 2.Mumtoz yozma dostonlar. 3.Yangi o'zbek dostonlari. Shu bilan birga jahon adabiyoti durdona asarlari qatoridagi dostonlari. Yangi o'zbek dostonlariga har uch shakldagi poemalarning ta'siri sezilarlidir. Bu poema janri imkoniyatlarini yuqori baholashga olib keladi. Chunki o'z xususiyatiga ko'ra lirik, epik, dramatik, liro-epik turga mansub xossalarga ega bo'lishi mumkinligi to'g'risida nazariy qarashlarga olib keladi.

Yangi o'zbek dostonlarida esa folklor, mumtoz yozma poemalar, jahon adabiyoti eposlarining xususiyatlari mujassamlashganini ko'ramiz. Masalan:

- yangi o'zbek poemalarida epik olam, uni idrok etish tarsi o'zgarib, epos va mumtoz dostonlardagi epic tasvirlardan butunlay farqlanib bormoqda;

- xalq eposlari uchun voqelik asosiy ob'ekt bo'lsa, zamonaviy poemalar esa shaxsni asosiy ob'ekt sifatida qaraydi;

- fantastik tasvirlardan reallik tomon siljib, hayotiy haqiqat tasvirlari kengroq talqin etiladi;
- tarixiy fojealar orqali inson fojeasi, orzu-umidlari talqini ko'rsatiladi;
- qahramon xayoli, xotirasida gavdalantirilgan o'tmish manzaralari tasviri beriladi;
- millat fojeasi shaxs muammosi talqini orqali yoritiladi;
- monolog va diologlardan ijodiy foydalanish doston kompozitsiyasiga mos tarzda unng imkoniyatlarini kengaytiradi;
- zamonaviy dostonlarda globallashuv jarayonlaridagi inson psixologiyasi, muvozanatini saqlab qololmasligi borasidagi qarashlar talqin etiladi.
- ziyolilar fojeasi yoritilgan, o'tgan asr boshidagi jadidchilik vakillarining achinarli taqdiri borasidagi dostonlarda ham tarixiy voqealar tasviri berilgandir. M.Yusufning "Qora quyosh" dostonida bolalarning qatag'on qilinishi, millat ziyolilarining fojeaviy taqdiri borasidagi tasvirlar berilganligi e'tirof etiladi.

Jahon adabiyotiga bir nazar tashlasak, poemachilik eng qadimdan mavjud bo'lgan o'rta sarlarda ritsarlik sagalari keng tarqalgan. Norvegiyada dostonlar romantik bir janr. XIII asrdan boshlab, fransuz tili tarjimalari bilan lotin romantikalari va tarixlari janr xususiyatlari shu kabi uslubda kengayib bordi. Islandiyada sagalar ko'p asrlar davomida keng o'qilgan janrdir. Skandinaviyada ritsarlik sagalari yaratish XIII asrda Norvegiyaga, XIV asrda Islandiyaga qaratilgan bo'lib, Daniya va Shvetsariya zamonaviy romantikalari keyinchalik tanilib bordi. Ular, asosan, she'r shaklida bo'lgan. Ba'zida "yolg'on sagalar, xayoliy ritsarlik va afsonaviy dostonlar" kabi atamalarga duch kelamiz. Xuddi shu uslubdagi asarlar (qirol Xakon tomonidan buyurtma qilingan bo'lishi mumkin) "Parcevals" dostoni, "Shlangi qopqoq va Erex saga" barchasi Krioten de Troyes asaridan olingan deb qaraladi. "Karlomagnum" dostoni, "Bervers saga", "Flores saga ok Blankiflur", "Flavent dostoni", "Partalopa dostoni" kabi boshqa asarlar tarixiy ma'lumotlarga tayanib Fransuz asl nusxalaridan kelib chiqqan deb ishoniladi. Lotin tilidan tarjima qilingan psevdotarixiy asarlari – "Aleksandlar dostoni", "Amicus saga ok Amilius", "Trojumanna saga", shuningdek, "Bern haqida saga" nemis tilidan tarjima qilinganligi aytiladi. Yuqoridagi qadimgi Norvegiya tarjimalariga Margaret Kluni Ross shunday ta'rif bergan: "Qadimgi Norvegiya atamasi *riddarasaga*... lotin, fransuz, anglo-normandagi bir qancha janrlarni qamrab oladi, ammo ularning barchasiga xos bo'lgan umumiy odob-axloq qoidalari, qirollikka bo'lgan qiziqishlari ritsarlik odobi va odobli muhabbat bilan bog'liq jihatdir." Erec va Enide, Yvain va Perceval Xakonning saroyiga yetkazib bergan tarjimonlar hamda Norvegiyadagi va Islandiyadagi bunday dostonlardan bahramand bo'lgan shaxslar o'z manbalarini mustaqil ravishda qayta yozishni taklif qilishadi. Ular Kretyenning odob-axloq jamiyatiga nisbatan kinoya bilan qarashning

bir qator muhim jihatlarini yetkazmaydi. Bunga sabab tarjimonlar ruhoniy kishilar bo'lganligi uchundir. Ammo unda an'anaviy norveg didi, va rivoyat konvensiyasi aks etardi. Xususan, aniq erotizmning asosiy elementlari o'chirildi. Riddaraso'gur qahramonlari xatti-harakatlarida komediya va kinoya mavjud bo'lgan. Buning o'rniga rivoyatlar ibratli va didaktik g'oya kuchaytirilgan. XIV asrdan boshlab Islandiyaliklar o'zlarining ishqiy-dostonlarini g'ayrat bilan yoza boshlaydilar. Yevropada Ritsarlik dostonlari XX asrga qadar Islandiyada qo'lyozmalarning keng tarqalishi orqali saqlanib qoldi. Ular ba'zan qayta ishlangan O'rta asrlar bilan bir xil shakldagi yangi ritsarli poemalari XIX asrga qadar tuzilib kelmoqda. XVIII asrda ba'zi ritsarlik dostonlari Daniya va Shvetsiya tarixi uchun foydali deb qabul qilindi va ularni shu mamalakatda bosilib chiqarildi. Kalinke va Mitchellning "*Qadimgi Norvegiya-Islandiya romantikalari bibliografiyasi*" ushbu dostonlar to'plamining qo'lyozmalari, nashrlari, tarjimalari va ikkinchi darajali adabiyotlari bo'yicha keng qo'llanma hisoblanadi (1985-y). Shuningdek, o'rta asrlardan keyin Islandiyada romantizm dostonlar yozilishi davom etgan bo'lib, 150ga yaqin misollar mavjud. Ular o'nta ruhoniy tomonidan yozilgan deb ishoniladi.

Binobarin, poemachilik janri xususidagi mulohazalar turlicha. Jahon adabiyoti namunalari Dantening "Ilohiy komediy", Bayronning "Donjuan", Nekrasovning "Rusiyada kim yaxshi yashaydi", A.Tvardovskiyning "Vasiliy Terkin", N.Hikmatning "Inson manzaralari" kabi poemalar ham hajm va mazmuni jihatidan bir-birini takrorlamas asarlardir.

Poemachilik vakillari oxirgi yillarda zamonaviy proza yutuqlaridan foydalanish bilan birga A.Voznesenskiy, Ye.Yevtushenko, R.Hamzatov singari ijodkorlar tajribasini ham idrok etmoqdalar. O.Matjonning "Ming bir yog'du" dostonida Navoiy asarlaridan, "Cho'ldagilar" asarida ensiklopedik manbalardan, T.Ahmadning "Moziy saboqlari"da arxiv ma'lumotlari, I.Otamurodning "Sen" asarida noma janri, T.Nizomning "Girya" dostonida mumtoz shoirlarning g'azallari, Faxriyorning "Ayolg'u" dostonida esa tarixiy faktlar qo'llanilishi o'rinli bo'lgan. Zamonaviy poemachilikning yangi sarhadlari, shakl va mazmun borasidagi o'zgarishlar hamda o'zgacha ifoda uslubi, inson ko'ngil kechinmalarini e'tirof etishdagi yangicha yondashuv mustaqillik davri adabiyotidagi asarlarda keng talqin etiladi. I.Otamurod, T.Nizom, U.Azim, A.Qutbiddin singari bir qator yozuvchi, shoirlar ijodida buni kuzatamiz. Hikoya, qissa, roman va dostonlarning deyarli barchasida modernistik uslub qirralarini ilg'ash qiyin emas. Xuddi shunday asarlardan biri I.Otamurodning "Yarador umid otlari" dostoni bo'lib, unda shoir tinish belgilar orqali tuyg'ular tasvirini ajoyib tarzda bayon etadi. "Yobondagi yolg'iz daraxt", "Sopol siniqlari", "Ichkari... tashqari...", "Aning umidi" dostonlarida bu usulning kengayib borganini ko'ramiz. Shoirning so'nggi yillarda yaratilgan "Xaritaga tushmagan joy" (2003)

dostonida ham qahramon “men”idagi kechinmalar, izlanishlar tasviri berilsa, “Tag‘azzul” (2005) poemasida esa mumtoz an’analarining yangicha jilosini kuzatamiz. Unda shoir poemaga g‘azal ruhini olib kiradi. Sharq adabiyoti mumtoz lirikasiga xos hijron kuyidan zoda ko‘ngil chizgilari, ramziy timsollar o‘z ifodasini topgan.

Xulosa qilib aytamizki, o‘zbek poemachiligi tarixi uzoq o‘tmish davrlaridan to bugungi kunga qadar davom etib kelayotgan an’anaviylik, ramziylik, to‘qimalilik, uslub o‘zgarishlari, tantanavorlik, tarixiy haqiqat va badiiylik singari ko‘plab o‘ziga xosliklarni asarlar mazmuni va tarkibida saqlab kelmoqda. Ya’ni, poemalarimizda eng qadimgi og‘zaki ijod namunalarining belgi xususiyatlari, qahramonlar talqinidagi fantastik hamda tantanavorlik, o‘rta asrlar adabiy jarayonidagi o‘zgarishlar, mumtoz dostonchilik an’anaviyligini, masnaviy shakl orqali lirizmning kuchayishini, keying davr dostonlaridagi shakl va mazmun tarkibida yangilanishlarni, dialog, monolog, barmoq ham aruz vazni belgilarini qo‘llash bilan romantizm ruhini berish, realism uslubini kirib kelishini aniq tasvirlarda kuzatamiz. Zamon va makon o‘zgarishlaridagi o‘ziga xosliklarni bag‘riga joylab boruvchi adabiy jarayon namunalarida milliylik, insoniylik, bag‘rikenglik, komillik, sadoqat, bardoshlilik, do‘stlik, tinchlik kabi umuminsoniy g‘oyalar tarannumi ahamiyatlidir. So‘nggi yillardagi dostonlarimiz mazmun-mohiyatida ham yuqoridagi belgi xususiyatlarni yangicha talqinini, davr bilan hamohang tarzda badiiy ifodalanishi borasidagi nazariy fikrlar asoslidir. Shuningdek, jahon poemachiligi xususiyatlari, uslubini ham ijodiy o‘rganish dostonlarimizga olib kirish, modernizm nafasi sezilib turgan asarlarimizda ham milliy qadriyatlarimiz, o‘zligimizga sodiqlik ko‘rinadi. Yangilinib borayotgan badiiy ruh, tasvir ifodasi orqali bugungi kitobxon qalbiga kirib bora olishi bilan yangi o‘zbek adabiyoti namunalari qatorida dostonlarning o‘z o‘rni mavjud. XX asr o‘zbek adabiyoti dostonchiligi bir qator o‘zgarishlar bilan ajralib turadi. Xususan, xalq og‘zaki ijodi namunalaridan va mumtoz adabiyot manbalari an’analarini davom ettirish, o‘ziga xosligini va yangicha shakl xususiyatlarini aks etishi bilan ma’lum bir uslub yo‘nalishlar paydo bo‘lmoqda. Demak, XX asr ijodkorlari yangi davr dostonchiligi tarixdagi mumtoz adabiyotimiz poemalari an’anasini mazmuniy jihatdan emas, balki badiiy nuqtai nazardan ham unga mos shaklda diniy, tasavvufiy, falsafiy ruhda badiiy talqin etishda masnaviy usuldan, aruz vazni imkoniyatlaridan, shuningdek barmoq tizimi shaklidan keng foydalangan holda o‘zbek adabiyotining poemachilik yo‘nalishidagi yangi mazmun mohiyatga ega o‘ziga xos belgilari bilan ajralib turuvchi dostonlar yaratdilar.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Adabiyot nazariyasi. Jamoa. Ikki tomlik. 2-tom (Adabiy-tarixiy jarayon). – T.: “Fan”.1979.
2. Q.Yo‘ldoshev. Yoniq so‘z. – T.: Yangi asr avlodi/ 2006. 394-b.
3. I.Sulton. Adabiyot nazariyasi. – T., 2005. 179-b.
4. U.Jumanazarov. O‘zbek tarixiy folklorining janriy xilma-xilligi va g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari. Doktorlik dissertatsiyasi. – T., 1991.
5. Mahmud Koshg‘ariy. Devonu lug‘atit-turk. Turkiy so‘zlar
1. S.N.Ibrohim. ruhning rangin sadolari / Asqar Mahkam. Haq. Saylanma. Adib, 1998. 14-b.
2. O.Matjon. Nega men? Sharq yulduzi, 1990-yil, 6-son, 41-b.
3. Faxriyor. Yoziq. Doston//Sharq yulduzi, 1991. 4-son, 91-b.
4. T.Nizom. Bahoriy maysalar. Saylanma. I jild. T. 2007. 247-b.
5. T.Nizom. Avji yoz. 2- jild. T.: 2007.
6. E.Shukur. Hamal ayvoni. T: Sharq, 2002. 231-bet.
7. Takomil mashaqqatlari. Ulug‘bek Hamdam bilan suhbat. “Tafakkur”. 2017. 3-son. 22-27-b.
8. O.Matjon. Nega men? Sharq yulduzi, 1990-yil, 6-son, 41-b
9. S.N.Ibrohim. ruhning rangin sadolari / Asqar Mahkam. Haq. Saylanma. Adib, 1998. 14-b.
10. X.Davron. Vatan haqida yetti rivoyat//Sharq yulduzi, 1990, 8-son, 159-163-b.



## O‘ZARO BOG‘LANGAN CHORRAXALAR GURUXIDA TRANSPORT OQIMLARINI BOSHQARISH

**Nasiriddinov A‘louddin Nuriddinovich**

Termiz davlat universiteti 2-kurs doktoranti

E-mail: [nalouddin@gmail.com](mailto:nalouddin@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

O‘zaro bog‘langan chorraxalar guruxi, avtomatik boshqarish transport tizimlari uchun zarur element hisoblanadi. Bu sistemalarning barcha transport oqimlari boshqarish yechimini o‘z ichiga oladi. Shuningdek, bir nechta chorraxalar guruhlarini birlashtirish, transport oqimini bog‘lash, boshqa tizimlar bilan birgalikda ishlash kabi muammolarni hal qilish uchun ham, chorraxalar guruxlarining o‘zaro bog‘lanishi juda muhimdir.

**Kalit so‘zlar:** yorliq, neyro-adaptiv modellar, clustering, TensorFlow, K-Means, transport oqimlari, yengil transport, sensorlar, boshqarish, adaptiv usullar, ma’lumotlar, model.

### ABSTRACT

A group of interconnected intersections is a necessary element for automatic control transport systems. All these systems include a traffic management solution. Interconnection of groups of intersections is also very important for solving problems such as combining several groups of intersections, connecting traffic flow, working together with other systems.

**Keywords:** labeling, neuro-adaptive models, clustering, TensorFlow, K-Means, traffic flows, light transport, sensors, control, adaptive methods, data, model.

### KIRISH

Neyro-adaptiv tizimlar, transport oqimlarini boshqarishda keng tarqalgan tizimlardan biridir. Bu tizimlar, yagona tizim yoki dasturda foydalanish uchun moslashtirilgan, o‘z-o‘ziga o‘rganadigan va o‘z-o‘zini moslashtiradigan neyronlardan iboratdir. Ushbu tizimlar, transport vositalari uchun oqim boshqarish sistemalarini optimallashtirishda va keyinchalik to‘g‘ridan-to‘g‘ri transport vositalarini boshqarishda foydalaniladi [2].

Neyro-adaptiv tizimlarning eng yaxshi tomoni, ularning o‘z-o‘zini moslashtirish yetarlicha tez va samarali bo‘lishi. Ushbu tizimlar o‘zaro bog‘langan chorraxalar

guruxida ham foydalanilishi mumkin va transport vositalarining hajmini kamaytirish va bog'lash jarayonini optimallashtirish uchun ham foydalaniladi.

O'zaro bog'langan chorraxalar guruxida transport oqimlarini boshqarishning neuro-adaptiv modellari va usullari juda ko'pdir, ular quyidagilardir:

1. Maxsus algoritmlar yordamida o'zaro bog'langan chorraxalar guruxida transport vositalarini boshqarish uchun neuro-adaptiv modellarni yaratish.

2. O'zaro bog'langan chorraxalar guruxida transport vositalarini boshqarish uchun foydalaniladigan neuro-adaptiv modellar uchun maxsus tahlil va optimallashtirish usullarini yaratish.

3. Transport vositalari uchun oqim boshqarish neuro-adaptiv tizimlarini qurish va ularga moslashtirishlarni yaratish.

O'zaro bog'langan chorraxalar guruxida transport oqimlarini boshqarishning neuro-adaptiv modellari va usullari bilan bog'liq ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Bu tadqiqotlarning bir qismi, transport vositalari uchun oqim boshqarish neuro-adaptiv tizimlarini optimallashtirishga yo'naltirilgan.

Masalan, "Adaptive Dynamic Sliding Mode Control for Connected Automated Vehicles" nomli tadqiqotda, o'zaro bog'langan chorraxalar guruxida bir nechta avtomobillar uchun neuro-adaptiv modellari yaratilgan. Bu modellar, transport vositalari orasidagi masofa va tezlik farqlarini yengish uchun moslashtirilgan. Natijada, ushbu tizimlar transport vositalari orasidagi masofa farqlarini kamaytirishda va qatnashuvchi avtomobillar orasidagi tezlik farqlarini o'zgartirishda samarali bo'lishi aniqlandi [5].

Boshqa tadqiqotlar esa, transport vositalari uchun oqim boshqarish neuro-adaptiv tizimlarini, kuch va shiddatli yo'l sharoitlarida ham moslashtirishga qaratilgan. "Reinforcement learning-based path planning for autonomous vehicles in challenging environments" nomli tadqiqotda, qatnashuvchi transport vositalarining yo'l xaritasini yaxshilash uchun qo'shimcha o'qimlar kiritish va qo'shimcha kuchlarni qo'llash uchun neuro-adaptiv modellar ishlatilgan. Natijada, transport vositalari yo'l sharoitlarida xavfsiz va samarali boshqarilishiga erishildi.

Shunday qilib, o'zaro bog'langan chorraxalar guruxida transport oqimlarini boshqarishning neuro-adaptiv modellari va usullari, transport vositalarini boshqarishning eng yaxshi va samarali usullaridan biri hisoblanadi. Ushbu modellar va usullar, transport vositalari orasidagi masofa va tezlik farqlarini yengishda va kuch va shiddatli yo'l sharoitlarida ham moslashtirishda yordam beradi.

Bu modellar va usullar, transport vositalarining ish faoliyatida oqimlar, shaxsiy avtomobillar va yirik transport tarmoqlari, misol uchun, qurilishlar va yuk transport vositalari kabi ko'plab vositalarni boshqarishda foydali bo'ladi. Ushbu modellar va usullar, transportning yaxshi boshqarilishini ta'minlashda, shahar yoki qishloq

transport tarmog‘i trafik rejimini o‘zgartirishda va yirik transport tarmog‘i tarmoqlarida ko‘p transport vositalarini boshqarishda ham yordam beradi.

Bundan tashqari, bu neyro-adaptiv modellar va usullar, transport vositalari uchun boshqarish tizimlarining samarali va to‘liq avtomatlashtirilishi uchun muhimdir. Bu modellar va usullar, transport vositalari to‘plamida aksiyadorlik kompaniyalar, transportni boshqarish tashkilotlari va hukumat tashkilotlari kabi bir necha tashkilotlar tomonidan muvaffaqiyatli ishlatilgan.

So‘nggi natijalar ko‘rsatishicha, o‘zaro bog‘langan chorraxalar guruxida transport oqimlarini boshqarishning neyro-adaptiv modellari va usullari, transport vositalarini samarali va xavfsiz boshqarishda juda katta muhim ahamiyatga ega. Bu modellar va usullar, transport tarmog‘i va aholi uchun juda foydali va qulaydir va ularga yaxshi natijalar ko‘rsatishga yordam beradi [6].

Bundan tashqari, bu neyro-adaptiv modellar va usullar, transport tarmog‘i va jamiyat uchun ham muhimdir. Ularga yo‘l va transport vositalari trafikini samarali, to‘liq va xavfsiz boshqarish, transport vositalarining ish faoliyati va ehtiyotkorlikini ta‘minlash, va yo‘l transport tarmog‘i xavfsizligini oshirishda yordam berish mumkin.

### **TAHLIL VA NATIJA**

Neyro-adaptiv modellarning transport vositalarining xavfsizligi va avtomatik boshqarilishi bo‘yicha keng qamrovli tadqiqotlar va loyihalar amalga oshirilgan. Bu modellar yordamida transport vositalari, harakatlariga moslashtirilgan xaritadan o‘tish, taxi xizmatlarida ruxsat etilgan joylarga borish, avtomatik yon boshqarish, tarmoq trafik rejimini boshqarish va boshqa ko‘plab vazifalarni bajarish mumkin.

Tadqiqotlar va loyihalar ko‘plab transport turlari uchun yordam berish mumkin. Masalan, yirik transport vositalari, ko‘p qatorli transport vositalari va yuk transport vositalari uchun taqdim etilgan neyro-adaptiv modellar, ularga yaxshi boshqarish va xavfsiz ishlashni ta‘minlash uchun juda muhimdir. Shuningdek, shahar yoki qishloq transport tarmog‘i trafik rejimi va transport vositalari xizmatlarining avtomatlashtirilishi ham neyro-adaptiv modellar yordamida bajarilishi mumkin.

Natijalar, transport vositalarini boshqarishda neyro-adaptiv modellar va usullar ishlatishning foydali va zaruri bo‘lishini ko‘rsatadi. Bu modellar yordamida transport vositalari, xavfsizlik va avtomatik boshqarilishni ta‘minlash uchun ko‘proq qulaylik va samarali holatda ishlashi mumkin. Shuningdek, transport tarmog‘i va jamiyat uchun ham neyro-adaptiv modellar va usullar juda foydali bo‘ladi, chunki ular transport tarmog‘ining trafik rejimini va transport vositalari xizmatlarini avtomatlashtirish va xavfsizligini oshirishda yordam beradi [9-10].

Ko‘rsatilgan tadqiqotlar va loyihalar ko‘p transport vositalari uchun foydali va xavfsizlikni oshirish uchun neyro-adaptiv modellar va usullarni ishlatishning natijalarini ko‘rsatadi. Quyidagi misollar ko‘rsatilgan natijalarga misoldir:

✓ Axborot texnologiyalari sohasidagi yuqori sifatli va moslashtirilgan neuro-adaptiv modellar va usullar, transport vositalarini xavfsizligi va avtomatik boshqarilishi bo'yicha juda muhimdir. Misol uchun, Tesla va Google kabi korporatsiyalar, transport vositalari boshqarishida neuro-adaptiv modellar va usullarni ishlatish orqali yaxshi natijalar olishadi [5].

✓ Xavfsizlikni oshirish uchun neuro-adaptiv modellar va usullar ishlatilishining birinchi yutuqlari, avtomatik va qulay holatda transport vositalarini boshqarish uchun mo'ljallangan bo'lishi. Misol uchun, Toyota va BMW kabi korporatsiyalar, avtomatik va qulay holatda boshqariladigan transport vositalari ishlab chiqarishda neuro-adaptiv modellar va usullarni muvaffaqiyatli ishlatishadi [9].

✓ Neuro-adaptiv modellar va usullar transport sohasida xavfsizlikni oshirishga yordam berishning yanada keng jihatlarini ko'rsatadi. Ushbu modellar transport vositalarini boshqarishni avtomatik ravishda bajarish orqali qo'shimcha xavfsizlikni oshirish uchun ham ishlatilishi mumkin. Misol uchun, neuro-adaptiv modellar va usullar, transport vositalarida navigatsiya, reaksiya va monitoring sistemalarini yaxshilash uchun ham foydali hisoblanadi.

Shuningdek, neuro-adaptiv modellar va usullar transport tarmog'i bo'yicha muammolarni hal qilishga ham yordam berishi mumkin. Misol uchun, yo'nalishdagi yo'lning halqasi to'lg'usida noma'lum xolatda qolgan transport vositalarining tezlikni kamaytirish va xavfsizlikni oshirishga yordam beruvchi neuro-adaptiv modellar va usullar mavjud. Bu modellar transport tarmog'ida voqealar o'tkazishini o'zgartirish, shuningdek, transport vositalarining eng optimum yo'nalishni topishiga yordam beradi.

Python dasturlash tilida Neuro-adaptiv modellar va usullar transport oqimlarini boshqarishning ko'plab usullari bo'yicha aniq misollar ko'rib chiqamiz.

Neuro-adaptiv modellar va usullar transport oqimlarini boshqarishning ko'plab usullari mavjud. Shu ko'rsatkichlardan biri Tensorflow kiradi, bu modul Pythonda yozilgan va neuro tarmoqlarni yaratishga imkon beradi. Quyidagi misol Tensorflow modulidan foydalanib yozilgan:

```
import tensorflow as tf
model = tf.keras.Sequential([
    tf.keras.layers.Dense(64, activation='relu', input_shape=(10,)),
    tf.keras.layers.Dense(64, activation='relu'),
    tf.keras.layers.Dense(1, activation='sigmoid')
])
model.compile(optimizer=tf.keras.optimizers.Adam(0.001),
    loss='binary_crossentropy',
    metrics=['accuracy'])
```

```
model.fit(train_data, train_labels, epochs=10, batch_size=32)
test_loss, test_acc = model.evaluate(test_data, test_labels)
print('Test accuracy:', test_acc)
```

Bu koddan foydalanish orqali transport oqimlarini boshqarish uchun neyro tarmoq yaratiladi va o'qitiladi. Natijalar test ma'lumotlari yordamida baholangan va Test accuracy chiqarib berilgan.

Boshqa bir misol shu usulni transport vositalarining eng optimum yo'nalishni topishiga qo'llash mumkin. Bu masalani yechish uchun k-means algoritmi va neyro-adaptiv modellar kombine qilingan. Quyidagi koddan foydalanish orqali transport vositalarining yo'nalishi optimallashtiriladi:

```
import numpy as np
from sklearn.cluster import KMeans
import tensorflow as tf
data = np.array([[1.2, 2.3], [2.1, 4.2], [4.4, 5.5], [3.7, 5.1], [1.8, 1.2], [2.1, 2.4],
[4.5, 4.9], [4.1, 4.3]])
kmeans = KMeans(n_clusters=2, random_state=0).fit(data)
def relu(x): return tf.maximum(x, 0)
model=tf.keras.Sequential([
tf.keras.layers.Dense(2, input_shape=(2,)),
tf.keras.layers.Lambda(lambda x: relu(kmeans.cluster_centers_ - x)),
tf.keras.layers.Dense(1, activation='sigmoid')
])
model.compile(optimizer=tf.keras.optimizers.Adam(0.001),
loss='binary_crossentropy',
metrics=['accuracy'])
model.fit(data, np.array([0, 1, 1, 1, 0, 0, 1, 1]), epochs=1000)
test_data = np.array([[0.5, 0.5], [5.5, 5.5]])
print(model.predict(test_data))
test_data = np.array([[1.5, 2.6], [4.4, 5.5], [3.2, 4.5], [2.8, 3.4]])
test_labels = np.array([0, 1, 1, 0])
test_loss, test_acc = model.evaluate(test_data, test_labels)
print('Test accuracy:', test_acc)
```

Bu kod natijasida transport vositalarining eng optimum yo'nalishi Test accuracy o'zgaruvchisi orqali chiqariladi.

## **XULOSA**

O'zaro bog'langan chorraxalarning tizimida transport vositalarining oqimlarini boshqarish uchun neyro-adaptiv model va usullar foydalaniladi. Bu usullar, transport tarmoqlarida xususiyatlarni o'rganish, o'zgarishlarni ta'lim qilish, turli holatlarda

ishonchli boshqarishni ta'minlash uchun foydalaniladi. Bu usullar umumiy ravishda ma'lumotlarni o'rganishda, keltirib chiqishda va tahlil qilishda yordam beradi. Ushbu usullar tarmoqni qurish, o'qitish va sinovdan o'tkazish qatnashuvchilarining murojaat etishiga va mazmundan foydalanishiga qarab yaratiladi.

Transport tizimlarining neyro-adaptiv modellar va usullar yordamida boshqarilishi tarmoqda keltirilayotgan ma'lumotlar uchun axborotlar tahlilini aniqlashni yaxshi ko'rsatkichlari beradi. Bu usullar transport tizimlarida ishonchli boshqarishni ta'minlash, ko'nikmalarni aniqlash va yechishda juda katta ahamiyatga ega. Ushbu usullar transport tizimlarining egib qolishini ta'minlaydigan qulay va tezkor xizmat ko'rsatishni ta'minlashda ham katta ahamiyatga ega.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. "Neural Network Control for Railway Transportation Systems" - Jian Xiong, Li Li, Li Li, 2016
2. "Optimization and control of connected automated vehicles in urban environments" - Francesco Borrelli, James M. Godsil, Peter G. Martin, Ankur Mehta, Victor M. Zavala, 2019
3. "Adaptive Fuzzy Control for Smart Rail Transportation Systems" - Yuzhu Luo, Jian Xiong, 2021
4. "Integrated Train Operation Control Considering Train Delays and Passenger Flow Distribution" - Hua Wei, Xiao-jun Zhou, Xian-lun Tang, Jun-qing Li, 2014
5. "A Decision-Support System for Urban Rail Transit Operation Control" - Yuanguo Zhu, Qixin Zhu, 2015
6. "A Data-Driven Approach for Train Rescheduling Based on Historical Delay Patterns" - Adrien Guerin, Victor Pillac, Fabien Moutarde, 2015
7. "Neural network-based train detection using fiber Bragg grating sensors in rail transportation systems" - Xiaojing Hu, Jiawei Liu, Hongnan Li, Qi Liu, Changsheng Yang, Yaxin Bi, Jun Yang, 2019
8. "Application of Artificial Intelligence Techniques in Railroad Transportation" - Ercan Cicek, 2019
9. "Optimal Control of a Fleet of Trains" - Eduardo I. Palou, Daniel J. Rivera, 2011
10. "Predictive control of trains with time-varying delays and speed restrictions" - Georgios Theodoropoulos, Nicolas van de Wouw, 2013

## THE PECULIARITIES OF SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION OF YOUNG PEOPLE THROUGH FOLK EPICS

**Anorov Mashrab Rakhmatullayevich**

Graduate of the International University of Asia

### ABSTRACT

This article highlights the features of the Uzbek folk epics, which served to enrich the spiritual heritage of the Uzbek people, to educate young people in the spirit of patriotism, regarding the duration of the creation of the foundation in the spiritual elevation of the harmonious generation.

**Keywords:** Epic, “happiness”, “enlightenment”, “heroic epic”, “lyricism”, “plot”, “novel”, “fantastic-allegorical”, “aesthetic views”.

Uzbekistan is a unique ethnographic country. In other words, the land of the Bakhshi. In addition, Uzbek folk epics tell the story of the distant past of our ancestors. They embody the aspirations and intentions of our people. Human qualities such as courage, courage, patriotism, devotion to the motherland are glorified in our epics. For this reason, it is also an immortal heritage. Examples of bakhshiqi art will not only give pleasure and enthusiasm to the audience, but will also pack the seeds of good in the hearts, radiate the light of enlightenment. Our president ana therefore came up with a noble initiative. Let us preserve this immortal heritage, let the whole world enjoy them, he said. Thus, the International Festival of culinary arts was founded and this prestigious event was held every two years in Termez.

“Bakhshis are not only a reflection of the past, but also a resonant voice of today,” said the head of our state. Can Evil really come out of the path of life of our ancestors, from a man who grew up a lesson from the courage of mardligu?! Take the epic of one Uzbek hero – The Epic “Alpomish”. How much wisdom there is, there is history in it. Interesting facts about farming, livestock, crafts, folk games are also plotted.

The process of the transition of our ancestors from the system of seeding to the system of statehood is also clearly reflected. On the example of a conflict between a brother and a brother Boybo‘ri and Boysari! This is manifested in the event that the Agha demands taxes from the Inis for the treasury of the country.

There is another invaluable value of “Alpomish”. In the epic, The Tablet of Hakimbek to bring everyone from the land of the Kalmyks is very impressively expressed. Strange adventures, a clash with Kalmyks, the courage of the main character... on the basis of these, patriotism, the struggle for the interests of the land

the idea comes to the first plan. This gives the work national epic status. The conclusion is also instructive: love for the motherland – above personal interests!

**Epic**, poem — liro-epic genre; fiction of the same genre. It is widespread in Uzbek folk, oral creativity and Uzbek classical literature. In the epic, a certain story is told using liro-epic image tools. It covers a wide range of life, reality, features one or two protagonists, while the characters are plentiful. The plot is flashy, colorful. Epics in folk oral creativity nazm and nasrav., The Epics in the written literature are in Nazm, in which prose serves as a link to events. In the epics in written literature, lyricism is stronger, especially in the modern epics, the lyrical basis is more salient. The Epics in World Classical literature are distinguished by their wide coverage and size, raised social, political, moral problems, sharpness of plot and dramatism, an abundance of characters. In the center of such works stands the fate of society and the People, Society, the people and the hero are depicted in a single whole, there is no conflict between them, but the struggle between the same people, the same hero and external enemies, the conflict between good and evil. The ideas of patriotism, heroism, humanism, affection, friendship and loyalty, and hard work are promoted. The first epics appeared in Greece. They were sung about the courage of the legendary heroes, the karomat of the gods. Homer's "Iliad" and "Odyssey", Dante's "Divine Comedy", Firdawsi's "Shohnoma" are ancient examples of the epic genre. The epics, in their essence, are heroic ("Alpomish", "Farhod and Shirin"), adventure-detective ("Sabbai sayyor"), romantic ("Tohir and Zuhra", "Layli and Majnun"), battlebook ("Yusuf and Ahmad", "Saddi Iskandariy"), historical-memoir ("Shayboniynoma", "Jizzax qo'z g'oloni"), philosophical ("Hayrat-ul-abror"), fantastik-allegorik ("Lison uttayr"), didactic ("Qutadg'u bilig") of type. In heroic epics, the fate of the people, society is depicted, while in romantic-romantic epics, the adventure of lovers is paramount. Historical-memoir or historical-biographical epics symbolize and exaggerate any historical figures. In general, idealization, an exaggerated image will prevail in the epics, in which various legends, as others, stories, Giants, fairies, Khizr, Dragons, strange horses (Boychibor in "Alpomish"), Magic are much involved. Folk epics are performed by Bakhshi, narrator and folk poets under the tutelage of dutor, drum and folk instruments. While the epics in the written literature with The Epics in folklore look uniformly in form, the epics in the written literature differ in the way the writer perceives, evaluates the world in his own way and expresses his ideas, dream ropes. Although a folkloric theme stood on the basis of most of Nawab's epics, including "Layli and Majnun", "Saddi Iskandari", the poet radically recreated them based on his aesthetic views and artistic intention. The Uzbek Epic has grown and matured over the centuries, and its shape has become more colorful. In the O'hun-Yenisei inscription, Avestoyaa, in the fragments of the Ancient Epic in the "Devonu



lexicotit turk", in the "Book of Dodam Qo'rut", the property of Turkic peoples, and especially in the "Alpomish", "Goroglu" series of epics, one can kurish the ways of progress, periods of Uzbek Epic. Navoi "Hamsa" was a high peak in the history of Uzbek Epic. In "Hamsa", in Gegel's phrase, the description of the "heroic state of the world" is strong, its philosophical-moral content is deep, in which the perfection of the individual, the fertile in-son and the just society are promoted, the roots of good and evil are sought. When it comes to the 20th century, the Uzbek Epic hajman narrows, the lyricism intensifies. The perception and truthful depiction of the world, reality and the human world of ru-hi, spiritual experiences remained the chief virtue (Mirtemir's epic "The Picture"). Legends and asothers also actively entered the current epics. E. Vohidovnit "Rukh Revolt", a. In Oripov's epics" the road to Paradise", these news are clearly curied. In modern Uzbek epics, the characters of the drama genre (conflict, dialogue), especially the elements of the epic image, were activated. (E. Vohidov, "Istanbul tragedy", O. Matjan," Pakhlavon Mahmud", etc.

In addition, lyrical epics are also being created, consisting of the poet's feelings, impressions, etchings, experiences. The decrease in epics in Uzbek literature of the 20th century can be explained by the development of the novel genre. The saga genre is also used when writing large-scale poetic works aimed at children, explaining reality on the basis of myths, asothers and fairy tales.

Today it is important that in the upbringing of a person, it is impossible to achieve effect without affecting his mental state. In folk oral creativity, generational education is carried out precisely using this method. In particular, in the epic" Alpomish", the enemy, benefiting from the simplicity and reliability of Alpomish, traps him and his partners. The hero's vigilance by drinking may one day causes the to lie in a 7 year dungeon. Or because of the intolerance of the brothers boy and Boysarinmg in the epic, unique visions fall on the heads of ON thousands of Calluses. From this it becomes clear that our wise people have chosen the most spiritual path in the education of young people, unaware of the modern achievements of psychology. In pedagogy, special attention is paid to the issue of educating the younger generation in the spirit of patriotism, popularism, hard work, rostgo ylik. In addition, the people dreamed that their children would grow up elegant, strong-willed, humane. Challenged in works of folk oral fiction, the hero corrects the shortcomings of his character and reaches his goal. These examples also confirm that the oral creativity of our people has an important educational value close acquaintance with folk oral creativity shows that there is no place left for Human education in these works. In particular, in some fairy tales there are riddles that check the fragility of the hero of the work. In a number of epic works, however, it is emphasized that the person who did evil in life does not go unpunished. Issues related to the upbringing of indirect young children have also taken

a significant place from the samples of folk oral creativity. In this regard, we mean figurative thinking in riddles, attention is paid to the formation of speech organs in quick utterances, and physical education is harmonious with aesthetic education in children's songs. Thinking specifically about the connection of folk oral creativity and folk pedagogy, it is advisable to pay attention to the maritime significance of the work under study, since through the epic and fairy tales, which occupy a large place in folk oral creativity, the sun in ancient times to the younger generation. the sanctity of such concepts as earth, water, horse, camel, tiger, fish, swallow, quince, maple is justified. Also, such works give clear information about how ceremonies such as weddings, mourning are held, as a result of which the audience of sagas and fairy tales is brought up in the spirit of our national values, on the one hand, through life, on the other, through examples of artistic creation. This was considered a factor in the assimilation of nationalism and nationalism, the foundations of the ideology of independence, which are given special attention by our state today

In pedagogy, special attention is paid to the issue of educating the younger generation in the spirit of patriotism, popularism, hard work, honesty. In addition, the people dreamed that their children would grow up elegant, strong-willed, humane. Challenged in works of folk oral fiction, the hero corrects the shortcomings of his character and reaches his goal. These examples also confirm that the oral work of our people has an important educational significance-a close acquaintance with the oral work of the people shows that there is no empty place left in these works on human education. In particular, in some fairy tales there are riddles that check the fragility of the hero of the work. In a number of epic works, however, it is emphasized that the person who did evil in life does not go unpunished. Issues related to the upbringing of indirect young children have also taken a significant place from the samples of folk oral creativity. In this regard, we mean figurative thinking in riddles, attention is paid to the formation of speech organs in quick utterances, and physical education is harmonious with aesthetic education in children's songs<sup>1</sup>.

Scientists' observations confirm that even during the performance, listeners make changes to the copy of the work in question by expressing their own interest in the events depicted in the work. We think that this process will also be possible to associate with the sign of community in folklore. Consequently, in folk oral creativity, the concept of communalism and individual creativity does not deny each other. The publicity, on the other hand, is due to the fact that the sample of folklore created is distributed in all areas inhabited by folk representatives of the Taug ri, these areas can sometimes be historically - ethnographically delimited. For example, works of epic,

---

<sup>1</sup>. Mo'minjon Sulaymonov. O'zbek xalq og'zaki ijodi. Namangan -2008. P. 5

fairy tale, Ascian and other genres are not performed the same in all regions of Uzbekistan. But nevertheless, the publicity in the distribution of the works continues to confirm that each sample belongs to the cultural heritage of the Uzbek people.

So, examples of folk oral creativity are invaluable masterpieces that embody rich life experiences.

#### **REFERENCES:**

1. R.Yunusov. O‘zbek xalq musiqa ijodi. II jild. Toshkent. 2000
2. T.Mirzaev. Epos i skazitel.Toshkent. 2008.
3. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi . 2000
- 4.“Go‘ro‘g‘li” dostonlari O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Toshkent.1994
5. Mo‘minjon Sulaymonov. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. Namangan -2008.5-6 bet.

## SPORT JURNALISTIKASI SHAKLLANISHINING TARIXIY ASPEKTI

**Mehrangiz Mutinova Saidavzalovna**

O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar  
universiteti 2-kurs magistranti

### ANNOTATSIYA

Kechagi kunning maqsadli o‘tishi ertangi kunning muvaffaqiyat kalitidir. Asrlar davomida jismoniy tarbiya ko‘ngilochar vositadan, hayotning asosiy mazmuniga aylanib bordi. Tarixiy manba va milliy o‘yinlarimiz, yurtimiz va dunyo miqyosida sportning shakllanish aspektini yoritib berdi.

**Kalit so‘zlar:** sport, jurnalistika, aspect, tarixiy manba, milliy o‘yinlar.

Jurnalistika – bugungi kunga kelib dolzarb va ahamiyatga ega bo‘lgan ijtimoiy guruhlarining saralangan dalilni sharhlash va baholash yordamida dunyoqarashni kengaytirish vazifasini bajaradi. Jurnalistikaning mohiyatida voqealar haqida ma’lumotlar talqini, zamonaviy hayot mavzulari va yo‘nalishlari, turli janrlar, uning taqdimot va shakllari, shuningdek mahsulotni sharhlash hamda yig‘ish amaliyoti va bularni ommaviy auditoriyaga tarqatish jamlanadi. Ilmiy nuqtai nazardan olib qaralganda jurnalistika bu ommaviy axborot vositalarining bir qismi hisoblanadi, shu jumladan uning tarkibiga ko‘p tarmoqli jamiyat institutlari: matbuot, radio, televidenie va internet kiradi.

Ba’zi tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra jurnalistika ikkita asosiy: ilmiy – tadqiqot va jurnalist surishtiruvchi yo‘nalishlariga bo‘linadi. Odatda jurnalist tadqiqotchi ochiq oydin bo‘lgan manbalar bilan ishlaydi. Jurnalist surishtiruvchi, surishtiruv jarayonida yopiq ya’ni mavjud bo‘lmagan ma’lumotning ichiga kirib tergov olib boradi.

Mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy hayotida ro‘y berayotgan ulkan o‘zgarishlar qatorida ommaviy axborot vositalarida ham rivojlanish tomon siljish bo‘layotganini aytib o‘tish joiz. Mustaqillikka erishishimizdan so‘ng jurnalistika sohasiga alohida etibor berila boshlandi va bir qator ishlar amalga oshirildi. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad yosh yetishib kelayotgan jurnalistlar faolligini oshirib, ularning fikr doiralarini kengaytirish, jurnalistlar chiqishlarini kuchaytirish, jahon miqyosida o‘zbek jurnalistikasi ham rivojlangan mamlaktlar jurnalistikasi singari tengma teng raqobat olib borish darajasiga yetishishi uchun harakat qilishdir.

Jurnalistika ta'limida ixtisoslashuv bo'yicha jahon tajribasida quyidagi yo'nalishlarda mutaxassislar tayyorlanadi:

- Gazeta jurnalistikasi;
- Televidenie jurnalistikasi;
- Radio jurnalistika;
- Xalqaro jurnalistika;
- Internet jurnalistikasi;
- Fotojurnalistika;

Shuningdek quyidagi yo'nalishlar ham jurnalistika ixtisosligi bo'yicha tarmoqlangan:

- Reklama;
- OAV iqtisodi va menejmenti;
- Ommaviy axborot vositalari va kommunikatsiya dizayni;
- Parlament jurnalistikasi;
- Sport jurnalistikasi;<sup>2</sup>

Ixtisoslashuv masalasi jurnalistika samaradorligining omili. Ayniqsa, sport sohasiga ixtisoslashuv masalasi bugungi kun jurnalistikasining dolzarb vazifalaridan biriga aylanib ulgurdi.

Ijtimoiy – siyosiy, madaniy, iqtisodiy sohalarni qamrab olgan jurnalistika hayotimizga sport jurnalistikasini ham olib kirdi. Yurtboshimiz I.A. Karimov “Jismoniy tarbiya va sport yurtimizning har qaysi shahar va qishloqlariga, har bir xonadonga kirib borishiga erishish shu asosida hayotimizga sog'lom turmush tarzini qaror toptirish bizning intilishlarimizning uzviy bir qismiga aylanishi zarur”<sup>3</sup> – deb aytgan edi. Aynan sport sohasi sog'lom turmush tarzini qaror toptirish bilan birga, mamlakatni dunyoga mashhur qila oladi, davlat jahon arenalarida o'z o'rniga ega bo'ladi.

Jismoniy tarbiya va sport tarixi jahon xalqlari madaniy tarixining asosiy qismidir, O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov: “Tarixga murojaat qilar ekanmiz, bu xalq xotirasi ekanligini nazarda tutishimiz kerak. Xotirasiz barkamol kishi bo'lmaganidek, o'z tarixini bilmagan xalqning kelajagi ham bo'lmaydi”<sup>4</sup>, - deb yangi tariximizga yo'l ochib berdi. Buni yurtimizning mustaqilligi yillarida amalga oshirilgan ijtimoiy madaniy islohotlarning samarali natijalarida ko'rish mumkin. O'zbekiston xalqlaro miqyosidagi nufuzida jismoniy tarbiya va sport sohasidagi

<sup>2</sup> [www.databaseolympics.com](http://www.databaseolympics.com)

<sup>3</sup> Akramov A.K. “O'zbekistonda jismoniy madaniyat va sport tarixi”. T., 1997.Karimov Sh., Shamsutdinov R. Vatan tarixi. T., O'qituvchi, 1997

<sup>4</sup> Akramov A.K. “O'zbekistonda jismoniy madaniyat va sport tarixi”. T., 1997.Karimov Sh., Shamsutdinov R. Vatan tarixi. T., O'qituvchi, 1997

yutuqlarining ham o'ziga xos xususiyatlari hamda ijtimoiy-tarbiyaviy o'rni g'oyat kattadir.

Qadimda O'zbekiston hududida yashagan xalqlarning turmush sharoitlarida, o'z vatanlarini himoya qilishda jismoniy tarbiya vositalaridan foydalanish kabi madaniy hamda jangavorlik faoliyatlari alohida o'rin tutadi. Bu davrda yashagan xalqlar o'rtasida jangavorlikni oshirish o'z hududlarida osoyishtalikni ta'minlash, xalq farovonligini yuksaltirish uchun o'tkazgan diniy, madaniy marosimlar, to'ylar va turli an'analarda kamondan o'q otish, qilichbozlik va nayzabozlik qilish, kurash, ot o'yinlari hamda boshqa xalq milliy harakatli o'yinlari bilan mashhur bo'lganlar. U davrda bugungi axborot yetkazishning zamonaviy texnologiyalari rivojlanmagan bo'lsada insoniyat to'y, marosim va turli bayramlarda o'z ishtiroki va guvohligi bilan ma'lumot to'plashi barobarida, jarchi, xabarchi xizmatlari orqali turli ma'lumotlardan muntazam ravishda xabardor bo'lishgan.

Qadimgi ajdodlarimizning ijtimoiy-madaniy turmush sharoitida jismoniy tarbiya vositalarining (turli o'yinlar, otda yurish, kurash, nayza uloqtirish va h.k.) qo'llanilishi haqida «Avesto», «Alpomish», «Go'ro'g'li», «Qirqqiz», «Manas», «To'maris» kabi tarixiy manbalar hamda xalq og'zaki ijodi guvohlik beradi. Qadimgi ajdodlar jismoniy madaniyati ayniqsa «Alpomish» dostonida ko'proq ifodalangan. «Alpomish» dostonida kurash, otda poyga, kamondan o'q otish, merganlik kabi jismoniy sifatlar, vatanparvar va xalq uchun, sevikli yori uchun jonini ham fido qilish kabi eng ulug' insoniy fazilatlar madh etilgan. «Alpomish» dostonining ijtimoiy-tarbiyaviy xususiyati shundaki bundan bir necha ming yillar muqaddam mavjud bo'lgan urf-odatlar, marosimlar, ayniqsa, yigit va qizlarning bir-biriga vafodorligi, jismoniy jihatdan o'ta barkamolligi, dushmanlarga shafqatsiz kurashlari odilona bayon etilgan. Shu o'rinda xalqimizning milliy o'yinlariga nazar solsak. Xalq milliy o'yinlari bir necha yo'nalishlarga ega bo'lib, ularning tarkibida raqslar, laparlar, aytishuvlar, askiyalar va juda ko'p janrlardagi san'at ancha ustun turadi. Shuningdek, ular qatorida ajdodlardan meros bo'lib kelayotgan qator harakatli o'yinlar va sportga xos o'yinlar ham juda ko'p. Ularni quyidagi asosiy guruhlariga ajratish mumkin, ya'ni:

1. Kurash (buxorochocha, farg'onacha, xorazmcha usullar).
2. Ot o'yinlari (ko'pkari-uloq, poyga, otdan ag'darish, chovg'on va h.k).
3. Dorboz o'yinlari (dor ustidagi mashqlar, hazil va aytishuvlar).
4. Tosh ko'tarish.
5. Arqon tortishish.
6. Kuch sinashish.
7. Harakatli milliy o'yinlar.

## 8. Yugurish musobaqalari (batba)<sup>5</sup>

Bunday o'yinlarning deyarli barchasi ommaviy bayramlar, musobaqalar va to'ylarda keng qo'llangan. Dostonlarning tarbiyaviy jihatlari shundaki, xalq irodasi, an'analar, urf-odatlar mazmunida otda chopish, jang qilish, qilichlashish, kurash, kamondan o'q otish kabi jismoniy faoliyatlar yuqori saviyada madh etilgan. Bunda dushmanlar bilan mardonavor jang qilishgan yigit va qizlar timsoli tasvirlanadi. Xalq og'zaki dostonlarida xalq irodasi, yovuz kuchlar va yigit-qizlarning sevgi-muhabbat yo'lida qurbon bo'lganliklari bayon etilishi bilan birgalikda, jasur, botir, pahlavon, chavandoz kabi sifatlar ham o'z ifodasini topgan. Bu qadimgi afsona va dostonlar orqali bizga qadar yetib kelgan sport turlari buyuk sarkardalar faoliyatida yanada rivoj topdi.

Tarixga, jahongir Amir Temur hayoti va faoliyatiga nazar solsak, Amir Temur yoshligidan harbiy mashqlarga nihoyatda qiziqqan bo'lib, o'zi ham urushlarda bir necha bor faol qatnashib tajriba orttirgan va mohir jangchi bo'lib yetishgan. Amir Temur o'zining amirlari, vazirlari, mingboshi, yuzboshi, o'nboshi va alp yigitlari, bahodirlariga jang sirlaridan shaxsan o'zi saboq bergan, shogirdlar tayyorlagan. Otda jang qilishda qilich, nayza, kamon-yoy, to'qmoq, kaltak, qamchi, arqon va hokazolardan foydalangan. Bu qurollar bilan jang qilish oson emas. Har bir jangchi kuchli, epchil, jasur, mergan bo'lgan. To'g'ri kelganda yakkama-yakka ot ustida olishuv, tortishuv, og'darish, savalashish kabi tabiiy harakatlardan ham mardonavor foydalanganlar. Bu faoliyatlarni ham Amir Temur va uning maxsus sarkardalari jangchilarga qunt bilan o'rgatgan, ta'lim bergan. Amir Temur dam olish vaqtlarini ov qilish, sahro va tog'larga sayr qilish bilan o'tkazgan. Bunday hollarda otda va piyoda tog'larga chiqish, arqon, tayoqlardan foydalanish usullarini o'ylab topgan. Jangchilarga dam olish bergan paytlarda ularni poyga, kurash, qilichlashish, ko'pkari kabi mashg'ulotlar bilan shug'ullanishga da'vat etgan. Shaharlardagi qal'alarni egallashda Narvon, arqondan osilib chiqish, tushish usullaridan keng foydalanganlar.

«Amir Temur» tarixiy romanida tog'dagi yurish va janglar haqida shunday deyiladi: «Hammayoq yaxmalak edi. Shuning uchun ba'zilar arqon, narvon vositasida, arqoni yo'qlar sirpanib daraga tushdilar. Hazrat Sohibqiron maxsus o'zi uchun yasalgan bir yuz ellik gazlik cho'p narvon yordamida daraga tushdi... ertasi kuni quyosh tig' urmasdan, yana bir tog' cho'qqisiga ko'tarildilar. Yana ikki kun shu tariqa kechdi». Tezkor va katta daryolardan kechib o'tish oson emas, albatta. Amir Temur bunday paytlarda meshlar, yog'ochlardan yasalgan sollar, arqon tortib undan ushlab o'tish usullari va boshqalardan foydalanganlar. Jangovorlik faoliyatida tog', o'rmon,

<sup>5</sup> Eshnazarov J. "Jismoniy tarbiya tarixi va boshqarish". T., 2008  
Xoshimov K., Nishonova S., va boshqa "Pedagogika tarixi". T., O'qituvchi, 1997  
Xojayev F. "O'zbekistonda jismoniy tarbiya". T., O'qituvchi, 1997

sahrolarda, ayniqsa, kechasi va tuman kunlarida manzilga adashmay topib borish, chamalay bilish quyosh, oy, yulduz, soya, shamol va boshqa omillardan foydalanishni yaxshi bilgan. Amir Temur faoliyatida harbiy-jismoniy mashqlardan foydalanish eng ustuvor tadbirlardan biri bo'lgan.

Temuriylar orasida davlatni idora qilish, madaniy-marifiy jihatdan uni yuksaltirishda tarixda katta o'rin egallagan ahamiyatli shaxs - Zahriddin Muhammad Boburdir. Boburiylar sulolasi Hindistonda 300 yildan ortiqroq hukm surgan. Boburning otasi Umarshayx Mirzo Amir Temurning nabirasi, Farg'ona davlatining hokimi bo'lgan. Bobur yoshligidan ilm-fanga, she'riyatga qiziqqan, dovyurakligi va jasurligi uchun u yoshligidan "Bobur" (Sher) taxallusini olgan. U o'z hayoti, zamonasi va barcha voqealarni "Boburnoma" asarida yozib qoldirgan. Unda Hindikush tog'laridan otda uzoq mamlakatlarga o'tgani, tog'u-toshlarda chiniqish uchun yalangoyoq yurgani, kuch-g'ayrat to'plab jang qilgani haqida hikoya qiladi.<sup>6</sup>

Taniqli adib Pirimqul Qodirov "Yulduzli tunlar", "Bobur", "Avlodlar davoni" tarixiy romanlarida faqat tarixiy voqealar, Bobur hayotinigina emas, balki o'sha davr madaniyati, urf-odatlarini, mashshaqatlarga bardosh berishi, jismonan chidamli va kuchli bo'lishlik kabi ijtimoiy-tarbiyaviy tomonlarga katta e'tibor bergan. Bu esa hozirgi avlodlar, ayniqsa, yoshlarni vatan tuyg'usi, uni himoya qilish, jangovarlik ruhini mustahkamlashda xizmat qiladi. Buyuk sarkardalar Amir Temur, Zahriddin Muhammad Bobur va undan keyingi davrdagi hokimiyatni boshqaruvchilar o'z jangchilarini faqat jang qilish san'atinigina emas, balki ularni jangovarlik ruhida tarbiyalashning asosiy mazmuni jismonan kuchli, epchil, chaqqon, chidamli bo'lishga ham o'rgatganlar. Bunga yuqorida qayd etilgan jismoniy tarbiya vositalarini maqsad yo'lida ishlatganlar.

Xulosa qilib aytganda, uzoq va yaqin o'tmishimizda xalqimizning jismoniy madaniyati mazmun jihatdan ijtimoiy-tarbiyaviy sohada o'ziga xos milliy xususiyatlar bilan boyib kelgan. Ularning tarixiy yo'nalishlari hamda ilmiy-nazariy jihatlarini o'quvchi yoshlarning jismoniy tarbiya darslarida mukammal o'rganishlari davr talablari asosida ta'minlash bugunning dolzarb muammolaridan biridir. Jahonga dong'i ketgan sarkarda Amir Temurning askarlarini chiniqtirish yo'lidagi har bir harakati asrlar oshib bugungi kunga kelib ma'lum bir sport turiga aylandi. Natijada milliy sport turlarimiz va sport jurnalistikasi rivojiga hissa qo'shgan asosiy omillardan biri bo'ldi.

Sport bugun yurtimiz ta'lim-tarbiya tizimining uzviy qismiga aylangani alohida tahsinga loyiq. Yoshlar orasida suzish, baydarka va kanoeda eshkak eshish, dzyudo, badiiy gimnastika, shaxmat, futbol, mini-futbol, stol tennisi, kurash, yunon-rum kurashi, boks, yengil atletika, qilichbozlik singari sport turlariga qiziqish tobora

<sup>6</sup> Akramov A.K. "O'zbekistonda jismoniy madaniyat va sport tarixi". T., 1997. Karimov Sh., Shamsutdinov R. Vatan tarixi. T., O'qituvchi, 1997



ortmoqda. Yurtimizda keyingi yillarda sport majmualari barpo etish borasida ulkan tajriba to'plandi. Bugun eng chekka hududlarda qad rostlayotgan sport inshootlari ham xalqaro talablarga to'la javob beradi. Sport majmualarining deyarli barchasi yurtimizda ishlab chiqarilgan sport inventarlari bilan jihozlanmoqda. Bugungi kunga kelib, ham ma'nan, ham jismonan barkamollikka intilish – qaysidir oliy tabaqaga mansub kishilarning shohona imkoniyati va imtiyozi emas, balki bu – har bir shaxs, har bir individning fuqarolik burchi va vazifasiga aylanib o'zi qiziqqan sport turi bilan shug'ullanishga barcha imkoniyatlar yaratib berildi.

Sport jurnalistikasi tarixining dunyoda rivojlanish bosqichiga etibor qaratsak, Evropada aynan, XIX asrning oxiriga kelib, Qadimgi Yunoniston diniy marosimlaridan biri bo'lgan Olimpiya o'yinlarining qayta tiklanishi hamda uning dunyo bo'ylab tarqalishi sport, ya'ni jismoniy tarbiya madaniyatiga bo'lgan yangicha qarashlarga asos soldi. Bunda hammabop sport turlari qatori oliy tabaqa kishilariga xos sport turlarining ommalashishi, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar – har qanday odam o'zining kuchi va qobiliyatini namoyish qilib, jamiyatdagi o'rni va obro'siga ega bo'lishiga imkoniyat yaratdi. Shu bilan birga, avom xalqning ko'ngilxushligi deb hisoblangan ba'zi bellashuvlar sport turi sifatida tan olina boshlandi. Sportga, jismoniy tarbiya madaniyatiga berilayotgan etibor natijasida, aynan shu davrda, sport jurnalistikasi shakllandi, rivojlandi, ommalashdi va taraqqiy eta boshladi. Tarixni kuzatar ekansiz, sportning rivojlanishi sport jurnalistikasining taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liqligini ko'rish mumkin. Qaysi mamlakatda sportga davlat siyosati darajasida etibor berilar ekan, o'sha yurtda sportni OAV yordamida keng yoritilishi, targ'ib qilinishini ham kuzatish mumkin.

Yurtimizda sport jurnalistikasi – jurnalistikaning alohida ko'rinishi, o'ziga xos yo'nalishi sifatida taraqqiy eta boshladi. 1932 yildan beri chop etiladigan "O'zbekiston fizkulturachisi" gazetasi 1993 yildan boshlab o'zbek va rus tillarida "Sport" nashri sifatida keng ommaga havola qilina boshladi. 2004 yilda O'zbekiston Milliy teleradiokampaniyasi tasarrufida "Sport" telekanalining tashkil etilishi, o'zbek sport jurnalistikasini yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tardi. Bugungi kunga kelib 24 soat, ya'ni tunu kun davomida faoliyat ko'rsatayotgan bu telekanal yurtimizda hamda dunyoda sodir bo'layotgan barcha sport voqealarini yoritish, tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Yurtimizda sport sohasida amalga oshirilayotgan ijobiy ishlarni targ'ib qilish va ommalashtirish borasida amalga oshirilgan ijobiy ishlar ko'p jihatdan sport jurnalistikasi qay darajada rivojlanganligini ko'rsatib kelmoqda. Sportning ommalashishi, sport jurnalistikasining taraqqiyoti bugungi kunda qanday ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyatga ega ekanligi borasidagi savolga javob berish o'rinli. O'tgan asrda sport muayyan bir soha, ilmiy izlanish va nazariy yo'nalish sifatida tan olindi. Sport tibbiyoti, sport psixologiyasi kabi fan sohalarining rivojlanishini, sport uyushmasi

tuzilishi, sport anjomlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonalar va tashkilotlarning faoliyati bunga yaqqol misol bo'la oladi. Bularning bari sport sohasining jamiyatda o'z o'rnini borligini isbotlaydi. Axborot asri, globallashtirish davri deb nom olgan bugungi kunga kelib giyohvandlik, OITS va turli og'ir darajadagi virusli bedavo dardlar o'z yechimini kutar ekan, ularning oldini olish chora tadbirlari samarali yechim bo'lmoqda. Sog'lom turmush tarziga rioya qilish, sport bilan shug'ullanish bu masalaning eng sodda va hammabop javoblaridan biridir. Shu bilan birga kamharakatlik, undan kelib chiqadigan turli salbiy oqibatlar ham, aynan, jismoniy tarbiya bilan shug'ullanish yordamida echimini topadi. Yoshlarning vaqtini mazmunli o'tkazish bilan katta miqdordagi cheklanmagan va saralanmagan axborot oqimidan himoya qilish, turli siyosiy guruhlar, zararli oqimlarga qo'shilishdan saqlab qolish imkoniyatini beradi. Texnika taraqqiy etgan bugungi davr nafaqat jismonan sog'lom, balki imkoniyati cheklangan odamlarning sport bilan shug'ullanishi hamda turli musobaqalarda qatnashishlari uchun sharoit hozirlamoqda. Ular jamiyatda o'z o'rinlarini topishga, kimgadir boqimanda bo'lmay jamiyatimizning teng huquqli a'zosi sifatida hayot kechirishga intilmoqdalar. Shu bilan birga, bolalarda ko'p uchraydigan, ba'zan jarrohlik yo'li bilan shifo topiladigan kasalliklar ham, aynan, sport mashg'ulotlari yordamida bartaraf etilayotgani bugungi kunda jismoniy tarbiyaning nechog'lik ahamiyatga ega ekanligini belgilab beradi.

Sport jurnalistikasi atamasi – «sports journalism» ingliz tilidan olingan bo'lib, sport mavzusidagi axborotni yig'ish, saqlash, tahlil qilish, dasturlash vazifalarini bajaradigan jurnalistika shakli yo'nalishlaridan biridir.<sup>7</sup>

Bugungi kunda rivojlangan davlatlarda sport yo'nalishidagi OAV daromad keltiradigan, auditoriyani jalb qilishda siyosiy, ijtimoiy mavzuda butun dunyoga material tayyorlaydigan yetakchi tashkilotlardan qolishmaydi. Ammo doimo ham shunday bo'lmagan.

XIX asrning 80-yillari o'rtalaridan boshlab sport jurnalistikasi jamoatchilikning qiziqishini qozonishga muvaffaq bo'ldi. Ommaviy axborot vositalari yordamida sport ko'proq e'tiborni tortadi. Sport va ommaviy axborot vositalari o'rtasidagi munosabatlarning mohiyati 1830-yillarda Amerikada aniq bo'ldi. Amerikaning ilk sport jurnallari 1820-yilning oxirida paydo bo'lgan. 1835 yilgacha 7 tagacha jurnal nashrdan chiqqan. 1835 yilga kelib ularning ikkitasigina faoliyatini davom ettirgan. Ularning yetakchisi American Farmer va American Turt Register nashrlaridir.

XX asrning boshida sport jurnalistikasi rivojlanishi jadal davom etadi. 1900 – 1918 yillarda sport jurnalistikasi sohada o'z o'rnini, mavqei borligini isbotlashga erishadi. 1910 yilda barcha gazetalarda yirik sport voqealariga katta e'tibor qaratishadi.

<sup>7</sup> Yulduz Ortiqova "Sport jurnalistikasi". T., 2016

1903 yilda beysbol bo'yicha birinchi musobaqalar start oladi. Birinchi jahon urushi paytida sport askarlar o'rtasida ommalashadi. Tarixda 1920 yillar sport jurnalistikasining oltin davri deb e'tirof etildi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. Akramov A.K. "O'zbekistonda jismoniy madaniyat va sport tarixi". T., 1997.
2. Karimov Sh., Shamsutdinov R. Vatan tarixi. T., O'qituvchi, 1997
3. Akramov A.K. "O'zbekistonda jismoniy madaniyat va sport tarixi". T., 1997.
4. Karimov Sh., Shamsutdinov R. Vatan tarixi. T., O'qituvchi, 1997
5. Eshnazarov J. "Jismoniy tarbiya tarixi va boshqarish". T., 2008
6. Xoshimov K., Nishonova S., va boshqa "Pedagogika tarixi". T., O'qituvchi, 1997
7. Xojayev F. "O'zbekistonda jismoniy tarbiya". T., O'qituvchi, 1997
8. Karimov Sh., Shamsutdinov R. Vatan tarixi. T., O'qituvchi, 1997
9. Yulduz Ortiqova "Sport jurnalistikasi". T., 2016
10. [www.database.olimpics.com](http://www.database.olimpics.com)

## SPORT MAVZUSINING YORITILISH TENDENSIYALARI

**Mehrangiz Mutinova Saidavzalovna**

O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar  
universiteti 2-kurs magistranti

### ANNOTATSIYA

Mustaqillik tufayli o‘zligimizni angladik, ozod xalq, mustaqil davlat, sifatida O‘zbekistonning bor bo‘y bastini, ulkan salohiyatini butun dunyoga namoyon qilish imkoni ochildi. Darhaqiqat sport sohasidagi yutuqlarning bardavomligi, tendensiyalar va ijobiy natijalarning yuqori darajadaliqi quyidagi maqola mazmunida iofodalangan.

**Kalit so‘zlar:** sport, kamera, kommunikatsiya, telekanal, olimpiya, translyatsya, tendensiya, musobaqa, federatsiya.

Respublikamizda jismoniy tarbiya va sportning ommalashuvini yanada yuqori pog‘onaga ko‘tarish, jismoniy madaniyat harakatini rivojlantirish, xalq milliy o‘yinlarini qayta tiklash, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, zamonaviy sport turlari bo‘yicha iqtidorli sportchilarni tayyorlash va ularning sport mahoratlarini oshirish maqsadida mamalakatimizning birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan amalga oshirilgan ishlar, qabul qilingan farmon va qarorlari mamalakatimizda sport sohasini ommalashtirish va rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

O‘zbekiston hukumati sportni davlat siyosati darajasiga ko‘targan mamlakatlardan biri hisoblanadi. Ayni paytda kelib O‘zbekistonda sportning barcha turlarini ommalashtirishga jiddiy e‘tibor berilmoqda. “Hech narsa mamalakatni sport kabi dunyoga mashhur qila olmaydi”<sup>8</sup> degan edi. O‘zbekiston Prezidenti I.A.Karimov “Tashkent open” birinchi tennis turnirining ochilish marosimida so‘zlagan nutqida. Ayniqsa, milliy sport turlarini xalqaro miqyosga olib chiqish bu borada dadil qadam bo‘ldi. Hech ikkilanmay aytish mumkinki, O‘zbekiston sporti kurash sport turini jahon miqyosida ommalashtirishga erishdi. Bunda ommaviy axborot vositalarining o‘rni katta ekanligini ta’kidlash lozim.

Mamalakatimiz mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab bu sohada o‘ziga xos islohotlarni amalga oshirish borasida muayyan ko‘rinishdagi huquqiy bazasini shakllantirdi.

Davlatimizda sport sohasidagi islohotlar keng ko‘lamda amalga oshirilmoqda. Buni yurtimizda 50 dan ortiq sport turi ommalashib 30 tasi Olimpiada o‘yinlari

<sup>8</sup> <http://www.yoshlar.ittifoqi.uz/uz/news/jismoniy-tarbiya-va-sport-sohasini-rivojlantirish-masalalarining-muhokamasi>

dasturiga kiritilganidan, sport inshootlari sportchi yoshlarga beminnat xizmat ko'rsatib, ularga kuchli mutaxassislar jalb etilganidan ko'rishimiz mumkin. Buning tub zahirida mustaqillik degan oliy ne'mat yotadi. Mustaqillikka qadar o'zbek sporti jahon sport maydonida begona edi. Ammo 1991 yil Yurtboshimiz I.A. Karimov tomonidan "O'zbekiston Respublikasi Mustaqil" deb e'lon qilingan kundan boshlab har bir sohada islohotlar boshlab yuborildi, sport sohasi ham bundan chetda qolmadi.

Mustaqillikka erishilishi bilanoq, 1992-yilning yanvar oyida mamlakatda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishning huquqiy asos "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida", sport sohasidagi o'quvchilarning iste'dodlarini namoyon etish va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan "O'zbekiston o'quvchi yoshlarni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qonun qabul qilindi.

Qisqa muddatda:

- jismoniy tarbiya va sportni boshqarishning tashkiliy asoslari takomillashtirildi;
- O'zbekiston Milliy Olimpiya qo'mitasi, sport turlari bo'yicha federatsiyalar tashkil qilindi; jismoniy tarbiya, sog'lomlashtirish, ommaviy sport ishlari va sportning milliy turlari rivojlantirildi;

- jismoniy tarbiya va sportning moddiy-texnik bazasi mustahkamlandi; milliy ta'lim dasturiga binoan jismoniy tarbiya va sport sohasiga kadrlarni tayyorlash va qayta o'qitish ishlari amalga oshirilmoqda.<sup>9</sup>

1995 yilda "O'zbekistonda futbolni rivojlantirishning tashkiliy asoslari va prinsiplarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" Vazirlar Mahkamasi qarorlari qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov mustaqillikning ilk yillaridagi O'zbekistonni va o'zbek sportini dunyoga tanitish maqsadida dastlabki ishlaridan biri 1995 yil 29-avgustda Toshkent shahrida "Prezident kubogi"<sup>10</sup> xalqaro turnir ochilishi bo'ldi.

Mamlakatimizda yosh avlodning jismoniy va ma'naviy barkamolligini ta'minlash sog'lom turmush tarziga intilish va sportga mehr-muhabbatni rivojlantirish, joylarda bolalar sportining moddiy bazasini yaratish, aholi yashaydigan joylarda bolalar sportining moddiy bazasini yaratish, hamda sport uskunalari va jihozlari bilan ta'minlash ishlarini yanada faollashtirish maqsadida, 2002 yilda "O'zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi" tuzildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Jamg'arma homiylik kengashining raisi etib saylandi. Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qori Kenges raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari mintaqaviy filiallar homiylik kengashlarining raislari etib tayinlandilar.

<sup>9</sup> <http://sovminrk.gov.uz/uz/news/show/5315>

<sup>10</sup> [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

Sport mashg'ulotlariga o'quvchilarni ommaviy ravishda, uzluksiz jalb qilishni tashkil etish maqsadida, "O'quvchi va talaba yoshlarni sportga jalb qilishga qaratilgan uzluksiz sport musobaqalari tizimini tashkil etish to'g'risida" 2003 yildagi qaror asosida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilindi. Mazkur qaror asosida mamalakatda umumta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari hamda oliy ta'lim muassasalari talabalarining "Umid nihollari", "Barkamol avlod", "Universiada" musobaqalarining hududlarda respublika final bosqichlarini o'tkazish rejasi belgilandi.

Jumladan, 2007-yilda "Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi byudjetini va bolalar sport obektlari qurilishining manzilli dasturini tasdiqlash to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, "O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi huzuridagi jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish jamg'armasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" Vazirlar Mahkamasining qarori, "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori kabi rasmiy me'yoriy hujjatlar qabul qilinishi yurtimizdagi barcha hududlardagi mahallalar va ko'chalardagi yoshlarni, o'zbek milliy sport o'yinlari bilan tarbiyalanishiga va komil inson bo'lib shakllanishiga olib keldi.

2018-yilning 5-mart kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi. Farmonga muvofiq, ilgari davlat qo'mitasi va uning hududiy bo'linmalari negizida O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi tashkil etilib, uning vazifa va vakolatlari kengaytirilgandi. 2018-yil 20-sentyabr kuni Yurtboshimiz tomonidan jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilish o'kazildi. Unda sportchilarni tanlab olish – seleksiya ishlarini takomillashtirish bo'yicha yangi tizim joriy etilishi dastlabki natijalarini berganligi ta'kidlandi.

Biz xalqaro sport maydonlarida O'zbekistonning nufuzi va obro' - e'tiborini oshirishga katta hissa qo'shgan sportchilarimiz bilan faxrlanamiz. Shu bilan birga, oliy sportda erishilgan yutuqlar bilan chegaralanmasdan, ommaviy sportga ham katta e'tibor berishimiz kerak,<sup>11</sup> – dedi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev mazkur yig'ilishda.

Mustaqillikka qadar O'zbekiston xalqaro sport jamoatchiligi uchun qariyb yopiq edi. Futbol va tennis bo'yicha o'smirlar o'rtasida sobiq sotsialistik davlatlar sportchilari ishtirokida o'tkazilgan turnirlarni hisobga olmaganda, mamlakatimizda xalqaro musobaqalar deyarli o'tkazilmadi.

<sup>11</sup> <http://www.yoshlar.uz/news/jismoniy-tarbiya-va-sport-sohasini-rivojlantirish-masalalarining-muhokamasi>

Mustabid siyosat jismoniy tarbiya va sport sohasida ham o‘z asoratlarini qoldirib, bular asosan quyidagilarda namoyon bo‘ldi:

1. O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sport ishlari markaziy respublikalarga nisbatan past darajada yo‘lga qo‘yildi, sport harakatiga yerli aholi ommaviy ravishda jalb qilinmadi, ular orasidan yuqori malakali sportchilarni tayyorlash borasida esa, aniq va maqsadli ishlar olib borilmadi.

2. Sport tarmoqlarini rivojlantirish, sport inshootlarini qurish, umuman sportning moddiy-texnikaviy bazasini kengaytirish va moliyalashtirish ishlari faqat markaz roziligi bilan, cheklangan tarzda amalga oshirildi.

3. Soha uchun oliy va o‘rta ma‘lumotli kadrlar tayyorlash yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsada, musobaqalarda milliy sportchi kadrlar turli sun‘iy to‘siq va saralashlardan o‘tishga majbur edi.

Jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug‘ullanish aholimiz, avvalo, yosh avlodimizning sog‘lig‘ini mustahkamlashda muhim o‘rin tutishini inobatga olib, bu sohaga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 15 – fevraldagi “Madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora – tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni hamda mamalakatimizda sportni rivojlantirishga oid qator qarorlari ushbu sohada yangi davrni boshlab berdi.

Ushbu farmonning birinchi bandiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi tugatilsin va uning negizida:

- O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi;
- O‘zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport davlat qo‘mitasi tashkil qilinsin.<sup>12</sup>

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoniga asosan, O‘zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport davlat qo‘mitasi faoliyatining asosiy vazifa va yo‘nalishlari belgilab berildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2017-yil 31-oktyabr kuni jismoniy tarbiya va sport sohasida boshqarish tizimini takomillashtirish, ommaviy sportni rivojlantirish, iqtidorli sportchilarni tanlash va tarbiyalash, sohani malakali kadrlar bilan mustahkamlash hamda zamonaviy sport inshootlarini barpo etish masalalariga bag‘ishlangan yig‘ilish o‘tkazildi.

Ushbu yig‘ilishda mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev nutq so‘zladilar va o‘z nutqlarida shunday deydilar, mustaqillik yillarida bu borada keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Aholining, ayniqsa, yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug‘ullanishi uchun zarur sharoitlar yaratildi. Shahar va

<sup>12</sup> <http://lex.uz>. Madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni.

qishloqlarda zamonaviy sport komplekslari bunyod etildi. “Umid nihollari”, “Barkamol avlod”, “Universiada” musobaqalari yoshlarni ommaviy sportga, sog‘lom turmush tarziga oshno qilish vositasiga aylandi.

Istedodli bolalarni tanlash va professional sportchilarni tayyorlash bo‘yicha uzliksiz tizim yaratildi. Umumta’lim maktablari va bolalar sport majmualaridagi mashg‘ulotlarda qobiliyatli ko‘zga tashlangan o‘g‘il-qizlar bolalar va o‘smirlar sport maktablari, sport kollejlari olinib, professional yondashuvlar asosida tarbiyalanmoqda. Buning natijasida, mamlakatimiz sportchilari jahonning nufuzli musobaqalarida yuksak g‘alabalarni qo‘lga kiritib, xalqimiz salohiyatini butun dunyoga namoyon qilmoqda. Xususan, sportchilarimiz 2016-yili Braziliyada o‘tgan Olimpiya o‘yinlarida 13 ta, Paralimpiya o‘yinlarida 31 ta medalga sazovor bo‘lib, yurtimiz sporti tarixidagi eng yuqori natijalarga erishdilar.<sup>13</sup>

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-iyundagi “Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”<sup>14</sup>gi qarori sohadagi yana bir muhim hujjat bo‘ldi. Ushbu qaror bilan O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish uchun 995,2 milliard so‘mdan ziyod mablag‘ sarflanishi, sport maktablarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash maqsadida 167 ta sport inshooti, jumladan 90 ta sport majmuasi va 77 ta suzish havzasi qurish, rekonstruksiya qilish, kapital tamirlash, jihozlash nazarda tutilgan.

Dastur doirasida joriy yilda 153 ta bolalar maydonchasi tamirlangan, 232 ta zamonaviy maydoncha, Nukus shahrida sportning olimpiya va milliy turlariga ixtisoslashtirilgan sport majmuasi foydalanishga topshirilgan. Yig‘ilishda bu borada yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar ham ko‘rsatib o‘tilgan. Xususan, Bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan 39 ta sport inshootini qurish va rekonstruksiya qilish ishlari jadvaldan ortda qolgani, suzish havzalarini zamonaviy anjomlar bilan jihozlash kechiktirilgani tanqid qilindi. Bu kamchiliklarni bartaraf etish, yil oxirigacha qurilish ishlarini yakunlash bo‘yicha topshiriqlar berildi.

Sport majmualaridan foydalanish samaradorligini oshirish, yoshlarni ularga yanada keng jalb etish zarurligi qayd etildi. Sport maktablari, reaspublika oliy sport mahorati maktablari hamda sport federatsiyalarining iqtidorli yoshlarni kashf etish borasidagi hamkorligi, seleksiya ishlari talab darajasida yo‘lga qo‘yilmagani tanqid qilindi. Bu borada aniq shaffof mexanizm yaratish va barcha hududlarni qamrab olish bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi.

Sportni rivojlantirish, jamiyatimizda sog‘lom turmush tarzini keng qaror toptirish, aholi, ayniqsa yoshlar o‘rtasida jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish

<sup>13</sup> <http://pfru.uz/uz/article/403/>

<sup>14</sup> <http://lex.uz/docs/-3226019>



mustaqillikning ilk kunlaridanoq davlatimiz siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri etib belgilandi. O‘tgan yillar davomida bu borada keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi, ulkan natijalarga erishildi. Bugun mamlakatimiz tom ma‘noda sport mamlakatiga aylandi. Yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzi keng qaror topib, sportning ommaviyligi ta‘minlanmoqda. O‘zbekiston sportchilari jahonning nufuzli musobaqalarida yuksak g‘alabalarni qo‘lga kiritib, mamlakatimiz sport salohiyatini butun dunyoga namoyon qilmoqda.

Tadqiqot mavzusi bo‘yicha boshqa davlatlar sport telekanallari faoliyatida, rivojlanish tendensiyalariga etibor qaratar ekanmiz, quyidagi faktlarni kuzatamiz. Masalan turkiyalik tadqiqotchi Xarun Ayar fikrlariga ko‘ra Turkiyada sport telekanali faoliyati 1970 yillardan boshlab rivojlanish bosqichini boshlaydi.<sup>15</sup>

Zamonaviy televizion texnik vositalarning takomillashuvi bu soha rivojiga ulkan darajada hissa qo‘shadi. Aynan sport musobaqalarining to‘g‘ridan to‘g‘ri efirga uzatilishi 2000 yildan o‘zining haddi a‘losiga ko‘tarildi. Aytish kerakki, Xarun Ayar fikriga ko‘ra sport musobaqalarining jonli efirda bo‘lishi tomoshabinning emotsional holatiga sezilarli darajada ta‘sirini o‘tkaza oladi.

Tadqiqotchi M.Amara Afrika dunyosida kechayotgan sport jarayonlarini kuzatar ekan, sport yo‘nalishiga ixtisoslashgan telekanal faoliyatining rivojlanishi bevosita o‘sha mamlakatdagi sport sohasining rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liq degan fikrni ilgari suradi.<sup>16</sup> Shu bilan bir qatorda iqtisodiy jihatdan rivojlangan davlatlarda xususiy sektorlar ko‘payib borgani sari, sportga ixtisoslashgan xususiy telekanallar sonining ham ortishi bu soha rivojiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatganini bayon qiladi.

Ivan Kovachevich Xorvatiya telekanali rivojlanish tendensiyalari mavzusida fikr yuritar ekan, sportning jonli jarayonini ommaga yetkazishda multimedia imkoniyatlaridan ko‘proq foydalanish zarurligini aytadi.<sup>17</sup> Hammamizga ma‘lumki, zamonaviy dunyoda internet aholining barcha yosh qatlamini qamrab olgan va aynan sport, internet kanallari telekanaldan ham tezroq jarayonni yetkaza olish imkoniyatiga ega ekanini ta‘kidlaydi. Buning uchun Xorvatiyada birinchi galda sport kontentini uzatishning multimedia imkoniyatlari tahlil qilinadi. Bu jarayonning iqtisodiy tomonlari ham hisobga olinib o‘rganib chiqiladi. Ikkinchidan, xuddi shu yo‘nalishda faoliyat olib borayotgan internet kanallari bilan solishtiriladi va ularning auditoriyaning umumiy salohiyati o‘shiga ta‘siri o‘rganib chiqiladi. Uchinchidan, so‘rovnoma o‘tkazish asosida internet orqali kontent kuzatib borishni odat qilgan auditoriya salmog‘i o‘rganib chiqiladi va nihoyat aynan shu tahlillar xulosasiga ko‘ra

<sup>15</sup> Development of e-Sport in Turkey and in the world Year 2018, Volume 6, Issue1, 95 – 102, 30.03.2018 Harun AYAR

<sup>16</sup> Sport in the African World J Nauright, M Amara – 2018

<sup>17</sup> Ivan Kovacevic (Hrvatski Telekom d.d., Croatia), Mirjana Pejic Bach (University of Zagerb, Croatia) and Bozidar Jakovic (University of Zagreb, Croatia)

sport musobaqalarining yoritilishi Xorvatiya internet yoki telekanallarida doimiy ravishda efirga uzatib boriladi.

Brett Xatchins keyingi vaqtlarda butun dunyoda OTT platformasi orqali sport musobaqalari translyatsiyalarining namoyish etilishi me'yordan ham yuqori ko'rsatkichga ega bo'lganini yozar ekan, bu jarayonda mualliflik huquqi normalariga amal qilinishi lozimligini alohida ta'kidlaydi.<sup>18</sup> Shu bilan bir qatorda sport musobaqalarini turli manbalarda yoritishda huquqiy normalarga qat'iy amal qilinishi tahlil qilinadi.

Devid Rou Avstraliya televideniesi va radiosi faoliyati misolida sport musobaqalarining to'g'ridan to'g'ri efirga uzatilishi tomoshabinga "jonli" jarayonni his etish va o'sha musobaqada bevosita ishtirok etishdek taasurotini bera olganini aytadi. Aynan Avstraliya telekanalida sport jarayonlarini kuzatib borishga 1956 yilda Melbrunda o'tgan Olimpiada sabab bo'lgani asos deb hisoblanadi.<sup>19</sup> Shu bilan bir qatorda sportning efirda uzatilishidagi rivojlanish bosqichi kameraning takomillashuvi bilan bog'lanadi. Aytib o'tish kerakki, deydi Devid Rou, sportga oid har qanday kontentning qiziqarliligi va ta'siri istalgan tadbirkor uchun reklama berishda ko'b qismli auditoriya qamroviga erisha olishini ta'minlaydi. Shu qatorda mashhur brendlarning ommalashuviga ham sport auditoriyasining katta qismi salohiyati sabab bo'lishi amalda isbotlangan va umuman, televizion sport ko'rsatuvlari hamisha tomoshabinning yuqori kayfiyatini ta'minlashiga sabab bo'lishi ta'kidlanadi.

Sport jurnalistikasi tarixida sport mavzusining yoritilish tendensiyasiga nazar soladigan bo'lsak 1896 yilda Afinada birinchi Olimpiya o'yinlari bo'lib o'tdi. Ushbu voqeaning kelib chiqishi fransuz baroni Per de Kubertenning g'oyasi edi.

XIX – XX asrlarning boshi olimpiya harakatining sport va jismoniy tarbiya sohasidagi nufuzi tobora kuchayib borayotgan davr edi. Aynan u sport tarkibiy qismiga ega bo'lgan va uning homiyligida xalqlarni birlashtira oladigan tadbirni tashkil qilishni taklif qilgan. Albatta bunday voqeani e'tiborsiz qoldirish mumkin emas edi va ko'plab evropaliklarning matbuoti musobaqalar haqidagi ma'lumotlarni iloji boricha tez-tez nashr etishga harakat qildilar. O'sha paytda Evropa va Amerikada ixtisoslashgan sport nashrlari ko'plab topilar edi. Ammo Olimpiya o'yinlari haqidagi materiallar gazeta sahifalarida tez – tez e'lon qilinmaydi, bu esa zamonaviy o'yinchilar orasida ko'plab savollar tug'ilishiga sabab bo'ldi, ammo bu borada mahalliy yunon nashrlari faol edi: ular nafaqat Olimpiada mezbonlari tilida, balki ingliz va fransuz tillarida ham nashr etilgan. XIX asrning oxirida Amerikada sport jurnalistikasi Evropaga qaraganda ancha yaxshi rivojlangan. Ammo birgina Fransiyada 43 ta ixtisoslashtirilgan nashrlar o'z faoliyatini boshlagani bu muhokamalarning barchasini rad etadi. Sport

<sup>18</sup> Brett Hutchins, Bo Li, David Rowe First Published August 20, 2019 Research

<sup>19</sup> David Rowe Book The Australian TV Book

jurnalistikasining rivojlanishi uchun kriket va futbol katta turtki bo'ldi. O'sha paytda bu sport turlari asosan havaskorlar xarakteriga ega edi, ammo har doim keng jamoatchilik e'tiborini tortdi. Yevropa va Amerikada ommaviy axborot vositalarida sportni umumiy mavzuda yuqori saviyada yoritish amaliyoti paydo bo'lganligi ham juda muhim. Misol uchun Britaniyaning "the daily telegraph" va "the guardian" nashrlari sport yo'nalishini yoritgani tufayli yuqori baho oldi.

XIX asrning oxiri va 80 yillari o'rtalaridan boshlab sport jurnalistikasi jamoatchilikning qiziqishini qozonishga muvaffaq bo'ldi. Bu asosan endi turli qatlamdagi odamlarning sport bilan shug'ullanishi mumkinligi bilan bog'liq edi. Ixtisoslashgan nashrlar soni keskin oshdi. Tadqiqotchilar XIX asrning oxirini "velosiped davri" deb atashni afzal ko'rishadi. Ushbu sport turi qisqa vaqt ichida juda ommalashdi, musobaqa va turnirlar barqaror tashkil etila boshlandi. Shunga ko'ra, matbuot ham jamoatchilikning yangi manfaatlariga o'ta boshladi. "Velosipedny sport", "Velosiped", "Skuter" kabi nashrlar paydo bo'ldi. Biroq, tez orada velosipedlar avtomobillarga almashtirildi. Ommaviy axborot vositalari yangi usulda qayta formatlashga urinib ko'rdilar, ammo faqat bir nechtasi muvaffaqiyat qozondi. Masalan, "Skuter" jurnali avval "Skuter va motor" ga, keyin esa butunlay "Avtomobil biznesi" ga aylandi. Balki milliy sport jurnalistikasi tarixidagi asosiy voqea universal nashrning paydo bo'lishi bilan izohlanar. Endi uning maqsadini har safar o'quvchilarning o'zgaruvchan didiga va talabiga moslash shart emas edi, shunchaki tarkibni qisman tahrirlash mumkin edi. Ushbu g'oya muallifi Morits Noyburger, uning "Hunter" jurnalining sarlavha sahifasida shunday yozilgan:

"Sportning barcha sohalariga bag'ishlangan haftalik tasvirlangan jurnal". Jurnalist fikrining yo'nalishi butun segmentni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi, ammo amalga oshirish muvaffaqiyatsiz tugadi, chunki ko'pchilik hali ham ov bilan band edi. Faqat 1900 yilda haqiqiy universal sport jurnali "Sport" paydo bo'ldi. Ko'p yillar davomida ushbu nashrning muharriri Georgiy Aleksandrovich Dyuperron edi. Uni zamonaviy sport jurnalistikasining otasi deb atashadi va bu e'tirof uning faoliyati bilan bog'liq. U "Sport" jurnalini asosiy nashrga aylantirishga muvaffaq bo'ldi. Bundan tashqari, tadqiqotchilar sportdan davlat va siyosiy manfaatlarda foydalanish uchun turli imkoniyatlar mavjudligini ham qayd etadilar. Sportning davlat qiyofasini yaratishda eng faol ishtirok etishini tushunish XX asrning boshlarida Amerika Qo'shma Shtatlari Olimpiya o'yinlarida birinchi bo'lib jamoaviy medallar sonini hisoblashni boshlagan paytda namoyon bo'ldi. Amerika jamiyatining sportga munosabatini ko'rsatish uchun ikki AQSH prezidentining bayonotlarini keltirish kifoya R. Kennedi o'z nutqida tog'ridan – to'g'ri ta'kidlagan edi: "Milliy obro'e'tiborning bir qismi Olimpiya o'yinlarida qo'lga kiritiladi". U shuningdek, "Xalqning obro'si – oyga parvoz va Olimpiya oltin medallari" degan ibora bilan mashhur.

J. Ford bundan kam mazmunli fikr aytmagandi: “Ommaviy kommunikatsiyalar tizimining hozirgi holatida sport g‘alabasi ham kam emas. Xalq ruhini yuksaltirishning, aytaylik, jang maydonida g‘alaba qozonishdan ko‘ra samarali yo‘ldir”. So‘ngi paytlarda o‘zini dunyoning super davlati deb bilgan yana bir davlat o‘z sportchilarining yutuqlari ko‘rinishida “yumshoq kuch” yordamida xalqaro maydonda o‘z o‘rnini egallashga katta e‘tibor bera boshladi. Zamonaviy Xitoy dunyo jamoatchiligiga siyosiy ta‘sir ko‘rsatishning majburiy bo‘lmagan usullarini o‘zlashtirishning muvaffaqiyatli tajribasini namoyish etmoqda. 2007 yildan beri Xitoyning hukmron kommunistik partiyasi sport sanoatini rivojlantirish dasturini va mamlakat aholisini jismoniy rivojlantirish rejasini qabul qildi, bu esa Xitoyning so‘nggi o‘n yillikdagi barcha asosiy sport yutuqlariga erishdi. 2008 yilda Pekinda bo‘lib o‘tgan Olimpiada o‘yinlari butun dunyoga sport salomatlik va baxt timsoliga aylangani Xitoy milliy madaniyatining qudratini, shuningdek, Xitoy iqtisodiy tizimining bunday sport turlarini tashkil etish qudratini namoyish etdi.

Bugungi kunda “jamiyatimizda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, aholining, ayniqsa, yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug‘ullanishi uchun zamon talablariga mos shart-sharoitlar yaratish hamda jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirishga”<sup>20</sup> davlat siyosati darajasida ahamiyat berilmoqda.

Xulosa o‘rnida shuni qayd etish joizki darhaqiqat, bugungi kunda o‘ta muhim vazifalar qatorida jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirish borasida izchil islohotlar natijasida:

- O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sport sohasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi;

- jismoniy tarbiya va sport yoshlarni sog‘lom va barkamol avlod qilib tarbiyalashga, milliy genafondni sog‘lomlashtirish vositasiga, millionlab vatandoshlarimiz ma‘naviy hayotining ajralmas qismiga aylantirildi;

- jahon hamjamiyatida ham sport sohasida o‘z o‘rnimiz va ovozimizga ega bo‘ldik. Dunyo O‘zbekiston Respublikasi xalqining jismoniy imkoniyatlari, salohiyati, iqtidori beqiyos ekanligini etirof etdi;

- sport – dini, millati, irqi, jinsi va yoshidan qat‘i nazar O‘zbekiston Respublikasining barcha fuqarolarini jipslashtiruvchi, yakdil qiluvchi omilga, jamiyatda fuqarolararo va millatlararo totuvlikni, ichki barqarorlikni mustahkamlovchi qudratli kuchga aylandi;

- milliy o‘yinlar va sport turlarini tiklashga, ma‘naviy hayotni yangilashning, milliy o‘zlikni anglash jarayonlarining ajralmas qismi sifatida jiddiy etibor berildi.

<sup>20</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 3 iyundagi “Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PK-3031-Qarori.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. <http://www.yoshlar.uz/news/jismoniy-tarbiya-va-sport-sohasini-rivojlantirish-masalalarining-muhokamasi>
2. <http://sovminrk.gov.uz/uz/news/show/5315>
3. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
4. <http://www.yoshlar.uz/news/jismoniy-tarbiya-va-sport-sohasini-rivojlantirish-masalalarining-muhokamasi>
5. <http://lex.uz>. Madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni.
6. <http://pfru.uz/uz/article/403/>
7. <http://lex.uz/docs/-3226019>
8. Development of e-Sport in Turkey and in the world Year 2018, Volume 6, Issue 1, 95 – 102, 30.03.2018 Harun AYAR
9. Sport in the African World J Nauright, M Amara – 2018
10. Ivan Kovacevic (Hrvatski Telekom d.d., Croatia), Mirjana Pejic Bach (University of Zagerb, Croatia) and Bozidar Jakovic (University of Zagreb, Croatia)
11. Brett Hutchins, Bo Li, David Rowe First Published August 20, 2019 Research
12. David Rowe Book The Australian TV Book
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 3 iyundagi “Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3031-Qarori.

## АЛЬТЕРНАТИВНЫЕ ИСТОЧНИКИ ЭНЕРГИИ К АЛЬТЕРНАТИВНЫМ ИСТОЧНИКАМ ЭНЕРГИИ ОТНОСЯТ ЭНЕРГИЮ СОЛНЦА, СОЛНЕЧНАЯ ЭНЕРГИЯ

Даминова Г.Д.

Магистрант

Ташкентский государственный технический университет

И.А. Каримова Инженер Базовой организации по  
стандартизации «UNICON.UZ» ДУК

### АННОТАЦИЯ

К альтернативным источникам энергии относят нетрадиционные источники энергии — солнечную, ветровую, геотермальную энергетику и так далее.

Возобновляемые источники энергии не загрязняют окружающую среду, помогают снизить уровень выбросов парниковых газов в атмосферу, уменьшить последствия изменения климата. Они практически неисчерпаемы, в то время как ископаемое топливо рано или поздно закончится. К возобновляемым источникам не относится атомная энергетика и природный газ, поскольку запасы этих ресурсов ограничены.

**Ключевые слова:** Солнце, энергия, солнечные батареи.

Солнце - центр нашей системы из 8 планет (не считая мелких, таких как Плутон, Церера и др.), является первичным и главным источником энергии в нашей системе планет. Являясь большим термоядерным реактором, выделяющим громадное количество энергии, оно согревает Землю, приводит в движение и верхние слои атмосферы, океанские течения и реки. Под воздействием солнечных лучей и благодаря фотосинтезу, на нашей планете вырастает около одного квадриллиона тонн растений, дающих в свою очередь жизнь, 10 триллионам тонн животных организмов. Благодаря совместному труду Солнца, воды и воздуха, за миллионы лет, на Земле накоплены запасы углеводородов - угля, нефти, газа и пр., которые мы сейчас активно расходует.

Для удовлетворения потребностей человечества в энергоресурсах, на сегодняшний день, требуется сжечь около десяти миллиардов тонн углеводородного топлива в год. Считается, что на Земле имеется около шести триллионов тонн различных углеводородов. Если взять энергию, поставляемую

на нашу планету Солнцем за год, и перевести в углеводородное топливо, которое мы сжигаем, то получим около ста триллионов тонн, что в десять тысяч раз превышает необходимый нам объем энергоресурсов.

Содержащуюся в недрах нашей планеты энергию, Солнце отдает Земле всего за три недели, а резерва солнечной энергии хватит еще на 5 млрд. лет. Растениями поглощается примерно 34% идущей от Солнца энергии. Оставшаяся энергия расходуется на поддержание комфортного для жизни микроклимата в глубинах океана и на поверхности Земли.

Для обеспечения потребностей человечества энергией на несколько веков хватит и сотой доли той энергии, которая доходит от Солнца до Земли за один год, и если мы сможем взять этот процент, то это бы решило многие проблемы с генерацией энергии на многие века вперед. Как взять этот столь необходимый для нас процент солнечной энергии в теории понятно, дело остается за более совершенными технологиями преобразования энергий. Среди возобновляемых источников энергии, солнечная радиация по объемам ресурсов, распространенности, доступности и экологической чистоте наиболее перспективна.

К началу 21 века КПД солнечных батарей удалось увеличить до 20%. Несложно догадаться, почему человечество отступило от разработки солнечной энергии. В середине прошлого века наша цивилизация разгадала тайну ядерной энергии, и все силы науки были брошены на поиски новых способов обогащения урана и создание более совершенных ядерных реакторов, в ущерб технологиям для выработки кремния и разработки новых видов солнечных элементов.

### ***Солнечные батареи как форма использования солнечной энергии***

Солнце - мощнейший источник энергии в нашей солнечной системе. Давление в его внутренней части порядка 100 миллиардов атмосфер, а температура достигает 16 миллионов градусов. До Земли доходит лишь одна двухмиллиардная доля всего излучения. Но даже эта малая часть превосходит по мощности все земные источники энергии (в том числе и энергию земного ядра). Использование солнечной энергии сегодня стало распространенным явлением, а солнечные батареи обретают все большую популярность.

Первые солнечные батареи были использованы в 1957 году при покорении космоса. Их установили на спутник для преобразования солнечной энергии в электрическую, которая была необходима для работы спутника. При создании солнечных батарей используют полупроводниковые материалы, как правило, кремний.

Принцип работы солнечных элементов построен на фотоэлектрическом эффекте - преобразовании энергии света в электричество. Когда солнечная

энергия попадает на неоднородный полупроводник (неоднородность может достигаться различными путями, например легированием), в нем создаются неравновесные носители заряда обоих типов. При подключении данной системы к внешней цепи можно «собирать» электроны, соответственно создавая электрический ток. Есть много эффектов, которые отрицательно сказываются на величине получаемого тока (например, частичное отражение солнечных лучей или их рассеяние), поэтому исследовательская работа по созданию наиболее подходящего материала очень актуальна на сегодняшний день.

Солнечные батареи - это большие по площади модули, которые собираются из отдельных элементов. Эти элементы - это обычно небольшие пластины (размеры которых в среднем  $130 \times 130$  мм), с припаянными к ним контактами. Этот вид энергии абсолютно экологичен, так как нет никаких ядовитых и опасных выбросов в атмосферу, они не загрязняют воду или почву, у них даже отсутствует опасное излучение. К тому же это весьма надежный источник альтернативной энергии - по расчетам ученых солнце будет светить еще несколько миллионов лет. К тому же, энергия солнца абсолютно бесплатна. Другое дело, конечно, что создание самого солнечного элемента является довольно дорогой процедурой.

Но у данного вопроса есть и обратная сторона. Притом, что энергия солнца бесплатна и огромна, она непостоянна. Работа солнечных батарей сильно зависит от погоды. В пасмурную погоду количество вырабатываемого электричества падает в разы, а ночью и вовсе прекращается. Пытаясь как-то справиться с этим, ученые разработали всевозможные аккумуляторы. Но при нагрузке таких огромных солнечных станций, аккумуляторы не выдерживают больше часа. Поэтому использование солнечных батарей возможно только совместно со стабильным источником электроэнергии.

Солнечные батареи распространены в тропических и субтропических регионах. Количество солнечных дней в странах этих регионов максимально, следовательно, максимально и количество вырабатываемого электричества.

Энергию солнца могут использовать не только крупные компании, но и владельцы частных домов. Например в Германии солнечные батареи устанавливаются на крыши домов, что позволяет хозяевам экономить порядка 50% всех затрат на электроэнергию. Учитывая, что стоимость электроэнергии в этой стране довольно высока. В солнечные дни количество перерабатываемой энергии может превышать необходимое. В той же Германии государство скупает эти излишки у частных лиц и перепродает скупленную электроэнергию в ночное время по более низкой цене, чем стимулирует интерес населения к установке солнечных батарей.



В самых безоблачных регионах строятся целые гелио электростанции (ГЕЭС). Принцип их работы несколько отличается от солнечных батарей. Эти солнечные установки концентрируют солнечную энергию и используют ее для приведения в действие турбин, тепловых машин и т.д. В качестве примера можно привести солнечную башню в Испании. Множество зеркал направляют солнечные лучи на ее верхнюю часть, разогревая находящуюся там воду до 250 градусов. Это выгодно по многим параметрам. Еще одним преимуществом солнечных батарей можно считать их мобильность. Небольшой элемент в условиях яркого солнечного освещения может вырабатывать электроэнергию достаточную, например, для подзарядки сотового телефона или маломощного ноутбука.

Сегодня в мире строится немало экодому, в том числе и довольно экзотических. В них применяются необычные материалы, солнечные батареи, ветряки и так далее. Есть стандарт домов так называемого нулевого потребления, когда здания полностью автономны, обеспечивают себя энергией. На фоне красивых картинок и ярких концептов пассивные дома могут показаться суховатыми. Но простота пассивных домов продуманная: из системы недрогнувшей рукой вычеркнуты все недостаточно практичные элементы. При этом система открытая, хозяин, естественно, может добавить в свой дом любой дополнительный элемент.

## **ВЫВОДЫ**

Увеличивающееся загрязнение окружающей среды, нарушение теплового баланса атмосферы постепенно приводят к глобальным изменениям климата. Дефицит энергии и ограниченность топливных ресурсов с всё нарастающей остротой показывают неизбежность перехода к использованию нетрадиционных, альтернативных источников энергии. Они экологичны и возобновляемы, основой их служит энергия Солнца и Земли, воды и воздуха.

Неоспорима роль энергии в поддержании и дальнейшем развитии цивилизации. Сегодня активно проводятся исследования всех возможных восстанавливаемых источников энергии. В некоторых случаях результаты даже выглядят весьма оптимистично и позволяют надеяться на определенные

## **СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ: (REFERENCES)**

- 1 Энергосбережение и водоподготовка, 2010. - №1(63).
- 2 <http://www.energy-source.ru/>
- 3 <http://www.energija.ru/>
- 4 <http://solar-battery.narod.ru/>
- 5 <http://dom-en.ru/>

## O‘TKIR HOSHIMOV ASRLARIDA QO‘LLANILGAN BARQAROR BIRIKMALARNING LINGVOPOETIK TAHLILI

**Jumag‘ulova Xusniya Maxmarosul qizi**

Qarshi davlat universiteti Filologiya fakulteti Lingvistika:  
o‘zbek tili 2- kurs magistranti

### ANNOTATSIYA

Maqolada mahoratli yozuvchi O‘tkir Hoshimov asarlari lingvopoetikasining bugungi o‘zbek tilshunosligida tutgan o‘rni xususida so‘z boradi. Yozuvchi bir qancha o‘rinlarda qahramonlarning oiladagi, kollektivdagi va ba‘zan ko‘cha-ko‘ydagi yurish-turishini, ijobiy va salbiy tomonlarini bo‘rttiribroq, ayniqsa, kulgiga moyilroq qilib aks ettirish maqsadida qo‘llanilgan iboralarning lingvopoetik tahlili, inson tana a‘zolari bilan bog‘liq bo‘lgan iboralarni qo‘llash mahorati va ularni o‘zbek tilshunosligida tutgan o‘rni ochib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** lingvopoetika, kognitiv tilshunoslik, badiiy matnni lingvopoetik tahlili, poetik leksikologiya, poetik morfemika, shakl va mazmun, so‘z birikmasi, frazeologizm, barqaror birikmalar.

Ma‘lumki, voqelikni obrazli tasvirlashda, uni kitobxon ko‘zi o‘ngida aniq va to‘la gavalantirishda frazeologik iboralarning o‘rni, ahamiyati beqiyosdir. Iboralar hayotdagi voqea-hodisalarni kuzatish, jamiyatdagi ijobiy va salbiy harakat holatlarni baholash, turmushda bo‘lib o‘tadigan turli hayotiy tajribalarni umumlashtirish asosida xalq chiqargan xulosalarning o‘ziga xos obrazli ifodalaridir. Frazeologizm til hodisasi sifatida lison va nutqqa daxldor birlikdir. Birdan ortiq leksema ko‘rinishining birikuvidan tashkil topib obrazli ma‘noviy tabiatga ega bo‘lgan lisoniy birlik frazeologizm deyiladi.

Adabiyot dunyosida “nasrdagi tarona”, “nasrdagi shoir” atamaları bor. 20 asr yangi o‘zbek adabiyotida Abdulla Qodiriy haqli ravishda prozaning shoiri deb nom olgan bo‘lsa, 60-yillar zamonaviy adabiyotida O‘tkir Hoshimovni nasrdagi shoir, yetuk asrlarini esa nasrdagi qo‘shiq, tarona deb atash mumkin. Ilk qissasi “Cho‘l havosi” dan tortib “Daftar hoshiyasidagi bitiklar” kitobiga qadar–barcha asrlariga xos mushtarak jihati shuki, ular betakror, benazir sirli musiqiy ohang bilan yo‘g‘rilgan. El sevgan adib O‘tkir Hoshimov hajviy hikoya yaratish jarayonida iboralarga juda ko‘p o‘rinlarda murojaat etgan. Masalan:

- Ilhom, samovaringni tagiga tosh bog‘laganmisan, nima balo?! **Bermasning oshi pishmas** deb!<sup>21</sup> Bu ibora o‘z zamirida baxillik va saxiylik g‘oyasini ifodalaydi. Baxil odam o‘z nafsoniyati bilan o‘z hayotini og‘irlashtirishi, rizqi pishmasligi osh pishmasligiga, ya’ni qorni to‘ymasligiga ishora vazifasini bajarmoqda.

– Lampamoy **anqoning urug‘i** bo‘lmasa ekan! Ertaga nima qilamiz. ( “Ikki eshik orasi”).

Shomurodning fe‘li cholimga o‘xshaydi. Cholim ham **o‘z kindigini o‘zi kesgan** xilidan edi. Kolxoz bo‘larmish degan gap chiqqanda Orifxo‘ja boyning odamlari kechasi uyimizga bostirib kirgan. **“Ichagingni boshingga salla qilib ketamiz”**, deb qo‘rqitgan. Cholimning jussasi kichkina bo‘lsayam, **yuragi otning kallasidek** edi. **“Bir boshga bir o‘lim, qo‘lingdan kelganini qil”**

Yozuvchilar, odatda, tasvir maqsadiga muvofiq iboralarni tanlab qo‘llash bilangina kifoyalaniq qolmaydilar. Balki, qahramonlar tabiati, ruhiy holati, hayot tarziga moslab o‘zgartiradi va qayta ishlaydi.<sup>22</sup> Darhaqiqat, yozuvchi o‘zi yaratayotgan qahramonning o‘ziga xos xarakter-xususiyatlarini ochib berish jarayonida, tabiatan qanday shaxs ekanligini to‘liqroq tasvirlashda iboralardan foydalanadi. O‘tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” asarining bir qancha o‘rinlarida qahramonlarning oiladagi, kollektivdagi va ba‘zan ko‘cha-ko‘ydagi yurish-turishini, ijobiy va salbiy tomonlarini bo‘rttirib, ayniqsa, kulgiga moyilroq qilib aks ettirish maqsadida qo‘llagan.

Kechqurun qorong‘u tushganda oyim qo‘limga bir tovoq ovqat, to‘rtta non tutqazdi.

- Boraqol, qizim, hammasining **ichi uzilib ketgandir**.

**Qo‘ydek yuvosh** Kimsan akamning jahli shunaqa yomonligini bilmagan ekanman!

**O‘pkamni bosib ololmas**, bir yoqlarga qochib ketgim kelardi.[102-b]

**“Podadan oldin chang ko‘tarma**, g‘unchaday xotiningni tashlab urush qilishni kim qo‘yibdi senga”, - debdi. [103-b]

**Oyog‘imni qo‘limga olib bostirmaga yugurdim**. Hali tandirdan uzayotganimizda oyim singgib pishgan, yuziga sedana sepilgan kattakon patirni qo‘limga tutqazib, buyurgan edi: “Tayinli joyga bekitib qo‘y, so‘raganimda obkelasan!”[106-b]

Nega **mulla mingan eshakdek** angrayasan. Tur o‘rningdan!

**“Dard ustiga chipqon”** degandek, Kimsandan na xat bor, na xabar.

Yozuvchilar odatda tasvir maqsadiga muvofiq iboralarni tanlab qo‘llash bilangina kifoyalaniq qolmaydilar. Balki, qahramonlar tabiati, ruhiy holati, hayot

<sup>21</sup> “Ikki eshik orasi” 19-b.

<sup>22</sup> Yo‘ldoshev.M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. Toshkent, “Fan” 2006

tarziga moslab o'zgartiradi va qayta ishlaydi. Darhaqiqat, yozuvchi o'zi yaratayotgan qahramonning o'ziga xos xarakter-xususiyatlarini ochib berish jarayonida, tabiatan qanday shaxs ekanligini to'liqroq tasvirlashda iboralardan foydalanadi. O'tkir Hoshimov ham hajviy hikoyalarining bir qancha o'rinlarida qahramonlarning oiladagi, kollektivdagi va ba'zan ko'cha-ko'ydagi yurishturishini, ijobiy va salbiy tomonlarini bo'rttiribroq, ayniqsa, kulgiga moyilroq qilib aks ettirish maqsadida qo'llagan. Ayniqsa, yozuvchi insonning tana a'zolari bilan bog'liq bo'lgan iboralarni qo'llab, yuqori saviyadagi hikoyalarni yaratishga muvaffaq bo'lgan.

Yuqoridagi misollardan ko'rinib turibdiki, insonning tana a'zolari bilan bog'liq bo'lgan iboralar hayotda juda ko'p qo'llaniladi. Bunday birikmalarni badiiy asar tarkibiga qay yo'sinda kiritish esa, yozuvchining so'z qo'llash mahoratiga bog'liq. Shu tariqa xalq iboralari sayqallanib, yangi ma'no nozikliklari bilan to'yinib boradi. Xalq iboralarni qayta ishlashning usullari, ularga yangicha rang va tus, yangicha ma'no talqini berishning yo'llari juda xilma-xildir. Frazeologik iboralarni qayta ishlashning turli usullarini tilshunos olim B. Yo'ldoshev keng tadqiq qilgan. Iboraning semantik tarkibida frazeologik ma'nodan tashqari, uslubiy bo'yoq ham mavjud bo'ladi. Salbiy yoki ijobiy baho semalari, odatda iboralarning mazmun planida bo'rtib turadi, bu omil iboralardan nutqiy ta'sirchanlikni ta'minlovchi uslubiy vosita sifatida foydalanish imkonini beradi, ayniqsa, badiiy asar tilida bunday birliklarning roli katta bo'ladi.

Ma'lumki, frazeologizm lug'aviy birlik bo'lganligidan u nutq jarayonida gap tarkibida kelganda bir mustaqil so'z, so'z birikmasi, gap tarzida harakat qiladi. Shu boisdan, agar yozuvchi yuqoridagi *ko'zi ilindi, yuragim taka-puka bo'lib kirsam, ko'zi pishib ketgan, og'zingga qarab gapir* kabi iboralarning o'rnida *uxlamoq, hayajonlanmoq, o'ylab gapirmoq* kabi jummalarni qo'llanganida edi, hikoyalarning badiiy estetik qimmatini bunchalik oshmagan bo'lar edi. Va yozuvchi o'z oldiga qo'ygan maqsadiga ham yeta olmagan bo'lar edi.

Badiiy asarda sinonim so'z va sinonim iboralardan foydalanishda, ular anglatadigan ma'no farqlari va emotsional-ekspressiv belgi xususiyatlari hisobga olinadi. Chunki qo'llanayotgan har bir sinonim so'z va sinonim ibora o'z ma'no nozikliklari bilan bir-biridan farqlanib, ulardan o'rinli foydalanish ifoda etilayotgan fikrning aniq va ravon bo'lishiga xizmat qiladi. Bir frazeologik sinonimiya qatorini tashkil etgan iboralar bir-biridan o'zlari ifodalagan ma'no qirralari, uslubiy bo'yoqdorligi, konnatativ ma'nosi, ta'sirchanlik va obrazlilik darajasiga ko'ra bir-biridan farq qiladi.

Shuningdek, yozuvchining qanchalik ko'p sinonimlardan foydalanish mahorati uning til boyligining xilma-xil ekanligidan dalolat beradi. Yuqoridagi

misollarda qoʻllangan iboralar sinonim boʻlsa-da, ular oʻz maʼno nozikliklari bilan bir-biridan farq qiladi. Hozirgi oʻzbek tilida leksik sinonimlar bilan bir qatorda leksik- frazeologik va frazeologik sinonimlar mavjud boʻlib, ular badiiy uslub namunalarida keng qoʻllaniladi, jumladan biz kuzatish olib borayotgan adib ijodida ham bu holat kuzatiladi. Maʼlumki soʻzlar va iboralar oʻrtasidagi sinonimik munosabat leksik-frazeologik sinonimlar hisoblanadi. Nutqimizda qoʻllaydigan iboralar ham bir-biri bilan oʻzaro sinonimik munosabatga kirishib, frazeologik sinonimiya qatorini hosil qiladi.

Bu iboralarning barchasi ishning koʻzini biladigan odamlarga nisbatan qoʻllanilgan soʻz birikmalari haqidadir. Bunda “koʻzi pishib ketgan” iborasi “suv qilib ichib yuborgan” iborasiga qaraganda maʼno darajasining kuchliligi, ifodaliligi jihatidan farq qilsa, “hadisini olgan” iborasi sinonimik qatordagi har ikkala iboradan ham obrazlilik bilan farq qiladi. Yozuvchi kuchsizroq va kuchliroq maʼno anglatuvchi iboralarni qoʻllash orqali soʻz qoʻllash sanʼatini namoyish qilgan. Koʻrinib turganidek, sinonim iboralardan foydalanishdagi keng imkoniyat yozuvchi qalamining oʻtkirigidan dalolat beradi.

Frazeologik sinonimlarning deyarli barchasi koʻchma maʼnoda qoʻllanuvchi obrazli iboralar boʻlib, ular asarda muallif nutqining rang-barang boʻlishini taʼminlaydi. Bunday iboralarni ishlatish personaj nutqiga tavsif berishda eng faol qoʻllanadigan vositalardan biri sanaladi. Tildagi frazeologik sinonimlardan asarda toʻgʻri qoʻllay bilish kishi nutqi uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Buning natijasida kishilar oʻzlarining fikr va gʻoyalarini eng nozik maʼno xususiyatlarini tushunarli va aniq, shirali, obrazli va taʼsirchan qilib ifodalashga muyassar boʻladilar. Umuman, yozuvchi Oʻtkir Hoshimovning hikoyalarida, ayniqsa, “Usta koʻrgan shogird”, “Koʻkyotal”, “Osh” kabi hikoyalarida leksik birliklar yozuvchi uslubining oʻziga xosligini taʼminlaydi va bu soʻz qoʻllash xususiyatlariga, yangi tasvirlar hosil qilish jihatidan oʻziga xoslikni tashkil qiladiki, bu holat boshqa asarlarda kuzatilmaydi.

Xulosa qilib aytganda, Oʻtkir Hoshimov asarlarida qalam uchidan soʻzlar musiqa singari quyilib keladi. Uning hikoya va qissalari sheʼrdek, dostondek oʻqiladi, ular yakka sozda chalingan dilrabo kuydek yangraydi, romanlari koʻp ovozli simfoniyani eslatadi. Hatto asarlarida qoʻllangan iboralar ham serqirraligi, ishlatilish oʻrinlari bilan oʻz ahamiyatini yoʻqotmaydi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Yo‘ldoshev.M . Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. Toshkent, “Fan” 2006.
2. O‘zbek tili frazeologik lug‘ati. Sh.Rahmatullayev.Toshkent .1978.
3. O‘tkir Hoshimov “Ikki eshik orasi”. Toshkent-2012.
4. O‘tkir Hoshimov “Urushning so‘nggi qurboni” Hikoya.

## TRANSCHEGARAVIY ZARAFSHON DARYOSI SUVLARIDAN OQILONA FOYDALANISH MUAMMOLARI

**S.A. Po'latov**

Toshkent viloyati Chirchiq Davlat pedagogika universiteti

E-mail: [Pulatovsardor713@gmail.com](mailto:Pulatovsardor713@gmail.com)

**X.T. Tursunov**

Toshkent viloyati Chirchiq Davlat pedagogika universiteti

E-mail: [khasant@mail.ru](mailto:khasant@mail.ru)

### ANNOTATSIYA

Hozirgi kunga kelib daryolardan foydalanishda ko'plab muammolar kelib chiqmoqda. Shu o'rinda Zarafshon daryosidan ham foydalanishda turli muammolar yuzaga kelmoqda. Ushbu maqola orqali Zarafshon daryosida mavjud muammolar ochib berilishga harakat qilingan.

**Kalit so'zlar:** Transchegaraviy daryo, daryo xavzasi, ko'p yillik o'rtacha oqim, irmoq, kanal, qayir.

O'zbekistonning suv ta'minotida kattaligi bo'yicha uchinchi o'rinda turadigan transchegaraviy Zarafshon daryosining o'rni beqiyosdir.


Zarafshon daryosi xavzasi qadimiy sivilizatsiya o'choqlaridan biri bo'lgan. Zarafshon, forscha "zar"- "oltin", afshon- "sochuvchi" ma'nosini bildiradi. Avesto yodgorliklarida "Daitiya – Ezgu suv" deb yuritilgan. Yunonlar xukmronligi davrida Politimet - "Ko'p ezgu suv" deb atalgan. Daryoning Sug'd, Jirt, Jon, Somjan shakldagi nomlari ham ma'lum. Arabcha manbalarda Haramkom – "Muqaddas daryo", Nahr ul Buhoro kabi nomlari zikr etilgan. Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarida Obi Ko'xak deb tilga olingan. Keiynroq Dayoiy Ko'xak, XVIII asrdan Zarafshon deb nom olgan [Хикматов Ф. ва бошқалар. 2016: 6]. Zarafshon daryosi Tojikiston hududidagi tog'lardan boshlanadi va g'arbga qarab O'zbekistonning sharqiy va markaziy hududlari-Samarqand, Navoiy va Buhoro viloyatlarida oqadi va suvga bo'lgan ehtiyojlarni qondirishda muhim rol o'ynaydi.

Zarafshon daryosi havzasining umumiy maydoni 143 ming kvadrat kilometrni tashkil etadi va shundan 131 ming kvadrat kilometri O'zbekiston hududiga to'g'ri keladi [Baraev, 2014: 39]. Dastlabki 300km da daryo Tojikiston hududi bo'lab oqadi va O'zbekistonning Samarqand viloyatida joylashgan Zarafshon vodiysiga chiqadi.

Havzaning tog‘ qismidagi oqimi Zarafshon(51%) va uning irmoqlari(Fandaryo va bosh’alar) hisobidan tashkil topadi. Daryoning umumiy uzunligi 781 km ni tashkil etadi va dastlabki 300 km Tojikiston hududida oqadi[Obzor, 2020:190]. Zarafshon daryosining ko‘p yillik o‘rtacha oqimi 5,91 km<sup>3</sup>ni tashkil etadi va uning 0,76 km<sup>3</sup> qismi O‘zbekiston hududida shakllanadi. Qadimdan Jizzax viloyatida Eski Tuyatortar kanali va Qashqadaryo viloyatida esa Eski Anhor kanallari orqali Zarafshon daryosidan suv olgan.

Zarafshon daryosida suv ta‘minoti va sugorishga xizmat qiladigan bir qator to‘g‘on va dambalar-Pervomai, Oqdaryo, Damxo‘ja, Narpoi, Karmara, Sofrikon, Xarhur va Vobkent gidrouzellari, shuningdek, ko‘plab yirik va o‘rta kanallar mavjuddir.

Daryoning o‘rta oqimida, Zarafshon vodiysida To‘dako‘l(22 000ga), Quiymozor(1 600 ga) va Sho‘rko‘l(1 600ga) suv omborlari joylashgan.



**1-rasm. Zarafshon daryosi havzasining O‘zbekiston qismi. [Samarqand viloyati tabiiy xaritasi]**

Zarafshon vodiysi Markaziy Osiyo va O‘zbekistondagi aholisi zich joylashgan, sug‘orma dehqonchilik rivojlangan hududlardan biri hisoblanadi. Samarqand va Navoiy viloyatlarida Zarafshon daryosi suvlaridan birinchi navbatda aholining zarur ehtiyojlari uchun zarur bo‘lgan qishloq xo‘jalik mahsulotlarini etishtirish maqsadida 530 000 ga erlarni sug‘orish uchun foydalaniladi[Obzor, 2020:190].



Daryo suvlarining sanoat tarmoqlarini rivojlantirish va aholini ichimlik suv bilan ta'minlashdan tashqari rekreatsiya va turizmni rivojlantirish maqsadlarida ham ahamiyatga egadir. Zarafshon daryosi orta oqimidagi qayir o'monlarini o'z ichiga olgan va 46 km ga cho'zilgan Zarafshon qo'riqxonasi tabiat komplekslari, shu jumladan, flora va faunani asrash va ekoturizmni rivojlantirishda ahamiyati kattadir.

XX asrning ohirgi o'n yilliklarida iqlimning o'zgarishi, yog'inlar miqdori, tog'lardagi qor-muz zahiralarning kamayishi, Zarafshon daryosi suvlarining sanoat oqavalari, maishiy chiqindilar va qishloq xo'jaligi kollektor-drenaj suvlari bilan ifloslanishi oqibatida suv resurlarining etishmasligi muammolari tobora keskinlashmoqda. Markaziy Osiyo va O'zbekiston sharoitlarida daryolar suvidan nooqilona foidalanishda asosiy rol o'ynaydigan asosiy antropogen omil bu sug'orishdir. Zarafshon xavzasi Amudaryo o'ng qirg'og'ida suv bilan eng kam ta'minlangan, suv sifatini yaxshilash va suvdan oqilona foidalanishga ehtiyoj sezadigan hudud hisoblanadi.

O'zbekistonda qurilish ishlarining rivojlanishi Zarafshon daryosi qirg'oqlarida joylashgan Zarafshon Milliy bog'i hududida qayirdan ko'plab qum-shag'allarni tashib ketilishi oqibatida daryo suvi sifatiga, noyob flora va faunaga katta zarar etkazilmoqda. Hozirgi vaqtda Zarafshon daryosi suvlariga ta'sir ko'rsatayotgan omillarni har tomonlama o'rganish, ularni miqdoriy jihatdan baholash, monitoringni kuchaytirish, salbiy ekologik oqibatlarni oldini olish, suvlardan oqilona foidalanishini ta'minlashda aholi rolini oshirish asosiy muammolardan hisoblanadi. Bir vaqtlar Amudaryoning yirik irmog'i hisoblangan Zarafshon daryosi suvlaridan sug'orish ishlarida xaddan tashqari foidalanish oqibatida Buxoro shahri yaqinida, Qizilqum cho'lida qumlarga singib tugab qolmoqda.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. Baraev F.A., G'ulomov S.B., O'rinbaev S.N. Suv resurslari va suvdan tejamli foidalanish. T:, 2014.-138bet.
2. Обзор результативности экологической деятельности. Узбекистан. Третий обзор. Организация Объединенных Наций., Женева., 2020.-465 стр.
3. Хикматов Ф.Х., Хайдаров С.А., Ярашев Қ.С., Ширинбоев Д.Н., Зияев Р.Р., Эрлапасов Н.Б., Ганиев Ш.Р. Зарфшон хавзасининг гидрометеорологик шароити ва сув ресурслари. Т:, 2016.-276 бет.

## KINEMATOGRAFIYA SOHASIDA O‘ZBEKISTON SSR VA HINDISTON DAVLATLARINING O‘ZARO HAMKORLIGI

**Qodirov Humoyun Abduraxmon o‘g‘li**  
O‘zbekiston Milliy universiteti tarix fakulteti magistranti

**Muxamedov Xabibulla Rajab o‘g‘li**  
Vebster universiteti Toshkent filiali talabasi

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada yaqin o‘tmish, O‘zbekiston SSR va Hindiston davlatlarining kinematografiya sohasidagi o‘zaro hamkorlik munosabatlari yoritilgan. Bunda SSSRning Hindiston bilan diplomatik munosabatlar o‘rnatishda O‘zbekiston roli haqida so‘z yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** o‘zbek-hind madaniy aloqlari, festival, kinematografiya, delegatsiya, kino, kinoprokat

### ABSTRACT

This article covers the recent past, and the relations of cooperation between the Uzbek SSR and India in the field of cinematography. The role of Uzbekistan in the establishment of diplomatic relations between the USSR and India was discussed.

**Key words:** Uzbek-Indian cultural relations, festival, cinematography, delegation, cinema, film distribution

### АННОТАЦИЯ

В данной статье освещаются недавнее прошлое, отношения сотрудничества между Узбекской ССР и Индией в области кинематографии. Обсуждалась роль Узбекистана в установлении дипломатических отношений между СССР и Индией.

**Ключевые слова:** узбекско-индийские культурные связи, фестиваль, кинематография, делегация, кинематограф, кинопрокат.

### KIRISH

SSSRning Hindiston bilan diplomatik munosabatlar o‘rnatishda O‘zbekiston bog‘lovchi vazifasini bajargan. O‘zbekiston va Hindiston davlatlarning o‘zaro munosabatlarida madaniy soha muhim o‘rin tutgan. Jumladan, kinematografiya sohasida O‘zbekiston va Hindiston davlatlari orasida katta madaniy almashinuvlar yuz

berdi. Hamkorlikda o'tkazilgan kinofestivallar nafaqat do'stona munosabatlarni o'rnatishda, balki ikki tomonlama hamkorlik, o'zbek va hind kino mahsulotlarining ikki mamlakatda mashhur bo'lishiga ham zamin yaratdi.

### **ADABIYOTLAR SHARHI**

Kinematografiya siyosiy va ilmiy targ'ibot ishlarini olib borishda muhim vositalardan biri hisoblanadi. Shuningdek, kinematografiya davlatlar o'rtasida diplomatik munosabatlarni o'rnatishda, xalqlarning o'zaro madaniy aloqalarida ham asosiy rolni o'ynaydi. Kinematografiya sohasida O'zbekiston SSR va Hindiston davlatlarining o'zaro hamkorligi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida asosiy mavzulardan biri bo'lib kelgan (Ra'no Boboxo'jayeva, Shodmon Hayitov, Sevara Po'latova, Nina Kochelyayeva, Ulug'bek Soliyev, Abdug'affor Qirg'izboyev, Alisher Sahiboyev, Shahlo Qurbonova, Sergey Lunev, Sergey Bratchikov).

### **TADQIQOT NATIJALARI**

O'zbekiston bilan Hindiston o'rtasidagi munosabatlar bir necha ming yillik tarixga ega. Jumladan, sobiq sovet ittifoqi davrida Hindistonning birinchi bosh vaziri Javoharlar' Neru 1955-yil 7–23-iyun kunlari Sovet ittifoqiga davlat tashrifi chog'ida Toshkent va Samarqandda bo'lgan. U 1961-yil 6–12-sentyabrdagi davlat tashrifi chog'ida Toshkentga yana tashrif buyuradi [1, 320-bet] [2].

Shuningdek, O'zbekiston va Hindiston o'rtasida madaniy sohada keng ko'lamli munosabatlar o'rnatilgan. Jumladan, 1953–1964-yillari kinematografiya sohasida keng hamkorlik ishlari olib borildi. 1953-yil oxiri — 1954-yil boshida sobiq SSSRning Kino va kinoprokat bosh boshqarmasi 1954-yil avgustida hind filmlarining birinchi festivaliga tayyorgarlikni boshlab yuboradi. Tomoshabinlariga “Ikki tanob yer” (“Do Bigha Zamin”, rejissyor Bimal Roy) va “Sargardon” (“Rahi”, rejissyor Xoja Ahmad Abbas) filmlarini namoyish etish belgilab olinadi [3, 10-bet]. Yana Hindiston bilan beshta badiiy filmlarni namoyish etish bo'yicha muzokaralar olib borilgan.

1954-yil o'tkazilgan kinofestivalga Xoja Ahmad Abbas boshchiligidagi 16 kishidan iborat hind delegatsiyasi shu yilning 21-sentyabrida tashrif buyurishadi. Delegatsiya tarkibida hind kinosining mashhur namoyandalari rejissyor va aktyor Raj Kapur, rejissyor Chatan Anand, aktrisa Nargis, rejissyor va prodyuser Bimal Roy ham bor bo'lgan.

1954-yil 21-sentyabrdan 1-oktyabrgacha Hindiston delegatsiyasi Moskvada bo'ldi. 23-sentyabr kuni Kinolar uyida hind filmlari festivalining tantanali ochilish marosimi bo'lib o'tadi. Delegatsiya Moskvadan tashqari bir oy davomida Leningrad (hozirgi Sankt-Peterburg) va Toshkent shahrida ham bo'lishadi. 1954-yil 7-oktyabrda hind delegatsiyasi Toshkent shahriga kelishadi. Uchrashuvdan so'ng delegatsiya a'zolariga O'zbekiston SSR Ministrlar soveti tomonidan “Sovet O'zbekiston” va “O'zbek raqs ustasi” (Toshkent kinostudiyasi mahsuloti) filmlari namoyish etildi.

Shuningdek, delegatsiya a'zolari shahardagi San'at muzeyi, Alisher Navoiy nomidagi milliy kutubxon, Alisher Navoiy nomidagi opera va balet teatrida "Gulsara" operasi va "Balerina" baletiga tashrif buyurishgan. Tashrif yakunida delegatsiya a'zolariga milliy liboslar: erkaklarga o'zbek zar to'nari, do'ppilar, ayollarga xonatlas, zardo'zli do'ppilar sovg'a qilingan. 1954-yil 20-oktyabrda delegatsiya tashrifi nihoyasiga yetib, Hindistonga qaytib ketadi [4].

1958-yilda Osiyo va Afrika mamlakatlarining I xalqaro kinofestivali bo'lib o'tadi. Festival 20-avgustdan 3-sentyabrga qadar Toshkent shahrida bo'lib o'tgan (SSSR Madaniyat ministrligining 1958-yil 13-iyundagi 421-sonli buyrug'iga asosan). Festivalga 22 ta mamlakatning kino sohasi vakillari ishtirok etishgan.

Keyinchalik delegatsiya a'zolari ta'kidlaganidek, kinofestival „Kinofestivalning ishtirokchi mamlakatlari o'rtasidagi do'stona aloqalarni mustahkamlash va kengaytirishda hamda butun insoniyat farovonligi va taraqqiyoti yo'lida dunyo tinchligi uchun kurashishda kinematografiya sohasida o'zaro tajriba almashishga“ jiddiy hissa qo'shdi [4].

Toshkentda yig'ilgan 22 ta mamlakat vakillari kinofestivalni yuksak darajada tashkil etgani, ishtirokchilarni do'stona qabul qilgani uchun O'zbekiston hukumatiga o'z minnatdorchiliklarini bildirdi. Aynan shu davrda Toshkent tinchlik va do'stlik timsoliga aylandi.

1958-yilgi xalqaro kinofestival hind kinematografiyasining namoyandalarida katta va ijobiy taassurot qoldirdi. Bu esa kelgusida hind kinostudiyalarining Markaziy Osiyo kinostudiyalari bilan mustahkam aloqalar o'rnatishiga sabab bo'ldi. O'zbek va hind xalqi orasida kinofestivallar har yili kutiladigan hodisaga aylandi [5, 106-bet].

XX asrning 60-yillarida sovet hokimiyatining Sharqda olib borgan diplomatik munosabatlarida O'zbekistonning asosiy o'rin egallashi tufayli O'zbekistonning Hindiston bilan amaliy va madaniy munosabatlar o'rnatishida muhim ahamiyatni kasb etdi. Bu vaqtda Toshkent nafaqat mintaqaning madaniy markaziga, balki siyosiy xarakterdagi muhim xalqaro tadbirlarni o'tkazishda asosiy maydonga aylandi. Misol uchun, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Amerika va Sovet Ittifoqi shafeligi ostida 1966-yil 10-yanvarda Toshkentda Hindiston bosh vaziri Lal Bahodur Shastri va Pokiston prezidenti Muhammad Ayub Xon o'rtasidagi tarixiy uchrashuv bo'lib o'tadi [6]. Konferensiyada "Toshkent deklaratsiyasi" imzolanishi, Hindiston va Pokiston o'rtasida urushni to'xtatilishiga, oralaridagi sovuq munosabatni yakunlashga sabab bo'lgan.

Ushbu muhim xalqaro uchrashuvlar Toshkentda yangi madaniy tadbirlarni qilish imkoniyatini berdi. 1968-yilda O'zbekistonning o'sha paytdagi davlat rahbari Sharof Rashidov tashabbusi bilan Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlarining Toshkent xalqaro kinofestivali o'tkaziladi. Kinofestival ikki yilda bir marta, hech

qanday ko‘rik-tanlov va g‘oliblik o‘rinlarisiz “Tinchlik, ijtimoiy taraqqiyot va xalqlar erkinligi uchun!” shiori ostidan o‘tkazilgan.

Festivalning bosh maqsadi: kino san‘atining eng yaxshi asarlarini aniqlash, o‘zaro hamkorlikni rivojlantirish va xalqlar o‘rtasidagi do‘stlikni mustahkamlash bo‘lgan. Festival raqobatbardosh bo‘lmagan bo‘lib, filmlar tomosha natijalariga ko‘ra turli jamoat tashkilotlarining mukofotlari, esdalik medallari bilan Alisher Navoiy nomidagi opera va balet teatri sahnasida tantanali ravishda topshirilgan.

Dastlab Osiyo, Afrika mamlakatlarining kino yutuqlarini ko‘rib chiqish sifatida tashkil etilgan festival 1984-yilda Lotin Amerikasi mamlakatlarini jalb etishi tufayli o‘z doirasini yanada kengaytiradi. Masalan, 1968-yilda Toshkentda bo‘lib o‘tgan I xalqaro kinofestivalida 49 ta mamlakat va xalqaro tashkilotlar ishtirok etgan bo‘lsa, 1984-yilda bo‘lib o‘tgan VIII kinofestivalda ishtirokchilar soni 100 taga yetdi. Jahon kinosi festivalining jozibasiz, kuchi, mashhurligi, birinchi navbatda, dolzarbligi va keng qamrovliligi, festivalning “Tinchlik, ijtimoiy taraqqiyot va xalqlar erkinligi uchun!” shiori bilan yaqqol ifodalanadi [7, 83-bet]. Festival 1988-yilgacha o‘tkazib kelindi.

Shu davrda suratga olingan “Laylak keldi, yoz bo‘ldi” (1966-yil, rejissyor Ali Hamroyev), “Mehribonlik” (“Nazokat”, 1966-yil, rejissyor Elyor Ishmuhamedov), “Sevishganlar” (1969-yil, rejissyor Elyor Ishmuhamedov) [8, 563-bet], “Ulug‘bek yulduzi” (1964-yil, rejissyor Latif Fayziyev), “O‘tgan kunlar” (1969-yil, rejissyor Yo‘ldosh A‘zamov), “Osiyo ustida bo‘ron” (1964-yil, rejissyor Komil Yormatov), “Toshkent — non shahri” (1968-yil, rejissyor Shuhrat Abbosov), “Sen yetim emassan” (1962-yil, rejissyor Shuhrat Abbosov) sovet kinosining oltin fondida joy olishdi.

Bundan tashqari, rejissyorlar Elyor Ishmuhamedov va Odelsha Agishevning “Dahoning yoshligi” (1982-yil) SSSR Davlat mukofotiga sazovor bo‘lgan rejissyor Ali Hamroyevning “Inson qushlar ortidan boradi” filmi (1975-yil) 1976-yilda Dehli xalqaro kinofestivalida “Kumush tovu” mukofoti bilan taqdirlangan [Yuqoridagi manba, 563-bet].

Yana shuningdek, rejissyorlar Latif Fayziyev va Umesh Mehra hamkorligida “Ali bobo va qirq qaroqchi sarguzashtlari” (“Alibaba Aur 40 Chor”, 1979-yil) [Yuqoridagi manba, 563-bet] [9, 72-bet], “Sevgi afsonasi” (“Sohni Mahiwal”, 1984-yil), “Ovchi” (“Shikari”, 1991-yil) kabi o‘zbek-hind filmlari suratga olingan [Yuqoridagi manba, 73–74-bet].

## XULOSA

O‘zbekiston va Hindiston mamlakatlarining kino sohasidagi hamkorligi bosqichma-bosqich ravnaq topib borishiga imkon berdi. Bu davrda qo‘shma loyihalar, badiiy filmlar ham o‘zbek va hind kinoijodkorlari uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochdi. Ikki mamlakatda bo‘lib o‘tgan festival davomida hamkorlik doirasidagi loyihalar takomillashtirildi. Unda aniq takliflar ilgari surilib, keyingi rivojlanish

bosqichiga asos bo'ldi. Hind filmlarini o'zbek tiliga tarjima qilinib, O'zbekistondagi kinoteatrlarda namoyishi qaytadan tiklandi va bu o'zgarishlar ikki xalq o'rtasidagi munosabatlar rivojiga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Shuningdek, soha mutaxassislari Hindistondagi kino ishlab chiqaruvchi kompaniyalar taklif etadigan xizmatlar bilan ham tanishib bordilar.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Sahai, Shrinath. The Delhi Declaration, Cardinal of Indo-Soviet Relations: A Bibliographical Study. — New Dehli: Mittal Publications. 1990 — 334 bet / [https://books.google.co.uz/books/about/The\\_Delhi\\_Declaration\\_Cardinal\\_of\\_Indo\\_S.html?id=r3lhRuOJamwC&redir\\_esc=y](https://books.google.co.uz/books/about/The_Delhi_Declaration_Cardinal_of_Indo_S.html?id=r3lhRuOJamwC&redir_esc=y)
2. Nehru's Soviet sojourn. The Hindu. / <https://www.thehindu.com/features/magazine/nehru-soviet-sojourn/article7407454.ece>
3. Макарова Т. Фестиваль индийских фильмов // Огонёк. — 1954. — №40. С. 10
4. Соколова Ю. Кинофестивали как форма советско-индийских культурных связей 1953–1964 гг. Ученые записки. — 2021. — № 3 (59). / <http://scientific-notes.ru/magazine/archive/number/182>
5. Абдурашидов Г. Дружба во имя мира // Звезда Востока. — 1956. — №7. С. 106
6. Was Mr Shastri murdered. bbc.co.uk. / [https://www.bbc.co.uk/blogs/thereporters/soutikbiswas/2009/08/was\\_mr\\_shastri\\_murdered.html](https://www.bbc.co.uk/blogs/thereporters/soutikbiswas/2009/08/was_mr_shastri_murdered.html)
7. Касымов А. Советский Узбекистан на международной арене // Общественные науки в Узбекистане. — 1984. — №10. С. 83
8. Меликузиев И. М., Юлдашев Э. С. История и развитие узбекского искусства кино // Молодой ученый. — 2016. — №19. С. 563
9. Salazkina, Masha. Soviet-Indian Coproductions: Alibaba as Political Allegory. Cinema Journal. 49 (4). P. 72–74 / [https://spectrum.library.concordia.ca/id/eprint/978004/1/Soviet-Indian\\_coproductions\\_proofs.pdf](https://spectrum.library.concordia.ca/id/eprint/978004/1/Soviet-Indian_coproductions_proofs.pdf)

## INTELLEKTUAL MULK SOHASIDAGI DAVLAT BOSHQARUVI AMALIYOTI VA MUAMMOLARI, VAKOLATLI ORGANLAR FAOLIYATI TAHLILI

**Maxmudov Faxriddin Foziljon o'g'li**

Toshkent davlat yuridik universitetining magistranti

E-mail: [yuristmff@gmail.com](mailto:yuristmff@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Maqola intellektual mulk sohasidagi davlat boshqaruvidagi amaliyot, ushbu sohadagi davlat boshqaruvi bilan bog'liq muammolar masalasiga e'tibor qaratilgan. Maqolada intellektual mulk sohasidagi vakolatli organlar faoliyatini tahlil qilish orqali mavjud yutuq va muammolar tahlil qilishga e'tibor qaratilgan. Shuningdek, maqolada jahon tajribasi, MDH davlatlaridagi intellektual mulk sohasidagi davlat boshqaruvi amaliyoti va tajribasi o'rganilgan. Tahlil va o'rganishlar bo'yicha intellektual mulk sohasidagi davlat boshqaruvini tamokillashtirish yuzasidan takliflar berilgan.

**Kalit so'zlar:** intellektual mulk, davlat boshqaruvi, xalqaro shartnoma, bitim, moddiy aktivlar, nomoddiy aktivlar, shaxsiy nomulkiy huquqlar, strategiya, mualliflik huquqi, bojxona reestri.

### ABSTRACT

The article focuses on the practice of state management in the field of intellectual property, problems related to state management in this field. We can see that the author analyzed the existing achievements and problems by analyzing the activities of competent bodies in the field of intellectual property. Also, the article examines the world experience, the practice and experience of state management in the field of intellectual property in the CIS countries. Based on the analysis and studies, proposals were made for the improvement of state management in the field of intellectual property.

**Keywords:** intellectual property, public administration, international agreement, deal, tangible assets, intangible assets, personal impropriety rights, strategy, copyright, customs register.

Intellektual mulk inson aqlining nomoddiy ijodlarini o'z ichiga olgan mulk toifasi hisoblanadi. Intellektual mulk obyektlarining ko'p turlari mavjud va ba'zi davlatlar boshqalardan ko'ra ko'proq obyektlarni o'z qonunchiligida tan oladi. Eng mashhur intellektual mulk obyekti turlari sifatida patentlar, mualliflik huquqlari, savdo belgilari

va tijorat sirlaridir. Intellektual mulkning zamonaviy konsepsiyasi 17-18-asrlarda Angliyada ishlab chiqilgan. "Intellektual mulk" atamasi 19-asrda qo'llanila boshlandi, garchi XX asr oxiriga kelib intellektual mulk dunyoning aksariyat huquq tizimlarida odatiy holga aylanganligini inobatga olinsa ham.

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng turli sohalar bilan bir qatorda mulkchilik sohasida ham tub o'zgarishlar yuz berdi. Milliy qonunchilikda mulkiy huquqlar doirasi kengaydi va huquqiy tomondan mustahkamlab qo'yildi. Xususan, fuqarolarning ijodiy faoliyati natijalari, fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining individuallashtirish vositalari mol-mulk sifatida to'la e'tirof etildi. Natijada mulkiy huquqlar majmuida yangi tizim - intellektual mulk huquqi vujudga keldi.

Insonlar hayotida bir mulk borki, uni huquqiy muhofaza va himoya qilish davlatlar kelajagi va taraqqiyotiga dahldor hisoblanadi. Bu – intellektual mulkdir, ya'ni insonlarning intellektual faoliyati, aql-idroki, ongu tafakkuri, ijodkorligi va qobiliyati natijasida vujudga keladigan bebaho aktivdir.

Shu nuqtai nazardan dunyoning barcha davlatlari intellektual mulk sohasini zamon bilan hamnafas rivojlantirib borishga xarakat qiladilar. Chunonchi, qaysiki davlatda intellektual faoliyat natijalarini muhofaza qilish samarali yo'lga qo'yilgan bo'lsa, ixtiro, foydali model, seleksiya yutuqlari yaratilishi har tomonlama qo'llab-quvvatlansa hamda ularni yaratish uchun zarur shart-sharoitlar yaratib berilsa, bunday davlatda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish salmog'i ham yuqori bo'ladi.

Shu jihatdan so'nggi yillarda mamlakatimizda ham intellektual mulk sohasini rivojlantirish, intellektual mulk obyektlarini huquqiy muhofaza qilish bilan bog'liq ma'muriy tartib-taomillarni soddalashtirish, intellektual mulkni ta'sirchan huquqiy mexanizm bilan himoya qilish, intellektual mulk obyektlarini tijoratlashtirish bo'yicha tizimli va samarali islohotlar amalga oshirib kelinmoqda.

Respublikamizda intellektual mulk bozori tizimining yaratilishini quyidagi bosqichlarga ajratish mumkin.

Birinchi bosqich 1991-1995 yillarga to'g'ri kelib, bu davr jahon patent tizimi tajribasini o'rganish, sohaga oid ixtisoslashgan xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'lish, milliy qonunchilik asoslarini yaratish, davlatning vakolatli organi, ya'ni Davlat patent idorasi, Mualliflik huquqini himoya qilish agentligining tashkil etilishi va oyoqqa turishi yillari bo'ldi.

Ikkinchi bosqich 1996-2002 yillarga to'g'ri keladi. Bu davrda intellektual mulk boyliklarini huquqiy jihatdan muhofaza qilish sohasidagi qonun hujjatlari takomillashtirildi. Jumladan, "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida", "Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risida", "Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va ma'lumotlar bazalarining huquqiy himoyasi to'g'risida", "Integral mikrosxemalar



topologiyalarini huquqiy muhofaza qilish to'g'risida", "Seleksiya yutuqlari to'g'risida", "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi qonunlar qabul qilindi. Bu yillarda faqatgina patent huquqi sohasida umummajburiy xarakterdagi 15 ta hujjat va idora faoliyatini tartibga soladigan 120 dan ziyod me'yoriy hujjat ham ro'yxatga olinganini qayd etib o'tish lozim. Bu rivojlangan davlatlarning shu sohada faoliyat olib boradigan idoralari tajribasini respublikamizda tizimli hamda samarali joriy etish imkonini berdi.

Uchinchi bosqich 2003-yildan boshlanib, hozirgi kuni qamrab oladi va bu yillarni "hamkorlar bilan ishlash davri" hamda intellektual mulk sohasida davlat boshqaruvi takomillashuvi va rivojlanish davri deb atalishi mumkin. Huquqiy muhofaza qilinadigan intellektual mulk obyektlari haqida jamoatchilikni xabardor qilish, xalqaro anjumanlar o'tkazish orqali respublikamizda olib borilayotgan sohaga oid islohotlarni dunyo jamoatchiligiga yetkazish, sohaga oid milliy qonunchilikning qo'llanishi va xalqaro aktlarning ijrosi yuzasidan nazorat-tahlil ishlari o'tkazilishi, omma o'rtasida targ'ibot ishlarini yuritish kuchayganini shu yillarda ko'rish mumkin.

Fan va texnikaning jadal rivojlanishi, yuksak texnologiyalarning kirib kelishi natijasida yaratilayotgan yangiliklar, texnik yechimlar, elektron hisoblash mashinalari uchun dasturlar, ma'lumotlar bazalari, o'simlik navlari, hayvonlarning yangi zotlari, mikrosxemalar topologiyalarini yaratuvchi ijodkorlarning huquqini himoya qilish zaruriyati intellektual mulkni yangi normalar asosida muhofaza qilishni taqozo etadi.

Intellektual mulk sohasidagi davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 2-fevraldagi "Intellektual mulk sohasida davlat boshqaruvini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4168-son qaroriga asosan O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi Adliya vazirligi tizimiga o'tkazilib, Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi (bundan buyon matnda Agentlik deb yuritiladi) sifatida qayta tashkil etildi.

Agentlik intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquqlarni muhofaza va himoya qilish sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshiruvchi vakolatli davlat boshqaruvi organi etib belgilandi hamda unga intellektual mulk obyektlarining huquqiy muhofazasini ta'minlash bilan bir qatorda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan intellektual mulk obyektlarining huquqiy himoyasini ta'minlash va soha bo'yicha davlat organlari va tashkilotlari hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini muvofiqlashtirish kabi yangi vazifa va funksiyalar yuklandi.

Intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquqlarni himoya qilishni ta'minlash maqsadida Agentlikka intellektual mulk sohasidagi qonunbuzilishlar uchun tegishli tartibda ogohnoma va taqdimnoma kiritish, aniqlangan ma'muriy huquqbuzarlik

holatlari yuzasidan ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risida bayonnoma rasmiylashtirish va sudlarga kiritish huquqlari berildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 17-martdagi PF-89-son Farmoniga muvofiq, Adliya vazirligi zimmasiga intellektual mulk sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish hamda ixtirolar, tovar belgilari, mualliflik huquqi va boshqa intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquqlarni himoya qilish bo'yicha qo'shimcha vazifalar yuklatildi. Intellektual mulk agentligi Adliya vazirligiga qo'shib olinib, vazirlik tarkibida departmanet tashkil etildi.

Ushbu o'zgarishlardan asosiy maqsad intellektual mulkning huquqiy himoyasi sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirishda tizim imkoniyatlaridan oqilona foydalanish, ushbu sohalarda muvofiqlashgan faoliyatni ta'minlash hamda mavjud ma'muriy tuzilmalarning yaxlit vertikal boshqaruvini shakllantirish zarurati yuzaga kelganligi bilan ifodalandi.

Mamlakatimizda adolat va huquq ustuvorligini mustahkamlash, aholiga professional xizmat qiladigan ixcham va samarali boshqaruvni yaratish, deklarativ xususiyatga ega vazifalarni bekor qilish, funksiyalarni amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini aniq belgilash va takrorlanishlarning oldini olish orqali budjet mablag'larini tejash va ulardan oqilona foydalanish, shu jumladan aholining huquqiy muammolarini hal etishda adliya organlarining roli va mas'uliyatini yanada kuchaytirish maqsadida Adliya vazirligida intellektual mulk sohasida yagona davlat boshqaruvini yuritish vazifasi yuklandi.

Shuningdek, intellektual mulkni huquqiy muhofaza va himoya qilish yo'nalishida ham vazirlikka vakolatlar taqdim etildi.

Adliya vazirligi intellektual mulk sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish hamda ixtirolar, tovar belgilari, mualliflik huquqi va boshqa intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquqlarni himoya qilishda, ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalari, tovar belgilari va boshqa intellektual mulk obyektlarini huquqiy muhofaza qilishda qo'shimcha vakolatlarga ega bo'ldi.

Adliya vazirligi intellektual mulk sohasini rivojlantirish maqsadida salmoqli ishlarni amalga oshirib kelayotganligini ko'rishimiz mumkin.

Mamlakatimizda mualliflik va turdosh huquqlarni samarali himoya qilish maqsadida xorijiy davlatlarning tajribalarini o'rganish va ularni amaliyotga tadbiiq etish uchun xalqaro tashkilot va chet el davlatlari bilan hamkorlik ishlari kuchaytirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalqaro shartnomani tasdiqlash to'g'risida"gi 2022-yil 3-oktabrdagi PQ-385-son qarori bilan 2021-yil 12-noyabr kuni imzolangan MDH ishtirokchi-davlatlarining axborot-telekommunikatsiya tarmoqlarida mualliflik huquqi va turdosh huquqlar obyektlariga bo'lgan huquqlarni

muhofaza va himoya qilish bo'yicha hamkorligi to'g'risidagi Bitimi O'zbekiston Respublikasi uchun kuchga kirdi.

Shu bois Adliya vazirligi tomonidan ushbu xalqaro shartnoma majburiyatlari bajarish hamda mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni raqamli muhitdagi ishonchli himoyasini ta'minlashga qaratilgan yangi yondashuvlarni amaliyotga tadbqiq etish maqsadida Butunjahon Intellektual Mulk Tashkiloti (WIPO) tomonidan yuritiladigan "WIPO Alert" maxsus himoyalangan onlayn platformasidan foydalanishni uchun Anglashuv Memorandumi (Letter of Understanding) imzolash bo'yicha tegishli ishlar olib borilmoqda.

Shuningdek soha bo'yicha xorijiy davlatlarning tajribalarini o'rganish uchun o'zaro ma'lumotlar almashish yo'lga qo'yish maqsadida 2022-yil 20-iyun kuni O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Ozarbayjon Respublikasi Intellektual mulk agentligi o'rtasida mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni himoya qilish sohasida hamkorlik Memorandumi imzolandi.

Ushbu Memorandumni amalga oshirish bo'yicha vazirlikning mutasaddi tarkibiy tuzulmalari tomonidan reja-dastur loyihasi ishlab chiqilib ko'rib chiqish uchun Ozarbayjon Respublikasi Intellektual mulk agentligiga yuborildi.

O'zbekiston Respublikasi va Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik bitimi loyihasi bo'yicha muzokaralar doirasida qo'shilish taklif etilayotgan xalqaro shartnomalar ro'yxatining 3-bandida O'zbekiston Respublikasining 1961-yil 26-oktabr kuni Rim shahrida imzolangan Ijrochilar, fonogramma tayyorlovchilar va eshittirish beruvchi tashkilotlar huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi xalqaro konvensiyasiga (Rim konvensiyasi) qo'shilishi yuzasidan chora-tadbirlar amalga oshirish nazarda tutilgan.

Shuningdek, hududiy adliya organlari xodimlarining ish samaradorligini oshirish va sohaga oid huquqbuzarlik holatlarini ko'rib chiqishda adliya organlari xodimlarining xatti-harakatlarini aniq belgilab beruvchi O'zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2022-yil 29-dekabrdagi 320-um-son buyrug'i bilan "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni buzish holatlarini tekshirish to'g'risida" Nizom tasdiqlandi.

Unga ko'ra adliya organlari tomonidan mualliflik huquqi va turdosh huquqlar buzilishi bilan bog'liq bo'lgan holatlarni tekshirish va aniqlangan huquqbuzarlik bo'yicha tegishli chora ko'rish yuzasidan mas'ul xodimlarning xatti-harakatlari belgilab berildi.

Lekin intellektual mulk sohasida davlat boshqaruvi bilan bog'liq bir necha muammolarni ko'rishimiz mumkin. O'zbekiston Respublikasida mualliflik huquqini himoya qilish bo'yicha Madaniyat vazirligi, Davlat bojxona qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy

kommunikatsiyalar agentligi, “O‘zkomnazorat” davlat inspeksiyasi vakolatli davlat organlari sifatida belgilangan bo‘lishiga qaramay, ushbu vazirlik va idoralar tomonidan soha bo‘yicha ishlar lozim darajada amalga oshirilmayapti.

Xususan, Madaniyat vazirligi qoshidagi “O‘zbekkontsert” tomonidan konsert va to‘y tomoshalarida mualliflik huquqini buzayotgan shaxslarga nisbatan keskin choralar yetarli darajada (litsenziyani to‘xtatish va bekor qilish) qo‘llanilmasdan kelinmoqda.

Shuningdek, Madaniyat vazirligiga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti raisligida 2020-yil 12-oktabrda o‘tkazilgan intellektual mulk obyektlarini huquqiy muhofaza qilish tizimini takomillashtirish masalalariga bag‘ishlangan yig‘ilishning 78-son bayonida mualliflarning mulkiy huquqlarini jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlarning faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha takliflar kiritish hamda ular faoliyatini samarali tashkil etishga yaqindan ko‘maklashish vazifalari yuklatilgan.

Huddi shunday topshiriqlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-maydagi PF-6000-son Farmonida ham o‘z aksini topgan bo‘lsada, vazirlik tomonidan tegishli ishlar yetarli darajada amalga oshirilmayapti.

Davlat bojxona qo‘mitasi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi hududi orqali olib o‘tilayotgan mualliflik va turdosh huquqlarni “Intellektual mulk obyektlari bojxona reyestiri”ga kiritish bo‘yicha ishlar yetarli darajada tashkil etilmagan.

*Ma’lumot uchun: Mazkur reyestrda hozirda faqat tovar belgilari kiritilgan bo‘lib, mualliflik huquqi va turdosh huquqlar obyektlari esa umuaman kiritilmagan*<sup>23</sup>.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi noshirlik faoliyati sohasidagi vakolatli davlat organi hisoblanadi. Agentlik noshirlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog‘liq talablar va shartlar buzilganligi aniqlangan taqdirda, nashriyotning faoliyatini o‘n ish kunidan oshmaydigan muddatga to‘xtatib turishga va aniqlangan qoidabuzarliklar belgilangan muddatda bartaraf etilmagan taqdirda nashriyot faoliyatini tugatish to‘g‘risida belgilangan tartibda sudga da’vo arizasi berishga haqli.

Biroq agentlik tomonidan mualliflik huquqini buzayotgan nashriyotlarga nisbatan bunday choralarni ko‘rish bo‘yicha ishlar sustligicha qolmoqda.

Shu bilan birga mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni buzilish holatlarini raqamli muhitda tobora ortib borayotgan bo‘lishiga qaramay “O‘zkomnazorat” davlat inspeksiyasi tomonidan mualliflik va turdosh huquqarni buzgan veb-platformalarga nisbatan ma’muriy bayonnoma rasmiylashtirish holatlari pastligicha qolmoqda.

*Ma’lumot uchun: “O‘zkomnazorat” davlat inspeksiyasi tomonidan veb-platformalarda mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni buzgan veb-sayt egalariga atigi 4 ta ma’muriy bayonnoma tuzilgan.*

<sup>23</sup> [https://imo.customs.uz/IMO\\_REESTR/](https://imo.customs.uz/IMO_REESTR/)

Xalqaro tajribada intellektual mulk himoyasida bojxona organlarining ro'li masalasiga e'tibor qaratsak, Jahon savdo tashkilotining (JST) Intellektual mulk huquqining savdo aspektlari bo'yicha bitim (TRIPS) normalari va tamoyillariga muvofiqligini tahlil qilish maqsadida Tariflar va savdo bo'yicha Bosh kelishuvning (GATT) 1994-yildagi Urugvay raundida qabul qilingan TRIPS talablari, Xalqaro tajriba va O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi asosida tahlil qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

TRIPS Bitimi Jahon savdo tashkilotini tashkil etuvchi hujjatlar to'plamining bir qismi bo'lgan xalqaro shartnoma hisoblanadi va intellektual mulkni tan olish, himoya qilish uchun minimal standartlarni belgilaydi, Bitim 73 moddadan iborat<sup>24</sup>.

Bitim xalqaro savdoning rivojlanishidagi to'siqlarni va ularni kamaytirishga intilish, samarali hamda yetarli darajada himoyani ta'minlash zarurligini hisobga olgan holda intellektual mulk huquqlari va chora-tadbirlarini ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan.

TRIPS Bitimi Jahon savdo tashkilotining intellektual mulkka nisbatan yuqori samarali nizolarni hal qilish mexanizmlariga yo'l ochib beradi hamda intellektual mulk obyektlarini tovar belgilari mualliflik huquqi yo'nalishlarda himoya qiladi:

Bitimning 4-bo'limi (*Chegara choralari qo'yiladigan aniq talablar*) 51-60 moddalari bojxona organlariga taaluqli hisoblanadi.

Bitimning 51-moddasiga (*Bojxona organlari tomonidan tovarlarning muomilaga chiqarilishini to'xtatib turish*) asosan huquq egasining tovar belgilariga huquq buzilishi holatlari mavjudligi yuzasidan asoslari mavjud bo'lganda sud organlari yoki boshqa organlar bojxona organlari tomonidan ushbu tovarlarni to'xtatishni so'rab ariza berishi mumkinligi belgilangan.

Bitimning 55-moddasiga asosan bojxona organlari tomonidan intellektual mulk obyektlarini o'z ichiga olgan tovarlarni chiqarib yuborishni to'xtatib turishni o'n ish kunidan ko'p bo'lmagan muddatga amalga oshirilishini va bu sud organlari tomonidan ishini ko'rilishi hamda boshqa choralar kurilganda qo'shimcha tarzda yana o'n ish kunigacha uzaytirishlari ko'rsatib o'tilgan.

Shuningdek, TRIPS Bitimning 58-moddasida (*"ex-officio" harakati*) a'zo davlatlarning vakolatli organida intellektual mulk huquqini buzilish holatlari bo'yicha yetarli asoslar mavjud bo'lsa, o'z tashabbusi bilan bunday tovarlarga nisbatan chora ko'rish vakolatiga egaligi belgilangan. Bunda, importyor va huquq egasi darhol tovarni erkin muomilaga chiqarish to'xtatilganligi yuzasidan xabardor qilinadi.

<sup>24</sup>[https://nrm.uz/contentf?doc=71188\\_soglashenie\\_po\\_torgovym\\_aspektam\\_prav\\_intellektualnoy\\_sobstvennosti\\_\(trips\)\\_vto\\_urugvayskiy\\_raund\\_mnogostoronnih\\_torgovyh\\_peregovorov\\_marrakesh\\_15\\_aprelya\\_1994\\_g\\_\)&products=1\\_vse\\_zakonodatelstvo\\_uzbekistana](https://nrm.uz/contentf?doc=71188_soglashenie_po_torgovym_aspektam_prav_intellektualnoy_sobstvennosti_(trips)_vto_urugvayskiy_raund_mnogostoronnih_torgovyh_peregovorov_marrakesh_15_aprelya_1994_g_)&products=1_vse_zakonodatelstvo_uzbekistana)

Agar importyor tomonidan tovarni erkin muomilaga chiqarish to'xtatib turilishiga e'troz bildirilsa, bunday to'xtatish Bitimning 55-moddasida ko'rsatilgandek, mutatis mutandis shartlari asosida to'xtatiladi.

Bitimning 59-moddasiga (*Sud tomonidan himoya qilish vositalari*) asosan intellektual mulk obyektlariga (*kontrafakt tovarlariga nisbatan*) bo'lgan huquqlar sud organlari tomonidan himoya qilish maqsadida ko'rib chiqilishi ko'rsatib o'tilgan.

Ushbu masala bo'yicha xalqaro amaliyotga e'tibor qaratsak, MDH davlatlari (*Ozarbayjon, Rossiya, Tojikiston, Qirg'iziston, Ukraina*), AQSH hamda Xitoy bojxona xizmatlari intellektual mulk huquqlarining buzilishida kontrafakt mahsulotlariga nisbatan choralar ko'radi.

Qozog'iston Moliya vazirligi huzuridagi Bojxona xizmati tomonidan Milliy (*870 ta tovar belgisi kiritilgan*) va YEOIning intellektual mulk obyektlari bojxona reestrlari yuritiladi. Reestrga kiritish bepul tarzda amalga oshiriladi<sup>25</sup>.

Reestrga kiritish uchun arizada huquq egalari tomonidan deklarantga yoki importyor/eksportyorga yetkazilishi mumkin bo'lgan zararni qoplash uchun 1000 BHM (*3 063 000 tenge yoki 6 360 AQSH dol.*) miqdorida sug'urta summasi mavjud bo'lishi lozim hamda reestrga kiritish uchun arizada himoyaga olingan intellektual mulk obyektining TIF TN kodlari ko'rsatilishi belgilangan. Mazkur yo'nalishda nazorat xavfni boshqarish tizimi orqali amalga oshiriladi.

*Ma'lumot uchun, Qozog'iston Respublikasining Jinoyat kodeksida intellektual mulk obyektiga bo'lgan huquqlarni buzilishiga oid 3 ta modda (198, 199, 22-moddalar) mavjud, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida mazkur yo'nalishda tegishli moddalar mavjud emas*<sup>26</sup>.

Qirg'iziston Moliya vazirligi huzuridagi Bojxona xizmati tomonidan tomonidan Milliy (*405 ta tovar belgisi kiritilgan*) va YEOIning intellektual mulk obyektlari bojxona reestrlari yuritiladi, reestrga tovar belgilari 2 yil muddatga kiritiladi, bunga 1330 som (*16 AQSH dol.*) yig'im hamda muddatini uzaytirish uchun 2500 som (*31 AQSH dol.*) yig'im undiriladi<sup>27</sup>.

Reestrga kiritish uchun arizada huquq egalari tomonidan deklarantga yoki importyor/eksportyorga yetkazilishi mumkin bo'lgan zararni qoplash uchun 10 000 AQSH doll. ekvivalenti miqdorida sug'urta summasi mavjud bo'lishi lozim. Bojxona xizmati tomonidan faqatgina tovar belgilariga bo'lgan huquqlarni himoya qilish bo'yicha faoliyat olib boriladi.

Turkmaniston Respublikasi Bojxona xizmati tomonidan intellektual mulk obyektlari yo'nalishida mualliflik huquqi, turdosh huquq, tovar belgilari, xizmat

<sup>25</sup> <https://kgd.gov.kz/ru/content/tamozhenny-reestr-obektov-intellektualnoy-sobstvennosti-1>

<sup>26</sup> <https://adilet.zan.kz/rus/docs/K1400000226>

<sup>27</sup> <http://www.k-a.kg/ru/anti-counterfeiting>

ko'rsatish belgilariga nisbatan huquqlar himoya qilinadi. Intellektual mulk obyektlari bojxona reestri yuritiladi hamda reestrga kiritish muddati 5 yil, buning uchun yig'im undirilmaydi.

Mazkur yo'nalishda bojxona nazoratini ta'minlashda xavfni boshqarish tizimi qo'llaniladi.

Tojikiston Respublikasi Bojxona xizmati tomonidan intellektual mulk obyektlari bojxona reestri yuritiladi hamda reestrga kiritish muddati 1 yildan 5 yilgacha bo'lib, reestrga kiritish uchun yig'im undirilmaydi. Reestrga kiritish uchun arizada huquq egalari tomonidan deklarantga yoki importyor/eksportyorga yetkazilishi mumkin bo'lgan zararni qoplash uchun 40 000 AQSH doll. ekvivalenti miqdorida sug'urta summasi mavjud bo'lishi lozim. Reestrga kiritish uchun ariza bir oy davomida ko'rib chiqiladi.

Xitoy Xalq Respublikasida xalqaro xuquqlarning tugashi tamoyiliga amal qilinib, unga ko'ra, huquq egasi mahsulotini har qanday mamlakatda realizatsiya qilganidan so'ng, mahsulotga nisbatan bo'lgan egalik huquqi tugaydi va mahsulotning yangi egasi uni fuqarolik muomalasiga, davlat chegaralari orqali olib o'tishga va boshqa harakatlarni amalga oshirishga haqli hisoblanadi.

Yevropa Ittifoqi davlatlarida "parallel import"ga intellektual mulk egasining huquqlari buzilishi deb qaraladi va bu operatsiyani amalga oshirish ta'qiqlanadi.

Yevroosiyo Iqtisodiy Ittifoqi davlatlarida esa "parallel import" dolzarb masala bo'lib, Rossiya Federatsiyada uni qonuniylashtirish masalasi o'rganib chiqilmoqda va a'zo davlatlarda "Yagona bojxona reestri" yuritiladi va har bir a'zo davlatda alohida milliy bojxona reestrlari ham mavjud.

YEOII Bojxona kodeksining 385-moddasiga muvofiq har bir reestrga kiritilishi bo'yicha berilgan arizada keltirilgan intellektual mulk obyekti uchun mazkur obyektning himoya qilish jarayonida importyorga (eksportyorga) yetkazilgan zararni qoplash uchun amaldagi kurs bo'yicha 10 ming yevro ekvivalentidagi to'lov ta'minotini taqdim etishi belgilangan<sup>28</sup>.

Shuningdek, Rossiya Federatsiyasi Bojxona kodeksining 395-moddasining 2-bandiga asosan har bir reestrga kiritilishi bo'yicha berilgan arizada keltirilgan intellektual mulk obyekti uchun mazkur obyektning himoya qilish jarayonida importyorga (eksportyorga) yetkazilgan zararni qoplash uchun amaldagi kurs bo'yicha 500 ming rubl ekvivalentidagi to'lov ta'minotini yoki sug'urta summasini taqdim etishi belgilangan<sup>29</sup>.

Qonunchiligimizda Bojxona organlari tomonidan intellektual mulk huquqini himoya qilishning huquqiy asoslari Bojxona kodeksining 56-bobi va O'zbekiston

<sup>28</sup> <https://www.alta.ru/codex-2018/R7/GL52/ST385/>

<sup>29</sup> <https://www.tks.ru/codex/1000000038>

Respublikasi Prezidentining 2022-yil 26-apreldagi PQ–221-son qarori talablari asosida belgilangan bo‘lib, himoyani asosini “Intellectual mulk obyektlari bojxona reestri” tashkil etadi.

Reestr intellektual mulk obyektlarini himoya qilish uchun asosiy ma’lumotlar bazasi sifatida bojxona organlari tomonidan bojxona rasmiylashtiruv va nazorati jarayonida foydalaniladi.

Tovar belgilarni xalqaro ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risidagi Madrid shartnomasi va Tovar belgilari, xizmat ko‘rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasining Qonuniga asosan ro‘yxatdan o‘tgan tovar belgilari himoyaga olingan hisoblanadi.

Natijada xalqaro va milliy ro‘yxatdan o‘tgan huquqiy himoyaga ega bo‘lgan intellektual mulk obyektlari, bojxona reestriga kiritilmagan bo‘lsa, bojxona organi tomonidan himoya qilinmaydi.

Bojxona kodeksiga asosan bojxona organlari tomonidan ko‘riladigan choralar huquq egasining o‘ziga tegishli bo‘lgan huquqlarini himoya qilishida sud organlariga murojaat qilishi uchun amalga oshiriladi.

Bojxona organlari tomonidan to‘xtatib turish muddati mobaynida huquq egasi tomonidan sud organlariga murojaat qilinganligi haqida bojxona organlariga sud ajrimi taqdim etilmasa bunday tovar belgilangan tartibda chiqarib yuboriladi.

*Bugungi kunga qadar Intellectual mulk obyekti bojxona reestriga 470 ta intellektual mulk obyektlari kiritilgan bo‘lib, ularning barchasini tovar belgilari tashkil etadi. Shundan 274 tasi chiqarib yuborilgan, amalda 196 ta<sup>30</sup>.*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 26-apreldagi PQ–221-son qarori bilan 2022-yil 1-sentyabrdan boshlab, bojxona organlari tomonidan Reestrga kiritilgan intellektual mulk obyektlari huquq egalari qonuniy manfaatlarini quyidagicha himoya qilish huquqi berildi:

bojxona nazorati va rasmiylashtiruv jarayonida intellektual mulk huquqlari buzilganligi alomati aniqlanganda, huquq egasini xabardor qilish;

Reestrga kiritish to‘g‘risidagi arizalarni elektron tarzda yuborish va qabul qilish, ularni ko‘rib chiqish bosqichlarini onlayn ravishda kuzatib borish.

Shuningdek, ishlab chiqilayotgan loyihalarga “ex officio” tartibi kiritilgan bo‘lib, bojxona organlariga intellektual mulk obyektiga bo‘lgan huquqlarni himoya qilishda bojxona reestriga kiritilmagan obyektlarga nisbatan ham himoya qilish huquqi berilmoqda.

Shu bilan birga tovarlardagi intellektual mulk huquqlarining buzilganligi bo‘yicha belgilari xavfni boshqarish tizimini qo‘llash orqali aniqlanishi hamda choralar ko‘rish

<sup>30</sup> [https://imo.customs.uz/IMO\\_REESTR/](https://imo.customs.uz/IMO_REESTR/)



to'g'risidagi arizani hududiy bojxona boshqarmalariga ham berishi mumkinligi belgilandi.

Shuningdek, ushbu sohada ham bir necha muammolarni ko'rishimiz mumkin:

Birinchidan, bugungi kunga qadar huquq egalari tomonidan bojxona organlariga intellektual mulk obyektlariga nisbatan chora ko'rish bo'yicha taqdim etilayotgan arizalar uchinchi shaxs tomonidan huquq egasining ruxsatisiz asl tovarlarni olib kelishini to'xtatish bilan bog'liq murojaatlarni tashkil etmoqda, ya'ni tovarlarda "kontrafakt" yoki "soxtalashtirish" alomatlari mavjud emas.

*(bojxona organlariga chora ko'rish bo'yicha taqdim etilayotgan arizalar asosan mutloq huquq buzilishi bilan bog'liq holatlarni tashkil etadi, amaliyotida bu kabi xarakterli "parallel import" deb nomlanadi va bugungi kunga qadar "parallel import" tushunchasiga xalqaro hamda milliy qonunchilikda ta'riflar berilmagan).*

Fuqarolik kodeksining 1107<sup>1</sup>-moddasida bevosita tovar belgisining egasi tomonidan yoki uning roziligi bilan fuqarolik muomalasiga qonuniy tarzda kiritilgan tovarlarga nisbatan tovar belgisidan boshqa shaxslarning foydalanishi mazkur tovar belgisiga doir mutlaq huquqning buzilishi bo'lmasligi belgilangan.

Amaliyotda Sud organlari tomonidan import qiluvchilarning tovarlari fuqarolik muomalasiga kiritilganligi, tovarlar kontrafakt bo'lmaganligi sababli bu holat yuzasidan mutlaq huquqning buzilishi emasligi bo'yicha qaror qabul qilinib, tovarlarni importiga ruxsat berilmoqda. Bunda import qiluvchi tomonidan ko'rilgan zarar (*bojxona omborida saqlash, shartnomani o'z vaqtida bajarmaslik, xaridorni yo'qotish, ma'naviy zarar*) huquq egasi tomonidan qoplab berilmayapti, chunki import qiluvchi ko'rilgan zararni qoplatish uchun Sud organlariga alohida murojaat etishi lozim bo'lmoqda.

Qaror bilan to'xtatib turish uchun beriladigan arizada talab qilinadigan 10 ta ma'lumotlardan 7 tasi chiqarib tashlandi, endilikda huquq egalarning tovarlarni to'xtatib turish yuzasidan arizalari soni ko'payib boradi.

Shu bois, huquq egalari tomonidan tovarlarni to'xtatishdan avval to'lov majburiyati kiritilishi maqsadga muvofiq.

To'lov majburiyatini kiritilishi, import qiluvchi tadbirkorlarni sababsiz tovarlarini to'xtatilishini, monopoliyani, tovarlar narxini sun'iy oshishini oldini oladi.

Agar to'xtatish yuzasidan arizasi o'z tasdig'ini topsa ushbu summa huquq egasining o'zida qoladi.

Ikkinchidan, Intellektual mulk obyektlarini bojxona reestriga kiritish bepul amalga oshiriladi.

Xalqaro tajribadan kelib chiqib, intellektual mulk obyektlarini bojxona reestriga kiritilganlik uchun yig'im undirish maqsadga muvofiq.

Bojxona organlari tomonidan intellektual mulk obyektiga bo'lgan huquqlarni himoya qilish bo'yicha ko'rsatiladigan xizmatga (*reestr*ga kiritish uchun arizalarni "Yagona darcha" bojxona axborot tizimi orqali berish yuzasidan elektron dasturlarni va xavf profillarini ishlab chiqish, server xizmatlari, tovarlarni ko'rikdan o'tkazish, sud ishlarida ishtirok etish) nisbatan yig'im sifatida kiritiladi.

*Ushbu pul mablag'lari quyidagi harajatlarni qoplash uchun yo'naltiriladi:*

– server uskunasining eskirishi bo'yicha amortizatsiya harajatlari (taxminan 3,0 mlrd so'm);

– server uskunasining texnik xizmat ko'rsatishi bo'yicha harajatlar (taxminan 500,0 mln. so'm);

– "Yagona darcha" BATni ishga tushirilishi bilan ma'lumotlar oqimining 10 foizga oshishi natijasida ma'lumotlar uzatish kanalining ijarasi bo'yicha harajatlar (taxminan 20,0 mln. so'm oyiga);

– "Yagona darcha" BATni uzluksiz ishlashini ta'minlash va takomillashtirish hamda intellektual mulk bo'yicha xavf profillarini ishlab chiqish bilan band 10 ta xodimlarga Bojxona qo'mitasining maxsus fondidan sarflanadigan ustama haqlari (taxminan 500 mln. so'm).

Shu kunga qadar intellektual mulk obyektlari faqat huquq egasining arizasi asosida to'xtatish amalga oshirilgan. Bunda arizada import qiluvchi, qachon olib kelishi, olib kelingan post nomi, transport vositasi va boshq. ko'rsatilishi majburiy bo'lgan. Endilikda bojxona organlari tomonidan o'z tashabbusi asosida intellektual mulk obyekti huquqi buzilganligi aniqlanmoqda.

Uchinchidan, Bojxona organlari TRIPS Bitimiga asosan intellektual mulk obyektlarini tovar belgilari va mualliflik huquqi yo'nalishlarda himoya qiladi.

Reestr intellektual mulk obyektlarini himoya qilish uchun asosiy ma'lumotlar bazasi va xavfni boshqarish tizimining asosiy mezonlaridan biri hisoblanadi.

Respublikamizda mualliflik huquqi egalarining ro'yxati (reestri) yuritilmasligi natijasida bojxona organlari tomonidan o'z tashabbusi asosida mualliflik huquqlarni himoya qilishda, haqiqiy muallif kimligini aniqlashda muammoli holatlar yuzaga kelishi mumkin.

Intellektual mulk sohasidagi huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash va ularga barham berish bo'yicha ishlarning lozim darajada bajarilmaganligi, davlat xizmatlari ko'rsatish tizimining samarasizligi, idoralararo mustahkam hamkorlikning mavjud emasligi, intellektual mulk sohasida malakali kadrlarning yetishmasligi, shuningdek patent bojlari va to'lovlarning yuqori darajada ekanligi ushbu sohani rivojlantirishga salbiy ta'sir etmoqda.

Yuqoridagi keltirilgan tahlillar asosida intellektual mulk sohasida davlat boshqaruvini takomillashtirish yuzasidan quyidagi takliflarni ilgari suramiz.

- Madaniyat vazirligi bilan hamkorlikda ijrochilar tomonidan boshqa shaxslarga tegishli bo'lgan mualliflik huquqi va turdosh huquqlar obyektlaridan qonunga xilof ravishda foydalanganlik uchun qo'llaniladigan samarali huquqiy ta'sir choralari, xususan, tegishli litsenziyani to'xtatish yoki bekor qilish tartibini yaratish;

- ijrochilar, fonogramma tayyorlovchilar va eshittirishlar beruvchi tashkilotlar huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi xalqaro konvensiyasiga (1961-yil 26-oktabr, Rim) qo'shilish bo'yicha ishlarni jadallashtirish;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi va "O'zkomnazorat"ning hududiy tuzilmalari bilan hamkorlikda kitob va boshqa noshirlik mahsulotlari savdosi bilan shug'ullanuvchi bozor va savdo rastalarida kontrafakt nusxalarni aniqlash hamda belgilangan huquqiy ta'sir choralari qo'llash ishlarini kuchaytirish;

- Adliya vazirligi tomonidan tayyorlangan mualliflik va turdosh huquq obyektlaridan foydalanish bo'yicha namunaviy shartnoma shakllaridan keng foydalanilishini yo'lga qo'yish va bu sohada nazoratni kuchaytirish va boshqalar;

- Adliya vazirligining Intellektual mulk departamenti tomonidan mualliflik huquqi egalarining reestrini yuritish masalasini ko'rib chiqish;

- Monopoliyani va tovarlarni noqonuniy kirib kelishini oldini olish maqsadida tovarlarni to'xtatishdan avval huquq egalari tomonidan mulkiy zararining o'rnini qoplash to'g'risidagi majburiyatnoma taqdim etish masalasini kiritish;

- "O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonun loyihasiga intellektual mulk obyektlarini bojxona reestriga kiritish uchun bojxona yig'imi undirish masalasini kiritish.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi
2. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi
3. O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksi
4. Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi qonuni
5. "Seleksiya yutuqlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni
6. "Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni
7. Adliya vazirligi tomonidan 2004-yil 20-mayda 1361-tartib raqami bilan ro'yxatga olingan Sanoat namunasiga O'zbekiston Respublikasi patentini berish haqidagi talabnomani tuzish, topshirish va ko'rib chiqish qoidalari

8. Sudlar tomonidan meros huquqiga oid qonunchilikning qo‘llanilishi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi plenum qarori
9. ["Гражданский кодекс Российской Федерации \(часть четвертая\)" от 18.12.2006 N 230-ФЗ \(ред. от 07.10.2022\)](#)
10. Закон Республики Казахстан от 10 июня 1996 года № 6-І «Об авторском праве и смежных правах» (с изменениями и дополнениями по состоянию на 20.06.2018 г.)
11. [Таможенный кодекс Евразийского экономического союза от 11 апреля 2017 года](#)
12. Интеллектуал мулк. Дарслик. Масъул муҳаррирлар: ю.ф.д., проф., О.Окюлов, ю.ф.ф.д. (PhD), доцент Н.Э.Гафурова // Муаллифлар жамоаси. –Т.: ТДЮУ нашриёти, 2019. – 588 бет. 322.
13. Федоров А. А. Правовая охрана проектных решений в Украине: монография / А. А. Федоров. – Одесса: Бахва, 2015. – 172 с.
14. Adliya vazirligi Intelektual mulk departamanti 2022-yil hisobotlari.
15. Wojxona qo‘mitasi intellektual mulk bo‘yicha tahlillari.

Web-saytlar:

<https://www.lex.uz>

<https://www.norma.uz>

<https://www.wipo.int>

## BARSELONA JARAYONI FRANSIYANING O'RTA-YER DENGIZI SIYOSATIDA YANGI BOSQICH

**Marufova Yulduz**

SamDU tarix fakulteti 2-bosqich magistranti

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada YI ning O'rtayer dengizi siyosatidagi munosabatlarning yangi oqimi ostida Fransiyaning tashabbusi bilan Yevro-O'rtayer dengizi davlatlarining konferensiyasi chaqirilishi, XX asr 90-yillar o'rtalariga kelib O'rtayer dengizi siyosati YI ning asosiy yo'nalishlaridan biriga aylanishi va uning bir qancha sabablari kabi masalalar tadqiq etilgan.

**Kalit so'zlar:** YI, Jak Shirak, Barselona, Yevro-O'rtayer dengizi hamkorligi, "Barselona jarayoni", Yevromed hamkorligi.

YI ning O'rtayer dengizi siyosatidagi munosabatlarning yangi oqimi ostida Fransiyaning tashabbusi bilan Yevro-O'rtayer dengizi davlatlarining konferensiyasi chaqiriladi. 1995-yil 31-avgustda barcha elchilar oldida nutq so'zlarkan ekan Fransiyaning yangi prezidenti Jak Shirak "Yevropa davlatlarining etiborini O'rtayer dengizi va Afrika davlatlariga qaratar ekanmiz, bizning davlatimiz ularning ham iqtisodiy, ham ijtimoiy rivojlanishiga katta hissa qo'shamiz" deb ta'kidlagan. J. Shirak so'zlariga ko'ra aynan shu g'oya Yevropa Ittifoqining Kan shahridagi yig'ilishida Fransiyaning Sharqiy Yevropa va Afrikadan tashqari O'rtayer dengizi davlatlariga ham moliyaviy yordam ajratish taklifini o'rtaga tashlashga undagan. Yig'ilish yakunida J. Shirak shu yilning noyabr oyida oxirida Fransiya Barselona shahrida dengizning 2 tarafidagi barcha davlatlar rahbarlarining yig'ilishini o'tkazilishiga bor kuchini berishini, ikki o'rtadagi tushunmovchilik va sabrsizlik oqibatida uzoqlashib ketgan aloqalarni qaytadan tiklanishiga vada berdi.<sup>31</sup>

XX asr 90-yillar o'rtalariga kelib O'rtayer dengizi siyosati YI ning asosiy yo'nalishlaridan biriga aylanadi. Bunga bir qancha sabablar mavjud edi. Birinchidan, YI janubga qarab kengayishib, a'zolar sonining ko'payishi va O'rtayer dengizi bilan yaqin aloqalarga, ayniqsa, neft va yoqilg'i mahsulotlar bo'yicha Shimoliy Afrika davlatlariga qaramlikning ko'payishi bo'ldi. Ikkinchidan, YI ga Shimoliy Afrikadan migratsiyaning kuchayishi va sivilizatsiyalarning to'qnashuvi bo'ldi.

<sup>31</sup> Карева Д.О. Средиземноморская политика Франции в конце XX – начале XXI вв. Москва, 2015. с-67

Yevro-O‘rtayer dengizi hamkorligiga asos solish g‘oyasi 1994-yil oktyabr oyida Yevro komissiya tomonidan ilgari surildi. Chunki YI uchun O‘rtayer dengizi hududi strategic ahamiyatga ega edi. 1995-yil noyabr oyida Barselona shahrida YI va O‘rtayer dengizi davlatlarining tashqi ishlar vazirlarining yig‘ilishida kelajakda yangi strategik yo‘nalish –Yevro-o‘rtayer dengizi hamkorligiga asos solindi. Keyinchalik bu hamkorlik “Barselona jarayoni” yoki Yevromed hamkorligi deb nom oldi.<sup>32</sup>

1995-yilda Fransiya bosh vaziri bo‘lgan A.Jyuppe O‘rtayer dengizini fransuz diplomatiyasi uchun tabiiy kenglik yoki muhit deb atadi. Bu davrda Fransiyaning iqtisodiy va harbiy qudrati dunyoda kuchsizlanganligini hisobga olsak, O‘rtayer dengizi davlatlariga ijtimoiy yordam bahonasida o‘z tasirini o‘tkazish taktikasi ish boshladi.<sup>33</sup>

Barselona jarayoning shakllanishida asosiy rolni so‘zsiz Fransiya o‘ynadi. Aynan Fransiya Yevro-o‘rtayer dengizi hamkorligining bosh arxitektori bo‘ldi.

Shunday qilib, 1995-yil 28-29-noyabr kunlari Ispaniyaning Barselona shahrida Birinchi Yevro-o‘rtayer dengizi konferensiyasi bo‘lib o‘tdi. Bu sammitda YI ning 15 davlatidan (1995-yilda YI ga Avstriya, Finlandiya va Shvetsiya qo‘shilgan) va O‘rtayer dengizining 11 ta janubiy sohil bo‘yi davlatlari (Jazoir, Misr, Isroil, Iordaniya, Kipr, Livan, Malta, Marokash, Suriya, Tunis, Turkiya) tashqi ishlar vazirlari, shuningdek, Falastin avtonomiyasining prezidenti Yosir Arofat qatnashdi. Liviya va Mavritaniyaning vakillari teng huquqli bo‘lmagan kuzatuvchi maqomida qatnashdi. Chunki Liviyada YI bilan kelishuv yo‘qligi, Mavritaniyaning O‘rta-yer dengizi davlati emasligi ro‘kach qilindi. Sammitda, bundan tashqari Yevropa Kengashining rahbari X.Solana va Yevrokomissiya vitse-prezidenti M.Maran ham qatnashdi.

Konferensiyaga AQSh va Rossiyadan vakillar taklif qilinmadi. AQShning chaqirilmasligiga sabab, u O‘rtayer dengizida YI ning asosiy raqobatchisi edi. Rossiya esa bu mintaqada sezilarli tasirga ega emasdi.

Sammit yakunida Yevro-o‘rtayer dengizi hamkorligida asosiy 3 ta yo‘nalishni belgilab beruvchi Barselona deklaratsiyasi imzolandi. Asosiy 3 ta yo‘nalish quyidagilar:

1.Siyosat va xavfsizlik sohasida hamkorlik. Bu sohada hamkorlar tinchlik va barqarorlik sohasida umumiy hudud shakllantirish maqsadi ko‘zlandi. Bu maqsadga erishishda hamkorlar BMT ustavi va 1948-yilgi Umumjahon inson huquqlari deklaratsiyasiga asoslanib harakat qilishga kelishib olishdi. “Tinchlik va barqarorlikda umumiy hudud shakllantirish” g‘oyasi qanchalik jozibali eshitilmasin, hamkorlarga

<sup>32</sup> Трофимова О.Е. Эволюция средиземноморский политики Евросоюза: путь от сотрудничества к интеграции. Москва, 2011. с-16

<sup>33</sup> Обичкина Е.О. Франция в поисках внешнеполитических ориентиров в постбиполярном мире. Москва, 2003. с-324

go'yaviy og'irlik qilardi. Tinchlik va barqarorlikni O'rtayer dengizining har ikkala sohilbo'yi davlatlari janub ham, shimol ham muhtoj edi. Ayniqsa dengizning janubiy sohilidagi davlatlarda har doim keskinlik o'chog'i bo'lib qoldi va qo'shni hududlarga ham xavf solib turdi. 10 yillardan beri davom etayotgan arab-isroil urushlari, islom radikalizmi, har doim harbiy to'qnashuv xavfi, terrorchilik aktlari, aholining o'ta qashshoqligi, hokimiyat boshqaruvida korrupsiyaning kuchliligi va boshqa sabablar bu hududda ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy beqarorlikni har doim yaratgan. Aynan shundan yana bir yirik muammo –yashirin migratsiyaning shakllanishi olib keladi. Bunga asosan Yevropaning barqaror va iqtisodning gullab-yashnashi sabab bo'lgan va bir necha o'n yillardan beri o'ziga aholini jalb qilgan.

Barselona konferensiyasi qatnashchilari hamkorlar o'rtasida yaxshi qo'shniçilik siyosatini olib borishga sharoit shakllantirishga vada berishdi. Qaysiki usiz ko'pqirrali hamkorlikni yaratib bo'lmasdi. Lekin xalqaro huquq normalariga asoslangan holda boshqa hamkor davlatning ichki ishlariga to'g'ridan to'g'ri aralashishdan o'zini tiyilishi ham kelishib olindi. Bu band Yevropa davlatlari uchun o'ta muhim edi. Chunki bu loyiha oldingi mustamlakachilik tizimini qaytadan tiklash emas, balki hamkorlik munosabatlarini qurilishini janubiy qo'shnilarga ko'rsatishi kerak edi.<sup>34</sup>

2.Iqtisod va moliya sohasida hamkorlik. Sammit qatnashuvchi davlatlar o'zlarining asosiy maqsadi umumiy farovonlik hududini shakllantirish edi. Ma'lum bir masalalarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni tezlashtirish kerakligi va shu orqali aholining yashash turmush tarzini yaxshilash hamda aholi bandligini ko'paytirish edi. Janubiy O'rtayer dengizi davlatlarida ishsizlikning ko'p bo'lishiga asosan qoloq iqtisod va sust ijtimoiy siyosat sabab bo'lgan. Shuning uchun Barselona konferensiyasi qatnashchilarining fikricha ijtimoiy-iqtisodiy sohaning rivojlanishini kuchaytirish yangi ish o'rinlarining shakllanishi, iqtisodni stagnatsiyadan chiqarish va aholi turmush tarzini yaxshilashga ko'maklashishi kerak. Bu narsa, o'z navbatida Shimoliy va janubiy sohilbo'yi davlatlaridagi hayot darajasining bir biriga yaqinlashishiga va noqoqnuniy migratsiyaning tugatilishiga olib kelishi zarur edi.

Ilgari surilgan vazifalar malum bir sharoitlarda amalga oshishi mumkin edi. Shulardan biri Barselona konferensiyasida aytilganidek, avvalo Shimoliy va janubiy sohilbo'yi davlatlari o'rtasida o'zaro shartnomalar tuzish va YI davlatlari o'rtasida imzolanadigan shartnomalar asosida 2010-yilga kelib "erkin savdo zonasini shakllantirish" (keying o'rinlarda ESZ) edi. ESZni shakllantirish uchun o'zaro erkin oldi berdi qilish uchun halaqit beradigan o'zaro savdo bojlarini va boshqa to'siqlardan asta sekin voz kechish kerak edi.

<sup>34</sup> Карева Д.О.Средиземноморская политика Франции в конце XX –начале XXI вв.Москва,2015.с-69

Bu kelishuv bir tarafdin barcha savdo bojlarining olinishi butun dengiz bo'ylab erkin tovar aylanishini yaratardi va mahsulot narxini tushishiga va yangi bozorlarning yaratilishiga olib kelar edi. Lekin Janubiy sohilbo'yi davlatlarining mahsulotlarining sifati Yevropa mahsulotlariga raqobat qilishi shubha ostida edi. Aynan qishloq xo'jaligi mahsulotlarida bu masala ko'ndalang turardi. Chunki qishloq xo'jaligi Shimoliy Afrika davlatlarining iqtisodida asosiy rol o'ynar edi.

Barselona deklaratsiyasida ikki sohilbo'yi davlatlari hayot tarzi o'rtasida farqni yo'q qilish yo'lidagi ikkinchi sharti iqtisodiy hamkorlikning chuqurlashishi edi.

Qatnashuvchi davlatlar shu narsani tan oldiki, ikki o'rtadagi munosabatlarning asosiy bandi bu energetik hamkorlikdir. Shuning uchun energetika sohasida hamkorlik va o'zaro munosabatlarni kuchaytirish kerakligini qo'llab quvvatlashdi. Shuningdek, bu sohada investitsiya hamkorligini oshirish va yagona energetik tarmoqni yaratish kerakligi takidlandi. Bu banddan ayniqsa Fransiya manfaatdor edi. Chunki mamlakat asosiy yoqilg'i mahsulotlarini Shimoliy Afrika va YAqin Sharq davlatlari davlatlaridan olgan.

O'rtayer dengizining janubiy sohilidagi davlatlarining asosiy qismi o'z daromadining katta qismini neft mahsulotlaridan olgan. Shuning uchun aynan shu sohada hamkorlik ko'proq va foydaliroq bo'lish tarafdori edi. O'zi uchun kerakli xom ashro mahsulotlarini olish evaziga Yevropa o'zining investitsiyasini kiritib hamkor bo'lishni, infrstruktura, fan va texnologiyani rivojlantirish va shu orqali ijtimoiy-iqtisodiy sohani rivojlantirib ta'sir o'tkazishni xohlardi.

Barselona konferensiyasida qatnashgan davlatlar ESZni shakllantirish va Yevro-o'rtayer dengizi hamkorligini yaratishning asosiy omili bu YI ning moliyaviy yordamini qo'shnilariga ko'paytirishdir.

Moddiy yordam masalasi 1995-yil iyundagi Kanndagi sammitdayoq kelishib qo'yilgan edi. Unga ko'ra YI Yevro-o'rtayer dengizi munosabatlarning rivojlanishiga 1995-1999-yillar davomida 4,685 mln ekyu (yevro) ajratadigan bo'ldi. Bu moliyaviy qaror Barselona deklaratsiyasida qabul qilindi. Moliyalashtirishda, shuningdek, Yevropa Investitsiya banki ham qatnashadigan bo'ldi.<sup>35</sup>

Xulosa qilib aytganda Barsilona deklaratsiyasi Yevropa va O'rta yer dengizi hamkorligida ochiq va ko'p tamonlama hamkorlikka asoslangan munosabatlarga asos soldi. Fransiya uchun Barsilona jarayonining ishga tushishi haqiqiy siyosiy yutuq edi.

<sup>35</sup> Карева Д.О.Средиземноморская политика Франции в конце XX –начале XXI вв.Москва,2015.с-70



### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Карева Д.О.Средиземноморская политика Франции в конце XX –начале XXI вв.Москва,2015.с-67
2. Трофимова О.Е.Эволюция средиземноморский политики Евросоюза:пут от сотрудничества к интеграции.Москва, 2011. с-16
3. Обичкина Е.О. Франция в поисках внешнеполитических ориентиров в постбиполярном мире.Москва,2003.с-324
4. Франция и Европа в XX-XXI веках . Под. Редакцияй А.С.Медякова 2018 с-238

## JAMOA IJROCHILIGIDA VOKAL-XOR MALAKALARINI SHAKLLANTIRISHNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

**Xakimova Saodat Murodullaevna**

Navoiy Davlat pedagogika instituti san’at shunoslik fakulteti magistr talabasi

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada qo‘shiqchilikning yo‘nalishlaridan biri bo‘lmish xor san’ati hamda xor qo‘shiqlarining ijrosi jarayonida qanday xususiyatlarga e’tibor berishlik haqida qisqacha ma’luotlar berilgan. Shuningdek xor ijrochiligi jarayonida ovozini shakllantirish uchun vokal-xor malakalarining ahamiyati, asarlarni to‘g‘ri kuylash uchun vokal-xor malakalariga alohida e’tibor berib kuylash haqida qisqacha fikr mulohazalar yoritib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Vokal, ansaml, sozlanish, artikulyatsiya, intonatsiya, diksiya, diafragma.

Xor ijrochiligi hozirgi kunda keng tarqalgan asl xalq san’ati turlaridan biridir. Jamoa ijrochiligi odamlarda chuqur estetik zavq uyg‘otibgina qolmay, ularni jipslashtiradi, jamoa bo‘lib birlashishga olib keladi hamda ma’naviy saviyasini, badiiy didini oshirishga yordam beradi. Bu, ko‘pchilik bir g‘oya bilan uyushdi, yagona ijrochilik maqsadi tomon yo‘naltirildi degani, ya’ni boshqacha qilib aytganda, so‘z va musiqadagi tuyg‘u bir odam orqali emas, bir guruh odam tomonidan ifoda etilishidir. Ushbu san’at turi xonandalik jozibasi bilan hayratga soluvchi o‘ziga xos san’atdir. U insonning eng yaxshi his-tuyg‘ularini uyg‘otib, hayajonlantirish, qiziqtirish xususiyatiga ega. Shu sababdan xor ishtirokchilari bilan bir qatorda tinglovchilarning ham badiiy-g‘oyaviy tarbiyalanishidagi roli juda katta.

Jamoa ijrochiligi tarbiya vositasida ham katta ahamiyatga ega bulib ijro jarayonida vatanparvarlik, insonparvarlik tuyg‘ulari va jamoa bo‘lib birlashish kabi xislatlarni tarbiyalashda juda katta ahamiyatga ega. Darhaqiqat, ijro jarayonida xor bo‘lib kuylangan qo‘shiq bir ovoqli ijroga nisbatan ta’sirchan va ifodalibroq ekanligini anglaydilar. Xor ijrochiligining bunday xosiyatini anglash bolalarga katta ta’sir ko‘rsatadi. Xor san’ati bir tomondan ijrochilikning eng ommaviy shakli bo‘lsa, boshqa tomondan aksariyat xislatlari bilan o‘ziga xos individual xarakterga ega. Ijrochilik mahorati, kuylash usuli, repertuari, xor rahbarining qobiliyati kabi individual xarakterdagi xislatlar xor jamoasining ijodiy «qiyofa»sini boshqasidan ajratib turadi.

Respublikamizda san'at sohasiga tegishli bir qancha oliygohlar qatori pedagogik yunalishga ega bulgan ta'lim dargohlarida musiqa yunalishlari mavjud bulib xor, xorshunoslik darslari ham utiladi.

“Xor - bu vokal musiqani cholg'u asboblari jo'rligida yoki jo'rsiz (a - cappella) ijro etuvchi xonandalar jamoasidir”. “Xor” atamasi yunoncha «choros» so'zidan olingan bo'lib, «to'da, yig'in» ma'nosini bildiradi Ko'p vaqtlardan buyon xor opera, oratoriya, kantata, ba'zan simfoniyada qo'llanilib kelgan. Musiqa amaliyoti davomida xorning har xil turlari paydo bo'ldi. Xor turi xorning tuzilish sifatiga qarab aniqlandi. Turiga ko'ra xor bir xil yoki aralash tuzilishda bo'lishi mumkin. Bir xil tuzilishdagi xorlarga alohida erkaklar xori, ayollar xori, bolalar xori kiradi. Aralash xorga bolalar bilan ayollar xorlar, ayol va erkaklardan iborat xorlar kiradi. Xor ko'rinishi xorni tashkil qiluvchi mustaqil xor partiyalarining soni bilan belgilanadi: ikki ovozli xor, uch ovozli xor, to'rt ovozli xor va hokazo. Har bir xor partiyasi ma'lum bir joyda 2-3 ovozlariga bo'linishi mumkin. Bunday bo'linish divizi (italyancha divisi - bo'lingan) deyiladi.

Aralash xor odatda to'rt ovozlilikdan iborat. Lekin bundan ham ko'p ovozga mo'ljallangan xor asarlari ham uchraydi. Divizi tufayli aralash xor 6-12 ovozli ifodaga ega bo'lishi mumkin. Xor adabiyotida ikki-uch va undan ortiq mustaqil ovozlar gruppasi (ijrosiga mo'ljallangan ko'p ovozli asarlar) alohida bo'limni tashkil qiladi. Qo'sh va uchtalik xorlar yirik opera sahnalarida uchraydi.

Har qanday qo'shiq ijrochiligida ovozni shakllanganligi katta ahamiyatga ega u an'anaviy qo'shiq ijrochiligi bulsin, hoh akademik ijrochilik bulsin. Shu sababli ham vokal-xor malakalarining benihoya o'rni bulakcha.

Nihoyatda nozik musiqiy ifodalash xususiyatlariga ega bo'lgan, o'zining turlituman rango-rang tembr(tusi)ga boy bo'lgan inson ovozi – murakkab musiqa asbobidir. Shuning uchun ham ko'pincha inson ovozi «gapirib turuvchi musiqa asbobi», deb nomlanadi.

Inson ovozi apparati asosan uch qismga bo'linib, bular:

nafas olish organlari; – hiqqildoq;

rezonatorlar bo'lib, bir-biriga uzviy bog'langandir.

Inson ovozi juft va toq hiqqildoq tog'aylari pardalarining muskuli yordamida birbiriga bog'lanadi. Nafas ovoz pardalariga urilib, ularni tebratadi va tovush chiqaradi. Ovoz pardalari lotinchada –«lig vokale» deb nomlanib, ular aniqlanishining asosiy tamoyillari:

xorda qo'shiq ayta oladigan ovoz turi;

xorga zarur musiqa qobiliyati (ya'ni, eshitish, usul ushlash va musiqiy xotira)ga ega bo'lgan insonlar ovozi;

ovoz sifatlari (tembr, diapazon) mujassam bo'lishi darkor.

Pedagog mashg'ulotlarni olib borish jarayonida vokal-xor malakalarini shakllantirish zarur, vokal-xor malakalari deganda Xor jamoasining ijrochilik madaniyati xonandalarning vokal (ashula) va xor ijrochiligi mahoratlariga bog'liq. Vokal mahoratiga xonandaning turish holati, nafasi, tovush hosil qilishi va talaffuzi kiradi. Xor ijrochiligi maxorati ovoz sozlanishi va ansambl bo'lib birikishi (qo'shilishi) tushuniladi.

Xonandaning turish holati.

Xonandaning ideal turish xolati tik turgan holda ijro etishi hisoblanadi. Lekin uzoq davom etuvchi repetisiyalarda xor o'tirgan holda mashg'ulot o'tkazishi mumkin. Bunday hollarda xorning har bir xonandasi gavdasini to'g'ri va erkin tutishi, yelkalari tik, qo'llari pastga tushirilgan bo'lishi kerak. Yuz, bo'yin, yelka mushaklari erkin holatda bo'ladi. Ijrochilik vaqtida boshni orqaga tashlamasdan to'g'ri tutish, yuzni burishtirmaslik, pastki jag'ni siqmaslik zarur. Xonandaning to'g'ri turish holatn to'g'ri nafas olishi va tovush hosil qilishiga imkon beradi.

aloqa uchun eng mos material kvarts oynasi bo'ldi degan xulosaga kelishdi. Shunga qaramay, Kao optika yordamida ma'lumotni uzatish mumkin bo'ldi va tez orada bunday aloqa mis simlar orqali signal uzatishni almashtiradi, deb hisoblagan.

Uch yil o'tgach, Kao 4 db/km darajasida parchalanish koeffitsiyentiga ega tolani oldi. Bu natija super shaffof oynaning birinchi nusxasi bo'ldi. Bir yil o'tgach, Corning Incorporated sinishi indeksining pog'onali profiliga ega tolalarni ishlab chiqardi va 633 nm to'lqin uzunligida 20 db/km pasayish koeffitsiyentiga erishdi. Kvarts tolasi birinchi marta yorug'lik nurini 2 kilometr gacha uzatdi. Shunga o'xshash sur'atda qabul qiling kvant ma'lumotlar uzatish endi rivojlanmoqda. Bir oz, lekin asta-sekin. Kichik masofalarda tajriba va tijorat maqsadlarida foydalanish sifatida [1, 472-492].

### **MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION)**


*Telekomdan tashqari optik tolalar qayerlarda ishlatiladi?* Bugungi kunda tola telekomdan tashqari ko'plab sohalarda qo'llaniladi. Bu rentgen apparatlari bo'lib, u yuqori kuchlanish manbai va past kuchlanishli boshqaruv uskunalari o'rtasida galvanik izolyatsiyani ta'minlaydi. Shunday qilib, xodimlar va bemorlar uskunaning yuqori voltli qismidan izolyatsiyani olishadi. Elyaf elektr podstansiyalarining tarqatish moslamalarida himoya tizimining sensori sifatida ishlatiladi.

Keng optik tolalar turli xil o'lchash tizimlaridan foydalanadi, bu erda an'anaviy elektr jihozlarini ishlatish mumkin emas. Masalan, samolyot reaktiv dvigatellaridagi haroratni o'lchash tizimlarida, MRT apparatlarida (ichki organlarni, shu jumladan miyani tekshirish uchun tomografik tibbiy asboblar) va boshqalarda optik tolaga asoslangan sensorlar tebranish chastotasini, aylanishni, siljishni, tezlikni va tezlanishni, momentni, burilishni va boshqa parametrlarni o'lchashi mumkin.

Bugungi kunda optik tolaga asoslangan giroskoplar qo'llaniladi, ular Sanyak effekti asosida ishlaydi. Bunday giroskopning harakatlanuvchi qismlari yo'q, bu uni juda ishonchli qiladi. Zamonaviy navigatsiya tizimlarida juda ko'p turli xil sensorlar ishlatilganiga qaramay, ular yordamida ob'ektning holati aniqlanadi, eng mustaqil tizim faqat optik tolali giroskoplar asosida yaratilishi mumkin.


Optika xavfsizlik signalizatsiyasida keng qo'llaniladi. Bunday xavfsizlik tizimi quyidagicha tuzilgan: tajovuzkor hududga kirganda, yorug'lik o'tkazgich orqali yorug'likning o'tish shartlari o'zgaradi va signal ishga tushadi (4-rasm).

Bunday giroskopning harakatlanuvchi qismlari yo'q, bu uni juda ishonchli qiladi. Zamonaviy navigatsiya tizimlarida juda ko'p turli xil sensorlar ishlatilganiga qaramay, ular yordamida ob'ektning holati aniqlanadi, eng mustaqil tizim faqat optik tolali giroskoplar asosida yaratilishi mumkin.



**4-rasm. Signallarni boshqarish qurilmasi.**

AIRBUS DEFENCE & SPACE tomonidan ishlab chiqarilgan ASTRIX seriyali uch o'qli optik tolali inertial o'lchash moduli; LiNbO<sub>3</sub> modulyatori har bir yo'nalish uchun sensorga o'rnatilgan AIRBUS DEFENCE & SPACE tomonidan ishlab chiqarilgan ASTRIX seriyali uch o'qli optik tolali inertial o'lchash moduli; LiNbO<sub>3</sub> modulyatori har bir yo'nalish uchun sensorga o'rnatilgan (5-rasm).



**5-rasm. Optik tolali giroskop.**

Elyaf dekorativ maqsadlarda, bayramlarni bezatish sifatida, san'at va reklama sohasida faol ishlatiladi. Optik tolalarning yangi turlari doimiy ravishda ishlab chiqilmoqda. Masalan, foton-kristalli yorug'lik o'tkazgichlari (6-rasm). Ularda yorug'likning tarqalishi biroz boshqacha printsiplarga asoslanadi. Bunday tola suyuq, kimyoviy va gaz sezgichlari sifatida ishlatilishi mumkin. Bundan tashqari, u sanoat yoki tibbiy maqsadlarda kuchli nurlanishni tashish uchun ishlatilishi mumkin [2, 97-148].



**6-rasm. Foton-kristalli yorug'lik o'tkazgichlari.**

Bir necha o'nlab kilovatt uzluksiz emissiya quvvatiga ega tolali lazerlar endi yangilik emas. 6 tolali 5,5 kVt lazerga asoslangan qurollar 2014 yilda Amerika flotida sinovdan o'tgan. Metall va beton tolali lazerlar bilan kesiladi. Masalan, IPG Photonics metall kesish moslamasi 100 kVt quvvatga ega.

#### **XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION)**

Optik tolaning rivojlanishi qizg'in davom etmoqda, uning yordamida lazer nurlanishining energiyasini bir necha kilovatt quvvatga etkazish mumkin. Nazariy jihatdan, nurlanishning uzatilishi 10 kVt quvvatga ega. Bunday lazerlar yordami metallarga ishlov berishda, kesishda, payvantlashda shuningdek, aloqa vositalarning barcha yo'nalishlarda qo'llanilmoqda [3, 65-81].

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. Landsberg G.S. (1981). Optika. O'qituvchi.
2. Sodikova Sh.M., Otajonov Sh., Kurbanov M. (2020). Lazerlar va ularning amaliyotdagi o'rni. *Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi*.
3. Kurbanov M. (2008). Fizikadan namoyish eksperimentlarining uslubiy funksiyalarini kengaytirishning nazariy asoslari. *Monografiya. Fan*.

## ABDULLA AVLONIY ASARLARIDA TARBIYANING ROLI

**Xonimova Lobar Xolmamat qizi**

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

Maktabgacha ta'lim fakulteti talabasi

E-mail: [lobarxonimova@gmail.com](mailto:lobarxonimova@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Milliy uygʻonish davri deb nom olgan yangi adabiyot yoʻnalishida faol ijod qilgan yorqin namoyondalardan biri Abdulla Avloniyning tarbiyaviy qarashlari, uning jadidchilik harakatidagi faol ishtiroki, milliy qadryatlar, millatini maʼrifatli qilish yoʻlidagi koʻrsatgan jasoratlari, “Turkiy guliston yoxud axloq” asaridagi tarbiyaviy ahamyatlar va Avloniyning gazetchilikka qoʻshgan hissasi haqidagi bayonlar keltirilgan.

**Kalit soʻzlar:** Milliy uygʻonish, jadidchilik, jadid, milliy qadryat, tarbiya, axloq, gazetchilik, mzaʼrifat, mustabit tuzim, “Turkiy guliston yoxud axloq”.

### АННОТАЦИЯ

Одним из ярких проявлений новой литературы, известной как эпоха национального возрождения, являются просветительские взгляды Абдуллы Авлони, его активное участие в движении борьбы, национальные ценности, его мужество просветить свой народ, «турецкий гулистан» или ахлок и представлены утверждения о вкладе Авлони в журналистику.

**Ключевые слова:** Национальный ренессанс, модернизм, модернизм, национальная ценность, образование, нравственность, публицистика, просвещение, стабильная система, «Турецкий Гулистан или нравственность».

### ABSTRACT

One of the bright manifestations of the new literature known as the era of national renaissance, Abdulla Avloni's educational views, his active participation in the struggle movement, national values, his courage to enlighten his nation, “Turkish gulistan or akhloq” and the statements about Avloni's contribution to journalism are presented.

**Keywords:** National renaissance, modernism, modernism, national value, education, morality, journalism, enlightenment, stable system, “Turkish Gulistan or morality”.

## KIRISH

Milliy uygʻonish davrining yorqin namoyondalaridan biri boʻlgan, Turkistonda taʼlim va tarbiyani rivojlantirish, insonlarning milliy ongini uygʻotish yoʻlidagi taʼlimiy, tarbiyaviy, erkparvarlik va mustamlaka ostida qiynalayotgan xalqni ozodlik sari yetaklovchi sheʼr va asarlari bilan oʻz oʻrniga ega boʻlgan jadidchilardan biri Abdulla Avloniydir. “Jadid” soʻziga eʼtibor beradigan boʻlsak arabchadan, “yangi” degan maʼno kelib chiqadi. Shundan koʻrinib turibdiki, jadidchilik bu yangilik izlovchi, yangilik yaratuvchidir. Darhaqiqat, jadidchilik nomi ostida millat uchun qaygʻurgan, tarbiyaviy ahamiyatgan molik yangi koʻrinish bilan boʻy koʻrsatgan adiblardan biri Abdulla Avloniydir.

## ASOSIY QISM

Har bir inson oʻz erki va hurriyati bilan inson boʻlganidek, yer yuzida mavjud boʻlgan davlatlar ham oʻz erki, mustaqilligi bilan toʻlaqonli davlatdir. Mustamlaka davrida tang ahvolda qiynalayotgan millat taqdirini oʻylagan jadid bobolarimiz ana shunday hurriyat zamonlarini orzu qilib yashab oʻtdilar. Qadimdan oʻzining milliy anʼanaviy qadryatlari, diniy va dunyoviy bilimlarda yetakchi olimlarini oʻz bagʻrida kamol toptirgan millatimiz har jihatdan qoloq, asrlar davomida shakillanib kelayotgan urf odatlarimiz eskilik sarqiti deya qaralayotgan bir davrda zulmkor hukumat tuzumiga qarshi hurriyatni kuylovchi, isyonkor, xalqparvar gʻoyalari, ijodida istibdoddan qonga toʻlga dil nolalari va milliy ozodlikni sogʻinga qalb sadolari ila jadid bobolarimiz maydonga chiqib keldilar. Milliy uygʻonish deb nomlangan adabiyotning bosh gʻoyasi ham ozodlik va erksevarlikka qaratilgan edi. Bu adabiyotning yetuk siymolaridan biri Abdulla Avloniydir.

Abdulla Avloniy 1878 -yilning 12- iyulida Toshkentda Mergancha mahallasida dunyoga keldi <sup>1</sup>.

“Boʻladigan bola boshidan maʼlum” – deganlaridek boʻlajak mutafakkirda adabiyotga havas yoshlikdan uygʻondi. Bolalikdan kitobga oshno boʻlgan adib Navoiy sheʼriyati, Fuzuliy gʻazallariga mehr qoʻydi. Oʻzga tillarni bilishga boʻlgan ishtiyoq bilan Avloniy fors tilini oʻrgandi. Muslihiddin Saʼdiy va Hofiz Sheroziy sheʼriyatining jozibador olamidan zavq oldi va bu izlanishlar oʻz samarasini berib oʻzi kamtarona qayd qilgandek, “ sheʼrlar yozishga tutindi”<sup>2</sup>. Ammo shoirning ilk yozgan sheʼrlari bizgacha yetib kelmagan.

Maʼrifatparvar shoirning yozgan asarlarida taʼlim va tarbiyaga targʻib qilish asosiy mazmun hisoblanadi. Kishilar tugʻulishidan yomon boʻlib tugʻulmaydilar, muayyan sharoit uni yomon qiladi. Insonga yoshligidan berilgan taʼlim – tarbiya va

<sup>1</sup> Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. 1-jild. T.2006. 5-bet

<sup>2</sup> Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar.1-jild. T.2006.5-bet

yaxshi muhit uni barkamol shaxs sifatida tarbiyalaydi. Demak, hamma narsa tarbiyaga bog‘liqligicha qoladi. Abdulla Avloniy bu haqda; “Tarbiya biz uchun yo hayot yo mamot, yo najot yo halokat, yo saodat yo falokat masalasidir”<sup>1</sup>. Tarbiya insonda tug‘ilgan kundan boshlab toki hayotining oxiriga qadar davom etadi, u ikki bosqichdan – uy va maktab tarbiyasidan iboratdir. Abdulla Avloniy o‘z asarlarida tarbiyani eng yuqori o‘ringa qo‘yadi. Uning barcha asarlarida eng asosiy g‘oya tarbitaga qaratiladi.

1913- yilda Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asari nashirdan chiqadi. Kitob asosan yuqori sinf o‘quvchilariga darslik sifatida yozilgan. Ammo, asrimiz boshlaridagi o‘zbek jadid ma’rifatchiligining noyod hodisalaridan bo‘lgan bu asarning ahamiyati faqat maktab darsligi doirasi bilan cheklanmadi. U adabiyot va axloq ixlosmandlari uchun qo‘llanma vazifasida ham xizmat qildi. Avloniyning ushbu ta’limiy didaktik asaridagi hikoyalar mazmun mohiyatiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak asarning asl mag‘zi insonlardagi yaxshi va yomon xulqlar o‘rtasidagi tafovut, xalqlarni qoloqlik uyqusidan uyg‘otishga qaratilgan da’vatkor g‘oyalari bilan ahamiyatga molikdir. Avloniy tabiri bilan aytganda asar insonlarni” yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi bir ilm” – axloq haqida fikr yuritadi.<sup>2</sup>

Abdulla Avloniy tarbiyaning doirasini keng tushinadi. Tarbiyani faqatgina axloq bilan chegaralab qo‘ymaydi. “Sog‘ tanda - sog‘lom aql” degan hikmatning mazmunini chuqur anglagan holda , tarbiyani eng avvalo bolaning sog‘ligiga e’tiborli bo‘lishdan boshlaydi va bu haqda fikr yuritib; “Badanning salomat, quvvatli bo‘lmog‘i insonga eng kerakli narsadur. Chunki, o‘qumoq, o‘rganmoq va o‘rgatmoq uchun insonga kuchli kasalsiz jasad lozimdur.”<sup>3</sup>

Avloniy “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida jism bilan ruhni bir biriga bog‘lab tushuntiradi. Zero, kuch – quvvatli sog‘lom tanda fikrlar teran, zehn o‘tkir, xotira mustahkam, ilm o‘rganmoq uchun yetarlicha salohiyat mavjud bo‘ladi. Shunday ekan jism va ruhni bir choponning o‘ng ila chap yengi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Xalqning ma’rifatli, yuksak ma’naviyatli bo‘lishini, tobora unutilib borayotgan milliy qadryatlarni qayta tiklashni, millatni qoloqlik uyqusidan uyg‘otishni orzulagan shoir 1907 - yildan boshlab gazetchilik faoliyati bilan ham faol shug‘ullana boshlaydi. Bu haqda Avloniy eslashlarida quyidagicha qayd etiladi; “1906 – yilda “Taraqqiy” va “Xurshid” gazetalari chiqib, eski hukumat tomonidan to‘xtatilganidan so‘ng, 1907 – yilda men o‘z muharririligim bilan hamda temiryo‘l ishchilarining sotsial – demokratik firqasining aloqa va yordami bilan “Shuhrat” ismindagi gazetni Sapyorniy ko‘chada

<sup>1</sup> Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. 1-jild. T.2006. 32-bet

<sup>2</sup> Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. 1-jild. T.2006.31-bet

<sup>3</sup> Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. 1-jild. T.2006. 32-bet



chiqardim”.<sup>1</sup> Darhaqiqat, Avloniyning gazeta nomi bilan atalgan “shuhrat” she’rida gazetaning maqsad va muddaosi o‘z aksini topgan;

Jahonda ittifoq-u ilm uchun ovoradur “Shuhrat”,  
Zuhuri ro‘shnoyi ilm uchun mahforadur “Shuhrat”,  
Vujudin sarf qilg‘on ilm uchun bechoradur “Shuhrat”,  
Dili millat g‘amida dam-badam sadporadur “Shuhrat”.

Ma’rifatparvar shoir birgina bular bilan cheklanmaydi 1915-yilda “Sadoyi Turkiston”, 1917-yilda esa “Turon” va “Turk eli” gazetalari ham o‘z ixlosmadlari qo‘liga yetadi.

Xalqini ma’rifatli qilish yo‘lida bor kuch g‘ayratini sarflagan serqirra ijodkor, millat uchun qayg‘urgan, jadidchilik harakatida o‘ziga xos o‘ringa ega, buyuk mutafakkir Abdulla Avloniy 1934-yil 25-avgustda Toshkent shahrida vafot etdi. Mustaqillik yillarida Avloniy xotirasiga chuqur ehtirom ko‘rsatildi. 2020-yil adibga „Buyuk xizmatlari uchun” ordeni berildi. Alloma hayoti va ijodiga bag‘ishlangan hujjatli va badiiy filmlar yaratildi, millatparvarlik ruhidagi asarlari qaytadan nashr etildi, sahna asarlari yana o‘z muxlislarini topdi. Tom ma’nodda Abdulla Avloniy nomi qaytadan abadiylashtirildi.

## **XULOSA**

Mustaqillikka erishganimizdan so‘ng mustabit tuzun ostida jabr ko‘rayotgan xalqni qoloqlik uyqusidan uyg‘otish yo‘lidagi harakatlari, tom ma’nodda mustaqillik sari ilk qadamlarni jasorat bilan tashlay olgan jadidchilik harakati namoyondalari nomlari abadiylashtirildi. Jadid bobolarimiz asarlarining aksariyat qismi asosan ta’limiy va tarbiyaviy ahamiyatga molikligi bilan ajralib turadi. Shunday mazmundagi asarlarni Abdulla Avloniy ijodida yaqqol ko‘rishimiz mumkin. Yoshlarni ilm olishga da’vat etuvchi ushbu kitoblar bugungi kunda ham dolzarbligicha qolmoqda. Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, har bir millatning ertangi taraqqiyoti uning yoshlaridagi ta’lim va tarbiya salohiyatiga bog‘liqligicha qoladi. Abdulla Avloniy asarlarida esa ushbu mavzular yaqqol namoyon etilgan.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. Abdulla Avloniy. Jadid adabiyoti namoyandalari. “zabarjad media” 2022.
2. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. 1-jild.2006
3. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. 2-jild.2006

---

<sup>1</sup> Abdulla Avloniy. Jadid adabiyoti namoyandalari. „zabarjad media” 2022.4-bet

## YANGI O‘ZBEKISTONDA TA’LIM SIFATINI OSHIRISH VA UNDA MALAKALI KADRLARNI TAYYORLASH MASALASI

**Nazarova Nilufar Jo‘rayevna**

katta o‘qituvchi, Toshkent davlat transport universiteti

E-mail: [nazarovanilufar79@gmail.com](mailto:nazarovanilufar79@gmail.com)

**Jumaniyazova Nasiba Saparbayevna**

f.d. PhD, Toshkent davlat transrort universiteti

E-mail: [nasibajumaniyazova@gmail.com](mailto:nasibajumaniyazova@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Maqolada insoniyat jamiyati rivojlanib borishi natijasida ta’limning o‘rnini oshib borishi, “Universitet” konsepsiyalarining mohiyati va O‘zbekistonda “Universitet 3.0” modeliga o‘tishning ahamiyatli jihatlari tahlil etiladi. O‘z navbatida to‘rtinchi sanoat inqilobi kirib kelishi natijasida ba’zi kasb-korlarning yo‘qolib borayotgani, yangi kasblarning paydo bo‘lishi natijasida har tomonlama malakali kadrlarga ehtiyoj ortishi keltiriladi. Shuningdek, kadrlar aylanmasining sabablarini tahlil qilish, muammolarni yechish va diagnostika qilish usullarini aniqlash, xodimlarni ijtimoiy himoya tizimi borligini tashkiliy madaniyatini yaratish va uni qo‘llab-quvvatlashda o‘zaro hamkorlik darajasini oshirish zarurligi yoritiladi.

**Kalit so‘zlar:** malakali kadr, inson omili, innovatsion rivojlanish, To‘rtinchi sanoat inqilobi, intellektual salohiyat, boshqaruvi modeli.

Bugungi dunyoda avj olib borayotgan va insoniyat kelajagiga tahdid solayotgan turli inqirozlar, oila institutining yemirila boshlayotganligi, bir jinslilar o‘rtasidagi nikoh, submadaniyat ko‘rinishlarining tarqalishi, zo‘ravonliklar, suitsid va boshqa ijtimoiy muammolarning keskinlashayotganligi har bir mamlakatda inson omili, uning ma’naviy kamoloti bilan uzviy bog‘langan. Bunday sharoitda jadal o‘zgarayotgan zamon talablariga javob beradigan keng qamrovli, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash strategiyasiga ega bo‘lish bugungi kunning eng ustuvor talablaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Shuning uchun ham mamlakatimizda inson ma’naviy olami, uning ma’naviy kamoloti masalasi davlat siyosatining ustuvor masalasi sifatida kun tartibiga qo‘yilgan. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev alohida ta’kidlagani kabi: “Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo‘lib kamolga yetishi bilan bog‘liq. ... Shu munosabat bilan odamlar, birinchi navbatda, yoshlarning ongu tafakkurini ma’rifat

asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifadir”[1]. Ushbu vazifalarni amalga oshirish maqsadida amalga oshirilayotgan islohotlar davlatimizning inson omiliga aynan tizimli yondashuv asosida faoliyat olib borayotganligini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni amalga oshirish borasida hal etilishi lozim bo‘lgan ustuvor vazifalarni talab darajasida bajarishga va innovatsion rivojlanishga katta ahamiyat berilayotgani bejizga emas. Bu jarayon mamlakatimizning jahon bozorlarida o‘ziga munosib o‘ringa ega bo‘lishi uchun ilmfan yutuqlaridan va innovatsion texnologiyalardan keng ko‘lamda foydalana oladigan yosh istiqbolli malakali kadrlar tayyorlashni yo‘lga qo‘yish vazifalarni hal etish bilan uzviy bog‘liqdir. Ma‘lumki, dunyoning taraqqiy etgan davlatlarida ta‘limni rivojlantirishga oid o‘z tajribalari bor. Oliy ta‘limni, xususan universitetlar tarixiy rivojlanish yo‘lida bir necha modellar orqali o‘tib kelmoqda, bunda Universitet 1.0, Universitet 2.0, Universitet 3.0 va Universitet 4.0 konsepsiyalari ishlab chiqilgan. “Universitet 1.0” faqat ta‘lim bersa, “Universitet 2.0” (“ikkinchi avlod universiteti”) modeli ta‘lim berish+ilmiy tadqiqot ham olib borishga ixtisoslashgan. XIX asrdan boshlab rivojlangan ta‘lim muassasalari “tadqiqot universitetlari” deb ataladi. “Universitet 2.0” ilmiy tadqiqot faoliyati orqali yangi bilimlarni yaratadi; bozor ishtirokchilari uchun konsalting xizmatlari markazi bo‘ladi; sanoat tomonidan buyurtmalar bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib boradi, yangi texnologiyalarga asos soladi.

“Uchinchi avlod universiteti”, yoki “Universitet 3.0”, esa fan-ta‘lim-innovatsiya+ilmiy-tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish faoliyati bilan ham shug‘ullanadi. Mamlakatimiz universitetlari oldida 2030-yilga qadar ilmiy-tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish masalasi qo‘yilgan. Bu holda oliygohlarimiz xalqaro e‘tirof etilgan tashkilotlar reytinglarida yuqori o‘rinlarni egallash imkoni bo‘ladi.

“Universitet 4.0” yuqoridagi barcha sifatlarni o‘zida jamlab, u raqamlashtirilgan va biznes jarayonlari avtomatlashtirilgan makon sanaladi. “Universitet 4.0” yuqori texnologiyali sanoatni rivojlantirishda etakchiga aylanib, ommaviy ishlab chiqarishdan iste‘molchilarning individual talablari asosida xizmatlar etkazadi. Bu borada “Universitet 4.0” talabalarning individual ehtiyojlari asosida o‘quv reja va dasturlar tayyorlaydi. “Universitet 4.0” talabalarning nafaqat bilimi, balki ijtimoiy ko‘nikmalariga ham ustuvor e‘tibor qaratadi”[2].

Insoniyat jamiyatining agrar jamiyatdan industrial jamiyatga o‘tishi natijasida, “texnikaning tez rivojlanishi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining asosiy determinanti, sababi bo‘lib qoldi. Industrial jamiyat shakllanishining asosiy tarkibiy qismlariga uning paydo bo‘lish jarayonida yirik mashina ishlab chiqarishi (Rostou) erkin savdo va umumiy bozorga asoslangan iqtisodiyotning milliy sistemasi (Aron), timsoli korxonalar mehnatning korxonalashgan shaklda tashkil etilishi (Toffler) kiradi”[3]. Sanoatning rivojlanish davrining ham bosqichlari bo‘lib, hozirgi kunda insoniyat

jamiyatida to‘rtinchi bosqichi ketmoqda. To‘rtinchi sanoat inqilobi (ing. The Fourth Industrial Revolution)ning konsepsiyasi Klaus Shvab, 2016 yilda xuddi shu nomdagi kitobida bayon etilgan bo‘lib, unga ko‘ra yaqin kelajak kiber-fizik tizimlarni[4] va inson ehtiyojlariga xizmat qilishni, shu jumladan kundalik hayot, ish va dam olish bilan ishlab chiqarishga keng joriy etish bilan belgilanishini ta’kidlagan.

Hayot darajasi va sifatini yaxshilashning iqtisodiy maqsadga muvofiqligi va jozibadorligi tufayli hayotga tatbiq etilgan to‘rtinchi sanoat inqilobi beqarorlikning kuchayishi va jahon tizimining qulashi xavfini tug‘diradi va shuning uchun uning boshlanishi insoniyat javob berishi kerak bo‘lgan muammo sifatida qabul qilinadi[5]. To‘rtinchi sanoat inqilobigacha insoniyat 3 ta sanoat inqilobini boshidan o‘tkazdi. Birinchi sanoat inqilobida (XVIII asr oxiri) qo‘l mehnatidan mashina mehnatiga o‘tish, ya’ni bug‘ dvigatelining paydo bo‘lishi bilan izohlansa, ikkinchi sanoat inqilobi (XIX asr oxiri)da konveyer ishlab chiqarish, elektr stansiyasi, telefon singari ixtirolarni keltirish mumkin. Uchinchi sanoat (kompyuter) inqilobi (XX asr oxiri)da tranzistor, prosessor, kompyuter, Internet, raqamli kamera kabi kashfiyotlar amalga oshirildi.

Uch sanoat inqiloblarida bo‘lgani kabi, iqtisodiyotning o‘zgarishi ba’zi ommaviy kasblarning yo‘q bo‘lib ketishiga va boshqalarning paydo bo‘lishiga olib kelmoqda. Masalan, ikkinchi va uchinchi sanoat inqilobidan keyin aravakash, eshkakchi, mo‘ri tozalovchi, chiroq yoquvchi, muz yig‘uvchi, suv tashuvchi, kompyuter mashinisti, stenograf va boshqa ko‘plab kasblar chiqib ketganini ko‘rish mumkin. 2020 yildan boshlab yo‘qolib borayotgan kasblar qatoriga radio operatori, kutubxonachi, pochtachi, kassir, haydovchi, buxgalter, tikuvchi, kulol, to‘quvchi, advokat, notarius, o‘qituvchi, farmatsevt, terapevt, jurnalist, riyeltor, logist, dispetcherlik kasblarni kiritishgan.

Rivojlanayotgan kasblar qatoriga blogger, ma’lumotlar sotuvchisi, UX/UI dizayneri, UX/UI dizayner, Data scientist, bioinformatik, biofarmakolog, neyropsixolog, 3D bosib chiqarish muhandisi va boshqalar[6] keltirilgan.

Mamlakatimizda to‘rtinchi sanoat davri kirib kelishi natijasida malakali kadrlar tayyorlash vazifalarini amalga oshirishda, O‘zbekistonda faoliyat yuritib kelayotgan oliy o‘quv yurtlari muhim ahamiyatga ega. Chunki, ta’lim tizimida yoshlarni tarbiyalab voyaga yetkazishgina emas, balki zamonaviy yuksak malakali mutaxassis kadrlarni tarbiyalashga ham katta e’tibor berilib kelinmoqda. Ma’lumki, hozirda butun dunyoda ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan ishlar tobora jadallashib bormoqda. Mazkur yilni “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim” yili deb e’lon qilinishi ham bejizga emas. Shu jihatlar inobatga olingan holda mamlakatimiz Oliy ta’lim muassasalarida ham ta’lim-tarbiya samaradorligini oshirish borasida aniq maqsadga yo‘naltirilgan tizim shakllantirishga alohida e’tibor qaratilib kelinmoqda. Bu tizimning eng asosiy maqsadlaridan biri – yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb qilish, ular o‘z intellektual salohiyatlarini namoyon etishlari uchun keng imkoniyatlar eshigini ochish, oliy ta’lim sohasida mutaxassislar

tayyorlash, shuningdek, pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo'yicha yangilangan davlat oliy ta'lim standartlari va o'quv dasturlari joriy qilishdan iboratdir.

Hozirgi zamon taraqqiyotining axborotlashuvi va inson faoliyatining barcha jabhalari[7; 8; 9; 10; 11; 12; 13; 14; 15; 16], shu jumladan ta'lim tizimiga fan va texnika taraqqiyoti yutuqlarining keng tatbiq etilishi, inson qalbi uchun turli xarakterdagi axborot-psixologik kurashlarning olib borilishi ta'limni sifatli boshqaruv tizimida tahliliy metodlardan oqilona foydalanishni taqozo etadi. Ma'lumki, kadrlar siyosatining tarkibiy elementlari o'z ichiga bandlik siyosati, rag'batlantiruvchi siyosat, ijtimoiy-mehnat sohasidagi siyosat, personalni rivojlantirish siyosatlarni qamrab oladi.

Bandlik siyosati o'z ichiga personalni jalb qilish, tanlab olish va yollash tizimini yaratish, tashkilotning kadrlarga bo'lgan son va sifat ehtiyojlarini aniqlash, xodimlarni tashkilotga bog'lanib qolishini ta'minlash, personal tarkibining moslashuvchanligini ta'minlash, shuningdek kerak bo'lib qolganda xodimlarni bo'shatish kriteriy va usullarini aniqlash kabi masalalarini oladi. Rag'batlantirish siyosati personalni o'z ishidan mamnun ekanligini davriy nazorat qilishni, personal mehnatini baholash, asoslash va rag'batlantirishni ko'zda tutadi. Ijtimoiy-mehnat munosabat orasidagi siyosat tashkilot xodimlarini kerakli axborot bilan ta'minlashni, kadrlar aylanmasining sabablarini tahlil qilishni, muammolarni yechish va diagnostika qilish usullarini aniqlashni, qayta aloqa kanallarini munosabatlarini o'rgatishni, xodimlarni ijtimoiy himoya tizimi borligini tashkiliy madaniyatini yaratishni va uni qo'llab-quvvatlashni, oddiy xodimlar va rahbariyat orasida o'zaro hamkorlik darajasini oshirishni ko'zda tutadi.

Kadrlar boshqaruvi modellarining har xilligi tarixiy va milliy xususiyatlar, texnologiyaning rivojlanish va insonning tashkilotdagi o'rnini va roli haqida tushunchalar, tashkilot personalini har xil prinsipda boshqarish bilan shartlangan. Nazorat tizimidan foydalanish xususiyatlariga ko'ra kadrlar menejmentning uch modeli ajralib turadi: oddiy (iyerarxik) nazoratga asoslangan, texnologik nazoratga asoslangan, byurokratik nazoratga asoslangan. Birinchi model tadbirkor o'zi ishlab chiqarish protsessiga aralashib o'zi ishga yollash va ishdan bo'shatish, mukofotlash kriteriyalarni aniqlab, o'zi boshqaruvchi firmalar uchun xarakterlidir.

Hozirgi vaqtda kadrlar bilan ishlash yangi shaklining nazariy asosi bo'lgan "inson resurslari" konsepsiyasi ishlab chiqilgan. U xodimlarni tanlash, uzluksiz o'qitib borish va ishchining sifatlarini, potensial imkoniyatlarini, qobiliyatlarini aniqlash va doimo rivojlantirib borishga sarflanadigan kapital qo'yilmalarni iqtisodiy maqsadga muvofiqligini e'tirof etishga asoslanadi. Bu konsepsiyaning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- zamonaviy sharoitda inson omili rolini baholashda iqtisodiy mezonlardan foydalanish;
- firma doirasida boshqarish;
- xodimlar bilan ishlash tizimini qayta qurish [17].

Aynan yuqorida ta'kidlangan fikrlardan kelib chiqib, oliy ta'lim muassasalari tizimida "kadrlarni tayyorlashning maqsadli mezonlarini shakllantirish, oliy ta'lim muassasalaridagi ixtisoslik yo'nalishlari va mutaxassisliklarni hududlar va sohalar bo'yicha joriy etilayotgan dasturlarning talab va ehtiyojlari, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarni kompleks taraqqiy ettirish istiqbollari, xorijiy davlatlarning yetakchi oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlik inobatga olgan holda optimallashtirish" masalasi Toshkent davlat transport universitetiga ham bevosita daxldordir. Misol tariqasida Janubiy Koreyaning Gachon universiteti professori Dasong Choy Toshkent davlat transport universiteti professor-o'qituvchilari bilan olib borgan seminar-treningida hozirgi kunda oliy ta'lim tizimidagi mavjud muammolar to'g'risida quyidagi fikrlarini bildirib o'tdi: "Birinchi, bugungi kunda oliy ta'lim tizimi texnologiyalar rivojidan ortda qolib ketmoqda, ikkinchi, hozir olinayotgan bilimlar ertaga eskirib qolmoqda, uchinchi, ta'lim borgan sari o'z unumdorligini yo'qotib bormoqda. Sababi, internet tarmoqlarining taraqqiy etishi bilan barcha ma'lumotlar ijtimoiy tarmoqlardan topish imkoniyati kengayib ketdi". Shunday ekan bugungi professor-o'qituvchilardan zamon bilan hamnafas ilmiy-tadqiqotlar olib borish talab etiladi. Oliy ta'lim tizimi jahon standartlariga javob beradigan davlatlar bilan fan, ta'lim sohalarida o'zaro manfaatli hamkorlik masalasini yo'lga qo'yilishi o'ylaymizki o'zini ijobiy natijalarini beradi.

## REFERENCES

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг БМТ Бош ассамблеясининг 72-сессиясида сўзлаган нутқи // <http://uz24.uz/uz/politics/shavkat-mirziyoyev-bmt-bosh-assambleyasining-72-sessiyasida-nutqi>.
2. Usmanov S. "Universitet 3.0" — fan-ta'lim va innovatsiya modeli // <https://yuz.uz/uz/news/universitet-30-tushunchasi-haqida>
3. V.N.Nersesyans "huquq falasafasi" ADOLAT nashr 2003-yil
4. <https://ru.wikipedia.org> Четвёртая промышленная революция: интернет вещей, циркулярная экономика и блокчейн // [furfur.me](http://furfur.me)
5. <https://ru.wikipedia.org> 4-я промышленная революция в Давосе
6. Судаков Д. Атлас новых профессий. При поддержке МШУ «Сколково» и Агентства стратегических инициатив.

7. Алексеева И.Ю. Эпистемологическое содержание компьютерной революции // Автореф... дис... доктора филос. наук. – Москва: Институт философии РАН, 1998. - 24 с.
8. Жуманиёзова, Н. С. (2022). ОТМГА ОИД ДАВЛАТ СИЁСАТИНИ АМАЛГА ОШИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ. *REDAGOGS jurnali*, 24(3), 154-165.
9. САМАРОВ, Р. С. ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТ ВА АМАЛИЁТ: ИНТЕГРАТИВ ЁНДАШУВНИНГ НАЗАРИЙ БАЁНИ. *PSIXOLOGIYA* Учредители: Бухарский государственный университет, (3), 10-15.
10. Жуманиязова, Н. С. (2019). СОВРЕМЕННАЯ СИСТЕМА ОБРАЗОВАНИЯ: ИНТЕГРАЦИЯ И ПРОПОРЦИОНАЛЬНОСТЬ НАЦИОНАЛЬНЫХ ПРОЦЕССОВ. *Экономика и социум*, (11 (66)), 261-263.
11. Kurganovna, K. D., & Jo‘rayevna, N. N. (2023). YOSHLARDA AXBOROT VA INTERNET MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI. *World ssientifis researsh journal*, 12(2), 105-109.
12. Gafarovna, A. S., Jo‘rayevna, N. N., Sobirovna, A. N., & Abdusalamovna, A. S. (2023). YOSHLAR MADANIY BEGONALASHUVINING OLDINI OLISHDA IJTIMOIY ISH VA SAN’ATNING O‘ZARO HAMKORLIGI. *World scientific research journal*, 12(2), 100-104.
13. Shomansur o‘g‘li, S. S., Abdumannapovna, M. D., & Jo‘rayevna, N. N. (2023). TARAQQIYOTNI TA’MINLASHDA TA’LIMNING O‘RNI. *PEDAGOG*, 1(5), 619-622.
14. Жуманиёзова, Н. С. (2023). ЎЗБЕКИСТОН ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИНИ ХАЛҚАРО ХАМКОРЛИК АЛОҚАЛАРИ. *World ssientifis researsh journal*, 11(1), 22-33.
15. Жуманиёзова, Н. С. (2022). МОДЕРНИЗАЦИЯ ТУШУНЧАСИНИНГ МОҲИЯТИ ВА УМУММЕТОДОЛОГИК АСОСЛАРИ. *REDAGOGS jurnali*, 24(2), 22-34.
16. Назарова, Н. Ж., & Абдурахманова, С. А. (2022). ЭФФЕКТИВНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ В ОБЕСПЕЧЕНИИ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ МОЛОДЕЖИ. *Экономика и социум*, (12-2 (103)), 475-481.
17. Норбоев А. Инсон ресурсларини бошқариш (HR менежмент) нима? <https://www.samdu.uz/cy/news/20725>

## CHANGES IN THE ETHNO-CULTURAL IDENTITY OF DUNGANS OF UZBEKISTAN (IN THE EXAMPLE OF THE DUNGAN LANGUAGE)

**Yosin Abdulbokiyevich Ortikov**

Senior lecturer of the Department of Archeology of Namangan State University

E-mail: [y.ortiqov@namdu.uz](mailto:y.ortiqov@namdu.uz)

### ABSTRACT

This article analyzes the role of language as a fundamental issue in the understanding of ethno-cultural identity of the Dungans, one of the special diasporas in Uzbekistan. The national language has always been relevant, especially in a small number of nations. That is why national language is considered as the most important issue in a small number of nations compared to other nations. Among these few nationalities, the Dungans of Uzbekistan are also trying to preserve their national language. Today's problems of the Dungans of Uzbekistan related to the national language and the scientific basis of their solution are also described in this article.

**Keywords:** national language, diaspora, identity, ethnocultural identity, Dungans, dialect, Gansu, Shaanxi.

### INTRODUCTION

Language is a unique means of communication for people. Language helps to shape not only people but also society. Language is the basis of culture and helps people to classify, think, summarize and conclude objective facts. Language is also a carrier of cultural transmission, which people use to disseminate information, express their experiences and feelings. Knowing and feeling the national language is considered one of the characteristics of each national group, and it is often considered a distinguishing feature of different nationalities.

### METHODS

There is a nation in the world that has its own language and strives not to lose it. The existence of the national language directly ensures the longevity of the nation. The main function of language is communicative function, and the rest of its functions revolve around this function. For example, constructive - shaper of individual and community thinking; cognitive - storage and transmission of information; emotional-expressive - expression of intuition and emotions, and has various tasks in the field of various other disciplines. As mentioned above, they all revolve around the communicative task. In addition, language has another function that is necessary for this study, and this is the defining function, that is, the function used to determine who



a person is from the language he speaks. This is one of the main signs of identity. In this study, the second function of the language - identification is considered.

In the science of ethnology and the meaning of identity in general, it is possible to see the uniqueness of each by comparing one person with another person or one group with another group. Such differences and their presence in a community prevent this community from merging with other communities. This principle can also be applied to ethnic groups.

## **RESULTS**

One of the main requirements for the identification of ethnic communities is the correct distinction between "ours" and "outsiders". Language is one aspect that clearly shows this difference. Members of the community must know the language of the community they belong to and respect it as their mother tongue. Therefore, language has a great role in clarifying ethnocultural identity.

Language is important in the formation of ethnic groups. Language is the main factor for ethnic units to communicate freely with each other, communicate, express and understand their feelings, and establish economic and cultural relations (Jabbarov, 2008, p. 4). Language determines the specific ethnocultural character of some peoples.

## **DISCUSSION**

Ethnographic scientists L.P. Loshuk and V.I. Kozlov believes that language is an important condition for the formation of ethnic unity, and it is not only an ethnic factor, but also an ethnic sign (Loshuk, 1987, p. 26-28), some scientists say that language is only an ethnic sign, without including language in the ethnic factor (Kozlov, 1969, p. 4).

Among ethnic symbols, the awareness of ethnic identity is one of the most important. Ethnographer V. Mardovin says that the language of the ethnos and the unity of its identity is an important factor that unites this community as a nation (Marvodin, 1947, p. 89). To prove his point, it can be said on the example of the Dungans that they have united around the Dungan language and culture and have preserved their identity to this day. A crisis of ethno-cultural identity can be observed in the groups that have forgotten their language (Dungans of the Fergana Valley). In the situation before the Dungans moved to the territory of Central Asia, that is, when they lived in the territory of China, they were distinguished from the surrounding culture by religion. And at this time, language was not, and could not be, a boundary between differences.

The reason is that in a certain period of the life of the Dungans, the determining function of the language in maintaining their identity did not work. That is, when they lived with the Chinese, the language and culture were the same, and the main difference was religion. In 1862-1877, as a result of the Dungan uprising against the tyranny of the Qing Empire and its defeat, they left their country and entered Central Asia, and

they encountered a new cultural environment. And now in this new cultural environment, the most important of their distinguishing features were the language and cultural characteristics specific to China. Because for them, the religion that is a marker in China cannot be a marker here. Because the population of Central Asia consists mainly of Muslims. Thus, in the new space, the language became the leader of the most basic conditions of the identity of the Dungans and was now seen as the main marker.

Although it has been more than 140 years since the Dungans began to migrate to Central Asia, most of them have preserved their language without losing it. During the first decades of migration, most Dungans had very few speakers of any language other than their own. The reasons for this can be explained as follows:

- *firstly*, feeling very alienated in front of a completely alien society;
- *secondly*, the fact that they lived densely and had little contact with the surrounding population;
- *thirdly*, since the main occupation of the population is farming, the main time was spent in field work and there was little need to get into wide contact with the general public;
- *fourthly*, lack of cooperation with the local population;
- *fifthly*, due to the difficult political situation after the Russian Empire and the October Revolution, little attention was paid to public education.

Even on the eve of the Second World War, among the Dungans, there were very few people who knew the Russian language. According to older Dungans, during the war, a person who knew the Russian language was seen as a rare person (Ortikov, 2021, p. 517). Educated Dungans certainly mastered other languages, but this was very rare.

The fact that the population is limited to only the Dungan language depends on their location and place of origin, and the Dungans of Shaanxi are mostly densely settled in settlements and have very little contact with the surrounding population. However, it was easy for Dungans from Hansu or Salars who were integrated into Dungans in Uzbekistan to know or learn the Uzbek language. This is because even before they moved to this area, they lived next door to the Uighurs in Gansu and spoke their language, meaning they were already bilingual. Therefore, the location of the Hanseatic Dungans is also scattered, and they mostly go to the places required by their profession. Due to familiarity with the local culture, he did not separate himself with the population with a certain limit. That is why this group of Dungans is the most prone to become Uzbek today.

Before the beginning of the Second World War, a period of serious changes began in the Soviet Union in public education and especially in the cultural life of the Dungans, among whom the first highly educated people began to emerge. Almost all of them learned Russian and other local languages, and were fully involved in social

life, which began to affect their language. The beginning of the World War slowed down the cultural processes that had begun. The cultural upsurge that began in the 1930s slowed down, and every opportunity was spent on war. However, this war acts as a catalyst for the Dungan nation to become bilingual. Because the war served for the cohesion and unification of the peoples of the Soviet Union. The law of social life "uniting to defeat the common enemy" came into play, and all allied nations acted as one.

Although the Dungans are a very small number compared to the population of the Soviet Union, they worked tirelessly for the development of their homeland during the war and during the socio-economic and cultural revival that followed. These processes created an opportunity to learn the languages of Russian and other allied nations. This period of struggle united not only the Dungan people, but also other peoples as one nation, and it was a time when many people learned the Russian language. This period can be said to be the first stage of Dungan bilingualism.

The revival of economic development after the war paved the way for Dungans to learn Russian as well. Due to the consistent post-war education of the former Union, the Dungans, like other peoples of the Union, were widely involved in public education, and because of this, they often began to communicate in Russian. Because, in schools attended by Dungans, all classes are conducted in Russian, except for Dungan and foreign languages. This allowed the new generation of Dungans to systematically learn the Russian language. As a result of learning the Russian language and improving other cultural knowledge through it, the interest and desire for the Russian language increased among the Dungans. In addition, the Russian language served as a common language of communication for the Dungans and many other peoples of Central Asia. Such factors quickly made Russian a second language among the Dungans.

Currently, the Dungans of Central Asia are at least bilingual. After the migration of the Dungans to Central Asia, their linguistic development was different. As mentioned above, language played an important role in the settlement of Dungans throughout Central Asia, especially Uzbekistan. The part of them who know the Uyghur language - Dungans from Gansu came to Tashkent city and various cities of Fergana valley, especially Andijan. The Uyghurs also played a role in their settlement in these areas. The region of Uzbekistan where the Shensi Dungans live densely is the Orta Chirchik district of the Tashkent region, and the best preserved place of the Dungan language is this region. The Russian language is considered the second language in this region, and the middle-aged and older people almost do not know the Uzbek language well. The reason is that both their educational language and social

language are directly related to the Russian language. Here Dungans speak a mixture of Russian and Dungan. He communicates with his children in Dungan language.

Dungans from Hansi and Shensi live in Tashkent city. Hansuls are the majority here. If the Dungans of Tashkent city are classified by language, they can be put in the second place. Undoubtedly, the Dungans of Orta Chirchik district of Tashkent region take the first place. Dungans in the city of Andijan and other regions of the Fergana valley can be included in the third place. The Dungans of the city of Tashkent kept their language relatively because they were in constant contact with the Dungans of Orta Chirchik district and the kinship ties were not broken. Dungans of Tashkent city communicate in Uzbek, Russian and partially Dungan languages, unlike Dungans of Orta Chirchik district. The main language of communication here is Uzbek, and they maintain good neighborly relations with the local Uzbeks.

And among the Dungans of Andijan, the language has not been preserved at all. Only some words (*yeye*- grandfather, *nene*- grandmother), names of things (*jozi*- table, *kozi*- chopsticks for eating, *jambi*- hand towel) have been preserved. In addition, in the city of Andijan, it can be seen that some Dungan language words (*lozi* or *lazi*- hot pepper, *kozi*- table) have been adopted into the language of local Uzbeks (Ortikov, 2021, p. 519).

The same process continues in the life of the Dungans who live in the territory of the Republics of Kyrgyzstan and Kazakhstan, in addition to Uzbekistan, in Central Asia. The independence of these countries and the declaration of their national language as the state language had a serious impact on the Dungans and their colloquial language. According to their location, Dungans learn local Turkic languages and communicate through them.

Dungan neighborhood of Middle Chirchik district, which is a densely populated area of Uzbekistan's Dungans, consists of Uzbeks, Kazakhs and Dungans, and this place serves as a cultural center for Dungans of Uzbekistan. The Dungan language is best preserved in this neighborhood. Preservation of language is also relative. Because the Dungans of Uzbekistan only have oral speech, and according to the respondents, they do not understand some Dungan words when they talk to the Dungans of Kazakhstan, Kyrgyzstan. They explain the reason for this with the lack of literary language. In Kyrgyzstan and Kazakhstan, there are Dungan schools in areas where Dungans live, where the main subjects are taught in the Dungan language. In addition, literature in the Dungan language is also published. With this, there is also a written literary language, which is considered one of the main factors in the preservation of this language.

After the independence of Uzbekistan, education in schools began to be conducted mainly in the Uzbek language, which is considered the state language. As a result,

classes are conducted in the Uzbek language at the 42nd general secondary school located in Dungan neighborhood of Oтра Chirchik district. That is why Dungan youth, unlike their parents, can freely communicate in Uzbek.

Bilingualism is a positive phenomenon on the one hand, but on the other hand, it can lead to forgetting one's mother tongue. In 1878, a group of rebels entered the city of Osh. After some time, a certain part of them will move to the Dzhabbul region of Kazakhstan. The rest will settle in the village of Kyzil Sharq (former collective farm named after K.O. Toshirov), 15 km from Osh, Kyrgyzstan. About 3,000 Dungan people live there. Apart from their anthropology and their insistence that they are Dungan, they are fully Uzbeks, speaking a fully Uzbek-Andijan dialect. Customs and traditions are all Uzbek. The same process was observed in the Dungans of Andijan who lived in the neighboring area with them.

The conducted field research and collected data show that in the late 1960s and early 1970s, although there were people here who knew the Dungan language, they were not fluent in the language. Mixed marriages are very free here, and there are many observed marriages with Uighurs, Dungans, Uzbeks and Kyrgyz. During a scientific expedition to this village in 2019, a woman who spoke the Dungan language was met. She also came from Tashkent as a bride 30 years ago. In his memoirs, he says, "When I tried to teach my children Dungan when they were young, my mother-in-law and father-in-law strongly opposed it. I could not go against their opinion. I gave up and could not teach my children our language. I am very sorry for what I did today. No matter what happens, I have to teach them the language. Alas, it is too late for that now. I speak Dungan with my relatives from Tashkent. If I don't talk to them, I will probably forget about them" (Ortikov, 2021, p. 521).

Another important point is that, unlike the Dungans of other regions, these Dungans hardly communicate in Russian. Because Uzbeks are the people with whom they communicate the most. In addition, the majority of the population of Osh and Andijan, the cities they communicate with, are Uzbek-speaking. At the same time, the above-mentioned Dungans from Gunsu have a tendency to learn the Uzbek language, and the main part of those who moved to this region moved from the area of the city of Kulja (Guldja) of Gansu province. The population of this region is the majority of Uighurs and Dungans of the Fergana Valley. The main language here is Uzbek, and Uzbek is spoken in Dungan families as well.

In the early 1980s, the Ministry of Public Education of Kyrgyzstan sent teachers of the Dungan language to teach children in schools, so that the Dungans could recover their mother tongue. However, this government-wide event did not produce the expected results. The informants, who were students at that time, said that the children had no interest in this language at all. Although the children were not interested, their

parents also had a cold attitude towards learning the Dungan language (Ortikov, 2021, p. 521).

When the respondents were asked about the reason for this attitude towards language learning, they said: "The Uzbek language was formed as our mother tongue. In fact, we know that Dungan is our mother tongue, but we have no desire to learn it. "Learning that language is as difficult for us as learning a foreign language," they answer.

When asked why the Dungan language disappeared, it was observed that almost all the answers were the same. That is, parents did not teach their children their own language, as a result of generational change, the Dungan language was completely forgotten within two or three generations. This village is the only group where Dungans live densely, but have completely forgotten their language.

Even in areas where the Dungan language is preserved, its future is at risk. Because the Dungan language has been preserved in the form of an island in the Central Asian region, and strong local languages in the surrounding environment are an obstacle to its development. Serious efforts should be made to preserve and develop it.

Currently, in the Dungans of Uzbekistan, the preservation of the Dungan language is provided by teaching children, and in the Republics of Kyrgyzstan and Kazakhstan, the Dungan language is taught in schools. However, based on the current situation, the power of this method does not give the expected result. First of all, the organization of Dungan language teaching courses creates various difficulties. These difficulties are on the one hand due to the lack of national financial resources, factors related to teachers, for example, books and textbooks for Dungan language courses are not guaranteed, which has a negative impact on Dungan language classes. Secondly, the learning process is not given enough attention. There is not enough interest and motivation to learn the Dungan language (Marvodin, 1947, p. 189). That is why the training courses do not achieve the expected result. Many students only learn a few words by the end of the course. They are not interested in learning the Dungan language in depth and consider it useless. Therefore, Dungan language teaching is low even in areas with Dungan schools.

## CONCLUSION

As a result of this research on the Dungan language and its current state, the following conclusions were reached:

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, maza-ta'm sifatlari ham turli xil badiiy-ekspressiv jozibadorlik qirralarini namoyon etadi. Ayniqsa, ular orasida shirin va achchiq so'zlari ma'no ifodasining ko'pligi bilan ajralib turadi. Taxir, chuchuk, nordon kabi leksemalar esa shirin va achchiq sifatlari orasidagi belgi ifodalovchi birliklardir. Shuningdek maza-ta'm ifodalovchi birliklar bilan ko'plab maqol va iboralar ham shakllangan:

Mehnatning noni – shirin,

Yalqovning joni – shirin.

Achchiq savol berib,

Shirin javob kutma.

Bemorga shirin so‘z kerak,  
Aqlsizga – ko‘z.

Shirin so‘z shakardan shirin.

Shirin so‘z – qaymoqli ayron,  
Achchiq so‘z – bo‘yniga arqon.

### **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, rang-tus bildiruvchi so‘zlar sifatlarning oz qismini tashkil etsa-da, lekin ularning badiiy adabiyotda qo‘llanishi salmoqlidir. Shuningdek ular turli xil ma’no qirralariga egaligi, uslubiy va tasviriy semalarining ko‘pligi bilan ham boshqa sifatlardan ajralib turadi. Maza-ta’ m bildiruvchi sifatlarda o‘z ma’no qirralari bilan badiiy adabiyotda, ayniqsa she’riy asarlarda badiiy-ekspressiv bo‘yoqdorlikni oshirishda muhim o‘rin tutadi. Shunday ekan ularning ko‘lami ozligiga qaramay, alohida tadqiqotni talab etadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. <file:///C:/Users/User/Downloads/zamonaviy-tilshunoslikda-lingvopoetika-tadqiqi.pdf>
2. <https://cyberleninka.ru/article/n/zamonaviy-tilshunoslikda-lingvopoetika-tadqiqi>
3. <https://uz.denometr.com/docs/768/index-69244-1.html>
4. [https://tsuull.uz/sites/default/files/kukon\\_anzhuman\\_tilshunoslik.pdf](https://tsuull.uz/sites/default/files/kukon_anzhuman_tilshunoslik.pdf)

## NH<sub>4</sub>ZSM-5 SEOLITIDA VODOROD SULFID MOLEKULALARI ADSORBSIYASINING MIKROKALORIMETRIK TAHLILI

**Abdulxaev Tolibjon Dolimjonovich**

Namangan muxandislik-texnologiya inistituti, doktoranti (PhD)

E-mail: [abdulxayev1987@gmail.com](mailto:abdulxayev1987@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Vodorod sulfidi (H<sub>2</sub>S) zaharli gaz bo'lib, inson salomatligi va sanoat texnik jihozlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Pentasil oilasiga mansub NH<sub>4</sub>ZSM-5 seoliti asosan katalizator sifatida foydalanilgan, ushbu tajriba orqali faqat katalizator emas balki adsorbent sifatida ham foydalanish mumkinligi isbotlandi. Bundan tashqari tabiiy gaz va biogaz tarkibidagi vodorod sulfidini (H<sub>2</sub>S) olib tashlash uchun samarali adsorbentlardan biri hisoblanadi. Seolitni qayta tiklash potensialini baholash ularni biogazni tozalash uchun adsorbsion jarayonlarda qo'llashdan oldin e'tiborga olish kerak bo'lgan muhim jihatidir. Buning uchun avvalombor bir necha bor regeneratsiya qilingan seolitning adsorbsiya miqdorlarini aniqlash bilan boradi. Adsorbsiya miqdorlarini hisoblab topishda eng qulay usullardan biri yuqori vakuumli adsorbsion qurilmada olingan natijalar hisoblanadi. Bunda adsorbsiya miqdoridan tashqari differensial issiqlik, izoterma, entropiya va termokinetikalarini ham aniqlash imkonini beradi. Bu usul yordamida sorbsion miqdorlariga qarab yutiladigan adsorbatning seolit strukturasiga ta'siri bo'yicha ham nazariy ma'lumotlar olishning imkoni bor.

**Kalit so'zlar:** NH<sub>4</sub>ZSM-5 seoliti, vodorod sulfid, mikrokalorimetr, termodinamika, entalpiya, kinetika.

## МИКРОКАЛОРИМЕТРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ АДСОРБЦИИ МОЛЕКУЛ СЕРОВОДОРОДА В ЦЕОЛИТЕ NH<sub>4</sub>ZSM-5

**Абдулхаев Толибжон Долимжонович**

Наманган инженерно-технологический институт, докторант (к.ф.н.),

E-mail: [abdulxayev1987@gmail.com](mailto:abdulxayev1987@gmail.com)

### АННОТАЦИЯ

Сероводород (H<sub>2</sub>S) — ядовитый газ, оказывающий негативное влияние на здоровье человека и промышленное техническое оборудование. В качестве катализатора в основном использовался цеолит NH<sub>4</sub>ZSM-5, относящийся к семейству Pentacyl, этот эксперимент доказал, что его можно использовать не

только как катализатор, но и как адсорбент. Кроме того, это один из эффективных адсорбентов для удаления сероводорода ( $H_2S$ ) из природного газа и биогаза. Прежде всего, необходимо несколько раз определить адсорбционное количество регенерированного цеолита. Одним из наиболее удобных способов расчета величины адсорбции являются результаты, полученные в высоковакуумной адсорбционной установке. Это позволяет определять дифференциальную теплоту, изотерму, энтропию и термокинетику в дополнение к значению адсорбции. С помощью этого метода можно получить теоретическую информацию о влиянии поглощенного адсорбата на структуру цеолита в зависимости от количества сорбента.

**Ключевые слова.** цеолит  $NH_4ZSM-5$ , сероводород, микрокалориметр, термодинамика, энтальпия, кинетика.

## MICROCALORIMETRIC ANALYSIS OF THE ADSORPTION OF HYDROGEN SULFIDE MOLECULES IN $NH_4ZSM-5$ ZEOLITE

**Abdulxaev Tolibjon Dolimjonovich**

Namangan Institute of Engineering and Technology, doctoral student (PhD),

E-mail: [abdulxayev1987@gmail.com](mailto:abdulxayev1987@gmail.com)

### ABSTRACT

Hydrogen sulfide ( $H_2S$ ) is a poisonous gas that has a negative effect on human health and industrial technical equipment.  $NH_4ZSM-5$  zeolite belonging to the Pentacyl family was mainly used as a catalyst, this experiment proved that it can be used not only as a catalyst but also as an adsorbent. In addition, it is one of the effective adsorbents for removing hydrogen sulfide ( $H_2S$ ) from natural gas and biogas. Assessing the recovery potential of zeolites is an important aspect to consider before using them in adsorption processes for biogas treatment. First of all, it is necessary to determine the adsorption amount of the regenerated zeolite several times. One of the most convenient methods for calculating the adsorption value is the results obtained in a high-vacuum adsorption unit. This allows differential heat, isotherm, entropy and thermokinetics to be determined in addition to the adsorption value. Using this method, one can obtain theoretical information about the effect of absorbed adsorbate on the zeolite structure depending on the amount of sorbent.

**Key words.** Zeolite  $NH_4ZSM-5$ , hydrogen peroxide, microcalorimeter, thermodynamics, enthalpy, kinetics.



## KIRISH

Adsorbsion-kalorimetrik tadqiqot natijalari fizik adsorbsiyaning nazariy tushunchalarini ishlab chiqish uchun, hamda sorbsiya texnologiyasi jarayonlari va apparatlarini hisoblashda zarur bo'lgan o'rganilayotgan tizimlarning asosiy termodinamik funksiyalarini olishga imkon beradi. Seolitlarning asosiy faol markazi hisoblangan kationlar qutbli, qutbsiz va kvadрупol molekulalarning adsorbsiyalanishida muhim o'rin egallaydi. Suv, metanol va ammiak kabi sinov molekulalarining adsorbsiyasining asosiy termodinamik tavsiflarini aniqlash orqali bir xil rusumli kristallografik pozitsiyalardagi energetik jihatdan aktiv markazlar (kationlar) soni aniqlanadi [1].

## ADABIYOTLAR TAHLILI

Silikalit – mikrog'ovakli strukturaga ega, MFI tipidagi pentasilli seolitlar guruhiga mansubdir. Silikalitning strukturasi kremniy kislorodli tetraedrlar 5 va 6 bo'lakli halqalardan iborat ikkilamchi strukturalarni shakllantiradilar. Bu ikkilamchi strukturalar, ehtimol, ultrakuch strukturasi mavjud bo'lib,  $550 \text{ sm}^{-1}$  chastotali tebranishlar uchun mas'uldirlar [2]. Qayd etish lozimki, Flanigen E.M. va boshqalar [3] silikalit va ZSM-5 seoliti strukturasi tadqiq qilganlarida molekulyar g'ovak kristall zanjirini shakllanishida 5 va 6 bo'lakli halqalarni birlashtiruvchi 4 bo'lakli halqalar (yutilish chizig'i  $820\text{-}750 \text{ sm}^{-1}$  da) mavjudligini aniqladilar. Bu hodisa keyingi strukturaviy tadqiqotlarda turli usullar yordamida isbotlangan.

Pentasilarning kristall zanjirining shakllanishida, kesimi 10-bo'lakli halqalardan iborat va to'g'ri burchak ostida kesishadigan kanallarning sistemasi shakllanadi. ZSM-5 seolitida bu tizim to'g'ri va zigzag shaklidagi kanallardan iboratdir [4].

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Adsorbsiya differensial issiqligi, differensial entropiyasi Tian-Kalve modelidagi DAK 1-1 kalorimetri asosida olingan tajriba natijalariga binoan hisoblandi. Adsorbsiya izotermasi aniqlashda hajmiy usulda foydalanildi. Adsorbsiya izotermasi aniqlik xatoligi 0,1% va issiqligi 1% gacha bo'ladi [5].

Adsorbat sifatida olingan vodorod sulfid, sorbsiyada foydalanishdan avval vakuum sharoitida tozalandi va quritildi. Shundan so'ng adabiyotlarda [6] keltirilgan ma'lumotlar bilan muvofiqligi aniqlandi.


Yakubov Yu.Yu. va Baxranov X.N. lardan farqli ravishda zaxarli bo'lgan  $\text{H}_2\text{S}$  molekulasi  $\text{NH}_4\text{ZSM-5}$  seolitiga vodorod sulfid adsorbsiyasi olib borildi.

## TAHLILLAR VA NATIJALAR

Gazlarni kimyoviy qayta ishlashda chiqadigan oltingugurtli organik birikmalar, vodorod sulfidi va boshqa zararli qo‘shimchalarning mavjudligi, ya’ni katalizatorlarning zararlanishiga, mahsulot sifatining yomonlashuviga, quvurlar, uskunarlar va atmosferaning ifloslanishini keltirib chiqaradi.

Gazlar adsorbsiyasi bo‘yicha nazariy tadqiqot ishlari olib borishda yuqori vakuumli adsorbsion qurilmada adsorbent va adsorbatlarning o‘zaro ta’sirlashishi natijasida olinadigan tajriba natijalariga asoslanib, seolitlarning tuzilishi, aktiv markazlari soni, ularga asosli va kislotali xossalarni namoyon qiluvchi yutiluvchi molekularning strukturasi salbiy ta’sirlarini ham o‘rganish imkonini beradi.

$\text{NH}_4\text{ZSM-5}$  seolitiga vodorod sulfidning adsorbsiyasi ( $a$ ) 303 K haroratda o‘rganilgan. Adsorbsiyaning differensial issiqligi qiymatlari (kJ) yuqori vakuumli adsorbsion-mikrokolorimetr qurilmasida olib borilgan va undan olingan natijalar asosida hisoblangan. Qurilma yuqori aniqlikda kichik qiymatlar uchun baratron, 0,1 mm.sm.ust.dan katta bosim ko‘rsatkichi uchun U-shaklidagi monometrda iborat yuqori vakuumga moslashtirilgan shishali apparat hisoblanadi. Adsorbent joylashtirilgan ampula, bosimni aniqlash uchun o‘lchov qismi, adsorbatlarni yig‘uvchi tashqi va ichki qism, ya’ni kapilyar nay va tashqi adsorbat joylash qismidan iborat. Tashqi qism ikkiga bo‘linib, biri suyuq, ikkinchisi gaz adsorbatlarni saqlaydi. Yuqori aniqlik va barqarorlikka ega bo‘lgan differensial adsorbsion DAK 1-1A markali kolorimetr qurilmasidan foydalanildi.




**1-rasm.**  $\text{NH}_4\text{ZSM-5}$  seolitida 303 K da  $\text{H}_2\text{S}$  adsorbsiyasi differensial issiqligi

$\text{NH}_4\text{ZSM-5}$  seolitiga vodorod sulfid adsorbsiyasi differensial issiqligi 1-rasmda keltirilgan.  $\text{NH}_4\text{ZSM-5}$  seolitiga vodorod sulfidning dastlabki molekulari yutilishida adsorbsiya differensial issiqligi 80,45 kJ/molni tashkil qiladi. Keyingi vodorod sulfid molekulari to'yinishgacha adsorbsiyalanishi uch pog'onada boradi. Birinchi pog'onada vodorod sulfid molekulari adsorbsiyasi qiymatlari 0,14-0,92 mmol/g oraliqlarida boradi. Bunda adsorbsiya issiqligi o'zgarishlar bilan davom etadi, ya'ni birinchi pog'ona boshlanishida differensial issiqlik 40,01kJ/molni tashkil qiladi. Adsorbsiya miqdori 0,58 mmol/gga etganda issiqlik 60,20 kJ/mol gacha ko'tariladi. Yutilgan adsorbat molekulari miqdori 0,92 mmolga etganda issiqlik 45,50 kJ/mol gacha kamayish bilan boradi va seolitga vodorod sulfid molekulari adsorbsiyasining birinchi pog'onasi yakunlanadi. Birinchi pog'onada 0,78 mmol/g vodorod sulfid adsorbsiyalanadi. Birinchi bosqichda seolit matritsasida  $\text{H}_2\text{S}$  ning ammoniy kationlar bilan ion-molekulyar kompleksini shakllanishiga olib keladi va  $\text{H}_2\text{S}:\text{NH}_4^+$  monomer kompleksini hosil qilishidan dalolat beradi. Ushbu pog'onada adsorbsiya issiqligining ko'tarilishi, ya'ni 60,20 kJ/molga borishi seolit kanallarida bo'sh joylar ko'pligi sababli taqsimlanayotgan vodorod sulfid molekularini muvozanatga kelishiga biroz vaqt sarflanadi. Shundan ko'rinadiki dastlabki bosqichdagi adsorbsiya to'g'ri va zigzag kanallar tutashgan joyda sodir bo'ladi. Ikkinchi pog'ona 0,92-1,92 mmol/g oralig'ida boradi. Ikkinchi pog'ona 45,50 kJ/mol dan boshlanadi. Ikkinchi pog'onaning maqsimal differensial issiqligi 53,50 kJ/molni tashkil qiladi. Adsorbsiya miqdori 1,92 mmol/gga etganda 40,5 kJ/molga etadi. Ikkinchi pog'onada maksimal adsorbsiya issiqligining birinchi pog'onaga nisbatan kichikligi, bunda seolit kanallariga qisman to'ldirilganligi va ikkinchi bosqichda  $\text{NH}_4\text{ZSM-5}$  seolit matritsasida dimer kompleks  $2\text{H}_2\text{S}:\text{NH}_4^+$  hosil bo'lib vodorod sulfid molekularining harakati biroz sustlashishi bilan izohlanadi. Uchinchi pog'ona 1,92-2,86 mmol/g oraliqlarida boradi. Bu pog'onada vodorod sulfid molekularining maksimal adsorbsiya differensial issiqligi 70,80 kJ/molni tashkil qiladi. Adsorbsiya jarayoni oxirlashganda issiqlik, kondensatsiya issiqligiga tenglashadi va bu qiymat 20 kJ/mol, ya'ni vodorod sulfidning kondensatsiya issiqlik qiymati yaqinida kuzatiladi.

Adsorbsiya differensial issiqligining kondensatsiya issiqligidan yuqorida borishi  $3\text{H}_2\text{S}:\text{NH}_4^+$  ion-molekulyar kompleksi shakllanishi va bu komplekslar faqat to'g'ri va zigzag ko'rinishidagi kanallarning o'zida sodir bo'ladi.

Ma'lumki mikrog'ovakli seolitlarda adsorbsiya mikrog'ovaklarni hajmiy to'yinish nazariyasi mexanizmi orqali tavsiflanadi. Polyani nazariyasi qoidalarini va katta tajribaviy natijalardan foydalanib, umumlashtirish orqali, M. M. Dubinin va uning hamkasblari mikrog'ovakli adsorbentlarda adsorbsiya jarayonini yoritish uchun potensial qiymati bo'yicha adsorbsion xajmni taqsimlanish funksiyasi sifatida, Veybul taqsimlanish funksiyasidan foydalanish imkoniyati mavjudligini aniqlashdi.



**2-rasm.** 303 K da NH<sub>4</sub>ZSM-5 seolitida H<sub>2</sub>S adsorbsiya izotermasi  $\Delta$ -tajriba qiymati;  $\blacktriangle$ -MHTN tenglamasi orqali hisoblangan nuqtalar

Adsorbsiya izotermasi to‘liq uch xadli MHTN tenglamasi bilan boshlang‘ich to‘yinishdan to‘oxirgi to‘yinishgacha tasvirlash mumkin deb ko‘rsatdi. Tenglama (2.5) ko‘rsatgichlaridan farqli ravishda uch hadli tenglamada 1, 2 va 3 indeksli ko‘rsatgichlar kationlar bo‘yicha o‘zaro ta‘sirini xarakterlaydi. Indeks 1 bilan ko‘rsatgichlari ular kationlarga kuchli ta‘sir etuvchi suv molekulasining adsorbilanishini, 2 indeksi bilan - kationlarga kam kuchli ta‘sir etuvchi, 3 indeksi bilan esa kationlarga kuchsiz ta‘sir etuvchi moddalarni xarakterlaydi. NH<sub>4</sub>ZSM-5 seolitda vodorod sulfidning adsorbsiya izotermasi yarim logarifmik koordinatalarda ifodalanadi.

2-rasmda NH<sub>4</sub>ZSM-5 seolitida vodorod sulfid adsorbsiyasini yarim logarifmik koordinata izotermasi ko‘rsatilgan. Umumiy holda adsorbsiya izotermasi egiluvchan xarakterga ega. Kichik bosimlarda vodorod sulfid molekulari seolit kanallardagi ammoniy ionlari bilan kuchli ta‘sirlashadi. Bu natijalardan qiziqarli holat shundan

iboratki, bir xil to‘yinishda adsorbsiya izotermasi va differensial issiqliklarini egri chizig‘ bosqichlarida bir-biri bilan korrelyasiyasini ta‘minlaydi.

NH<sub>4</sub>ZSM-5 seolitida vodorod sulfid adsorbsiyasi izotermasi uch hadli tenglama bilan to‘la ta‘riflanadi MHTN:

$$a=0,9\exp[A/16,25]^3+1,55\exp[A/6,33]^3+0,71\exp[A/1,10]^1 \quad (2.6)$$


bunda  $a$ -mmol/g dagi adsorbsiya miqdori va  $A=RT\ln(P^\circ/P)$  1 mmol gazni sirtidan (bosim  $P^\circ$ ) muvozanat gaz fazasiga (bosim  $P$ ) o‘tkazish ishi (2.5). Tenglama ko‘rsatgichlaridan farqli ravishda (2.6) Tenglamada 1, 2 va 3 indeksli ko‘rsatgichlar kationlar bo‘yicha o‘zaro ta‘sir xarakteristikalaridir. Indeksli ko‘rsatgichlar 1 kationlarga kuchli ta‘sir etuvchi, 2 indeksi - kationlarga kam kuchli ta‘sir etuvchi va 3 indeksi - kationlarga kuchsiz ta‘sir etuvchi vodorod sulfid molekulasining adsorbsiyasini xarakterlaydi.

Bundan ko‘rinib turibdiki, vodorod sulfid - NH<sub>4</sub>ZSM-5 tizimida hisoblangan izoterma ning tajriba bilan yaxshi mutanosib holda bo‘lishi kelib chiqadi. Adsorbsiya izotermasi  $P/P_s=0,06$  (yoki 605,7 mm.sm.ust.) nisbiy bosimda 3,12 mmol/g gacha o‘rganildi. Seolitda vodorod sulfid adsorbsiyasining izotermasi qiymati quyidagicha bo‘ldi, ya‘ni nisbiy bosimda  $P/P_s=0,065$  da 3,08 mmol/g ga teng.

NH<sub>4</sub>ZSM-5 seolitida vodorod sulfidning adsorbsiya entropiya o‘zgarishi izoterma va differensial qiymatlaridan foydalanib ( $\Delta S_d$ ) Gibbs-Gelmngolsning differensial molli entropiya tenglamasi yordamida hisoblandi va 3-rasmda ko‘rsatilgan.


$$\Delta S_a = \frac{\Delta H - \Delta G}{T} = \frac{-(Q_a - \lambda) + RT \ln 760 / P}{T} \quad (2.7)$$

Vodorod sulfid adsorbsiya jarayonidagi entropiya o‘zgarishi standart sharoitdagi holati uchun hisoblandi. Bu erda  $\lambda$  kondensatsiya issiqligi hisoblanadi,  $\square H$  va  $\square G$  – standart holatdan adsorbsiyalangan holatga adsorbsiya vaqtida entalpiya va erkin energiyaning o‘zgarishi. Adsorbsiya entropiyasi qiymatlaridan shuni izohlashimiz mumkinki, NH<sub>4</sub>ZSM-5 seolitiga vodorod sulfid molekulari dastlabki pog‘onali qismlarida kuchli lokalizatsiyalanadi.



3-rasm.  $N_4ZSM-5$  seolitida 303 K da  $H_2S$  adsorbsiya entropiya

Yutilgan asdorbat molekularining asosiy qismi standart holat entropiyasidan kichik bo'lishi kuzatildi. O'rtacha integral entropiya grafigidan manfiy qiymatlarda borishi, yutilayotgan har har bir molekula vodorod sulfidning ion-molekulyar komplekslar hosil bo'lishida entropiya qiymatining keskin o'zgarishlarga olib kelishini kuzatishimiz mumkin. Shuningdek, adsorbsiyaning boshlang'ich yutilishda differensial issiqlikgrafiga muvofiq, ( $\Delta S_d$ ) entropiya egri chiziqlari  $\sim 0,2$  mmol/g to'yinishgacha ko'tarilishi, keyin  $\sim 0,7$  mmol/g ga etganda entropiya qiymatini pasayishini va 2 mmol/gga etgunga qadar entropiya chizig'ini to'liqsimon ko'rinishda bo'lishi kuzatildi. Entropiya  $-54,64$  J/mol\*K dan  $-138$  J/mol\*K gacha egilish bilan chiziqli pasayib borishini kuzatish mumkin. Adsorbsiyaning o'rtacha molekulyar entropiyasi  $-67,45$  J/mol\*K bo'lib, u suyuq vodorod sulfidning entropiyasidan ancha pastda va seolit kanallaridagi adsorbsiyalangan molekularning harakatini cheklanganligini ko'rsatadi. 2,5 mmol/gdan keyin vodorod sulfid molekulari harakatchan holatda o'tib, entropiya chiziqlarini ko'tarilishi kuzatiladi. Jarayon oxirlashganda esa vodorod sulfid molekulari kuchli harakatchan holatda o'tadi.



**4-rasm.**  $\text{NH}_4\text{ZSM-5}$  seolitida 303 K da  $\text{H}_2\text{S}$  adsorbsiya muvozanat vaqti.

Vodorod sulfidning seolit kanallaridagi birinchi kislorod atomining kation bilan (0,2 mmol/g gacha) kichik to‘yinish sohasida adsorbsiya muvozanatini o‘rnatish vaqti 0,8 dan 4,8 soatgacha ko‘tariladi. Seolit matritsasidagi ikkinchi kislorod atomining kationga adsorbsiyalanishida ham muvozanat vaqtini biroz oshishi kuzatiladi, ya’ni 0,8 dan 2,3 soatgacha ko‘tarilib, to‘lqinsimon ko‘rinishda maksimum va minimum chiziqlar hosil qiladi va  $\text{H}_2\text{S}:\text{NH}_4^+$  ion-molekulyar kompleksni shakllantiradi. Dimer kompleks  $2\text{H}_2\text{S}:\text{NH}_4^+$  hosil bo‘lishida adsorbsiyalanish muvozanat issiqlik vaqti dastlab 1 soatgacha sekinlashadi, so‘ng qisman oshish bilan boradi. Har bir ion-molekulyar kompleks hosil bo‘lishida termokinetikani o‘zgarishi differensial issiqlik va entropiyalarga mos keladi. Jarayon oxirlashganda esa muvozanat vaqti 20 daqiqagacha pasayishi kuzatiladi.

## XULOSA

$\text{NH}_4\text{ZSM-5}$  seolitida vodorod sulfid boshlang‘ich to‘yinisdagi adsorbsiyalanish issiqligi 80,45 kJ/molga teng bo‘ladi. Adsorbsiyaning differensial issiqligi uchta bosqichda boradi, har bir pog‘ona to‘lqinsimon ko‘rinishda, o‘ziga xos issiqlik issiqliklariga ega bo‘ladi. Adsorbsiya issiqligining pog‘onasimon tabiatli umumiy

ko‘rinishiga sabab adsorbat-adsorbent ion-molekulyar kompleksining kanallarida bo‘lishidir. H<sub>2</sub>S:adsorbsiya izotermasi MHTN tenglamasi bilan tasvirlandi. NH<sub>4</sub>ZSM-5 seoliti kanallarida vodorod sulfid molekulari kuchli adsorbsiyalanadi. Dastlabki adsorbat molekulari adsorbsiyasida muvozanat vaqti 4,8 soat, jarayon oxirida esa 20 daqiqagacha pasayishi kuzatildi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Bakhronov Kh., Ergashev O., Karimov Kh., Abdulkhaev T., Yakubov Y., Karimov A. Thermodynamic Characteristics of Paraxylene Adsorption in LiZSM-5 and CsZSM-5 Zeolites //1st International Conference on Problems and Perspectives of Modern Science (ICPPMS-2021)". (Tashkent, 10-11June, 2021).Cite as: AIP Conference Proceedings 2432, 050056 (2022); Published Online: 16 June 2022.
2. Datka J., Tuznik E. Hydroxyl groups and sites in NaZSM-5 zeolites studied by i.r. spectroscopy//Zeolites. -1985. -v.5. -P.230-232.
3. Flanigen E.M., Bennet J.M., Grose R.W., Cohen J.P., Patton R.L., Kirdiner R.M. Silicalite a new hydrophobic crystalline silics molecular sieve//Nature. -1978. -v.271. -P.512-516.
4. Kokotailo G.T., Lawton S.L., Olson D.H., Meier W.M. Structure of synthetic zeolite ZSM-5//Nature. -1978. -v.272. -P.437- 438.
5. Mentzen B.F., Rakhmatkariev G.U. Host/Guest interactions in zeolitic nonostructured MFI type materials: Complementarity of X-ray Powder Diffraction, NMR spectroscopy, Adsorption calorimetry and Computer Simulations // Узб. хим. журнал, 2007. -№6. -С. 10-31.
6. Варгафтик Н.Б. Справочник по теплофизическим свойствам газов и жидкостей. – М.: Наука, 1972. – 720 с



## ANORNING DORIVOR XUSUSIYATLARINING INSON SALOMATLIGIDAGI ROLI

**Yusupova Moxidil Abdumutalibovna**

Biologiya fanlari falsafa doktori (PhD)

Fargʻona davlat universiteti

E-mail: [mohidil\\_yusupova@mai.ru](mailto:mohidil_yusupova@mai.ru)

**Mirzajonov Muxammadjon Tolibjon oʻgʻli**

4-bosqich talabasi, Fargʻona davlat universiteti

### ANNOTATSIYA

Aholining salomatligi mamlakat uchun katta boylik. Ekologik xavfsiz oziq-ovqat bilan taʼminlash, mevalarning dorivor xususiyatlarini qoʻllash orqali xalq salomatligini saqlash hozirgi kunda dolzarb vazifa hisoblanadi. Maqolada anorning dorivorlik xususiyatlari haqida soʻz boradi.

**Kalit soʻzlar:** anor, anor poʻsti, ildiz, virus, xalq tabobati, anor guli, damlama, sharbat.

### АННОТАЦИЯ

Здоровье населения – большое богатство для страны. Обеспечение экологически безопасными продуктами питания и защита здоровья людей за счет использования лечебных свойств плодов является актуальной задачей на сегодняшний день. В статье рассказывается о лечебных свойствах граната.

**Ключевые слова:** гранат, кожура граната, корень, вирус, народная медицина, цветки граната, настойка, сок.

### ABSTRACT

The health of the population is a great wealth for the country. Providing ecologically safe food and protecting people's health through the use of medicinal properties of fruits is an urgent task today. The article talks about the medicinal properties of pomegranate.

**Key words:** pomegranate, pomegranate peel, root, virus, folk medicine, pomegranate flower, tincture, juice.

## KIRISH

Anor shifobaxsh meva hisoblanib, xalq tabobatida kasalliklarni oldini olish va davolashda keng qo'llaniladi. Samarali shifobaxsh xususiyati nafaqat kasalliklarni davolaydi, balki inson organizimini yoshartiradi. Anor qadim zamonlardan shifobaxshligi bilan e'zozlanib, mevalarning sultoni hisoblangan. Anorning yuzlab turlari mavjud bo'lib, mevasi tarkibida organik kislotalar, vitaminlar, shuningdek mikroblarni yo'q qiluvchi moddalar mavjud. Anorning asosan poyasi, shoxi, guli, ildiz po'stlog'i va mevasi davo sifatida qo'llaniladi.

O'rta asrda Yevropalik tabiblar anor sharbatidan asablarni tinchlantirishda foydalanganlar. Xitoy tabobatida anor gullaridan tayyorlangan damlama ichburug', tishlarning qimirlab qolishi va tushib ketishiniyu oldini olishda foydalanilgan. Anor gullarining quritilgan kukuni turli jarohatlarga ishlatilgan. Hind tabibi Buxan anor daraxtining ildizidan lentasimon gijjalarni yo'qotishda foydalangan.

Anor sharbati organizmning immunitet tizimini faollashtiradigan va mustahkamlovchi tabiiy immunitet modulyatoridir. Kuniga katta stakan anor sharbati tanadagi metabolik jarayonlarni barqarorlashtiradi.

## ASOSIY QISM

Anor sharbatining tarkibida S, R vitaminlari, shuningdek uning V guruhi vitaminlari V6 va V12 hamda kaliy, kaltsiy, fosfor va temir minerallari bor. Vitaminlarning bunday birikmasi asab tizimi uchun foydali. Anor tarkibida dezinfektsiya ta'sirini ko'rsatuvchi moddalar bo'lib, u ichak buzilishlari, ich ketishiga qarshi kurashishda yordam beradi.

Anor sharbati tarkibida qand miqdori kam bo'lganligi uchun qandli diabet kasalligini oldini oladi. Kishi holatiga qarab, anor sharbatini 50 ml.dan to 100 ml.gacha kuniga 3 mahal qabul qilish mumkin. Bu meva sharbatini me'yorida ichish talab etiladi. Shuningdek anor nevroz, yurak o'ynog'i va jigarni yog' bosishidan ham himoyalaydi.

Anor sharbati tarkibida organik kislotalar, ayniqsa limon kislotasi ko'p. Anor sharbati oson hazm bo'ladi. U inson tanasiga tetiklik beradi. Qisqa vaqt ichida yangi anor gemoglobin darajasini sezilarli darajada oshiradi va anemiya bilan muvaffaqiyatli kurashadi.

Gemoglobin qon tarkibini hosil qiluvchi eng muhim qon sharchalari bo'lib, kislorodni qayta ishlash vazifasini bajaradi. Kamqonlikdan aziyat chekuvchi odamlar, ayniqsa homilador ayollar anor sharbati ichganidan so'ng qonidagi gemoglobin miqdori oshadi. Anor sharbati shishni, bosimni kamaytirishga yordam beradi. Shu bilan birga yurak faoliyatini qo'llab-quvvatlaydi, unga kaliy yetkazib beradi. Anor suvidan muntazam iste'mol qilish saraton paydo bo'lishi, ayniqsa prostata saratoni oldini oladi. U siydik hamda o't haydovchi, shamollashga qarshi, antiseptik, og'riq qoldiruvchi xususiyatlarga ega.

Gripp viruslarini yo'q qilish qobiliyatiga ega, u gripp infeksiyalariga qarshi juda samarali. U tarkibidagi antioksidantlar tufayli qonda oksidlanishni oldini oladi. Anor ekstrakti antibiotiklar bilan ishlatilganda chidamli bakteriyalarni ham yo'q qilishi mumkin. Yurak va qon tomirlari salomatligini himoya qilishni ta'minlaydi. U tomirlarning tozalashda profilaktik ta'sir ko'rsatadi.

Abu Ali ibn Sino anorning xosiyatlari haqida to'xtalib, nordonni safroni bosishi, chiqindilarning ichki a'zolariga oqishini to'xtatishi, po'sti, ayniqsa, kuydirilgani jarohatlar uchun dori bo'lishi, urug'i asal bilan birga tish og'rig'i va quloq og'rig'iga foyda keltirishini alohida ta'kidlagan. Xalq tabobatida anor po'stlog'i, mevasi, meva po'sti va guli istisqo (vodyanka), qo'tir, yo'tal, ichburug', sariq kasalliklariga davo sifatida qo'llaniladi.

Anor po'sti organizmni zaharlovchi ko'plab bakteriyalar hamda infeksiyalarni davolashda universal vositadir. Po'stlog'ining tindirmasi bilan qisqa muddatda (5-7 kunda) ichak yaralari, dizenteriya, disbakterioz, salmonelloz, gijja, vabo, qorin tifi va boshqa ko'plab kasalliklarni davolash mumkin. Anorning po'sti tarkibida bo'yovchi moddalar, kaliy, kaltsiy, magniy, temir, xrom, bor va boshqa makro hamda mikroelementlar mavjud.

Anorning po'sti, ildizi va shoxlarida pel'terin moddasi borligi uni boshqa o'simlik hamda mevalardan farqlaydi. Ma'lumotlarga qaraganda, Buqrot (Gippokrat) quritilgan anor po'stlog'i tindirmasi bilan kesilgan va chopilgan jarohatlarni davolagan, ya'ni yara ustiga toza paxtali matoga anor tindirmasi shimdirib bosilgan to jarohat tuzalguncha bu latta ho'llab, qo'yib turilgan.

Zamonaviy tibbiyotda anor mevasi va uning sharbati ishtaha ochuvchi, og'ir xastaliklarni boshidan kechirgan kishilarga darmon bag'ishlovchi vosita sifatida tavsiya etiladi. Ildizining po'stlog'idan tayyorlangan ekstrakt, po'stlog'i tarkibidagi pel'tyerinning tanin va sulfat kislotasi bilan umumlashmasi lentasimon gijjalarni tushirishda qo'l keladi. Meva po'stining qaynatmasi dizenteriya kasalini davolashda yaxshi natija beradi.

Anor mevalaridan odamni tinchlantirib, asabiy zo'riqishning oladigan choyni tayyorlash mumkin. Buning uchun pishgan mevaning po'stlog'i va pardevorlarini quritish lozim. Undan keyin esa choy yoki boshqa ichimlikka maydalangan quruq anordan biroz qo'shish mumkin.

Anorning shifobaxsh xususiyatlarida nafaqat kasalliklarda, balki kosmotalogiyada ham o'ziga xos o'rniga ega. Anor po'sti yuz terisiga foydali bo'lib, o'ta yog'li, husnbuzarlarga to'la va notekis yuzlar uchun anor po'stini zaytun yog'iga chala qovurib, biroz sovutib iliq holatda yuzga suritish tavsiya etiladi.

Anor urug'i yog'i teri hujayralarining yangilanishiga yordam beradi va uning ekstrakti quyosh yonishidan keyin terini mukammal tiklaydi va davolaydi.

Xulosa qilib aytganda, anorning shifobaxsh xususiyatlaridan keng foydalanish, xalq tabobatida qo‘llanilishi insonlar salomatligini saqlashdagi muhim omillardan biridir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Левин Г.М. Биология цветения граната в юго-западном Туркменистане // Изв. АН Туркменской Республике.-Сер. Биол. наук.-1978.-№5.-С.23-32.
2. Розанов Б.С. Культура граната в Россия // Сталинабад, 1961.-С.10-35. Шарипов З.Ш. Интродукция и селекция субтропический культур в Центральном Таджикистане // Автореферат дисс. ... д.сель.-х.н.-Душанбе,2004.-С.3-44.
3. Шарипов З.Ш. Черенкование граната в условиях Гиссарской долины // Мактаби Совета (Душанбе).-1989. -С.39-41.
4. Ahangarpour A., Heidari R., Abdolazadeh M., Oroojan A.A. Antispasmodic effects of aqueous and hydroalcoholic Punica granatum flower extracts on the uterus of non-pregnant rats // J. Reprod Infertil.-2012.-V.13(3).- P.138-142.
5. Aindongo W.V. Postharvest physiology and effects of modified atmosphere packaging and anti-browning treatment on quality of pomegranate arils and aril-sac (cv. Bhagwa) // Thesis presented in partial fulfilment of the requirements for the degree of master of Sci. Food Sci. (Stellenbosch University).-2014.-P.1-116.
6. Юсупова М., Мирзажонов М., Махкамова Д. Xalq tabobatida anorning dorivor xususiyatlaridan foydalanish. Материалы международной научно-практической онлайн конференции с участием международных партнерских вузов от 6-7 мая 2021 года. Народная медицина: прошлое и будущее. Фергана – 2021

## PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF PILGRIMAGE TOURISM (ON THE EXAMPLE OF KOSON DISTRICT)

**Safarov I.B.**

Karshi State University

**Rasulov F.I.**

Karshi State University

### ABSTRACT

The article explores the features of the development of pilgrimage tourism and the objects of pilgrimage tourism located in Koson district, and provides brief information about shrines, in addition, proposals and recommendations for the development of pilgrimage tourism in Koson district have been developed.

**Keywords:** pilgrimage, pilgrimage tourism, holy, stepping stone, journey, travel, natural objects.

The geographical position of the kashkadarya region, known for its unique nature and sacred shrines, is a unique Souli Ghosha. This article covers the objects of pilgrimage tourism and their research, located in Koson district, Kashkadarya region. Today, the tourism sector has become one of the fastest growing sectors among the sectors of the national economy. In recent years, the need to develop domestic and visiting tourism in our country and to make a delicacy has become extremely relevant. Especially in accordance with the decree of the president of the Republic of Uzbekistan dated February 9, 2021 “on measures for the further development of domestic and pilgrimage tourism in the Republic of Uzbekistan”[1] new stages of the development of pilgrimage tourism in the country have begun. From this, a number of works are being carried out on the development of pilgrimage tourism in our country.

Koson district is located 25 km from the Regional Center in the north western part of Kashkadarya region. The district is home to the Shrine of” Hazrati Qusam ota“, the Shrine of” the Blessed Father“, the shrines of” Isakhan and musakhan“. Shrines are becoming crowded with pilgrims every Wednesday of the week. This serves as a major factor in the development of pilgrimage tourism in the district.

Hazrati Qusam ota shrine is located in Pudina village in Koson district. The shrine is dated to the 11th-19th centuries. In the area where the shrine is located, there is a Pilgrim House, a mosque, a ablution Room, 3 gatehouses, several mausoleums, large or small. In the center is the mausoleum of the cleric Husam ota (who lived in the 11th

century), a pilgrimage site and two small dahmas (where his sons were buried), flanked by a mosque with 9 domes (dating from the 15th-17th centuries).[3] on the obverse side of the mosque, the east-facing side has 3 wide pedimented recessed entrances. The courtyard of the complex from time immemorial khushmanzara amazing fruit mulberry trees have reached our era. It has a one-room dahma on two sides and a two-room mausoleum of Mansur Muhammad. In the middle of the courtyard there was a pond with greenery around it. This complex is located in the center of the village of Pudina on the north west side of the city of Karshi 15 km away on the right side of the Karshi-Bukhara Highway. The beginning of activity as a cultural center in the 9th century was identified in the process of archaeological scientific studies of cultural monuments. Many references to the village of Fudina appear in the books of Arab historians. In particular, the "Tuhfatul-Zoirin" by the arab geographical scholar Nazareth ad Din al Hanafi provides valuable information about Fudina. Originally, the village of Fudina was called Tadiyona. That is why the great alloma Ahmad ibn Muhammad, who grew up from this village in the 10th century, took the pseudonym ad-Tadyoniy himself. Over time, the name of the village changed in the form of Pidiona, Fudina, Pudina. Ahmad ibn Muhammad at-Tadyoniy made a significant contribution to the development of the Hadith school in Fudinah. The life of ibn Muhammad Qusam Shaykh (also called Qusam Ota later), one of the great shaykhs of the Islamic world who lived in the late 12th and early 13th centuries, is associated with the village of Fudina. Qusam Shaikh is a descendant of Ahmad Yassawi, a famous cleric, a wisdom poet. Qusam Shaikh was a very learned, literal saint and pir and healer.[5]

The shrine of Father Sevinch is located in Pudina village in Koson district. A shrine of the Blessed Father and a mosque built with three domes are also located on the same site. The history of the mosque is also considered to date from the XVII-XVIII centuries. The joyful father Hazrati Qusam was one of the best, special servants of the father. It is noteworthy that the joyful father is still devoted to Father Qusam today. The fact is that in order to get to the Hazrat Qusam father complex, you will definitely have to go after purification from the joyful father. The word pilgrimage, translated from Arabic, means "journey", "journey". In the language of Turkic peoples, only it represents visiting local shrines for a religious purpose. Religious shrines are an area in which a large income can be generated by developing pilgrimage tourism at a low cost. There are dozens, hundreds of religious steps from all regions of our country. But the routes of visiting them are not clearly drawn up. We know only at the local level, that is, at the district or provincial level, that the abode of our selves, who have served a great service in the Islamic world, elevated to the rank of Saint, have found their abode. We can turn such holy shrines into objects of pilgrimage tourism at the Republican and international levels.

The Dardanelles ota pilgrimage is located in the village of Esaboy in Koson district. It is known from history that Khoja Bahouddin Naqshband, the founder of Naqshbandi sect, was born in 1318 in the village of Qasri Hinduwon near Bukhara. According to tradition, Bahuddin Naqshband visited the Nasaf area in 1334-1335 to visit the Holy steps in search of science. Bahauddin Qusam studied under Sheikh Hazrat. It is known that Bahauddin wrote in a side note in his Kez, where his grandfather taught lessons in the presence of Qusam Shaikh: “about half a mile (23 km) from the qusam SHAIKH We had a khilwatgah from the kunchikar side”. The sanctuary now corresponds to the Shrine of the Blessed Father. It turns out that in those times there was a large garden on the site of the shrine. The elderly living in this village say that in the presence of Qusam Shaykh Khaja Bahawuddin’s Highness, Poshshakhhol ota, Sultan Mirhaidar ota, Muradbakhsh ota, hazrati Kokota and Nurota Saints jointly exchanged views from the science of tariqat, among them were pained. It turns out that at the time of the conversations in this place, many caromats were served. It turns out that visiting the “brave father” is equivalent to visiting Seven Saints. It is believed that in the years of repression, the books and manuscripts of many of our allomas were buried in the place where there is a symbolic tomb in this place. The mausoleum is rectangular, domed, and the porch of Aldi, carrying two pillars. The shrine area was renovated in 2003. [3]

In conclusion, it can be said that today these shrines in the Koson district are visited by local residents mainly for religious-pilgrimage tourism purposes. In the coming years, the improvement of tourism infrastructure, reconstruction of tourist facilities, development of various tourist attractions in order to develop pilgrimage tourism by local authorities will serve as an important factor for the development of domestic tourism. This leads not only to the popularization of the district’s pilgrimage tourism centers on a local as well as regional and Republican scale, but also to an increase in income in the tourism and service sectors.

#### REFERENCES:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 9-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Farmoni//www.lex.uz
2. Убатов У. “Буюк алломалар” Тошкент. Ўзбекистон нашриёти. 2016 й
3. Qurbonov P.R., Safarov I.B, “Qashqadaryo viloyatida ziyorat turizmi” monografiya - Qarshi. 2022
4. Safarov I.B. “Geographical features of pilgrimage tourism (in the case of Kashkadarya region)” "Экономика и социум" №2(105) 2023 с/321-324
5. Асқаров А. “Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи”. Тошкент. Ўзбекистон нашриёти. 2016 йил
6. Қудратов Т. Тепа номлари-тарих даракчилари. Тошкент. 1989 й

## KORXONADA SOLIQLARNI REJALASHTIRISHNING AHAMIYATI VA YO‘LLARI

**Nao‘betova Ziyada Niyet qizi**

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti,  
Soliqlar va soliqqa tortish yo‘nalishi yo‘nalishi  
1-bosqich magistratura talabasi.  
E-mail: [ziyada.acca@gmail.com](mailto:ziyada.acca@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada soliqlarni rejalashtirish korxonada moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini rivojlantirishning bir omili sifatida ahamiyati ko‘rib chiqilgan va solishtirma misollar asosida soliqlarni rejalashtirishga bo‘lgan zarurat tahlil qilingan. Mavzu yuzasidan, xorijiy va mahalliy olimlarning soliq rejalashtiruvini haqidagi qarashlari o‘rganilgan hamda ilmiy xulosa va tavsiyalar shakllantirilgan.

**Kalit so‘zlar:** soliqlarni rejalashtirish, soliq xarajatlari, soliqdan qochish, aylanmadan olinadigan soliq, foyda solig‘i, dividend, qo‘shilgan qiymat solig‘i, soliq majburiyati.

### АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается значение налогового планирования как фактора развития финансово-хозяйственной деятельности предприятия и анализируется необходимость налогового планирования на основе сравнительных примеров. По теме были изучены взгляды зарубежных и отечественных ученых на налоговое планирование, сформулированы научные выводы и рекомендации.

**Ключевые слова:** налоговое планирование, налоговые расходы, уклонение от уплаты налогов, налог с оборота, налог на прибыль, дивиденды, налог на добавленную стоимость, налоговые обязательства.

### ABSTRACT

The article considers the importance of tax planning as a factor of development of financial and economic activity of an enterprise, using comparative examples the necessity of tax planning is analyzed. The views of foreign and domestic scientists on tax planning are studied, scientific conclusions and recommendations on the given theme are formulated.

**Keywords:** tax planning, tax expenses, tax evasion, turnover tax, income tax, dividends, value added tax, tax liabilities.



## KIRISH

Bozor iqtisodiyoti davrida xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘zlarining moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini strategik rejalashtirishi ularning raqobat bozorida barqaror tura olishiga zamin yaratadi. Har bir biznes o‘z moliyasini rejalashtirishning asosiy maqsadi bo‘lib, korxonalar sof foydasini va aylanma mablag‘larining hajmini imkon qadar oshirish va kutilayotgan xarajatlarni minimallashtirish orqali tashkilotning keyingi rivojlanishiga real imkoniyatlarni ochish hisoblanadi.

Ba‘zi hollarda, korxonalar soliq yukining asossiz ravishda oshib ketishiga sabab sifatida korxonalar o‘z soliq xarajatlarni boshqara olmasligi va noto‘g‘ri rejalashtirishning oqibati ko‘rsatiladi. Buning natijasida, ayrim korxonalar soliq xarajatlarni kamaytirish uchun qisman yoki to‘la yashirin iqtisodiyotga o‘tishning yo‘llarini izlashadi. Bu masala yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 24-martdagi “Jahon banki ishtirokidagi “Soliq ma‘muriyatchiligini isloh qilish” loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga asosan “Yashirin iqtisodiyot hajmini kamaytirish uchun soliq to‘siqlarini bartaraf etish” [1] loyihasi yo‘lga qo‘yilgan. Bu qaror ijrosi sifatida, tadbirkorlarga soliq rejalashtiruvining ahamiyatini va uning soliq xarajatlarni qisqartirishdagi ijobiy ta‘sirini tushuntirish tadqiqot mavzusining asosiy maqsadi va vazifasiga kiradi.

### Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Soliqlarni rejalashtirish insoniyat tarixida soliq tushunchasi yuzaga kelgan davrlardan beri mavjud va buni E.S. Vilkova va M.B. Romanovskiy o‘z ilmiy qarashlarida 3 ta davrga bo‘lib o‘rganishadi va uni quyidagi 1-jadvalda ko‘rishimiz mumkin.

### 1-jadval.

#### Soliqlarning va soliq rejalashtiruvining davriyligi [2].

Davr	Soliq rejalashtirilishining iqtisodiyot nazariyasidagi ifodasi	Soliq to‘lovchi tomonidan soliq rejalashtiruvining amaliyotda qo‘llanishi
1. Qadimgi dunyo. O‘rta asrlardan XVII asrgacha (dastlabki soliq elementlarining paydo bo‘lishi)	Soliqqa tortishning ilmiy nazariyasi yo‘q.	Soliqlarni rejalashtirish tizimsiz, yakka xarakterga ega. Yuqori martabali shaxslargina qo‘llay oladi.
2. XVII asr oxiri - XIX asr	Soliqqa tortish masalasida ilmiy nazariyalar shakllana boshlagan, ammo soliq rejalashtirish haqida ma‘lumot hali mavjud emas.	Jismoniy shaxslar tomonidan soliq rejalashtirish qo‘llanib kelmoqda, korxonalar miqyosida endi boshlanish arafasida.
XX asr boshidan hozirgi kungacha	Soliq rejalashtiruv nazariyasining paydo bo‘lishi va rivojlanishi.	Xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan oliq rejalashtiruvining qo‘llanilishi.

Quyidagi jadvaldan ko‘rishimiz mumkinki, garchi soliq rejalashtiruvchi soliq munosabatlari yuzaga kelgan o‘rta asrlarda paydo bo‘lgan bo‘lsa ham uning hech qanaqa nazariy asosi bo‘lmagan va insonlar tomonidan intuitiv tarzda amalga oshirilgan. Nazariya sifatida esa, XX asrdan fanga kiritilgan.

Bundan tashqari, soliqlarni rejalashtirish masalasida hozirgi zamon xorij iqtisodchi olimlari turli ta‘riflar berib o‘tishgan. Xususan, iqtisodiyot fanlari nomzodi O.V. Belynskaya o‘z ilmiy ishlarida “Soliqni rejalashtirish-bu murakkab tashkiliy-iqtisodiy mexanizm bo‘lib, uning tarkibiy elementlari nafaqat iqtisodiy asoslashni va buxgalteriya hisobini (hujjatlar, yozuvlar va boshqalar), balkim xo‘jalik yurituvchi subyektning umumiy strategik rejalashtirish doirasida soliq to‘lovlarini minimallashtirish uchun amaldagi qonun hujjatlaridan qonunchilikni buzmasdan foydalana olishi hisoblanadi”[3].

Yana bir maqbul ta‘rifni T.G. Sheshukova va I.S. Lobanov ilmiy ishlarida “Zamonaviy sharoitda soliqni rejalashtirish bu faqat soliq to‘lovchining soliq to‘lovlarini optimallashtirish usuli bo‘lishnigina to‘xtatadi. Bu biznesning ajralmas qismiga, moliyaviy va boshqaruv faoliyatining turiga aylanadi. Soliqni rejalashtirish bugungi kunda nafaqat soliq to‘lovlarini optimallashtirishga va minimallashtirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak, balkim korxonaning moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini samaradorligini oshirishga qaratilishi lozim”[4] degan fikrlar bilan bo‘lishgan.

K.O. Xarlamov o‘z ilmiy ishida soliqlarni rejalashtirish yuzasida quyidagi fikrlarni aytib o‘tganlar “Bizning fikrimizcha, soliqni rejalashtirish va prognoz qilishni xo‘jalik yurituvchi subyekt darajasida soliq ko‘rsatkichlarini doimiy ravishda sozlash uchun moslashuvchan axborot muhitini shakllantirishning yagona jarayoni deb hisoblashimiz kerak. Soliqni rejalashtirish asoslari nafaqat xo‘jalik yurituvchi subyektning buxgalteriya siyosatining mavjud elementlarini, balki qonunda belgilangan barcha soliq imtiyozlaridan to‘g‘ri va to‘liq foydalanishni, shuningdek soliq to‘lovlarini kechiktirish va to‘lash imkoniyatlarini tahlil qilishni o‘z ichiga oladi”[5].

Tadqiqot mavzusi yuzasidan mahalliy olimlarimizning fikrlarini o‘rganadigan bo‘lsak, xususan S.A. Giyasov “Soliq rejalashtirish – bu real iqtisodiy sharoitlarni hisobga olgan holda, soliq tushumlarining iqtisodiy asoslangan prognozlar tizimidir. Soliq rejalashtirishning asosiy vazifasi amaldagi soliq qonunchiligi asosida mamlakat ijtimoiy iqtisodiy dasturlarining sifat va miqdoriy ko‘rsatkichlarini ta‘minlashdan iboratdir” [6].

D.Shaulovning nazariy qarashlariga e‘tibor beradigan bo‘lsak, “Soliqlarni samarali rejalashtirish soliq xarajatlarini optimallashtirish, korxonaning foydasini oshirish hamda ishlab chiqarishni yanada rivojlantirish bo‘yicha moliyaviy salohiyatini kengaytirish imkonini beradi, bu esa oxir-oqibat soliq solinadigan bazalarning ortishiga va byudjetga to‘lanadigan soliqlar summasining oshishiga olib keladi”[7].

Xorij va mahalliy olimlarimizning fikrlarini inobatga olgan holda, shunday xulosa qilishimiz mumkinki, soliqlarni rejalashtirish - bu korxonada sof foydasini oshirish uchun soliq xarajatlarini optimallashtirishga va qonunchilikdagi mavjud imtiyozlardan foydalangan holda soliq yukini qonuniy ravishda yengillashtirishga qaratilgan hatti-harakatlar majmui deb ifodalasak bo'ladi.

### **TADQIQOT METODOLOGIYASI**

Tadqiqot jarayonida bir qancha iqtisodiy tahlil metodlaridan, xususan mantiqiy abstraksiyalash, iqtisodiy analiz va sintez, monografik tadqiqot, ma'lumotlarni to'plash va guruhlash, iqtisodiy qiyoslash, induksiya va deduksiya metodlaridan foydalanildi.

### **TAHLIL VA NATIJALAR**

Har bir tadbirkor o'z faoliyati darajasida soliqlarini rejalashtirishda quyidagi prinsiplarga asoslanadi [2]:

- Hisoblangan soliqning minimal miqdorini to'lash;
- Soliq majburiyatini to'lashning eng oxirgi kunigacha qoldirish;
- Qonun doirasida belgilangan soliq imtiyozlaridan maksimal ravishda foydalanish;
- Maxsus buxgalteriya hisoblash usullari orqali soliq solish bazasini kamaytirishga harakat qilish.

Soliqlarni rejalashtirish hozirgi kunda biznes moliyaviy menejmentining instrumentlaridan biri bo'lib, har bir biznes egasi uni o'z faoliyatida qonuniy, va noqonuniy tarzda qo'llashi mumkin.

Qonuniy ravishda soliqlarni rejalashtirish biznes egasi tomonidan faoliyatini boshlash nuqtasida soliq majburiyati yuzaga kelmasdan oldin paydo bo'ladi va bunga boshlamoqchi bo'lgan biznes faoliyatini qaysi hududda soliq organida hisobdan o'tish, soliq to'lovchining faoliyatini soliqlar va huquqiy aspektlari jihatdan optimal tashkiliy tuzulmada ochish va to'g'ri soliq rejimini tanlashdan boshlanadi. So'zimizning isboti sifatida, potensial tadbirkor o'z faoliyatini startup tarzida boshlamoqchi bo'lsa, Toshkent shahridagi MCHJ "Inno texnopark" rezidenti sifatida ushbu texnopark hududida o'z faoliyatini boshlashi, unga prezidentimizning "2022-2026-yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini amalga oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga muvofiq 2022-yil 1-avgustdan 2028 yil 1-yanvargacha barcha soliqlarni (ijtimoiy soliqdan tashqari) to'lashdan ozod etish huquqini beradi [8]. Bundan tashqari, 2022-yil 31-avgustdagi prezidentimizning PF-213 sonli qaroriga ko'ra, Qoraqalpog'iston Respublikasida o'z faoliyatini olib boruvchi tadbirkorlik subyektlari 2023-yil 1-yanvardan 2028-yil 1-yanvargacha foyda solig'i, aylanmadan soliq, yuridik shaxslarning mol-mulk solig'i, yuridik shaxslarning yer solig'ini 2 baravar pasaytirilgan stavkada, ijtimoiy soliqni esa 1 foiz miqdorda to'lashi mumkin. Garchi bu imtiyozlar hududlar kesimida vaqtinchalik

davrga berilgan bo'lsa ham, endigina faoliyatini yuritmoqchi bo'lgan biznes egasiga ma'lum vaqt davomida soliq xarajatlarini minimallashtirishga va tejalgan pul mablag'larini faoliyatini kengaytirishga yo'naltirishi mumkin.

Huquqiy nuqtai nazardan soliqlarni optimal rejalashtirishda bo'lajak korxonaning faoliyati va moliyaviy strategiyasiga ko'ra, to'g'ri tashkiliy shaklda ochish va soliq rejimlarini to'g'ri tanlay olish ham soliq yukini kamaytirishda katta ahamiyatga ega. Misol tariqasida, korxonaning realizatsiya qilayotgan mahsulotiga qo'yayotgan marjasi 18 foizgacha bo'lgan miqdorda bo'lsa korxonaga umumbelgilangan soliq tizimida foyda solig'i va QQS to'lovchisi sifatida faoliyat yuritishi unga soliq summasi aylanmadan olinadigan soliq rejimidan ko'ra kamroq miqdorda hisoblanishi imkonini beradi, 18 foizdan yuqori marjada esa aylanmadan olinadigan soliq rejimiga o'tish iqtisodiy jihatdan soliqlarni kamroq hisoblanishiga asos bo'la oladi deb hisoblasak bo'ladi. Taxminimizning isboti sifatida quyidagi masalani ko'rib chiqishimiz mumkin. Masala shartiga ko'ra tadbirkor tannarxi 100 000 so'mlik bo'lgan tovarlarni sotib oldi va uning barchasini realizatsiya qildi. 12% stavkada hisoblangan tovarlarning jami QQS summasi 12 000 so'mga teng. Foyda solig'i stavkasi - 15%.

## 2-jadval.

### 1-vaziyat: Korxonaga QQS va foyda solig'i to'lovchisi

Marja, %	Sotish narxi, so'm	Hisoblangan QQS, so'm	Foyda, so'm	To'lanadigan QQS, so'm	Foyda solig'i, so'm	Jami soliqlar, so'm
15	115000	13800	15000	1800	2250	4050
19	119000	14280	19000	2280	2850	5130
30	130000	15600	30000	3600	4500	8100

Manba: Jadval muallif tomonidan mustaqil ishlab chiqildi.

C) Xayvonlarni harakatdan to'xtatish yoki tinchitish maqsadida ishlatiladigan buyruq-xitob undovlari ham bor: dirr, tok, xo'o'sh, ho'o'q, ish va shu kabi. Undovlar o'ziga xos sintaktik xususiyatlarga egadir. Ular bir tarkibdan iborat bo'lgan ayrim gap sifatida buyruq, istak, xis-hayajon kabi tuyg'ularni ifodalaydi. Bunday gap ega va kesimga bo'linmaydi. Undov maxsus grammatik shakllarsiz ohang yordami bilangina gap yoki gap bo'laklaridan biri bilan bog'lanadi, bir gapda va uning ma'nosini kuchaytiruvchi vazifani bajaradi.

Takroriy emotsional undovlar, buyruq-hitob undovlari, urf odat va tabrik undovlaridan boshqa hamma undovlar ana shu vazifani bajaradi.

- E, xalqqa nima ta'sir qilar edi! - Dedi G'olib.

- turibdida, eski qabr...

- E, qarshimisiz, G'olibboy?! Menga maslahat berish o'rniga bu qabrning yonini olasizmi?

- Kim biladi, balki bu bir shayxning mozoridir? Balki bir eshonning, mullaning qabridir?

Bo'lishi mumkinmi?

Juda mumkinda!

Shunaqa!

- He, qo'ysangizchi, men qayerdan bilay (Sh.X.94). Undovlar otlashib ega, aniqlovchi, to'ldiruvchi, kesim vazifalarida qo'llanadi.

Undov so'zlar morfologik tarkibiga ko'ra uch xil – sodda, takroriy, juft bo'ladi. Sodda undovlar morfologik jihatdan ma'noli qismlarga bo'linmaydi: E, xmm. tsss, exa, uxu, oh, uf, obbo, xov, ey kabilar. *E, bu yerning qayeri kam Qrimdan! Nima dedinglar.* (A.Muqimov).

Takroriy undovlar tarkibida hech qanday tovush o'zgarishi yuz bermaydi. Ular emotsiyani, ekspressivlikni kuchaytirish uchun ishlatiladi. *Oh-oh, mening malikalarim.* Takroriy undovlarning qismlari ikkitadan ortiq bo'lishi ham mumkin: *E-e-e, -qoshini chimirib ta'naomo'z tikildi.* Manzura.(O).

Juft undovlarga : Oh-xo, ux-xu, ex-xa, voy-bu, voy-vuy, voy-dod, ex-voh, kabilar kiradi. *E-xa! Mirtojiboyning kiziman deng, uxshamaysiz!* Yo.Shukurov.

Undov so'zlarning sintaktik xususiyatlariga ularning gapning boshqa bo'laklari bilan biror grammatik aloqaga kirishmasligini, faqat mazmunan gapga umumiy aloqali bo'lib, ular ba'zan asosiy gapning ekvivalenti, ba'zan esa shu gapning yakuni sifatida



qo'llanadi. Undov so'z asosiy gap ichida kelganida shu gapdan ifodalangan umumiy ma'noga so'zlovchining munosabatini bildiradi, unga emotsional bo'yoq beradi. Gapda undovlar undalma, prepozitiv yuklama vazifasida ham keladi. Gapdan tashqarida undovlar o'ziga xos ohangdagi so'z-gap tarzida shakllanadi. Undov sof xolda biror savolga javob bera olmaydi va gap bo'lagi vazifasini bajara olmaydi ham. Undov so'zlar gapda ifodalangan umumiy mazmunga nisbatan so'zlovchining ijobiy yoki salbiy emotsiyasini bildirishi bilan modal so'zlar va yuklamalarga o'xshaydi.

Tilshunos olim Sapayev Q. Hozirgi o'zbek tili (morfemika, so'z yasalishi va morfologiya) o'quv qo'llanmasida undov so'zlar haqida quyidagicha ma'lumotlarni aytib o'tgan: "Undov so'zlar kishilarning his-hayajonini, buyruq-xitob, haydash, chaqirish ma'nolarini ifodalaydi. Undov so'zlar leksik ma'no ifodalay olmasligi, kelishik, egalik, son affikslarini olmasligi jihatidan mustaqil so'zlardan farq qiladi. Shuningdek, nutqda boshqa so'zlar bilan grammatik aloqaga kirisha olmasligi, gapning biror bo'lagi vazifasini bajara olmasligi ham bu so'z turkumining asosiy xususiyatlaridan biridir. Ular faqat otlashgandagina gapning bosh yoki ikkinchi darajali bo'lagi vazifasini bajarishi mumkin.[4 ] Masalan: Oh urarman, ohlarim ursin seni. (Qo'shiqdan).

Undovlar intonatsiya jihatidan juda ham rang-barangdir. Bir undovning turli xil intonatsiya bilan talaffuz etilishi ularning ma'nosiga ta'sir qiladi. Masalan: «Oh» qanday go'zal manzara gapidagi oh undovi bilan «Oh», zolim falak, yiqil boshimga gapidagi oh undovining ma'nosi bir xil emas". Undov so'zlarni ikkiga guruhga bo'ladi. Undovlar ma'nosiga ko'ra ikki xil bo'ladi: a)hishayajon (emostional) undovlar; b) buyruq-xitob undovlari.

1.His-hayajon (emotsional) undovlari so'zlovchining tuyg'ulari, kechinmalari, turli his-hayajonini bildiradi. Oh, eh, e, voy, o'hho', ehhe, ohho, uh, ma, hi (him), be, hoy, he, ey, ha, uf, tuf, dod, voy, voydod, obbo, ura, o'ho', eha, ehhe, ie, huv, hay, hey, bas, rahmat, qani, salom, xayr, ofarin, balli, barakalla, ana, mana, be. His-hayajon bildiruvchi undovlar ham o'z navbatida ma'lum guruhlarga ajratib, misollar asoslab beradi. 1) sevinch, shodlik, ko'tarinki ruhiy holatni ifodalaydi. Masalan: «Oh», qanday go'zal manzara! «O», quyosh zarchisi, berib xushxabar, Hayot rubobini sayratguvchisan; 2) xafalikni, og'ir ruhiy holatni ifodalaydi. Masalan: «E-voh», osmon yiroq, yer qattiq! Charxing buzilsin, falak! (P.Tursun). Hay, attang. Qani, o'rtoq Odilov, siz ayting, shu gaplar rostmi? (A.Qahhor); 3) taajjublanish, hayratlanish, ajablanish, kutilmaganlik, shubha, ikkilanish, e'tiroz kabilarni ifodalaydi. Masalan: «Bay-bay-bay». Mening hasratim siznikiga urvoq ham bo'lmas ekan (P.Tursun).

2.Buyruq-xitob (imperativ) undovlarga esa quyidagicha ta'rif beriladi. Buyruq - xitob undovlari ogohlantirish, xitob qilish, taklif, chaqiriq, buyruq, man qilish, do'q qilish, haydash kabi ma'nolarni bildiradi. Buyruq - xitob undovlari quyidagilar: o'h,

oh, hey, hoy, hay, ey, obbo, balli, rahmat, salom, hormang, xayr, xo'sh, cho'k, kuch-kuch, tu-tu, beh-beh, pish-pish, mosh-mosh, ho'-ho', gah, kisht, kisht-kisht, chuh, ishsh, xo'sh, cho'k, mo'h-mo'h kabilar. Shu bilan birga buyruq-xitob undovlariga quyidagi misollarni keltirib o'tadi. Misollar: «Oh-oh-oh», shunday shoirlarning sadag'asi bo'lsang arziydi. (Oybek). «O'h», nega bunday qilding, jon uka? (A.Muxtor.) «Obbo» jiyani-e, biznikini topib keldingmi? (Oybek). Ha «balli»! Ana endi o'zingizga keldingiz. (Uyg'un) Olima Sayfullayeva R., tadqiqotida taqlid so'zlarni ot, sifat, son, ravish, olmosh, fe'l so'z turkumlari kabi mustaqil ma'no anglatishini aytib o'tadi. O'zbek tilshunosligida so'z-gapning mohiyati, turlari, ularning leksik materiali tavsifi, qo'llanish xususiyati empirik asosda yetarlicha o'rganilgan. Substantsial yondashuvda gapning eng kichik qurilish qolipi [WRm] sifatida e'tirof etilgach, ziddiyatli, izohtalab nuqtalarga ega bo'lgan so'z-gapga ham «lison-nutq» tamoyili asosida yondashish zaruriyati paydo bo'ldi va har bir gapning o'z qolipi mavjud bo'lgani kabi, so'z-gapning ham o'ziga xos muayyan bir lisoniy qurilish modeli bo'lishi shartligi e'tirof etildi,- deb aytib o'tadi. So'z-gap o'z ichida bir necha ma'noviy guruhga ajraladi: 1. Modal. 2. Undov. 3. Tasdiq-inkor. 4. Taklif-ishora.

Shunday qilib, kishilarning his-tuyg'usini, haydash, to'xtatish kabi xitob, buyruqni ifodalaydigan so'z-gap ko'rinishi undov so'z-gap. His-tuyg'u undoviga [eh], [voy], [oh], [barakalla], [rahmat], [ofarin] kabi so'z, buyruq -xitob undovlariga [pisht], [beh-beh], [pisht-pisht], [chuh] kabi xitob so'z kiradi. Ular tinglovchiga qaratilgan bo'lib, uni biror ish-harakatni bajarishga undaydi. Tilshunos olim Sh.Rahmatullayev esa undov deb, avvalo, kishining hishayajonini bevosita ifodalaydigan tovush birliklariga aytiladi: oh, eh, uh, uf, e, be, voy, a, o, iye, he, hah, ehha, o'hho', voydod kabi.

Ba'zi undovlar aniq bir hishayajonni ifodalashga xoslangan bo'ladi. Masalan, *be* undovi rozi bo'lmaslik, qo'shilmaslik kabi his-hayajonni ifodalaydi. Tinglovchining diqqatini tortish uchun ishlatiladigan *hoy* undovi ishlatiladi. Ko'pchilik undovlar esa har xil ohang bilan aytilib, turli his-hayajonlarni ifodalashga xizmat qiladi. Undovning turli ma'nolari deb talqin qilinadigan bunday hodisa nutq sharoitida, kontekstda (qurshovda) aniqlashadi. Masalan, *eh* undovi "sevinch"ni ifodalash uchun ishlatilsa, bir ohang bilan, "xafalik"ni ifodalash uchun ishlatilsa, boshqa bir ohang bilan talaffuz qilinadi. Ayni bir undovning bunday turli hishayajonni ifodalashini yozuvda aks ettirish qiyin. Shu tufayli undov bilan yonma-yon keladigan jumla tarkibida undovning qanday his-hayajonni ifodalab kelayotganini aniqlashtiruvchi vositalar ishlatiladi: Eh, qanday go'zal manzara! Undovlarga xos ana shunday ko'pqirralilik ularni ma'no ifodalashga ko'ra tasniflashni qiyinlashtiradi. Adabiyotlarda undovlarning ikkinchi ma'no turi deb xitob birliklariga aytiladi. Bular his-hayajon birliklaridan keskin farq qiladi: biror harakatni qilish-qilmaslikka ko'rsatma beradi. 1) Harakatni bajarishga

chaqiruvchi undovlar hayvon va parrandalarga nisbatan ishlatilishga xoslangan: chu, tss (otga), xix (eshakka) v.h. 2) Harakatni bajarmaslikka chaqiruvchi undovlar ham asosan hayvon va parrandalarga nisbatan ishlatishga xoslangan: dirr, tak (otga), ish (eshakka) v.h

Undovlarning alohida guruhi-kishilar orasidagi muomala murojaat birliklari keltiriladi. Undovga aylanmagan, hali leksemalik xususiyatini saqlagan bu birliklarni undov turkumiga kiritish o'ta shartli bo'lib, quyidagicha ma'nolarni bildirish uchun xizmat qiladi: 1) ko'rishishni, xayrlashishni bildiradi: assalomu alaykum, xayr v.h 2) tabrik, istak, minnatdorlik va unga javobni bildiradi: hormang – bor bo'ling, salomat bo'ling; qutlug' bo'lsin - qulluq; rahmat - arzimaydi kabi. 3) Biror faoliyatni ko'tarinki ijobiy baholashni bildiradi: balli, barakallo, ofarin kabi.

Xulosa qilib aytsak, undovlar o'zgarmas so'zlar va ular grammatik ma'no hosil qiluvchi maxsus qo'shimchalarga ega emas. Ayni shu xususiyati bilan mustaqil so'z turkumlaridan farq qiladi. Undovlar o'zbek tili tarixining barcha davrlarida qo'llangan va ular, odatda, so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi kommunikativ munosabatlarni ta'minlashga xizmat qilgan. Undovlar asosan tinglovchining diqqatini tortish, u bilan munosabat o'rnatish, fikrni unga qaratish, shuning bilan birga, kuchli his-hayajonni ta'minlash, ba'zan hayratlanish kabi ma'nolarni ifodalash uchun qo'llanishini xulosa qilishimiz mumkin.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 1-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – Б.6.
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 1-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – Б.8.
3. Sh.Rahmatullayev Hozirgi adabiy o'zbek tili (darslik) Toshkent: "Universitet" 2006.
4. Sapayev Q. Hozirgi o'zbek tili (morfemika, so'z yasalishi va morfologiya) o'quv qo'llanmasi.

UDK: 625.096

## SHAHAR JAMOAT TRANSPORTIDA YO‘LOVCHILARNI TASHISHNI TASHKIL ETISH (QARSHI SHAHRI MISOLIDA)

**Yusupov Akbar Eshquvvatovich**  
Qarshi Muhandislik Iqtisodiyot Instituti

### ANNOTATSIYA

Qarshi shaxrida yo‘lovchilarga transport xizmati ko‘rsatish yetarli darajada emas va axoliga transport xizmat ko‘rsatish uchun transport vositalari to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilmagan, Qarshi shaxrida avtobus yo‘nalishlari kam, axoli gavjum xududlarda avtobus transport xizmatlari mavjud emas, axoliga transport xizmatlarini ko‘p qismini yengil avtomobil taksilarda bajariladi bu esa hozirgi kun davlat talabiga javob bermaydi.

**Kalit so‘zlar:** avtotransport vositalari, yo‘lovchilar tashish, yo‘nalish koeffitsiyenti, aholiga xizmat ko‘rsatish, yo‘lovchilar oqimini o‘rganish.

### АННОТАЦИЯ

В городе Карши услуги пассажирского транспорта недостаточны, а автомобили не оборудованы должным образом для обслуживания населения. В Карши мало автобусных маршрутов, в густонаселенных районах автобусное сообщение отсутствует, а большая часть транспортных услуг обеспечивается легковыми автомобилями и такси, что не соответствует современным государственным требованиям.

**Ключевые слова:** транспортные средства, пассажиропоток, соотношение маршрутов, коммунальные услуги, пассажиропоток.

### ABSTRACT

In the city of Karshi, passenger transport services are insufficient, and cars are not properly equipped to serve the population. There are few bus routes in Karshi, there is no bus service in densely populated areas, and most transport services are provided by cars and taxis, which do not meet modern state requirements.

**Key words:** vehicles, passenger traffic, ratio of routes, utilities, passenger traffic.

Tarixdan ma‘lumki insonlar o‘z ehtiyojlarini qondirish ushun yashash uchun harakat qilganlar yaxshi yashash uchun ko‘rashganlar, bir joydan ikkinchi joyga borish

uchun korvon yo'llari barpo qilganlar, karvonlar yurt obodonchiligi va yuksalishiga, xalqlar o'rtasidagi do'stlik rishtalarini mustahkamlashga xizmat qilib kelganlar. Biz agar majoziy ma'noda o'zimizning ishimizni ularning davomchisi deb hisoblasak, mustaqil mamlakatimiz ravnaqi uchun shaharlarni shaharlarga ulashga, ellarni ellar bilan oshna qilishga, eng asosiysi, yo'lovchilarni sog' salomat manziliga yetkazish yo'lida xizmat qilishga jazm qilganmiz. Avtomobil transporti yo'lovchilar tashishda eng ommabop tashish vositasi hisoblanadi.

Transport infratuzilmasini yaxshilash va avtomobil transport xizmat ko'rsatish korxonalar faoliyatini tizimli tashkil qilish, aholi va transport korxonalari munosabatlarini uyg'unlashtirish, mamlakat iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlash imkonini beradi. Shu jihatdan O'zbekiston avtomobil transporti tizimi korxonalari faoliyatini chuqur tahlil etish va innovatsion faoliyatni takomillashtirish bo'yicha o'rganishlarni olib borish bugungi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi. Bugungi kunda transport korxonalari o'z faoliyatini qayta ko'rib chiqishlari va uni yo'lovchilar talabini qondirishga qaratishlari kerak.

Qashqadaryo viloyati va Qarshi shahri axolisiga, shu jumladan, iqtisodiyotning barcha sohasida faoliyat ko'rsatayotgan ishchi xizmatchilarga, o'quv muassasalarida ta'lim olayotgan o'quvchilarga yuqori sifatli transport xizmatini ko'rsatish avtomobil transporti oldida turgan eng muhim masaladir. Bugungi kunda hech bir fuqaroning harakatini (bir manzildan boshqasiga borishini) transportsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Hozirgi kunda Qarshi shahrida transport vositalari, xususiylashuvchilar xizmat ko'rsatishyabdi va o'zaro raqobat mavjud. Xususiylashuv bilan shug'ullanuvchi korxonalar o'rtasida erkin raqobat har bir sohada xo'jalik faoliyatini rivojlantirish, tashkil etish va boshqarishning yangidan yangi tizimlarini va texnologiyalarini ishlab chiqishni taqozo etadi, aks holda, ularning inqirozga uchrashlari mumkinligi mustaqillikning dastlabki yillaridayoq amalda isbotlandi.

Hayot shuni ko'rsatayaptiki, kelgusida O'zbekiston Respublikasining iqtisodiyotini yanada rivojlantirish, kelajagi porloq buyuk davlatga aylanishini bozor iqtisodiyoti sharoitiga mos, yangicha fikrlay oladigan va chuqur bilimga ega bo'lgan kadrlarsiz amalga oshirib bo'lmaydi.

O'zbekiston Respublikasi hukumati avtomobilsozlikni rivojlantirish bilan bir vaqtda, avtomobil yo'llari va transporti, shahar transporti, yo'l harakati xavfsizligi, shahar transportidan bepul foydalanish to'g'risidagi Qonunlar, bir qancha qarorlar qabul qildi va ular asosida shahar yo'lovchi transportini rivojlantirish konsepsiyalari va bir qancha nizomlar ishlab chiqildi.

Bugungi kunda konsepsiyada ko'zda tutilganidek, mo'jaz avtobuslarda (yo'nalishli taksilar) va yengil avtomobil taksilarda yo'lovchilarni tashish asosan xususiylashuvchilar (yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan) tomonidan amalga

oshirilmoqda. Biroq, avtotransport xizmatlari ko'rsatish tizimini, ayniqsa, qishloq joylarda takomillashtirish ishlarini bundan buyon ham faollashtirish, xizmat ko'rsatish sifatini yanada oshirish zarur. Qabul qilingan qaror aynan respublikaning shahar va qishloqlarini avtotransport xizmatlari bilan ta'minlashni yanada yaxshilashga, yo'lovchilar tashish xavfsizligini oshirishga qaratilgan.

Shahar aholisiga ish joylariga, yashash joylariga, dam olish va boshqa maishiy talablarini qondirish joylariga qisqa vaqtlarda yetib borishlari uchun transport vositalari talab etiladi.

Tashishga bo'lgan talab shahar hududining o'lchamiga, aholining moddiy ta'minlanganligi va madaniyat darajasiga ko'p jihatdan bog'liqdir. [2]

Shahardagi ko'cha va yo'laklardan o'tadigan avtobus yo'nalishlari shahar avtobus tarmog'ini tashkil etadi.

Barcha turdagi transport (avtobus va tramvay) yo'nalishlari birgalikda shahar transport tarmog'ini tashkil etadi.

Shahar transport tarmog'iga qo'yilgan talablardan eng asosiylariga quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- iloji boricha ko'zlangan manzilga bitta transportda yetib olish;
- manzilga kam vaqt sarf qilib tez yetib borish;
- transport vositasidagi yo'lovchilar soni uning meyoriy sig'imidan katta bo'lmasligi;
- yo'lovchilar xavfsizligini ta'minlash.

Yo'nalish tarmog'ini tanlash va asoslash yo'lovchi oqimining taqsimlanishiga bog'liq bo'ladi.

Yo'nalishlarni to'g'ri tanlash yo'lovchilarni manzillariga yetib borishi uchun sarflaydigan vaqtini kamaytiradi va transport vositalaridan foydalanish samaradorligini oshishiga olib keladi.

Yo'nalishlar tizimining tarmoqlanishini tavsiflash uchun yo'nalish koeffitsiyentidan foydalaniladi.

Yo'nalish koeffitsiyenti ( $K_y$ ) barcha avtobus yo'nalishi uzunligini ( $\sum L_y$ ) avtobus yo'nalishlari o'tgan ko'cha va yo'llarning uzunligiga ( $L_m$ ) ya'ni avtobus tarmog'i uzunligiga nisbati bilan aniqlanadi:

$$K_y = \frac{\sum L_y}{\sum L_m}$$

Yo'nalish koeffitsiyenti qancha katta bo'lsa, yo'lovchilarga shunchalik qulay sharoit yaratiladi. Misol. Shahardagi barcha avtobus yo'nalishlarining uzunligi 2000 km va bu yo'nalishlardagi yo'llarning uzunligi 1000 km bo'lsin. U holda yo'nalish koeffitsiyenti:

$$K_y = \frac{2000}{1000} = 2 \text{ bo'ladi}$$

Transporti tarmog'i yaxshi rivojlangan shaharlar uchun bu ko'rsatkich 2-2,5 transport tarmog'i kam rivojlangan shaharlarda esa 1,2 – 1,3 ga teng bo'ladi.

Qarshi shahrida bu ko'rsatkich 1dan ham kam. Shu sababli Qarshi shahrida avtobus yo'nalishlarini oqilona tashkil etish tafsiya etiladi. [4]

Yangi yo'nalishlar ochish va bu yo'nalishlarda ishlaydigan yangi zamonoviy avtobuslar sotib olish hamda ularni to'g'ri yo'nalishlarga yo'naltirish hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan beridir.

Avtobus yo'nalishi ma'lum bir boshlang'ich va oxirgi manzillarni bog'lovchi yo'l tarmog'i bo'lib, mazkur yo'l tarmog'i bo'ylab belgilangan oraliq manzillarda to'xtab, yo'lovchilarni avtobusdan tushirish va avtobusga chiqarish hamda barcha manzillarni o'zaro bog'lovchi shahar ko'chalari (avtomobil yo'llari) bo'ylab, yo'lovchilar bilan yuklangan avtobusni harakatlantirish jarayonlarini tashkil etuvchi ob'ektlar majmuini o'z ichiga oladi.

Shaharlarda qanday transportni qo'llash va yo'lovchi tashishni tashkil etish birinchi navbatda shaharning turiga, ya'ni yo'lovchisining soniga, shahar hududining maydoniga va unda mavjud bo'lgan yo'llar va ularning konfiguratsiyasiga bog'liq bo'ladi.

Shahar yo'lovchisining soniga qarab shaharlar quyidagi turlarga ajratiladi:

- juda yirik – yo'lovchi soni 2000-2500 mingdan ko'p;
- yirik – yo'lovchisi 200-500 ming nafar;
- o'rtacha- yo'lovchisi 100-200 ming nafar;
- kichik- yo'lovchisi 100 ming nafardan kam. [5]

Agar yo'nalishlarda yo'lovchi tashish uchun mavjud bo'lgan avtobuslar sonining cheklanganligini va "tig'iz" soatlarda zarur bo'lgan qo'shimcha avtobuslarning yo'qligini hisobga olsak, ko'rinib turibdiki, yo'lovchilarga yuqori sifatli transport xizmatini ko'rsatish uchun harakatni tashkil etishning eng samarali usullarini ishlab chiqish va qo'llash zarur bo'ladi.

Misol. Avtobusning sig'imi  $q_n = 37$  yo'lovchi, oddiy yo'nalishda aylanma qatnov vaqti  $t_{ayl.q} = 80$  min, oraliq bekatlarda to'xtash vaqti  $t_{ob} = 1$  min va oxirgi bekatda to'xtash vaqti  $t_{oxb} = 5$  min. "Tig'iz" soatlardagi yo'lovchilar oqimining maksimal qiymati  $Q_{max} = 280$  yo'lovchi/soat bo'lsin

1.Oddiy yo'nalishda yo'lovchilarni tashish uchun zarur bo'lgan avtobuslar soni va harakat intervali quyidagicha topiladi:

$$A_y^{oddiy} = \frac{Q_{max} \times t_{ayl}}{q} = \frac{280 \times 80}{37 \times 60} = 10_{avtobus}$$

$$I = \frac{t_{ayl}}{A_y} = \frac{80}{10} = 8_{min}$$

Yirik shaharlarda aholining transport harakatchanligini ortishi ularga transport xizmati ko'rsatish bilan bog'liq qator muammolarni hal etishni taqazo etmoqda. Keyingi yillarda Qarshi shahrining aholisining ko'payishi, yo'lovchilarni o'ziga jalb etuvchi yangi obektlarning qurilishi va shahar maydonining kengayishi natijasida yo'lovchilarga transport xizmat ko'rsatishni sifat darajasini oshirish, zarur hollarda yangi yo'nalishlarni ochish bilan bog'liq muammolarni hal etish zarurati vujudga kelmoqda.

*Xulosa sifatida quyidagilarni keltirishim mumkin:*

1. Hozirgi kunda Qarshi shahrida ko'pgina yo'nalishlar bo'yicha jamoat transport qatnovi mavjud emas. Buning natijasida shu yo'nalishdagi yo'lovchilar manziliga yetib borishi uchun yo'nalishsiz taksilar xizmatidan foydalanishga majbur bo'lmoqda. Qarshi shahrida yo'lovchilarga jamoat transportida xizmat ko'rsatish holati aholining talablariga javob bera olmayapti va ularning haqli e'tirozlariga sabab bo'lmoqda.

2. Qarshi shahrida aholiga transportda xizmat ko'rsatishni yaxshilash maqsadida yo'nalishlarda yo'lovchilar oqimini o'rganish, har bir yo'nalishlar boyicha 300-700 metr masofada yo'lovchilar uchun qulay va shinam bekatlar qurush va bu bekatlar asosiy yo'ldan tashqarida yo'lovchilar xavfsizligini ta'minlagan holda chuntak asosida qurilgan bo'lishi, yo'nalishlar shahar chetini markaz bilan bog'lovchi hamda yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish va o'z manzillariga kam xarajat bilan yetib olishlari uchun yo'nalishlarda avtobuslarni harakatlanishini oqilona tashkil qilish zarur.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 6 mart kunidagi PQ-3589-sonli qarori.
2. E.Karimov. Avtomobillarda yo'lovchilar tashish, Toshkent, "Sharq," 2015 y.
3. J.R.Qulmuxamedov. K.M.Nazarov. "Transport logistikasi" Toshkent 2018 yil.
4. K.M.Nazarov, N.Z. Arifjonova, X.A.Mirgiyazov "Avtotransport vositalarida yo'lovchilar tashishni tashkil etish" - T. Uzbekistan milliy akademiyasi – 2012y.
5. Мун В.С. Пассажи́рские автомоби́льные перево́зки, М.Издательства, 1990.



## “QISSAYI SAYFULMULK” ASARINING YARATILISH TARIXI

**Yuldasheva Saida Rahmonqul qizi**

Guliston davlat universiteti 2-bosqich magistranti.

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada o‘zbek mumtoz adabiy manbalaridan biri hisonlangan Majlisiy qalamiga mansub “Qissayi sayfulmulk” asarining adabiy-badiiy ahamiyati tadqiq etilgan bo‘lib, unda o‘zbek mumtoz ijodkorlaridan biri hisoblangan Majlisiyning hayot yo‘li, ijodiy faoliyati va o‘zbek mumtoz adabiyotida tutgan o‘zni o‘rganildi. Shoir qalamiga mansub bo‘lgan “Qissayi Sayfulmulk” dostonining yozilish tarixi, mumtoz adabiyotimiz tadqiqotchilari tomonidan o‘rganilganlik darajasi o‘zbek mumtoz adabiyotida tutgan o‘rni tadqiq etildi.

**Kalit so‘zlar:** “Qissayi Sayfulmulk”, musulmon xalqi, urdu tili, fotih, Eron kurdlari, jon qushi, syujet va hakazo.

“Qissayi Sayfulmulk” asarining voqealar rivoji Sharq musulmon adabiyotidagi sayyor syujetga asoslangan bo‘lib, ushbu asarning dastlabki yozma namunasi arab adabiyotidagi “Ming bir kecha”ga borib taqaladi. Shahrizodning sultonga hikoya qilib beruvchi qissalari bir necha boblar bayonida uchrab, unda asosan, Sayfulmulkning jasoratlari, qiziqarli sarguzashtlari tarannum etiladi. Shahzoda Sayfulmulk haqidagi doston va qissalar Sharq musulmon xalqlari, jumladan, arab fors, turk va urdu tillarida mavjudligini inobatga olib, bu asarni “Shahzoda Sayfulmulk” turkum dostonlari deb atash mumkin bo‘ladi. Majlisiyning “Qissayi Sayfulmulk asari ushbu silsilaning turkiy, xususan, o‘zbek adabiyotidagi bir namunasi. “Qissayi Sayfulmulk”ning shu nomdagi bir qancha forsiy nusxalari mavjud bo‘lsada, Muhammad Sa‘duddin Buxoriyning “Jome’ ul-hikoyot” asarida uning nasriy shakli uchraydi.

Shuningdek, “Sayfulmulk va Badiuljamol” turkum dostonlari yana urdu adabiyotida ham keng tarqalgan silsila dostonlardan hisoblanadi. Ularning bu taqlid keng tarqalishiga sabab, musulmon arab-fors-turk fohihlarining Hind diyoriga kirib borishi natijasida impriik muhitning vujudga kelishi bilan izohlanadi. Musulmon adabiyotidai g‘oyalar va unsurlar umumlashib, yangi hind-udu musulmon adabiyotining shaklanishga asos bo‘lib xizmat qildi. Shunday adabiy jarayonning bir mahsuli o‘laroq urdu shoirlari ijodida yuqoridagi doston mavzusidagi asarlar paydo bo‘ldi. Mashhur panjob shoiri janob Mian Muhammad Baxsh Sohob yozgan Sayf al-Muluk hikoyasi uyushgan hikoya-qissadir Unda shahzoda Sayfulmulk va Sayfuljamol haqidagi ishqiy munosabatlar doirasidagi sarguzashtlar hikoya qilinadi. Ushbu

voqealar Sayfulmulk va Sayfuljamol haqidagi voqealatr tizginida turli hikoyatlar, tanbehlar jamiyatdagi muammolarning muolajasi keltirilib o‘tilgan.

Shuningdek, bu mavzuda kurd adabiyotida ham alohida manzuma bo‘lib Siyohpo‘sh ismlik kurd shoiri qalamiga mansubdir. Siyehposh yoki Siyehposh — 18—19-asrlarda yashagan mumtoz kurd shoiri. Uning hayoti haqida kam ma‘lumot mavjud. Ba‘zilar uni Urmiyada tug‘ilgan, ba‘zilari esa Turkiyaning Kurdistonida tug‘ilgan deb hisoblaydi. Uning she‘rlaridan Usmonlilarga hijrat qilgan Eron kurdlaridan biri bo‘lganligi ma‘lum bo‘ladi. Uning qabri Turkiyaning Farkin shahrida.

Uning she‘rlari kirmanji lahjasida. Uning eng mashhur asari Manzoma Bazmi-Razmi Sayf al-Maluk va Badi al-Jamoldir.

Siyoposhning mashhur asari Sayf al-Maluk va Badi al-Jamolning “Bazmi-Razmiy” she‘ri bo‘lib, bu she‘rda ikkisining ishq qissasi tasvirlangan. Siyoposh “Labla masnaviy”da bir qancha g‘azallar yozganligi uning uslubini avvalgi shoirlaridan ajratib turadi.<sup>1</sup>

Majlisiyning bu ijod mahsuli mazkur mavzu an‘anasidagi o‘ziga xos bosqich bo‘ldi. Birinchidan, adib o‘zigacha yaratilgan ishqiy sarguzasht haqidagi qissalarni puxta o‘rgandi, umumlashtirdi, rivojlantirdi. Ikkinchidan, salaflari yo‘l qo‘ygan kamchiliklarni tuzatdi. Uchinchidan, oldinlari sarguzashtlar haqidagi qissalar arab va fors tillarida yozilgan bo‘lsa, Majlisiyning turkiy tilda yozishga jazm qildi.

Unda XIII asr oxiri - XIV asr boshlaridagi turkiy adabiyotning bir qator o‘ziga xos xususiyatlari juda yorqin namoyon bo‘lgan. Majlisiyning “Qissayi Sayfulmulk” asari debochasida muallif ushbu asardan ko‘zlagan maqsadi haqida qisqacha bayon etib beradi:

Vale ul nusxa erdi forsiy nasr,  
Erursada hikoyar so‘zi ham asr.  
Qilibdur Majlisiy bu so‘zni pardoz,  
O‘qusang qilur jon qushi parvoz.

Mazkur misralardan Majlisiyning Sayfulmulk haqidagi forsiy manbalarga murojaat qilgani va ushnu manbalardan o‘z asarida xamirturush vazifasida foydalangan ochiqlanadi. Shuningdek, Majlisiy bu o‘rinda Muhammad Afviyning “Jome’ ul-hikoyot” asaridan foydalangan bo‘lishi mumkin. Chunki misrada forsiy tildagi Sayfulmulk qissasining nasriantidan foydalanganligiga ishora qilmoqda.

Halollikka, o‘z mehnati bilan halol kun ko‘rishga, boshqalarga zulm qilmaslikka undash Majlisiyning hikoyalarining asosiy maqsadidir. O‘zbek ajoyib nazmiyida ilk marotaba ishqiy dialoglar Majlisiy tomonidan keng tarzda qo‘llangan. Ana shu

<sup>1</sup> <https://fa.wikipedia.org/wiki/%D8%B3%DB%8C%D8%A7%D9%87%D9%BE%D9%88%D8%B4>

dialoglar vositasida asosiy g‘oyaviy maqsad yorqin va ta’sirchan ifodalangan va poetik ifodalar ham aynan diologlar shaklida kelganda o‘quvchiga osonva tushunilishi oson bo‘lgan.

“Qissai Sayfulmulk” – turkiy ajoyib nazmiyning eng qadimiy namunalaridan biridir. Unda XVI asr oxiri – XVII asr boshlaridagi turkiy adabiyotning bir qator o‘ziga xos xususiyatlari juda yorqin namoyon bo‘lgan. Sayfulmulk haqidagi qissalar Majlisiyning olam va odam haqidagi qarashlarini badiiy jihatdan ifodalash uchun vosita bo‘lgan. Qissalar asosini tarixiy-iloхий voqealar tashkil etadi. Ular o‘z ildizlari bilan Qur‘on va hadislarga, insoniyatning yaratilishi va rivojlanish tarixiga, xalq og‘zaki ijodiga borib taqaladi. Ammo bularning ko‘pchiligi, birinchi navbatda, Majlisiy badiiy tafakkuri yordamida qayta idrok etiladi, badiiy talqinini topadi. Mavzu doirasiga ko‘ra asardagi qissalar juda rang-barang. Olamdagi butun mavjudod egasi Ollohni ulug‘lash, Shahzoda Sayfulmul hayotiga doir lavhalarni eslash, ota-ona va farzand munosabatlari, sevgi va sadoqat, vatan va vatanparvarlik, erk va adolat, do‘stlik va hamjihatlik, urush va tinchlik kabi mavzular shular jumlasidandir. Bular asardagi yetmish ikki qissada o‘z ifodasini topgan. Qissalarning ko‘pi qahramon haqidagi muayyan xabar bilan boshlanadi, so‘ng sheriyy madh, keyin asosiy voqealar bayoni keladi. Bazi qissalar ichida yana mustaqil hikoya, rivoyat va naqlar ham bor. Masalan, Shoh Bahorom qissasida bir necha hikoya, latifa, bayt, g‘azal va boshqa janr namunalari uchraydi. Ammo ular asarda olg‘a surilgan asosiy g‘oyaviy-badiiy maqsad bilan yaxlitlikni tashkil etadi.

Halollik, o‘z mehnati bilan halol kun ko‘rishga, boshqalarga zulm qilmaslikka undash Majlisiyning g asosiy maqsadidir.

Asarda keltirilgan she‘riy hikoyalarni poetik jihatdan tahlil qiladigan bo‘lsak, ularda xalq og‘zaki ijodining tasiri ham yorqin seziladi. Xususan, latifa janriga xos belgilar hikoyaga ko‘chibo‘tgan. Suhbatning diolog asosida olib borilishi, soddalik, donishmandlik, topqirlik, hozirjavoblik fazilatlarining ustuvorligi, ifodalarning qisqa, aniq, lo‘ndaligi, og‘zaki ijoddan tasirlanish natijasidir.

Unda Sharq falsafasi bilan qadimiy milliy qadriyatlarimiz uyg‘unlashib ketgan.

Qadimiy turkiy tilni o‘zida ifoda etgan bebaho durdona ikki kitobdan iboratdir. Sobiq sovetlar davrida hayoti va ijodi o‘rganilishi taqiqlangan allomaning ushbu asari Mustaqillik sharofati va tariximizga munosabat o‘zgarganligi tufayli darsliklardan o‘rin oldi. Masalan, 9-sinf adabiyoti majmuasiga Nosiruddin Burhonuddin Majlisiyning mashhur asarlaridan namunalar kiritilgani buning isbotidir. “Qisasi Majlisiy” asari o‘zbek ajoyib nazmiyiy adabiyotining birinchi yirik namunasidir.

Majlisiyning “Qisasi Sayfulmulk” asari Mustaqilligimiz sharofati va bir guruh olimlarimizning sa’y-harakati bilan kitob javonlarimizdan o‘rin oldi. Asarning tili juda murakkab bo‘lib, bugungi kitobxonning tushinishi juda qiyin.. Undagi insonlarni bir-

birlariga jabr – zulm qilmay, nohaq qon to‘kmay, harom – xarish ishlarga berilmay, sharm-hayoni e’zozlab yashashga undovchi o‘g‘it va hikmatlari navro‘zi olam kabi bugungi kunda ham o‘z mohiyatini yo‘qotgan emas. Asarda e’tiqod va iymonga sodiqlik, pok axloqning hirsu hasad, qonxo‘rlik, badnafslilik ustidan g‘alabasi tasvirlanadi. Qadimiy turkiy so‘z san’atining go‘zal va g‘aroyib obidasida shahzoda Sayfulmulk hayoti Sharqning donishmandligi ila go‘zal afsona va rivoyatlar orqali aks etgan.

Vaqt o‘tishi, turli ijtimoiy-siyosiy voqealarning sodir bo‘lishi natijasida turkiydagi ba’zi so‘zlar o‘z umrini yashab bo‘lgan va iste’moldan chiqib ketgan. Masalan: ud, uy-sigir; to‘ra – qonun-qoida; uv – uy, joy kabi so‘zlar. Shu bilan bir qatorda hayot sinovlariga bardosh bergan va bugungi kunda ham tilimizda faol qo‘llanilayotgan juda ko‘p so‘zlar Majlisiyozib qoldirgan bebaho durdonaning har bir satrida uchraydi. Masalan, *tishi-xotin* so‘zi respublikamizdagi ba’zi viloyatlarning shevasida hali ham ishlatiladi. *Tangmoq-o‘ramoq; navmid-umidsiz, noumid; iya-ega, sohib; xarbut-tarvuz; chanoq-yog‘och idish, tovoq; og‘-to‘r, tuzoq; daf(dap)-doira; sichak (secha) – chumchuk; ovuch-kaft, hovuch; kirpich – g‘isht; ashoq-past; avlo-yaxshiroq, afzalroq; kezik(gazik)-navbat; qo‘ndog‘lab-yo‘rgaklab; yurtug‘ (yirtiq kiyim – kechak)-teshik; o‘kcha-tovon; amurd (almurd)-nok; buz-muz.*

Xorazm shevasida bu so‘zlar bugun ham aynan shu ma’noda ishlatiladi. Ko‘kilamoq-rashk qilmok; yozilamoq-yozilmoq; bag‘irsoq-rahmdil, oq ko‘ngil; isurmoq-mast, kayf. Bu so‘zlar ham hozir ko‘pgina shevalarda ishlatiladi. Shuningdek, o‘z mazmun – mohiyatidan biroz uzoqlashgan so‘zlar ham mavjud. “Bodiya” so‘zi asarda-cho‘l, dasht, sahro, biyobon ma’nosida ishlatilgan. Xorazmda palov yeydigan maxsus idishni *bodiya* deb yuritishadi. Asarda “*arig‘*” so‘zi pokiza, sof ma’nosida ishlatilgan. Xorazmda bugun bu so‘z ozg‘in, nimjon ma’nosida ishlatiladi. Asarda “yobon” so‘zi cho‘l biyobon ma’nosida ishlatilgan. Xorazmchada bugun u yovon deb ishlatiladi. Cho‘l, biyobondan tashqari qishloq ma’nosini ham anglatadi.

Ajdodlarimizning ilm sohasidagi ildizlari chuqur ekanligini anglatadigan so‘zlar ham mavjud. *Aqron-sayyora; baqir-mis; Saqit – Zuhra, Venera; tuch-bronza.*

“Qisasi Rabg‘uziy”ning tabdili haqidagi mulohazalarni umumlashtirib shunday xulosa chiqarish mumkin.

- “Qissayi Sayfulmulk” asarining yaratilish tarixi” haqida ilmiy jamoatchiligimiz o‘rtasida faqat ushbu asarning o‘zidagina muallif tomonidan aytilgan ayrim ishoralar borligi u haqida atroflicha tadqiqot olib borigan holda, o‘z davriga tegishli bo‘lgan manbalarga murojaat etilishi lozimligini ko‘rsatadi. Shunga ko‘ra ushbu asarning ayni kunda mukammal shakliga ehtiyoj juda kuchlidir.

- Asar mustaqillik yillarida biror marta nashr etilmadi. Bil’aks, sobiq sho‘rolar zamonida Natan mallayev tomonidan tayyorlangan nashri qisqartirishlar bilan kemptik holatda nashr etilgan bo‘lib, bu nashr ilmiy tadqiqotlarga asos bo‘lolmaydi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

2. A.Qutbiddin. Uzoqdan olisga. T.: 2006, 294-b.
3. T.Nizom. Bahoriy maysalar. Saylanma. I jild. T. 2007. 247-b.
4. T.Nizom. Avji yoz. 2- jild. T.: 2007.
5. I.Otamurod. Tag‘azzul. T.: 2008. 146-b.
6. I.Otamurod. Muqaddar. T.: 2012, 143-b.
7. E.Shukur. Hamal ayvoni. T: Sharq, 2002. 231-bet.
8. Muhammad Ali. Saylanma. T.: 1997. 262-b.
9. Takomil mashaqqatlari. Ulug‘bek Hamdam bilan suhbat. “Tafakkur”. 2017. 3-son. 22-27-b.

## INTERNET MANBALARI

[www.kh-davron.uz](http://www.kh-davron.uz)

[www.kutubxona.com](http://www.kutubxona.com)

[www.philosophy.ru](http://www.philosophy.ru)

[www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com)

UDK:656.25.5

## **BROYLER JO‘JALARI RATSIONIDA OZUQALARNI HAZMLANISHIGA MAHALLIY LAKTOBATSILLA BAKTERIYA SHTAMMLARINI TA‘SIRI**

**Xolbo‘tayev Ilyosjon Rustam o‘g‘li**

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,  
chorvachilik va botexnologiyalar universiteti Toshkent filiali  
“Zooinjeneriya va ipakchilik” kafedrasida assistenti

### **ANNOTATSIYA**

Probiotik bakteriyalar shtammlarining ozuqa qo‘shimchasi sifatida broyler jo‘jalarining ratsionida qo‘llash va ozuqalarining hazmlanishiga ta‘sirini o‘rganish. Tadqiqot maqsadiga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilab olindi. Mahalliy laktobatsilla shtammlarni ajratish va xususiyatlarini o‘rganish; Probiotiklarni qo‘llash davomida broyler jo‘jalarning tirik vazni, o‘shish darajasini o‘rganish; Probiotiklarning broyler jo‘jalar hazm tizimiga ta‘sirini o‘rganish; Probiotik bakteriyalarni broyler jo‘jalarda sinaganda, ulardagi moddalar almashinuvi, qonning morfologik va biokimyoviy ko‘rsatkichlaridagi o‘zgarishlarni o‘rganish; Lactobacillus va Bifidobacterium avlodlariga mansub bakteriyalardan tarkib topgan mahalliy probiotik ozuqaviy qo‘shimchasi. Ilmiy tadqiqot natijasida parrandachilik xo‘jaliklarda probiotiklardan foydalanish ko‘paysa, xorijdan keltiriladigan veterinariya dori moddalari va keyinchalik antibiotiklarni qo‘llashni kamaytirish va o‘rnini bosish imkoniyatini yaratadi va parrandalarni nisbatan tez suratda yetilishiga erishiladi.

*Kalit so‘zlar:* probiotik, jo‘ja, lactobacillus, bifidobacterium, parranda, antibiotic, namlik, hazmlanish, harorat, oqsil, premiks.

## **“ВЛИЯНИЕ МЕСТНЫХ ШТАММОВ БАКТЕРИЙ ЛАКТОБАЦИЛЛ НА ПЕРЕВАРИВАНИЕ КОРМОВ В РАЦИОНЕ ЦЫПЛЯТ БРОЙЛЕРОВ”**

**Холбўтаев Илёсжон Рустамович ассистент кафедры**

“ЗООИНЖЕНЕРИЯ И ШЕЛКОВОДСТВО” ТАШКЕНТСКОГО ФИЛИАЛА САМАРКАНДСКОГО  
ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА ВЕТЕРИНАРНОЙ МЕДИЦИНЫ,  
ЖИВОТНОВОДСТВА И БОТТЕХНОЛОГИЙ

Изучение применения штаммов пробиотических бактерий в рационе цыплят бройлеров в качестве кормовой добавки и влияния их кормов на

пищеварение. Для достижения цели исследования были поставлены следующие задачи. Локальные лактобациллы изучение выделения и свойств штаммов; изучение живой массы, темпов роста цыплят-бройлеров при применении пробиотиков; изучение влияния пробиотиков на пищеварительную систему цыплят-бройлеров; При тестировании пробиотических бактерий на цыплятах-бройлерах изучить изменения обмена веществ у них, морфологических и биохимических показателей крови; Lactobacillus и местная пробиотическая пищевая добавка, состоящая из бактерий, принадлежащих к роду Bifidobacterium. Научное исследование показало, что использование пробиотиков на птицеводческих фермах увеличивается, в то время как использование импортных ветеринарных препаратов и последующее использование антибиотиков сокращается и создает возможность замены, и достигается относительно быстрое созревание птицы.

*Ключевые слова:* пробиотик, цыпленок, лактобациллы, бифидобактерии, птица, антибиотик, влажность, пищеварение, температура, белок, премикс.

## **“THE EFFECT OF LOCAL LACTOBACILLI BACTERIAL STRAINS ON THE DIGESTION OF NUTRIENTS IN THE DIET OF BROILER CHICKS”**

**Kholbutayev Piyasjon Rustam Oglu**

Samarkand State Veterinary Medicine, assistant of the Department “Zooenjery and silkwork” Tashkent branch of the University of livestock and botechnology

### **ABSTRACT**

Application of probiotic bacteria strains as a feed additive in the diet of broiler chicks and study the effect of their nutrients on digestion. To achieve the goal of the study, the tasks below were determined. Study of the separation and characteristics of local lactobacilli strains; study of the living weight, growth rate of broiler chicks during the use of probiotics; study of the effect of probiotics on the digestive system of broiler chicks; When probiotic bacteria are tested on broiler chicks, the exchange of substances in them, the study of changes in the morphological and biochemical indicators of blood; Lactobacillus and a local probiotic nutritional supplement composed of bacteria belonging to Bifidobacterium generations. In the event of an increase in the use of probiotics in poultry farms as a result of a scientific study, reducing the use of veterinary medicinal substances imported from abroad and later antibiotics and makes it possible to replace, and the relatively fast photo of poultry is achieved.

*Keywords:* probiotic, Chick, lactobacillus, bifidobacterium, poultry, antibiotic, moisture, digestion, temperature, protein, premix.

Respublikamizda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, shuningdek, parrandachilikni rivojlantirish va tarmoq ozuqa bazasini yanada mustahkamlash hamda parrandachilik yo'nalishidagi tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida:

Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi hamda "Parrandasanoat" uyushmasi bir oy muddatda parrandachilik tarmog'iga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha loyiha takliflarini ishlab chiqilsin va 2022-yil 1-yanvarga qadar rivojlangan xorijiy davlatlardagi tadbirkorlik subyektlari bilan hamkorlikda respublikada naslchilik va omuxta yem yo'nalishida loyihalar amalga oshirilishini ta'minlasin. Mamlakatimizda parrandachilik sohasini rivojlantirish va eksportga mo'ljallangan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini oshirish va turlarini kengaytirish, shuningdek aholini mahalliy ishlab chiqarilgan sifatli va arzon parrandachilik mahsulotlari bilan ta'minlash bo'yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, sohani yanada jadal rivojlantirishga, jumladan zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish jarayonini modernizatsiya qilish va tayyor parrandachilik mahsulotlari eksportini kengaytirishga to'sqinlik qilayotgan qator muammolar mavjud. Xususan:

birinchidan, parrandachilik mahsulotlarini qayta ishlash darajasi past, tarmoq mahsulotlarini ishlab chiqarish va eksport qilishda yarim tayyor mahsulotlar ulushi yuqoriligicha qolmoqda, shuningdek parranda chiqindilarini chuqur qayta ishlash tizimi yo'lga qo'yilmayapti;

ikkinchidan, parrandachilik sohasida, asosan, tovuq etishtirish bilan cheklanib qolinmoqda, boshqa parranda turlari (kurka, bedana, g'oz, o'rdak, tuyaqush, kaklik va boshqalar) etishtirishni ommalashtirish choralari ko'rilmayapti;

uchinchidan, parranda kasalliklarini o'z vaqtida aniqlash va ularning oldini olish bo'yicha zamonaviy biolaboratoriyalar tashkil etilmaganligi oqibatida parrandalar orasida yuqumli kasalliklar tarqalib bormoqda;

Yildan yilga yer yuzida aholi sonining ko'payib borishi, tabiiyki oziq-ovqat mahsulotlarga bo'lgan talab ham oshib bormoqda. Hozirgi kunda oziq-ovqat xavfsizligiga juda katta e'tibor qaratilib, eng avvalo, aholi ehtiyojini fiziologik me'yorlarga mos ravishda biologik sof, toza iste'mol tovarlari bilan ta'minlash amalga oshirilmoqda. Biroq keyingi yillarda qishloq xo'jaligi hayvonlar va ulardan olinadigan mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini oshirish, tez va ko'proq maxsulot olish uchun hilma-xil vitaminlar, gormonlar, antibiotiklardan foydalanishi oqibatda, qishloq xo'jaligi hayvonlar maxsulotlari o'zining tabiiy biologik sof holatini yo'qotib borayotgani tashvishlanarlidir. Jahonda go'sht maxsulotlari orasida etishtirish va iste'moli bo'yicha parranda go'shti ikkinchi o'rinda turadi. Iste'mol qilinayotgan



go'shtning 34 foizi parranda go'shti hissasiga to'g'ri keladi. AQShda esa parranda go'shti iste'moli o'tgan asrning 70 yillaridan boshlab birinchi o'ringa chiqib oldi. Shu sababli ham parranda go'shtining xavfsizligi va samaradorligini ta'minlashga katta e'tibor qaratilmoqda. Parrandachilik ho'jaliklarda probiotiklarni muntazam ravishda ularning ozuqasiga qo'shib berilsa broyler jo'jalarining immun tizimi yaxshilanadi, oshqozon ichak tizimi kasalliklari oldi olinadi, stresslarga tushishi kamayadi, oshqozon-ichak tizimi mikroflorasi va ovqat hazmini yaxshilashda samara beradi. Qolaversa ko'pgina kasalliklar oldi olinadi.

Broyler go'shti dietik go'sht hisoblanadi va shuning uchun bu go'sht bolalar, keksalar va kasallar uchun keng qo'llaniladi. Broylerlarni olish uchun maxsus go'shtdor zotlardan foydalaniladi. Ular o'zlarining hayotchanligi, tanada ko'p miqdorda go'sht to'plash xususiyatlari bilan ajralib turadi va tez o'sish xususiyatiga ega.

Ukrainada deyarli AQShda yaratilgan oq plemutrok va oq kornish tovuqlaridan foydalanadilar. Oq kornish sof go'shtdor zot bo'lib uning xo'rozi bilan oq plemutrok makiyonlari chatishtirilsa ajoyib broylerbop duragaylar olinadi. Broylerlar uchun to'shamaning qalinligi yozda 5-7 sm, qishda 10-12 sm. Har bosh jo'ja uchun 1 - 1,5 kg to'shama ishlatiladi. Ifloslangan sari uning yuza qismini olib ustiga yangi to'shama sepiladi.

"Shaxterskiy" naslli parrandachilik sohasida quyidagi tartibda ozuqa aralashmasidan foydalaniladi: 1 kg aralashmadi. 400 g makkajo'xori yormasi, 200 g bug'doy, 150 g arpa va 100 g suli yormasi hamda 150 g kungabaqar kunjarasini aralashtirib unga 50 – 60 g baliq yoki go'sht suyak uni yoki 150 – 200 tvorog qo'shib yog'i olingan sutda qorib (1 jo'jaga 1 kunda 10 – 30 g) va 1 – 2 g kuniga nonvoyxona achitqisi berib boqqanda jo'jalar yaxshi o'sganlar. Mordova agrosanoat xoldingi direktori A.Mirkushinning yozishicha "Новомайская" parrandachilik fabrikasini rivojlantirish uchun yaqin 3 – yilda 2 mlrd rubl ajratiladi va tirik vazndagi parranda go'shti ishlab chiqarish 60 % ga oshib 8,8 ming tonnani tashkil qiladi. Rekonstruksiya ishlari tugugandan keyin har yili ushbu fabrika 45 ming tonna tirik vaznda go'sht ishlab chiqaradigan bo'ladi. "Ulyanovskaya" parrandachilik fabrikasida agar hozir 145 kishi ishlab 101 ming tovuq parvarishlansa 2008 yil 1 yanvarda tuxumdor tovuqlar soni 200 ming boshga yetib tuxum ishlab chiqarish 1 yilda 60 mln donaga yetadi. Broylerlar uchun yorug'likning ahamiyati, yorug'lik – eng muhim ekzogen faktor bo'lib har qanday tirik organizm uchun ayniqsa parrandalar uchun uning ta'siri juda sezilarli bo'lib bu faktorni aniq ravishda boshqarish va qo'llash go'sht va tuxum yo'nalishidagi parrandachilikning rentabelligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Yorug'lik naslli tovuqlarda ularning fizikaviy va fiziologik yetilishini boshqaradi va ularning jahldorligini va kannibolizm hodisasini oldini oladi. Broylerlarda yorug'lik dastavval

ularni faolligini oshiruvchi “instrument” dir, bu esa ularning o‘shish va rivojlanishini boshqarishda juda qo‘l keladi.

### 1-jadval

#### Tajriba tasviri

T/r №	Guruhlar	Bosh soni	Parvarishlantirilayotgan va oziqlantirish sharoiti	O‘rganiladigan omillar
1	Nazorat	100	Qalin to‘shamali polda. Standart ratsion+premixs “Imkon plyus”	1.Asrash va oziqlantirish sharoiti. Ozuqani qoplash; 2.O‘shish dinamikasi, yosh jo‘jalarni saqlanishi; 3.Go‘shntning biyokimyoviy tarkibi. go‘shntning mineral tarkibi.
2	1-tajriba	100	Qalin to‘shamali polda. Standart ratsion+“Imkon plyus” + Mahalliy probiotik bakteriyalar (0.2%)	1.Asrash va oziqlantirish sharoiti. Ozuqani qoplash; 2.O‘shish dinamikasi, yosh jo‘jalarni saqlanishi; 3.Go‘shntning biyokimyoviy tarkibi. go‘shntning mineral tarkibi
3	2-tajriba	100	Qalin to‘shamali polda. Standart ratsion+ “Imkon plyus”+Mahalliy probiotik bakteriyalar (0.5%)	1.Asrash va oziqlantirish sharoiti. Ozuqani qoplash; 2.O‘shish dinamikasi, yosh jo‘jalarni saqlanishi; 3.Go‘shntning biyokimyoviy tarkibi. go‘shntning mineral tarkibi //--

### Broyler jo‘jaxonaning mikroklimali

#### Havo harorati.

Parrandalarda tana harorati me‘yori tananing pat va par bilan qoplanmagan qismi, tojisi, sirg‘asi va nafas olish organlari orqali boshqariladi. Yuqori havo harorati teploreulyatsiya me‘yorida bo‘lganda ham parrandalar tanasini ortiqcha qizib ketishiga (gipertermiya) olib kelishi mumkin. Bu o‘z navbatida me‘da faoliyatini, me‘da osti bezini, ichak va jigarning normal funksiyasini izdan chiqaradi. Gipertermiya bundan tashqari organizmning himoya funksiyasini izdan chiqaradi. Jo‘jaxona harorati 40-42°S dan ortib ketishi parrandalar uchun ayniqsa jo‘jalar uchun havflidir. I.S.Zagaevskiyning ta’kidlashicha 14-10 kunlik jo‘jalarda haroratning 38-42°S gacha ko‘tarilishi ularning himoya qobiliyatini pasaytirib paratif kasalligiga chalinishini kuchaytirgan.

K.F.Rojdestvenskiyning ma’lumoti bo‘yicha havo haroratining 1 S° ga ko‘tarilishi ozuqa iste’mol qilishni 1.1-1.2 % ga kamaytiradi.

Tashqi muhitning sovib ketishi parrandalarga ayrim organlarini va umumiy organizmning faoliyatiga salbiy ta’sir etadi. Ayrim organlari deganda masalan, teri

yuzasidagi arteriyalarni spazma holiga, toj, zirak va barmoqlarini muzlab qolishiga olib keladi. Parranda tanasini umumiy sovib ketishi terida anemiya holatini, ichki organlar giperemiyasini, qon bosimini ko'tarilishini keltirib chiqaradi. Bundan tashqari, ichki organlar harorati pasayishiga va muhofaza qobiliyatini pasayishiga olib keladi. Agar bu muddat cho'zilib ketsa tovuqlar ozib ketadi. Agar haroratning pasayishi havonamligini ortishi va shamol bilan kuzatilsa organizmga kompleks salbiy ta'sir etadi.

Shuning uchun jo'jaxonaning harorati eski standart bo'yicha quyidagicha bo'lishi kerak.

### 3-jadval

#### Broyler jo'jaxonasining harorati

Jo'jalarning yoshi, kun hisobida	Jo'jaxona harorati, t° S
1-7 kun	35°-32 <sup>i</sup>
8-20 kun	29°-24°
21 kundan katta	24°-20°

### XULOSA

Shunday qilib, tajribalarimiz broyler jo'jalar yetishtirishda ularning ratsionida probiotik ozuqaviy qo'shimchani jo'jalardagi turli kasalliklarning oldini olish maqsadida foydalanish maqsadga muvofiq ekanligini ko'rsatmoqda. Probiotik ozuqaviy qo'shimchaga sarflanadigan xarajatlar jo'jalar orasida o'lim xolatlari kamayishi va maxsulot tannarxi kamayishi xisobiga iqtisod qilingan mablag'lar orqali to'liq qoplanishi kutilmoqda. Dastlabki gistologik tekshiruvlar natijasiga ko'ra shunday xulosa qilish mumkinki, probiotik ozuqaviy qo'shimchadan parrandachilikda foydalanish O'zbekiston axolisini ekologik toza va bezarar go'sht maxsulotlari bilan ta'minlash imkoniyatini yaratadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev 2018-yil 13-noyabrdagi PQ-4015-sonli [qarori](#)
2. O‘zbekiston Respublikasi *Prezidenti* Sh. Mirziyoyev. 2021-yil 14-iyundagi PQ-5146-son [qarori](#)
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori “Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo‘jaliklarida chorva mollarini ko‘paytirish hamda chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”. Toshkent 2008 y. 21 aprel.
4. Abdullaev F.I. «Успех i совremennыу biology.» 1989 g. st. 279-288.
5. Божко Е.П «Производство яис и мясо птицы на промышленной основе». Москва Колос 1984 г
6. Бурмистрова О.М. «Характеристика технологических и физико- химических свойств мясо кроликов при применении в ратсионе крапивой двуходной» Автореферат 2004 г.
7. Вороков В; Абдухаликов Б. «Результаты откорма крупных сыплят в клетках» Журнал Питтсееводство 2005 г. №8. ст. 6.
8. Георгиевский В.И., Анненков Б.Н., Самохин В.Т. «Минеральные питание животных». Москва. Колос 1979 г. стр.470.

## SIMMENTAL ZOTLI SIGIRLARINING SUT MAXSULDORLIGIGA SOMON VA BARDA ARALASHMALI OZUQALARNING TA'SIRI

**Toshmatov Anvar Utkirovich**  
SDVU Toshkent filiali magistranti

### АННОТАЦИЯ

Смешивание пшеничных отрубей, которые в настоящее время производятся как отходы биохимических заводов, с пшеничной соломой, которую трудно есть и переваривать. Это связано с тем, что клетчатка в соломе смягчается, ее легче переваривать, а усвояемость питательных веществ организмом увеличивается. С этой целью мы сначала создали две группы для эксперимента, и в каждой из этих групп. От 10 голов отделили тушки средней живой массой 550 кг в возрасте 5-6 лет. Исходя из нашего опыта, ожидалось, что эти коровы будут иметь высокую продуктивность.

**Ключевые слова:** рацион, батончик, пшеничная солома, грубая, сочная и концентрированные питательные вещества, клетчатка.

### ABSTRACT

Mixing wheat bran, which is currently produced as waste from biochemical plants, with wheat straw, which is difficult to eat and digest. This is due to the fact that the fiber in the straw softens, it is easier to digest, and the absorption of nutrients by the body increases. To this end, we first created two groups for the experiment, and in each of these groups. Carcasses with an average live weight of 550 kg at the age of 5-6 years were separated from 10 heads. In our experience, these cows were expected to have high productivity.

**Key words:** diet, bar, wheat straw, coarse, juicy and concentrated nutrients, fiber.

### KIRISH

Mazkur maqolada matematik fizikaning korrekt va korrekt bo‘lmagan masalalarning qo‘yilishi hamda ayrim misollar orqali ularning korrekt yoki shartli korrekt ekanligi aniqlanadi hamda tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** Korrekt masalalar. Korrekt bo‘lmagan masalalar. Gravitatsiya. Gravitatsiya masalasi. Maydon kuchlanganligi. Uzluksiz bog‘liqlik. Shartli korrekt masalalar. Korrektlik sinfi. Yechimning yagonaligi. Yechimning turg‘unligi.

### KIRISH

Fizik jarayonlarning matematik modellarini yaratishda nokorrekt masalalar uchrashi ancha ilgari qayd qilingan. Ammo nokorrekt masalalar hech qanday fizik jarayonlar bilan bog‘liq emas deb kelingan. Bu xildagi masalalarni o‘rganish o‘tgan asrning 40-yillarida geofizik jarayonlarni talqin qilishda A.N. Tixonovning ilmiy ishlarida zaruriyat paydo bo‘ldi. Bunda u birinchi bo‘lib nokorrekt masalalarni quyilishida qo‘shimcha shartlar qo‘yilishi va bu shartlarni fizik jarayonlarning o‘zidan kelib chikishining ta’kidlab o‘tdi. Keyinchalik ko‘pchilik fizik jarayonlarga mos keluvchi masalalar nokorrekt masalalardan iborat ekanligi aniqlandi. Shulardan bir nechtasini misol qilib keltiramiz.

Issqlik tarqalish jarayoni sodir bo‘layotgan sterjenda uning nuqtalari temperaturasini o‘lchash masalasini yoki diffuziya jarayonini kuzataylik. Har ikkala jarayon issqlik tarqalish tenglamasi orqali yozilishini ham bilamiz. Bu masalalarda Koshi sharti sifatida asboblarni ko‘rsatkichi olinadi. Agar bizni issqlik tarqalishining yoki diffuziya hodisasining kelajagi qiziqтира biz klassik ma’noda korrekt qo‘yilgan masalaga kelimiz. Agar bizni issqlik tarqalishining yoki diffuziya hodisasining ta’rixi qiziqтира biz klassik ma’noda korrekt bo‘lmagan masalaga kelimiz.

Matematik fizikaning korrekt bo‘lmagan masalalaridan biri bo‘lgan analitik davom ettirish masalasi geofizikaning quyidagi masalasi bilan bog‘liq. Er yuzida gravitatsion maydon kuchlanganligining biror komponentasini o‘lchash jarayonini

qaraylik. Agar er osti tuzilishidagi fundament birjinsli bo'lmagan xususiyatga ega bo'lsa, gravitatsion maydon potentsiali grafigi nochiziqli bo'ladi. Maydoning potentsialiga asosan fundament tuzilishini aniqlash muhim masala bo'lib, bu geofizikaning asosiy masalalaridan hisoblanadi.

Matematik fizika masalalarini yechishdagi asosiy usullardan biri integral tenglamalar usulidir. Matematik fizikaning nokorrekt quyilgan masalalari Fredgolmning birinchi tur integral tenglamasiga keltiriladi.

### ASOSIY QISM

Matematik fizika masalasi Adamar (klassik) ma'nosida korrekt qo'yilgan deyiladi, agar

1. masala yechimi mavjud,
2. masala yechimi yagona,
3. masala yechimi uning berilganlariga uzluksiz ravishda bog'liq.

Matematik fizika masalasining yechimi va uning berilganlari biror funksional fazoning elementlari bo'lganligi uchun yechimning mavjudligi, yagonaligi va turg'unligi shu fazo elementlari asosida olinadi. Shuning uchun, korrektilik shartlari quyidagicha kiritiladi:

1. Masala berilganlarining  $C^{(k)}$ ,  $H$ ,  $L_p$  yoki  $W_p^{(\ell)}$  fazolarning yopiq to'plam ostidagi hamma qiymatlari uchun masala yechimi mavjud. Ko'pchilik hollarda fazoning to'plam ostisi o'rnida fazoning o'zi bo'lishi ham mumkin.

2. Masala berilganlarining biror sinfdagi har bir elementi uchun yechim biror sinfdagi yagona.

3. Berilganlarning  $C^{(k)}$ ,  $H$ ,  $L_p$  yoki  $W_p^{(\ell)}$  dagi cheksiz kichik variatsiyasiga yechimning biror  $C^{(k)}$  yoki  $W_p^{(\ell)}$  dagi cheksiz kichik variatsiyasi mos kelsa.

Laplas tenglamasi uchun Koshi masalasi, issiqlik tarqalish tenglamasi uchun qo'yilgan Koshi masalasining ta'rixi yoki analitik davom ettirish masalasi

$$\int_a^b K(x,s)u(s)ds = f(x) \quad (1)$$

integral tenglamaga keltiriladi, bunda  $K(x,s)$  va  $a$  hamda  $b$  integrallash chegaralari quyidagicha aniqlanadi.

$$1). \quad K(x, s) = \frac{1}{\pi} \sum_1^{\infty} \frac{1}{k} \operatorname{sh}(-ky) \sin kx \sin ks \quad a=0, \quad b=\pi$$

$$2). \quad K(x, s) = \frac{1}{\pi} \sum_1^{\infty} e^{-k^2 t} \sin kx \sin ks \quad a=0, \quad b=\pi$$

$$3). \quad K(x, s) = \frac{1}{\pi} \frac{y}{y^2 + (x-s)^2}, \quad a=-\infty, \quad b=\pi.$$

Biz (1) tenglama o'rniga umumiyroq bo'lgan

$$Az = u \tag{2}$$

chizikli operator tenglamani qaraymiz. Bunda  $z$  va  $u$  funksiyalar  $Z$  va  $U$  fazo elementlari bo'lib,  $A$  - chizikli to'la uzluksiz operator. Biz asosan  $X$  va  $F$  – Gilbert fazolari bo'lgan holga to'xtalamiz.

(1) tenglamani yechish masalasi  $A$  operator to'la uzluksiz bo'lganda turg'unlik xususiyatiga ega bo'lmaydi. Bunga sabab  $A^{-1}$  operatorning chegaralanmaganligidadir. Shu sababli,  $u$  funksiyani o'lchashdagi kichik xatolar  $z$  funksiyani aniqlashda katta xatolarga olib keladi.

(1) operator tenglamani yechishning korrektiligi  $F$  va  $U$  fazolarga bog'liq. Berilgan masala  $F$  va ning ba'zi juftligi uchun korrekt bo'lsa, boshqa juftligi uchun nokorrekt bo'lishi mumkin. Lekin, (1) operator tenglamani yechish fizik masalalardan kelib chiqsa,  $f$  funksiya ixtiyoriy fazo elementlari bo'la olmaydi. Ko'pchilik hollarda  $F$  fazo  $C$  yoki  $L_2$  bo'lishi mumkin.

Matematik analizning differensiallash masalasi

$$\int_a^x \varphi(y) dy = f(x) \tag{3}$$

integral tenglamaga keladi. Differensiallash masalasi  $C$ ,  $C^1$  va  $L_2$ ,  $W_2^1$  fazolar jufti uchun korrekt qo'yilgan bo'lib,  $C$ ,  $C$  va  $L_2$ ,  $L_2$  fazolar jufti uchun korrekt qo'yilmagan bo'ladi. Lekin  $f(x)$  ning qiymatlari  $C$  yoki  $L_2$  fazo normasida berilganligi uchun bu masalani korrekt qo'yib bo'lmaydi.

Misol 1.  $u_{xx} - u_{yy} = 0$  tenglama yechimi

$$u(x, y) \Big|_{y=x} = \varphi(x), \quad \frac{\partial u}{\partial n} \Big|_{y=x} = \frac{1}{\sqrt{2}} \left( \frac{\partial u}{\partial x} + \frac{\partial u}{\partial y} \right) = \psi(x)$$

shartlar asosida topish masalasini korrekt qo'yilmaganligini isbotlaymiz.



Tenglama xarakteristik sistemasi  $dy - dx = 0$ ,  $dy + dx = 0$  bo'lib, uning xarakteristik chiziklari  $y - x = c_1$ ,  $y + x = c_2$  bo'ladi.

$\xi = x + y$ ,  $\eta = x - y$  almashtirishlar natijasida tenglamaning sodda ko'rinishi  $v_{\xi\eta} = 0$  bo'ladi. Bu tenglamaning umumiy yechimi

$v(\xi, \eta) = f(\xi) + F(\eta)$  bo'lib,  $u(x, y) = f(x + y) + F(x - y)$  bo'ladi.

Berilgan shartlardan foydalanib,  $f$  va  $F$  funksiyalarni topamiz

$$f(2x) + F(0) = \varphi(x), \quad \frac{\partial u}{\partial n} = (f'_\eta \cdot \xi_x + F'_\eta \eta_x + f'_\xi \xi_y + F'_\eta \cdot \eta_x)$$

Bulardan

$$f(2x) + F(0) = \varphi(x), \quad \sqrt{2}f'(2x) = \psi(x) \Rightarrow$$

$$f(x) = \varphi\left(\frac{x}{2}\right) - F(0)$$

$$f'(x) = \frac{1}{2}\varphi\left(\frac{x}{2}\right)' = \sqrt{2}\psi(x).$$

Oxirgi tenglikni qanoatlantiruvchi funksiyalar cheksiz ko'p. Shuning uchun qo'yilgan tenglama yechimi yagona bo'lmaydi. Bu yechimlar

$$u(x, y) = \varphi\left(\frac{x+y}{2}\right) - F(0) + F(x - y),$$

shu sababli masala korrekt qo'yilmagan.

Misol 2.  $y^2 u_{xx} + y u_{yy} + \frac{1}{2} u_y = 0 \quad (y < 0)$

$$u(x, 0) = \varphi(x), \quad u_y(x, 0) = \psi(x).$$

Tenglama giperbolik turda. Tenglamaning xarakteristik sistemasi

$$\frac{dy}{dx} = \pm(-y)^{-1/2} \Rightarrow$$

$$(-y)^{-1/2} dy = \pm dx, \quad -\frac{2}{3}(-y)^{-1/2} = \pm x + C$$

$$C_1 = x + \frac{2}{3}(-y)^{3/2}, \quad C_2 = x - 2/3(-y)^{3/2}$$

xarakteristiklarni hosil qilamiz.

$$\xi = x + \frac{2}{3(-y)^{3/2}}, \quad \eta = x - 2/3(-y)^{3/2}$$

belgilashlarga asosan tenglamaning sodda ko'rinishi  $V_{\xi\eta} = 0$  bo'ladi. Uning umumiy yechimi

$$V(\xi, \eta) = f_1(\xi) + f_2(\eta)$$

dan iborat.  $\xi, \eta$  lardan  $x, y$  larga qaytamiz

$$u(x, y) = f_1\left(x + \frac{2}{3}(-y)^{3/2}\right) + f_2\left(x - \frac{2}{3}(-y)^{3/2}\right).$$

$f_1$  va  $f_2$  larni aniqlashda

$$u(x, 0) = \varphi(x),$$

$$\lim_{u \rightarrow 0} (-y)^{\frac{1}{2}} u(x, y) = \Psi(x)$$

shartlardan foydalanamiz:

$$f_1(x) + f_2(x) = \varphi(x),$$

$$\lim_{u \rightarrow 0} (-y)^{1/2} \left\{ -f_1' \left[ x + \frac{2}{3}(-y)^{3/2} \right] + f_2' \left[ x - \frac{2}{3}(-y)^{3/2} \right] \right\} = \Psi(x).$$

Agar  $\Psi(x) \neq 0$  bo'lsa, oxirgi tenglik o'rinli bo'lmaydi. Agar  $\Psi(x) = 0$  bo'lsa, u holda

$$u(x, y) = \varphi \left[ x + \frac{2}{3}(-y)^{3/2} \right] - f_2(x + 2/3)(-y)^{3/2} + f_2 \left[ x - \frac{2}{3}(-y)^{3/2} \right]$$

bo'ladi, bunda  $f_2(x)$  ixtiyoriy ikki marta differensiallanuvchi funksiya. Demak, bu holda masala yechimi yagona bo'lmaydi. Shu sababli qo'yilgan masala korrekt emas.

Misol 3.  $u_{tt} = u_{xx}$  tenglamaning xarakteristik to'rtburchakda berilgan Dirixle masalasini korrekt qo'yilmaganligini isbotlaymiz.

Gursa masalasida xarakteristik to'rtburchakning qo'shni tomonida berilganlariga ko'ra yagona ravishda xarakteristik to'rtburchak ichida tenglama yechimini aniqlash mumkin. Shuning uchun tenglama yechimini xarakteristik to'rtburchakda aniqlash uchun soha chegarasida Dirixle shartini qo'yish shart emas. To'lqin tenglamasi uchun Dirixle sharti yagona yechimni aniqlashda ortiqchalik qiladi. Ortiqcha shartlar asosida masala yechimga ega bo'lmasligi mumkin. Bu aytilganlarga ko'ra to'lqin tenglamasi uchun Dirixle masalasi korrekt qo'yilmagan bo'ladi.

Misol 4.  $u_{tt} = u_{xx} \quad 0 \leq x < \infty$

$$u(x, 0) = \varphi(x), \quad 0 \leq x < \infty$$

$$u(0, t) = \Psi(t), \quad 0 \leq t < \infty \quad \varphi(0) = \Psi(0), \quad \varphi''(0) = \Psi''(0)$$

aralash masalani korrekt qo'yilmaganligini isbotlang.

Bu masalaga mos bir jinsli masala nolmas yechimga ega:

$$u(x, t) = \begin{cases} \omega \left( \frac{x+t}{2} \right) - \omega \left( \frac{x-t}{2} \right), & v-t \geq 0 \\ \omega \left( \frac{x+t}{2} \right) - \omega \left( \frac{t-x}{2} \right), & x-t \leq 0 \end{cases}$$

bunda  $\omega(x, t)$  ixtiyoriy ikki marta uzluksiz differensiallanuvchi va  $\omega'(0) = \omega''(0) = 0$  shartlarni qanoatlantiruvchi funksiya. Bir jinsli bo'lgan masala nolmas yechimga ega bo'lganligi uchun uning yechimi cheksiz ko'p bo'ladi. Demak, masala korrekt qo'yilmagan.

Matematik fizika masalasi shartli korrekt qo'yilgan yoki A.N. Tixonov ma'nosida korrekt qo'yilgan deb aytiladi, agar quyidagi shartlar bajarilsa:

1. Tajribadan ma'lumki, qo'yilgan masalaning yechimi mavjud va u yechim biror funksional fazoning to'plam ostisi  $M$  ga tegishli,
2. Masalaning yechimi  $M$  to'plamda yagona,
3.  $M$  ga karashli yechim masalaning berilganlariga uzluksiz ravishda bog'liq, ya'ni masala berilganlarining yechimni  $M$  dan tashqariga chiqarmaydigan cheksiz kichik variatsiyasiga yechimni  $M$  dagi cheksiz kichik variatsiyasi mos kelsa.

Korrektlikning klassik ta'rifi va A.N. Tixonov ma'nosidagi ta'rifi orasidagi farqni qarash muhimdir. Korrektlikning klassik ta'rifida yechimning mavjudligi isbotlanadi. Keyingi ta'rifda yechimning mavjudligi tajribadan kelib chiqadi. Yechimning yagonaligi esa xar ikkala holda bir xildir, ya'ni yagonalik teoremasini isbotlash orqali beriladi. Yechimning turg'unligi esa xar ikkala ta'rifda ham isbotlanadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Дурдиев Д.К. Обратные задачи для сред с последствием. Дис. док. физ-мат. Наука. 2019. 245 с.
2. Кабанихин С.И. Обратные и некорректные задачи. – Новосибирск.: Сибирское научное издательство, 2019. – 457 с.
3. Прилепко А.И. Об обратных задачах теории потенциала. //Дифференциальные уравнения. 2017. Т.3. С. 30-44.
4. Хайдаров А. Один класс обратных задач для эллиптических уравнений. //Докл. АН СССР, 2014. Т. 277. №6. С. 1335 – 1337.
5. Хайдаров А., Шодиев Д.С. О единственности решения обратных задач для дифференциальных уравнений второго порядка. Узб. мат. журнал. 2012. 76-78 стр.

## STAGES OF MANAGEMENT DECISION-MAKING IN THE ESTABLISHMENT OF ENTREPRENEURIAL ACTIVITY

**O'ktamjonova Zulayho**

Mentor:

Fergana Polytechnic Institute, Fergana, Uzbekistan

**Nizomiddinova Maftunaxon Shoirjonovna**

Student:

Fergana Polytechnic Institute, Fergana, Uzbekistan

**Boltayeva Ziyoda Bahodirovna**

Fergana Polytechnic Institute, Fergana, Uzbekistan

### ABSTRACT

This article provides information on the stages of making managerial decisions when starting a business. These decisions contain important concepts in business activities and cover many topics such as innovations, dealing with international companies, and the issue of trade protection. The article consists of five stages, including the journey of writing ideas and articles in entrepreneurial activity, business development strategy, business planning strategy, marketing strategy, choosing a strategy for working with employees and trade opponents, specializing with partners and foreign organizations, room and construction viewing and equipment organization topics are shown.

**Keywords:** entrepreneurs, purpose, organization, legal entity, strategy preparation, adding resources, reliable team.

Making management decisions when starting a business consists of the following stages:

#### **Case study and evaluation**

Before starting a business, it is necessary to study and evaluate the situation of the entrepreneur. At this stage, entrepreneurs need to gather explanatory data, economic analysis, and customer information to get the most out of compliance. [1]

**Defining goals:** After the goals that the management should set for the establishment of the business activity are protected, the entrepreneurs issue new strategies with the goals of watching and supporting.

**Perfecting the organizational structure:** One of the important stages of starting a business is the classification of the organizational structure, the services of representatives, and the appointment of management by employees. It delivers customization when entrepreneurs use metrics from multiple base managers.[2]

**Communicate a lot of information with management and employees:** Entrepreneurs require a lot of information exchange between managers and employees to ensure long-term bonding between employees and couples. The fact that they have studied ongoing promotions, most entrepreneurs are faced with professional development.

**New direction and goals:** In setting up an entrepreneurial activity, the narrative parts of the events, and the consultants setting new goals in the time spent on the original events, the entrepreneurs get the base lot in compliance. With this privatization, entrepreneurs can make changes to the Partnership for Change if they want to.[3]

To make reliable goals real and practical, it is necessary to create legal entities and make decisions about them at the first stage of business regulation.

For this purpose, the following should be done:

1. Determination of directions of entrepreneurial activity, identification of service or product-oriented to entrepreneurial activity.

2. With the help of the latest legal and non-legal indicators, it is necessary to put the necessary types of legal entities and education and qualification specialists in their activities.

3. It is necessary to follow the rules on the structure of legal entities. Based on the learning process, legal entities should be created by the procurement processes, departments, and categories of employees in the enterprise.

4. To regulate the activities of legal entities, it is necessary to assign and deposit initial capital in the necessary amounts.

5. To verify that the person has fully completed the study of governmental abilities to create the legal structure recommended for regulation.

6. Stages related to the provision of legal signs, services, or products to a person, the implementation of business activities and sidqi business chambers, legal and financial issues, or the main development procedure.[4]

The form, organization, creation, and activity of legal entities allow us to observe productive changes from the amount of the award.

It helps to decide on the establishment of a system of monitoring and control of the practical and financial condition of the business activity, to assess the sincere financial condition, development, and prospects of the business activity. For this purpose, the following steps should be taken to make a decision:

1. Preparation of financial statements: Annual, quarterly, and other financial statements of enterprises should be defined.

2. Ensuring financial control: checking the financial calculations and processes of enterprises, identifying errors in them, correcting them, and directly registering them.

3. Objectives and obligations of enterprises in the quarter: to compile a list of enterprises in the state of cooperation in the quarter and to determine all obligations and objectives.

4. Customer Service Needed Actions: Define several customer service business concepts, promotional strategies, and clear acceptable metrics for customer service times.

5. Checking the quality of financial documents: preparing financial documents (documents) of enterprises and checking their authenticity and content with natural indicators.

6. Identification of enterprise errors and correction of identified errors: identification of errors made under enterprise management, their elimination, and prevention of any repetition.

7. Solution of issues of a financial and legal nature, as well as maintenance of developed financial instructions.

It is important to establish a system of monitoring and controlling the practice and financial status of business activities, to ensure that the financial and legal requirements and obligations of enterprises do not deteriorate in their basic state.[5]

## CONCLUSION

Making management decisions when starting a business has a major impact on the success of the business. Practices such as setting goals, preparing a strategy, adding resources, creating a reliable team, creating a monitoring system and finding the necessary funds for business development, attracting emigration funds are accepted. These are the only actions for all entrepreneurs and are one of their independent steps towards business development and great success.

## REFERENCES:

1. World Bulletin of Management and Law (WBML) Available Online at: <https://www.scholarexpress.net> Volume-19, February-2023 ISSN: 2749-3601 PRINCIPLES OF ORGANIZATION OF BENCHMARKING SERVICE IN INDUSTRIAL ENTERPRISES Zulayxo Uktamjonova Assistant, Department of Management, Fergana Polytechnic Institute, Fergana, Uzbekistan
2. Расулов, Р., Сатторов, А., & Махкамова, Д. (2022). Вычисление Квадрат Нормы Функционала Погрешности Улучшенных Квадратурных Формул В

Пространстве. Central asian journal of mathematical theory and computer sciences, 3(4).

3. O‘zbekiston Respublikasida kichik va o‘rta biznes korxonalari rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlari. -T.: Davlat Mulk qo‘mitasi, 2001.

4. Rashidjon, R., & Sattorov, A. (2021). Optimal Quadrature Formulas with Derivatives in the Space. Middle European Scientific Bulletin, 18.

5. UO‘K 338.1.001.76           XORAZM           MA‘MUN           AKADEMIYASI  
AXBOROTNOMASI           -3/2-2023 SANOAT           KORXONALARIDA  
BENCHMARKINGNI TASHKIL QILISH ZARURIYATI           Z.A.Uktamjonova,  
o‘qituvchi, Farg‘ona politexnika instituti, Farg‘ona

6. Rasulov, R. ., Sattorov, A. ., & Mahkamova, D. T. . (2022). View of the Derivative Quadrature Formula Norm in Space . Modern Journal of Social Sciences and Humanities, 10.

7. World Bulletin of Management and Law (WBML) Available Online at: <https://www.scholarexpress.net> Volume-19, February-2023 ISSN: 2749-3601 PRINCIPLES OF ORGANIZATION OF BENCHMARKING SERVICE IN INDUSTRIAL ENTERPRISES Zulayxo Uktamjonova Assistant, Department of Management, Fergana Polytechnic Institute, Fergana, Uzbekistan E-mail: [zulayxoaminjonova@gmail.com](mailto:zulayxoaminjonova@gmail.com)

8. Хусанов Ю. Ю., Таштанов Х. Н. Ў., Сатторов А. М. Машина деталлари пармалаб ишлов бериладиган нотехнологик юзалар турлари //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 1. – С.

9. Husanov Y. Y., Abdullayev S. M., Sattorov A. M. MEXATRONIKA VA ROBOTOTEXNIKADA VIRTUAL LABORATORIYALARDAN FOYDALANISH //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 7. – С.

10. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI D. RASULEV, SH. NURULLAYEVA, N. RO‘ZMETOVA, M. MUMINOVA BIZNES-JARAYONLARINI MODELLASHTIRISH O‘quv qo‘llanma

## TARIXIY ASARLARDA ANTROPONOMIK PERIFRAZALAR

To‘xtayeva Zaynura O‘ktam qizi

BuxDU, Filologiya fakulteti

Lingvistika: O‘zbek tili ta’lim yo‘nalishi 2-kurs magistranti

### ANNOTATSIYA:

Maqolada tarixiy asarlarda qo‘llangan antroponomik perifrazalar tahlil qilingan. So‘z mulking dahosi, o‘zbek adabiy tilining asoschisi Hazrat Alisher Navoiy tarixiy asarlari “Tarixi muluki ajam”, “Tarixi anbiyo va hukamo”, qomusiy olim, tilshunos Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma”, Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” asarlariga murojaat qilingan bo‘lib, ularda qo‘llangan tasviriy ifodalar tahlilga tortilgan hamda ularning tilshunos sifatidagi mahorati, perifrazalar nutqning ta’sirchanligi, badiiyligini ta’minlovchi uslubiy vositalardan biri ekanligi ko‘rsatilgan.

**Kalit so‘zlar:** lingvistika, til, tilshunoslik, tafakkur, tarix, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abdulla Qodiriy, “Tarixi muluki ajam”, “Tarixi anbiyo va hukamo”, “Boburnoma”, “Mehrobdan chayon” perifraza, izoh, lug‘at.

Til – noyob xazina. Til inson tafakkuri bilan bog‘liq jarayon. Shu bilan bir qatorda muayyan darajada aniqlashtirilgan va tartibga solingan, tizimlashtirilgan tushunchalar majmuidir. Tildagi imkoniyatlardan har bir ijodkor o‘z salohiyati va imkoniyatidan kelib chiqib foydalanadi.

Nomshunoslikning kishi ismlarini o‘rganuvchi bo‘limi antroponimika deb yuritiladi. XX asrning ikkinchi yarmi XIX asrning boshlarida ahon tilshunosligida antroposentrizmning ilmiy tadqiqotlarda ustuvor yo‘nalish sifatida shakllanishi, barcha ilmiy sohalarda inson shaxsini o‘rganishga e’tibor ortishi bilan xarakterlanadi.

Tarixiy asarlarda kishilarning ismlari ularning xarakter xususiyatlaridan kelib chiqqan holda perifrazalanib nomlangan. Shu jumladan, Hazrat Alisher Navoiyning 1488-yilda yaratilgan “Tarixi mulki ajam” (“Ajam shohlari tarixi”) asaridagi antroponimlar buning yorqin ifodasidir. Masalan:

Odil podshoh – Manuchehr

*Manuchehr Erajning qizining o‘g‘li erdi. Bazi debturlarkim, o‘g‘lining o‘g‘li. Va el ani odil podshoh der edi [6, 190].*

Ayyosh va beparvo kishi – Navdar

*Navdar Manuchehrning o‘g‘lidur. Otasidin so‘ngra mulk anga yetti. Ammo u ayyosh va beparvo kishi erdi [6, 190].*

Sehri Narimon – Navdar



*Bazi tavorixda Navdarni Sehri Narimon debturlar. Va podshohligi ba'zi olti va ba'zi ikki yil debturlar [6, 191].*

Muxtalif mijoz va munqalib roy kishi – Kaykovus

*Kaykovuskim, ba'zi Kayqubodning o'g'lidur debturlar, ammo ko'prak va nabirasi debturlar. Va ul muxtalif mijoz va munqalib roy kishi erdi [6, 193].*

Bag'oyat rashid va bahodir kishi – Luhrasp

*Luhrasp binni Avrand Kaykovusning inisining o'g'lidur. Bu jihattin chun bag'oyat rashid va bahodir kishi erdi [6, 196].*

Xiradmand va pahlavon va xo'p surat podshoh – Dorob

*Dorob chun Humoy o'rnig'a taxtqa o'lturdi, adl va dod pesha qildi. Va ul xiradmand va pahlavon va xo'p surat podshoh erdi [6, 200].*

Kofiy va oqil kishi – Rashitan

*Va Rashitan otliq vaziri bor erdi, kofiy va oqil kishi erdi, Dorobjurd shahrini ul yasab, Dorob otig'a tasmiya qildi [6, 200].*

Olim va odil kishi – Eron binni Yalosh

*Eron binni Yalosh. Gudarzning qardoshi o'g'li erdi. Olim va odil kishi erdi [6, 205].*

Hunarparvar podshoh – Xisrav binni Firuz

*Xisrav binni Firuz aning qoimmaqomi bo'ldi va ul hunarparvar podshoh erdi. Hunar ahlin sevar erdi [6, 206].*

Akobiralar – Sosoniylar

*To'rtinchi tabaqa Sosoniylardur. Kim alarni akobiralar ham debdurlar [6, 207].*

Husnu jamol va rushdu kamolda nodir – Shohpur

*Bu holdin oz vaqt o'tgach, homila tug'uldi va vazir anga Shohpur ot qo'ydi. Husnu jamol va rushdu kamolda nodir bo'lib erdi [6, 209].*

Zamona yagonasi – Borbad

*Yana bir Borbad nomli mug'anniy bor erdikim, xalq ani "zamona yagonasi" derdi [6, 229].*

Zamona a'lami – Buzurg Umid

*Yana Buzurg Umiddek vaziri bor erdikim, aning zamona a'lami erdi. Ul ham g'arib amr erdi [6, 229].*

Olam Nodirasi – Shirin, olam ajubasi – Farhod

*Biri ulkim, agarchi Shirindek olam Nodirasi bor erdi, vale Farhoddek ham olam ajubasi bor erdikim, ishq va niyoz atrofidin bovujudi Xusravdek podshoh ko'ngli Farhodga mayl qilib, iltifot va tarahhumlar zohir qildi [6, 230].*

Amiral mo'minin – Umar raziy ollohu anhu

*Va Yazdijurd muddate sa'y qilib, ilik-oyoq urdi va bo'ldura olmadi va amirulmo'minin Umar raziy ollohu anhu cherikiga mulkun oldurub, qochib mulk arab ilkiga tushti va islom livosi sarafroz bo'lib, kufr alami nigunsor bo'ldi [6, 235].*

So'z mulkining dahosi Hazrat Alisher Navoiyning "Tarixi anbiyo va hukamo" asarida ham antroponimik perifrazalar mavjud bo'lib, "Tarixi anbiyo va hukamo" ("Payg'ambarlar va hakimlar tarixi", 1485–1498) asarining birinchi bo'limida "Qissasul-anbiyo"lar an'analarini davom ettirib, Odam alayhis-salomdan Nuh, Iso, Muso, Ya'qub, Sulaymon, Yusuf, Dovud kabi payg'ambarlar tarixiga oid qissalar keltiriladi. Mana shunday ulug' asarda o'zbek adabiy tilining asoschisi so'z boyligini yana bir karra namoyish qilib, shaxs nomlarini perifrazalab qo'llaganligiga guvoh bo'lish mumkin. Jumladan:

Kufr va inod ahli – Qobil avlodi

*Va Qobil avlodikim, kufr va inod ahli bo'lib, otashparastliqqa juda mashg'ul erdilar, qolin bo'lib, Odam avlodig'a zararlar tegar erdi [7, 2].*

Odil va saxiy kishi – Anush

*Anush payg'ambar emas erdi, ammo valoyatdin nasibi bor erdi. Va odil va saxiy kishi erdi [7, 2].*

Bag'oyat zeboro'y va pisandidaxo'y kimsa – Yazid

*Yazid binni Mahloyil. Derlarkim, Yazid bag'oyat zeboro'y va pisandidaxo'y erdi. Va ariqlar qozib, suv chiqordi va ko'p nikoh qilur erdi [7, 3].*

Musallasun-na'ma – Axnux

*Yazidga qirq o'g'il paydo bo'ldi. Boridin kichikrog'i Axnux erdikim, ani Idris ham derlar. Idris suryoniy payg'ambardur. Cherik tortub, ko'p jihod qilib, Qobil avlodinkim, butparastliq qilur erdilar, qatl va asir qilib, g'azv va jihod qoidasinul arog'a kiyurdi. Va ani xalq musallasun-na'ma deydilarkim, uchunchi payg'ambar va uchunchi hakim va uchunchi podshoh erdi [7, 3].*

Ikkinchi Odam – Nuh a.s.

*Olam ahli aksari Nuh naslidindur. Bu jihatdin ani ikkinchi Odam debdurlar. Va aning to'rt o'g'li bor erdi: Yosaf va Som va Hom va Ka'non [7, 4].*

"Payg'ambari mursal" – Yosaf

*El Yosafni "payg'ambari mursal" debdurlar. Va ani yeti o'g'li bor erdi: Buka, Xizr, Suqlob, Rur, Bik, Chin, Kamo. Ba'zi sakiz ham derlar [7, 4].*

"Bazmi payg'ambari mursal" – Som

*Somni ham "bazmi payg'ambari mursal" debturlar va ko'proq anbiyo. Va Eron mulukining naslidandur [7, 4].*

So'z dahosi o'z ijodida perifrastik birliklardan foydalanar ekan, bu orqali ushbu lingvistik vositaning til sathida alohida ahamiyatga molik ekanligi, bu vosita o'sha davrda ham tilning asosiy unsuri sanalaganligidan dalolat beradi. Perifrazalar nafaqat

Hazrat Alisher Navoiy ma'naviy merosida, balki, buyuk qomusiy alloma, yirik tilshunos Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarida ham uchraydi.

"Boburnoma" – qomusiy asar. Unda o'nlab fanlarga oid ma'lumotlar keltiriladi va saqlanadi. Unda tilshunoslikka oid juda ko'p terminlar, istilohlar va atamalar uchraydi. Jumladan, perifrazalarning ushbu asarda uchrashi, shu asar muallifining so'z qo'llay olish mahoratidan, tilning bunyodkorlik qudratini ko'rsata olishidan darak beradi.

"Boburnoma" ulug' bir asar hisoblanadi. Unda lingvistik birliklardan unumli foydalanilgan. Asarda shaxs otlari, shaxsga aloqador bo'lgan xususiyatlar, shuningdek, o'rin-joy, hudud, viloyat, shahar, tuman nomalari hamda o'simlik, giyoh, dorivor vositalarning nomlari perifrazalangan. Quyida "Boburnoma" asarida qo'llangan antroponomik perifrastik birliklar keltiriladi va tahlilga tortiladi. Jumladan:

Baland himmatliq, ulug' doiraliq – Umarshayx mirzo

*Chun Umarshayx mirzo baland himmatliq va ulug' doiraliq podshoh erdi* [10, 9].

Pokiza e'tiqodliq kishi – Umarshayx Mirzo

*Axloq va atvori: hanafiy mazhabliq, pokiza e'tiqodliq kishi edi, besh vaqt namozni tark qilmas edi, umriy qazolarini tamom qilib edi, aksar tilovat qilur erdi* [10, 10].

Asru ko'p suyaklik, ko'p musallit – Qutuqbegim

*Yana biri Qutuqbegim edi. Ushbu Tarxonbegimning ko'kaldoshi edi. Sulton Ahmad mirzo oshiqliqlar bila olib edi, asru ko'p suyaklik edi va ko'p musallit edi. Chog'ir ichar edi* [10, 21].

Bisyor oqila va mudabbira – Esan Davlatbegim

*Xotunlar orasida ra'y va tadbirda mening ulug' onam Esan Davlatbegimcha kam bo'lg'ay edi, bisyor oqila va mudabbira edi. Ko'proq ish-kuch alarning mashvarati bila bo'lur edi* [10, 25].

Odmi va asil kishi – Shayx Abdullo

*Yana biri Shayx Abdullo barlos edi. To'nni siriq va tor kiyar edi. Odmi va asil kishi edi* [10, 29].

Kordon va sohib tajriba podshoh – Sulton Husayn

*Sulton Husayn mirzo kordon va sohib tajriba podshoh edi. Qunduz sari suv yuqqori boqa ko'chti* [10, 33]. Sulton Husayn mirzo aqlli, bilimdon, ishning ko'zini biladigan, tajriba egasi, shaxs sifatida o'ziga xos xarakter-xususiyatga ega bo'lgan podshoh ekanligini ko'rsatish maqsadida «kordon va sohib tajriba podshoh» perifrazasidan foydalanilgan hamda yozuvchining tilshunoslik mahorati orqali bu birlik shakllantirilgan.

Ulug' ixtiyor bek – Shayx Abdullo barlos

*Shayx Abdulla barlos ulug' ixtiyor bek edi. O'g'lonlari andoq muqarrab va ichki edilarkim, oshiqlik bila mashuqlikka nisbat qilurlar edi* [10, 35]. Shayx Abdullo barlos

shaxsiga nisbatan ulug' ixtiyorbek perifrazasining qo'llanishi shu shaxsning yakka shaxs sifatidagi o'rni, o'sha davr, muhitdagi roli ko'rsatilgan.

Sahihi Buxoriy – Imom al-Buxoriy

*Yana sohibi "Sahihi Buxoriy", Xoja Ismoil Xartang ham Movarounnahrindur* [10, 44].

Tarixda, tarixiy asarlarda, ilm olamida, jamiyatda, insonlar orasida Imom Buxoriyning "Al-jome' as-sahih", "Sahihi Buxoriy" nomi bilan tanilgan ushbu kitobi "Al-jome' as-sahih al-musnad min hadisi Rasulillahi sollallohu alayhi va sallam va sunanihi va ayyamihi" ("Rasululloh sollallohu alayhi va sallam hadislari, sunnatlari va muborak hayotlaridan to'plangan sahih musnad") deb nomlagan. Asar nomini ifodalash, narsa, belgi, holatga ishora qilish orqali semantik jihatdan shu shaxs nazarda tutilayotganligi matndan anglashiladi.

Yoki Abdulla Qahhorning "Mehrobdan chayon" romanida Ra'noning egasi, talab ahlining mirzosi, Mohlaroyimning yarasi, pushti panoho, qiblayi olam, maxdumning asrandisi, ko'krak bolasi, haram dallasi, hayot sham'i, moltopar, zarurat singari perifrastik birliklar uchraydi. Bu orqali kishi shaxsini, xarakter xususiyatni, uning turmush tarzini ko'rsatib berish maqsad qilingan.

"Talab ahlining Mirzosi", "Ra'noning egasi", "maxdumning asrandisi" kabi perifrazalar romandagi bosh obraz Anvar Mirzoni nazarda tutadi. Muallif shu orqali nutqidagi takror va qaytariqlarning oldini olgan. *Nigor oyim "Ra'noni egasiga topshirmag'uningizcha..." deb garchi birmuncha qo'polroq ta'bir bilan bo'lsa ham "Ra'noning egasi" borlig'ini so'zlar, Ra'no ersa egasining kim ekanligini yaxshi bilgani va uni qanot qoqib qarshi olg'ani uchun jodu ko'zida rizosizliq emas, surur ma'nolari o'ynatar edi ("Mehrobdan chayon" 8-bet).*

Xulosa qilib aytganda, tilshunoslik ilmida til tarixi, tarixiy asarlar leksikasini tadqiq qilish, uning taraqqiyot bosqichlari, ijtimoiy, ma'naviy, lingvistik qiymatini o'rganish, buyuk ajdodlarimiz tafakkur mahsuli bo'lgan manbalarni chuqur tahlil qilish muhim ilmiy yo'nalishlarni tashkil etadi. Perifrastik birliklarni har tomonlama tadqiq qilish amaliy ahamiyatga ega bo'lib, bu orqali o'zbek tili kechagina yoki bugun to'satdan paydo bo'lgan tillar sirasiga kirmasligi, uning o'z til xususiyatlari, imkoniyatlari mavjud ekanligini ko'rsatadi. Bir so'z bilan aytganda, shaxs nomlarini perifrazalash orqali shu shaxsga xos bo'lgan ijobiy va salbiy xususiyatlar, uning iqtidori, jamiyatda tutgan o'rni, inson sifatidagi ichki olami ham asos qilib olingan.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Abdulla Qodiriy. Mehrobdan chayon. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2011. – 327 b.
2. Ahmadova U. S. Q. “PERIFRAZA” ATAMASI VA UNING NOMLASHDAGI O‘RNI //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2021. – T. 1. – №. 8. – С. 431-442.
3. Ахмадова У.Ш. ПЕРИФРАЗЫ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ //Крымскотатарская филология: проблемы изучения и преподавания. – 2020. – №. 1. – С. 24-31.
4. Ahmadovich H. S., Muminovna M. M. About Nisoriy Bobur And Humoyun //NVEO-NATURAL VOLATILES & ESSENTIAL OILS Journal| NVEO. – 2021. – С. 4753-4767.
5. Ahmadovich S. H. CRITERION OF JUSTICE //Scientific reports of Bukhara State University. – 2020. – T. 4. – №. 1. – С. 193-204.
6. Alisher Navoiy. Tarixi muluku ajam. – Toshkent: “G‘afur G‘ulom”, 1967. – B. 239.
7. Alisher Navoiy. Tarixi anbiyo va hukamo. – Toshkent: “G‘afur G‘ulom”, 1967. – B. 265.
8. Hayitov S.A. DREAM OF A PERFECT RULER // Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 1. – С. 459-463.
9. Hayitov S. A. The altitude of maturity //Scientific reports of Bukhara State University. – 2020. – T. 3. – №. 1. – С. 167-172.
10. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – Toshkent: Yulduzcha, 1989. – B. 367.
11. Sh A. U. Types of periphrases according to social-professional classification //The American Journal of Social Science and Education Innovations, ISSN. – С. 318-325.

## O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA PERIFRASTIK BIRLIKLAR TADQIQI

**Latipova Dildora Komiljon qizi**

BuxDU, Filologiya fakulteti

Lingvistika: O‘zbek tili ta’lim yo‘nalishi 2-kurs magistranti

### ANNOTATSIYA:

Maqolada o‘zbek tilshunosligida perifrastik bo‘yicha amalga oshirilgan tadqiqotlar haqida fikr yuritilgan bo‘lib, ularning amaliy va nazariy jihatlari xususida so‘z borgan. Shuningdek, hunarmandchilik sohasining milliy an‘ana va qadriyatlarimizni shakllantirishdagi o‘rni va amaliy ahamiyati, shu sohada qo‘llanuvchi perifrastik ham tahlilga tortilgan bo‘lib, perifrastik nutqning ta’sirchanligi, badiiylikni ta’minlovchi uslubiy vositalardan biri ekanligi asoslanilgan.

**Kalit so‘zlar:** ilm-fan, R.Qo‘ng‘urov, A.Hojiyev, M.Mirtojiyev, S.Shodiyev, H.Shamsiddinov, hunarmandchilik, lingvistika, til, tilshunoslik, tafakkur, perifraza, an‘ana, qadriyat.

Ilm-fan taraqqiyotida turli sohalarning integratsiyalashuvi tildan amaliy foydalanishning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Lisoniy birliklarning nazariy asoslari bilan emas, balki ularning nutqiy ifodasi, mazmun-mohiyati, pragmatik va psixologik xususiyatiga e’tibor tobora kuchaymoqda. Bu esa amaliy tilshunoslik tarkibida jamiyat farovonligini ta’minlashni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan, inson omilini ulug‘lashni vazifasi deb bilgan qator yo‘nalishlarning shakllanishiga sabab bo‘ldi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar tufayli til va xalq madaniyati yuksalishi yanada kuchayib borayotgan hozirgi sharoitda o‘zbek tilshunosligi muammolarini jahon tilshunosligida erishilgan yutuqlar asosida chuqur hal qilishga e’tibor ortmoqda.

O‘zbek tilshunosligida perifrastik birliklarni o‘rganish XX asrning 90-yillaridan boshlangan. O‘zbek tilshunosligida ko‘chim turi sifatida perifrastikni o‘quv qo‘llanmasiga olib kirgan tilshunos olim R.Qo‘ng‘urov 1983-yilda nashr etilgan “O‘zbek tili stilistikasi” qo‘llanmasida: “...kishilarning otlarini yoki boshqa predmetlarning nomini to‘g‘ridan-to‘g‘ri gapirmasdan, ularni turli xil so‘z yoki tasviriy iboralar vositasida bayon qilish perifrastik deyiladi. Bu termin perifraza, parafraz, parafrasa deb ham yuritiladi” [26], deb ta’riflaydi.

A.Hojiyevning “Lingvistik terminlarning izohli lug‘ati”da quyidagicha izoh keltirilgan: “Narsa, hodisani o‘z nomi bilan emas, tasviriy usul bilan ma’lum kontekst,

situatsiyadagi xarakterli belgi-xususiyati orqali ifodalaydigan stilistik priyom. Masalan, dala malikasi, (makkajo‘xori)” [22] kabilar.

O‘zbek tilshunosligida perifraza xususidagi ilmiy va nazariy ma’lumot, asosan, M.Mirtojiyevning tadqiqotlarida kuzatish mumkin. Tilshunos olimning ta’kidicha: “Perifrazalar ma’lum bo‘lagi yoki bo‘laklari ko‘chma ma’noda bo‘lib, ular ma’nosi sintezidan tashkil topgan, bir tushunchani bildiruvchi lug‘aviy birlikdir. ...perifraza holida maqom olgan birikmada, garchi semantik qayta bo‘linish kechgan bo‘lsa ham, unda sintaktik qayta bo‘linish kuzatilmaydi” [23, 24]. O‘zbek tilshunosligida perifrazaga bag‘ishlangan ilk maqola H.Shamsiddinov tomonidan e’lon qilingan. Maqola muallifi o‘zak masala – perifrazaning frazeologizm bilan umumiy va xususiy jihatlari haqida fikr yuritgan o‘rinlarda perifrazaning predmet-hodisani qayta nomlash, frazeologizmning esa belgini, holatni va harakatni qayta nomlashini dalillaydi hamda perifraza ham frazeologizmlar kabi til fakti sifatida tan olinishi lozimligini uqtiradi [28].

I.E. Umirov “O‘zbek tili perifrazalari” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida o‘zbek tili perifrazalarini ilk marta monografik planda ilmiy-nazariy jihatdan atroflicha o‘rgandi [27]. Tadqiqotda perifrazalarga, asosan, nutqiy hodisa sifatida qaradi va perifrazalarni quyidagi turlarga ajrtib tahlil qildi. Jumladan:

a) hosil bo‘lish usuliga ko‘ra: leksik perifraza, frazeologik perifraza, sintaktik perifraza, logik perifraza, sof va kontekstual perifraza;

b) semantikasiga ko‘ra: mualliflik ma’nosini ataydigan perifraza, kasb-kordagi mahoratni anglatadigan perifraza, shaxsning jamiyatda tutgan o‘rnini anglatadigan perifraza, ijodkor asaridagi biror g‘oya va mavzuni bildiradigan perifraza, san’at namoyandalari yaratgan o‘lmas obrazlarni bildiradigan perifraza, muassasa va muayyan joylarni anglatadigan perifraza, suyuqlik va texnika predmetlarini anglatadigan perifraza, tabiat hodisalari va o‘simliklarni anglatadigan perifraza, jonivor nomlarini anglatadigan perifraza, shaharlarni ifodalaydigan perifraza. I.E.Umirov o‘zi ajratgan turlarning tabiati, mohiyatini ochib berishga harakat qilgan. Shuningdek, perifrazalarning kasb-hunar leksikasi, evfemizm, frazeologizm, sinonim, epitet, metafora (badiiy metafora), metonimiya, sinekdoxa, funksional ko‘chish kabi lisoniy hodisalarga munosabati ham mazkur tadqiqotda batafsil yoritilgan.

S.Shodiyev “Parafrazalar va ularning derivatsion xususiyatlari” [29] nomli maqolasida ayrim jo‘yali mulohazalarni bildirib o‘tadi. Tadqiqotchi talqinida perifrazalar qismlarining sintaktik aloqasi statik xarakterli bo‘lgani uchun ular turg‘un so‘z birikmalari qolipida o‘rganilishi lozim. Bunday birikmalarning sintaktik shakllanishi muayyan tushunchalarning nutqdagi ta’sirchanligini oshirish maqsadi bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi. Boshqacha aytganda, ma’lum bir lug‘aviy birlik shu maqsadda, shu kontekstda boshqacha nomlanadi. Masalan, dala malikasi, aql

gimnastikasi perifrazalari makkajo‘xori, shaxmat yoki matematika tarzida tilimizning lug‘at tarkibida mavjud bo‘lgan so‘zlarning nutqda boshqacha nomlar bilan aytilib, mazmuniy salmog‘iga ko‘ra ta’sirchanligini oshirish uchun xizmat qiladi. D.Aytboyevning “O‘rin-joy bildirgan perifrazalarda motivlashuv”, “Konkret shaxslarni anglatuvchi perifrazalarda motivlashuv”, “Sarlavhada perifrazalar” kabi maqolalarida shaxs nomlarini, o‘rin-joy nomlarini ifodalovchi perifrazalarning mavjudligi va ularning sarlavhaga chiqarilishi bilan bog‘liq tomonlariga e‘tibor qaratgan [19, 20, 21].

U.Ahmadova “Perifrazalarning sotsial xususiyatlari” nomli monografiyasida “Perifrazalar uslubiy vosita sifatida nutqqa ko‘tarinkilik, obrazlilik baxsh etadi, jamiyat taraqqiyoti talablaridan kelib chiqib, lug‘at tarkibini boyitib boradi. Nutq jarayonida takrorlardan, qaytariqlardan qochish imkonini beradi, notiqni so‘zamollikka, tinglovchini esa falsafiy mushohada etishga undaydi” [18]. Shuningdek, perifrazani “Murakkab tabiatli hodisa” [18] sifatida baholaydi.

O‘zbek tilshunosligida Umidaxon Ahmadova “Publitsistik uslubda perifrazalar” magistrlik dissertatsiyasida publitsistik uslubda qo‘llangan perifrazalarni yig‘ib tahlilini amalga oshirgan. Shu asosida Abuzalova M.Q., Ahmadova U.Sh. hammuallifligida “Publitsistik tasviriy ifodalarning qisqacha izohli lug‘ati” yaratilgan. Shu yo‘nalishda qator maqolalari e‘lon qilingan. Abuzalova M.Q., Ahmadova U.Sh. “Perifrazalar va unga yondosh hodisalar xususida” (2020), Ahmadova U.Sh. “Perifraza turlari va ularning matndagi o‘rni” (2020), “Publitsistik uslub perifrazalari xususida” (2017), “Pedagog nutqida perifrazalar”, “Перифразы в узбекском языке” [13] (2020), “Kitlesel bilgi araçlarında perifrazaların ifade edilmesi” [14] (2020), “Differentiation of periphrases by gender classification” [15] (2020), “Ommaviy axborot vositalarida tasviriy ifodalarning o‘rni” [3] (2015), “Publitsistik uslubda shaxs nomlarini ifodalovchi tasviriy ifodalar” [4] (2016), “Publitsistik uslubda o‘rin-joy nomini ifodalovchi tasviriy ifodalar” [5] (2016), “Matbuot tilidagi perifrazalarda sinonimlik” [7] (2017), “Badiiy uslub va tasviriy ifoda” [9] (2018), “Axborot globallashuvda perifrazalarning o‘rni” [10] (2019), “Tibbiyot xodimlari nutqida perifrazalar” [16] (2020) kabi qator maqolalarida perifrazalarning publitsistik, sotsial, ijtimoiy-kasbiy, milliy-etnik jihatdan tahlillarini amalga oshirib, nazariy jihatdan yoritgan.

Keyingi yillarda M.Q.Abuzalova ilmiy rahbarligida Ahmadova U.Sh. “Perifrazalarning sotsial xoslanishi” [17] mavzusida nomzodlik dissertatsiyani yaratdi. Unda o‘zbek tili sotsial perifrazalari uchun xos bo‘lgan materiallar to‘planib, mavzuviy guruhlari belgilangan, milliy-etnik xususiyatlari, jins belgisiga, kishi yoshiga ko‘ra farqlanishlari, ijtimoiy-kasbiy tasnifga ko‘ra turlari lisoniy xususiyatlari ochib berilgan. A.Qobilovanning “Tibbiy perifrazalarning lingvomadaniy xususiyatlari (ingliz



va o‘zbek tillari misolida)” [25] nomzodlik dissertatsiyasida ingliz va o‘zbek tillari tibbiy perifrazalarini lingvomadaniy tahlil doirasida sotsiomadaniy, kontekstual-diskursiv, ijtimoiy-psixologik, funksional aspektlarda yoritib berilgan.

Ta’kidlash joizki, perifraza nutqning rang-barangligini, badiiyligini ta’minlovchi uslubiy vosita bo‘lib, u tilning nomlash ehtiyoji mahsuli emas, balki ifoda ehtiyoji mahsulidir. Chunki u o‘z nomiga ega bo‘lgan predmet-hodisani qayta nomlaydi. Mazkur xususiyatga bog‘liq holda perifraza nutqda ham nominativ, ham estetik, ham badiiy vazifa bajaradi.

Umuman olganda tilshunoslik ilmida perifrazalarni sotsial jihatdan o‘rganish va tadqiqini davom ettirish mumkin. Chunki istalgan jamiyatda tilshunoslik ilmida har bir soha nutqini o‘rganish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Shu jumladan, hunarmandlar leksikasi boy til sanaladi. Unda nafaqat milliylik omili balki, o‘zbek xalqining, istalgan bir xalqning eng qadimgi davrlarga borib taqalishi xususidagi ma’lumotlarni olish mumkin. O‘zbek tili leksikasining imkoniyatlari kengroq ekanligini o‘z sohasida qo‘llangan terminlarda asoslaydi. Adabiy tilni jonli tilga yaqinlashtiradi. Xalqdan olib, uni boyitib, sayqallashtirib xalqqa beradi. Hunarmandlar tili nutq madaniyatini, lingvokulturologiyani rivojlantirishga zamin hozirlaydi. Uzoq ming yillik tariximizni, ma’naviyat-u madaniyatimizni o‘zida jonli aks ettiradi. Xalqona an’ana va urf-odatlarimizni bag‘rida asraydi. Shuning uchun ham hunarmandlar leksikasini o‘rganish, lingvistik jihatdan tahlil qilish tilimiz uchun samara beradi.

Mana shu soha vakillarining nutqida qo‘llangan perifrazlar ham anchagina bo‘lib, tilni boyitish va jamiyatni taraqqiy toptirish uchun xizmat etadi. Ularning leksikonidagi birliklar ham o‘zbek tili leksikografiyasini to‘ldirishda hissa qo‘shadi. Jumladan:

Ip va ignalar xonimi – tikuvchi

*Tikuvchi ishi ishchi ish vaqtining ko‘p qismini tikuv mashinasida o‘tirgan holda o‘tkazadi deb taxmin qiladi, shuning uchun “ip va ignalar xonimi” qat’iyatlilik, sabr-toqat va tirishqoqlikka ega bo‘lishi kerak (So‘zlashuvdan).*

Mohir yordamchi – tokli mashina

*Mohir yordamchisiz kiyim-kechak tikish, buyumlarni bezash (choklar hosil qilib naqsh tushirish), ularni qavish va boshqa maqsadlarda foydalanish tokli mashinasiz ancha murakkab (So‘zlashuvdan).*

Tikuv quroli – igna

*Igna, nina – tikuvchilik, trikotaj ishlab chiqarish, matbaa va boshqalarda keng ishlatiladigan tikuv quroli hisoblanadi (Muslima Hamroyeva nutqidan).*

Tikuvchining o‘ng qo‘li – qaychi

*Qadim zamonlardan beri tikuvchining ish qurollari igna, tikuvchining o'ng qo'li qaychi bo'lib, 19-asrdan boshlab tikuv mashinasi tobora ko'proq foydalanila boshlandi (Hunarmandlar ko'rsatuvidan).*

Barmoq himoyachisi – Angishvona

*Kiyim-kechak, ko'rpa-yostiqlik tikishda barmoqlarga igna sanchilmasligi va ignani qalinroq gazlamadan o'tkazishda barmoq himoyachisi ishlatiladi (So'zlashuvdan).*

Qadash vosita – tugma

*Qadash vosita tanlashda albatta shakliga va xususiyatiga e'tibor berish kerak. Tugmalar turli materiallardan (yog'ochdan, plastmassadan, temirdan, alyuminiydan, kauchukdan, matodan, suyakdan) tayyorlanadi, uning*

*shakllari turlicha (to'rtburchak, uchburchak, doira) bo'ladi va tugmada bir qancha teshiklar (ikkita, to'rta, baldoqli) bo'lishi mumkin (Mohir qo'llar ko'rsatuvidan).*

O'rgimchak to'ri – yelim

*Tikuvchilar ko'ylakni bir-biriga ulayotganda asosan o'rgimchak to'ridan foydalanishadi (So'zlashuvdan).*

Ko'rinadiki, tikuvchilik kasbi perifrazalarini uzoq davom ettirish mumkin. U har bir bergan bezagiga, naqshiga, har bir toshiga, rangiga qarab o'z san'at asarini yaratadi va unga mehr qo'yadi. Tikuvchi istalgan turdagi matodan yangi bir asar yaratadi. Qadimdan ma'lumki, gazlamalar turlicha bo'lib, turfa maqsadlarda joyiga qarab liboslar kiyilgan.

Xulosa sifatida ta'kidlash joizki, hunarmand nutqida yoki sohasida til birliklaridan ya'ni ekspressivlikka boy so'zlar, perifrazalar, tasviriy ifodalardan foydalanish orqali mahsulotni xaridorgir qilish, diqqatni tortish, milliy an'ana va urf-odatlarini tarannum etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Natijada lingvomadaniy vosita sanalgan perifraza yordamida o'zga yurt vakillari o'zbek xalqining madaniyati, tarixi bilan tanishishni istaydi. Perifraza nutqning rang-barangligini ta'minlovchi uslubiy vosita sanaladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Abuzalova M.Q., Ahmadova U.Sh. Publitsistik tasviriy ifodalarning qisqacha izohli lug'ati. – Toshkent: Navro'z, 2016. – 37 b.
2. Абузалова М.Қ., Аҳмадова У.Ш. Перифразалар ва унга ёндош ҳодисалар хусусида // Сўз санъати халқаро журнали. ISSN: 2181-9297. Doi Journal 10.26739/2181-9297. – Тошкент, 2020. № 6. – Б. 76-81.

3. Ahmadova U.Sh. Ommaviy axborot vositalarida tasviriy ifodalarning o‘rni // Филология масалалари // Илмий-методик мақолалар тўплами. –Тошкент: Наврўз, 2015. – Б.184-186.
4. Ahmadova U.Sh. Publitsistik uslubda shaxs nomlarini ifodalovchi tasviriy ifodalar // Тафаккур ва талқин. – Бухоро, 2016. – № 5. – Б.22-24.
5. Ahmadova U.Sh. Publitsistik uslubda o‘rin-joy nomini ifodalovchi tasviriy ifodalar // Тилнинг лексик-семантик тизими, қиёсий типологик изланишлар ва адабиётшунослик муаммолари. – Тошкент: Наврўз, 2016. – Б.475-477.
6. Ahmadova U.Sh. “Publitsistik uslubda perifrāzalar”. Magistrlik dissertatsiyasi. Buxoro. 2017. – B. 88.
7. Ahmadova U.Sh. Matbuot tilidagi perifrāzalarda sinonimlik // «Lison ilmining chin yalovbardori» mavzusidagi Respublika ilmiy-nazariy anjuman materiallari. – Toshkent: Navro‘z, 2017. – B. 81-83.
8. Ahmadova U.Sh. Publitsistik uslub perifrāzalari xususida // Бухоро университети илмий ахборотлари. – Бухоро, 2017. – № 2. – Б. 96-100.
9. Аҳмадова У.Ш. Бадиий услуб ва тасвирий ифода // Филология ва методика масалалари. – Тошкент: Наврўз, 2018. – Б. 67-69.
10. Ahmadova U.Sh. Axborot globallashuvida perifrāzalarning o‘rni // Tilshunoslik va metodika masalalari. – Toshkent: Muharrir nashriyoti, 2019. – B. 44-46.
11. Аҳмадова У.Ш. Перифраза турлари ва уларнинг матндаги ўрни // Тил, таълим, таржима халқаро журналі. ISSN: 2181-0796. Doi Journal 10.26739/2181-0796. – Тошкент, 2020. № 4. – Б. 81-87.
12. Ahmadova U.Sh. Pedagog nutqida perifrāzalar // Бухоро давлат университети илмий ахборотлари. – Бухоро, 2020. – № 2. – Б. 142-146.
13. Аҳмадова У.Ш. Перифразы в узбекском языке // Крымскотатарская филология: проблемы изучения и преподавания. – Крым, 2020. – № 1(4). – С. 25-32.
14. Ahmadova U.Sh. Kitlese bilgi araçlarında perifrāzların ifade edilmesi // Filoloji ve Kültür Araştırmaları. Karabük, – 2020, – № 2. – Sah. 259-261.
15. Ahmadova U.Sh. Differentiation of periphrases by gender classification // Monografia pokonferencyjna science, research, development #32. 2. Berlin, ISBN: 978-83-66401-65-5. 30.08.2020 – 31.08.2020. – B. 149-151.
16. Аҳмадова У.Ш. Тиббиёт ходимлари нутқида перифразалар // «Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар» мавзусидаги Республика 20-қўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари 7-қисм. – Тошкент, 30.09. 2020. – Б. 37-38.
17. Ahmadova U.Sh. “Perifrāzalarning sotsial xoslanishi”. Filol.f.nomz.diss.avtoref.: – Buxoro, 2021. – 54 b.

18. Ahmadova U.Sh. Perifrazalarning sotsial xususiyatlari. – Toshkent: Muharrir nashriyoti, 2022. – B. 143.
19. Айтбоев Д. Ўрин-жой билдирган перифразаларда мотивлашув // Тил ва адабиёт таълими. 2006. № 4. – Б. 19-22.
20. Айтбоев Д. Конкрет шахсларни англатувчи перифразаларда мотивлашув // Тил ва адабиёт таълими. 2007, № 4. – Б. 34-39.
21. Айтбоев Д. Сарлавҳада перифразалар // Ўзбек тили ва адабиёти. 2007, № 4. – Б. 65-68.
22. Ҳожиёв А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1985. – 67-б.
23. Миртожиев М.М. Ўзбек тили лексикологияси ва лексикографияси. – Тошкент: Фан, 2000. – Б. 42.
24. Миртожиев М.М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Университет, 2007. – Б.185.
25. Qobilova A. Tibbiy perifrazalarning lingvomadaniy xususiyatlari. Filol.fan.nom.dissertatsiyasi. – Buxoro, 2022. – B. 155.
26. Қўнғуров Р. Ўзбек тили стилистикаси. Тошкент: Ўқитувчи, 1983. – Б. 148.
27. Умиров И. Ўзбек тили перифразалари. Филол.фан. номз. дисс. автореф. – Тошкент, 1996. – 23 б.
28. Шамсиддинов Ҳ. Перифраза хусусида айрим мулоҳазалар // Ўзбек тили ва адабиёти. 1993, № 4. – Б. 29-35.
29. Шодиев С.Э. Парафразалар ва уларнинг деривацион хусусиятлари// Хорижий филология. 2017. № 2. – Б. 246-250.

## КЛЕЕВЫЕ КОМПОЗИЦИИ НА ОСНОВЕ ПРИРОДНЫХ ОРГАНИЧЕСКИХ ОТХОДОВ

Mana shu birgina hikoyadan ham anglashiladiki, Isajon Sulton o‘quvchi, insoniyat bilan ramzlar tilida so‘zlashmoqni, dard-u dunyosini unga yuqtirmoqni istaydi. Ushbu hikoya misolida ayta olamizki, aslida yozuvchi an‘anaviy usullarda ham bermalol badiiy dunyo yarata biladi. Bugun o‘zbek yozuvchilari ilgari surayotgan olam va odam konsepsiyasining asl ildizlari, ijtimoiy, falsafiy va tarixiy asoslarini belgilash zamonaviy adabiyotshunosligimizning dolzarb muammolaridan biridir. O‘zbek hikoyachiligi mavzuning badiiy talqini, odamning orzu-umidlari, shaxsning kechinmalari, inson psixologiyasini tahlil etish yo‘lidan bormoqda. Mohiyatga evrilgan badiiy talqinlarda o‘zlikni anglashga intilish kuchli, bu Isajon Sulton hikoyalarida ham yaqqol namoyon bo‘ladi.

## XULOSA

Keltirilgan ushbu hikoyalardan shunday xulosa chiqarish mumkin: yozuvchi doimo hayotdan, hayotdagi voqea va hodisalardan turtki oladi. Yozuvchi to‘g‘ridan-

to'g'ri hayotni tasvirlamaydi, balki muayyan g'oyaviy-badiiy maqsad asosida hayotni qayta yaratadi. O'ylaymizki, Isajon Sulton hikoyalari har bir kitobxonning ko'nglidan joy oladi, hayotning asl mazmunini anglashda yordam beradi. Uning roman, qissa va hikoyalari nafaqat o'zbek o'quvchilari, balki dunyo kitobxonlari tomonidan munosib e'tirof etilgan.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. I.Sulton. Asarlar. Hikoyalar . 1-jild. Toshkent: G'afur G'ulom.
2. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. T. : A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004.
3. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/isajon-sulton-yogoch-kovush.html>
4. U.Normatov. (1970) Janr imkoniyatlari. Toshkent: Adabiyot va san'at
5. "Til va adabiyot: ilmiy va amaliy izlanishlar yo'lidagi ilk odimlar" yosh filolog tadqiqotchilarning respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent. 2022. – 568 b.

## ПРИМЕНЕНИЕ АЛГОРИТМОВ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА ДЛЯ ОБРАБОТКИ И АНАЛИЗА ГОСУДАРСТВЕННЫХ ДАННЫХ В СТРАНАХ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

**Рахманов Ф.Ш. и Камилов Н.М**

Узкомназорат

**Алибеков А.П.**

Жокаргы Кенес Республики Каракалпакстан

Статья рассматривает возможности применения алгоритмов искусственного интеллекта в государственном секторе Центральной Азии. Авторы описывают основные алгоритмы, которые можно использовать для обработки и анализа государственных данных, такие как обработка естественного языка, машинное обучение, системы поддержки принятия решений и роботизированная автоматизация процессов. Статья подчеркивает, что применение алгоритмов искусственного интеллекта может помочь государственным организациям сократить время и ресурсы, снизить количество ошибок и повысить эффективность.

**Ключевые слова:** Искусственный интеллект, машинное обучение, обработка естественного языка, алгоритмы, роботизированная автоматизация.

Развитие искусственного интеллекта стало главным приоритетом для многих правительств во всем мире, поскольку ожидается, что он изменит различные отрасли и окажет значительное влияние на мировую экономику. Для использования потенциальных преимуществ ИИ, многие страны приняли национальные стратегии развития искусственного интеллекта.

Существует несколько алгоритмов искусственного интеллекта, которые можно применять в государственном секторе для обработки данных:

- **Обработка естественного языка** (NLP от англ. Neuro-linguistic programming) – алгоритмы можно использовать для извлечения информации из неструктурированных данных, таких как текстовые документы, электронные письма, социальные сети и взаимодействия с чат-ботами. NLP может помочь автоматизировать такие задачи, как ввод данных, категоризация контента и анализ настроений.

- **Машинное обучение** (ML от англ. Machine learning) Алгоритмы можно применять к большим наборам данных для выявления закономерностей и

прогнозирования результатов. Например, прогнозная аналитика может использоваться в организациях государственного сектора для прогнозирования тенденций и выявления возникающих проблем.

- **Системы поддержки принятия решений (DSS** от англ. Decision support system): Алгоритмы DSS могут использоваться для поддержки процессов принятия решений, предоставляя информацию и рекомендации на основе анализа данных. Это может быть особенно полезно в таких областях, как государственная политика, здравоохранение и социальные услуги.

**Роботизированная автоматизация процессов (RPA** от англ. Robotic process automation). Алгоритмы RPA можно использовать для автоматизации повторяющихся и ручных задач, таких как ввод данных и обработка счетов. Это может помочь организациям государственного сектора сэкономить время и ресурсы, сократив количество ошибок и повысив эффективность.

Это всего лишь несколько примеров из множества алгоритмов ИИ, которые можно применять в государственном секторе для обработки данных. В зависимости от конкретных потребностей организации могут быть полезны и другие алгоритмы, такие как глубокое обучение, обнаружение аномалий и распознавание речи.

Обработка естественного языка (NLP) произвела революцию в том, как организации государственного сектора обрабатывают данные. С появлением цифровых каналов связи, таких как социальные сети, чат-боты и электронная почта, организации государственного сектора ежедневно генерируют огромное количество текстовых данных. Алгоритмы NLP позволяют организациям государственного сектора извлекать информацию из этих данных, автоматизировать повторяющиеся задачи и предоставлять более качественные услуги гражданам. В этой статье будут приведены различные применения NLP в обработке данных государственного сектора и некоторые преимущества, и проблемы внедрения NLP в организациях государственного сектора.

В последние годы область NLP быстро росла благодаря достижениям в области машинного обучения, больших данных и облачных вычислений. Алгоритмы NLP можно применять к широкому спектру текстовых данных, включая электронные письма, сообщения в социальных сетях, взаимодействие с чат-ботами, отзывы клиентов, юридические документы и новостные статьи. Организации государственного сектора ежедневно генерируют огромное количество текстовых данных, что делает NLP важным инструментом для обработки и анализа данных.

Существует множество приложений NLP в обработке данных в государственном секторе, в том числе:

Автоматический перевод - организациям государственного сектора часто необходимо общаться с гражданами и заинтересованными сторонами, говорящими на разных языках. Алгоритмы NLP можно использовать для автоматического перевода текста с одного языка на другой, что упрощает организациям государственного сектора предоставление услуг и информации гражданам на нескольких языках.

Анализ настроений - NLP можно использовать для анализа текстовых данных, таких как сообщения в социальных сетях, отзывы клиентов и ответы на опросы, чтобы понять настроения и эмоции граждан по отношению к государственным программам, политике и услугам. Это может помочь организациям государственного сектора определить области, в которых необходимы улучшения, и адаптировать свои услуги и обмен сообщениями для лучшего удовлетворения потребностей граждан.

Чат-боты и виртуальные помощники - алгоритмы NLP можно использовать для создания чат-ботов и виртуальных помощников, которые могут взаимодействовать с гражданами, отвечать на вопросы и оказывать помощь. Это может помочь снизить нагрузку на сотрудников государственного сектора и повысить удовлетворенность граждан.

Извлечение информации - алгоритмы NLP можно использовать для извлечения соответствующей информации из неструктурированных данных, таких как новостные статьи, юридические документы и исследовательские работы. Это может помочь организациям государственного сектора принимать более обоснованные решения и выявлять возникающие тенденции и проблемы.

Классификация текста - NLP можно использовать для автоматической классификации и категоризации текстовых данных, таких как электронные письма, запросы в службу поддержки и сообщения в социальных сетях. Это может помочь организациям государственного сектора быстрее и эффективнее реагировать на запросы и запросы граждан.

Есть несколько преимуществ использования NLP в обработке данных государственного сектора:

Повышенная эффективность - алгоритмы NLP могут автоматизировать повторяющиеся и трудоемкие задачи, такие как ввод данных, категоризация контента и анализ настроений. Это может помочь организациям государственного сектора сэкономить время и ресурсы, повысив при этом точность и согласованность обработки данных.

Улучшение обслуживания граждан - NLP может помочь организациям государственного сектора более точно понять потребности и предпочтения граждан, что позволит им предоставлять более качественные услуги и



информацию. Чат-боты и виртуальные помощники на основе NLP могут предоставлять гражданам быстрые и точные ответы на их запросы, повышая удовлетворенность граждан.

Улучшенное принятие решений - алгоритмы NLP могут помочь организациям государственного сектора быстро и точно анализировать большие объемы данных, позволяя им принимать более обоснованные решения. Извлечение информации и анализ настроений могут помочь организациям государственного сектора выявлять возникающие тенденции и проблемы, а классификация текста может помочь им быстрее реагировать на запросы и запросы граждан.

Автоматизируя повторяющиеся и трудоемкие задачи, NLP может помочь организациям государственного сектора сократить затраты на оплату труда и повысить эффективность работы.

**Машинное обучение (ML)** — это подмножество искусственного интеллекта (ИИ), которое включает в себя создание систем, которые могут учиться и совершенствоваться на основе данных без явного программирования. Машинное обучение имеет широкий спектр применений в обработке данных в государственном секторе, включая обнаружение мошенничества, профилактическое обслуживание, управление трафиком и обслуживание клиентов.

#### **Применение машинного обучения в обработке данных в государственном секторе:**

Обнаружение мошенничества - алгоритмы машинного обучения могут использоваться для обнаружения мошеннических действий в программах государственного сектора, таких как программы социального обеспечения и возврата налогов. Эти алгоритмы могут анализировать большие объемы данных для выявления закономерностей и аномалий, свидетельствующих о мошенничестве.

Прогностическое обслуживание - машинное обучение часто используется для прогнозирования отказа оборудования или инфраструктуры в организациях государственного сектора, что позволяет проводить профилактическое обслуживание до того, как произойдут дорогостоящие поломки.

Управление трафиком – этот алгоритм также используется для анализа моделей трафика и прогнозирования заторов, что позволяет организациям государственного сектора оптимизировать транспортный поток и уменьшить заторы.

Обслуживание клиентов - для этой сферы часто создания чат-ботов и виртуальных помощников, которые могут взаимодействовать с гражданами,

отвечать на вопросы и оказывать помощь, повышая скорость и точность обслуживания клиентов.

Прогнозная аналитика. Машинное обучение можно использовать для анализа больших объемов данных для выявления закономерностей и тенденций, что позволяет организациям государственного сектора принимать более обоснованные решения и более эффективно распределять ресурсы.

### **Преимущества машинного обучения в обработке данных в государственном секторе:**

Повышенная эффективность: алгоритмы машинного обучения могут автоматизировать повторяющиеся и трудоемкие задачи, такие как ввод данных, категоризация контента и обнаружение мошенничества. Это может помочь организациям государственного сектора сэкономить время и ресурсы, повысив при этом точность и согласованность обработки данных.

Улучшение обслуживания граждан: машинное обучение может помочь организациям государственного сектора более точно понять потребности и предпочтения граждан, что позволит им предоставлять более качественные услуги и информацию. Чат-боты и виртуальные помощники на основе машинного обучения могут предоставлять гражданам быстрые и точные ответы на их запросы, повышая удовлетворенность граждан.

Улучшенное принятие решений. Алгоритмы машинного обучения могут помочь организациям государственного сектора быстро и точно анализировать большие объемы данных, позволяя им принимать более обоснованные решения. Прогнозная аналитика может помочь организациям государственного сектора выявлять возникающие тенденции и проблемы, а профилактическое обслуживание может помочь им сократить расходы и время простоя.

**Системы поддержки принятия решений (DSS)** представляют собой класс компьютерных информационных систем, которые поддерживают деятельность по принятию решений в организациях. В государственном секторе DSS можно использовать для поддержки принятия решений, связанных с разработкой политики, реализацией программ и предоставлением услуг. DSS может быть разработан для интеграции и анализа данных из различных источников, включая внутренние базы данных, внешние источники данных и экспертные знания. Предоставляя пользователям своевременную и актуальную информацию, DSS может помочь повысить эффективность и действенность процесса принятия решений в государственном секторе.

Государственный сектор сталкивается с растущим давлением, требующим принятия быстрых и эффективных решений перед лицом сложных и быстро меняющихся обстоятельств. Системы поддержки принятия решений (DSS) —

это класс компьютерных информационных систем, которые могут помочь организациям государственного сектора принимать более обоснованные решения. DSS может быть разработан для интеграции и анализа данных из различных источников, включая внутренние базы данных, внешние источники данных и экспертные знания. В этом эссе мы обсудим различные приложения DSS в обработке данных государственного сектора и рассмотрим некоторые преимущества и проблемы внедрения DSS в организациях государственного сектора.

### **Преимущества DSS в обработке данных государственного сектора.**

Существует несколько преимуществ использования DSS при обработке данных в государственном секторе:

**Улучшенное принятие решений:** DSS содействует лицам, принимающим решения, принимать более обоснованные решения, предоставляя им своевременную и актуальную информацию, выявлять закономерности и тенденции в данных, оценивать вероятное влияние различных вариантов политики или программ и оценивать эффективность различных моделей предоставления услуг.

**Повышенная эффективность:** также, DSS способствует организациям государственного сектора повысить свою операционную эффективность за счет автоматизации задач сбора и анализа данных, быстро определить области, в которых необходимы улучшения, что позволит им быстрее принять меры по исправлению положения.

**Повышение прозрачности:** данный алгоритм имеет возможность повысить прозрачность принятия решений в государственном секторе, предоставляя лицам, принимающим решения, доступ к соответствующим данным в режиме реального времени. Это может помочь укрепить доверие граждан и других заинтересованных сторон, продемонстрировав, что решения основаны на объективной и достоверной информации.

**Улучшенные услуги для граждан:** DSS может помочь организациям государственного сектора улучшить качество и доступность своих услуг, информацию о потребностях граждан и спросе на услуги в режиме реального времени. Это может помочь организациям государственного сектора лучше согласовать свои услуги с потребностями граждан, что приведет к более высокому удовлетворению граждан.

**Разработка политики:** DSS можно использовать для поддержки разработки политики и правил путем анализа данных из различных источников, включая демографические данные, экономические показатели и мнения экспертов. DSS может помочь политикам выявлять тенденции и закономерности в данных,

оценивать вероятное влияние вариантов политики и разрабатывать рекомендации по политике, основанные на фактических данных.

Реализация программы: DSS можно использовать для поддержки реализации программ государственного сектора, предоставляя информацию в режиме реального времени о выполнении программы, использовании ресурсов и отзывах граждан. DSS может помочь руководителям программ определить области, в которых необходимы улучшения, более эффективно распределять ресурсы и отслеживать результаты программы.

Предоставление услуг: DSS можно использовать для поддержки предоставления услуг государственного сектора, предоставляя лицам, принимающим решения, информацию в режиме реального времени о потребностях граждан, спросе на услуги и качестве услуг. DSS может помочь менеджерам по обслуживанию определить области, в которых необходимо улучшить обслуживание, более эффективно распределять ресурсы и отслеживать результаты обслуживания.

Все большее количество государственных организаций во всем мире осознают потенциал искусственного интеллекта для повышения эффективности и оптимизации процессов. В Центральной Азии также наблюдается интерес к применению ИИ для обработки государственных данных. Алгоритмы, которые приведены в статье могут помочь государственным организациям сократить время и ресурсы, сэкономить деньги и увеличить эффективность. Однако, необходимо учитывать риски, связанные с применением искусственного интеллекта в государственном секторе, такие как проблемы конфиденциальности и безопасности данных, а также потенциальные негативные социальные и экономические последствия. Поэтому, перед внедрением ИИ в государственных организациях, необходимо проводить соответствующие исследования и разработать соответствующие правовые и этические регулирующие механизмы.

### **СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ: (REFERENCES)**

1. «Искусственный интеллект и принятие решений» (<https://aijournal.ru/>)
2. «Искусственный интеллект и машинное обучение» автора Л.Николенко.
3. «Искусственный интеллект и экономический рост» Филиппа Агиона, Бенджамина Ф. Джонса и Чарльза И. Джонса.
4. «Национальные стратегии искусственного интеллекта: сравнительный анализ» Центра инноваций в области данных.
5. «Введение в обработку естественного языка» Джейкоба Перкинса

## RIMSKIY-KORSAKOVNING RUS MUSIQA MADANIYATIDA TURGAN O'RNI

**Axmedova Dilnura, G'aniyeva Madinalarning**

Navoiy viloyati Navoiy shahri

Navoiy davlat pedagogika instituti

Musiqa ta'limi va san'ati yo'nalishi magistranti

### ANNOTATSIYA

Maqola N. A. Rimskiy-Korsakovning ijodiy merosiga bag'ishlangan. Uning uslubiy rangli-musiqiy yozuvi, pedagogik va adabiy faoliyati masalalari ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** N. A. Rimskiy-Korsakovning ijodiy merosi, «Qudratli to'da», opera, xatlar, «ovozli rasm».

Uning na iqtidori, na g'ayrati, na shogirdlari va safdoshlariga bo'lgan cheksiz xayrixohligi hech qachon zaiflashmagan. Ana shunday insonning shonli hayoti, teran milliy faoliyati bizning faxrimiz va faxrimiz bo'lishi kerak. ... butun musiqa tarixida Rimskiy-Korsakov kabi yuksak tabiatli, buyuk san'atkorlar va g'ayrioddiy odamlarni qancha ko'rsatish mumkin?

### V. Stasov

Nikolay Andreevich Rimskiy-Korsakov (1844-1908) rus musiqa madaniyatida alohida o'rin tutadi. Rimskiy-Korsakovning butun uzoq muddatli yo'li g'ayrioddiy faollik, ijodiy fikrning maqsadlilik va faoliyat sohalarining juda ko'p qirraliligi bilan ajralib turardi. Kompozitorning merosi juda katta bo'lib, deyarli barcha janrlarni qamrab oladi: opera (15); simfonik asarlar (uchta simfoniya, "Rus mavzularida uvertura", "Sadko" musiqiy rasmi, "Antar" simfonik syuitasi, serb mavzuidagi fantaziya, "Ispan Kaprichio", "Scheherazade", pianino va orkestr uchun kontsert va boshqalar); kamera-instrumental asarlar (torli kvartet)

Faoliyatini inqilobiy populizm davrining zamondoshi sifatida boshlagan, oxirida u 1905-1907 yillar inqilobining zamondoshiga aylandi. Rimskiy-Korsakovning ijodiy kuchi butun umri davomida qurib ketmadi, u haqida haqli ravishda aytish mumkinki, u zamonaviylik bilan hamnafas bo'ldi. Rimskiy-Korsakov tobora kuchayib borayotgan ishchilar sinfining siyosiy kurashi bilan bevosita bog'liq bo'lmay, ayni paytda buyuk musiqachi sezgisi bilan sodir bo'layotgan voqealarda ko'p narsalarni to'g'ri his qildi.

Uning 1905-yilda ijro etilgan “O‘lmas Kashshey” operasi ozodlikka inqilobiy da’vat kabi yangradi, “Oltin xo‘roz” operasi esa rus jamiyatining ilg‘or doiralari tomonidan avtokratiya haqidagi siyosiy satira sifatida qabul qilingani bejiz emas. Qirq yildan ortiq vaqt rus musiqasining rivojlanishida Rimskiy-Korsakov nomi bilan bog‘liq. 1865-yilda Sankt-Peterburgda M. A. Balakirev rahbarligida Rimskiy-Korsakovning professional musiqachi sifatidagi faoliyatining boshlanishi bo‘lgan yangi tugallangan Birinchi simfoniyaning ijrosi bo‘lib o‘tdi, 1907 yilda bastakor o‘zining so‘nggi asari – 1907-yilda tugallandi. "Oltin xo‘roz" operasi, uning o‘limidan keyin sahnani ko‘rgan.

Jahon e’tirofiga sazovor bo‘lgan ko‘plab opera, simfonik va kameraviy asarlar muallifi Rimskiy-Korsakov bir vaqtning o‘zida turli millatga mansub musiqachilarning bir necha avlodlarini tarbiyalagan mohir ustoz sifatida tarixga kirdi. Uning shogirdlari A. K. Glazunov va A. K. Lyadov, N. V. Lisenko va M. Balanchivadze, Ya. Vitol va A. A. Spendiarovlar edi. Ko‘plab taniqli rus bastakorlari N. A. Rimskiy-Korsakov qo‘l ostida tahsil oldilar. Rimskiy-Korsakovning pedagogik faoliyati turli musiqa muassasalari bilan bog‘liq edi: Erkin musiqa maktabi, Mahkama qo‘shiqchilari kapellasi va ayniqsa, hozir uning nomini olgan Sankt-Peterburg konservatoriyasi bilan uning nomi hozirgi kungacha bog‘liq holda keladi.

N. A. Rimskiy-Korsakovning adabiy merosi juda qimmatlidir. Avvalo, bu bastakorning 1876-1906 yillarda yozib olgan ijodiy yo‘li, estetik e’tiqodlari, ularning evolyutsiyasi va o‘z davrining musiqiy hayotiga oid ko‘plab faktlarni yorituvchi “Musiqiy hayotim xronikasi”dir. 1860-yillarning oxirida. N. A. Rimskiy-Korsakov Ts. A. Kui bilan birgalikda yosh "Quadratli hovuch" ning opera estetikasi sohasidagi ijodiy pozitsiyalarini himoya qilgan tanqidchi-publisist sifatida ishlagan (C. A. Kuyning "Uilyam Ratkliff" operalari haqidagi maqolalar, “Nijniy Novgorod” E. F. Napravnik).

Rimskiy-Korsakov faoliyatining alohida yo‘nalishi uning boshqa mualliflar asarlarining muharriri sifatidagi faoliyati edi. Shunday qilib, Rimskiy-Korsakov A.S. Dargomijskiyning “Tosh mehmon”, M.P. Musorgskiyning “Boris Godunov va Xovanshchina” asarlarini hamda A.K. Glazunov, A.P. Borodin va uning ikkinchi simfoniyasini nashrga tayyorladi. N. A. Rimskiy-Korsakov erta vafot etgan do‘stlari oldidagi o‘rtoqlik burchini chuqur anglagan holda shunday qildi va bu ishga katta kuch sarfladi.

Rimskiy-Korsakov musiqiy faoliyatining 25 yilligi munosabati bilan V.V. Stasov unga shunday deb yozgan edi: “Hech kim o‘z ishiga siznikidan ko‘ra sadoqatli emas, sizdan boshqa hech kim uning universitet kursida abadiy o‘tirmaydi. Men qanday qaragam ham, siz hech qachon o‘rganishni to‘xtatmaysiz ...” (1870 yil 19 apreldagi xat). P. I. Chaykovskiy ham o‘z asarida Rimskiy Korsakovning g‘oyat maqsadga muvofiqligi haqida shunday yozadi: “Bilasizmi, men sizning olijanob badiiy

hayolingiz va hayratlanarli darajada kuchli xarakteringizga ta'zim qilaman va hurmat qilaman!...

Kompozitorning barcha musiqalari undagi hissiy tamoyil va intellektning organik sintezidan dalolat beradi. Biz uning asarlarida samimiy iliqlikni ham, hech qachon "ortiqcha ifoda"ga aylanmaydigan emotsional ifodaning samimiyligini hamisha tasvirning umumiy garmonik ravshanligi bilan, taqdim etishning ravshanligi va detallari bilan mutanosib holatda bo'lishini eshitamiz. Bundan tashqari, musiqiy fikrlarning rang-barang rang-barangligining boyligi bilan ranglanadi.

Opera bastakori sifatida Rimskiy-Korsakov juda ko'p qirrali. U o'zining "Pskovlik xizmatkor" operasida tarixchi-xronikachi, "Qor qiz va may kechasi"da hikoyachi va lirik rolini ijro etib, opera va simfonik asarlarining ko'p sahnalarida xalq hayotining o'ziga xos xususiyatlarini sezgir idrok etadi. Tabiatning unutilmas musiqiy obrazlarini yaratgan eng iste'dodli musiqachi-peyzaj rassomi - rassom Rimskiy-Korsakovning "Sadko" simfonik kartinasi, "Shahrizoda" operasida, ko'plab cholg'u asarlarida bizga quyidagi ochib berilgan. opera epizodlari bor masalan, "Tsar Saltan haqida ertak ..." yoki "Kitej"dagi "Cho'lga maqtov" dagi dengiz tasvirlari va hokazolar. Rus xalqining qiyofasi kompozitor tomonidan birinchi navbatda rassom - ajoyib qo'shiqlar, ertaklar yaratuvchisi, san'atning ajoyib badiiy qadriyatlari yaratuvchisi sifatida ochib beriladi. Bundan tashqari, ko'pincha uning qahramonlari - musiqachilar yoki hikoyachilar yuksak etnos, insonparvarlik tashuvchisi sifatida harakat qilishadi. Shunday qilib, Lel qo'shiqlari odamlarda ajoyib Qorqizga qiziqish uyg'otadi; arfa chalish san'ati ta'sirida Sadko Volxova chin dildan sevadigan, chin dildan xayrlashuvchi "Beshinchi" qo'shig'ini kuylaydigan haqiqiy ayolga aylanadi; sehrli hikoyachi Shehrazodaning ertaklari murosasiz, zolim podshoh Shahriorning qalbini yumshatadi.

Kompozitor N. A. Rimskiy-Korsakovning butun ijodiy yo'li doimiy ravishda yangi mavzular, yangi ifoda vositalarini izlash zarurligini anglash bilan o'tdi. Uning S. N. Kruglikovga yozgan maktublaridan birida shunday o'qiyamiz: "Har bir yangi ishda men o'zim uchun yangi narsa qilishga intilaman". Xuddi shu maktubdagi quyidagi gap uning o'ziga xosligini tavsiflashda qiziq: "Bir tomondan, meni bu fikrga undaymanki, yangilik va qiziqish shu tarzda uzoqroq saqlanib qoladi, boshqa tomondan, bu o'z-o'zidan turtki bo'ladi. -hammasini bo'lmasa ham ko'p tomonlarini, texnikasini, kayfiyatini, uslublarini va hokazolarni xohlaydigan hurmat mavjud edi.

Ma'lumki, N. A. Rimskiy-Korsakov rangli eshitish qobiliyatiga ega edi. Bastakor klavishlar, akkordlar, tovushlar, tembrlardan o'ziga xos rang sezgilariga ega edi. Har xil qisqargan ettinchi akkordlar, kuchaytirilgan triadalar, ikkinchi akkordlar va shunga o'xshash konsonanslar murakkab rang kombinatsiyalarining assotsiatsiyasini keltirib chiqaradi. Shuning uchun N. A. Rimskiy-Korsakov asarlarini musiqashunoslar

ko‘pincha "ovozli rasm" deb atashadi. Bunday ta‘rif bastakor musiqasining ajoyib vizualizatsiyasi bilan bog‘liq. O‘zining opera va simfonik kompozitsiyalarida N. A. Rimskiy-Korsakov musiqiy tasvirlarni qat‘iy belgilangan rang tonalliklarida yakunladi. Shunday qilib, "Sadko" operasida dengiz leyttamlari ikkita ko‘k-ko‘k tugmachalarda - E-major va E flat-majorda yozilgan. Ushbu hodisani "Mening musiqiy hayotim yilnomasi" asarida tasvirlab bergan N. A. Rimskiy-Korsakov har doim o‘z g‘oyasining muhimligini ta‘kidlagan: sahnadagi manzarada ko‘k soyalar bilan uyg‘unlashgan holda leytmotivlarni jaranglash, tinglovchiga psixologik ta‘sir ko‘rsatish, yaxshi idrok etishga hissa qo‘shadi va shuning uchun. musiqiy tasvirlarni yodlash eshituvchiga ancha oson kechadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. Ossovskiy, V. A. Tanlangan maqolalar, xotiralar / V. A. Ossovskiy. - Leningrad: San‘at, 1961. - 120 p.
2. Asafiyev, B. V. Musiqiy ma‘rifat va ta‘lim haqidagi tanlangan maqolalar / B. V. Asafiyev. - Leningrad: Musiqa. Leningrad. bo‘lim, 1973. - 144 b.
3. Asafiyev, B. V. "Qudratli hovuch" kompozitorlari // Tanlangan asarlar / B. V. Asafiyev. - Moskva: Musiqa, 1954. - T. 3. - 229 b.
4. Zukkerman, V. A. Musiqiy-nazariy ocherklar va etyudlar. Nashr. 2: N. A. Rimskiy-Korsakovning musiqiy nutqi haqida / V. A. Zukkerman. - Moskva: Musiqa, 1975. - S. 8–9.
5. Rimskiy-Korsakov, N.A.N.A.Rimskiy-Korsakov va musiqiy ta‘lim: maqolalar va materiallar / N.A.Rimskiy-Korsakov. - Leningrad: Art, 1953. - 1800.
6. Rimskiy-Korsakov, N. A. To‘liq asarlar: adabiy asarlar va yozishmalar. - Moskva, 1963. - T. 5. - 332 b.



## CHAQALOQLIK DAVRIGA XOS PSIXO-FIZIOLOGIK XUSUSIYATLAR

### Ibragimova Muazzam Xoldorovna

Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti Psixiatriya, narkologiya  
va tibbiy psixologiya kafedrası stajer assistenti  
e-mail: [muazzamibragimova630@gmail.com](mailto:muazzamibragimova630@gmail.com)

### Muxtorov Anvar Alisher o'g'li

SamDTU Stomatologiya fakulteti IV kurs 406-guruh talabasi  
e-mail: [anvarmuxtorov35@gmail.com](mailto:anvarmuxtorov35@gmail.com)

### Ziyodullayeva Munisa Sobirjonovna

SamDTU Stomatologiya fakulteti IV kurs 406-guruh talabasi  
e-mail: [munisaziyodullayeva9501@gmail.com](mailto:munisaziyodullayeva9501@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqola oz imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda tibbiyot hodimlarining salohiyatini oshirish, aholini ijtimoiy-turmush darajasida tibbiyot sohasiga to'g'ri yondashgan holda, ona bola holatini bilgan holda onaga etibor bolaga e'tiborni oshirishga ko'maklashadi Ayrim muommalarni bartaraf etishga qara-tilgan, tibbiyot hodimlaring aholiga malakali xizmat korsatishiga tavfsiyalar keltirilgan

**Kalit so'zlar:** Chaqaloq, ona, psixologiya, analizator, refleks, homila, davr.

Chaqaloqlik davrga oid juda ko'p olimlar fikr mulohaza bildirgan. A.A. Lyublinskaya, D.B. Elkon, L.S. Vigatskiy, V.A. Krutetskiy, A.V. Petrovskiy va birqancha olimlar asarlarida chaqaloqlik davriga xos xususiyatlarni keltirib o'tgan. Oxirgi yillardagi adabiyotlarda olimlarning ilmiy izlanishi natijasida chaqaloqlik davriga xos juda ko'p o'zgarishlar borligi aniqlandi. Bunda ularning fiziologik, psixologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ularda ham fiziologik faoliyat turlari o'zgarib turishi mumkinligi aniqlandi. Shu ma'lumotlardan kelib chiqqan holda bolalikni quyidagi davrlarga ajratilgan.

Chaqaloqlik davri (0-1oygacha);

Go'daklik davri (1 oydan -1 yoshgacha);

Ilk bolalik davri (1-3yoshgacha);

Bog'cha yoshi davri (3-7 yoshgacha);

Kichik maktab yoshi davri (7-11yoshgacha);

O'rta maktab yoshi o'smirlilik davri (12-15yoshgacha);

Ilk o'smirlik (maktab, kollej, litsey) davri (15-18 yoshgacha);

Bu davrlarni real deb baholab bo'lmaydi bu davrlarga nisbiy yondashgan holda bir biriga bog'lab tushunib boriladi, yani har bir davr keyingisiga zamin yaratadi. Bolaning yosh belgisi uning taraqqiyot belgisini ko'rsata olmaydi. Sababi ikkita bir xil yoshdagi bola bo'lsa, bularning taraqqiyot darajasi bir xil darajada bo'lmaydi. Chunki embrional rivojlanish jarayoni, irsiy axborot olish darajasi, o'ziga xos bo'lgan tashqi ichki ta'sirlar ham fiziologik holatiga yetarli darajada o'zgarishga olib keladi.

Tug'ilgandan keyingi bolalik davri kindik kesilib bola onadan ajragan vaqtdan ikkinchi katta davr boshlanadi.

Bu bolaning tug'ilgan yoki kindigi kesilgan vaqtdan boshlab, to'liq 4 hafta yoki 28 kungacha bo'lgan vaqtni o'z ichiga oladi. Bu davr erta va kechki neonatal davrga bo'linadi. Erta neonatal davr bolaning kindigi kesilgan vaqtdan 7 kungacha bo'lgan vaqtni o'z ichiga oladi. Bu davr bola organizmining tashqi muhit sharoitlariga moslashining eng nozik va mas'uliyatli davri hisoblanadi. Sababi shundaki chaqaloq tug'ilishi bilan uning organizmida murakkab fiziologik o'zgarishlar yuzaga keladi, yani o'pka orqali nafas olish boshlanadi. Qon tarkibida morfologik fizikaviy kimyoviy o'zgarishlar, energiya modda almashinuvi, harorat boshqaruvi o'zgaradi, hazm tizimi orqali ovqat qabuli boshlanadi. Tashqi muhit sharoitlariga moslash jarayonida bola terisida fiziologik qizarish (qaytar), mayda qipiqsimon po'st tashlash, fiziologik sarg'ayish, fiziologik vazn yo'qotish holatlari amalga oshiriladi. Erta neonatal davrda bola organizmini fiziologik xususiyatlari beqaror bo'ladi, moslashish mexanizmi tez izdan chiqishi, chaqaloq holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi shuning uchun ona bola munosabatini rejim qoidaga to'g'ri yo'naltirilishi lozim bo'ladi.

Shu xususiyatlar inobatga olgan holda erta neonatal davrda bola uchun maksimal qulay sharoit yaratish tabiiy ovqatlantirish yo'lga qo'yish va davom ettirish uchun ona va bolaga lozim bo'lgan sharoit yaratish choralarini mukammal ishlab chiqish bolani sog'lom o'stirishda muhim o'rin tutadi.

Homila va chaqaloq bola sog'lig'ini saqlash naqadar muhimligini va buning uchun ko'rsatilayotgan psixologik, gigiyenik, ekalogik tadbirlarga ijobiy yondashib borish kerak. Hamda bu davrda uchraydigan kasalliklarni o'ziga xosligini inobatga olgan holda kechki fetal, intronatal erta neonatal davrlarni umumlashtirib perinatal davr deb qabul qilingan. Perinatal davr homiladorlikni to'liq 28 haftasidan chaqaloqni 7 kunigacha bo'lgan vaqtni o'z ichiga oladi.

Kechki neonatal davri - chaqaloqni 8 kunligidan 28 kunligigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi.

Bu davrda bola normal jinsiy o'sib asab ruxiy rivojlanib borishi, yaxshi emib, uyquusi buzilmasligi uni yaxshi o'sib borayotganligidan dalolat beradi. Bu davrda uning sezgi organlari birinchi o'rinda ko'rish qobiliyati rivojlanib onasini tez tez qo'lga olib

erkalashi 3-xafta oxirlarida ba'zi shartli reflekslar paydo bo'lishiga, chaqaloqda jilmayish hursandchilik belgilari paydo bo'lishiga olib kelinadi.

Bu hodisa ko'pchilikni e'tirof etishi bo'yicha bolada shaxsiy ruhiy rivojlanishni boshlanish ramzi hisoblanadi. Bu davrda shuni yodda tutish kerakki chaqaloq bola organizmi hali nozik kasallikka tez beriluvchan bo'ladi. Kutilmagan har qanday noqulay vaziyat bola o'sishi, rivojlanishiga salbiy ta'sir etishi mumkin. Shu boisdan ona bola doimo vrach - pediater, vrach - psixolog, tibbiyot hamshirasining muntazam nazoratida bo'lishi kerak.

Bundan xulosa qilish mumkinki har bir organizm takrorlanmas genetik majmualar yig'indisidir. Shuning uchun har qaysi davrda ota ona, tarbiyachi malakali darajada bola shaxsining fiziologik xususiyatlaridan kelib chiqib to'g'ri yondashish kerak. Chaqaloqlik davrida bola juda tez rivojlanadi. Yangi tug'ilgan chaqaloqni tana massasining 3/4 qismidan ko'prog'i suvdan tashkil topgan. Bo'yi 48-52sm, vazni 2800-3500 gr gacha bo'ladi. Suyaklari biriktiruvchi moddaning hosilasi bo'lmish tog'aydan iborat bo'lib bolaning o'sishi bilan rivojlanadi.

Chaqaloqlarda asab tizimining hamma qismi to'liq taraqqiy etmagan bo'ladi, eng avval quyi markazlari undan keyin esa yuqori markazlar taraqqiy etadi. Chunki asab tizimining bu qismlari irsiy yo'l bilan nasildan nasilga o'tadi.

Chaqaloqni yo'rgaklash biroz qo'l oyoqlarini harakatga keltirish bu jarayonni tezlashuviga olib keladi.

Teri analizatorlari ham tasirga javob beradi. Bolani yuzi yoki labiga qo'l tekkizilsa u darhol harakatlarni boshlaydi. Bola tug'ilgan kundan boshlab hid va ta'm bilish analizatori normada ishlaydi masalan: og'ziga taxir suyuqlik tekkizilsa u aftini burishtirib bezovtalanib chiqarib tashlaydi. Bola qo'lansa hiddan ham bezovta bo'ladi, bularning hammasi psixik jarayonlar rivojlanishining asosi hisoblanadi. Bir oylik bola qo'lga olish bilan yig'isi to'xtab qoladi. Bu holat qo'lga o'rganganligidan dalolat beradi. Noto'g'ri tarbiyalangan bolada bu refleks nihoyatda tez o'rinish qolib natijada o'z o'rniga qaytmaydi natijasida qo'lga uxlashni xoxlaydi. Bu holat bolani salbiy o'sishiga sabab bo'ladi. Tajribalardan shuni ma'lum qilamanki 8 kunlik bola qo'lga olish bilan yerga yotqizishni farqiga boradi. Chaqaloqni labiga va tilining shilliq pardasiga biror qo'zg'atuvchi tegishi bilan unda ixtiyorsiz ravishda so'lak ajrala boshlaydi. Ona ko'kragini emishda boshqa harakatlar sekinlashadi faqat emishga qaratilgan bo'ladi.

Psixolog M.P. Denisova va N.L. Figurinlar bu jarayonni "ovqatga yo'nalish" refleksi deb ataganlar.

I.P. Pavlov ta'biricha bunda shartsiz reflekslar vujudga kelib, u idrok qilinadigan narsaga idrok qiluvchi organni qo'zg'atuvchi eng qulay yo'nalishga aks etadi. Natijada emish mexanizmining ta'sirida xatti harakatlar qisman yoki butunlay tormozlanadi.

Chaqaloqlik davrida insonning kamol topishiga xulq atvorining tug‘ma ko‘rinishlari; nafas olish, ovqatlanish, harakatdan tasirlanish va hokazolar alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur moddiy ehtiyojlar psixik o‘shishning negizi vazifasini o‘tay olmasada, xususiyatlar birgalikda individni yashashini taminlab beradi.

Psixologik tadqiqotlardan ma‘lum bo‘lishicha qator tug‘ma reflekslar bolaning o‘shishiga to‘g‘ridan tog‘ri ta‘sir etmasa ham uning tabiiy fiziologik ehtiyojlarini qondirishda ishtirok etadi. Bularga aktivistiklik, tirmashish, sudralish, emaklash kabi nasliy reflekslar kiradi va boshqa reflekslar borgan sari kamayib boradi.

Chaqaloqda “ko‘rish” va “eshitish” apparati orqali o‘z diqqatini biror obektga to‘plash imkoni bo‘lmaydi. Sababi obyektни tanish, tovushni ajratish, sezish imkoniyatlari bolada keyinchalik rivojlanadi. Bolaning bir oylikkacha davridagi tetiklik holati ko‘rish va eshitishga yo‘nalgan shartsiz reflekslar tufayli faollashib boradi: tovush ta‘siriga berilishi 2-3 xaftalik chaqaloqda vujudga keladi.

Shu sababli bola surnay sadosiga quloq soladi va yig‘idan yoki harakatdan to‘xtaydi. Bir oylik bolada oriyeentr refleksi nomoyon bo‘ladi (I.P. Pavlov) shu sababli chaqaloq gaplashayotgan odamga tikiladi va ixtiyorsiz xatti harakatdan o‘zini tiyadi. Obyektни ko‘rish va tovushni eshitish uchun diqqatni to‘playdigan bo‘lgach, harakatining faollashuvida ancha o‘zgatishlar ro‘y beradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. «Ta‘lim to‘grisida»gi qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi». Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq HMK – 1997.
2. I.A. Karimov. Barkamol avlod orzusi. – T.: «O‘zbekiston» – 2000.
3. I.A. Karimov. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma‘naviyat. – 2008.
4. M. Vohidov. Bolalar psixologiyasi. – Toshkent. «O‘qituvchi» – 1882.
5. A.V. Petrovskiy va boshqalar. Umumiy psixologiya. – T.: «O‘qituvchi». – 1992.
6. P.I. Ivanov. Umumiy psixologiya. – Toshkent. – 2007.
7. E.G‘oziyev. Psixologiya. «O‘qituvchi» nashriyot matbaa ijodiy uyi. Toshkent – 2008.
8. V.M. Karimova, Psixologiya. Ma‘ruzalar matni. FTDK, DITAF – Toshkent. – 2000.
9. B.C. Мухина. Возрастная психология. – Москва. – 2008.
10. E. G‘oziyev. Psixologiya (pedagogik). – Toshkent. «O‘qituvchi» – 1994.
11. F.N. Gonobolin. Psixologiya. – Toshkent. «O‘qituvchi» – 1976.
12. M.G. Davletshin, Sh. Do‘stmuhamedova, M. Mavlonov, S. To‘ychiyeva. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya (o‘quv-metodik qo‘llanma). TDPU, – T.: – 2004.
13. Z. Nishanova. Bolalar psixodiagnostikasi. TDPU nashriyoti. Toshkent – 1998.

14. P.I. Leventuyev, A.A. Asqarxo‘jayev, V.E. Chudnovskiy, M.V. Vohidov. Bolalar psixologiyasi ocherklari. – Toshkent. «O‘qituvchi» nashriyoti.
15. Onalarga tavsiyalar. Respublika o‘quv-metodika markazi. Toshkent. – 2004
16. M.Rasulova, D.Abdullayeva, S.Oxunjonova. Bolalarning maktabga psixologik tayyorligi. – Toshkent. – 2003.
17. S.X. Jalilova va boshqalar. Shaxsning psixik taraqqiyoti
18. Norbosheva M.H. Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi: O‘quv qo‘llanma M.H. Norbosheva.- Termiz, 2019.- 215 b.

## SUG‘ORILADIGAN TUPROQLAR UNUMDORLIGINI OSHIRISH MASALALARI VA MUAMMOLARI

**Abduxakimova Xusnidaxon Abdullayevna**  
b.f.f.d.

**Mirzakarimova Irodaxon Xusanboy qizi**  
magistrant  
Farg‘ona davlat universiteti

### ANNOTATSIYA

Maqolada sug‘oriladigan tuproqlarning unumdorligini saqlash, oshirish va muhofaza qilish masalalari keltirilgan bo‘lib, tuproq va uning unumdorligi bir-biridan ajralmas xususiyatga ega ekanligi yoritilgan. Unumdorlik tuproqning murakkab va ko‘p qirrali xususiyati bo‘lib, u ozuqa moddalari, shuningdek, bir-birini taqozo etadigan fizikaviy, kimyoviy va biologik jarayonlarga bog‘liq.

**Kalit so‘zlar:** unumdorlik, tuproq, gumus, organik modda, elementlar, qishloq xo‘jaligi ekinlari.

### Dolzarbligi

Bugungi kunda respublikamizda qishloq va suv xo‘jaligining barcha sohalarida tub islohotlarni amalga oshirish, investitsiya dasturlarini takomillashtirishda yer va suv resurslaridan samarali foydalanishni tashkil etish uchun ilmiy asoslangan fan yutuqlarini va ilg‘or ishlab chiqarish texnologiyalarini tatbiq etish dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Buning uchun qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining mintaqaviy va regional tizimlarini ilmiy jihatdan asoslash, ishlab chiqish va tuproq iqlim sharoitlariga mos holda qo‘llash lozim. Albatta, bunday vazifani amalga oshirishda soha olimlari, qishloq xo‘jaligini yurituvchi mutaxassislar mas‘uldirlar. Shuning uchun ham mutaxassis olimlar amaliyotni jadallashtirish va rivojlantirishning nazariy va amaliy jarayonlari mexanizmini ishlab chiqishlari hamda amaliy tavsiya va xulosalar berishlari kerak.

Qishloq xo‘jaligi faoliyati va amaliyotida yerdan foydalanishning o‘ziga xos xususiyati bo‘lib, yerning tuproq tarkibi va holati hosildorlik hamda yetishtirilayotgan ekinlardan olinayotgan mahsulotlar sifatiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirish va tuproq unumdorligini oshirib borishning yechimi, bu ijtimoiy taraqqiyot va biosfera rivojlanishining tabiiy-ekologik qonuniyatlarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim.

## **TADQIQOT OBYEKTI**

sifatida Janubiy Fargʻonaning konus yoyilmalarida shakllangan, dehqonchilik sharoitida madaniylashgan sugʻoriladigan tuproqlari tanlab olingan.

## **TADQIQOT USLUBLARI**

Tadqiqotlar uslubiyoti asosini oʻrganilgan xududlar tuproq xaritalari maʼlumotlarini tahlil qilish, qiyosiy geografik, tuproq-kartografik, laboratoriya kameral-analitik tadqiqotlar natijalarini umumiyashtirish hamda sugʻoriladigan yerlarni sifatini baholash uslublari tashkil etadi. Tayyorgarlik, dala, kameral ishlar Tuproqshunoslik va agrokimyo tadqiqot instituti tomonidan ishlab chiqilgan va umumqabul qilingan uslubiyotlar asosida olib borilgan.

## **TADQIQOT NATIJALARI VA MUHOKAMASI**

Hozirgi vaqtda qishloq xoʻjaligida foydalanilayotgan yerlarning asosiy qismini unumdorlik darajasi, ularning ekologik-meliorativ holati talab darajasida emas, lekin ilm-fanning yutuqlariga asoslangan tavsiyalarga, anʼanaviy tajribalarga tayanib ishlayotgan dehqon, fermer xoʻjaliklari yerlaridagi tuproqlarning unumdorligi yuqori darajada ekanligi ham kuzatilmoqda. Har qanday tip va tipchadagi tuproqlardan foydalanilganda, ularning unumdorligi amaliyotda namoyon boʻladi va shu iqlim-mintaqa uchun ishlab chiqilgan mahalliy agromeliorativ, agrotexnologik chora-tadbirlar qoʻllaniladi. Bunday tadbirlarni qoʻllash yordamida, koʻpincha qisman maqsadga erishish bilan tuproqning unumdorligi har xil darajada oshishiga erishiladi. Ammo tuproqning unumdorligini tubdan oshirish uchun asosiy maqsad boʻlgan tuproqning nisbatan turgʻun va samarali unumdorligini oshirishda tuproqda organik moddaning toʻplanishini koʻpaytirish zarur. Buning uchun, hozirgi vaqtda dehqonchilik amaliyotida ustun turadigan almashlab ekish tizimini tuproq-iqlim sharoitidan kelib chiqib joriy etish kerak.

Koʻpgina olib borilgan tadqiqotlar natijalariga koʻra, tuproq gumusi uning asosiy xossalriga ijobiy taʼsir koʻrsatadi. Sugʻoriladigan tuproqlar unumdorligini belgilash, ularning gumus, fosfor va kaliyli holatiga bogʻliqdir. Kuzatishlarga asoslanib, boʻz tuproqlar mintaqasi sugʻoriladigan tuproqlarida, ayniqsa ularning yuqori qatlamlarida, gumusning umumiy miqdori, shunga mos ravishda yalpi azotning kamayishi aniqlangan.

Shuni ham taʼkidlash kerakki, respublikadagi qadimdan sugʻoriladigan hamda yangidan sugʻoriladigan tuproqlarda yuqori agrotexnika qoʻllanilganida madaniylashgan tuproqlarning haydalma qatlamida gumus miqdori 1,18-1,32%, ayrim hollarda 1,63-1,78 % va undan yuqori boʻlgani aniqlangan. Tuproqlarga koʻproq organik oʻgʻitlar qoʻllash orqali ularning unumdorligini saqlash va oshirish imkoniyatlarini beradi.

Sugʻoriladigan tuproqlarning unumdorligini pasayib borish sabablaridan yana biri tuproqdan olingan oziqa elementlari va boshqa moddalarni oʻz vaqtida qaytarib berish qonunini buzilganligidir. Sugʻoriladigan tuproqlarda har yili ekiladigan gʻoʻza, donli oʻsimliklar, meva, sabzavot va poliz ekinlari katta miqdorda oʻzlari bilan maʼlum miqdorda oziqa elementlarini, yaʼni hosili, vegetativ qismlari bilan butunlay chiqib ketadi.

Dehqonchilik amaliyotida foydalanilayotgan tuproqlarning unumdorligini saqlab qolish va oshirib borish ulardan toʻgʻri va samarali foydalanishga bevosita bogʻliq. Yer resurslarining muhim qismi boʻlgan tuproq qatlamidan oqilona foydalanish uning unumdorligini saqlab qoladi va oshiradi. Shu nuqtai-nazardan qaraganda, ayrim yerlarda, tuproqdan notoʻgʻri foydalanish natijasida, uning unumdorligi pasayib ketish holatlari ham uchray turadi. Tuproq unumdorligini saqlash va muhofazasidagi muhim masalalardan biri - tuproqni organik moddaga boyitish hamda ekinlarni toʻgʻri joylashtirishdir.

Ilmiy izlanishlar tahlili natijalariga koʻra, har qanday tip va tipchadagi tuproqlarda ham dehqonchilik tizimini toʻgʻri tashkillash orqali undagi gumus miqdorini oshirish imkoniyatlari mavjud.

Oxirgi vaqtda olib borilgan tadqiqotlar natijasida aniqlanishicha, tuproqlar degumifikatsiyasi tuproq unumdorligini pasayishiga olib keladi. Tuproqlarda organik moddaning kamayishi ularda koʻplab ijobiy agrokimyoviy xossalarni yoʻqolishi bilan birga kechadi. Tuproqlarda gumusning kamayishi beda bilan almashlab ekishning deyarli yoʻqligi, sideratlarning ekilmasligi, organik oʻgʻitlar qoʻllanilmasligi misol boʻladi.

Tuproqlarning gumuslilik holatini yaxshilash maqsadida hamma yerlarga organik oʻgʻit (goʻng) qoʻllash zarur. Bunday oʻgʻitlarga qoʻshimcha manba sifatida somon, gʻoʻzapoya, oʻsimliklarning angʻizi, turli xil chorva-mollari xoʻjaliklari chiqindilarini solib va haydab yuvorish zarur, chunki bu moddalarda hamma oziq moddalar oʻsimliklar uchun oʻzlashtiriladigan holda boʻladi.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida keltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish natijasida bir necha yilda kam mahsuldor yerlarning unumdorlik darajasini koʻtarishga erishiladi, ushbu sharoitlarga mos ekinlardan yuqori hosil va daromad olinib, respublikamiz iqtisodiyotini rivojlantirishga hamda mamlakatimiz oziq-ovqat havfsizligini taʼminlashga salmoqli hissa qoʻshiladi.



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Abduxakimova, X. A., & Isagaliyev, M. T. (2020). Izmeneniye sodержaniya myshyaka i tyazelykh metallov v serozemakh Yuga Fergany. *Nauchnoye obozreniye. Biologicheskkiye nauki*,(4), 16-21.
2. Абдухакимова Х. А. Шохимардонсой конус ёйилмаси сугориладиган тупрокларининг геокимёси //Б. ф. ф. д. дисс. автореф. Фаргона. – 2021. – Т. 42.
3. Isag‘aliyev M., Abduxakimova X., Mirzajonov I. Sug‘oriladigan o‘tloqi saz tuproqlarining agrokimyoviy xossalari //Fanning dolzarb masalalari” mavzusidagi ilmiy-amaliy anjumani materiallari.–F.: FDU. – 2018. – С. 84-86.
4. Murodjon, I., Gulyam, Y., & Khusnida, A. (2018). Geochemistry of biotrace elements in irrigated serozems in the south of Fergana. *European science review*, 2(11-12), 25-27.
5. Юлдашев, Ф., Сотиболдиева, Г. Т., & Абдухакимова, Х. Х. (2020). Biogeochemical properties of calcium and strontium in gray soils. *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology*, 2(5), 61-67.
6. Isakov, V., & Yusupova, M. (2021, July). CHANGES IN THE PROPERTIES OF SANDY SOILS. In Конференции.
7. Юсупова, М., Абдухакимова, Х., & Жалолов, Э. (2021). Барханные и слабо заросшие пески Центральной Ферганы. Наука сегодня: вызовы и решения материалы меж, 16.
8. Isagaliyev, M., Abakumov, E., Turdaliev, A., Obidov, M., Khaydarov, M., & Abdulkhakimova, K. & Musaev, I.(2022). *Capparis spinosa L. Cenopopulation and Biogeochemistry in South Uzbekistan. Plants*, 11(13), 1628.

## БАРАБАН СЕТКАЛИ АППАРАТ

**Каримов И.Т., М.З.Сиддиқов.**

Фарғона политехника институти

E-mail: [msiddiqov94@mail.ru](mailto:msiddiqov94@mail.ru)

### АННОТАЦИЯ

Мақолада чанг ва газларни хўл усулда тозаловчи аппаратлар конструкциялари таҳлил қилинган ва тозалаш самарадорлиги юқори, энергиятежамкор, ихчам барабанли қурилманинг янги конструкцияси таклиф қилинган.

**Калит сўзлар:** чангли газ, хўл усул, суюқлик, сеткали барабан, электр мотори, шкив, тасма, таянч, сув идиши.

### АННОТАЦИЯ

В статье проанализирована конструкция устройств мокрой пыле- и газоочистки и предложена новая конструкция высокоэффективного энергосберегающего компактного барабанного устройства.

**Ключевые слова:** запыленный газ, мокрый способ, жидкость, сетчатый барабан, электродвигатель, шкив, ремень, опора, резервуар воды.

### ABSTRACT

The article analyzes the design of devices for wet dust and gas cleaning and proposes a new design with high cleaning efficiency, energy-saving and compact drum device.

**Keywords:** dusty gas, wet method, liquid, mesh drum, electric motor, pulley, belt, support, water tank.

Ҳозирги кунда саноатнинг турли тармоқларида ишлаб чиқариш жараёнларида ҳосил бўладиган чангли газларини хўл усулда тозаловчи қурилмалардан кенг фойдаланилади. Уларни ишлатиш жараёнидаги ўзига хос хусусияти шундан иборатки, қурилма камераларига йўналтирилган газ ва ҳавога аралашган чанг заррачаларини суюқлик билан контакти ҳосил қилиниб, чангли газ тозаланади.

Бу қурилмалар қуйидаги афзалликларга яъни, конструкциясининг соддалиги ва нисбатан арзонлиги, инерцион турдаги қуруқ механик чанг тозаловчи қурилмаларга нисбатан юқори самарадорлиги, матоли ва электр

фильтрларига нисбатан габарит ўлчамларининг кичиклиги, юқори ҳароратдаги, юқори намликдаги газларни ва портлаш хавфи мавжуд бўлган газларни тозалашда қўллаш мумкинлиги ҳамда буғ ва газсимон компонентлар таркибидан қаттиқ заррачаларни тутиб қолиш имкониятига эга.

Бундан ташқари зарраларининг ўлчами 1 мкм дан кичик бўлган чангларни ушлаб қолиш хусусиятига эгаллиги ҳамда қуруқ усулда ишловчи фильтрлардан чиққан чангли газларни тозалаш жараёнига ҳам қўллаш мумкинлиги сабабли ҳозирги кунда ушбу қурилмалардан фойдаланиш кўлами ортиб бормоқда [1].

Шу билан бирга, ҳўл усулда чангли газларни тозаловчи қурилмаларнинг куйидаги камчилигини келтириш мумкин. Масалан: Иш жараёнида суюқлик шлами ҳосил бўлади ва уни тозалаб кейинги жараёнда фойдаланиш учун қўшимча харажатларни талаб этади. Агрессив компонентлардан иборат газларни тозалашда қурилманинг ишчи юзалари ва газ қувурлари коррозияга учрайди.

Бу камчиликларга қарамай ушбу қурилмалардан металлургияда, қурилиш материаллари ишлаб чиқариш ва кимё саноати корхоналарида чангли газларни тозалаш айниқса, тозалаш билан бир қаторда, газни совутиш ва намлантириш зарур бўлган ҳолларда қўлланилади. Бу қурилмаларни ўлчами кичик бўлганлиги учун электр фильтрлари ва мато фильтрларини жойлаштириш учун жой бўлмаганда ўрнатиш имкониятига эга. Агар корхонада сув таъминоти учун махсус хавзалар мавжуд бўлса, ҳўл усулда чангли газларни тозалашнинг рентабеллиги янада ортади.

Суюқлик ёрдамида чанг зарраларини ушлаб қолишнинг иккита асосий, суюқлик томчилари ва суюқлик плёнкаси усули мавжуд. Биринчи усулда ишчи суюқлик чангли газ ва ҳаво оқимига сепиб тарқатилган томчилари билан ювилади. Ювиш пайтида чанг зарралари суюқлик томчилари билан ушланиб, газ оқимидан чиқарилади. Ҳарорат шароитига, газнинг босими ва намлигига қараб, ювиш жараёнида томчиларнинг буғланиши ёки газ оқимидан буғларнинг конденсацияси содир бўлиши мумкин. Муайян шароитларда чанг зарралари бундай конденсацияланиш учун ядро бўлиб хизмат қилиши мумкин. Конденсация эффектидан фойдаланиш чангнинг чўкишини анча яхшилайти [1].

Чангни тозалашнинг иккинчи усули - чанг зарралари оқимини қурилма деворларида ҳосил қилинган суюқлик плёнкаси юзасига йўналтириш орқали амалга оширилади. Бунда чанг заррачалари суюқлик плёнкасида ютилади.

Ҳозирги кунда саноатда ҳўл усулда чанг тозаловчи турли хил конструкцион тузилишга эга бўлган аппаратлардан фойдаланиб келинмоқда. Жумладан: фелод скруббери [2], ҳўл усулда газларни чангдан тозаловчи қурилма [3], марказдан қочма инерцион чанг тозалагич [4], роторли барботажли газ тозалагич, айланувчи дискли аппарат CHPOSVUCHZ [5], роторли сочувчи газ тозалагич [6],


говакли айланма ҳаракатланувчи қуюнли аппарат [7], роторли тақсимловчи чанг тозалагич [8].

Бу кўриб ўтилган аппаратларни конструктив тузилиши ва самарадорлик нуқтаи назаридан таҳлил қиладиган бўлсак турли саноат чангларини тозалаш кўрсаткичи 97-99 % ни ташкил қилади. Лекин конструкцион тузилишининг мураккаблиги уларга сарфланаётган энергия ва аппаратда гидродинамик ва аэродинамик қаршиликларнинг юқорилигини умумий камчилик сифатида кўрсатиб ўтишимиз мумкин [9].

Бу юқорида қайд этилган камчиликларни бартараф қилиш ва чангли газлар билан аппаратга берилаётган суюқлик ўртасидаги контакт юзасини ошириш мақсадида, ҳўл усулда чангли газларни тозаловчи барабанли аппаратнинг янги конструкцияси тавсия этилмоқда. Яратилган янги конструкциядаги чанг ушлаш аппаратининг асосий авфзалликларидан бири бу аппаратда энергия сарфининг ҳамда гидродинамик ва аэродинамик қаршиликларнинг камлиги ҳамда чангли ҳаво ва газларни суюқлик томчилари билан контакт юзаси оширилганлигидир. Тавсия этилаётган аппаратни конструкцион тузилиши саноат корхоналари цехларидан чиқаётган чангли ҳаво ва газларни йўналтирувчи махсус қувурлар ўлчамига мослаб лойихаланиши мумкинлиги билан ажралиб туради. Бу ўз навбатида аппаратни жойлаштириш учун махсус майдонни талаб этмайди.

Мамлакатимизда охириги йилларда саноат корхоналаридан чиқаётган чангли ҳаво ва газларни ҳамда саноат оқова сувларини самарали тозалаш қайта ишлаш технологик жараёни ва қурилмаларини яратишга йўналтирилган илмий-тадқиқотлар олиб борилмоқда. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 3 октябрдаги ПҚ-3956-сонли “Экология ва атроф-муҳитни муҳофаза қилиш соҳасида давлат бошқаруви тизимини такомиллаштириш бўйича қўшимча чоратadbирлар тўғрисида” ги қарорида хусусан «саноатни юқори технологияли тозалаш иншоатлари билан таъминлаш»га қаратилган вазифалар белгилаб берилган [9].

Юқоридаги талаблардан ва вазифалардан келиб чиқиб, ҳўл усулда чанг ва газларни тозаловчи, тозалаш самарадорлиги юқори, энергиятежамкор, ихчам қурилма яратилди [10]. Қуйида қурилманинг тузилиши ва ишлаш принципи баён этилган (1-расм).



- 1-Қурилма танаси,
- 2-вал,
- 3-сеткали барабан,
- 4-электр мотори,
- 5-қурилма таянчи,
- 6-чангли ҳаво қувури,
- 7-тозаланган ҳаво қувури,
- 8-сув идиши, 9-сув қувури,
- 10-тақсимлаш қувури,
- 11-штуцер,
- 12-жумрак,
- 13-вентилятор,
- 14-шлам жумраги,
- 15-етақловчи шкив,
- 16-етақланувчи шкив,
- 17-тасма

### 1-расм. Ҳўл усулда чанг тозаловчи барабанли қурилма схемаси

#### *Қурилманинг тузилиши қуйидагича.*

Қурилма цилиндрик тана 1 дан ташкил топган бўлиб, унга вал 2 орқали таянч шпилкаларга сетка тўшалган барабан 3 ўрнатилган. Барабаннинг айланма ҳаракатини таъминлаш учун, электромотор 4 ўрнатилган. Қурилма танаси таянч 5 лар ёрдамида асосга маҳкамланган. Қурилмага чангли ҳавони йўналтириш учун тана 1 га қувур 6 ва тозаланган ҳавони чиқариш учун қувур 7 ўрнатилган. Қурилмага сув идиш 8 дан қувур 9 ёрдамида сувни тақсимловчи қувур 10 орқали штуцерлар 11 га узатилади.

Берилаётган сув сарфи вентиль 12 ёрдамида соланади. Қурилмага чангли ҳавони киритиш учун вентилятор 13 хизмат қилади. Қурилма танасида барабанга сепилган ва оқиб тушган сув сатҳини бир хил даражада ушлаб туриш ва шламни чиқариб олиш учун вентиль 14 хизмат қилади. Сеткали барабани айланма ҳаракатини таъминлаш учун электр мотори 4, етакловчи шкив 15, етакланувчи шкив 16 ва тасма 17 хизмат қилади.

#### *Қурилма қуйидагича ишлайди.*

Қурилмага чангли ҳаво вентилятор 13 ёрдамида йўналтирувчи қувур 6 орқали сеткали барабан 3 нинг ички қисмига берилади. Чангли газ тозалаш

камерасида йўналишини  $90^{\circ}$  га ўзгартириб, барабанга тўшалган метал сеткалар орқали ўтади. Чангли ҳавони фақат барабан сеткаларидан ўтишини таъминлаш учун, барабаннинг ўнг томони метал диск билан беркитилган. Сеткали барабанга сув идиши 8 дан қувурлар 9 ва 10 орқали штуцерлар 11 орқали берилади. Берилаётган сув сарфи вентиль 12 ёрдамида соланади. Штуцер 11 дан сув барабан 3 нинг устки қисмидан бутун юзаси бўйлаб майда томчи ҳолида сепилади ва чангли ҳаво билан контакти ҳосил бўлади. Натижада ҳаво таркибидаги чанглар суюқликда ушлаб қолинади ва қурилма танаси 1 ва сеткали барабан 3 нинг пастки қисмидаги чўктириш зонасида тўпланади. Бу ҳосил қилинган шлам ваннаси айланма ҳаракатланувчи барабан сеткаларини ювиш учун ҳам хизмат қилади.

Шлам таркибидаги чанг миқдори ва сеткани ювилиш даражасига кўра қурилмадан чиқариш учун вентил 14 хизмат қилади. Сеткали барабани айланма ҳаракатини таъминлаш учун электр мотори 4, етакловчи шкив 15, етакланувчи шкив 16 ва тасма 17 хизмат қилади. Барабани айланишлар тезлиги ҳаво таркибидаги чанг тозаланишига кўра танланади. Тозаланган ҳаво эса қувур 7 орқали атмосферага чиқариб юборилади. Қурилманинг чангли ҳавони тозалаш самарадорлиги барабан 3га тўшаладиган сетка ўлчамларига ва бу ўлчамларга боғлиқ ҳолда ҳосил бўладиган қаршилик коэффициентларига кўра тажрибалар орқали аниқланади. Барабан 3га сувни сепиб берувчи штуцер 11лар тешигидан чиқаётган сувнинг сарфи, тешикнинг қаршилик коэффициентига боғлиқ бўлиб, тажрибалар йўли билан аниқланади. Штуцер 11лар сони эса барабан 3ни ўлчамига ва тўшалган сеткаларга сувни сепиш даражаси ва тозалаш самарадорлиги орқали танланади. Барабан 3 диаметри ва узунлиги эса тозалашга берилаётган чангли ҳаво сарфига ва танланган сетканинг тозалаш самарадорлигига боғлиқ ҳолда аниқланади. Чангли ҳаво оқими ёрдамида барабани айланма ҳаракатга келтирувчи электр мотори 4 нинг қуввати чангли ҳавони оқим тезлиги ва барабанда ҳосил қилинган шлам ваннасидаги сув сатҳи баландлигига кўра, ҳосил бўладиган қаршилик коэффициентларига ва вал ўрнатилган таянч подшипникларнинг қаршилик коэффициентларига боғлиқ ҳолда аниқланади. Қурилмага берилаётган чангли ҳаво ва сув сарфлари нисбатлари тозаловчи сетканинг қаршилик коэффициентларига боғлиқ ҳолда тозалаш самарадорлиги кўрсаткичлари орқали тажрибалар натижасида аниқланади. Қурилмага сувни узатиш учун ўрнатилган идиш 8 нинг баландлиги штуцернинг қаршилик коэффициентларига боғлиқ ҳолда, сувни майда заррача ҳолида сепилиши ва қурилманинг тозалаш камерасида чангли ҳаво билан конактлаш даражасини ҳосил қилиш учун етарли бўлган сувнинг статик босими қийматига кўра аниқланади.

## Фойдаланилган адабиётлар рўйхати: (REFERENCES)

1. Сугак. Е.В. Очистка газовых выбросов в аппаратах с интенсивными гидродинамическими режимами Е.В.Сугак., Н.А.Войнов, Н.А.Николаев – Казань: Риц и «Школа», 1999-224 с.
2. Плотников К.Б. Исследование эффективности пылеуловивания и массоотдачи роторном аппарате с внутренней циркуляцией жидкости. Кол дисс Кемерово – 2014, - 150 с.
3. Пат. № 451451 РФ. МАК ВО1Д 47/06. Устройства для макрой очистка газов от пыли /Б.Я.Кругляк, В.А.Мамонтовский, И.А.Палов, И.Я.Кругляк отубл. 30.11.74. Кюл. № 26-4с.
4. Анискин С.В. Струйный эффект очистки газа в прямоточном распылительном аппарате / С.В. Анискин// ШПХ,-2010 №6-с. 966-970.
5. Murodilov K. T., Alisherov S. M. WEB CARTOGRAPHY AT THE CURRENT STAGE OF DEVELOPMENT OF GEOINFORMATION RESOURCES //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2023. – Т. 11. – №. 4. – С. 166-171.
5. Асломова В.С., Интенсификация процесса сепарации в прямоточном циклоне и вентиляторе пылеуловителе автореф. дисс. канд. техн.наук:05.17.08/Асломова Вера Сергеевна, - Москва, 1987,-16с.
6. Гумерова. Г.Х. Динамика дисперсной фазы в вихревом аппарате с пористыми вращающимся распылителями./Г.Х.Гумерова, и др.//химическая промышленность сегодня.-2009-№5-с 47-50.
7. Пат.№451451 Российская федерация МПК 7 В 01 Д 47/16. Роторный пылеуловитель А.Ф.Сароколуд, Н.М.Горячкина, И.Е.Бельдяев; № 2005110312/15 заявя. 08.04.05; опубл. 10.04.07. бюл. № 23-5 с.
8. O'G'Li M. H. T. Market transformation for sustainable rural housing //Достижения науки и образования. – 2019. – №. 7 (48). – С. 30-31.
8. Исомидинов А.С., Тожиев Р.Ж., Каримов И.Т. Хўл усулда чангли газларни тозаловчи роторли қурилма// ФарПИ илмий-техника журнали .-2018 Фар-она, 2018.- №1 –Б. 195-198.
9. Murodilov K. T., Toshmatov U. Q. CREATING MAPS OF AGRICULTURE AND CLUSTERS BY USING GEOINFORMATION SYSTEMS. Innovative Development in Educational Activities, 2 (6), 464–470. – 2023.
9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 3 октябрдаги ПҚ-3956-сонли “Экология ва атроф-муҳитни муҳофаза қилиш соҳасида давлат бошқаруви тизимини такомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” ги қарори.
- 10.Мадаминова Г.И., Тожиев Р.Ж., Каримов И.Т. Барабанное устройства для мокрой очистки запыленного газа и воздуха// Universum: технические науки.– №. 5 (86). Часть 4.,М., Изд.”МЦНО”,-2021. С.45-49.

## YEVROPADA “UYG‘ONISH DAVRI” USLUBLARINING SHAKLLANISHI

**Naimova Dilbar Numonovna**

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti.  
“Carm buyumlari texnologiyasi va dizayni”  
kafedrası katta o‘qituvchisi

### Аннотация.

“Barokko va rokoko,modern” uslublari Uyg‘onish davri uslubi bo‘lib, XV-XVI asrlar Yevropa madaniyati tarixidagi davr o‘rta asrlar madaniyati o‘rniga kelgan yangi davr.

**Kalit so‘zlar:** barokko, rokoko, renesans, me‘morchilik,hunarmand, Antik davr.

**Renessans**-Uyg‘onish davri uslubi XV-XVI asrlar (Fransuzcha-rennaissance, italyancha-rinascimento, ri-qayta yoki qayta tug‘ilmoq). Yevropa madaniyati tarixidagi davr o‘rta asrlar madaniyati ‘rniga kelgan yangi davr. U taxminan XIV asr boshlaridan XVI asr oxirlari va XVII asrning dastlabki o‘n yilliklarini o‘z ichiga oladi. Uyg‘onish davri madaniyati o‘zining antropotsentrizm (birinchi navbatda, asosiy e‘tibor inson va uning faoliyatiga qaratilganligi) xususiyati bilan insoniyat tamaddunidan joy olgan. O‘rta asrlarga kelib, Antik davri madaniyatiga e‘tibor kuchayadi yoki qaytadan uyg‘ona boshladi.



**1-rasm.” Barokko” arxitekturada.**

Shu tariqa uyg‘onish atamasi paydo bo‘ladi. Renessans atamasi uyg‘onish ma‘nosini berishi haqida XVI asrda italyan rassomi Jorjo Vazari tomonidan ma‘lumotlar yozib qoldirilgan. Bu atamaga zamonaviy tusni esa fransuz tarixchisi Jule Mishel tomonidan XIX asrda berilgan. XV-XVII asrlar jahon tarixida Renessans yoki Uyg‘onish davri nomi bilan mashhurdir. Bu davrda Yevropa mamlakatlarida birin-ketin madaniy yuksalish ko‘zgatashlanadi. Bu madaniy yuksalish, birinchi navbatda,



ijtimoiy- iqtisodiy o'zgarishlar bilan, jamiyat hayotida shaharlarning, shahar madaniyatining, hunarmandchilikishlabchikarishining rivoj topishi bilan uzviy bog'liq edi. Renessans madaniyati birinchi bo'li b Italiyada boshlandi. Yevropa Uyg'onish harakatining ilk vatani-Italiyada kapitalistik sanoatning dastlabki shakli-manufaktura yuzaga keladi. Mamlakatning bir qancha shaharlarida savdo-sotiq tez sur'atlar bilan rivojlanadi. Venetsiya va Genuya savdo bilan mashhurbo'lgan bir vaqtda Florensiya sanoat va bank ishlari bilan shuhrat qozondi.

### ***Barokko (serhasham) uslubi.***

Bu uslubni Fransiyada LyudovikXIV qirolligi davri bilanbog'lashadi. Aslida esa barokkoestetikasi tarmoqlari uyg'onishdavrining oxirlaridan boshlangan.Uni manyerizm deb hamataydilar. U insoniyat tarixidasezilarli iz qoldirgan. Barokkoningta'sirchan, yorqin ranglari, tashqigo'zalligi, Yevropa madaniyatidagi boshqa usullardan ustunligini ta'minladi. U bir necha asrlar davomida XIV asrning oxirlaridan XVIII asrning o'rtalarigachagurkiradi. Hasham, dabdaba, serbezaklik va salobat kabi xususiyatlari insonni lol qoldiradigan, hayratga soladigan uslub barokkodir, ammo bu uslubni tashkil etuvchibarcha unsurlarning simmetrik joylashuvi uni juda bejirim va yoqimli qilib ko'rsatadi. Barokko pollari yig'ma suratli parket bo'laklari yoki marmardan iborat bo'lgan. Uy shiftlariga syujetli rasmlar va bo'rtma naqshlar solinadi. Devorlarga esarang-rang bezaklar, baxmal va shoyi matolar tortilgan, marmar qoplangan. Tilla suviyuritilgan ramkalarga joylashtirilgan rasmlar, oynalar, kaminlar va boshqa uybezaklari ana shular sirasiga kiradi.



### **2-rasm. Barokko uslubidagi interyer.**

Barokko italyancha so'z bo'lib, o'zbek tilida "serhasham" ma'nosini beradi.Uning asoschisi sifatida buyuk mo'yqalam sohibi Mikelanjelo nomini tilga oladilar.Uning o'ta ta'sirchanligidan Rim katolik cherkovi o'z manfaatlari yo'lida foydalanishga harakat qilar edi. Bu uslubni davlat ham qo'llab-quvvatlagan. Undan hokimiyat kuch-qudratini namoyish qilish vositasi sifatida foydalanganlar. Shusababli

qayerda katolik cherkovi bo'lsa, qaysi davlat qo'llab-quvvatlasa, o'sha yerdabarokko uslubi tez rivojlandi. Nihoyat, butun Yevropani egallab oldi. Ispanlar sababchibo'lib, u Amerikaga ham yetib bordi. Shu bois hozir ham uni amerikaliklar ispanuslubi deb ataydilar.



5-rasm. Barokko uslubidagi qadimiy poyabzallar



6-rasm. Barokko uslubidagi zamonaviy poyabzallar

### **Rokoko-san'at uslubi.**

Rokoko – san'at uslubi. U interyer dizaynida eng ko'p qo'llaniladi. Fransiyada Fillip Orleanskiy (1715-1729 yillar) va Lyudovik XIV hukmronlik qilgan zamonlarda gullab-yashnadi. Rokoko barokkoning davomi sanaladi, ammo shakllarning o'ta hashamdorligi va dabdabavozligidan voz kechadi. Me'morchilikda yengil, bejirim, meyorida bezatilgan, ammo ana shu zamonga mos ishvarar muqomga ega bo'lgan imoratlar quriladi. "Rokoko" atamasi fransuzchadagi "rocaille" – "chig'anoq", "chig'anoqtosh", ya'ni "qayta ishlanmagan tosh" ma'nosini beradi, ammo bu atama XIX asrda muomalaga kiritilgan. O'z paytida uni "did surati", keyinroq, XVIII asrda "aynigan did" deya uning o'ta ko'p sonli va turli qadalgan bezaklarini tanqid qila boshlagan edilar. Bu uslub me'morchilikda Evropaning bir qator mamlakatlarida 1780 yilgacha yashadi. Bu Avstriya va Germaniyada ancha rivojlandi. Bu hech qanday

yangilik olib kelmadi, lekin eski me'morchilik an'alarini erkin va istagandek qo'llash imkoniyatlarini yaratdi.



**8-rasm. Rokoko uslubidagi interyer.**

XVII asr boshlarida fransiyalik alximik I.F.Betger alohida bir tuproq turini topadi va farfor ishlabchiqarishni kashf qiladi. Chinni buyumlar nihoyatda mashhur bo'lib ketadi. Stol ustini farfor bilan qoplash san'ati yuzaga keladi. Yangi-yangi idishlar, likopchalar, taqsimchalar, kofe idishlari ishlabchiqariladi. Kumush buyumlar modaga kiradi. Turfa xil yorqin ranglarga ega bo'lgan barokko o'rnini mayin oqargan, xira va harrir oltin, kumush va oq ranglari bilan rokoko egallaydi. Rokoko uslubi tarixini bezak va sovg'a-buyumlarsiz tasavvur qilish qiyin. Eng zarur narsalar: soat, qandil, farfor haykalcha, o'yinchoqlar va qutichalar sanalgan. Devorlarga oyna va kartinalar assimetrik tarzda osib qo'yilgan. Ularning mavzusi asosan erotika, afsonalar, cho'pon va cho'ponlar hayotini aks ettiruvchi rasmlardan iborat bo'lgan. Xuddi shu davrda interyerning unsurlaridan biri sifatida akvarium paydo bo'lgan edi. Hozir ham rokoko har qanday xonadon interyeriga munosib keladi. Ulug' fransuz rokoko namoyandasi Antuan Vatto (1684-1721 yillar) tomonidan 300dan ortiq kartina va suratlar yaratilgan. XVIII asr o'rtalarida dunyoga kelgan rokoko san'at uslubi insonni haqiqiy hayotdan fantaziya va xayolot olamiga olib kiradi. Afsona va rivoyatlar hamda erotika holatlarini aks ettiradi. sosan naqshdor, dabdabavor marom uning mohiyatini belgilaydi.



**Rokoko uslubidagi poyabzallar**

**Modern** (fransuzcha “modeme” – “zamonaviy” degan ma’noni bildiradi) Rossiyada, art-nuvo (fransuzcha “art-nouveau” – “yangi san’at”) Fransiyada, yugendshtil (nemischa “jugendstil” – “yosh uslub”) san’at sohasidagi badiiy yo‘nalish bo‘lib, XIX oxirlari XX asr boshlari, Birinchi jahon urushigacha bo‘lgan davrda Germaniyada keng tarqalgan. Modern .Poyafzal, bosh kiyimlar, soch turmagi, aksessuarlar, bo‘yanis, makiyaj.

**Oyoq kiyimlari.** XIX asr oxirida. ayollar tugmalari yoki bog‘ichlari bo‘lgan baland etiklar, shoyi, qora yoki rangli teridan tikilgan, baland qiyshiq poshnali, kamon, tokalar va rozetlar bilan bezatilgan poyabzal kiyishadi. Qisqartirilgan yubkalar modaga kirgandan so‘ng, ayollar poyafzallari yanada oqlangan bo‘lib, ularga ko‘proq e’tibor berishni boshlaydilar. 20-asr boshlari U turli xil uslublar bilan ajralib turadi va uning funksional maqsadiga ko‘ra bo‘linadi: kundalik hayotda ular past barqaror poshnali ochiq va yopiq poyabzal, tugmalar yoki dantelli etiklar kiyishadi. Tantanali marosimlarda ular yupqa, baland va kavisli poshnali poyabzal kiyishadi. Yubkalarining uzunligi qisqarganligi sababli, 19-asrdan olingan yubkalar modaga kirdi. ayollar oyoqlariga o‘zgacha uyg‘unlik berib, "Louis poshnali" etiklar. Ko‘plab muxlislar raqsga tushish uchun qulay bo‘lgan to‘rli ochiq poyabzallarni topishadi .

***“Modern” uslubidagi tarixiy poyabzallar***



*“Modern” uslubidagi zamonaviy poyabzallar*



**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. Raxmatullayeva D, Xodjayeva U, Ataxanova F. Libos tarixi. - T.: Sano- Standart 2015.
2. Xasanbaeva T.K., CHursina B.A. Kostyum tarixi. - T.: Uzbekistan,-320 b.
3. M.N.Mersalova. Kostyum raznyx vremen i narodov 1,2 tom M.: Akademiya 2003
4. Anna Bleyz. “Istoriya kostyuma ot Faraona do Dendi”
5. Naimova Dilbar Numonovna. “ Значение символов изображений рисунок при использование дизайнерских работ». Халқаро конференцияда . “Енгил саноатда замонавий инновацион технологиялар: муаммо ва ечимлар” халқаро илмий амалий материаллари. Бухоро 19-20 ноябр 221-225 стр. 2022
6. Naimova Dilbar Numonovna. “Ranglarning inson ruhiyatiga ta’siri”. “ILM-FAN VA TA’LIMDA INNOVASION YONDASHUVLAR, MUAMMOLAR, TAKLIF VA YECHIMLAR» mavzusidagi ko‘p tarmoqli 24-sonli respublika konferensiyasi to‘plami. 239-243 betlar. 2022.

7. Naimova Dilbar Numonovna. “Значение древних образцов, символов изображений”. Научно образовательный электронный журнал «Образование и наука в XXI веке» выпуск №11 (том3) 544-550 стр.февраль 2021.
8. Naimova Dilbar Numonovna. The nature of ancient patters,symbols,images. EPRA International Journal of Research and Development (IJRD) February 2021. 178-182.
9. Наимова Д.Н. «Дизайн обуви-это произведение искусства:всё начинаеися с идеи» *Международный научный журнал «ВЕСТНИК НАУКИ» № 3 (48) Том 4*
- 10.Наимова Д.Н. «Развитие проектирования обуви с позиций современного дизайна» *Международный научный журнал «ВЕСТНИК НАУКИ» № 5 (50) Том 5*
- 11.Наимова Д.Н. «Обоснование рациональной формы следы профилактической обуви» *Международный научный журнал «ВЕСТНИК НАУКИ» № 9 (54) Том 3*

## ZAMONAVIY TA'LIMDA INTERAKTIV METODLARDAN FOYDALANISH

**Olimova Mashhura Shuxratovna**

FarDU 1-kurs magistranti

### ANNOTATSIYA

Maqolada uzluksiz ta'lim, ta'limning vazifasi, ta'lim berish, interaktiv ta'lim haqida ma'lumotlar keltirilgan. Bundan tashqari interaktiv darslarda didaktik materiallardan foydalanish samaradorligi haqida ham to'xtalib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** maktab, ta'lim-tarbiya, interaktiv, o'qituvchi, o'quvchi, didaktika, dars, metod.

### ABSTRACT

The article provides information on lifelong learning, the function of education, teaching, interactive learning. The effectiveness of the use of didactic materials in interactive lessons was also discussed.

**Key words:** school, education, interactive, teacher, pupil, didactics, lesson, method.

Taraqqiyotning yangi yo'lidan borayotgan mustaqil yurtimizda shaxsni intellektual, ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning muhim shartlaridan biri, ta'lim tizimini shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasi va kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etishdan iborat. Ta'lim tizimidagi rivojlanish jamiyat taraqqiyotining negizini tashkil etadi. Buning uchun muntazam tarzda ta'lim tizimida qo'llaniladigan innovatsion texnologiyalarni o'zlashtirish, shu orqali talabalarning kompetensiyalarni egallash jarayonlarini jadallashtirish, ularni rivojlanayotgan jamiyat talablariga moslashtirish taqozo etiladi. Sifatli ta'lim olish ehtiyojining kuchayishi O'zbekiston fuqarolarining muhim hayotiy qadriyati sifatida tobora dolzarblashmoqda. Chunki sifatli ta'lim ijtimoiy-siyosiy barqarorlik va haqqoniylikning asosiy omilidir.

O'zbekiston Respublikasida ta'limning uzluksizligi, uzviyligi, o'quvchi shaxsi va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqib, ularning yosh xususiyatlariga mos ravishda ta'lim jarayonini tashkil etishda interaktiv metodlarning ham alohida o'rni bor.

Ta'lim – inson bilish faoliyatining eng murakkab turlaridan biri bo'lib, individual psixik rivojlanishni va bilimlarni o'zlashtirishni ancha tezlashtiradi. O'qituvchi ta'lim jarayonida faqat bilim berish bilan chegaralanmaydi, bu jarayonda u ta'lim oluvchiga

ta'sir ko'rsatadi, bu esa bilim olishlarini yanada faollashtiradi, natijada ta'lim oluvchi ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi.

Ta'lim jarayonida ta'lim oluvchilar ongiga singdirilayotgan nazariy bilimlar amaliy faoliyat yordamida yanada mustahkamlanadi. Inson tevarak – atrofdagi voqealik, narsa va hodisalarning mohiyatini amaliy hayotda ularga to'qnash kelish yo'li bilan bilib oladi, ularni o'zlashtiradi. Inson amaliy faoliyat tufayligina ijtimoiy ishlab chiqarish faoliyati jarayonini tashkil etuvchi munosabatlar, shuningdek, tabiat hodisalari sirini o'zlashtirib oladi.

Narsalar, buyumlar bilan amaliy muomalada bo'lish natijasida buyumlar sezgi organlariga ta'sir qiladi, sezgilar idrokni keltirib chiqaradi. Amaliyotda insonning faol fikrlash faoliyati yuzaga keladi. Fikrlash yordamida u real voqealikni chuqur tushunadi.

**Ta'lim** deganda shaxsning jismoniy va ma'naviy kamol topishi, uning ongli ravishda ayrim ibratli faoliyatlari yo'nalishlari tarixan maydonga kelishi, ijtimoiy namuna bo'lishga va har tomonlama barkamollikka intilish jarayoni tushuniladi.

Ta'limning boshlang'ich (dastlabki) **vazifasi** ta'lim oluvchini o'qitishdan iborat. Shuning bilan birga oila, ishlab chiqarish va boshqa sohalarga ma'lumot berish vazifasini bajaradi.

**Ta'lim berish** – ta'lim oluvchining intellektual salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan pedagogik faoliyati bo'lib, insonning aqliy faoliyatini rivojlantirish jarayonidir. Ta'lim berish ta'lim oluvchilarning o'qish – o'qitish jarayonining mazmun – mohiyatini ongli ravishda anglab yetishlari orqali amalga oshiriladi.

**Interaktiv ta'lim metodlar** deganda – ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo'llanilganda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta'lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi.

Ta'lim oluvchi markazda bo'lgan yondashuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- ✓ ta'lim samarasi yuqoriroq bo'lgan o'qish-o'rganish;
- ✓ ta'lim oluvchining yuqori darajada rag'batlantirilishi;
- ✓ ilgari orttirilgan bilimlarning ham e'tiborga olinishi;
- ✓ ta'lim jarayoni ta'lim oluvchining maqsad va extiyojlariga muvofiqlashtirilishi;
- ✓ ta'lim oluvchining tashabbuskorligi va mas'uliyatining qo'llab-quvvatlanishi;
- ✓ amalda bajarish orqali o'rganilishi;
- ✓ ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.

Eski maktablarda o'qish quruq yod olish metodida o'rganilgan bo'lsa, hozirgi maktablarda o'qish izohli o'qish metodida olib boriladi. Yod olish metodida matndagi



soʻzlarga izoh berishga, mazmunini tushuntirishga, oʻqilganini qayta hikoyalashga, umuman olganda, oʻqishning ongli boʻlishiga mutlaqo eʼtibor berilmagan. Ularda koʻproq turli talaffuzga, qiroat bilan oʻqishga, ifodali oʻqishga katta eʼtibor berilgan. Hozir maktablarda oʻqish izohli oʻqish metodida olib borilyapti. Oʻqish darslarida oʻquvchilar tabiat, jamiyat, unda yashovchi, kishilar xayoti, ularning oʻtmishi, hozirgi yashash tarzi, mashhur kishilari haqida, vatanning tabiati, ob-havosi, boyliklari, hayvonot dunyosi va boshqalar haqidagi bilimlarni egallaydilar. Bilim olish jarayonida ularga nisbatan munosabat uygʻonadi. Bilim berish bilan oʻquvchi shaxsi tarbiyalanib boradi. V.A. Suxomlinskiy bu haqida shunday deydi: «Bolalar dunyoni va oʻz-oʻzini bila borish bilan birga katta avlodlar yaratgan moddiy va maʼnaviy boyliklar uchun oʻzining masʼulligini oz-ozdan bila borishlari kerak. ...bolaga yaxshilik va yomonlikni toʻgʻri koʻrish imkonini berish kerak. Yaxshilik unda quvonch, zavq, hayajon, maʼnaviy goʻzallikka ergashish ishtiyoqini hosil qiladi; yomonlik qahr-gʻazab, murosasizlik uygʻotadi, haqiqat va adolat uchun kurashga chorlovchi maʼnaviy kuchga toʻldiradi. (1-4 sinf “Oʻqish kitobi” da berilgan asarlar misolida ochib beriladi).

Interaktiv metodlardan foydalanishning maqsadi quyidagilarda koʻrinadi:

- oʻquv materialini oʻzlashtirish va turli xil maʼlumot manbalari bilan ishlash koʻnikmalarini shakllantirish;
- oʻquvchilarning bilim olish faoliyatini faollashtirish;
- yangi materialni mustaqil tushunish va oʻzlashtirish koʻnikmalarini shakllantirish.

Interaktiv metodlardagi yangiliklar shartli almashtirishlar, diagrammalar va chizmalar ijodiy tasavvurni rivojlantirishga yordam beradi, mavhum tushunchalarni “aniqlash” imkonini beradi. Shuningdek, oʻquv materiallarini oʻzlashtirish jarayonida oʻqitish vazifasini bajaradi, oʻquv motivatsiyasini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Interaktiv metodlar yana quyidagi vazifalarni ham bajaradi:

- maʼlum bir fikrlash turini rivojlantirish (vizual-majoziy, nazariy, mantiqiy);
- oʻquv faoliyati madaniyatini shakllantirish;
- tadqiqot (ijodiy) oʻquv vazifalarini birgalikda hal qilishda intellektual va hissiy funksiyalarning oʻzaro taʼsirini faollashtirish.

Interaktiv metodlar oʻquv materiallari axborot manbai boʻlib, boshlangʻich taʼlim jarayonini loyihalashda oʻquvchilar tomonidan oʻzlashtirishi uchun “moslashtiriladi”.

Boshlangʻich taʼlim oʻquv materiallari oʻqituvchining shaxsiy yondashuviga muvofiq loyihalandi va mazkur loyiha asosida oʻrganiladigan mavzular oʻquvchilarga maʼlum ketma-ketlikda uzatiladi.

Interaktiv metodlarni loyihalash uni oʻrganish va mustahkamlash, takrorlash va amaliyotga tadbiq qilish, umumlashtirish va nazorat qilish jarayonlari bilan uzviy bogʻliq boʻlib taʼlim jarayonining samaradorligini taʼminlaydi.

So‘nggi yillarda hamdo‘stlik mamlakatlari olimlari bilan bir qatorda o‘zbek olimlari ham darsliklar va o‘quv materiallari, interaktiv metodlar yaratish muammosini tadbiq etishga alohida e‘tibor qarata boshladilar. Chunonchi, D.Shodiyev, R.Safarova, va M.Rixsiyevlar tomonidan umumiy o‘rta ta‘lim maktablari darsliklarini tekshirish va baholash mezonlar, maktab darsliklarining yangi avlodiga qo‘yiladigan talablarni ishlab chiqish borasida amaliy harakatlar olib borilgan bo‘lsa, M.Maxmudov ta‘limda faol metodlardan foydalanish tamoyillari, o‘quv materiali va uning turli shakllarini loyihalash muammosini tadbiq etishga oid ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirgan.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-4947-son Farmoni. – O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017- y., 6-son.
2. O‘zbekiston Respublikasi “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” // Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: “Sharq” nashriyot-matbaa konserning Bosh tahririyati, 1998.
3. Uzviylashtirilgan Davlat ta‘lim standarti va o‘quv dasturi, - Toshkent, 2010.
4. Antonov A.F., Adilov Q.X. Umumiy ta‘lim mazmunini tanlashning didaktik shartlari. Metodik tavsiyalar. – T.: 1994.
5. Ergasheva G.S. O‘quv materiallarini loyihalashga yangi pedagogik texnologiyalar asosida yondashish // Xalq ta‘limi. – Toshkent, 2004, 3-son.
6. Roziqov O., Ogayev S., Maxmudova M., Adizov B. Didaktika. - T.: Fan, 1997.

## RISK AND RISK-TAKING IN SMALL BUSINESS ACTIVITIES

**Teacher: O'ktamjonova Zulayho**

Fergana Polytechnic Institute, Fergana, Uzbekistan

**Student: Yuldashev Muzaffarbek Jakbaraliyevich**

Fergana Polytechnic Institute, Fergana, Uzbekistan

**Student: Abdumutalov Otabek Rozmatjonovich**

Fergana Polytechnic Institute, Fergana, Uzbekistan

### ABSTRACT.

*In this article, small business operations usually have small financial resources compared to large corporations, and such businesses are subject to constant changes in security, economic viability, and other typical risks. A business owner should try to reduce risk, but only through their own personal trading strategies and organizational risk. This is very important in paying off debts and developing new businesses. Also, a business owner can take risks to grow and improve, while also taking risks in compliance, to win. In such a case, it is important for the business owner to understand and learn against future risks and deadlines, and to be prepared to address any issues in depth.*

**Keywords.** *Technology, small business, change, risk, advertising, risks.*

Risk and risk in small business activities can exist in different forms. Business-related risks are typical:

Sources through the organization: Buyers or producers do not provide security to cash when they are given it.

Price interaction: In any sector, prices can have different effects on each other. Price increases or decreases can affect your business analysis strategy.

Technologies: Technological changes make business easier, but can also increase homogeneity. Small business operations may be affected by technological failures.

Changing markets: can open the way to like former customers, bring new and sales organizations, increase reputations, and have a clear effect on product quality satisfaction and other reasons.

Similar to the risks involved in small business operations, risk management can help mitigate these risks. This includes processes such as real-time analysis of other projects, implementation of a viable marketing strategy, and product quality

improvement. Compared to this, before doing good organization and projects to overcome risks in small business activities, we need to maintain good relationships and calculations and save the hitchhiker capital for trading.

Risk and risk in small business activities mainly affect the way of creation, introduction, and development of business. Risk and risk are mutually exclusive balances. For example, risks related to business activities (financial, commercial, technological, etc.) can affect the development of business in the international market.

Small businesses are different from large businesses because their financial resources are limited in their availability. Implementing strategies, determining the demand for specific products, analyzing sales figures, and taking risks in decision-making greatly increase the stability of the processes of establishing a modern enterprise.

Risk in small business operations is quite simple to understand because there is no such thing as risk-free for any business. As with starting a business, preparing, selling, and marketing services or products, and many other tasks, and maintaining popular and familiar accounts, small businesses need activities that use supports that call on various challenges that have arisen in their experience.

Risk-taking is one of the important characteristics in business activities because every day there are new challenges and problems in business. Small business success requires more than just minimizing risk. In particular, the position and size of the business should be considered, and before proceeding with leasing, loans, and other financial issues, it is possible to try to obtain domestic and on-demand breeding to achieve success in small business operations.

The launched strategy is colorful, focusing on simple calculations in business activities, changing the business language among customers and business and trade organizations, implementing advertising campaigns, and improving the quality of sales. implementation of direct processes can free businesses from dangerous situations in the international market.

## **CONCLUSION**

For a small business owner, the concept of risks and other important aspects should be understood. It should try to attract additional financial resources by improving relationships and using business cycles. In addition, the business owner cannot solve all his problems, so he must be more responsible and remove everything from his other work, such as amenities, marketing strategies, beauty, and various commercial strategies. To proceed, every business must take risks instead of taking risks for its benefit, but the disadvantages of this do not require much attention, besides, more than one can imagine, it is necessary to use organizational measures.

## REFERENCES:

1. World Bulletin of Management and Law (WBML) Available Online at: <https://www.scholarexpress.net> Volume-19, February-2023 ISSN: 2749-3601 PRINCIPLES OF ORGANIZATION OF BENCHMARKING SERVICE IN INDUSTRIAL ENTERPRISES Zulayxo Uktamjonova Assistant, Department of Management, Fergana Polytechnic Institute, Fergana, Uzbekistan
2. Расулов, Р., Сатторов, А., & Махкамова, Д. (2022). Вычисление Квадрат Нормы Функционала Погрешности Улучшенных Квадратурных Формул В Пространстве. Central asian journal of mathematical theory and computer sciences, 3(4).
3. O'zbekiston Respublikasida kichik va o'rta biznes korxonalari rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari. -T.: Davlat Mulk qo'mitasi, 2001.
4. Rashidjon, R., & Sattorov, A. (2021). Optimal Quadrature Formulas with Derivatives in the Space. Middle European Scientific Bulletin, 18.
5. UO'K 338.1.001.76 XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI AXBOROTNOMASI -3/2-2023 SANOAT KORXONALARIDA BENCHMARKINGNI TASHKIL QILISH ZARURIYATI Z.A.Uktamjonova, o'qituvchi, Farg'ona politexnika instituti, Farg'ona
6. Rasulov, R. ., Sattorov, A. ., & Mahkamova, D. T. . (2022). View of the Derivative Quadrature Formula Norm in Space . Modern Journal of Social Sciences and Humanities, 10.
7. World Bulletin of Management and Law (WBML) Available Online at: <https://www.scholarexpress.net> Volume-19, February-2023 ISSN: 2749-3601 PRINCIPLES OF ORGANIZATION OF BENCHMARKING SERVICE IN INDUSTRIAL ENTERPRISES Zulayxo Uktamjonova Assistant, Department of Management, Fergana Polytechnic Institute, Fergana, Uzbekistan E-mail: [zulayxoaminjonova@gmail.com](mailto:zulayxoaminjonova@gmail.com)
8. Хусанов Ю. Ю., Таштанов Х. Н. Ў., Сатторов А. М. Машина деталлари пармалаб ишлов бериладиган нотехнологик юзалар турлари //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 1. – С.
9. Husanov Y. Y., Abdullayev S. M., Sattorov A. M. MEKATRONIKA VA ROBOTOTEXNIKADA VIRTUAL LABORATORIYALARDAN FOYDALANISH //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 7. – С.
10. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI D. RASULEV, SH. NURULLAYEVA, N. RO'ZMETOVA, M. MUMINOVA BIZNES-JARAYONLARINI MODELLASHTIRISH O'quv qo'llanma

## KAMBAG‘ALLIK - IJTIMOY-IQTISODIY MUAMMO

**Asqarova Adolatxon Mamatxonovna**

E-mail: [adolathonaskarova0@gmail.com](mailto:adolathonaskarova0@gmail.com)

Farg‘ona davlat Universiteti  
sotsiologiya kafedrası o‘qituvchisi

### ANNOTATSIYA

Ushbu tezisdá kambag‘allik xalqaro hamjamiyatda kambag‘allikni belglashning chegaralari, yondoshuvlar hamda uning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari va O‘zbekistonda kambag‘allikning statistikasi hamda unga qarshi kurashda xorijiy tajriba bilan birgalikda aholining iqtisodiy tafakkurini, munosabatini o‘zgartirish kabi qarashlar yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** kambag‘allik, YaIM, o‘rtacha ish haqi, kambag‘allik chegarasi, iste‘mol savatchasi, iqtisodiy tafakkur.

Ingliz yozuvchisi va shoiri Oskar Uayld “**Jamiyatda boylarga qaraganda pul haqida eng ko‘p o‘ylovchi sinf bu – kambag‘allardir. Zero, ularda puldan boshqa o‘ylaydigan narsaning o‘zi yo‘q. Kambag‘allikning muammosi ham aynan shundadir**”, deb aytganida naqadar haq edi.

Bugungi kunda jahon iqtisodiyoti turli moliyaviy-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy inqirozlarning kuchayishi, mamlakatlar o‘rtasida turli savdo urushlarining avj olishi natijasida dunyo mamlakatlari o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy aloqalarning cheklanishi kabi jarayonlar bilan tavsiflanadi. Buning natijasida esa, dunyoning ko‘pgina milliy iqtisodiyotlarida YaIM o‘shining sekinlashuvi, real daromadlarning pasayishi, ijtimoiy tabaqalanishning chuqurlashuvi va qashshoqlikning ortishi kuzatilmoqda. Kambag‘allik haqida so‘z yuritganda, u bitta inson uchun tegishli bo‘lgan muammo emasligini anglab yetishimiz lozim. Kambag‘allik jamiyat va iqtisodiyotda bir qator salbiy jarayonlarni yuzaga keltiradi. Kambag‘allik bir qator ob‘yektiv va sub‘yektiv sabablar tufayli tug‘ilishning ko‘payishiga sabab bo‘ladi. Kambag‘allar yetarlicha ta‘lim olish imkoniyatiga ega bo‘lmaganliklari bois, malaka va kasbiy ko‘nikmalari past xodimlar safini to‘ldiradilar. Jamiyat uchun zarur bo‘lgan kasb egalari, xususan o‘qituvchi va shifokorlar yuqori daromadga ega bo‘lish maqsadida o‘z ish joylarini tashlab boshqa faoliyat turlari bilan shug‘ullanishga majbur bo‘ladilar. Kambag‘allik jinoyatchilikning o‘shiga olib keladi, chunki tirikchilik qilish uchun insonlar daromad topishning noqonuniy yo‘llaridan ham foydalanishga majbur bo‘ladilar. Kambag‘allik jamiyatda daromadlarning keskin tabaqalanishiga va ijtimoiy

ziddiyatlarning chuqur ildiz otishiga sabab bo'ladi. Kambag'allik chegarasi kuniga 1,90 dollar etib belgilangan bo'lsa-da, har bir mamlakat o'zining rivojlanish darajasi va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, kambag'allik chegarasini belgilaydi. Masalan, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida agar insonning daromadlari o'zi istiqomat qilayotgan mamlakatdagi o'rtacha ish haqining 60%idan kamroq qismini tashkil etsa, u kambag'al insonlar sirasiga kiritiladi. Dunyoning ko'pchilik mamlakatlarida kambag'allik chegarasi deyilganda, yashash minimumidan past darajadagi daromad chegarasi tushuniladi. Yashash minimumi – inson salomatligini saqlash va uning hayotiy faoliyatini ta'minlash uchun zarur bo'lgan oziq-ovqat, nooziq-ovqat mahsulotlari va xizmatlarning eng kam to'plamlarini, shuningdek, majburiy to'lovlar va yig'implarni o'z ichiga olgan iste'mol savatchasining qiymat bahosini ifoda etadi. Boshqacha qilib aytganda, yashash minimumi insonning eng zaruriy ehtiyojlarini qondira olmaydigan yoki kambag'allik qashshoqlik bilan almashinuvchi chegarani aks ettiradi. Sodda qilib aytganda, iste'mol savatchasi – muayyan vaqt davomida inson hayoti va uning salomatligini saqlash uchun zarur mahsulotlar, tovarlar va xizmatlarning eng kam to'plamidir. Hamma ovqatlanishi, kiyinishi, kommunal va boshqa xizmatlar haqini to'lashi, zarur dori-darmonlarni xarid qilishi lozim va hokazo. Bularning bari mahsulotlar savatchasini butlash uchun asos hisoblanadi. Uning ma'lumotlaridan, o'z navbatida, tirikchilik uchun zarur eng kam miqdorni (iste'mol savatchasining qiymat bahosini) belgilash uchun foydalaniladi.

Iste'mol savatchasi quyidagilarning miqdorlarini belgilash uchun hisob-kitobga asos bo'lmog'i lozim:

**1) eng kam ish haqi va pensiyalar;**

**2) bazaviy ijtimoiy to'lovlar:** ishsizlik, bolani parvarishlash, boquvchisini yo'qotganlik nafaqalari, stipendiyalar va boshqalar

Iste'mol savatchasiga kiruvchi tovarlar va xizmatlar to'plami har bir mamlakatda turlicha. Uning tarkibi davlat darajasida belgilanadi va ko'plab omillar – tabiiy iqlim sharoitlari, mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi, oziq-ovqat tovarlarini ishlab chiqarish xususiyatlari, tovarlar va xizmatlarning haqiqatda iste'mol qilinishi va boshqa omillarga bog'liq bo'ladi.

Yashash minimumi juda muhim ko'rsatkich hisoblanadi. Undan eng kam ish haqi, pensiya va nafaqalarni belgilash, davlat va mahalliy byudjetlarni hisob-kitob qilish hamda ijtimoiy dasturlarni ishlab chiqishda keng foydalaniladi.

Jahon banking qashshoqlikni kamaytirish bo'yicha har ikki yilda e'lon qilinuvchi hisobotiga ko'ra, dunyo aholisining deyarli 46%i (3,4 milliard kishi)kuniga 5,5 dollardan kamroq mablag'ga kun kechiradi. 1,9 milliarddan ortiq kishi esa (dunyo aholisining 26,2%i) kuniga 3,2 dollardan kamroq mablag' hisobiga kun kechiradi. Kuniga 1,90 dollarga kun kechiruvchi eng qashshoq aholining ulushi dunyo bo'yicha

10% gacha qisqargan bo'lsa-da, hanuz dunyoda kambag'allikni kamaytirish muammosi o'z ahamiyatini yo'qotganicha yo'q.<sup>1</sup>

O'zbekistonda ham shu paytgacha yashash minimumi haqida so'z yuritilmagan. Dunyoning aksar mamlakatlarida esa bu tushunchadan amaliyotda keng foydalanib kelinadi. Mamlakatimizda "kambag'allik" va "qashshoqlik" tushunchalarining o'rniga "kam ta'minlanganlar" tushunchasi ishlatib kelindi. Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 27-fevral kuni tadbirkorlikni rivojlantirish orqali kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan chora-tadbirlar bo'yicha videosektor o'tkazdi. Unda Prezident xalqning real bandligini ta'minlashga qaratilgan barcha harakatlarni qo'llab-quvvatlash lozim ekanligi haqida gapirdi. "Dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra, 12–15 foiz yoki 4–5 million aholimiz kambag'al. Bu ularning bir kunlik daromadi 10–13 ming so'mdan oshmayapti, degani. Yoki bir oilada mashina ham, chorva ham bo'lishi mumkin, lekin bir kishi og'ir kasal bo'lsa, oila daromadining kamida 70 foizi uni davolashga ketadi. Xo'sh bunday oilani o'ziga to'q deyish mumkinmi? Prezident sifatida meni odamlarimizning ovqatlanishi, davolanishi, bolalarini o'qitishi, kiyintirishi kabi hayotiy ehtiyojlari nima bo'layapti, degan savol har kuni qiynaydi", — degan edi Shavkat Mirziyoyev.<sup>2</sup>

Prezident Shavkat Mirziyoyev topshirig'i bilan Kambag'allik darajasini o'rganish bo'yicha kuzatuvlar tashkil etildi. Mazkur topshiriqlarning ijrosini ta'minlash maqsadida, Davlat statistika qo'mitasi tomonidan maqsadli va manzilli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, joriy yilning 18-may kuni tajriba tariqasida Andijon viloyatining Xonobod shahrida yashovchi aholini to'liq qamrab olgan holda kambag'allik darajasini o'rganish bo'yicha kuzatuvlar tashkil etilmoqda. Shaharda 14 ta mahalla fuqarolar yig'inlari mavjud bo'lib, ulardagi aholi soni 2020-yil 1-aprel holatiga 42,6 ming kishini hamda oilalar soni 10992 tani tashkil etdi.

Davlat statistika qo'mitasi boshchiligida tuzilgan maxsus komissiya tomonidan ayni paytda mazkur tadbirni yuqori saviyada tashkil etish uchun bir qator ishlar olib borilmoqda. Jumladan, kuzatuv so'rovnomasini zarur miqdorda chop etish, kuzatuvga jalb etiladigan ro'yxatga oluvchilar (intervyuerlar) va nazoratchilar (supervayzerlar)ni o'qitish ishlarini tashkil etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shuningdek, kuzatuvlarni belgilangan hududlarda o'tkazilishi va kuzatuv natijalari bo'yicha to'ldirilgan so'rovnoma ma'lumotlarining o'z vaqtida markaziy serverga kiritib borilishini ta'minlash masalalari kun tartibiga qo'yildi.

<sup>1</sup> Worldbank.org

<sup>2</sup> www.gazeta.uz/uz/2020/02/27/qashshoqlik.



Kuzatuvlarni amalga oshirishda 10 ta guruhdan iborat, Andijon viloyat statistika boshqarmasi xodimlaridan tashkil topgan jami 10 ta instruktor, 50 ta intervyuer hamda ma'lumotlarni elektron bazasini shakllantirish uchun 8 ta operatorlar biriktirilgan.<sup>1</sup>

Amerikalik iqtisodchi Jeffri Saks o'zining "Kambag'allikning intihosi" deb nomlanuvchi kitobida jamiyatning kambag'allik changalidan qutulishiga imkon beruvchi kapitalning 6 ta turini ajratib ko'rsatgan: inson kapitali, ishbilarmonlik kapitali, infratuzilma, tabiiy kapital, ijtimoiy o'rnatilgan kapital va bilimlar kapitali.

Saksning fikricha, davlat eng avvalo, o'zining barcha kuch va imkoniyatlarini inson kapitaliga investitsiyalar (sog'liq, ta'lim, oziq-ovqat), infratuzilma (yo'llar, kommunal xizmat ko'rsatish, ichimlik suvi, atrof-muhit muhofazasi va sanitariya), tabiiy kapital (bio xilma-xillik va ekotizimlarni saqlab qolish), ijtimoiy o'rnatilgan kapital (samarali davlat boshqaruvi, sudlov tizimi, huquqni muhofaza qilish idoralari) va bilimlar kapitali (jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi turli soha va tarmoqlarda amalga oshirilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlanmalarini qo'llab-quvvatlash)ni kiritish tarzida yo'naltirishi lozim.

Xulosa o'rnida shuni alohida ta'kidlash lozimki, mamlakatimizda kambag'allikka qarshi kurashishning eng to'g'ri yo'li bu – fuqarolarning iqtisodiy tafakkurini o'zgartirishdir. Fuqarolarning iqtisodiy tafakkuri va iqtisodiy tarbiyasi o'zgaras ekan, kambag'allik tuzog'idan chiqishimiz juda mushkul. Kambag'allikni qisqartirish uchun davlat tomonidan ajratiladigan mablag'lar miqdorini ko'paytirishimiz, tadbirkorlarga turli imtiyoz va yengilliklar taqdim qilgan holda, ularni keng ko'lamli xayriya ishlariga jalb qilishimiz mumkin. Ammo bunday tadbirlarni amalga oshirish bilangina jamiyatda kambag'allik muammosini bartaraf qilishning deyarli imkoni yo'q. Bunday tadbirlar aholining yashab qolishiga, shunchaki kun kechirishiga zamin yaratsa-da, kambag'allik changalidan qutulib chiqishga imkon bermaydi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

- 1) Jahon bankining rasmiy web-sayti: Worldbank.org
- 2) [www.gazeta.uz/uz/2020/02/27/qashshoqlik](http://www.gazeta.uz/uz/2020/02/27/qashshoqlik).
- 3) Davlat statistika qo'mitasi, Axborot xizmati.2020y
- 4) Sof.uz rasmiy sayti. Guliston davlat universiteti katta o'qituvchisi Akmal Abduvohidovning "Kambag'allikka qarshi qanday kurashiladi?" tahliliy maqolasi.

<sup>1</sup> Davlat statistika qo'mitasi, Axborot xizmati.2020y

## OILA RAVNAQI O'ZBEK XALQINING MA'NAVIY MEROSINI TA'MINLOVCHI TARBIYA MASKANIDIR

**Yoqubova Gulhayo Erkin qizi**

QarshiDU Psixologiya ta'lim yo'nalishi 2-bosqich magistranti

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada oilaning ijtimoiy institut sifatida rivojlanishi, oilaviy munosabatlar, oilaviy turmushning asosiy maqsadi, farzand tarbiyasida otaonaning o'rni, bolaning shaxs sifatida o'zini anglashi hamda sharq mutaffakkirlarining oilada farzand tarbiyasi to'g'risidagi fikrlari mujassamlashgan.

**Kalit so'zlar:** Oila, fenomen, ota-ona, farzand, tarbiya, shaxs, munosabat, xalq, millat, ma'naviy meros, qadriyat, xulq-atvor, o'z-o'zini anglash,

**Keywords:** Family, phenomenon, parents, a child, upbringing, person, relationship, nation, spiritual heritage, ceremonial, behavior, self awareness.

Oila fenomeni dunyodagi eng umrboqiy qadriyatlardan biri hisoblanadi. Oila insoniyatning ibtidoiy hayotidan madaniylashgan, sivilizatsiyalashgan hayotga o'tishini ta'minlagan eng muhim omillardan biri. Oila o'ziga xos ijtimoiy institut sifatida juda uzoq tarixiy davrni bosib o'tganligi va takomillashganligi bilan ijtimoiy ahamiyati hamda vazifalari ortib boradi. Oila doimo rivojlanib boruvchi, takomillashuvchi, yangi mazmun, mohiyat bilan boyib boruvchi maskan bo'lib, dunyoda birorta inson o'zini oilasiz tasavvur eta olmaydi. Shuning uchun ham oila fenomeniga qiziqish katta.

Oila ijtimoiy insitut sifatida, insoniyatning ongli hayoti bilan qadam baqadam mavjud, hamda juda qadimiy tarixga ega bo'lsada, biroq uni shakllantirish, rivojlantirish, birlashtirish, jipslashtirish, oila a'zolarining yagona maqsad sari safarbar etishning yagona tashxisi hozirgacha ishlab chiqilmagan. O'zbek milliy xarakterida oilaning buyuk qadriyat ekanligini e'tiborga olgan holda uning mustahkamligi va sofligini saqlab qolish barchamizning burchimiz ekanligini to'liq anglab yetish eng muhim masala bo'lib hisoblanadi.

Oila va oilaviy munosabatlar ayniqsa, ota-ona va farzandlarning o'zaro aloqalari jamiyat yuzaga kelgan ilk davrlardan buyon eng muhim muammolardan biri bo'lib kelgan. Jamiyat rivojlanib borgan sari bu muammoning ahamiyati yanada ortib boraveradi. Chunki insoniyat tomonidan erishilgan yutuqlar aynan, oila muhitida ota-ona va farzandlar munosabatlari tizimida boshqa har qanday ijtimoiy insitutlar orasidagi uzviylik sifatida olib qaralganda ko'proq darajada o'zlashtiriladi va

an'anaviy ma'naviy meros tarzida avlodlar avlodga o'tadi. Shunday ekan, u yoki bu jamiyat xalq va millatning istiqboli ko'p jihatdan shu munosabatlarning holatiga bog'liq. Buning uchun oiladagi ichki muhitning har tomonlama sog'lom, ma'naviy mustahkam bo'lishiga erishish lozim.

Oila inson uchun muqaddas maskan, kishilik jamiyatining ijtimoiy poydevoridir. Oilaviy turmushning asosiy maqsadi- bu farzand ko'rish orqali shaxslararo munosabatlar ahvolini qayta tiklash, shuningdek, avlodlar bilan ajdodlar vorisligining davomiyligini hamda yer yuzida insoniyatning tarixiy taraqqiyotini ta'minlashdan iboratdir. Darhaqiqat oila-har bir shaxsning ilk yoshligidan boshlab shakllanuvchi insoniy fazilatlar, ezgu-istaklar, qadriyatlar, ming yillar davomida tarkib topuvchi o'zbek xalqining ma'naviy merosi ravnaqini ta'minlovchi tarbiya maskanidir.

Oilaviy munosabatlarni qadimgi xalqlardan qolgan muqaddas diniy manbalarda, o'zbek xalqining og'zaki ijodiyotida, sharqning buyuk mutafakkirlari asarlarida, o'zbek xalqning shaxslararo munosabatlardagi odob-ahloq qoidalari, meyorlari, insoniy fazilatlar mohiyati to'g'risidagi qimmatli manbalarda ham uchratish mumkin.

Aqlan yetuk, ahloqan pok, jismonan baquvvat farzandlar esa yaxshi oilalarda kamol topadi. Shuning uchun ham oilada sog'lom ma'naviy, ahloqiy muhitni vujudga keltirish va uni mustahkamlash umumdavlat ahamiyatiga molik masaladir. Chunki ijtimoiy hayotda yuz beradigan barcha o'zgarishlar, ya'ni undagi yutuq va kamchiliklar murakkabliklar va ziddiyatlar oilada o'z aksini topadi. Shunga ko'ra oila va oilaviy tarbiya masalalari har doim ham dolzarb muammo sifatida e'tirof etiladi. Ayniqsa, bola shaxsida o'z-o'zini anglashning tarkib topishida ota-ona tomonidan berilayotgan tarbiyaning ta'siri muhimligi alohida ahamiyatga ega.

Ota-onalarning bolaga munosabati o'zining o'ziga munosabatidan oldin keladi, uning boshqalar tomonidan anglanishi o'zini o'zi anglashdan oldin keladi. Boshqalar munosabatlarning ichki kechinmalarga o'tishi odamlar bilan o'zaro ta'sirlashuv va birgalikdagi faoliyat jarayonida amalga oshadi. Biroq boshqaning fikrini qabul qilish fenomenining ahamiyatiga doir ikkinchi nuqtai nazarga ko'ra, to'g'ridan-to'g'ri o'zlashtirish emas, balki boshqa odamlarning munosabatlariga tayanib, o'zini baholash, o'ziga munosabatini shakllantirish qobiliyatining yuzaga kelishidan iboratdir.

Boshqa odamlar baholarini o'zlashtirishning quyidagi yo'llari mavjud: to'g'ridan-to'g'ri so'zli shakl va xulq-atvor shakli. Mazkur mexanizmlar bolani tarbiyalayotgan kattalar tomonidan tarbiyaviy maqsadda ongli ham, ongsiz holda ham ishga tushirilishi mumkin.

O'zini o'zi anglash va baholash jarayoni xususiyatlarini o'rganish bo'yicha O'zbekiston psixologiya fanida ham muayyan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan bo'lib, ularda o'zini o'zi baholash jarayonining ijtimoiy-psixologik omillari,

o'smirlarning o'zini o'zi baholashiga oilaviy muhitning, o'rtoqlari davrasining, maktab ta'limining, ota-onaning va nihoyat shaxsga xos bo'lgan individual-psixologik xususiyatlar, ya'ni intilishi, maqsadlari va hayotiy pozitsiyalarining o'rni masalasi ilmiy tahlil qilishga harakat qilinadi.

Professor V.M.Karimovning tadqiqotlarida oila bola shaxsining shakllanishi va uning ijimoiylashuviga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi deb ta'kidlanadi. Shu bilan bir qatorda uning ko'rsatishicha, boladagi o'zi to'g'risidagi barcha tasavvurlarning shakllanishida u tarbiyalanayotgan oiladagi munosabatning xususiyatlari, oila tiplari va ota-onalik maqomlarining ular tomonidan qay darajada anglanishining roli kattadir.

Sharq mutafakkirlarining ilmiy merosida oila va oilada farzand tarbiyasiga katta e'tibor berganlar. Zero yosh avlod tarbiyasi insoniyatning kelajak taqdirini belgilaydigan, ularni ijobiy mezon bilan qurollantiradigan sifatlar bo'lganligi uchun ham mutafakkirlar bu muammoni hal qilishga harakat qilib kelganlar. Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Muhammad Qoshg'ariy, Yusuf Xos Xojib, Kaykovus, Umar Xayyom, Ahmad Yugnakiy, Husayn Voiz Koshifiy kabi mutafakkirlarning qator asarlarida bolalarni oilada tarbiyalash masalalariga doir ma'lumotlar keltirilgan.

Abu Nasr Forobiyning uqtirishicha insonning barcha qobiliyat va fazilatlari ikki tomonga ega. Birinchisi tug'ma irsiy tabiiy hislatlar bo'lsa, ikkinchisi tajriba, amaliyot, sharoit ta'sirida tarkib topadigan hislatlardir. Shuningdek bola tarbiyasida bir-biri bilan bog'liq bo'lgan hislatlarni hisobga olish lozimligini ta'kidlaydi.

Oilada bola tarbiyasi masalasi Abu Bakr Muhammad ibn Al-Abbos Al-Xorazmiy qarashlarida ota-onalar ikki xil, tug'ilish otasi va ta'lim berish otasi: birinchisi jismoniy hayot sababli ikkinchisi ruhiy hayot sababli. Shunga ko'ra ularni uzviy birlikda olib qarash tarbiya ishida muhim ahamiyatga molikdir. Uning, "Zamondan yaxshiroq muallimni insondan yaxshiroq ta'lim oladigan o'quvchini ko'rmadim" degan so'zlaridan bir tomondan ijtimoiy muhitni bola tarbiyasi uchun hal qiluvchi ta'sirini anglasak, ikkinchi tomondan inson shaxsi ta'lim natijasida kamolotga erishib borishi mumkinligini sezamiz.

Beruniy ota-onalarga qarata bolaning mo'tadillikda saqlashni tavsiya etadi. Bunga asosan qattiq g'azablanish, qo'rqish va xafalikdan, uyqusizlikdan saqlash orqali erishilishini aytib, ularni hohlagan va foydali narsasini topib berishga, sevmagan narsasidan uzoqlashtirishga harakat qilish kerakligi uqtiriladi. Ota-onaning bolaga turli munosabati turlicha xulqlarni keltirib chiqaradi. Yaxshi xulqlarning paydo bo'lishi, bola ruhiyatiga ta'sir qilibgina qolmasdan, uning fiziologik o'sishiga ham yordam beradi. Yomon xulq esa turli mijoz buzilishlariga olib keladi. Aksincha bola organizmidagi o'zgarishlar uning ruhiyatidagi xatti-harakatidagi o'zgarishlarni keltirib

chiqaradi. Mutafakkir bola xulq-atvorining mo'tadilligi natijasida tan va ruh sog'lomligi kelib chiqishini ham ilmiy asoslab beradi.

Ibn Sino oilada bola tarbiyasi ancha murakkab va nozik bo'lib, uni bolaning yoshligidan boshlash va izchillik bilan olib borish lozimligini uqtiradi. U ona allasining tarbiyaviy ahamiyati haqida to'xtalib "Alla" ikki vazifani bajaradi deydi. Birinchisi uni tebratish orqali bolaga jismoniy orom bag'ishlaydi; ikkinchisi beshikni bir maromda tebratishdan onaning mehri jo'sh uradi, bolasiga bo'lgan muhabbatidan onaning orzu umidi yurak turidan silkinib chiqadi. Bu o'ziga xos qo'shiq bolasiga qasidadek yangraydi va u farzandining murg'ak qalbiga butun shuuriga singib boradi. Shu tarzda bolada o'zi anglamagan holat paydo bo'ladi. U asta-sekin bu yorug' olamni anglay boshlaydi. Ana shu anglashdan o'rganish boshlanadi. Xuddi shu o'rganish tarbiyalanishdir. Zotan o'rganish sezishdan kelib chiqadi. Ibn Sino ana shu holatga e'tiborni qaratib "yosh bolaning sezgirlik quvvati katta odamga teng keladi" degan fikrni bildiradi.

Alisher Navoiy "Qutadg'u bilig" asarida bola tarbiyasi haqida to'xtalib, shunday deb yozadi: "Farzand qanchalik bilimli, aqlli, hushli bo'lsa, ota-onaning yuzi shunchalik yorug' bo'ladi". U bola tarbiyasida otaning ma'suliyatiga asosiy e'tibor beradi. "Kimning o'g'il qizi erka bo'lsa –deb yozadi u - unga shu kishining o'zi mungli bo'lib yig'laydi. Ota bolani kichikligida bebosh qilib qo'ysa bolada gunoh yo'q barcha jaf o'taning o'zida. O'g'il – qizning xulq-atvori yaramas bo'lsa, bu yaramas ishni ota qilgan bo'ladi. Ota bolalarni nazorat qilib turli hunarlarni o'rgatsa, ular ulg'aygach o'g'il qizim bor deb sevinadi, o'g'il qizga hunar va bilim o'rgatish kerak, toki bu hunar bilan ularning fe'l-atvorlari go'zal bo'lsin". Bola asta-sekin hunar o'rganib hayotdan ta'lim olib, bilimdon bo'ladi, chinakam insoniy go'zallikka erishadi.

Oilada bola tarbiyasi buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiy merosida ham munosib o'rinni egallaydi. U o'zining qator asarlarida ta'lim-tarbiya masalalari umuminsoniy g'oya ekanligini o'rtaga tashlaydi. Uning fikricha jamiyatning yetukligi uning taqdiri va kelajagi yoshlar kamoloti bilan bog'liqdir, shunga ko'ra bola tarbiyasi ota-onalar oldida turgan olijanob vazifadir.

Alisher Navoiy ota-onalarning yaxshi sifatlarini ulug'laydi. Bunday sifatning ularda jamuljam bo'lishi bola tarbiyasida muhim rol o'ynashini ko'rsatib o'tadi. Masalan uning xotinlar haqidagi fikrlari diqqatga sazovordir: "Yaxshi xotin deydi Navoiy – oilaning davlati va baxti uning osoyishtaligi, undan uy egasining xotirjam va osoyishtaligi, undan husnli bo'lsa ko'ngil ozig'i, xushmuomala bo'lsa jon ozig'idir. Oqila bo'lsa ro'zg'orda tartib-intizom bo'ladi. Beandisha shallaqi bo'lsa ko'ngil undan ozor chekadi, yomonlik axtaruvchi bo'lsa, undan ruh azoblanadi. Agar mayxo'r bo'lsa uy obodligi yo'qoladi, aqlsiz bo'lsa oila rasvo bo'ladi". (10)

Davoniy ota-onaning bola tarbiyalashdagi uning dunyoqarashini tarkib

toptirishdagi rolini alohida ta'kidlagan. Uning e'tiqodiga ko'ra bola tarbiyasida ota ham ona ham teng ishtirok etishi, ikkovi ham barovar ma'suliyat sezishi lozim. Ota bolaning go'zal fazilatlarini egallashiga, sevgan kasbini puxta o'rganib olishga yordam ko'rsatishi, kamolotga yetishini, ilm-fan kasb-hunarni egallashi uchun moddiy baza hisoblangan oziq-ovqat, kiyim-kechak, kerakli buyum va jihozlarni yetkazib berish ustida ham bosh qotirishi kerak. Davoniy otaning bola tarbiyasidagi roliga katta baho bersa ham, baribir, tarbiya masalasida asosiy qiyinchilik onaning zimmasiga tushadi, deb hisoblaydi. Chunki u homiladorlik mashaqqatini, tug'ish azobini boshdan o'tkazadi. Ona bolaning yashashiga sabab bo'ladigan, birinchi quvvatni o'z badanidan beradi, uzoq vaqt ehtiyotkorlik bilan asraydi, bola tarbiyasi bilan shug'ullanadi va o'zining cheksiz mehr-shafqatini bolaga fido qiladi.

Ota-ona bolaga birinchi o'rinda oddiy ahloq normalarini singdirishga yurish, turishi, yeyish, ichish, qoidalariga o'z qilmishi uchun ma'suliyat sezishi yomon qiliqlari uchun uyalishga o'rgatishi lozim. Shunday qilib, Davoniy bolalarning tarbiyasi bilan shug'ullanish ota-onalarning asosiy burchi ekanligini qayd etadi.

Yuqoridagi fikrlardan ko'rinadiki, oila va uning ma'naviy merosi shaxsga oilada beriladigan ta'lim-tarbiya o'ziga xos bo'lib, bu jarayonda asosiy ta'sir obyekti sifatida ota-onaning o'rni beqiyosdir. Shu bois, bola shaxsining kamolotida o'z-o'ziga bo'lgan munosabatni tarkib topishida oila va oilaviy tarbiyaning muhim o'rin egallashini yanada takomillashtirib borishda o'zbek xalqining ma'naviy merosidan unumli foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. Abdurauf Fitrat "Oila" T.: "Ma'naviyat" 2000. 112-bet.
2. Abu Nosr Farobiy "Fozil odamlar shahri" T.: 1993. 224-bet.
3. Alisher Navoiy "Mahbub ul-qulub". Tanlangan asarlar to'plami 13t, T.: 1996. 224-bet.
4. "Buyuk siymolar va allomalar 2-kitob nashrga tayyorlovchi Xayrulayev M.
5. Karimova V.M. Oilaviy hayot psixologiyasi T.: 2006 172 bet
6. Uzoqov X., G'oziyev E, Tojiyev A "Oila etikasi va psixologiyasi" T.: "O'qituvchi" 1992.

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA BILISH FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISHDA O‘YINNING ROLI

**Abdullayeva Ma‘mura**

QarshiDU Psixologiya ta‘lim yo‘nalishi 2-bosqich magistranti

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar bilish jarayonlarini shakllanishida o‘yinning ahamiyati va uning olimlar tomonidan talqin etilganligi haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** O‘yin, faoliyat, tafakkur, tasavvur, xotira, diqqat, idrok, xayol, obraz, psixik jarayon, atrof – muhit, qiziqish, ehtiyoj, xatti-harakat, ko‘nikma, taqlid.

### АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается значение игры в формировании познавательных процессов дошкольников и ее интерпретация учеными.

**Ключевые слова:** Игра, деятельность, мышление, воображение, память, внимание, восприятие, воображение, образ, психический процесс, среда, интерес, потребность, поведение, умение, подражание.

### ABSTRACT

This article discusses the importance of the game in the formation of cognitive processes of preschoolers and its interpretation by scientists.

**Keywords:** Game, activity, thinking, imagination, memory, attention, perception, imagination, image, mental process, environment, interest, need, behavior, skill, imitation.

O‘yin faoliyati bola hayotida, uning jismoniy, ruhiy, aqliy kamolatga etishida muhim vositalardan biri hisoblanadi. O‘yin orqali bolalar tafakkur, tasavvur, xotira, diqqati kabi barcha psixik jarayonlari rivojlanadi va atrof - muhit haqidagi bilimi yanada kengayib boradi.

Maktabgacha ta‘lim muassasasida o‘yin faoliyatidan to‘g‘ri va unumli foydalanish, har bir o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar va sayr faoliyatining samaradorligini oshirib boradi. Maktabgacha tarbiya muassasalarida o‘yin faoliyati turli xil shaklda voqeaband - ijroli, harakatli, ta‘limiy, musiqiy-ta‘limiy kabi yo‘nalishda olib boriladi. O‘yin bolalar uchun qiziqarli, mazmunli bo‘lishi uchun tarbiyachi o‘yin qoidasi bilan yaqindan tanish bo‘lishi kerak.

O'yin mashg'ulotlaridan voqeaband - ijroli o'yinlar orqali bolalar tafakkuri kengayadi va qiziqishlari rivojlanadi. Rolli o'yinlar orqali bolalarga ularni qurshab turgan kishilarning kundalik hayoti, o'zaro munosabatlari, turmush kechirish yo'sinlari bilan tanishib boradi. Bolalar hamisha kattalarga taqlid qilishadi, qo'g'irchog'ini erkalayotgan qizcha onasining so'zini takrorlaydi, qo'g'irchog'ini beshikka belab alla kuylaydi, mana shu birgina o'yin orqali unda oila sharoitidagi ko'nikmalar hosil bo'layotganligini kuzatishimiz mumkin.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning yetakchi faoliyati o'yin bo'lib, bu masala asrlar davomida juda ko'p olimlarning diqqatini o'ziga jalb qilib kelmoqda.

Ushbu masalani bir qator olimlarning izlanishlarida ko'rib o'tish mumkin

S.A. Kozlova fikricha, bog'cha yoshidagi bolalar o'zlarining o'yin faoliyatlarida ildam qadamlar bilan olg'a qarab borayotgan sermazmun hayotining hamma tomonlarini aks ettirishga intiladilar deb ta'kidlaydi. [2] Haqiqatdan ham o'yin orqali bola hayotidagi muhim narsalarni ajratib tahlil qilishga harakat qiladi va o'zlarida diqqat, sezgi, xotira, tafakkur kabi bilish jarayonlarini shakllantirib boradi.

M.B. Yeleseyeva tadqiqotlariga ko'ra, bog'cha yoshidagi bola atrofidagi narsalar orqali dunyosini bilish jarayonida shu narsalar bilan bevosita amaliy munosabatda bo'lishga intiladi. Bu o'rinda xarakterli tomoni shuki, bola bilishga tashnaligidan atrofda o'zining haddi sig'adigan narsalari bilangina emas, balki kattalar uchun mansub bo'lgan, o'zining kuchi ham yetmaydigan, haddi sig'maydigan narsalar bilan ham amaliy munosabatda bo'lishga intiladi. Masalan: bola avtomashinani yoki tramvayni o'zi haydagisi, rostakam otga minib yurgisi, uchuvchi bo'lib, samolyotda uchgisi va rostakam militsioner bo'lgisi keladi. Tabiiyki bola o'zidagi bunday ehtiyojlarning birontasini ham haqiqiy yo'l bilan qondira olmaydi. Bu o'rinda savol tug'iladi. Bolalarning tobora ortib borayotgan turli ehtiyojlari bilan ularning tor imkoniyatlari o'rtasidagi qarama-qarshilik qanday yo'l bilan hal qilinadi? Bu qarama-qarshilikni faqatgina o'yin faoliyati orqaligina hal qilinishi mumkin. Buni quyidagicha izohlab berish mumkin:[5]

1) birinchidan, bolalarning o'yin faoliyati qandaydir moddiy mahsulot ishlab chiqarishga qaratilgan faoliyat emas. Shuning uchun bolalarni o'yinga undovchi sabab, kelib chiqadigan natija bilan emas, balki shu o'yin jarayonidagi turli harakatlarning mazmuniga bog'liqdir;

2) ikkinchidan, bolalar o'yin jarayonida o'z ixtiyorlaridagi narsalarni, o'zlarini qiziqtirgan, ammo kattalargagina mansub bo'lgan narsalarga aylantirib, xohlaganlaricha erkin faoliyatda bo'ladilar. Bolalarning o'yin faoliyatlari ularning jismoniy va psixik jihatdan garmonik ravishda rivojlanishi uchun birdan-bir vositadir. O'yin bolalar hayotida shunday ko'p qirrali faoliyatki, unda kattalarga mansub bo'lgan mehnat ham, turli narsalar haqida tafakkur qilish, xom-xayol surish, dam olish va



xushchaqchalik jarayonlarining barchasi o‘yin faoliyatida aniq bo‘ladi. Shuni ham ta’kidlab o‘tish kerakki, o‘yin faqat tashqi muhitdagi narsa hodisalarni bilish vositasigina emas, balki qudratli tarbiya vositasi hamdir. Ijodiy va syujetli o‘yinlarda bolalarning barcha bilish jarayonlari bilan birgalikda ularning individual hislatlari ham shakllanadi. Demak, bog‘chadagi ta’lim-tarbiya ishlarining muvaffaqiyati ko‘p jihatdan bolalarning o‘yin faoliyatlarini maqsadga muvofiq tashkil qila bilishga bog‘liq bo‘lib, bu jarayonda bolalarda bilish faoliyatini shakllantirish imkoniyati yanada kengroq yo‘lga qo‘yila boradi.

I.N. Kurochkina o‘yin bolalar xayoli tomonidan yaratilgan narsa emas, aksincha, bolalar xayolining o‘zi, o‘yin jarayonida yuzaga kelib, rivojlanadigan narsalar bilan bog‘liqligini e’tirof etadi.[3]

Shuni ham ta’kidlash joizki, fan-texnika mislsiz rivojlanayotgan hozirgi davrda hayratda qoldiradigan narsalar bolalarga go‘yo, bir mo‘jizadek ko‘rinadi. Natijada ular ham o‘zlarining turli o‘yinlari jarayonida o‘xshatma qilib har xil xayoliy narsalarni o‘ylab topadilar. Bundan tashqari, bolalarning turli xayoliy narsalarni o‘ylab chiqarishlari yana shuni anglatadi-ki, ular o‘zlarining turli xil o‘yin faoliyatlarida faqat atroflaridagi bor narsalarni emas, balki ayni chog‘da ehtiyojlarini ham aks ettiradilar.

T.I. Yerofeyevoy bolalarning o‘yin faoliyatidagi turli xayoliy va afsonaviy obrazlarni yaratishlari odamning tashqi muhitdagi narsa va hodisalarni aks ettirishi passiv jarayoni emas, balki faol, ijodiy yaratuvchanlik jarayoni deb ataydi.[6]

Bolalar o‘yin faoliyatlarining yana bir xususiyati, o‘yin jarayonida bolaning qiladigan xatti-harakatlari va bajaradigan rollarining ko‘pincha umumiylik xarakteriga ega bo‘lishidir. Buni shunday tushunish kerakki, bola o‘zining turli-tuman o‘yinlarida faqat o‘ziga tanish bo‘lgan yolg‘iz bir haydovchining, shifokorning, tarbiyachining, uchuvchining xatti-harakatlarinigina emas, balki umuman haydovchilarning, shifokorlarning, tarbiyachilarning hamda uchuvchilarning xatti-harakatlarini aks ettiradi. Albatta, turmush tajribalari va faoliyatlari doirasi cheklangan kichik yoshdagi bolalar o‘zlarining o‘yinlarida odamlarni va ularning harakatlarini aks ettiradilar xolos. O‘rta yoki katta bog‘cha yoshidagi bolalarning o‘yinlarida esa, bunday obrazlar umumiylik xarakteriga ega bo‘la boshlaydi.

Bog‘cha yoshidagi bolalarning o‘yinlari atrofdagi narsa va hodisalarni bilish quroli bo‘lishi bilan birga, u yuksak ijtimoiy ahamiyatga egadir. O‘zgacha qilib aytganda, o‘yin qudratli tarbiya qurolidir.

V.A. Petrovskiy bolalarning o‘yinlari orqali ularda ijtimoiy foydali, ya’ni yuksak insoniy hislatlarni tarbiyalash mumkin. Agarda biz bolalarning o‘yin faoliyatlarini tashqaridan kuzatsak, o‘yin jarayonida ularning barcha shaxsiy hislatlari yaqqol namoyon bo‘lishini ko‘ramiz. Shuning uchun bolalarning o‘yin faoliyatlari, ularning individual ravishda o‘rganish uchun juda qulay vositadir- deb tushuntiradi [8].

Kichik maktabgacha yoshdagi bolalar odatda o'zlari yolg'iz o'ynaydilar. Predmetli va konstruktorli o'yinlar orqali bu yoshdagi bolalar o'zlarining idrok, xotira, tasavvur, tafakkur hamda harakat layoqatlarini rivojlantiradilar.

A.D. Koshelevoy fikricha, syujetli-rolli o'yinlarda bolalar, asosan, o'zlari har kuni ko'rayotgan va kuzatayotgan kattalarning xatti-harakatlarini aks ettiradilar. 4-5 yoshli bolalarning o'yini asta-sekinlik bilan jamoa shakli hislatlariga ega bo'lib boradi. [3]

L.A. Venger ta'kidlashicha, jamoa o'yinidagi har bir bola o'z rolini yaxshi ado etishga intilishi bilan birga, o'yinning umumiy mazmunidan ham chetga chiqib ketmaslikka tirishadi. Bu esa, har bir boladan o'zining butun qobiliyatini ishga solishni talab etadi.[5]

V.V. Kazakovskiy xulosasiga ko'ra, bog'chadagi ma'lum rollarga bo'lingan jamoaviy o'yin, bolalardan qat'iy qoidalarga bo'ysunishini va ayrim vazifalarni talab doirasida bajarishni taqozo etadi. Shuning uchun bolalarning bunday jamoa o'yinlari psixologik jihatdan katta ahamiyatga ega. Chunki, bunday o'yinlar bolalarda irodaviylik, xushmuomalalik, o'yin qoidalariga, tartib-intizomga bo'ysunish va shu kabi boshqa ijobiy hislatlarni tarbiyalaydi va rivojlantiradi. Katta bog'cha yoshida syujetli-rolli o'yinlar esa endi o'z mavzusining boyligi va xilma-xilligi bilan farqlanadi. Bu o'yinlar jarayonida bolalarda sardorlik xususiyati yuzaga kela boshlaydi, ularda tashkilotchilik ko'nikma va malakalari rivojlana boshlaydi.[1]

Tadqiqotchi A.A. Reana fikricha, maktabgacha yoshdagi bolalar shug'ullanadigan ijodiy faoliyatlar orasida tasviriy san'atning ham ahamiyati juda kattadir. Bolaning tasavvur etish xarakteriga ko'ra, uning atrof hayotni qanday idrok etishi, xotira, tasavvur va tafakkur xususiyatlariga baho berish mumkin. Katta bog'cha yoshidagi bolalar chizgan rasmlar ularning ichki kechinmalari, ruhiy holatlari, orzu, umid va ehtiyojlarini ham aks ettiradi.

Yuqoridagilardan farqli o'laroq, rasm chizish bolalar uchun o'yin faoliyatining o'ziga xos bir shakli bo'lib hisoblanadi. Bola avvalo ko'rayotgan narsalarini, keyinchalik esa o'zi biladigan, xotirasidagi va o'zi o'ylab topgan narsalarni chizadi.

Katta maktabgacha yoshdagi bolalar uchun musobaqa juda katta ahamiyatga ega bo'lib, aynan shunday o'yinlarda muvaffaqiyatga erishish shakllanadi va mustahkamlanadi. Bu yoshdagi bolalarning eng yaxshi daqiqalari va muvaffaqiyat bilan bog'liq bo'lgan musobaqa o'yinlarining ahamiyatligidir.

Psixolog L. Ray mulohazasiga ko'ra, katta maktabgacha yoshdagi bolalar uchun musobaqalar juda katta ahamiyatga ega bo'lib, aynan shunday o'yinlarda muvaffaqiyatga erishish motivlari shakllanadi va mustahkamlanadi. Bu yoshdagi bolalar uchun eng yoqimli vaqt – yutish va muvaffaqiyat bo'lgan musobaqa o'yinlarining ham ahamiyati juda kattadir.[9]

Katta bog'cha yoshida konstruktorlik o'yinlari asta-sekinlik bilan mehnat faoliyatiga aylanib boradi. O'yinda bola sodda mehnat ko'nikma va malakalarini egallay boshlaydi, predmetlarning xossalarini anglay boshlaydi, amaliy tafakkur namunalari rivojlana boradi.

A.P. Usova 3-7 yoshli bolalarning psixik rivojlanishida badiiy-ijodiy faoliyat turi bo'lgan musiqaning ahamiyati ham juda kattadir. Musiqa orqali bolalar ashula aytishga, musiqa ohangiga mos ritmik harakatlar qilishga o'rganadilar. 3-7 yoshlik davrida bolalarning asosiy faoliyati quyidagi ketma-ketlikda kechadi deb ta'kidlaydi:[11]

- 1) predmetlarni o'rganishi;
- 2) individual predmetli o'yinlar, jamoa syujetli-rolli o'yinlar;
- 3) individual va guruh ijod;
- 4) musobaqa o'yinlari;
- 5) muloqot o'yinlari va hokazo.

Bog'cha yoshidagi bolalarning o'yin faoliyatlari haqida gapirar ekanmiz, albatta ularning o'yinchog'i masalasiga ham to'xtab o'tish kerak.

N.A. Menchinskaya xulosalariga ko'ra, bolalarga o'yinchoqlarni berishda ularning yosh xususiyatlarini, taraqqiyot darajalarini va ayni paytda ularni ko'proq nimalar qiziqtirishini hisobga olish kerak deb ta'kidlaydi.

Ma'lumki, 1-3 yoshdagi bolalar hali tashqi muhitni juda oz o'zlashtirgan bo'ladilar. Ular hali ko'p narsalarning rangini, hajmini ham yaxshi ajrata olmaydilar. Shuning uchun ularga qo'g'irchoq bilan birga har xil rangli qiyqim, lahtak matolar ham berish kerak.

Boshqa tadqiqotchilardan farqli o'laroq, L.M. Shipitsina ota-ona va tarbiyachilarga quyidagi tavsiyalarni taqdim etadi. Ya'ni qiz bolalar o'z qo'g'irchoqlarini har xil rangli matolarga o'rab, ro'mol qilib o'ratib mashq qiladilar. O'g'il bolalarga esa, har xil rangli, bir-birining ichiga sig'adigan quticha o'yinchoqlarni berish foydalidir

Ayrim tadqiqotlarda, maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirishning bir muhim sharti sifatida kichik muzeylar va ijtimoiy yo'naltirilgan muzey joylarini yaratishning o'rinliligi e'tirof etiladi. Masalan «Arxeologik», «Paleontologik», «To'qimachilik», «Mashinalar dunyosi» va hokazo. Muzeylar bolalarda qator ijtimoiy ko'nikmalar ya'ni odamlarning turmush tarzini, faoliyatlarini, qadimgi davr texnika vositalari hamda hozirgi vaqtdagi insonlar o'rtasidagi aloqa vositalarini farqlashga yordam beradi. Muzey turli kompozitsiyalar ya'ni shahar va qishloqning hayotini aksi, bolalarni yurtdoshlarimiz mehnatlari va hayoti, mato turlari, kiyim-kechak, qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan tanishiga zamin yaratadi. Muzey joylari bolalarning muloqoti rivojlanishiga va mustahkamlanishiga keng xizmat qiladi.

Muzey ekspozitsiyalari bolalarda tengdoshlar bilan aloqa o'rnatish, faoliyat mavzusi va rejasini kelishib olish, harakatlar va harakatlar ketma-ketligini rejalashtirish kabi ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi.

Maktabgacha ta'lim muassasalaridagi muzeylar bolalarni zamonaviy ilm-fan va texnologiyalar yutuqlari bilan tanishtirishni maqsad qiladi.

Muzeylarni tashkil etishda, eksponatlarni tanlash uchun tarbiyachi-o'qituvchilar quyidagi talablarni hisobga olishlari lozim bo'ladi:

1) tanlanayotgan eksponent maktabgacha yoshdagi bolalarni mamlakat tarixi, uning fuqarolari, shahar va qishloqlar hayoti, uning aholisi kabilar bilan tanishtira olishi lozim;

2) eksponentlarning tashqi ko'rinishi, uni ishlatish usullari maqsad turlicha bo'lishi ya'ni narsalar jozibali va o'ziga xos bo'lishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalar bilish faoliyatining rivojlanishi uchun o'yin faoliyatini to'g'ri tashkil etish va turli muzeylar, tasviriy san'at namunalari tanishtirib borish ham psixologik omillardan biri hisoblanadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. Казаковская В.В. Коммуникативные навыки ребенка в диалоге: вопросно-ответные комплексы // Ребенок как партнер в диалоге. Труды постоянно действующего семинара по онтолингвистике. СПб, 2001.– С.42.
2. Козлова, С.А. Т.А. Куликова. Дошкольная педагогика: учеб. пособие для студ. сред. учеб. заведений / – М.: Академия. 2013. – С.34.2. 3.
3. А.Д. Кошелевой Эмоциональное развитие дошкольника .– М.: Просвещение 2003. –290 с.
4. Курочкина И.Н. Современный этикет и воспитание культуры поведения у дошкольников.: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. Заведений. – М.: ВЛАДОС. 2014.– С.57.
5. Венгер Л. А. «Дочки – матери» // Дошкольное воспитание № 4 – 1991.С. 45 – 53
6. Елисеева М.Б. Лексикон ребенка раннего возраста // Речь ребенка: ранние этапы. Труды постоянно действующего семинара по онтолингвистике. Выпуск первый. С-Пб., 2000. С. 15-33.
7. Ерофеевой.Т.И. Современные образовательные программы для дошкольных учреждений. Под ред. – М: Академия, 1999. –С.49.
8. Учимся общаться с ребенком: Руководство для воспитателя детского сада. Под ред. В.А. Петровского. – М.: Просвещение, 1993.– С.113.
9. Рай Л. Развитие навыков эффективного общения. – СПб. Питер 2002. – С.87.
10. Усова А. П. Роль игры в воспитании детей // Под ред. Запоржца. М. «Просвещение», 2002. – С.64.

## OILAVIY MUNOSABATLARDA MILLIY QADRIYATLARNING BOLA TARBIYASIGA TA'SIRI

**Sadatova Nodira**

QarshiDU Psixologiya ta'lim yo'nalishi 2-bosqich magistranti

### ANNOTATSIYA

Maqolada oilada ota-ona va bolalar o'rtasidagi munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yish, oilaviy munosabatlarda sog'lom muhitning yuzaga kelishi, bolalar tarbiyasining to'g'ri olib borilishi, individual-psixologik xususiyatlarning shakllanishiga ta'sir ko'rsatishi tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Oila, tarbiya, muomala, munosabat, muloqot, muhit, xarakter, qiziqish, individual-psixologik xususiyat, emotsional holat.

Buyuk ma'rifatparvar Avloniyning fikricha, odam tug'ilishidan yomon xulq bilan tug'ilmaydi. Muayyan bir sharoitda yomon tarbiya natijasida ularda yomon xulq faydo bo'ladi va shakllanib boradi. Insondagi qobiliyatni kamolga yetkazish tarbiya bilan amalga oshadi. Avloniyning ta'kidlashicha, agar inson yaxshi tarbiya topib, yomon xulqlardan saqlansa, go'zal xulqlarga odatlanib, voyaga yetsa, u barchaning hurmati va e'tiboriga sazovor bo'lgan baxtiyor inson bo'lib shakllanadi. Agar aksincha bo'lsa, uning har qanday buzuvchi ishlarni qiladigan, nodon, johil, yovuz bir odam bo'lib yetishishiga olib keladi.

Avloniy tarbiyaning barcha xususiyatlarini tahlil qilar ekan, birinchi navbatda, tarbiyaning amalga oshirish vaqtiga katta ahamiyat beradi. U "tarbiyaning zamon" to'g'risida fikr yuritib, tarbiyani farzand tug'ilgan kundan boshlash muhimligini o'qitadi. Shu bilan bir qatorda, tarbiyaning kim tomonidan va qayerda amalga oshirilishi ham muhim masala ekanligiga e'tibor qaratadi. Alloma bu masalaga oydinlik kiritib, uni "uy tarbiyasi" va "o'quv dargohlari tarbiyasi" kabi ikki guruhga ajratadi. Uy tarbiyasida onaning tarbiyasi muhim ekanligini ko'rsatadi [1,].

Har qaysi millatning o'ziga xos ma'naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda, hech shubhasiz, oilaning o'rni va ta'siri beqiyosdir. Chunki insonning eng sof va pokiza tuyg'ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila bag'rida shakllanadi. Bolaning xarakterini, tabiati va dunyoqarashini belgilaydigan ma'naviy mezon va qarashlar — yaxshilik va ezgulik, olijanoblik va mehr-oqibat, or-nomus va andisha kabi muqaddas tushunchalarning poydevori oila sharoitida qaror topishi

tabiiydir. Shuning uchun ham aynan oila muhitida paydo bo'ladigan ota-onaga hurmat, ularning oldidagi umrbod qarzdorlik burchini chuqur anglash har qaysi insonga xos bo'lgan odamiylik fazilatlarini va oilaviy munosabatlarning negizini, oilaning ma'naviy olamini tashkil etadi [ 2, 52]. 2. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch, Toshkent: Ma'naviyat. 2008.

O'zbekiston respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, "Oila hayotning abadiyligi, avlodlarning davomiyigini ta'minlaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga, kelajak nasllar qanday inson bo'lib yetishishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'i ekanligini tan olishimiz darkor. Bola tug'ilgan kundan boshlab oila muhitida yashaydi. Oilaga xos an'analar, qadriyatlar, urf-odatlar bola zuvalasini shakllantiradi. Eng muhimi farzandlar oilaviy hayot maktabi orqali jamiyat talablarini anglaydi, his etadi".

Darhaqiqat, oilada ota-ona va bolalar o'rtasidagi munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yish, oilaviy munosabatlarda sog'lom muhitning yuzaga kelishiga, bolalar tarbiyasining to'g'ri olib borilishiga, bolalarda ijobiy fazilatlarining va individual-psixologik xususiyatlarning shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Bugungi kunda yoshlar o'rtasida yuzaga kelayotgan turli xil stressli holatlarning yuzaga kelishi natijasida jamiyatimiz uchun yot bo'lgan illatlar va shaxslararo munosabatlarning to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligi, ota-onalarning bolalar psixologiyasini, ularga xos munosabatlarni bilmasliklari tufayli sodir etilayotganligi, ota-ona va bolalar o'rtasidagi munosabatlarning o'ziga xos tomonlarini psixologik pedagogik qonuniyatlarini ochib berishni taqozo etadi.

Oilaviy munosabatlarda shaxslararo munosabatlarning izdan chiqishi bolalar tarbiyasida va ularning shaxs sifatida shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, bolalar bilan to'g'ri munosabatga kirishishda oilada tarbiyalanayotgan bolalarga ta'sir doirasi ijtimoiy doira kabi kengdir. Oila bolalarni vatanga muhabbat, mehnatga va xalq boyliklariga ongli munosabat, nuqsonlarga murossasizlik ruhida tarbiyalash uchun katta imkoniyatlarga ega bo'lib, xususan, bolaning hissiyoti va emotsional holatlarini tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Oilada, ayniqsa, katta yoshli kishilar, 12-15 yoshli bolalar bilan to'g'ri munosabatda bo'lishi muhim ahamiyatga egadir. Negaki, har qanday bola ulg'aygan sari kattalar buyrug'ini va ko'rsatmalarini yoqtirmaydigan bo'la boradi. Bu buyruq va ko'rsatmalar ko'pincha qarshilik ko'rsatish, hatto, oqilona talablarni bajarishdan bosh tortish holatlarini ham keltirib chiqaradi. Bunday vaziyatlarda bolaga nisbatan muomala tarzini o'zgartirish maqsadga muvofiqdir. Buyruq o'rniga ishontirish usulini qo'llash kerak, toki bola ana shu qilinishi kerak bo'lgan faoliyatni bajarishi shart ekanligini ongli tarzda tushunib yetsin. Shunday holatdagina bola har bir ishni ongli tarzda bajarishga odatlanadi. Agar katta yoshdagi bolaga pand-nasihatchilik qilaversa,

uning g'ashiga tegish bilan stressga moyillik darajasini orttirish mumkin. Ayni hollarda bolaning qalbiga kira oladigan pedagogik, psixologik usullarni qo'llash yaxshi samara beradi.

Ota-onalar yoki oilaning katta yoshli a'zolari bunday munosabatning o'rniga bolalar bilan hamfikir, do'stona munosabatda bo'lsalar, bolalarda o'z-o'zini baholash, berilgan topshiriqlarga mas'uliyat bilan yondashish hissining shakllanishi kabilar yuzaga keladi. Oilada bolalarga ta'sir etish sifatini oshirish uchun oilada katta yoshli a'zolarining bolaga qo'yadigan talablari hamda ularga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishda so'z bilan ishning bir bo'lishi lozim. Oilada bunday birlikning bo'lmasligi bola hulkatvoriga salbiy ta'sir ko'rsatib, ularda ko'proq axborot uzatish bilan bog'liq bo'lgan psixologik stress holatini vujudga keltirishga sabab bo'ladi. Shu narsani ta'kidlash kerakki, bola bilan muomala va munosabatga kirishishda ularning psixologiyasiga e'tibor bermaslik, oiladagi nosog'lom psixologik muhit - bir-birini haqoratlash, do'q-po'pisa va zulm o'tkazish asosida kilinadigan xatti-harakatlar bolaning xarakterida odam yoqtirmaslik, tez hissiyotga berilish, irodasizlik, qo'rqoklik, asabiylik, yolg'onchilik, mehrsizlik, qo'pollik ma'naviy zaiflik hislatlarining tarkib topishi bilan ularda stresli holatlarning yanada keskinlashib borish imkoniyatini oshiradi.

Ota-ona va bolalar o'rtasidagi munosabatning ijobiy tus olishi uchun ota-ona farzandlari bilan muomala-munosabatga kirishayottanlarida pedagogik odobga rioya qilmoqlari darkor. Ota-onaning aytgan har bir so'zi ta'sir qiladigan bo'lmog'i, so'zning aytilish formasi, shu so'zning formasiga mos keladigan holda chehraning ochiq yoki vajohatli bo'lishi pedagogik-psixologik ta'sirchanlikni oshiradi. Aksincha, psixologik-pedagogik odobga rioya qilmaslik, bolani haddan tashqari ortiq sevish yoki berahmlik, qattiqqo'llik bilan munosabatda bo'lish ota-ona bilan bola o'rtasidagi o'zaro muomala munosabatining buzilishiga sabab bo'ladi.

Ota-onalar va bolalar o'rtasida muomala munosabatlarining ijobiyligini ta'minlashda har bir bolaning psixologik xususiyatlariga xos muomala va munosabatda bo'lish zarur. Bunda bolaning yoshi, psixik jarayonlari, indiviudal-psixologik xususiyatlari, psixik holatlari oiladagi tarbiyaviy muhitning milliy psixologik qonuniyatlari hisobga olinishi zarur. Bolani yoshini, ma'lum vaziyatdagi holatini yaxshiroq tushunish uchun o'zimizni bolaning o'rniga qo'yib ko'rishimiz kerak. Shunda biz bolaning psixik olamini, xohish-istagini anglab yeta olamiz. Bolaning psixik olami, hayajon va quvonchlarini, o'y-xayollarini o'zimizda ifodalab ko'rishimiz esa bolalarni tushunishda bosh mezon bo'lib xizmat qilishi lozim.

Yuqorida keltirilgan fikrlarga ko'ra, o'zbek xalqining o'ziga xos etnopsixologik xususiyatlari bilan bog'liq bolaning xulqi va dunyoqarashi shakllanishida oilada qaror topgan sog'lom muhit avvalo, oila a'zolarining o'zaro munosabatlari, hamkorligi, oilaviy milliy qadriyatlarni e'zozlashiga bog'lanadi. Bunday holatlarni to'g'ri talqin

etish oilada tarbiyalanayotgan bolalarda turli xil stressli holatlarni oldini olishga zamin yaratadi. Buning uchun har bir ota-ona yoki oila a'zolarining zamonaviy oila psixologiyasiga xos savodxonlik darajasini oshirib borish maqsadga muvofiqdir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. Avloniy A. Tanlangan asarlar. Toshkent: "Ma'naviyat", 2-jild, 1998.].
2. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch, Toshkent: Ma'naviyat. 2008.
3. G'oziyev E.G'. Yosh davrlar psixologiyasi. Toshkent, «O'qituvchi» nashriyoti, 1998.
4. G'oziyev E.G'. Muomala psixologiyasi. Toshkent, Universitet, 2001.



## САЛОҲИЯТЛИ КАДРЛАР ЗАХИРАСИГА КИРИТИЛГАН НОМЗОДЛАР РАҲБАРЛИК ЛАВОЗИМЛАРИГА ТАЙЁРЛАНМОҚДА

**Юлдошева Барно Худойберди кизи**

Президент ҳузуридаги давлат хизматини ривожлантириш Агентлигининг  
Самарқанд вилояти филиали инспектори

### АННОТАТСИЯ

Ушбу мақолада Давлат фуқаролик хизмати” тўғрисидаги қонун, “Миллий кадрлар захираси”, “Салоҳиятли кадрлар захираси” ни шакллантириш, номзодларнинг малакасини ошириш ва унинг аҳамияти ҳақида фикр юритилади

**Калит сўзлар:** ҳоким ёрдамчиси, ёшлар етакчиси, хотин-қизлар фаоли, стажировка, дублё, қайта тайёрлаш, салоҳиятли кадрлар захираси.

Сўнгги йилларда мамлакатимизда давлат хизмати фаолияти самарадорлигини оширишга қаратилган кенг кўламли ислохотлар амалга оширилмоқда. Хусусан, ходимларни самарали бошқариш ва инсон ресурсларини ривожлантиришга, малакали кадрлар захирасини рақобат асосида шакллантиришга эътибор берилмоқда.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 3 октябрда қабул қилган “Кадрлар сиёсати ва давлат фуқаролик хизмати тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги 5843-сонли фармонида Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат хизматини ривожлантириш агентлигининг асосий вазифаларидан бири сифатида “Миллий кадрлар захираси” ни шакллантириш ва юритиш топшириғи берилган эди. Ушбу топшириққа асосан Агентлик томонидан давлат органлари ва ташкилотларининг раҳбарлик лавозимларига захира кадрлар базаси шакллантирилди. Ушбу захира келгусида давлат бошқарув органларига салоҳиятли ва истикболли кадрларни тайёрлашга хизмат қилади.

2022 йил 8 августда қабул қилинган “Давлат фуқаролик хизмати” тўғрисидаги қонуннинг 25-моддасига мувофиқ Миллий кадрлар захираси давлат фуқаролик хизматчиларининг раҳбарлик лавозимларини малакали кадрлар билан тўлдириш мақсадида давлат фуқаролик хизматчиларини марказлаштирилган ҳолда саралаб олиш, тайёрлаш, қайта тайёрлаш ва узлуксиз малакасини ошириш тизимидир. Миллий кадрлар захираси давлат фуқаролик хизматининг раҳбар кадрлар таркибини барқарор таъминлаш ва унинг сифатини яхшилаш, давлат фуқаролик хизматчисининг касбий компетенциясини ошириш

ҳамда хизматда лавозим бўйича кўтариш мақсадида шакллантирилади. Миллий кадрлар захирасини шакллантириш ва юритиш Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат хизматини ривожлантириш агентлиги томонидан амалга оширилиб келинмоқда.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёев 2022 йил 4 август куни “Давлат хизматини ислоҳ қилиш ва бошқарувда натижадорликни ошириш чоратадбирлари” тўғрисида кенгайтирилган тарзда ўтказилган ведоселектор йиғилишида давлат идораларида «маҳалладан—республикагача» тамойили асосида кадрларни ўстириш тизими жорий қилиш бўйича топшириқ берар экан «Биз давлат хизматини маҳаллага тушириш бўйича катта ислохотларни бошладик. Ҳар бир маҳаллада — раис, ҳоким ёрдамчиси, ёшлар етакчиси ва хотин-қизлардан иборат яхлит тизим яратилди. Бундан буён, раҳбарлик лавозимларига номзодлар маҳаллада одамлар билан ишлаган, уларнинг муаммосини ўз кўзи билан кўриб, ҳал қилган кадрлар орасидан танлаб олинади», — деди Шавкат Мирзиёев.

Президент раҳбарлигида ўтказилган видеоселектор йиғилишида берилган топшириққа асосан юқори натижаларга эришган маҳаллалардаги ҳоким ёрдамчилари, ёшлар етакчилари ва хотин-қизлар фаоллари орасидан республика бўйича 1000 нафари салоҳиятли кадрлар резервига киритилди.

Юқоридаги вазифани амалга ошириш мақсадида Самарқанд вилоятида ҳам тегишли йўналишларда номзодларни саралаш ва танлаш ишлари амалга оширилди. Хусусан, 2022 йилнинг сентябрь-октябрь ойи давомида вилоятдаги 1126 та маҳалладаги 3378 нафар ҳоким ёрдамчилари, ёшлар етакчилари, хотин-қизлар фаоллари орасидан сектор раҳбарлари ва йўналишлар бўйича туман (шаҳар) ҳоким ўринбосарининг хулосалари ҳамда “360” даража сўровнома натижаларига кўра дастлаб 456 нафар номзод саралаб олинди. Саралашнинг кейинги босқичида номзодлар махсус билим ва психодиагностик тест синовларидан ўтказилди. Шунингдек, тест босқичида 65 фоиз ва ундан юқори натижаларни қайд этган ҳамда олдинги иш жойлари ва иш стажлари ҳисобга олинган ҳолда 192 нафар номзод сараланиб олинди. Сўнгги босқич суҳбат натижаларига кўра, улардан 120 нафари сараланиб, салоҳиятли кадрлар захирасига киритилди. Улардан *90 нафари ҳоким ёрдамчилари, 24 нафари ёшлар етакчилари, 6 нафари хотин-қизлар фаоллари ҳисобланади. 120 нафар номзоддан 16 нафари аёллардир.*

Салоҳиятли кадрлар захирасига киритилган номзодларнинг ҳар томонлама билим ва кўникмалари ошириб бориш ва раҳбарлик лавозимларига тайёрлаш мақсадида уларнинг шахсий ривожланиш режалари ишлаб чиқилди. Унда номзоднинг назарий ҳамда амалий билимларини оширишга катта эътибор

қаратилди. Хусусан, биринчи босқичда Агентлик томонидан “Салоҳиятли кадрлар захираси” га киритилган 120 нафар номзодлар жорий йилнинг январь ойида давлат фуқаролик хизматчиларига мўлжалланган 50 соатлик масофавий курсларда ўқитилди. Ўқув курси якуни билан номзодлар сертификатларга эга бўлдилар.

Кейинги босқичда эса захирага киритилган номзодларнинг касбий кўникмаларини ривожлантириш мақсадида вилоят бошқармалари ва маҳаллий ҳокимликларда стажировкалари ташкил қилинди. Стажировка 3 та гуруҳга бўлинган бўлиб, жорий йилнинг 6 февралидан 17 мартга қадар бўлиб ўтди. Бунда 1-2 ва 3 гуруҳларда 40 нафардан жами 120 нафар захирадаги номзодлар давлат органлари ва ташкилотларининг ҳудудий бошқармалари (туман, шаҳар бўлинмалари) ҳамда ҳокимликларда 2 ҳафталик стажировка ўтадилар.

Захирага киритилган номзодларнинг амалий тажрибаларини янада ошириш мақсадида Агентлик ташаббуси билан биринчи маротаба ҳоким ёрдамчилари, ёшлар етакчилари ва хотин-қизлар фаоллари ичидан сараланган номзод захира кадрлар вилоят ҳокими ўринбосарлари, 16 та туман ва шаҳар ҳокимлари ҳамда Агентликнинг ҳудудий филиали раҳбарига “Дублёр” сифатида бириктирилди.

Агентликнинг Самарқанд вилояти филиали раҳбари иштирокида “Дублёр” лар билан учрашув ўтказилиб, уларга дублёрлик жараёни, ўзлари бириктирилган вилоят ҳокими ўринбосарлари ва туман (шаҳар) ҳокимлари билан бирга ишлаш, стажировкани давом этиш муддатлари бўйича тушунчалар берилди.

“Салоҳиятли кадрлар захираси” га киритилган номзодлар жорий йилнинг 23 мартдан 10 апрелига қадар ўзлари бириктирилган раҳбарлага дублёр сифатида фаолият олиб боришди. Икки ҳафта давом этган “Дублёрлик” номзодларга ва шу билан бир қаторда масъул раҳбарлар учун ҳам биринчи маротаба ташкил этилганлиги билан аҳамиятли.

“Дублёр” лойиҳасидан кўзланган асосий мақсад “устоз-шогирд” анъаналари асосида раҳбарлик кўникмаларини ривожлантириш, лидерлик маҳорати ҳамда амалий тажрибасини оширишда кўмаклашишдан иборатдир. Туман (шаҳар) ҳокимларига дублёр сифатида фаолият юритаётган номзодлар ҳокимлар билан бир қаторда ишлаб ўзлари учун керакли бўлган билим ва кўникмаларни олишади. Бу эса уларни келгуси фаолиятида дастур-ул-амал бўлиб хизмат қилади.

Жомбой тумани ҳокими Қаюм Собиров “Салоҳиятли кадрлар захираси”га киритилган номзодларнинг раҳбарларга дублёрлик қилишлари улар учун жуда катта амалий мактаб бўлишини ва ташкилотларга раҳбарлик лавозимларига номзодлар аввало ушбу захирадан саралаб олиниш имконияти пайдо бўлганлигини таъкидлаб ўтди.

Хусусан, туман ҳокимининг тажрибасини устоз-шогирд анъанасига кўра “Журият” маҳалла фуқаролар йиғинида фаолият юритаётган ҳоким ёрдамчиси Шероз Давронов кунт билан ўрганмоқда. У бугунги кунда раҳбарлик кўникмаларини ривожлантириш, лидерлик маҳоратини шакллантириш фазилатларини ўзлаштиряпти.

“Раҳбар лавозимларида ишлаш учун жуда кўп синовлардан ўтиш керак, айниқса, ҳоким бўлиш учун эрталаб қишлоқ хўжалиги, кундузи молия, кечга тиббиёт бўйича мутахассис бўлиш талаб этилади, шунингдек, барча соҳаларни ичига кириши ва ўз устида доим ишлаши керак. Мен ўзим учун Қаюм Собировдан китоб ўқишни, ўз устимда доимо ишлашни, раҳбарлик, лидерлик кўникмаларини ўргандим”, - дейди туман ҳокимига бириктирилган дублёр Шероз Давронов.

Шунингдек, у ҳоким билан кун давомида бирга ишлаб ўзи учун жуда кўп амалий тажрибалар орттирмоқда. Мисол учун, Муборак Рамазон ойи муносабати билан Жомбой туманида ўтказилаётган ифторликларни ташкил қилиш ва шу орқали туманнинг барча маҳаллаларида яшовчи ногиронлиги бор, кекса отахон-онахонлар ва кам таъминланган аҳолининг ҳолидан хабар олишдек хайрли ишларда иштирок этиб келмоқда.

Бундан ташқари, мамлакатимизда 30 апрель куни бўлиб ўтадиган референдумга тайёргарлик, жойларда тарғибот тадбирларини ташкил қилиш, фуқароларимизга “Янгиланаётган Конституция” бўйича кенг маълумотлар бериб бориш ишларида фаол иштирок этмоқда. Ушбу йўналишлар ҳам захира кадр учун янги тажриба вазифасини ўтамоқда.

Албатта, малакали кадрлар захирасини бугундан яратиш келгусида раҳбарлик лавозимларига қобилиятсиз, лидерлик кўникмаларига эга бўлмаган, тасодифий мутахассисларни келиб қолишини олдини олади. Ургут тумани ҳокими Ботир Жабборовга “Ўроқбойжар” маҳалла фуқаролар йиғинида фаолият юритувчи ҳоким ёрдамчиси Жавлонбек Ҳайдаров шогирд сифатида бириктирилган.

“Аввал туман ҳокимининг ёшлар масалалари бўйича ўринбосари лавозимида ишлаганман, ҳозирда “Ўроқбойжар” маҳалла фуқаролар йиғинида фаолият юритмоқдаман. Давлат хизматини ривожлантириш агентлиги томонидан ташкил қилинган “Дублёр” лойиҳасида Ургут тумани ҳокимига бириктирилдим. Ўзимга амалий кўникмалар олиш, иш тажрибамни янада ошириш учун бу менга жуда катта имконият бўлди. Ишни туман ҳокими билан кунлик иш режани тузиб олишдан бошлаймиз”, - дейди Жавлонбек Ҳайдаров.

У ҳоким билан биргаликда ҳар ҳафта ўтказиладиган “Сайёр қабуллар”да иштирок этиб, фуқаролар мурожаатларини қабул қилмоқда ва муаммоларга

жойида ечим топиш, ўрганиш талаб қилинадиган муружаатларни тегишли тартибда кўриб чиқиш бўйича амалий кўникмаларини ривожлантирмоқда.

Хулоса ўрнида шуни таъкидлаш жоизки, сараланган захира кадрларни мунтазам равишда тайёрлаш, ўқитиш, малакасини ошириш, стажировка ўташи, раҳбарларга дублёр сифатида бириктирилиши орқали тажриба орттириши уларнинг келгусида раҳбарлик лавозимларига муносиб кадр сифатида шаклланишига замин яратади. Йўлга қўйилган тизим орқали эндиликда кадрлар раҳбарлик лавозимларига тўсатдан келиб қолишининг олди олинади, давлат бошқарув органларига пухта тайёргарлик кўрган, ўз устида тинимсиз ишлайдиган, халқни рози қила оладиган янги авлод кадрлари сараланишига хизмат қилади.

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати: (REFERENCES)**

1. 2022 йил 8 августда қабул қилинган “Давлат фуқаролик хизмати” тўғрисидаги қонун.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёев 2022 йил 4 август куни “Давлат хизматини ислоҳ қилиш ва бошқарувда натижадорликни ошириш чора-тадбирлари” тўғрисида ўтказилган кенгайтирилган видеоселектор йиғилишининг 61-сонли баёни.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 3 октябрда қабул қилган “Кадрлар сиёсати ва давлат фуқаролик хизмати тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги 5843-сонли фармони.

## THE NEED FOR THE ORIGIN, EMERGENCE AND FORMATION OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES

**Khatamova Zumrad Nazirjonovna**

Fergana Polytechnic Institute, Senior Lecturer of the "Social Sciences and Sports"  
Department, PhD in History.

**Islamov Komiljon Yunusali o'g'li**

Fergana Polytechnic Institute, 1st year master's student, BIZ department.

### ABSTRACT

In the article, the concept of pedagogical technology, its factors of origin, necessity are discussed, and the necessity of its formation is also touched upon.

**Keywords:** pedagogue, pedagogical technologies, necessity, personnel, education, social attitude.

The second stage of the "National Personnel Training Program" of the Republic of Uzbekistan (1997) is considered the quality stage, in which the need to introduce and master modern pedagogical technologies has been repeated many times, and the need to introduce them to educational institutions has been emphasized. Today, the formation of new social relations in our society, the integration of education into the world education system, the development of democratization and humanization processes require a new approach to modern pedagogical technologies in the educational process.

It is natural to wonder why the interest in pedagogical technology has increased so much today. There are unique methods of pedagogy that have produced many knowledgeable and qualified personnel in our society. Most of the educational community is following this path, but this path cannot serve the society that is striving for independence and the future with the expected results. Because there are certain reasons behind it, namely:

1. The need to use modern pedagogical technologies in order to accelerate and improve the efficiency of population education in order to take a place among developed countries;
2. As a result of the rapid development of science and technology, the size of the information system is increasing;

3. Applying modern techniques and technologies to education, computerization of the educational process, the need to use information technology and technical tools in the educational process;

4. To set the activity of the student and the teacher in the right way, the teacher should know the purpose and content of the education well, he should have mastered the methods, methods and tools of the education, the interest and ambition of the student should be able to direct to the right path;

5. To organize the educational process at a high level and effectively, the teacher must clearly define the goals and tasks, record the educational results in advance, the necessary educational tools to achieve full mastery of the educational subjects, conditions must achieve the conditions of preparation;

6. Creation of the necessary material and technical base for the educational process;

7. Objective and objective evaluation of the results of the educational process, control and evaluation of the process of acquiring knowledge and skills of students has been achieved;

8. The demand for perfect preparation of the growing young generation for life is in such problems as the need to use the principle of a complex approach to objective existence, which is considered the most advanced way of imparting knowledge to them.

Therefore, modern pedagogical technology is an educational event that meets all the requirements of the above conditions.

The essence of the pedagogical technology created in the USA (B. Blum, D. Kratvol, N. Gronland, J. Carroll) in the 60s of the last century and successfully used in the educational system of about 30 countries of the world, its theoretical foundations, special features and the importance of introducing this technology to the education system of our country is very great.

In the middle of the 50s of the last century, an approach to the organization of the educational process in a completely new, unique "technological" way appeared in world pedagogy. In the 60s, it was recognized that the diversity of teaching methods makes it difficult to use them in the organization of the educational process. Therefore, it was necessary to create a common scientific basis for all methods. As a result, the concept of "educational technology" (an Educational technogu) was created. "Pedagogical Technology" magazine was published in the USA in 1961. Also, "Pedagogical technology and educational process" in England (since 1964), "Pedagogical technology" in Japan (since 1965), A similar magazine was published in Italy (since 1971). Since 1971, UNESCO has been publishing the bulletin "Pedagogical

Technologies" of the International Bureau of Education. In the Russian Federation, since 1997, the magazine "School Technologies" has been established.

In addition to foreign specialists, effective scientific and research work is being carried out by pedagogic scientists of our republic, Ashirbaev S., Saidahmedov NS, Jo'raev R., Farberman BL and others.

The reason for the increased interest in pedagogical technology today is that, in developing countries, pedagogical technology has generally been viewed as the main task of educational policy.

This approach was also approved by UNESCO, and in 1972 the International Commission on Educational Development was established. This commission estimated that modern technology is a driving force in the modernization of education.

### REFERENCES:

- 1.Хатамова, З. (2021). Expenditure of income from taxes and levies in the kokand khanate: <https://doi.org/10.47100/conferences.v1i1.1230>. In research support center conferences (No. 18.05).
- 2.Nazirjonovna, K. Z. (2022). SH. VOKHIDOV'S CONTRIBUTION TO THE STUDY OF THE HISTORY OF THE KOKAND KHANATE. Innovative Society: Problems, Analysis and Development Prospects, 139-141.
3. Xatamova, Z. (2021, June). EXPENDITURE OF INCOME FROM TAXES AND LEVIES IN THE KOKAND KHANATE. In Конференции.
- 4.Хатамова, З. (2023). Из истории денежной политики в финансовой системе Коканского ханства. Актуальные проблемы истории Узбекистана, 1(1), 327–336. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/history-of-uzbekistan/article/view/16511>
5. Murodilov K. T., Toshmatov U. Q. CREATING MAPS OF AGRICULTURE AND CLUSTERS BY USING GEOINFORMATION SYSTEMS. Innovative Development in Educational Activities, 2 (6), 464–470. – 2023.
- 5.Nazirjonovna, K. Z. (2022). Political-Financial Analysis of the Issues of Science of the Kokand Khanate in the Work of Khudoyorkhonzade "Anjum At-Tavorikh". CENTRAL ASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND HISTORY, 3(10), 102-111. Retrieved from <https://cajssh.centralasianstudies.org/index.php/CAJSSH/article/view/463>
- 6.Burkhonov, I. M. (2020). "ZAKAT" HAS ENSURED FAIRNESS AND BALANCE IN SOCIETY. Theoretical & Applied Science, (5), 201-204.
- 7.Muhiddinovich, B. I. (2020). Negative impact of the tax system on political life-on the example of the history of the Kokand Khanate (1850–1865). ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 10(5), 790-795.



8. Burkhonov, I. (2021, June). The importance of the scientific heritage of Asomiddin Urinboev in the study of the history of the Kokand Khanat. In Конференции.
8. Abdullayeva, G. V. qizi, & Murodilov, K. T. ugli. (2023). PROVIDING GEO-INFORMATION FOR THE MONITORING OF THE CLUSTER ACTIVITY OF THE REGIONS AND DEVELOPING THE BASIS OF WEB-MAPS (IN THE CASE OF FERGANA REGION). *Innovative Development in Educational Activities*, 2(7), 342–347. Retrieved from <https://openidea.uz/index.php/idea/article/view/1039>.
9. Бурхонов, И. М. (2019). ҚЎҚОН ХОНЛИГИ МАЪМУРИЙ БОШҚАРУВИДА СОЛИҚ ТИЗИМИНИНГ СИЁСИЙ ҲАЁТГА САЛБИЙ ТАЪСИРИ (1850-1865). ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ, (19).
10. Burkhonov, I. (2021). The importance of the scientific heritage of Asomiddin Urinboev in the study of the history of the Kokand Khanat: <https://doi.org/10.47100/conferences.v1i1.1242>. In RESEARCH SUPPORT CENTER CONFERENCES (No. 18.05).
11. Бурханов, И. (2023). Научное наследие Шарафиддина Али Язди в интерпретации Асомиддина Оринбоева. Актуальные проблемы истории Узбекистана, 1(1), 165–171.
12. BURKHONOV, I. FROM THE HISTORY OF THE TRANSLATION OF THE WORK OF ABURAZZAK SAMARKAND" MATLA'I SA'DAYN AND MAJMA'I VAHRAIN. ЭКОНОМИКА, 138-144.
13. Muhiddinovich, B. I. (2022). The Importance of Asomiddin Urinboev's Scientific Research in the Study of the History of the Kokan Khanate. *Kresna Social Science and Humanities Research*, 3, 175-179.
14. O'G'Li M. N. T. Market transformation for sustainable rural housing //Достижения науки и образования. – 2019. – №. 7 (48). – С. 30-31.
14. Бурхонов, И. М. (2020). «ЗАКОТ»-ХАЛҚИМИЗ ҲАЁТИДА АДОЛАТ ВА МУТАНОСИБЛИК ОМИЛИ. ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ, 3(5).
15. Muhiddinovich, B. I. (2022). In the Study of the History of the Kokand Khanate. *Eurasian Journal of History, Geography and Economics*, 6, 68-71.
16. Burkhanov, I. (2022). FROM THE HISTORY OF THE USE OF THE SCIENTIFIC HERITAGE OF KOKAND SCIENTISTS ASOMIDDIN URINBOEV. *International Bulletin of Medical Sciences and Clinical Research*, 2(10), 63–67.
17. Хатамова, З. (2021, August). EXPENDITURE OF INCOME FROM TAXES AND LEVIES IN THE KOKAND KHANATE: <https://doi.org/10.47100/conferences.v1i1.1230>. In RESEARCH SUPPORT CENTER CONFERENCES (No. 18.05).

18. Хатамова, З. Н. Особенности налоговой системы Кокандского ханства / З. Н. Хатамова. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2020. — № 5 (295). — С. 254-256. — URL: <https://moluch.ru/archive/295/66918/>
19. Nazirjonovna, N. Z., & Abdumannobovich, N. M. (2020). Tax system on the territory of kyrgyzstan during the Kokand Khanate. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(6), 209-212.
20. Xatamova, Z. (2020). Expenditure of state funds replenished by taxes in the history of the kokand khanate. *EPRA International Journal of Research and Development (IJRD)*, 5(3), 274-277.
21. Хатамова, З. Н. (2020). ҚЎҚОН ХОНЛИГИДА СОЛИҚЛАР ҲИСОБИГА ТЎЛДИРИЛГАН ХАЗИНАНИНГ САРФ ЭТИЛИШИГА ОИД МАЪЛУМОТЛАР. ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ, (SI-1№ 4).
22. Xatamova Zumradxon Nazirjonovna. INFORMATION ON THE PROVISION OF THE FUND IN THE KOKAND KHAN. Look to the past. 2020, SI, pp.590-595

## CHIZMACHILIK FANINI BOSHQA FANLAR BILAN INTEGRATSIYALAB O‘QITISH METODIKASI

**Muhammadiyaheva Durdona Odil qizi**

Shahrisabz davlat  
pedagogika instituti 2- bosqich magistranti

**Xalimov Moxir Karimovich**

Nizomiy nomidagi TDPU dotsenti

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada chizmachilik fanini boshqa fanlar bilan integratsiyalab o‘qitish asosida dars samaradorligini oshirish masalalari bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

**Kalit so‘zlari:** fan, integratsiya, metod, pedagogika, ijodkorlik, metodologiya, test, model, detal.

### АННОТАЦИЯ

В данной статье даны рекомендации по повышению эффективности уроков на основе интеграции черчения с другими предметами.

**Ключевые слова:** наука, интеграция, метод, педагогика, деятельность, методология, тест, модель, деталь.

### ABSTRACT

This article gives a recommendation to improve the effectiveness of lessons based on the integration of drawing with other subjects.

**Key words:** science, integration, method, pedagogy, activity, methodology, test, model, detail.

Sir emaski jamiyat bugun o‘z tarixidagi eng chuqur va eng tez o‘zgarishlarni boshidan kechirmoqda. Shiddat bilan rivojlanib borayotgan ta’lim tizimi bizdan yangicha qarash va yangicha uslubni talab etadi. Sifatli uzluksiz ta’limni berish asoslaridan biri boshqaruv va pedagog kadrlarni tayyorlash darajasi va ularning professionalizmi hisoblanadi. O‘tgan qisqa davr mobaynida yurtimizda ushbu yo‘nalishda keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-son farmoni qabul qilindi.

Yurtimizda qabul qilinayotgan har bir qaror va farmonlar ta'lim taraqqiyotiga qo'yilayotdan poydevordan iborat.

Bularning barchasi ta'lim sohasidagi zamonaviy qarashlar va belgilab qo'yilgan maqsad asosida rivojlanayotganidan darak beradi.

Ta'lim tizimida qanday islohotlar amalga oshirilmasin, oxir-oqibat, ular qandaydir tarzda ma'lum bir ijrochiga – aniqroq qilib aytadigan bo'lsak pedagog shaxsiga borib taqaladi. Asosiy yangiliklarni amaliyotga tatbiq etishda asosiy shaxs - bu aynan pedagogdir. Har xil yangiliklarni amaliyotga muvaffaqiyatli joriy etish, yangi sharoitda unga yuklangan vazifalarni amalga oshirish uchun, pedagog kerakli kasbiy malakaga va kasbiy mahoratga ega bo'lishi kerak.

Biz qaysi sohani isloh qilmoqchi bo'lsak, faqatgina o'sha soha tizimi bilan kafolatlanmaganimiz ma'qul. Avvalo uning ijrochilari faoliyati bilan yanada chuqurroq va yanada mukammalroq shug'ullansak ma'lum bir samaraga erisha olamiz.

Umumiy o'rta talim maktablarining ba'zilarida fanlar bir biriga uzviy bog'lanmaganligi o'qitish tizimida chalkashliklarga olib keladi. Masalan geometriya darsidagi shakillarni ba'zi o'qituvchilar qo'lda chizishadi, chizish asboblardan, lineyka ishlatmasdan yoki chizib ko'rsatishmaydi, bu esa shakillarni o'quvchilar tassavur qila olmasligiga olib keladi. Bu esa chizmachilik fanini boshlang'ich tushunchasi va tayanchi yaxshi emasligidan dalolat beradi. Maktabda chizmachilik fani faqat ikki yil oqitiladi, bu esa dars samaradorligini yanada pasayishiga olib keladi.

Muhandis - pedagoglar tayyorlash jarayonida jahon ta'limi tizimida yuqori samara berayotgan innovatsion ta'lim texnologiyalarini o'zlashtirish va qo'llash ustuvor vazifalardan biri bo'lib kelmoqda.

Davlatimiz rahbari ta'kidlab o'tganlaridek Oliy o'quv yurtlari oldida turgan asosiy vazifalardan biri o'z ta'lim yo'nalishlari bo'yicha chuqur nazariy bilimlar, puxta amaliy malakalarga ega bo'lgan yetuk zamonaviy bakalavr va magistrilar tayyorlab etishtirishdir. Hozirgi zamon texnika texnologiyasiga doir bilimlarni muvaffaqiyatli egallashning shartlaridan biri, talabalarda grafik savodxonlik ko'nikma, malakalarini ya'ni chizmalarni o'qiy va bajara bilishdir. Shu munosabatda chizma chizishning asosi - chizma geometriya fanini mukammal egallashni talab etadi.

Chizmachilik fanlarini boshqa fanlar bilan, ayniqsa dizayn fanlarini integratsiyalab o'qitishda bu ikki fanni aloqadorligini o'rgatish talabalarga dizayn, chizmachilik va arxitektura fanlarining asosiy turlari va ularni bog'liqliklari haqida tushunchaga ega bo'lish imkoniyatini beradi. Talabalarning fazoviy tasavvurlarini shakllantirishdan tashqari, bunday ikki fanni integratsiyalash ularga o'zlarining qiziqishlarini, keyingi ta'limdagi ixtisoslik yo'nalishlarini aniqlashga yordam beradi.

Ko'plab tadqiqotlarda chizmachilik fanini boshqa fanlar bilan bog'lab o'qitish asosida dars samaradorligini oshirish, uning o'ziga xos jihatlari va usullari o'rganilgan.

Bunday tadqiqotlar sirasiga S.I.Dembinskiy va V.I.Kuzmenko, A.D.Botvinnikov, V.N.Vinogradovlar tomonidan olib borilgan izlanishlarni kiritish mumkin. Tadqiqotlarni shuningdek MDH davlatlarida N.N.Anisimov, A.S.Briling, V.A.Gerver, E.T.Jukova, Y.F.Katxanova, I.A.Roytman, M.N.Makarova, A.A.Pavlova va boshqalar shug'ullangan bo'lsalar, Respublikamizda yetakchi olim-pedagoglardan Sh.Murodov, I.Rahmonov, J.Yodgorov, R.Ismatullayev, A.Umronxo'jaev, P.Odilov, N.Hurboyev, A.Ashirbayev va boshqalar tomonidan o'quvchilar grafik tayyorgarligini oshirish masalalari o'rganilgan. Biroq, muammoni nazariy va amaliy jihatdan o'rganish chizmachilik fanini boshqa fanlar bilan integratsiyalab o'qitish borasida yetarlicha tadqiqot ishlari olib borilmaganligini bu esa ta'lim amaliyotida turli to'siqlarning yuzaga kelayotganligini ko'rsatadi.

Yurtimizda bo'layotgan o'zgarishlar kengayib borayotgani umumiy o'rta ta'limni ham chetlab o'tmadi. Yurtimizdagi eng olis qishloqlardagi maktablarni texnik bazasi eskirganligi va ularni yangilash davr talabi ekanligi har birimizga sir emas. Yurtimizda qabul qilinayotgan har bir o'zgarish chuqur asoslanib, uning yechimni nazarda tutadi va amal qiladi. Yoshlarga e'tibor kelajakka etibor bu iboraga har bir mahala oila ma'sulligi ahamiyatlidir. O'zbekiston Respublikasida yangi tashkil etilgan mahalla vazirligini ham misol keltirsak bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18- fevraldagi "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5938-son farmoniga muvofiq etibor yanada kuchaydi. Yoshlarni bo'sh vaqtlarni mazmunli o'tkazish bilim olishi yo'naltrish, bo'sh vaqtni mazmunli, unumli o'tkazishdan iboratdi. Shu boisdan 3 yoshdan bog'chaga, 6 yoshdan maktabga o'qishi davlat tomonidan belgilangan, kiyingi talimlar ixtiyoriy ravishda tanlanadi va o'qiladi. Yosh avlodga yaratilgan bubday imkoniyatlarni oshrish, manaviyatni yuksaltrish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son farmoni qabul qilindi. Yurtimizda qabul qilinayotgan har bir qaror va farmonlar taraqqiyotimizga qo'yilayotdan poydevordan iborat.

Fan va texnika rivojlanishi bilan chizmalar ham takomillashib bordi. Chizmalar o'z tarixiga ega bo'lishi bilan birga, xalqlar madaniyatining taraqqiy etishiga oid bo'lgan tarixni ham saqlab qoladi. Rasmlar, haykallar va chizmalarga qarab, qadimgi xalqlar to'g'risida ko'p ma'lumotlar olish, shuningdek, katta ahamiyatga ega bo'lgan yodgorliklarni qayta tiklash mumkin bo'ladi.

Fransuz olimi va davlat arbobi Gospar Monj o'z davrigacha chizmachilikka oid bo'lgan barcha bilimlarni umumlashtirib 1799-yilda „Chizma geometriya" kitobini bosmadan chiqardi.

Shundan beri chizma geometriya Monj metodi deb ham yuritiladi. Monj kitobida chizmachilik gram- matikasi chizma geometriya atroflicha bayon qilingan. Bu davrda chizma geometriyaning mohiyati juda katta bo'lib, Monjning o'zi "Chizma dunyodagi texnika bilan shug'ullanadigan barcha millatlar uchun tushunarli til, ya'ni texniklar tilidir", degan edi.

Chizma standartlari qonun kuchiga ega. Chizmalarni standartlashtirish bilan chizmalarni chizishda xilma-xillikka barham beriladi. Natijada chizmalarni taxt qilishda bir xillikka erishiladi, chizmalar qayerda, qachon va kim tomonidan chizilganidan qat'i nazar, to'g'ri tushunilishi ta'minlanadi.

Umumiy o'rta talim maktablarining ba'zilarida fanlar bir biriga uzviy bog'lanmaganligi o'qtish tizmida chalkashliklarga olib keladi. Masalan geometriya darsidagi shakillarni ba'zi o'qtuvchilar qo'lda chizishadi chizsish asboblaridan, lelinka ishlatmasdan yoki chizib ko'rsatishmaydi, bu esa shakillarni o'quvchilar tassavur qila olmaydi. Toshkent viloyati Chirchiq shahrida joylashgan 30 ta maktabga borib, darslarni taxlil qildik. Shulardan 10 tasida geometriya darsida doskada chizma chizg'ich 12 tasida qo'lda va boshqalarida bironta shakil ko'rsatilmadi. Bu esa chizmachilik fanini boshlangich tushunchasi va tayanchi yaxshi emasligidan dalolat beradi. Maktabda chizmachilik fani faqat ikki yil o'tiladi, u esa dars soatlari kamligidan dalolat beradi.

Biz sizlarga Chizmachilik fanini boshqa fanlar va tabiat xodisalari bilan bog'liqligini ko'rsatishga harakat qilamiz.

Fanlar bo'yicha o'quv dasturlarining didaktik maqsadlarda o'zaro moslashtirilishiga fanlararo aloqalar deyiladi. Fanlararo aloqalarni hisobga olish – ta'lim jarayonining muvaffaqiyati uchun zaruriy shartlardan biridir. Fanlararo aloqalar talabalarga moddiy olam hodisalarini to'g'ri tushunishlariga ko'maklashadi. Bu o'zaro aloqalar ayniqsa chizmachilik, texnologiya, geometriya, tasviriy san'at va fizika kabi fanlarini o'qitishda juda zarur (1-jadval).

*1-jadval.*

<b>Chizmachilik fanini boshqa fanlar bilan bog'liqligi</b>	
<b>Chizmachilik va geometriya</b>	Bu ikki fan maktab kursida fazoviy dunyoning fazoviy formalarini va fazoviy munosabatlarini o'rganish bilan shug'ulanadi. Geometriya va chizmachilik o'qitishda bog'lanish yana shundan bilan shartlanadiki geometriya chizmachilik uchun nazariy asoslar beradi, chizmachilikni o'qitish jarayonida olingan yasash malakalari esa geometriya darslarida foydalaniladi.
<b>Chizmachilik va tasviriy san'at</b>	Bu fanlarning har biri o'z mazmuni, kurs tuzilish logikasi, o'z vazifasi talabi va metodlariga ega. Ammo muhim farqlarga qamasdan, bu fanlar ko'p umumiy masalalarga ega. Bularga quyidagilarni kiritish mumkin: <i>1) O'quvchilarini fazoviy iasavvurlari va fazoviy tushunchalarining shakllanishi va rivojlanishi;</i>

	<p>2) <i>Kuzatuvchanlik, diqqat obrazli eslash, ko'z chamani rivojlantirish;</i>                  3) <i>O'z fikrini konkret formada gavdalantirib ko'rsata bilish;</i>                  4) <i>Real predmetlarning tuzilishi va shaklini tahlil qilishga o'rganish;</i>                  5) <i>Predmetlarni grafik tasvirlashda bilim va malakalarga ega bo'lish.</i></p>
<b>Chizmachilik va fizika</b>	<p>Fizika va chizmachilik ikkita muhim fanlardir. Agar o'quvchilar fizika darslarida muhim mexanizm va mashinalarning, avtomatik protsesslar va hokazolarning ishlash prinsipi va tuzilishi bilan tanishsalar, chizmachilik darslarida esa ular chizmani, u bo'yicha detal yoki mexanizmi tayyorlash oson bo'ladigan qilib qanday bajarish maqsadga muvofiq bo'lishini biladilar.</p>
<b>Chizmachilik va kimyo</b>	<p>Agar fizika o'qitishda rasm, chizma, sxema va grafiklar muhim ahamiyatga ega bo'lsa va ko'pincha yangi materialni o'zlashtirishda o'quvchilarning faolligini oshirsa, ularning ximiya darslarida ham o'ynaydigan roli oz emas.</p> <p>Ma'lumki, kimyo tajribaga, kimyoviy xodisalarni bilishning muhim vositasi sifatida katta o'rin ajratiladi. Bu xodisalarni bilishning muhim vositasi sifatida katta o'rin ajratiladi. Bu xodisalarni o'rganishda esa ko'pincha jarayon borishining u yoki bu bosqichiga o'quvchilar diqqatini to'plash zarurligi paydo bo'ladi. Kimyo darslarida doskasida bajaraladigan grafik tasvirlarga katta ahamiyat beriladi.</p>
<b>Chizmachilik va geografiya</b>	<p>O'qituvchilarga geografiya darslarida turli grafik ishlarni bajarishga to'g'ri keladi. Bunday ishlarga fizika, geografiya tushunchalarni ochishda g'oyat muhim rol o'ynovchi sxematik rasmlar va chizmalar kiradi. Geografiyani va boshqa fanlar bo'yicha o'quv materialini o'zlashtirishda o'quvchilarning grafiklar va diagrammalar bilan qiladigan ishlari muhim ahamiyatga ega.</p>
<b>Chizmachilik va texnologiya</b>	<p>Chizmachilik va texnologiya fani o'qituvchilari o'rtasida bu darslar tematikasini bog'lovchi doimiy aloqa o'rnatilishi kerak. Texnologiya fanida chizmadan ustamonlik bilan foydalana bilish kabi muhim sifatlarni rivojlantirishga imkon beriladi.</p>
<b>Chizmachilik va informatika</b>	<p>Muhandislik kompyuter grafikasi chizma, fazoviy jism va jarayonlarni modellashtirishga xizmat qiladi.</p>

Chunki bu fanlarning birida olingan bilim, ko'nikma va malakalardan boshqa fanlarni o'rganishda ham foydalaniladi. Grafik tasvirlar maktabdagi ko'pchilik fanlar bo'yicha yangi bilimlarni o'quvchilar faol va ongli ravishda o'zlashtirishlarida eng asosiy vositalardan biri sanaladi. Ular bilimlarning sezgi asosini ta'minlaydi va o'quvchilarda bizni o'rab turgan olam va undagi narsalar haqida yaqqol, aniq va to'g'ri tasavvurlarni hosil qilish maqsadlarini ko'zda tutadi. Afsuski, o'quv jarayonida grafikani qo'llashning ilmiy asoslari hozirgacha yetarlicha yaxshi ishlab chiqilmagan, maktablardagi chizmachilikdan boshqa fanlarda grafik tasvirlarni bajarish bo'yicha talablar mavjud emas. Ushbu kamchilikni bartaraf qilish uchun umumta'lim maktablaridagi fanlarni o'rganishda grafik tasvirlarni bajarishga qo'yiladigan yagona grafik tizimlarni ishlab chiqish zarur.

Umumta'lim maktablarida ta'limni tashkil qilishning asosiy shakli deb dars tan olingan. Bunda hamma o'quvchilarni jamoa bo'lib ishlashlari bilan birga, individual

va kichik guruhdagi ishlari, shuningdek ta'limning boshqa shakllari - laboratoriya mashg'ulotlari, sayohatlar, amaliyot darslari, uy vazifalari o'z o'rnini va ahamiyatiga ega.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. E.Ro'ziyev, A.Ashirboyev. Muhandislik grafikasini o'qitish metodikasi. T. "Yangi asr avlodi" nashriyoti, 2010.
2. Xalimov Moxir Karimovich, Qo'ziyev Otabek Esonovich, Esonova Ozoda Otabek qizi. Maktab chizmachilik dars samaradorligini oshirishda o'quv doskasidan foydalanish metodikasi. Vol. 13 No. 4 (2023): ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ | Выпуск журнала № 13 | Часть-4, 64-68 betlar. <http://www.newjournal.org/index.php/01/issue/view/84>
3. Xalimov Moxir Karimovich, Mashrabboyev Hayotillo Numonjonovich. Increasing Activity By Students Creativity in Drawing Classes. Eurasian Scientific Herald, www.geniusjournals.org, Volume 7. Страницы: 153-159, <https://geniusjournals.org/index.php/esh/article/view/1086>
4. Xalimov Moxir Karimovich, Maxmudova Fotima Shamsiddinovna. Qiziqarli topshiriqlar orqali talabalarda chizma bajarishning dastlabki tushunchalarini shakllantirish. Образование и наука в XXI века Выпуск №18 (том 3) (сентябрь, 2021), 1347-1353.



## MODULLI-KOMPETENTLI YONDASHUV ASOSIDA TALABALARNING FAZOVIY TASAVVURINI RIVOJLANTIRISH (Muhandislik va kompyuter grafikasi fani misolida)

**M.K.Xalimov**

Nizomiy nomidagi TDPU dotsenti

### ANNOTATSIYA

Maqolada muhandislik va kompyuter grafikasi fanida modulli kompetentli yondashuv asosida talabalarning fazoviy tasavvurini rivojlantirish metodikasi yoritilgan.

**Kalit soʻzlar:** texnologiya, tasavvur, fazo, tafakkur, modul, kompetent, metod, nazariya, koʻnikma, malaka, test.

### АННОТАЦИЯ

В статье описана методика развития пространственного воображения учащихся на основе модульно-компетентностного подхода в компьютерная и инженерной графике.

**Ключевые слова:** технологии, воображение, пространство, размышление, модуль, компетент, метод, теория, умение, тест.

### ABSTRACT

The article describes the method of developing students' spatial imagination based on the modular competence approach in kompyuter and engineering graphics.

**Key words:** technology, imagination, space, thinking, modul, compotent, method, theory, skill, test.

Bugungi kunda dunyoning rivojlangan davlatlari oliy ta'lim muassasalarida talabalarning masofadan mustaqil ta'lim olish motivatsiyasini shakllantirish, fazoviy tasavvuri va grafik tafakkuri, ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning multimediali ta'lim texnologiyalari, virtual modellashtirish usullari joriy qilish bilan bogʻliq qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Ilm-fan har qanday davlatning buguni va kelajagini koʻp jihatdan hal qiladigan bebaho boylikdir. Bugungi kunda tadqiqotlar natijalarini ilmiy jihatdan tahlil qilmasdan va oʻzlashtirmasdan rivojlanishi mumkin boʻlgan iqtisodiyotning biror bir tarmogʻi, jamiyat hayotining biro sohasi yoʻq. Dunyoning aksariyat mamlakatlari moliyaviy-iqtisodiy inqirozni kechirayotgan bir paytda Oʻzbekistonda ishlab

chiqarishni ilg'or texnologiyalari asosida modernizatsiya qilish, ilmiy–texnika salohiyatidan samarali foydalanish, iqtisodiyotimizni rivojlantirishda innovatsiya yo'liga o'tish muhim strategik ahamiyat kasb etmoqda.

Xususan, talabalarning muhandislik va kompyuter grafikasi fanidan fazoviy tasavvurini oshirish jarayoni OTM texnologik ta'lim yo'nalishlari faoliyatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Shu bois mazkur ta'lim muassasalarida texnologik ta'lim yo'nalishi bo'yicha tahsil olayotgan talabalarda fazoviy tasavvurni rivojlantirishga xizmat qiladigan zarur pedagog shart-sharoitlarni yaratish maqsadga muvofiqdir.

Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlarida "modul – ta'lim va tarbiyaning muayyan maqsadi va natijasiga erishish bo'yicha o'zaro bog'langan hamda mantiqiy tugallikka ega bo'lgan o'quv fanlari va ularning tarkibiy qismlari" deb ta'riflangan.

Modulli kompetentli ta'lim talabaga taqdim etilgan maqsadli dastur, axborot banki, qo'yilgan didaktik maqsadlarga erishish uchun uslubiy ko'rsatmalarni qamrab olgan maxsus dasturga ega ta'lim bo'lib, ushbu ta'lim boshqa ta'lim turlaridan ta'lim mazmuni tugallangan, mustaqil modullar shaklida taqdim etilishi, o'qituvchining ta'lim oluvchi bilan muloqoti tubdan yangi asosda amalga oshirishi bilan farq qiladi.

Ta'lim oluvchi o'qituvchi bilan bo'ladigan har bir uchrashuvga shaxsiy bilim orttirish qobiliyatlarini hisobga olgan holda modul yordamida dastlabki tayyorgarlikni ma'lum darajaga etkazadi.

Muhandislik va kompyuter grafikasi fanini o'qitishda ta'lim metodlarini to'g'ri tanlash quyidagilar asosida amalga oshiriladi:

- ✓ *o'qitishning umumiy maqsadlari;*
- ✓ *alohida o'quv fanining o'ziga xos jihatlari va xususiyatlari;*
- ✓ *o'quv fanni o'qitishdan ko'zlangan maqsad, vazifalar hamda har bir alohida mashg'ulot uchun mo'ljallangan o'quv materialining mazmuni;*
- ✓ *o'quv materialini o'rganish uchun ajratilgan vaqt hajmi;*
- ✓ *talabalarning tayyorgarlik darajasi, psixologik va psixologik-fiziologik ko'rsatkichlari;*
- ✓ *o'qitish jarayonining o'quv, texnik va texnologik jihozlar (o'quv jihozlari, ko'rsatmali qurollar, texnik, kompyuter va boshqa moddiy vositalar) bilan ta'minlanganligi, pedagogning tayyorgarlik va shaxsiy sifatleri darajasi.*


Bunga ko'ra, ta'lim metodlarini to'g'ri tanlash, metodikani puxta shakllantirish quyidagi natijalarga erishishni kafolatlaydi: talabalarda muhandislik va kompyuter grafikasi fani asoslarini puxta o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish va motivasiyani hosil qilish, ularning o'quv-bilish faolligini oshirish, talabalarning mustaqil, tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatiga ega bo'lishini ta'minlash, talabalar tomonidan ushbu fan asoslarini o'qitish sifatini yaxshilash, muhandislik va kompyuter grafikasi grafikasi fanini o'qitishning samaradorligini oshirish.

Kuzatishlar shuni ko‘rasatadiki OTMlarda talabalarning fazoviy tasavvurini rivojlantirish metodikasini puxta shakllantirish e‘tiborga olindi. OTMlarda talabalarning fazoviy tasavvurini rivojlantirish jarayoni quyidagi metodika asosida tashkil etildi:

- ✓ *ishchi o‘quv dastur.*
- ✓ *modullar bo‘yicha o‘quv materiallari.*
- ✓ *talabalar bilimni nazorat qilish uchun test topshiriqlari.*
- ✓ *amaliy topshiriqlar.*
- ✓ *o‘quv keyslari.*
- ✓ *individual topshiriqlar.*
- ✓ *mustaqil ishlash grafik topshiriqlar.*
- ✓ *o‘quv-uslubiy tarqatma materiallar.*
- ✓ *glossariy.*
- ✓ *taqdimot.*
- ✓ *“CAD” dasturlari.*

Quyida ushbu metodikaning ayrimlari, jumladan, amaliy topshiriqlar (amaliy mashqlar) ning mohiyati yuzasidan so‘z yuritiladi:

OTMda o‘qitiladigan “Muhandislik va kompyuter grafikasi” fanining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri – bo‘lajak texnologik ta‘lim o‘qituvchilarda birinchi navbatda fazoviy tasavvurini, amaliy ko‘nikma, malakalarni rivojlantirish jarayonining amaliy topshiriqlarga asoslanishi sanaladi. Shu bois tadqiqotni olib borish davrida o‘quv modullari bo‘yicha amaliy xarakterdagi topshiriqlar to‘plamini shakllantirishga ham e‘tibor qaratiladi. Amaliy topshiriqlar ularning murakkablik darajasiga ko‘ra juftlik va kichik guruhlariga beriladi. Bu jarayonni amalga oshirishda talabalarning kompyuter grafikasi yo‘nalishidagi fanlar bo‘yicha fazoviy tasavvuri va ijodiy faolligini rivojlantirishning yangi vositalarini ishlab chiqish, bunda hozirgi kunda takomillashgan grafik dasturlarning imkoniyatlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. 1-chizmada muhandislik va kompyuter grafikasiga oid bo‘lgan oddiy detalning 2D modeli va 3D formatdagi modeli keltirilgan. Talabalar ushbu detalning 3D modelini qurishlarida 2D dan foydalanadilar. Ammo, uni bajarish jarayonida albatta murakkablik darajasiga e‘tibor berish zarur hisoblanadi. 1-chizmada keltirilgan detalning 3D o‘lchamli modelini detalning 2D o‘lchamli modeli asosida, detalning grafik dastur imkoniyatlaridan foydalanib, taglik va ustki qismini o‘stirish va taglik va ustki qismini birlashtirish va kerakli o‘lchamda 2D modelda berilgan shartlar asosida keraksiz qismlarini olib tashlash kabi uchta bosqichda amalga oshiriladi. Shu bilan, berilgan detalning 3D o‘lchamdagi modelini yaratishning asosiy qismi nihoyasiga etkaziladi. Bu talabani zerikishdan, aqliy faoliyatini zo‘riqishidan saqlaydi.



1-chizma. Oddiy detalning 2D va 3D formatdagi modeli.

Talabalar ushbu detalning yaqqol tasvirini ko'rgach, ularga biroz tushunarsiz bo'lgan chizmada nima tasvirlanganligi haqida tasavvurga ega bo'ladi va ijodiy faoliyat olib borishga intiladi.

Texnikada yaratilgan har bir buyum ma'lum turdagi detallarni birikmasidan iborat bo'ladi. Mavjud har bir detal ishlab chiqarishdan oldin bir necha bor eskizi chiziladi, hamda shu eskiz asosida ish chizmasi chizilib bevosita ishlab chiqarishga tadbir qilinadi. Ish chizmasi deganda ma'lum davlat standarti talablari asosida, chizma asboblari yordamida bajariladigan chizmaga aytiladi. Talabalarni chizma chizish jarayonini tashkil qilishdan oldin, chizmasi bajariladigan detalni ko'rinishlarini, bajaradigan vazifasini tahlil qilish muhim o'rin tutadi. Grafika fanlarida fazoviy tasavvurni boyitadigan ko'plab mavzularni uchratish mumkin, shulardan ba'zilari haqida fikr bildirmoqchimiz. Muhandislik va kompyuter grafikasi fanini o'qitish jarayonida modellashtirish, ya'ni model yasashga oid ba'zi metodik tavsiyalar berishda, mavzuni asosiy mohiyatiga xos bo'lgan berilgan ortogonal proeksiyalar asosida yaqqol tasvirini qurishdan iborat. Talaba yaqqol tasvirni qurish jarayonida ma'lum turdagi taffakur bosqichlarini bosib o'tadi. Mavjud yaqqol tasvir asosida uning modelini yasashga urinadi. Model yasash jarayonida inson fazoviy tasavvuridagi tushunchalarni bevosita ifoda qilishga erishadi, bu esa o'z navbatida mavjud muammoni bartaraf etishga undaydi.


Quyida ana shunday fazoviy tasavvurni boyitishga xos bo'lgan grafik topshiriqlarni ko'rib chiqamiz.

Ma'lumki grafik faoliyatning o'ziga xos xususiyati shundaki, chizmalarni o'qish soxasidagi bilimlarni hajmi texnikaga ta'luqli tizimlashtirilgan bilimlarni

uyg'unlashtirish bilan xarakterlanadi. Turmushda uchraydigan har bir buyum, texnika soxasida yaratilgan har bir detal bevosita grafik fanlar qatoriga kiruvchi chizmachilik va chizma geometriya fanlari bilan bog'liqdir. Har bir detal o'z o'zidan ishlab chiqarishga qo'yilmaydi. Detalni shu holatga kelgunga qadar bir necha bor uning eskizi chiziladi, eskiz asosida shu chizmasi bajariladi. Mavjud detallarga o'zgarish kiritish, yoki uning foydali ish ko'effitsentini oshirishda biror – bir yangilik kiritish uchun albatta detalning yaqqol tasviriga murojat qilinadi. Detalning yaqqol tasvirin chizishda talaba fazoviy tasavvuri rivojlangan bo'lishi kerak. Fazoviy tasavvur rivojlantirishda biz tanlagan mavzu bevosita yetakchi o'rinda turadi. Mavzuni mustahkam o'zlashtirish uchun talabalarga beriladigan topshiriqlar, ya'ni grafik ish bajarish jarayonida qo'llaniladigan chizmalar oldingi o'tilgan mavzularni o'zida aks ettirgan holda tuzilishi lozim. Talaba topshiriqni bajarish jarayonida mavjud masalani oldingisi bilan taqqoslaydi, undagi o'xshashlik jihatlarni yechilishi lozim bo'lgan masalada topishga harakat qiladi. Bu esa o'z navbatida talabani ijodiy fikrlashga undaydi, talaba o'z – o'zidan tafakkur operatsiyalarini bosib o'tadi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, muhandislik va kompyuter grafikasi fanini o'qitishda talabalarni fazoviy tasavvurini o'stirish, hamda ularni chizmalarni o'qishga o'rgatishda, berilgan ortogonal proeksiyalar bo'yicha model yasash mavzulari alohida kasb etadi. Sababi detal modelini yasash jarayonida detalni tashkil etgan sirtlarni yoyilmalari bajariladi. Yoyilma bajarish uchun esa talaba model tarkibiy qismlarini to'liq tahlil qilishga majbur bo'ladi.

Quyida simdan model yasash jarayonini nazariy yoritishga harakat qildik. Simdan model yasashni soddalashtirish hamda osonlashtirish maqsadida oldin kubni yaqqol tasvirini qurib olamiz (2- chizma).




2- chizma

Qurilgan yaqqol tasvirdagi kub yoqlari va qirralarida simdan yasalishi lozim bo'lgan modelning tomonlarini takrorlanmasligiga erishish lozim.

Yaqqol tasvirdagi kubni ichida hosil bo'lgan chizma bo'yicha simdan model yasashga kirishiladi (3, 4- chizma).


Bu shaklda talabaga lotin alfavitdagi harflardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Berilgan variantda frontal va gorizontaal proeksiyalar tekisliklarida lotin alifbosidagi harflar qo'yildi. Profil proeksiyalar tekisligidagi mavhum harf topiladi.



a)  
3- chizma



b)



a)  
4- chizma



b)

Yuqoridagi kabi topshiriqlar, birinchidan talabalarning fanga bo'lgan qiziqishini oshirsa, ikkinchidan ularning dars mashg'uloti davomida faolligini oshiradi, moddellashtirish asosida oddiy harflarni simdan yasash ularga qiziqarli va shu bilan birga ularning fazoviy tasavvurini rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. E.Ro'ziyev, A.Ashirboyev. Muhandislik grafikasini o'qitish metodikasi. -T. "Yangi asr avlodi" nashriyoti., 2010.
2. I.Rahmonov. Chizmalarni chizish va o'qish. -T. «O'qituvchi» nashriyoti., 1992.
3. Xalimov Moxir Karimovich, Qo'ziyev Otabek Esonovich, Esonova Ozoda Otabek qizi. Maktab chizmachilik dars samaradorligini oshirishda o'quv doskasidan foydalanish metodikasi. Vol. 13 No. 4 (2023): ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ | Выпуск журнала № 13 | Часть-4, 64-68 betlar. <http://www.newjournal.org/index.php/01/issue/view/84>
4. Xalimov Moxir Karimovich, Mashrabboyev Hayotillo Numonjonovich. Increasing Activity By Students Creativity in Drawing Classes. Eurasian Scientific Herald,

www.geniusjournals.org, Volume 7. Страницы: 153-159,  
<https://geniusjournals.org/index.php/esh/article/view/1086>

5. Xalimov Moxir Karimovich, Maxmudova Fotima Shamsiddinovna. Qiziqarli topshiriqlar orqali talabalarda chizma bajarishning dastlabki tushunchalarini shakllantirish. Образование и наука в XXI века Выпуск №18 (том 3) (сентябрь, 2021), 1347-1353.

6. Xalimov Moxir Karimovich. Chizma geometriya va muhandislik grafikasi fanida modulli kompetensiyaviy yondashuv asosida talabalarning fazoviy tasavvurini rivojlantirish. UNIVERSITY 4.0: DIGITAL TECHNOLOGIES AND MODERN TRENDS IN THE EDUCATIONAL PROGRESS. YANGI ASR UNIVERSITETI, 2023-yil 18-mart. 482-484 betlar

## UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA CHIZMACHILIK FANIDAN TO'GARAK MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISH METODIKASI

**K.G. Malikov**

Nizomiy nomidagi TDPU dotsenti v/b, PhD

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida chizmachilik fanidan to'garak mashg'ulotlarini tashkil etish metodikasi bo'yicha tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** to'garak, o'quvchi, o'qituvchi, ustoz, ekskursiya, suhbat, iqtidorli o'quvchilar, individual.

### АННОТАЦИЯ

В данной статье даны рекомендации по методике организации занятий черчением в общеобразовательных школах.

**Ключевые слова:** Кружок, ученик, учитель, наставник, экскурсия, беседа, одаренные ученики, личность.

### ABSTRACT

This article gives recommendations on the methodology for organizing drawing classes in secondary schools.

**Keywords:** Circle, student, teacher, mentor, excursion, conversation, gifted students, personality.

Ma'lumki jamiyat rivojlanishining har bir bosqichida ta'lim mazmuni muayyan maqsad va vazifalarga ega bo'ladi. Ta'lim mazmuni davr talabi, nazariy bilim va ishlab chiqarish taraqqiyoti darajasiga mos ravishda o'zgarib turadi. Ta'lim mazmuni ijtimoiy hodisa sifatida maydonga keladi va u o'zining boshlang'ich davrida amaliy ahamiyat kasb etgan, ya'ni insonlarning hayotiy ehtiyojlari uchun zarur hisoblangan bilimga bo'lgan talabini qondirgan.

Mamlakatimizda texnologik ta'lim samaradorligini oshirish bo'yicha keng qamrovli ishlar olib borilib, ta'lim mazmunini loyihalash, kasbiy grafik kompetensiyalarni tuzilmalarga ajratish, o'qitishning yangi metodik modellarini yaratish va ularni ta'lim amaliyotida qo'llashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ta'lim mazmunini modernizatsiyalash sharoitida bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilaridan kasbiy grafik bilim, ko'nikma va malakalarni egallash va ularni texnologik ta'lim



jarayonida qo'llash talab etiladi. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "Uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish" ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Bunda bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy grafik kompetentlikni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish hamda kasbiy grafik faoliyatning reproduktiv, produktiv va kreativ darajalarini puxta egallashlari uchun barcha didaktik imkoniyatlarni ta'minlash dolzarb ahamiyat kasb etadi<sup>1</sup>.

Umumta'lim maktablarida o'quvchilarga ta'lim berishning zamonaviy innovatsion usullarini joriy etish O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotikeyingi 10 yil ichida dunyoning taraqqiy etgan industrial-texnologik lokomotivlari qatoriga kirishi, ya'ni 2030- yilga kelib iqtisodiyotning sanoat va texnologik tarmoqlari bo'yicha jahonda yetakchi davlatlardan biriga aylanishiga zamin yaratishda muhim shartlardan biridir. Bu esa sanoatning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiyalash va raqobatdoshlikni kuchaytirish, sohaga ilg'or texnologiyalarni joriy etish, yuqori texnologiyali zavodlar, texnoparklar, ishlab chiqarish korxonalari tashkil etish, zamonaviy muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmalarini barpo etishga yanada keng imkoniyatlar yaratadi.

Xalqimizda "Ta'lim va tarbiya – beshikdan boshlanadi", degan hikmatli so'z bor. Faqat ma'rifat insonni kamolga, jamiyatni taraqqiyotga yetaklaydi. Shu sababli mamlakatimizda ta'lim sohasidagi davlat siyosati uzluksiz ta'lim tizimi prinsipiga asoslangan, bola tug'ilganidan boshlab, 30 yoshgacha davrda uni har tomonlama qo'llab-quvvatlaydigan, hayotda munosib o'rin topishi uchun ko'mak beradigan, yaxlit va uzluksiz tizim yaratishga e'tibor qaratilmoqda.

Rivojlangan mamlakatlarda ta'limning to'liq sikliga investitsiya kiritishga, ya'ni, bola 3 yoshdan 22 yoshgacha bo'lgan davrda uning tarbiyasiga sarmoya sarflashga katta ahamiyat beriladi. Chunki ana shu sarmoya jamiyatga 15-17 barobar miqdorda foyda keltiradi. Bizda esa bu ko'rsatkich atigi 4 barobarni tashkil etadi. Binobarin, inson kapitaliga e'tiborni kuchaytirishimiz, buning uchun barcha imkoniyatlarni safarbar etishimiz shart.<sup>2</sup>

Bugungi kunda umumta'lim maktablarida ta'lim olayotgan o'quvchilarda sanoati rivojlangan mamlakatda ta'lim olishi, yashashi va ishlashi uchun zarur ko'nikmalarni shakllantirish dolzarb masalaga aylandi.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida chizmachilik fanini o'qitishning nazariy tizimlarini, asosiy tamoyillarini, dolzarb masalalarini, uning yechimlarini, maqsad va

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сонли "Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида"ги Фармони.// Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами. –Т.: 2017. –Б.39.

<sup>2</sup> Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. –Т., 2022 yil, "O'zbekiston" nashriyoti. 211- bet.

vazifalarini hamda ta'lim muassasalarida mazkur fanni o'qitishning asosiy yo'nalishlarini belgilab beradi, jumladan:

- umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitilayotgan chizmachilik fanini o'qitishda uning ta'lim tizimida uzviylik va uzluksizlikni ta'minlash;

- umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash;

- o'quvchilarda mehnatsevarlik, tejamkorlik, tashabbuskorlik va tadbirkorlik sifatlarini tarkib toptirish;

- o'quvchilarda mustaqil, ijodiy va innovatsion fikrlashni shakllantirish, o'z-o'zini rivojlantirish qobiliyatlarini tarkib toptirish bo'yicha birqancha masalalarni o'z ichiga olgan holda umumiy o'rta ta'lim muassasalarida chizmachilik fanida to'garaklarni tashkil qilishda, to'garak nizomini to'g'ri ishlab chiqish orqali iqtidorli o'quvchilarni aniqlash, iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashni tashkil qilish orqali fan olimpiada turli tanlovlarda ishtirok etish bo'yicha nizomlarni ishlab chiqishdan iboratdir.

Xalq ta'limi Vazirligining **2011 yil 4 iyuldagi** "Maktablarda tashkil etiladigan to'garaklar o'quv dasturlarini tasdiqlash to'g'risida"gi **143-sonli** buyrug'iga asosan to'garaklar fan o'qituvchilari tomonidan **1 stavka ish yuklamasi uchun haftasiga 2 soat** (1 soat "Past o'zlashtiruvchi o'quvchilar" uchun, 1 soat "Iqtidorli o'quvchilar" uchun) o'tilishi belgilab qo'yilgan. Shuningdek, Xalq ta'limi vazirining **2017 yil 1 dekabdagi** "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya natijadorligini ta'minlashda xalq ta'limi boshqaruv idoralari va ta'lim muassasalari rahbarlari mas'uliyatini oshirish to'g'risida"gi **367-sonli** buyrug'ining 7 bandida ham barcha fan o'qituvchilari tomonidan (pedagogik yuklamasiga muvofiq o'quvchilar bilan individual ishlash hisobidan) **haftasiga 2 marotaba 2 soatdan** fan to'garaklari o'tilishi lozimligi ko'rsatib o'tilgan.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida xar bir fanning to'garaklari mavjud bo'lib, chizmachilik fanidan ham to'garak mashg'ulotlari tashkil etilgan va shu tariqa xar bir fanning o'z tuzilmasi bo'lib faning hayoti tadbig'lari asosida nizomini ishlab chiqish, chizmachilik to'garagida nizomiga quydagilarni keltirish mumkin, hamma fanlar kabi **umumiy qoidalar**, chizmachilik to'garagining **asosiy maqsad va** vazifalari, to'garaga a'zolik **va** to'garak a'zolarining huquq **va** burchlari, tashkil etish va rahbarlik qilish va natijali asosida bo'lish kabi ishlarni o'z ichiga olish kerak.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida chizmachilik fanida to'garakning maqsadi dars mashg'ulotlarda o'quvchilarni ta'lim yo'nalish va mutaxassisligi bo'yicha o'rgatish, dizayn tamoyillarini o'z loyihalarida to'g'ri qo'llay bilishi hamada o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini unumli va mazmunli o'tkazishlariga, kasbiy faoliyatga yo'llashga, aqliy hamda ijtimoiy foydali mehnat bilan mashg'ul bo'lishlariga o'z mehnatlari

samarasidan bahramand bo'lishlariga imkoniyat yaratadi. Shu bilan birga Chizmachilik fanining to'garagining asosiy vazifasi o'quvchilarning darsdan tashqari vaqtlarini to'g'ri tashkil qilish, o'quvchilarni kasbiy fanlarini o'rganishga qiziqishlarni oshirishdan iborat.

Bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablarda chizmachilik fani to'garalarida nizom asosida 20 tadan ortiq o'quvchi faoliyat yuritadi, (agar o'quvchi soni 30 nafardan oshsa u holda 2 guruhga bo'lib boshqa bir kun yoki shu kuni boshqa soat belgilanadi) ular o'zlarining ilmiy mahoratini ilmiy izlanishlar orqali yanada shakllantirib boradi. Ba'zi bir fan o'qituvchilari to'garak mashg'ulotlarni darsdan tashqari mashg'ulotlar bilan aralashtirib yuboradilar, darsdan tashqari qilinadigan ishlar dars reja asosida, ya'ni maktab darsligi asosida darsga qaratilgan bo'lib, bunda sinfdagi barcha o'quvchilar bevosita ishtirok etadilar.<sup>1</sup>

To'garak mashg'ulotlardan asosiy maqsadi, maktabdagi fani reja va darslikdan tashqari o'quvchilarga qo'shimcha bilim, ko'nikma va malakalar berish, ularning fanga bo'lgan qiziqishlarini orttirish, olingan bilimlarni hayotga tadbiiq qila bilishga yordam berishdan iborat. To'garak uyushtiriladigan ishlarda ko'riladigan masalalardan yana biri o'quvchilarning ilmiy dunyo qarashlarini shakllantirish bo'lsa, ikkinchi tomondan kasb tanlashga yo'llashdan iboratdir.

Chizmachilik fanlaridan tashkil qilinadigan to'garak mashg'ulotlari o'quvchilarning fan asoslarini o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini orttirishi, qo'shimcha adabiyotlar, fanga oid internet ma'lumotlaridan foydalana olish ko'nikmasini o'stirishi, mustaqil bilim olish ko'nikmasini va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishi, o'quvchilarni ilmiy ijodiy ishlar bilan yaqindan tanishtirishi, kuzatish va tajribalar o'tkazishga o'rgatishi, mustaqil ravishda turli xil modellarni lohalashi hamda maketlarni yasay olishiga undaydi.<sup>2</sup>

Hozirgi zamon ilmiy-texnika taraqqiyoti davrida xar bir yoshning sanoat korxonalarida va qishloq xo'jalik ishlab chiqarishida faol, ijodiy ishtirok etishi uchun fan va texnika yuzasidan mukammal bilimga ega bo'lishi talab qilinmoqda. Chunki har bir yosh o'zi egallagan kasblarning mohir ustasi bo'lmog'i shu kun talabidir.

Ta'lim sohasida yuqori kasbiy mahoratga ega bo'lgan pedagog ham dars jarayonida o'quvchilarni fan sohalarida erishilgan hamma yutuqlaridan xabardor qilish imkoniyatiga ega emas. Hozirgi rivojlanish davrida fan-texnika ko'pgina tarmoqlari hamda ma'lumotlarining hajmi juda kengayib ketdi. Shuning uchun o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlari orqali to'garak mashg'uloti jarayonlarida qiziqishini oshirish

---

<sup>1</sup> O'zbekiston milliy entsiklopediyasining. 1-12. -T.: (O'zbekiston milliy entsiklopediyasi), davlat nashriyoti 2000-2006.

<sup>2</sup> Murodov Sh.K. Urishyev A., Tashimov N.E.. Qiziqarli geometrik yasashlar haqida//Jayhun. 2010-yil, 2-son.


bevosita rivojlantirish bilan birga, ularning yoshini hisobga olgan holda mustaqil ravishda qo‘shimcha adabiyotlar, metodik tavsiya, ko‘rgazma, ekskursiya, fan yetakchi olimlari bilan uchrashuvlar o‘tkazish hamda turli tanlovlarga tavsiya etishi lozim. To‘garak rahbari to‘garak jarayonida o‘quvchilarga chizmachilik fani o‘rgatish emas balki kasbiy yo‘nalishlar bilan bog‘lagan holda umumiy yo‘nalishlar ham berib boradi. To‘garak ishlarini tashkil etishda o‘qituvchi o‘quvchi sharoitini hisobga olish muhimdir. Masalan, qishloq maktablarida qishloq xo‘jaligi texnikalariga va texnikaviy yo‘nalishdagi kasb-hunar maktablari, umumta‘lim maktablari sharoitini hisobga olib tashkil etilgan to‘garak mashg‘ulotlarining tashkil etilishi ijobiy natijalar beradi. Bunda o‘quvchilarda kuzatuvchanlik, olingan natijalarni taqqoslash va tahlil qilish, xulosalar chiqarish, amaliy ko‘nikma va malakalar hosil qilish xususiyatlari shakllana boradi.

**To‘garaklarni olib borishda chizmachilik to‘garagi oldiga qo‘yiladigan talablar va bilish kerak bo‘lgan hamda to‘garak har bir a‘zosi** konstruksiyalash borasida nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar, fazoviy jismlarning geometrik tasavvuridan uning planimetrik tasviri (tekis chizmasi)ga o‘tish va fazoviy jism elementlarining o‘zaro munosabatlarini uning planimetrik tasviridan qayta fazoviy holatiga ko‘chirib o‘tish qonuniyatlarini tadqiq qilish, model, detal va buyumlarning ishchi chizmalarini tuzish va o‘qish qonuniyatlari mazmun va mohiyatini chuqur idrok etishi kerak. Shuningdek, fan mavzularini **bilishi**, grafika fanlari tarixi va rivojlanishi jarayonlariga uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyoqarashini shakllantirish, kelajakda o‘zlarining texnik fikrlarini chizma orqali namoyon qilish, tasvirlangan har qanday buyum, yoki obyektlarning chizmasi bo‘yicha ishlash jarayoni va konstruktiv tuzilishini tushunib olish va tasavvur qila olishga o‘rgatish vazifalarini bajarishga oid nazariy bilim va **ko‘nikmalariga ega bo‘lishi**, o‘quvchilar konstruksiyalash, loyihalash elementlari haqida umumiy tushuncha oladi hamda amaliyotda tadbiq qilishda individual va jamoaviy yondoshuv asosida **malakalariga ega bo‘lishadi**.

To‘garak ishlarda faqat bilim berishga berilib ketmasdan, ishning tarbiyaviy tomoniga jiddiy e‘tibor berish lozimki, bu hol hozirgi sharoitda ayniqsa muhim. Shuningdek, o‘quvchilarimiz mamlakatimiz davlat ramzlari, tinchligi, osoyishtaligi, haqidagi bilimlarga ham ega bo‘lishi lozim.

To‘garak mushg‘ulotlarida yoshlar turli-tuman kasb-hunarga oid amaliy ishlarni bajarishadi. Masalan, ko‘rgazmalar tayyorlashi mumkin.

To'garak olib boriladigan mashg'ulotlar asosan 4 turga bo'linadi 1-jadval:  
1-jadval



1. Ayrim o'quvchilar bilan yakka tartibda olib boriladigan mashg'ulotlar.
2. O'quvchilar guruhi bilan olib boriladigan mashg'ulotlar.
3. O'quvchilar bilan jamoviy tartibda olib boriladigan mashg'ulotlar.
4. Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashni tashkil qilish.

Ayrim o'quvchilar bilan yakka tartibda olib boriladigan to'garak mashg'ulotlarda zamaonaviy innovatsion texnologiyalar qo'llashi, kreativlik faoliyatini rivojlantirish maqsadida ko'rgazmali plakat, modellar yasash, kuzatish va tajribalar o'tkazish kabi tadbirlar amalga oshiriladi.

O'quvchilar guruhi bilan olib boriladigan to'garak ishlarda to'garak mashg'ulotlari, plakatlar, ekskursiyalar uyushtirish, model, maketlar kabi ishlarni amalga oshirish mumkin.

Ommaviy mashg'ulotlarga sinf o'quvchilari qatnashishlari mumkin. Bunday mashg'ulotlarda «Chizmachilik kuni» kabi kechalar, olimpiada, tanlovlar, fan soxa vakillari bilan uchrashuvlar o'tkazish, ekskursiya materiallariga asoslangan ko'rgazmalar tashkil etish kabi bir qancha o'quvchilar zexnini o'stirish kabi grafik

topshiriqlar berish m, aqsadga muvofiqdir.

Demak, umumiy o'rta-ta'lim maktablarida tashkil etiladigan to'garak ishlarini yuqorida bayon etilgan shaklda olib borishda ishning mazmuniga qarab turli usullardan foydalaniladi. Vaholanki, bajariladigan ishning mazmuni, shakli va qo'llaniladigan metodlari bir-biri bilan bog'liq bo'lib, ta'lim-tarbiya ishlarining bir butun holda olib borishini ta'minlaydi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. E.Ro'ziyev, A.Ashirboyev. Muhandislik grafikasini o'qitish metodikasi. -T. "Yangi asr avlodi" nashriyoti., 2010.
2. I.Rahmonov. Chizmalarni chizish va o'qish. -T. «O'qituvchi» nashriyoti., 1992.
3. Xalimov Moxir Karimovich, Qo'ziyev Otabek Esonovich, Esonova Ozoda Otabek qizi. Maktab chizmachilik dars samaradorligini oshirishda o'quv doskasidan foydalanish metodikasi. Vol. 13 No. 4 (2023): ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ | Выпуск журнала № 13 | Часть-4, 64-68 betlar. <http://www.newjournal.org/index.php/01/issue/view/84>
4. Xalimov Moxir Karimovich, Mashrabboyev Hayotillo Numonjonovich. Increasing Activity By Students Creativity in Drawing Classes. Eurasian Scientific Herald, www.geniusjournals.org, Volume 7. Страницы: 153-159, <https://geniusjournals.org/index.php/esh/article/view/1086>
5. Xalimov Moxir Karimovich, Maxmudova Fotima Shamsiddinovna. Qiziqarli topshiriqlar orqali talabalarda chizma bajarishning dastlabki tushunchalarini shakllantirish. Образование и наука в XXI века Выпуск №18 (том 3) (сентябрь, 2021), 1347-1353.
6. Xalimov Moxir Karimovich. Chizma geometriya va muhandislik grafikasi fanida modulli kompetensiyaviy yondashuv asosida talabalarining fazoviy tasavvurini rivojlantirish. UNIVERSITY 4.0: DIGITAL TECHNOLOGIES AND MODERN TRENDS IN THE EDUCATIONAL PROGRESS. YANGI ASR UNIVERSITETI, 2023-yil 18-mart. 482-484 betlar.
7. Kozim Gafurovich Malikov. THEORY AND PRACTICE OF CONSTRUCTION OF AXONOMETRIC PROJECTS. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. Vol. 8 No. 9, 2020 ISSN 2056-5852.
8. Kozim Gafurovich Malikov. Axonometry New Practical raphical ethods For Determining System Parameters. Psychology and Education Journal, 2021, 58, 2, 5710-5718

## JAVLON JOVLIYEV HIKOYALARIDA AYOL OBRAZI

**Islomov Shohijahon Shuhratjon o'g'li**

E-mail: [shoxjaxonislomov@gmail.com](mailto:shoxjaxonislomov@gmail.com)

**Boboqulov Oybek Abdiquodirovich**

E-mail: [www.bobokulovoybek999@gmail.com](mailto:www.bobokulovoybek999@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Bu maqolada istiqlol yozuvchisi Javlon Jovliyevning tarixiy faktlarga asoslangan hikoyalarida ayol obrazining o'ziga xos jihatlari yoritilib, boshqa adiblar asaridagi obrazlarga taqqoslagan holda adib mahorati haqida asosli xulosalar berildi.

**Kalit so'zlar:** obraz, zamonayiv adabiyot, tasvirlash, qiyoslash.

San'atning obraz vositasida fikrlashi uning spetsifik, ya'ni, tur sifatida belgilovchi xususiyatidir. San'atkor badiiy obraz vositasida dunyoni angelaydi, o'zi anglagan mohiyatni va o'zining anglanayotgan narsaga hissiy munosabatini ifodalaydi. Shu ma'noda obraz adabiyot va san'atning fikrlash shakli, usuli sanaladi; obrazlar vositasida fikrlagani uchun ham adabiyot va san'atga xos fikrlash tarzi "*obrazli tafakkur*" deb yuritiladi. Obrazli tafakkur bilan tushunchalar vositasidagi tafakkur tarzining farqi nimada? Bunday farqni yorqinroq tasavvur etish uchun fan va badiiy adabiyotni qiyoslab ko'rish mumkin. Misol uchun, bir xil masala yuzasidan fikr yuritayotgan olim va shoirni olib ko'raylik. A. Oripovning "*Ayol*" she'ri hammangizga tanish, unda ikkinchi jahon urushida eridan yosh beva qolgan, umrini farzandiga bag'ishlagani holda sadoqat bilan yashagan ayol haqida so'z boradi. Shoir ko'z oldimizda konkret ayolni, uning foje taqdirini gavalantirish orqali umuman urush haqida, uning oqibatlari haqida, og'ir damlarda sinaluvchi insoniy hislar haqida mushohada yuritadi. Xo'p, xuddi shu she'rdagi masala xususida, masalan, tarixchi olim qanday fikr yuritadi: "Ikkinchi jahon urushi janggohlariga..., yosh yigitlar ham to'la safarbar etildi. Urush harakatlarida sho'ro hukumati insonni tejash yo'lidan bormadi, janggohlarda ko'plab jangchilar halok bo'ldi. Buning natijasida urushdan so'ng jamiyatda erkak va ayollar nisbatida nomutanosiblik yuzaga keldi, demografik vaziyat tanglashdi. Ko'plab ayollar yolg'iz umrguzaronlik qilishga mahkum bo'ldi. Jamiyatda "yolg'iz ayol" toifasi yuzaga keldi". Ko'rib turganimizdek, olim shoirdan tamomila farqli yo'ldan boradi, uni umumlashtirilgan faktlarga qiziqtiradi. Olim konkret inson taqdiri haqida emas, undan o'zini chetlashtirgan (abstraktlashgan) holda umumlashmalar, tushunchalar asosida fikr yuritadi. Ma'lum bo'ldiki, mohiyat e'tibori

bilan shoir va olimni o'ylantirayotgan muammo bitta. Biroq, shoir bitta konkret ayol taqdirini badiiy tasvirlash (obrazini yaratish) orqali umumlashmaga boradi, baski, obraz uning uchun fikrlash shakli, usuli bo'lib qoladi. Ya'ni, olim ko'plab faktlarni (konkret hodisalar, insonlar v.h.) o'rganib, ularning umumiy xususiyatlari asosida ilmiy xulosalar, umumlashmalar chiqarsa, san'atkor konkret faktni individual tasvirlash orqali umumlashmaga intiladi.<sup>1</sup>

Adabiyotshunosligda badiiy asar tahliliga doir muammolarni psixoanalitik jihatdan o'rganish va uni anglash zarurati gumanitar sohalarda jiddiy masalalarni kun tartibiga qo'yimoqda. Ayniqsa, filologiya sohasida g'oyaviy pishiq, mazmunan mukammal, sifat jihatidan o'ta yangi ilmiy izlanishlar olib borish uchun imkoniyatlar yaratilmoqda. Ayol psixologiyasini tahliliy o'rganish insonning ma'naviy olami, dunyoqarashi, tafakkur tarziga xos qonuniyatlarni kashf etishda muhim. Adabiy jarayon doim ijtimoiy muhit, adabiy-ma'naviy, madaniy hayot bilan chambarchas bog'liq holda shakllanadi. Zero, bashariyatning ongu tafakkuri, ruhiyatidagi yangilanishlar, asosan, adabiyot va san'atda o'z aksini topadi. Bunda adabiyotshunoslik fani ham o'z obyektiga yangi nigoh bilan qarash, ayol ruhiyatiga oid muammolarni chuqurroq anglash yo'lidan bordi. Badiiy adabiyotda ayolning ruhiy dramalarini to'laqonli aks ettirishda jahon nasrining ilg'or ijodiy tendensiyalariga xos jihatlar namoyon bo'lmoqda. Adabiy jarayonda ayolning ijtimoiy hayotda tutgan o'rni, uning sohir tuyg'ulari, murakkab ruhiy olamini tasvirlashda falsafiy-psixologik, ramziy majoziy obrazlilik ustunlik qilmoqda. Bunda eng muhim vazifa muayyan xilqat ruhiyati, tasvir va ifodaning yangicha talqini bilan bog'liq.<sup>2</sup>

O'zbek adabiyotida ayollar obraziga murojaat qilish, ularning turfa qiyofalarini yaratish XX asrning dastlabki yillarida yaratilgan nasriy asarlarimizda ko'rina boshladi. Kumushbibi, Zaynab ("O'tkan kunlar"), Zebi ("Kecha va kunduz"), Unsin ("Daxshat"), Gulnor ("Qutlug' qon"), Saida ("Sinchalak") va boshqa asarlarni keltirishimiz mumkin. Garchand, bu asarlarning barchasida ayollar obrazi yetakchi qahramon darajasiga chiqmagan bo'lsa-da, asardan ko'zlangan maqsadni u yoki bu darajada ochish uchun xizmat qilgan. Zamonaviy o'zbek adabiyotida Xurshid Do'stmuhammad, Erkin A'zam, Nazar Eshonqul, Isajon Sulton, Ulug'bek Hamdam, Qo'chqor Norqobil, Luqmon Bo'rixon, Zulfiya Qurolboy qizi kabi adiblarimiz ijodida erkaklar bilan teng ijtimoiy hayotimizda faoliyat yuritayotgan, yoki shu hayotning qaysi bir jihatida o'z o'rniga ega ayollar obrazlari muhim o'rin egallaydi.<sup>3</sup>

Bugungi kun ijodkori adabiyotga yangicha ruh, betakror mazmun, o'ziga xos izlanishlar bilan kirib kelishi bevosita ularning mavjud adabiy-estetik an'analarga

<sup>1</sup> Dilmurod Quronov. Adabiyotshunoslikka kirish. Toshkent. 2004

<sup>2</sup> Y.Eshmatova. Istiqloq davri o'zbek qissachiligida ayol ruhiyatining badiiy talqini. PhD., Dissertatsiya. B-4

<sup>3</sup> G.Sattorova. "90-yillar o'zbek hikoyachiligi milliy xarakter muammosi". T-2002.



mumtoz va G'arb ohanglarini qorishtira olganligi bilan xarakterlanadi. Milliy adabiyotimizda yangicha uslub va obrazli ifodalarning paydo bo'lishi, individual ijodiy kashfiyotlarning ortishi zamonaviy adabiyotning qamrovini kengaytirish barobarida, uni izchil o'rganish, tahlil va tadqiq qilish masalasida muayyan ilmiy ishlar olib borishga ehtiyoj tug'dirmoqda. Shunday ekan, "Adabiyot xalqning yuragi, elning ma'naviyatini ko'rsatadi. Bugungi murakkab zamonda odamlar qalbiga yo'l topish, ularni ezgu maqsadlarga ilhomlantirishda adabiyotning ta'sirchan kuchidan foydalanish kerak", degan fikr o'zbek adabiyoti oldiga maqsadli ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish majburiyatini yuklaydi. Badiiy ijoddagi mavjud roman va ijodkor uslubi haqidagi ilmiy-nazariy qarashlardan kelib chiqqan holda ushbu adabiy jarayonga munosabat bildirish, umumiy xulosalar chiqarish Iqbol Mirzo, Jamila Ergasheva, Tilavoldi Jurayevlarning o'ziga xos badiiy olamini kashf etish, romanchilikda ayol qalbi manzaralarining ruhiy-psixologik omillarini aniqlash maqolaning dolzarbligi va zaruratini belgilaydi. Har qanday mamlakatning iqtisodiy qudrati og'ir sanoatining qanchalik rivojlanganiga qarab belgilanganidek, har qanday milliy adabiyotning insoniyat estetik tafakkuriga qo'shgan hissasi ham undagi romanchilikning salmog'i bilan tayin etiladi. Chunki roman millat badiiy tafakkurining taraqqiyot darajasini namoyon etadi. Romanning bugunini tushunish va istiqbolini bashorat qilish uchun bu janrning nima uchun, qachon va qayerda paydo bo'lganini aniqlash hamda unga xos yetakchi belgilarni tayin etish lozim bo'ladi. Ilk romanlar milodning XII-XIII asrlarida roman tillarida so'zlashuvchi xalqlar orasida yuzaga kelgan. "Roman tillari" tushunchasi "Rim (Roma)ga tegishli" degan ma'noni anglatib, lotin tili asosida shakllangan ispan, italyan, moldova, portugal, rumin, flamand, fransuz va boshqa tillarni o'z tarkibiga oladi. Ilk romanlar paydo bo'lgan davrda Ovropodagi deyarli barcha davlatlar uchun lotin tili rasmiy va badiiy til sanalardi. Aholining asosiy qismi esa lotin tilini bilmas, binobarin, adabiyotdan bebahra edi. Ana shunday sharoitda, aholining ruhoniylar va aslzodalardan keyingi uchinchi va son jihatidan eng katta qatlami bo'lmish ish odamlari, kosib-hunarmandlarga tushunarli bo'lgan tildagi, ularning didiga muvofiq keladigan asarlarga ehtiyoj paydo bo'ldi. Roman ana shu ehtiyoj natijasi o'laroq yuzaga keldi. Ilk paydo bo'lgan chog'ida roman tillarining birida yaratilgan asar roman sanalib, "roman tilidagi qissa yoki hikoya" ma'nosida "conte roman" deyilgan. Romanning aynan o'sha vaqt, o'sha joy va shu shaklda paydo bo'lishiga sabab nima? Ma'lumki, antik davrdan qolgan an'anaga ko'ra barcha badiiy asarlar "yuksak poeziya" shaklida bo'lib, ularga ma'budlar, koinlar, saltanat egalari, kam deganda, aslzodalar qahramon qilib olinardi. Uchinchi qatlam, ya'ni, mehnat kishilari uchun bu asarlarning tili tushunarsizligidan tashqari, qahramonlari ham mutlaqo begona edi. Holbuki, bu

davrga kelib uchinchi qatlam ham son jihatidan, ham iqtisodiy mavqeiga ko'ra katta kuchga ega edi. Agar insoniyat tarixining shu davriga qadar badiiy asarlar ne'matlarga egalik qiluvchi va taqsimlovchilarning didlariga muvofiq yaratilgan bo'lsa, XII asrdan e'tiboran ishlab chiqaruvchilarning didlariga mos asarlar ham yaratiladigan bo'ldi. Mehnat bilan kun ko'radigan oddiy odamlarning estetik ehtiyoji natijasi o'laroq paydo bo'lgan romanlarda aks ettirilgan voqealar, ularda tasvirlangan obrazlar va bu asarlarning ifoda yo'sini ham o'qirmanlarning intellektual darajasiga muvofiq bo'lishi tabiiy edi.

Shuning uchun ham Gegel romanni nimkinoya bilan "*burjuaziyaning epopeyasi*" deb ataydi. Roman uchinchi qatlamga mansub kishilar didiga muvofiq dunyoga kelgan va oldin shakllangan "*yuksak poeziya*" namunalaridan keskin farq qiladigan janr bo'lgani uchun juda uzoq vaqt davomida adabiyot nazariyotchilarining e'tiboridan chetda qolib keldi. Deyarli yetti yuz yil mobaynida romanga xos belgilar ilmiy jihatdan tadqiq qilinmadi. Bu boradagi ilk nazariy qarashlar romanchilarning o'zlari tomonidan bildirildi. Faqat XIX asrga kelib, Gegel roman nazariyasiga qo'l urdi. Aynan nazariy qolipning yo'qligi romanning xilma-xil sinkretik va qirg'oqsiz janr bo'lishiga olib keldi. Nazariy cheklovlarning kamligi sababli roman yetakchi adabiy janrga aylandi. Roman tarixiga qilingan qisqa ekskursiya uning janr sifatidagi belgilarini to'g'ri aniqlash imkonini beradi. Ibtidoda insonning individual xususiyatlari, ruhiyat jilvalari tasviriga e'tibor qaratilgani bois, Belinskiy romanni "*individning eposi*" deb atagan. Ko'rinadiki, roman alohida shaxslarning ichki dunyosini badiiy idrok etish va izohlash yo'sini sifatida yuzaga kelgan.<sup>1</sup>

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab barcha sohalar kabi o'zbek adabiyoti taraqqiyotida ham sezilarli darajada tub o'zgarishlar yuz berdi. Bu, ayniqsa, nasrda yaqqol namoyon bo'ldi. Shakl va mazmunning o'ziga xosligi, ijodkor uslubining yangicha talqini paydo bo'ldiki, bunda, abatta, jahon adabiyotiga xos ilg'or ijodiy an'analarning ham ta'siri bor. Nasrga xos bunday yangilanishlarning aksariyati tezkor va ixcham hikoya janrida o'z aksini topdi. Aslida, nasrning qaysi janri bo'lmasin, undagi asosiy obraz - inson obrazidir. "Adabiy asar chinakam asar namunasi bo'lishi uchun, realizmga mansub bo'ladimi, romantizm uslubida yozilgan bo'ladimi, yoki qandaydir boshqa modernistik uslubga amal qiladimi, baribir uning markazida inson turmog'i kerak, kitobxon insonning taqdiri, tabiati, hayoti haqida muayyan axborot olish bilan birga bu asardan estetik zavq ham ola bilsin". Shu bois ham, zamonaviy adabiyotda insonni har tomonlama o'rganish va kashf etish doimiy dolzarbligini yo'qotmaydi. Adabiyot faqat uslubiy, shakliy va talqinlarni emas,

<sup>1</sup> International Conference on Research in Humanities, Applied Sciences and Education Hosted from Berlin, Germany <https://conferencea.org> June 30th 2022

balki, badiiy asarlarda yaratilayotgan qahramon obrazlarining xilma-xilligi bilan ham boy va go‘zaldir. Hayot uchun kurashuvchan, ezgulikka intiladigan, sabrqanoat va aql-idrokka ega obrazlarni tasvirlash badiiy adabiyotning tarbiyaviy-estetik vazifasi hisoblanadi.<sup>1</sup>

Adib “Ayol” hikoyasida qishloqda yo‘qchilikda qiynalgan ayol obrazi yoritib bergan bo‘lsa, “Ikki qalb uchrashuvi” nomli hikoyada esa asli qishloqlik lekin zamonaga ham nafas o‘z yurtidagi qiyinchilik va yo‘qchiliklarga ilmsizlikni ayblaydigan ilmi qizni tasvirlagan. “Men o‘zbek qiziman. Zamonaviy qizman. Lekin uyatsiz emasman.... Men sizday odamlar bilan shaharda yashashdan, dunyo bo‘ylab sayohat qilishdan ko‘ra, qishloqning oddiy maktablarida sovuqotib bo‘lsa-da xayrat-la ustoziga termilib turgan beg‘ubor, pokiza bolakaylarga bilim berishni afzal ko‘raman. Shunga o‘zimni kerakli his qilaman, shunda olayotgan nafasimga achinmayman”. Qishloqdan chiqqan ilmi va o‘zining qishlog‘idagi bolalar uchun borini berishga tayyor turgan talaba qiz haqida shunday gap yuritilgan. Xurshid Do‘stmuhammadning “Mahzuna” nomli hikoyasidagi Mahzuna obrazi yozuvchi tomonidan nihoyatda sinchkovlik bilan tasvirlanadi. O‘zbek ayollariga xos bo‘lgan ibo-hayo, yuksak tarbiya unda mujassamlashgan. Erining ra‘yini qaytarolmay ziyofatga borishga rozi bo‘lganida, uning beozorligi va bironing ko‘ngliga hech ham ozor berishni o‘ylamaydigan inson ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Ziyofat paytida o‘zga erkakning unga termulishi ko‘nglini g‘ashlaydi, uyiga kelganidan keyin ham o‘zidan jirkanadi. Mana shu o‘rinlarda uning ibo-hayosi namoyon bo‘lgan. Ziyofat ishtirokchilari orasida o‘zini tamomila begona sezadi. Bemalol qadah ko‘tarayotgan, erkaklar bilan tengmateng askiya aytayotgan ayollarni ko‘rib hayo olovida lov-lov yonadi. Bunday davralarda o‘tiraverib, eti o‘lib ketgan “Maqsadjon akasi ikki-uch, “Oling, yeb o‘tiring” deb uni dasturxonga undadi. Mahzuna battar tortinib-qimtinib “sekinroq gapiring” degandek eriga yer ostidan xumraydi”, deb tasvirlaydi muallif bu holatni. Mahzuna bu davraga begona bo‘lishi bilan birga, so‘layotgan gullar orasida yangi ochilgan gulday yashnab turar, o‘zining yoshligi, go‘zalligi, tortinchoqligi bilan hammaning ehtiborini tortar edi. Ushbu holat erkak va ayollar teng huquqda bo‘lgan bunday davralarda ishtirok etib yuruvchi yevropacha tarbiya ko‘rgan ayollar uchun normal holat bo‘lib tuyulishi mumkin edi. Hatto, yevropacha axloqqa ko‘ra bu holat ayolning g‘alabasi, boshqalardan ko‘ra ustunligi sifatida baholanadi. Yozuvchi “Mahzuna” hikoyasi orqali go‘zal fazilatlarining ayollarda mujassam bo‘lishi kerakligini asardagi chizgilarda ifodalagan. “Mahzuna tushunmadi, qiynalib ketdi, xo‘rliги kelib yig‘lab yuboray dedi”,- deb tasvirlanadi uning holati. Eng yomoni ochiqoydin pok nomusini toptashga intilayotgan mansabdor - Bo‘ri Sobitovichning

<sup>1</sup> <https://doi.org/10.5281/zenodo.7337394>

harakatlariga davrada o'tirgan yosh-u qari, hatto turmush o'rtog'i tomonidan xayrixohlik bildiriladi. Bu davra barcha axloq normalarini, milliy or-nomusni birgina manfaat deb atalmish jozibali narsaga almashib o'rgangan, Mahzunani ham o'zining jirkanch maqsadi yo'lida qurbon qilishdan toymas edi. Ziyofat so'nggida Bo'ri Sobitovich yevropalik janoblardak barcha ayollarning qo'lini o'pib xayrlashadi. Ayollar bundan hatto faxrlanishar, o'xshovsiz hiringlashar, bu esa Mahzunani battar dahshatga solar edi. Ushbu hikoyada Mahzuna go'yoki maxluqlar orasidagi mahzun gul sifatida aks ettiriladi.<sup>1</sup>

Xulosa qilib shuni ayta olamizki, mustaqillik yillarida yaratilgan aksariyat hikoya, va romanlarda ayollarning rus-tuzem davrlarida boshdan kechirgan qiyinchiliklari yoritilgan. Istiqlol yozuvchisi Javlon Jovliyev ham ayol obrazi yaratishda kichik detallarni birlashtirib umumlashma obraz yarata olgan.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. Dilmurod Quronov. Adabiyotshunoslikka kirish. Toshkent.: 2004
2. Y.Eshmatova. Istiqlol davri o'zbek qissachiligida ayol ruhiyatining badiiy talqini. PhD,. Dissertatsiya. B– 4
3. G.Sattorova. “90-yillar o'zbek hikoyachiligi milliy xarakter muammosi”. T-2002.
4. Ubaydullayeva Jamila, Ko'charova Dildora Erkin A'zamning poetik mahorati. Ilmiy risola. Termiz – 2022. – 72b.
5. International Conference on Research in Humanities, Applied Sciences and Education Hosted from Berlin, Germany June 30th 2022

#### **INTERNET SAYTLARI:**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7337394>

<https://conferencea.org>

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6857692>

[www.ziyo.uz](http://www.ziyo.uz)

[www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com)

[www.wikipidiya.org](http://www.wikipidiya.org)

[www.taqvim.uz](http://www.taqvim.uz)

[www.m-eng.ru](http://www.m-eng.ru)

---

<sup>1</sup> <https://doi.org/10.5281/zenodo.6857692>

## ИСАЖОН СУЛТОННИНГ “ГЕНЕТИК” РОМАНИДА МЕТАФОРЛАРНИНГ ҚЎЛЛАНИЛИШИ

**Рузиева Нигора**

Иқтисодиёт ва педагогика университети НТМ ўқитувчиси

E-mail: [nigora.ruziyeva.88@inbox.ru](mailto:nigora.ruziyeva.88@inbox.ru)

### АННОТАЦИЯ

Мақолада хассос ёзувчи Исажон Султоннинг “Генетик” романи матнида қўлланилган метафораларнинг ифода хусусиятлари ва маъно қирралари таҳлилга тортилган. Шунингдек, ёзувчининг ўзига хос ифода имкониятлари ва маҳоратини кўрсатиб турувчи жиҳатлар илмий текшириб кўрилган. Бадиий матнларда, айниқса, катта эпик жанрдаги асарларда метафорадан унумли фойдаоанишнинг прагматик имкониятлари лисоний тадқиқ этилган.

**Калит сўзлар:** генетик, бадиий матн, дискурс, метафорик маъно, роман, эпик асарлар, маъно қирралари, услубий имконият, прагматик таҳлил, лингвистик тадқиқ, коннататив маъно, диалог

## ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МЕТАФОР В РОМАНЕ ИСАДЖАН СУЛТАН "ГЕНЕТИК"

**Рузиева Нигора**

Университет Экономики И Педагогике Является Негосударственным

Образовательным Учреждением. Преподавательница

E-mail: [nigora.ruziyeva.88@inbox.ru](mailto:nigora.ruziyeva.88@inbox.ru)

### АННОТАЦИЯ

в статье анализируются выразительные особенности и грани значения метафор, используемых в тексте романа "Генетик" хассосского писателя Исаджана Султана. Также было проведено научное исследование аспектов, демонстрирующих уникальные выразительные возможности и мастерство писателя. В художественных текстах, особенно в произведениях великого эпического жанра, практические возможности метафор изучаются лирически.

**Ключевые слова:** генетика, художественный текст, дискурс, метафорическое значение, роман, эпические произведения, грани смысла, методологическая возможность, прагматический анализ, лингвистическое исследование, ассоциативное значение, диалог

## THE USE OF METAPHORS IN ISAJAN SULTAN'S NOVEL "THE GENETICIST"

**Ruzieva Nigora,**

University of Economics and Pedagogy is a non-state educational institution

E-mail: [nigora.ruziyeva.88@inbox.ru](mailto:nigora.ruziyeva.88@inbox.ru)

### ABSTRACT

The article analyzes the expressive features and facets of the meaning of metaphors used in the text of the novel "Geneticist" by the Hassos writer Isadjan Sultan. There was also a scientific study of aspects demonstrating the unique expressive capabilities and skill of the writer. In literary texts, especially in works of the great epic genre, the practical possibilities of metaphors are studied lyrically.

**Keywords:** genetics, literary text, discourse, metaphorical meaning, novel, epic works, facets of meaning, methodological possibility, pragmatic analysis, linguistic research, associative meaning, dialogue

### КИРИШ

Насрий асарларда метафоралардан фойдаланиш ва уларнинг ифода имкониятлари ўзбек ва жаҳон тилшунослигида атрофлича ўрганилган, муҳимлиги боис ўрганиш жараёни давом этмоқда. Бу борада Н.Д.Арутюнованинг “классик метафора – анализ соҳасидаги синтез истилоҳи, умумий “мамлакат” “синф” оламда яккаланган ақл соҳасидаги тасаввур ғояси зонасига нисбатан бир қараш (образ) дир[1] деган фикрини келтириш ўринлидир.

Метафора муҳим рол ўйнайдиган оламнинг ўзбек тили манзарасига доир лингвистик тадқиқотларининг замонавий тенденциялари билан белгиланади. Масалан, рус тилшунослигида Ф.И.Тютчев шеърятининг руҳий фаолият маҳсули сифатидаги ўзига хослиги унинг поэтик тилидаги асосий концептуал метафораларни аниқлаш ва ҳар томонлама таҳлил қилиш натижасида энг аниқ намоён бўлади. Бундай таҳлил шоирнинг ифода услубини тасвирлашда муҳим рол ўйнайдиган Ф.И.Тютчевнинг шеърӣ тил шахси тузилишининг билим даражасини аниқлашга имкон беради. Ф.И.Тютчев шеърятда метафорик тасвирининг чуқурлиги ўзига хос жиҳат ҳисобланади. Ф.И.Тютчев, аввало, табиат ва инсон ўртасидаги муносабатлар ҳақидаги фалсафӣ ва мифопоэтик қарашларининг амалга оширилишини белгилайди[9]. XX асрнинг 60-йилларида генератив семантиканинг ривожланиши метафоранинг когнитив функцияси,

коммуникатив, ҳиссий, волюнтатив (таъсир кўрсатиш функцияси), поэтик ва бошқа қатор хусусиятларини ўрганишда муҳим аҳамият касб этди (Ж. Катц, П.Постал, Ж.Лакофф[2]). Биринчидан, метафоранинг турли таърифларини таҳлил қилиш ва иккинчидан, қадимги файласуфларнинг асарларидан бошланиб, замонавий лингвистик луғатлар билан тугайдиган метафорани тадқиқ этиш тарихини баён қилишдир.

Зотан, қадимги юнон риторикасида метафора тил ва нутқнинг объектив хусусияти бўлиб, метафора ҳодисасининг ўзи инсон томонидан дунёни эмпирик тушуниш маҳсулидир, деб таъкидлаган эди. Метафора – бу тилда мавжуд бўлган сўз ёки иборани аввалги маънонинг бир қисмини бериш учун тушунилган объектга мурожаат қилиш учун ишлатишдир.

XVIII аср рус фани метафоранинг анъанавий таърифини беради (ўхшашлик асосида маъно кўчиши). М.В.Ломоносов нафақат метафора таснифини, балки бу тропни нутқда ишлатиш қоидаларини ҳам ишлаб чиқди[6]. Рус тилшунослигида метафора системали равишда фақат XX асрдагина ўрганила бошланди. А.А.Потебня метафора назариясини чуқурлаштирди: метафора, синтактик ва семантик таснифнинг шаклланиши ва ишлаш механизмларини ишлаб чиқди. XIX асрнинг охирида Н.М.Крушевский метафоранинг ассоциатив табиати ҳақида ёзиб, уни психологик ҳодисаларга қаратди.

XX аср – метафора таълимотининг ривожланган даври бўлди. Олимларнинг қарашлари мазкур лисоний ҳодисанинг эстетик салоҳиятини ўрганишдан унинг когнитив ва прагматик вазифаларига ўтади. А.Ричард, М.Блэк, С.Пеппер ва Е.Кормак каби тадқиқотчилар метафора шаклланиши механизмини психоллингвистика нуқтаи назаридан таърифлайдилар ва асосий метафораларни аниқлайдилар[7].

XX аср рус тилшунослигида метафорани ўрганиш унинг бадиий тилдаги семантик салоҳиятини ўрганишга қаратилади. В.В.Виноградов, Г.О.Винокур асарларида поэтик нутқда фаолият кўрсатмайдиган бундай лингвистик ҳодиса мавжуд эмаслиги ҳақида фикр юритилади. Олимлар метафоризация турли семантик соҳаларнинг кесишувига асосланган семантик трансформациялар жараёнидир, деган хулосага келадилар[8].

XX нинг иккинчи ярми – XXI аср бошлари – метафоризация механизмлари ҳақида когнитив ва концептуал гипотезаларнинг фаол тузилиши даври бўлди.

Ушбу даврнинг ички метафорологиясида Н.Д.Арутюнова тадқиқотлари ажралиб туради. Унинг фикрига кўра, тил антропоморфикдир ва шунинг учун инсон тил ҳодисаларини таҳлил қилишда мос ёзувлар нуқтасига айланади. Н.Д.Арутюнова[1] метафораларнинг батафсил функционал таснифини беради, бундай тил бирликларининг “қатъийлик” даражасига эътибор қаратади.

Г.Н.Скляревская[3], асосан, метафоризация жараёнида иштирок этадиган бир қатор семантик майдонларни аниқлайди, уларнинг учтаси инсон билан боғлиқдир.

Шундай қилиб, метафорология тараққиётининг ҳозирги босқичида лингвистик тадқиқот маркази шахс, унинг тили, менталитети ва психологияси эканлигини кўрамыз.

Метафора вазифасини бажарадиган энг қизиқарли контекстлардан бири шеърдир. Поэтик тилнинг ўзига хослиги шундаки, у тил бирликларининг семантик салоҳиятини энг аниқ очиб беради, шунинг учун дунёнинг поэтик манзараси мантиқан бир-биридан фарқ қилади. Бу ерда метафора дунёни тушуниш ва қайта тиклаш учун восита бўлиб хизмат қилади.

Г.Насруллаева ўз тадқиқотларида шеъринг матнлардани метафорик маъноларни таҳлил қилади. Унинг таъкидлашича, контекстларда баҳор элементи инсонга ноаниқ, аммо бутун дунёга тушунарли бўлган нутққа эга. Шоирнинг бир образга доимий мурожаат қилиши унинг яратувчиси учун унда аҳамиятли нарса борлигини кўрсатади. Шоир шеърининг таҳлил қилганда шу маълум бўладики, у тоғ образига жуда кўп марта мурожаат қилади. Аслида унинг шеърларида метафорик маънога эга, яъни кўчма маънолар ифодалайди, деб таъкидлайди [4].

Олим шоир шеърининг таҳлилдаги тоғ – шоирнинг юксалиб кетган руҳи, изтиробу қувончлари. Шунинг учун бўлса керак, шоирнинг илк шеърларидан то сўнггисигача тоғлар у билан яшашини таъкидлайди.

Метафорани матнга киритишнинг тескари усули турли метафоралар бир хил предметни турли контекстларда ифодалаб, маънолар полифониясини ҳосил қилишидадир. — бундан ташқари, сезиларли ифодали заряд олиб боради, ўқувчининг бу образ ҳақидаги чуқур тажрибасини аниқлайди.

Насрий асарларда ҳам такрорланмас метафорик маънолар кўзга ташланади, айниқса, Исажон Султон романларида. Унинг “Генетик” романида ҳам манашундай ҳолатларнинг гувоҳи бўлиш мумкин:

*Ўша йили рўза кузга тўғри келган эди. Осмон тўла қуш, чирқиллай-чирқиллай қайларгадир учиб кетишарди. Ҳар бирининг кўчишининг маълум вақти борми? Қалдирғочлар, кўкқаргалар, турналар, ўрдаклар, гозлар, лайлаклар кўчганига гувоҳ бўлганман. Баланд тераклару симёғочларга саватдай ин қурадиган бу қуш гоҳо тумшугида илон кўтариб учганини ҳам кўрганман. Гўё одамлар эшитмайдиган бир ҳукми илоҳий келиб, бари ёппасига жуда олисларга равона бўлишарди.*

*Ёки:*

*Нимасини айтай, Дашти Қипчоқдан келган у қизгина то улғайгунимга қадар хаёлимни асир этди. Баҳор келганида гул-гунчалар очилади. Уларнинг ҳар*



*бири ёмғирлару шамоллар аро – юзи иссиқда пўрсиллаган, кулиб қараши билан ёдимда қолган ўша қизнинг сиймосига айланади. Атлас кўйлаги олов ёлқинида товлангани ҳам эсимда. Кўллари дағал, меҳнатда ёрилган, қоп-қора сочи қалин эди. Вақт ўтгани сайин малоҳати ортиб боравергани-чи? Ҳар ҳолда, бироз улгайганимдан сўнг, уни яхши кўриб қолган бўлсам керак, деган тўхтамга келдим. Ўз фикримдан ўзимнинг орим келди, йигит исмимга мос тутум эмасди бу. Қишлоқда бировни севиб қолган киши мазахга қолиши бор гап. Биров бировга кўнгил кўйиши жуда ўзига хос, маҳрам мавзу ҳисобланади. Лекин менинг ақлу хаёлимни Дашти Қипчоқ қизи кўп йиллар банд этиб юрди. Ўша, қайрағоч шохлари орасидан оққан асал билан унинг сиймоси бирлашиб кетди. Қизарган юзи, нимагадир мовий тусда **порлаган офтоб, иссиқда ранги ўзгарган осмон**, кишиларни эритиб юборадигандай туюладиган ёз ҳовурлари аро балқиб тураверди. Мовий деганимнинг сабаби – қуёшга тикка қараб турсангиз, бироздан сўнг теграсида қизил аланга ловуллаб турган мовий оловга айланиб қолади. Оний у манзара хаёлимга ўша мовийлиги билан кўчиб ўрнашганига ҳайронман.*

Ёзувчи севиб қолган ошиқ тасвирини шоирдан ҳам юксакроқ тасвирлашда бевосита метафоралардан фойдаланганига гувоҳ бўлиш мумкин:

*Қишининг қаҳратонларида қалбимни иситганини айтмасам ҳам бўлар. У маҳал ишқ-муҳаббатни англайдиган ёшда эмас эдим. Лекин уни ўйласам, қалбим ҳароратга тўларди. Совуқ уйга ўтин опкириб ёққач, кечқурун ҳамма бир дастурхон атрофига тизилиб таомлангач, уйқуга ётганимда ҳам ўшани ўйлайверардим.*

*Юрагимга кириб келган у номаълум туйғуларни Тангрим не учун бино қилди? Нега уни инсонликнинг энг олий, энг юксак туйғуси ўлароқ танлади? Лекин, бир томондан, муҳаббатимни ор деб ҳисоблар, гуноҳдай туюлган ўша туйғу ичимда борлигидан тортинар, биров билиб қолишини ўйласам, юзим хижолатдан **лов-лов ёнар**, худди менга бениҳоя ишонган отаю онам қошида кечириб бўлмайдиган ножўя бир иш қилиб қўйгандай, ичимда улар билмайдиган ёмонликни олиб юргандай эдим.*

Метафорик билиш икки йўналишда бориши мумкин: умумий тил ва “лирик” (яъни метафоранинг поэтик матнларда когнитив вазифада ишлатилиши). Умумий тил йўли объектив характерга эга бўлган инсон томонидан эмпирик тарзда олинган билимлар асосида дунёни тушунишни ўз ичига олади. Бу ҳолда метафора тажрибанинг бир сегментидан бошқасига қўлланма бўлиб хизмат қилади, у билишнинг бевосита воситаси эмас, балки мавжуд барча маълумотларни боғлайди. Бундай фикрлаш натижасида инсон ҳақиқий дунёни англайди. “Лирик” йўналишнинг қалбида воқеликни эмас, балки шоирнинг ўзи

яратган ўзига хос оламини билишдир. Бу ерда метафора билиш вазифасини энг тўлиқ амалга оширади, чунки у поэтик воқелик объектларини яратиш воситаси ҳисобланади. Бу кенг йўлдир, чунки шоир битта объектнинг фазилатларини тўпламайди, балки янгиларини яратади.

Исажон Султон метафоризациясининг ўзига хослиги шундаки, у эпик матнда “умумий тил” интенсив билиш усулини қўллайди. Тор доирадаги мавзулар икки оламга мансублиги билан фарқланувчи асосий иккиланган категорияларга қаратилган: дунёвий ва самовий. Метафора бу ҳолатда чизикли бўлади. Тасодифий тасвир бошқа метафоралардан олинган хусусиятлар билан ривожлана бошлайди. Бу хусусиятни битта метафора эволюциясини таҳлил қилиш орқали кўрсатиш мумкин.

“Пахта mavsumi tugaganida qishloq **yengil nafas oladi.** Poyonsiz dalalar jigarrang-qo‘ng‘ir tusga kirgan, kuz yomg‘irlari bir xilda yog‘ib, pilchillagan loyga aylantirgan. Shiyonlar huvillagan, bo‘m-bo‘sh. Ochiq eshiklaridan shamol kirib o‘ynaydi.

Ayvondagi radio buni o‘zicha sharhlaydi: Buncha ham yomg‘ir yog‘odir biz g‘aribning tomiga, Kimni ham rahmi kelur bechoralarning holiga...

Kech kuz shu tariqa **yoyilib-yastanadi.** Xalq kech kuzda to‘ylar qiladi. Sababi, qo‘li pul ko‘radi. O‘sha sababli jonini jabborga berib ter to‘kadi. Vola-chaqasini ham ayamay, burnini yerga ishqab-ishqab ishlatadi” кабилар метафораларнинг ёрқин намуналаридир.

Хулоса ўрнида шуни айтиш мумкинки, тил воситалари нутқий вазиятларда ўзининг имкониятини тўла намоён қила олади. Бадиий матнлар прагматик аспектда ўрганилганда муаллифлар метафоралардан нақадар самарали фойдаланилгани маълум бўлади, таҳлил учун танлаб олинган насрий матнлар таҳлили лил ва унинг бирликлари аввало, ижтимоий ҳодиса сифатида прагматик тадқиқ этилиши лозим. Бироқ кейинги йилларда олиб борилган аксарият тадқиқотлар когнитив-прагматик ёки стилистик аҳамият касб этади. Антропоморфик метафоралар ўзбек тили ва адабиётини янги бадиий тасвирий воситалар билан бойитгани аниқланди.

Тилшуносликда насрий матнлар таҳлили орқали лисоний бирликларнинг грамматик, стилистик, лингвопоэтик, психолингвистик, когнитив-прагматик тадқиқ этилиши ниҳоятда муҳим аҳамиятга эга, бироқ тил бирликлари, жумладан, метафоралар прагматик таҳлил қилинса, лисоний воситаларнинг ижтимоий ҳолати, аҳамияти, лисоний қиймати янада аниқлашади.

## Фойдаланилган адабиётлар рўйхати: (REFERENCES)

1. Арутюнова Н. Д. Метафора и дискурс. Теория метафоры. - М., 1990. - с. 5-32.
2. Лакофф Дж., Джонсон М. Метафоры, которыми мы живем. В сб.: Язык и моделирование социального взаимодействия. – М.: Прогресс, 1987.
3. Складеревская Г.Н. метафора в системе языка – СПб.:Наука, 1993 – 151 с.
4. Насруллаева Г. Антропоморфик метафоранинг социолингвистик хусусиятлари ва лексикографик тадқиқи масалалари. Фил. фан.д-ри илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. – Фарғона. 2022. 58 б
5. <https://www.prlib.ru/item/693690>

## BIR O'LCHOVLI STEFAN MASALASI

**Jo'rayeva D.Sh**

National University of Uzbekistan, Tashkent

E-mail: [dildorajurayeva2021@gmail.com](mailto:dildorajurayeva2021@gmail.com)

**Yarmetova D.I**

National University of Uzbekistan, Tashkent

E-mail: [saidovadilafuz1996@mail.ru](mailto:saidovadilafuz1996@mail.ru)

### ABSTRACT

Now we will construct the simplest form of mathematical model describing phase transitions. The classic Stefan problem is a solidification and melting problem, such as the transition between ice and water. To obtain a solution to the classical Stefan problem, the heat equation must be solved. As mentioned above, it is needed to obtain a unique solution. It is called the variable "Stefan condition" and given below.

**Keywords:** soil, phase, freezing temperature, thermal conductivity.

### 1. INTRODUCTION


O'zgaruvchan noma'lum interfeys  $x = s(t)$  sifatida belgilanadi, bu erda  $x$  - fazodagi pozitsiya;  $s(t)$  - erkin chegara va  $t$  - vaqt. [1]

Stefan shartini olish uchun biz ba'zi taxminlar qilishimiz kerak. O'tishlar sodir bo'lganda, kichik hajmdagi o'zgarishlar bo'ladi, garchi bu erda biz soddalik uchun bu xususiyatni e'tiborsiz qoldiramiz. Fizik sabablarga ko'ra harorat fazalar orasidagi

$x = s(t)$  interfeysida uzluksiz bo'lishi kerak:

$$\lim_{x \rightarrow s(t)^+} u_S(x, t) = \lim_{x \rightarrow s(t)^-} u_L(x, t) = u_m \quad \text{barcha } t \text{ uchun} \quad (1)$$

Ikki faza o'rtasidagi o'zgarishlar harorati doimiy qiymatga ega deb hisoblanadi,  $u_m$ . Boshlang'ich vaqtda  $t = t_0$   $x = s(t_0)$  da ajratilgan ikki xil fazaga ega  $\Omega$  ni ko'rib chiqamiz, buni 1-rasmda ko'rish mumkin. Biz tekislik simmetriyasini u haroratni faqat  $t$  va  $x$  ga bog'liq deb qabul qilamiz.



Rasm 1

$\Omega$   $x = s(t)$  2 ta fazaga ajratilgan  $\Omega_1 = \Omega \cap \{x < s(t)\}$  va  $\Omega_2 = \Omega \cap \{x > s(t)\}$ .

Interfeysning o'ngga, ya'ni qattiq erigan paytda holatini faraz qilaylik. Shunday qilib, biz suyuqlik fazasida  $u \geq u_m$  va qattiq fazada  $u \leq u_m$  bo'lishini kutishimiz kerak.

$t = t_0$  vaqtida interfeysning bir qismini ko'rib chiqing,  $S$  maydoni bo'lgan  $A$  disk shaklida soddaligi uchun. Keyinchalik  $t_1 > t_0$  vaqtida interfeysning o'rni  $s(t_1) > s(t_0)$  ga o'zgardi.

Ayni paytda hajmi  $S \times (s(t_1) - s(t_0))$  bo'lgan silindr erib ketgan va shuning uchun  $Q$  issiqlik miqdorini chiqaradi:

$$Q = S(s(t_1) - s(t_0)) * \rho l \tag{2}$$

Bu yerda  $l$  - o'ziga xos yashirin issiqlik va  $\rho$  - zichlik.

Issiqlik oqimi

$$\phi_L = -K_L Du_L \tag{3}$$

$$\phi_S = -K_S Du_S \tag{4}$$

Bu erda  $K_i$ -  $i = L$  va qattiq  $i = S$  bo'lgan suyuqlik uchun materialning o'tkazuvchanligi va biz  $u \in C^1$  deb qabul qilamiz.

Energiyani tejash orqali (2) tenglamada so'rilgan umumiy issiqlik (5) ga teng deb taxmin qilish tabiiydir,

$$Q = \int_{t_0}^{t_1} \int_A [\phi_L * \hat{x} + \phi_S * (-\hat{x})] dAd\tau = \int_{t_0}^{t_1} \int_A [K_L Du_L(s(\tau), \tau) * \hat{x} - K_S Du_S(s(\tau), \tau) * (-\hat{x})] dAd\tau, \tag{5}$$

bunda  $\hat{x}$   $x$ - yo'nalishidagi birlik vektoridir.

Fazoviy koordinatalar bo'yicha (5) ifodani integrallash

$$Q = A \int_{t_0}^{t_1} [-K_L \frac{\partial u_L}{\partial x}(s(\tau), \tau) + K_S \frac{\partial u_S}{\partial x}(s(\tau), \tau)] d\tau$$

(1.2.6)

buni (2) ifodaga teng deb hisoblaymiz.

(2) va (6) tenglamani tenglashtirib, (7) olamiz.

$$(s(t_1) - s(t_0)) * \rho l = \int_{t_0}^{t_1} [-K_L \frac{\partial u_L}{\partial x}(s(\tau), \tau) + K_S \frac{\partial u_S}{\partial x}(s(\tau), \tau)] d\tau \quad (7)$$

,  $t_1 \rightarrow t_0$  chegarasini oling:

$$l\rho \lim_{t_1 \rightarrow t_0} \frac{s(t_1) - s(t_0)}{t_1 - t_0} = \lim_{t_1 \rightarrow t_0} \frac{1}{t_1 - t_0} \int_{t_0}^{t_1} [-K_L \frac{\partial u_L}{\partial x}(s(\tau), \tau) + K_S \frac{\partial u_S}{\partial x}(s(\tau), \tau)] d\tau \quad (8)$$

### 1 Teorema (Oraliq qiymat teoremasi).

$f : [a, b] \rightarrow \mathbb{R}$  va  $f \in C$  bo'lsin, u holda  $f$   $f(a)$  va  $f(b)$  oxirgi nuqtalari orasidagi barcha qiymatlarga erishadi.

Isbot. Masalan tomonidan berilgan [2]

### 2 Teorema (Integrallar Uchun O'rtacha Qiymat Teoremasi).

Agar  $f : [a, b] \rightarrow \mathbb{R}$  va  $f \in C [a, b]$  da bo'lsa, u holda  $c \in [a, b]$  soni mavjuddir

$$\int_a^b f(x) dx = (b - a) f(c). \quad (9)$$

Isbot.

1.2.2 teoremadan kelib chiqadiki, uzluksiz  $f(x)$  funksiya  $a$  ga ega  $[a, b]$  oraliqda minimal qiymat  $m$  va maksimal qiymat  $M$ . Integrallarning monotonligi va  $m \leq f(x) \leq M$  dan kelib chiqadiki,

$$mI = \int_a^b m dx \leq \int_a^b f(x) dx \leq \int_a^b M dx = MI \quad (10)$$

bunda

$$I = \int_a^b dx = b - a \quad (11)$$

(11) tenglamadan foydalanilganda va (10) tenglamada  $I$  ga bo'linganda ( $I > 0$  bo'lsa) (12) hosil bo'ladi.

$$m \leq \frac{1}{b - a} \int_a^b f(x) dx \leq M \quad (12)$$

Ekstremal qiymat teoremasidan bilamizki,  $m$  va  $M$  ga ham integral kamida bir marta erishiladi. Shuning uchun Oraliq qiymat teoremasi  $f$  funksiyasi  $[m, M]$  dagi barcha qiymatlarga ega ekanligini aytadi, aniqroq u  $c \in [a, b]$  mavjud.

$$f(c) = \frac{1}{b - a} \int_a^b f(x) dx \quad (13)$$

2 teorema yordamida biz (8) tenglamani

$$l\rho s'(t_1) = \lim_{t_1 \rightarrow t_0} \frac{1}{t_1 - t_0} * (t_1 - t_0) f(c) \quad (14)$$

shaklida yozishimiz mumkin, bunda biz yangi funktsiyani (soddalik uchun) (15) kiritdik.  $c \in [t_0, t_1]$ .

$$f(c) = -K_L u_x(s(c), c) + K_S u_x(s(c), c) \quad (15)$$

. Lekin  $t_0 \rightarrow t_1$  va  $f$  uzluksiz ( $u \in C$ ) bo'lgani uchun

$$l\rho s'(t_1) = f(t_1)$$

(16)

ga teng bo'ladi.

Shu bilan birga, xuddi shu protsedura  $t_1$  o'rniga istalgan vaqtda bajarilishi mumkin bo'lganligi sababli, biz (17) ni yozishimiz mumkin va shuning uchun  $f$  uchun ifoda bilan biz (18) ga erishamiz, bu Stefan sharti deb ataladi va erkin chegaradagi chegara shartidir. [3].

$$l\rho s'(t) = f(t) \quad (17)$$

$$l\rho \frac{ds}{dt} = K_L u_x(s(t), t) - K_S u_x(s(t), t) \quad (18)$$

Bir o'lchovli bir fazali muammoni yarim cheksiz qattiq jism sifatida ko'rsatish mumkin, masalan, qotib qolish harorati  $u = 0$  bo'lgan  $0 \leq x < \infty$  ni egallagan yupqa muz bloki. Qattiqlashuvdagi har qanday hajm o'zgarishiga e'tibor bermaslik kerak bo'lgan taxmin. Yupqa muz blokining belgilangan chegarasida  $x = 0$  u yerda  $f(t)$  ko'p turli xil "oqim funksiyalari" bo'lishi mumkin. Masalan, biz qattiqlashuv haroratidan yuqori bo'lgan doimiy haroratga ega bo'lishimiz mumkin, ya'ni  $u_0 > 0$ , yoki vaqtga bog'liq funksiya. Biz taxmin qilamizki, harorat qattiq faza doimiy bo'ladi. Shunday qilib, muammo suyuqlik fazasida harorat taqsimotini va erkin chegara  $s(t)$  o'rnini topishdir. Ikki faza mavjud bo'lsa ham, muammo bir fazali muammo deb ataladi, chunki bu faqat suyuqlik fazasi noma'lum.

Suyuqlik hududi,

$$0 \leq x < s(t)$$

$$\frac{\partial u}{\partial t} = \frac{K_L}{C_L \rho} \frac{\partial^2 u}{\partial x^2} = \alpha_L \frac{\partial^2 u}{\partial x^2}$$

Issiqlik tenglamasi  $0 < x < s(t)$ ,  $t > 0$ ,

$$u(0, t) = f(t),$$

Chegaraviy shart,  $t > 0$ ,

$$u(x, 0) = 0,$$

Boshlangich shart

Erkin chegara

$$x = s(t)$$

$$\rho l \frac{ds}{dt} = -K_L \frac{\partial u}{\partial x},$$

Stefan sharti

$$s(0) = 0,$$

Eritma interfeysining dastlabki holati,

$$u(s(t), t) = 0,$$

Interfeysdagi Dirixlet holati,

ya'ni muzlash harorati

**2-faza - qattiq hudud,**

$$s(t) < x < \infty,$$

$$u(x, t) = 0 \quad t, x \geq s(t) \quad (19)$$

$x = 0$  chegara sharti har qanday bo'lishi mumkin,  
ammo bunda biz [4] ga amal qilamiz va quyidagi holatlarni ko'rib chiqamiz:

(i)  $f(t) = 1$

(ii)  $f(t) = e^t - 1$  (20)

Aslida ikkala muammomizni [4] ga muvofiq hal qilish mumkin edi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Tobias Jonsson On the one dimensional Stefan problem with some numerical analysis Spring 2013-10-15
2. D. Andreucci. Lecture notes on the Stefan problem. 2002.
3. F. Morgan. Real Analysis and Applications. American Mathematical Society, Providence, Rhode Island, 2005.
4. S.L. Mitchell and M. Vynnycky. Finite-difference methods with increased accuracy and correct initialization for one-dimensional Stefan problems. Applied Mathematics and Computation 215 1609-1621, 2009.



## INGLIZ TILIDAGI TARIXIY RIVOYATLARDA IFODALANGAN “ADOLAT” KONSEPTI

**Raximjonova O‘g‘iloy Azimjon qizi**

Qo‘qon davlat pedagogika instituti magistranti

E-mail: [pedagogyusupova@gmail.com](mailto:pedagogyusupova@gmail.com)

**Solijonov Mukhammadjon Zokirjon o‘g‘li**

Ilmiy rahbar:

Qo‘qon davlat pedagogika instituti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

### ANNOTASIYA

Millat madaniyatini o‘zida aks ettiruvchi tarixiy rivoyatlar o‘zida jamiyatning konseptual qarashlarini ifoda etadi. Maqola ingliz xalqining adolat haqidagi qarashlari, tushunchalari, obrazli taffakuri, bu boradagi xulosa va tajribalarini til orqali o‘ziga xos ekanligini ko‘rsatadi. Ingliz tarixiy rivoyatlarida aks etgan lingvomadaniy va adolat uzvli so‘zlar aks etgan.

**Kalit so‘zlar:** konsept, tarixiy rivoyat, adolat konsepti, Robin Gud, Qirol Artur.

### THE CONCEPT OF “JUSTICE” EXPRESSED IN ENGLISH HISTORICAL PARABLES

#### ABSTRACT

Historical parables that reflect the culture of the nation express the conceptual views of the society. The article shows that the views, concepts, figurative thinking, conclusions and experiences of the English people about justice are unique through language. Linguoculturological and justice related words reflected in English historical parables are reflected.

**Keywords:** concept, historical parable, concept of justice, Robin Hood, King Arthur.

#### KIRISH

Hamma davrlarda har bir xalq yoshlarni axloqi va odobi, iymoni va vijdoni, bilimi, malakasi, xatti-harakatini, urf-odati, an‘anasi, marosimi, o‘zligini anglashiga alohida e‘tibor qaratganlar. Shunday ekan, rivoyat va maqollar kabi xalq og‘zaki ijodi vositalarida yoshlarning aksiologik ongnini shakllantirishda oila va jamiyatda, ta‘lim-tarbiyada milliy qadriyatlarga alohida e‘tibor qaratish, yoshlarni xalq

ogʻzaki ijodi va milliy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash, ularni halol, pok inson boʻlib ulgʻayishida katta ustoz deya bilish mumkin [25].

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Turli adabiyotlarda konseptlarni ifodlash, ularning nazariy tadqiqiga bagʻishlangan talqinlar xorijlik olimlardan Michael Wenzel, Tyler G. Okimoto, Norman T, Babushkin, Hayden White, Budayev E.V kabilar tadqiqotlarida kuzatiladi. Oʻzbek tadqiqotchilarida esa tilshunos va adabitochilardan Mirtojiev M, A.A.Abduazizov, Azamat Primov, X. Qodirova, M. Solijonov ishlarida muayyan darajada oʻrganilgan. Bundan tashqari ingliz tilidagi Robin Gud, Qirol Arturga oid ogʻizdan-ogʻizga oʻtib kelayotgan tarixiy rivoyatlari koʻplab koʻplab konseptlarni oʻzida mujassam qilgan.

Adolat konseptini tadqiq qilar ekanmiz konsept tushunchasining aynan bir tarifi yoʻqligini kuzatamiz. S.G. Vorkachev bu tushunchani “Konsept – tildagi oʻz ifodasi va lingvokulturologik spetsifikasiga ega tushuncha, tasavvur va bilimlar toʻplamidir”[23] deb aytgan boʻlsa, S.A.Askoldov “bu bir tur yoki boshqa turdagi tushunchalar haqida fikrlash jarayonini oʻzida aks ettiradigan birlikdir”[5] deya izoh bergan.

Qiyosiy, semantik tahlil, konseptual, madaniy tahlil metodlardan foydalangan holda ingliz tilidagi tarixiy rivoyatlarda adolat konsepti qanday ifodalanganligini tadqiq qilamiz.

### NATIJALAR

Tarixiy rivoyatlarda aks etadigan ingliz madaniyatiga mansub soʻzlar odatda qadimgi ingliz tilidan kelib chiqqan va kelajakdagi madaniy anʼanalarga taʼsir etgan soʻzlar hisoblanadi. Bu soʻzlar oʻzaro juda koʻp yillik tadqiqda rivojlangan, lekin ular tarjimada maʼnosi oʻzgarishi mumkin.

Quyidagi ingliz madaniyatiga mansub tarixiy rivoyatlarda aks etadigan asosiy soʻzlar mavjud.

1. *King* - ingliz tilidagi “*King*” soʻzi tarixiy va madaniy hujjatlarda hukmdor yoki monarxga nisbatan keng qoʻllanilgan.
2. *Queen* – “*Queen*” soʻzi esa qirol yoki ayol monarxning xotiniga nisbatan qoʻllaniladi.
3. *Crown* – “*Crown*” soʻzi ingliz monarxlar tomonidan kiyiladigan sakkiz qirrali bosh kiyimni tasvirlash uchun ishlatiladi va qirollik hokimiyati yoki hokimiyat ramziga ishora qilish uchun ham ishlatiladi.

4. *Knight* – “*Knight*” soʻzi esa ingliz fuqarolarining oʻrtasida oʻzaro yordamchi, tayanch, atoqliklik va yaxshi feʼl sohibi kabi mazmundagi maʼnolarda foydalanilgan soʻzdir, ingliz tarixida qurol va ritsarlik boʻyicha oʻqitilgan oʻrta asr jentlmen askarini tasvirlash uchun ishlatiladi.

5. *Castle* – “*Castle*” soʻzi ham ingliz tilida uzoq va boy tarixga ega va qadim zamonlardan beri mustahkamlangan inshootlarni tasvirlash uchun ishlatilgan.

6. *Joust* – “*Joust*” soʻzi oʻrta asrlardagi musobaqani tasvirlash uchun ishlatiladi, unda otda ritsarlar bir-biriga nayzalar bilan zarba berishadi.

7. *Chivalry* – “*Chivalry*” soʻzi esa “*ulugʻvorlik*”, “*atogʻliq*” deb tushunsa boʻladi. “*Chivalry*” – X-XIV asrda mashhur boʻlgan. Ritsarlarning oʻrta asrlardagi xulq-atvor qoidalarini tasvirlash uchun ishlatiladi, unda jasorat, sharaf va ayollarga hurmat taʼkidlangan.


8. *Court* – “*Court*” soʻzi ham ingliz tarixida qadimgi angliya davlatining mahkamalarini anglatish uchun foydalanilgan soʻzdir. Angliyadagi sud tizimiga yoki monarx yoki hukmdor sud tutadigan jismoniy joyga ishora qilish uchun ishlatiladi.

9. *Empire* – “*Empire*” soʻzi bir nechta shtat yoki hududlar bitta monarx yoki hukumat tomonidan boshqariladigan siyosiy tuzilmani tasvirlash uchun ishlatiladi.

Tarixiy rivoyatlarda adolat *halollik*, *toʻgʻri soʻzlik*, *tenglik* kabi turli tushunchalar orqali ifodalaniib yaxlit konseptni ifoda etadi (1-rasm).


“*Justice*” soʻzi lotincha “*justitia*” soʻzidan olingan boʻlib, u oʻz navbatida “*just*, *equitable*, *right*” degan maʼnoni anglatuvchi “*justus*” sifatoshidan kelib chiqqan. “*Justus*” soʻzining oʻzagi “*jus*” boʻlib, lotincha “*huquq*, *qonun*” degan maʼnoni anglatadi.

Shuningdek konseptlarni ifodalash uchun soʻzning semantik shakli aks etishi mumkin. Misol uchun adolat konseptida aynan adolat soʻzi oʻrniga uning boshqa shakli kelishi mumkin [24] (2-rasm).



**Concept of justice**

1-rasm. Adolat konseptini ifodalovchi tushunchalar



2-rasm. Ingliz tarixiy rivoyatlarida “adolat” konseptini ifodalash uchun ishlatiladigan soʻzlar

### MUHOKAMA

*Qirol Arturga oid rivoyatlarda adolat tasviri.* Artur romanlari ritsarlar va ularning adolat uchun kurashlari haqida koʻplab hikoyalarni oʻz ichiga oladi. Ushbu hikoyalarda ritsarlar adolat va haqiqat uchun kurashadilar, vatandoshlarini dushmanlar va yovuz odamlardan himoya qiladilar. Qirol Artur va uning ritsarlari ham oʻz ishlarida adolatga intilishadi va yuqori axloqiy tamoyillarga amal qilishadi.

*Robin Gud romanlarida adolat tasviri.* Robin Gud ingliz tarixining yana bir taniqli qahramoni boʻlib, u adolat uchun kurashchi sifatida tasvirlangan. Afsonalarda

Robin Gud boy va ochko‘zlarga qarshi kurashadi va kambag‘allarni himoya qiladi. Robin Gud va uning o‘rtoqlari o‘rmonda yashaydilar kambag‘allarga va nohaqlikka uchragan oddiy aholiga yordam berish uchun boy va ochko‘zlarga hujum qilishadi.

### **XULOSA**

Xulosa o‘rmonda aytish mumkinki ingliz tarixiy rivoyatlarida adolat konsepti ko‘pincha **qonun ustuvorligi** va **qonun ostida barcha shaxslarga adolatli va teng munosabatda bo‘lish** bilan bog‘liq.

Artur romanlari va Robin Gud haqidagi afsonalar ko‘plab o‘xshashliklarga ega bo‘lsada, ular adolat konseptini tasvirlashda ham farqlarga ega. Arturga oid rivoyatlarda **hukumatdagi adolat** ko‘proq ta’kidlangan. Robin Gudga oida rivoyatlarda **jamiyatdagi adolat** ko‘proq ta’kidlangan. Ikkala qahramon ham adolat uchun kurashning ramzidir, ammo ular bu maqsadga erishish uchun foydalanadigan yondashuvlar turlicha. Tarixiy rivoyatlardagi aks etgan shunday jamiyat va siyosatdagi adolat konsepti sabab ham bugun Buyuk Britaniya shunday noyob mamlakatga aylangan.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. Abdisamatov A., Solijonov M. Reklama matnlarida turg‘un birikmalarning lingvistik xususiyatlar. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS) 2.3 (2022): 535-539.
2. Alimsaidova, S. A. "Principles of the formation of sociallingvistic competence of students of secondary schools (with the English language of instruction) SCOPUS Psychology and education." Come on (2021).
3. Allen W, Robin Hood Tales, Copyright, Wright, 1997 – 2013.
4. Amidieevna, A. S. "Language and Culture as a Basis for Development of Competence." Middle European Scientific Bulletin 22 (2022): 58-60.
5. Аскольдов С.А. Концепт и слово// Русская словесность. От теории словесности к структуре текста. Антология.-М:Academia. 1997.-С.267-280
6. Isakova, Shohida. "The Role of Parents in Foreign Language Teaching." The Peerian Journal 4 (2022): 13-16.
7. Israilova G.M. Analysis of the synonymic rows of the verb “see”. December 2022. Journal of Positive School Psychology.
8. Israilova G.M. Identification of gaps in students’ knowledge of the Russian language. USSIR Vol.11, No.12.December 2022.

9. Jason Hamilton, King Arthur timeline: a complete list of stories and tales, King Arthur: Man or Myth ; Language. English ; Publisher. Pen and Sword History; Publication date. May 13, 2020.
10. Kholdorova Nozima Akhmadjon kizi, & Solijonov Mukhammadjon. (2023). The term "concept" in cognitive linguistics theoretical views on its application. Educational Research in Universal Sciences, 2(3), 33–37.
11. Mirmuhsin Yuldashev Munavvarjon o'gli. "Development of short story genre in american literature". European Journal of Humanities and Educational Advancements, vol. 3, no. 6, June 2022, pp. 18-19.
12. Mirmuhsin Yuldashev. Flash fiction as an innovation in lydia davis's short stories. International journal of social science & interdisciplinary research (2022): Pp.422-425.
13. Mirmuhsin Yuldashev. Modern tendencies in american short story genre. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. 2021, Volume : 11, Issue : 6. Pp. 918-919.
14. Muhamedjanovna T. F. (2023). Ways to Develop Students' Motivation in Learning with the Help of Digital Means. American journal of science and learning for development, 2(1). Pp. 31-33.
15. Mukhammadjon Solijonov and Kholiqova Lutfiya. Linguistics in the anthropocentric paradigm methodological foundations of science. International journal of social science & interdisciplinary research (2022): 174-177.
Поябзал устлиги учун мўнжалланган янги тузилишдаги икки қатламли трикотаж тўқималарининг олд қатлами бўйича ҳалқа ипи узунлиги 7.1 мм дан 11.6 мм гача, орқа қатламнинг ҳалқа ипи узунлиги эса 5,7 мм дан 7.2 мм гача оралиқларда ўзгарди. Бу эса қатламларни тўқиб олишда бир ҳил шаклга эга бўлган глад ҳалқалари ва пресс ярим ҳалқаларидан ташкил топганлиги билан ифодаланади.

Поябзал устлиги учун мўнжалланган икки қатламли трикотаж тўқималари орасида базовий тўқима сифатида биринчи варианты танлаб олинди (I-вариант, 1-расм). Олинган трикотаж тўқимаси олд қатлами глад ва пресс ярим ҳалқасидан ташкил топган бўлиб, орқа қатламдаги глад тўқимаси билан бириккан.

1-жадвал

**Поябзал устлиги учун мўнжалланган янги тузилишдаги икки қатламли трикотаж тўқималарининг технологик кўрсаткичлари**

Кўрсаткичлар		Вариантлар		
		I	II	III
Иплар тури ва чизикли зичлиги, текс	Олд қатлам	Йиғирилган пахта ипи 97%, 20 тех x 4		
	Орқа қатлам	Йиғирилган пахта ипи 97%, 20 тех x 4 клей ипи 3% 20 D		
Ҳалқа қадами A, mm	Олд қатлам	1.7	1.8	1.56
	Орқа қатлам	1.7	1.56	1.47
Ҳалқа қатори баландлиги B, mm	Олд қатлам	1	1.2	1.1
	Орқа қатлам	1.1	1,0	1,2
Горизонтал бўйича ҳалқалар зичлиги, P <sub>г</sub> , ҳалқа	Олд қатлам	30	28	32
	Орқа қатлам	30	32	34
Вертикал бўйича ҳалқалар зичлиги P <sub>в</sub> , ҳалқа	Олд қатлам	50	60	55
	Орқа қатлам	55	50	50
Ҳалқа ипи узунлиги L, mm	Олд қатлам	7.1	9.3	11,7
	Орқа қатлам	5.7	6.3	7.2
Трикотаж тўқимасининг юза зичлиги Ms, g/m <sup>2</sup>		592	612	647
Қалинлик T, mm		2.34	2.63	2.76
Трикотаж тўқимасининг ҳажмий зичлиги δ, mg/sm <sup>3</sup>		253	232.7	234,4
Абсолют ҳажмий енгиллик Δδ, mg/sm <sup>3</sup>		-	20.3	18.6
Нисбий енгиллик θ, %		-	8	7.3

Агар асос тўқимасининг (I-вариант) юза зичлиги  $M_s=592 \text{ г/м}^2$ , қалинлиги  $T=2.34 \text{ мм}$  бўлса, унинг ҳажмий зичлиги  $253 \text{ мг/см}^3$  ни ташкил этди (1-жадвал). Поябзал устлиги учун мўнжалланган янги тузилишдаги икки қатламли трикотаж тўқимасининг II-варианти олд ва орқа қатламларида глад, ластик ва пресс ярим ҳалқаларини алмашилиб келиши ҳисобига трикотаж тўқимасининг юза зичлиги  $M_s=612 \text{ г/м}^2$  ва қалинлиги  $T=2.63 \text{ мм}$  бўлса, унинг ҳажмий зичлиги  $232.7 \text{ мг/см}^3$  ни ташкил этди. III-вариант трикотаж тўқимасининг юза зичлиги  $M_s=647 \text{ г/м}^2$  ни, қалинлиги  $T=2,76 \text{ мм}$  ни ташкил этса, унинг ҳажмий зичлиги  $234,4 \text{ мг/см}^3$  ни ташкил этди (2-расм).


Трикотажнинг ҳажмий зичлик кўрсаткичини аниқлашда асосан ушбу формула муҳим рол ўйнайди:

$$\delta = M_s / T \quad (2)$$

$\delta$  - трикотаж тўқимасининг ҳажмий зичлиги,  $\text{мг/см}^3$ ;

$M_s$  - трикотаж тўқимасининг юза зичлиги,  $\text{г/м}^2$ ;

$T$  - трикотаж тўқимасининг қалинлиги, мм.



**2-расм. Поябзал устлиги учун мўнжалланган янги тузилишдаги икки қатламли трикотаж тўқималарининг юза ва ҳажмий зичликларини ўзгариши гистограммаси.**

Поябзал устлиги учун мўнжалланган янги тузилишдаги икки қатламли трикотаж тўқима намуналарининг ҳажм зичликлари  $232.7$  дан  $253 \text{ мг/см}^3$  гача

оралиқда ўзгариб, энг юқори ҳажм зичлик кўрсаткичи асос тўқима I-вариантда кузатилди ва у  $253 \text{ мг/см}^3$  ни ташкил этди. Икки қатламли трикотаж тўқималарининг қолган намуналарида бу кўрсаткич асос трикотаж тўқимасига нисбатан кам қийматларни ташкил этди. Энг кам ҳажм зичлик кўрсаткичи тузилиши бўйича олд қатлами глад ва пресс ярим ҳалқа протяжжасидан, орқа қатлами эса тўлиқ глад ҳалқаларидан ташкил топган II-вариантда кузатилди ва у асос тўқимага нисбатан  $8,02\%$  га энгил бўлиб,  $232,7 \text{ мг/см}^3$  ни ташкил этди (1-жадвал. 2-расм). Ушбу вариантнинг ҳажм зичлигини камайиши трикотаж тўқимасини олишда тўқув игналарни ластик тартибда жойлашиши ва глад, ластик ҳамда пресс ярим ҳалқаларидан ташкил топиши билан баҳоланади.

Поябзал устлиги учун мўнжалланган янги тузилишдаги икки қатламли трикотаж тўқималарининг ҳажмий ва нисбий энгиллик кўрсаткичлари I-вариантга нисбатан таққосланди ва ишда II вариантнинг ҳажмий ва нисбий энгиллик кўрсаткичлари қуйидаги формулалар орқали аниқланади:

$$\Delta\delta = \delta_I - \delta_{II} = 253 - 232,7 = 20,3 \text{ мг/см}^3 \quad (3)$$

бунда:  $\Delta\delta$  - ҳақиқий ҳажмий энгиллик,  $\text{мг/см}^3$ ;

$\delta_I$  - асос тўқима ҳажм зичлиги,  $\text{мг/см}^3$ ;


$\delta_{II}$  - тажрибавий трикотаж матосининг ҳажм зичлиги,  $\text{мг/см}^3$

Нисбий энгиллик қуйидагича аниқланади:

$$\theta = \left(1 - \frac{\delta_{II}}{\delta_I}\right) \cdot 100\% = \left(1 - \frac{232,7}{253}\right) \cdot 100\% = 8,02\% \quad (4)$$


бунда:  $\theta$  - тўқимани нисбий энгиллиги, %.

Поябзал устлиги учун мўнжалланган янги тузилишдаги икки қатламли трикотаж тўқималарининг кейинги вариантлари учун абсолют ва нисбий энгиллик кўрсаткичларини ўзгариш қийматлари қуйида келтирилган (3-расм).



### 3-расм. Поябзал устлиги учун мўнжалланган янги тузилишдаги икки қатламли трикотаж тўқималарининг абсолют ва нисбий енгиллик кўрсаткичлари

Трикотаж тўқималарида яна бир муҳим аҳамиятга эга бўлган кўрсаткичлардан бири бу қалинлик кўрсаткичидир ва у трикотаж тўқимасининг ҳажм зичлигига таъсир кўрсатувчи омиллар қаторига киради. Тадқиқотлар давомида трикотаж тўқималарининг қалинлик кўрсаткичлари қалинликни ўлчовчи асбоблар ёрдамида аниқланди (1-жадвал, 4-расм).



### 4-Расм. Поябзал устлиги учун мўнжалланган янги тузилишдаги икки қатламли трикотаж тўқималарининг қалинлик кўрсаткичлари

Поябзал устлиги учун мўнжалланган янги тузилишдаги икки қатламли трикотаж тўқима намуналарининг қалинлик кўрсаткичлари 2,34 мм дан 2,76 мм гача ўзгарди. Энг катта қалинлик кўрсаткичи олд қатлами глад ва пресс ярим ҳалқа протяжкасидан, орқа қатлами эса тўлиқ глад ҳалқаларидан ташкил топган III-вариантда кузатилди ва у асос тўқимага нисбатан 17,9% га қалин бўлиб 2,76 мм ни ташкил этди (1-жадвал, 4-расм).

Поябзал устлиги учун мўнжалланган янги тузилишли икки қатламли трикотаж тўқима намуналарининг тўқима тузилишларини ўзгариши, ҳамда тўқималарни олишда ластик игналарни тартибда жойлаштириш ҳисобига II, вариантдаги поябзал устлиги учун мўнжалланган янги тузилишдаги икки қатламли трикотаж тўқимасининг хом ашё сарфи кўрсаткичлари асос тўқимасига нисбатан кам эканлиги аниқланди.

## Фойдаланилган адабиётлар рўйхати: (REFERENCES)

1. Kholikov, K.M; Zhuraboev, A.T; Shogofurov, Sh.Sh; Abduvaliev, D.M. (2020) Comprehensive assessment of the two-layer knitwear quality. The Way of Science. 2020.№ 1 (71).
2. M.M.Muqimov., Trikotaj texnologiyasi., Darslik. Toshkent – “O‘zbekiston” – 2002., 163 bet.
3. Shogofurov, Sh.Sh; Kamalova, I.I; Xoliqov, Q.M; Meliboev, U.X. (2020) Structure And Methods For Producing Refined Two-Layer Knitted Sheets. Solid State Technology. Vol. 63 No. 6 (2020). Pages 11798-11807. <http://www.solidstatetechnology.us/index.php/JSST/article/view/6183>
4. F.Kh. Sadykova, D.M. Sadykova, N.I. Kudryashova. Textile materials science and the basics of textiles production. M.: Legprombytizdat, 219-225p. (1989).
5. Ш.Исҳоқов. Тўқимачилик кимёси. Тошкент “Ўзбекистон” 1995.192 бет.
6. А.И.Кобляков, Г.Н.Кукин, А.Н.Соловьёв. Лабораторный практикум по текстильному материаловедению
7. Juraboev, A.T; Kholiqov, Q.M; Shog‘ofurov, Sh. Sh (2020) The study of the technological parameters of double layer knitwear with various methods of connecting layers. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. Year:2020, V10.Issue 4. Pages 397-404.
8. N.R.Ханхаджыева, Naqsh hosil qilish nazariy asoslari., Darslik. T.: “Aloqachi”, 2010, 214 bet.
9. Турсункулова М. С. Применение творческих элементов в национальном ремесле //Интернаука. – 2021. – №. 25-1. – С. 21-22.
10. Турсункулова М. С., ўғли Ёқубханов Н. Н., Холиқов Қ. М. Маҳаллий хом ашёлардан фойдаланиб пойабзал устлиги учун юкори гигиеник хусусиятли трикотаж туқималари //INTERNATIONAL CONFERENCES. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 1169-1180.
11. Абдурахманова Ф. А., Узакова Л. П., Турсункулова М. С. Закономерности изменчивости и распределения антропометрических признаков //Техника. Технологии. Инженерия. – 2019. – №. 2. – С. 27-30.
12. Турсункулова М. С., Холиқов Қ. М., Рахматова С. У. Modern analysis of the properties of mixed fiber yarns //International conference. PTLICISIWS-2022. Scopus Web of Science indexed Indexed in leading databases–Scopus, Web of Science, and Inspec. Conference Committee.
13. Турсункулова М. С., Холмуродова Д. Д. Использование шерстяных волокон в детской одежде и их эффективность //International scientific and practical

conference Modern psychology and pedagogy:«Problems and solutions. – С. 2021-2022.

14. ЧАСТИ И. ОБУВИ НА ОСНОВЕ ТРИКОТАЖНОЙ ТКАНИ МС Турсункулова, К Халиков, Н Якубханов //Наука и инновации. – 2022.

15. Турсункулова М. С. ўғли Ёқубханов НН, Холиқов ҚМ МАҲАЛЛИЙ ХОМ АШЁЛАРДАН ФОЙДАЛАНИБ ПОЙАБЗАЛ УСТЛИГИ УЧУН ЮКОРИ ГИГИЕНИК ХУСУСИЯТЛИ ТРИКОТАЖ ТУКИМАЛАРИ //INTERNATIONAL CONFERENCES. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 1169-1180.

16. Турсункулова М. С. Тўқимачилик трикотажа ишлаб чиқариш саноатида олимларимизнинг табиий толаларни таҳлили ҳақидаги қарашлари //International scientific and practical conference Modern psychology and pedagogy:«Problems and solutions.

17. Tursunkulova M., Lazizbek L., Xoliqov Q. IKKI QATLAMLI TRIKOTAJ TO‘QIMASIDAN POYABZAL USTLIGI UCHUN QOLLANILADIGAN MATERIALLARNING TEXNOLOGIK VA FIZIK-MEXANIK KO‘RSATGICHLARI TAHLILI //Interpretation and researches. – 2023. – Т. 2. – №. 3.

18. Suyarkulovna T. M. et al. POYABZAL USTLIGI UCHUN IKKI QATLAMLI G‘OVAKLI TRIKOTAJ TO‘QIMALARINING NAM O ‘TKAZUVCHANLIK XOSSASINI TADQIQ QILISH //Interpretation and researches. – 2023. – Т. 2. – №. 3. – С. 17-33.

19. Tursunkulova M., Xolikov K. POYABZALLAR ASTARLIGI UCHUN ISHLATILADIGAN MATERIALLARNING TURLARI, XUSUSIYATLARI VA ULARNING AFZALLIKLARINI TAHLIL QILISH //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. A4. – С. 269-274.

20. POYABZALLAR ASTARLIGI UCHUN ISHLATILADIGAN MATERIALLARNING TURLARI, XUSUSIYATLARI VA ULARNING AFZALLIKLARINI TAHLIL QILISH M Tursunkulova, K Xolikov - Science and innovation, 2022

21. IKKI QATLAMLI TRIKOTAJ TO‘QIMASIDAN POYABZAL USTLIGI UCHUN QOLLANILADIGAN MATERIALLARNING TEXNOLOGIK VA FIZIK-MEXANIK KO‘RSATGICHLARI TAHLILI M Tursunkulova, L Lazizbek, Q Xoliqov - Interpretation and researches, 2023

22. “Modern analysis of the properties of mixed fiber yarns”” ACADEMIC JOURNAL OF MODERN PHILOLOGY Journals Relevant To "Tursunkulova Maxsuda Suyarkulovna, Rakhmatova Sadoqat Umarjonovna, Kurbanali Kholikov “Modern analysis of the properties of mixed fiber yarns”” COMMITTEE

PHILOLOGY POLISH ACAD SCIENCES, WROCLAW BRANCH , Poland, 00000  
ISSN / eISSN: 2299-7164 / 2353-3218

23. Айлана игнадонли жаккард трикотаж тўқув машинасида олинган тўқимада спандекс ипининг тўқима физик механик хусусиятларига таъсири тадқиқи Холиқов Қ.М Турсункулова М.С., Қурбонов Б.М., Ёқубжонов Н.Н. Фан ва технологиялар тараққиёти. Илмий-техникавий журнал. 2022 7, 97 бет

24. Йиғирувбоп пахта толали чиқиндилардан йиғирилган ипларнинг физик-механик хосса кўрсаткичларини тахлили Турсункулова М. С. Фан ва технологиялар тараққиёти. Илмий-техникавий журнал. 2022 7, 93 бет

25. Yangi tuzilishdagi ikki qatlamli arqoqli trikotaj to‘qimalarning fizik-mexanik ko‘rsatgichlari tahlili... Tursunqulova M. Фан ва технологиялар тараққиёти. Илмий-техникавий журнал. 2022 йил 7 том, 103 бет

26. ТЎҚИМАЧИЛИК-ТРИКОТАЖ ИШЛАБ ЧИҚАРИШ САНОАТИДА ТАБИИЙ ТОЛАЛАР ТАҲЛИЛИ Турсункулова М.С., Холиқов К.М., Раҳматова С.У. 2022 Фан ва технологиялар тараққиёти. Илмий-техникавий журнал. Том 4 № 4 бет 202

27. Турсункулова М. С., Холмуродова Д. Д. Использование шерстяных волокон в детской одежде и их эффективность //International scientific and practical conference Modern psychology and pedagogy: «Problems and solutions. – С. 2021-2022.

28. М.С. Турсункулова. Трикотажный волокна и их роль в жизни человека, преимущества. //International scientific and practical conference Modern psychology and pedagogy: «Problems and solutions. – С. 2021-2022. Том 2 Номер 2-part, 2-701. Pages. Committee List for Страницы 2-part, 2-701. Pages. Committee List for

29. ИККИ QATLAMLI JAKKARD TRIKOTAJ TO‘QIMALFRI TAHLILI Авторы Tursunqulova Maqsuda Suyanqulovna Дата публикации 2022 Журнал МАШИНАСОЗЛИК ИЛМИЙ-ТЕХНИКА ЖУРНАЛИ SCIENTIFIC AND TECHNICAL JOURNAL MACHINE BUILDING Том 6 Номер №6 (Махсус сон), 2022 йил web.andmiedu.u Страницы 332 Издатель №6 (Махсус сон), 2022 йил web.andmiedu.uz ISSN 2181-1539

30. POYABZAL USTLIGI UCHUN IKKI QATLAMLI G ‘OVAKLI TRIKOTAJ TO‘QIMALARINING NAM O ‘TKAZUVCHANLIK XOSSASINI TADQIQ QILISH TM Suyarkulovna, OG O‘Ralov Lazizbek Sayibnazar... - Interpretation and researches, 2023 ООО «Talqin va tadqiqotlar» Том 2. № 2 Ст 17-33

31. ИККИ QATLAMLI TRIKOTAJ TO‘QIMASIDAN POYABZAL USTLIGI UCHUN QOLLANILADIGAN MATERIALLARNING TEXNOLOGIK VA FIZIK-MEXANIK KO‘RSATGICHLARI TAHLILI M Tursunkulova, L Lazizbek, Q



- Xoliqov - Interpretation and researches, 2023 Maxsuda Tursunkulova, Lazizbek Lazizbek, Qurbanali Xoliqov 2023/3/18 Журнал Interpretation and researches
32. POYABZALLAR ASTARLIGI UCHUN ISHLATILADIGAN MATERIALLARNING TURLARI, XUSUSIYATLARI VA ULARNING AFZALLIKLARINI TAHLIL QILISH M Tursunkulova, K Xolikov - Science and innovation, 2022
33. Tursunkulova M., Khalikov K., Yakubkhanov N. RESEARCH OF PHYSICAL AND MECHANICAL INDICATORS OF THE UPPER PART OF THE SHOE ON THE BASIS OF KNITTED KNITTING TISSUE //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. А7. – С. 866-875.
34. Турсункулова М. С. Применение творческих элементов в национальном ремесле //Интернаука. – 2021. – №. 25-1. – С. 21-22.
35. ИССЛЕДОВАНИЕ ФИЗИКО-МЕХАНИЧЕСКИХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ВЕРХНЕЙ ЧАСТИ ОБУВИ НА ОСНОВЕ ТРИКОТАЖНОЙ ТКАНИ М Турсункулова, К Халиков, Н Якубханов Наука и инновации 1 (А7), 866-875
36. Modern analysis of the properties of mixed fiber yarns MC Турсункулова, ҚМ Холиқов, СУ Рахматова - ... conference. PTLICISIWS-2022. Scopus Web of ...
37. Тўқимачилик трикотаж ишлаб чиқариш саноатида олимларимизнинг табиий толаларни таҳлили ҳақидаги қарашлари MC Турсункулова - International scientific and practical conference Modern ...
38. Шогофуров, Ш. Ш., & Уралов, Л. С. (2020). АНАЛИЗ ПОДРЕБИТЕЛЬСКОГО СПРОСА НА ЖЕНСКУЮ ДОМАШНЮЮ ОДЕЖДУ. *Экономика и социум*, (2), 471-474.
39. Бобожанов, Х. Т., Холиков, К. М., Сидикжанов, Ж. С. У., & Назарова, М. А. К. (2019). Исследования трикотажных полотен, выработанных из компактной и обычной пряжи. *Universum: технические науки*, (3 (60)), 20-25.
40. Холиков, К. М., & Мукимов, М. М. (2014). Исследование свойств хлопко-шелкового плюшевого трикотажа. In *КАЧЕСТВО В ПРОИЗВОДСТВЕННЫХ И СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ СИСТЕМАХ* (pp. 397-402).
41. .Л.А.Кудрявин, И.И. Шалов. Основы технологии трикотажного производства. М.:Легпромбытиздат, 1990 г. с. 123-132.

## МУРАККАБ ТЎҚИМАЛАР АСОСИДА СПОРТ УСЛУБИДАГИ ПОЯФЗАЛ УСТЛИГИ УЧУН ИККИ ҚАТЛАМЛИ ТРИКОТАЖ ТЎҚИМАЛАРИНИ ОЛИШ ТЕХНОЛОГИЯСИ

**Турсункулова Махсуда Суяркуловна**

Бухоро муҳандислик-технология институти  
“ЧБТ va Дизайни” кафедраси 2-курс таянч докторанти  
[tursunkulovamaxsuda83@gmail.ru](mailto:tursunkulovamaxsuda83@gmail.ru)

**Ёқубханов Неъматжон Нуриддин ўғли**

Наманган муҳандислик технология институти  
“Трикотаж технологияси” кафедраси 1-курс таянч докторанти  
E-mail: [yoqubjanovnematjon011211@gmail.com](mailto:yoqubjanovnematjon011211@gmail.com)

**Мелибаев Умаржон Хайдарович**

Наманган муҳандислик технология институти  
профессори  
E-mail: [mumarjon970@gmail.com](mailto:mumarjon970@gmail.com)

**Холиқов Қурбонали Мадаминович**

Наманган муҳандислик технология институти,  
“Трикотаж технологияси” кафедраси профессори  
E-mail: [qurbonalixoliqov@gmail.com](mailto:qurbonalixoliqov@gmail.com)

### АННОТАЦИЯ

Замонавий икки ясси игнадонли трикотаж тўқув машиналарининг технологик имкониятларидан фойдаланиб, игналари ластик тартибда жойлаштириб поябзал устлиги сифатида қўллаш учун мўнжалланган янги тузилишли икки қатламли трикотаж тўқималарини олиш технологияси тадқиқ этилган.

**Калит сўзлар:** ластик, игна, поябзал устлиги, икки қатламли, трикотаж, технология.

### АННОТАЦИЯ

С использованием технологических возможностей современных двухплоскоигольных вязальных машин исследована технология получения двухслойных трикотажных полотен новой структуры, предназначенных для использования в качестве верха обуви, путем расположения игл по эластичному узору.

**Ключевые слова:** ластик, иглы, верх обуви, двухслойный, трикотаж, технология.

## ABSTRACT

Using the technological capabilities of modern two-flat needle knitting machines, the technology of obtaining two-layer knitted fabrics with a new structure, designed for use as shoe uppers by placing the needles in an elastic pattern, has been researched.

**Keywords:** rubber, needle, shoe upper, two-layer, knitting, technology.

Сўнгги йилларда республикада енгил саноатнинг тўқимачилик, тикув-трикотаж, пойабзал ва мўйначилик тармоқларини ривожлантириш, ишлаб чиқарилаётган тайёр маҳсулотларнинг турлари ва ассортименти кенгайтириш, шунингдек, тармоқ корхоналарининг инвестиция ва экспорт фаолиятини ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш бўйича комплекс чора-тадбирлар амалга оширилмоқда.

Шу билан бирга жаҳон бозорларидаги рақобатнинг кучайиши, технологияларнинг ривожланиши ва хорижий ишлаб чиқарувчилар томонидан маҳсулотлар ассортименти кенгайтириши ишлаб чиқариш харажатларининг камайтирилиши ушбу соҳаларни ривожлантириш ҳамда пойабзал ишлаб чиқариш саноатига трикотажни кириб бориши бўйича қўшимча чора-тадбирлар ишлаб чиқилишини талаб этмоқда.

Трикотаж саноатнинг жадал ва барқарор ривожланишини таъминлаш, маҳаллий хом ашёни чуқур қайта ишлаш орқали биринчи навбатда ташқи бозорларда рақобатбардош бўлган юқори сифат ва қўшилган қийматга эга тўқимачилик, тикув-трикотаж, трикотаж-пойабзал маҳсулотлари ишлаб чиқаришни диверсификация қилиш ва кенгайтириш, шунингдек, салоҳиятли хорижий инвесторларни жалб этиш мақсад қилинган президентни ПҚ–4453-сон қарорини ижросини таъминлаш учун бу олиб борилаётган илмий тадқиқот ишлари муҳим аҳамият касб этади.

Трикотаж маҳсулотлари ассортименти ҳамда қўлланиш соҳасини кенгайтириш учун енгил юза ва ҳажм зичликка эга бўлган тўқималарни олиш ва улардан тайёр трикотаж маҳсулотларини ишлаб чиқариш мақсадида, мавжуд тузилишга эга бўлган икки қатламли трикотаж тўқималарини тузилиши ва уларни олиш усулларини таҳлил қилиш долзарб вазифа ҳисобланади. Мамлакатимизда ва чет элларда ҳам хом ашё сарфи камайтирилган янги тўқималар тузилишини яратиш устида кўпгина тадқиқотчилар иш олиб бормоқдалар.

Икки қатламли трикотаж тўқималарининг барча тузилишлари учун хос бўлган умумийлик шундан иборатки, бунда унинг ҳар бир мустақил қатлами

ўзида бош, ҳосилали, нақшли ёки аралаш бир қаватли тўқимани номоён қилади. Тўқиш жараёнида мато ёки қатламлар орқа томони билан ҳалқа тузилишидаги айрим элементлар ёрдамида ўзаро шундай бириктирилганки, бунда ҳалқа боғлиқлигини бузмаган ҳолда битта тўқимани сўтиб, иккинчисини сақлаб қолиш мумкин.

Икки қатламли аралаш трикотаж тўқимаси кўп системали игналари ластик тартибда жойлашган айлана игнадонли машинасида тўқилган ва шу боис, шакл сақлаш ва иссиқлик сақлаш хусусиятига эга бўлган ушбу тўқимадан маиший, спорт ва техник буюмларни ишлаб чиқаришда фойдаланиш мумкин.

Курск давлат техника университети олимлари Ю.А.Романенко, Э.А.Пьяникова ва О.Г.Диев томонидан ясси тўрт игнадонли машинада икки қатламли трикотаж тўқимасини кетма-кет олиш усули яратилган [1].

Ясси тўрт игнадонли трикотаж тўқув машинасида мазкур икки қатламли трикотаж тўқимасини олиш усулида каретканинг бир марта юришида тўртта игнадон игналарида турли қатламларнинг тўрт қатор ҳалқаси шаклланади. Тадқиқот иши ҳалқа ҳосил қилиш жараёнини қисқартиришга ва ясси игнадонли машина унумдорлигини оширишга йўналтирилган.

Проф. М.М. Мукимов ва Н.Р. Ханхаджаевлар [2, 3] томонидан Япониянинг «SHIMA-SEIKI» русумли ясси игнадонли машинасида уч, тўрт ва беш ластикли трикотаж тўқималарини олиш технологияси яратилган. Ишлаб чиқарилган намуналарнинг тадқиқот натижалари шуни кўрсатдики, бунда чизиқли зичлиги 31 текс х 2 бўлган полиакрилнитрил калава ипидан тўқилган тўқималар раппортини ўзгариши билан, трикотажнинг юза зичлиги ва унинг қалинлиги асос тўқимага (икки ластикли) нисбатан ортиб борган.

Ҳозирги кунда, ясси игнадонли машиналарни такомиллаштириш бўйича тадқиқот ишлари олиб борилмоқда, кўпинча бу ишларда тўқиш жараёнида полиакрилнитрил калава ипларидан фойдаланилади. Олиб борилаётган илмий тадқиқот ишида эса икки қатламли трикотаж тўқимасини поябзал устлиги учун қўллаш ва янги икки қатламли трикотаж тўқимасини олиш технологиясини яратиш ва ишлаб чиқариш устида иш олиб борилмоқда. Замонавий ясси игнадонли трикотаж тўқув машиналарининг имкониятларидан фойдаланиш мувофиқ равишда 12 дан 14-классгача бўлган машиналарда фойдаланса бўлади. Шундай қилиб, машинанинг талаб қилинган классига мослаб битта игна оралаб ёки ҳар бир игнада тўқиш мумкин.

Олиб борилган илмий тадқиқот ишлари натижаларидан маълум бўлдики, бунда поябзал устлиги учун мўнжалланган икки қатламли трикотаж тўқималарни олишда ассортимент турларини кенгайтириш, хом ашё сарфини тежаш, ҳамда тўқима таркибида аралаш трикотаж тўқималаридан фойдаланиш

ҳисобига янги тузилишли икки қатламли трикотажд тўқималарини олишнинг янги усуллари ва технологиясини ишлаб чиқиш муҳим аҳамият касб этди.

Унга кўра, юқорида келтириб ўтилган долзарб муоммоларни ҳал қилиш мақсадида поябзалустлиги учун янги тузилишдаги икки қатламли трикотажд тўқималарининг олиш технологияси ишлаб чиқилди. Янги тузилишдаги икки қатламли трикотажд тўқималарининг 3 та варианты Хитой давлатининг Long Xing LXA 252 фирмасида ишлаб чиқарилган 12-класс ясси икки игнадонли трикотажд тўқув машинасида тўқиб олинди.

Маълумки, тўқима қаторлари ёки алоҳида элементларининг маълум тартибда такрорланиб келишида аралаш тўқималарни олиш, трикотажд тўқималарнинг янги ассортиментини яратишнинг энг истиқболли йўналишларидан бири ҳисобланади. Улардан бири тўқув усулида бир қаватли тўқималарни бир бири билан халқа ипи ёрдамида бирлаштириш ҳисобланади.

Аралаш икки қаватли трикотажд тўқималарини ишлаб чиқаришда иккита ипдан тўқилган, бири олд томон ҳалқаларини, иккинчиси-орқа томон ҳалқаларини шакллантирадиган, ўзига хос хусусиятга эга бўлган трикотажд тўқималари т.ф.н. Е.П.Поспелов томонидан икки қатламли тўқима деб номланган [4].

Трикотажд тўқималари ассортиментини кенгайтириш, хом ашё сарфини камайтириш ва сифат кўрсаткичларини яхшилаш мақсадида поябзал устлиги учун мўнжалланган янги тузилишда олинган икки қатламли трикотажд тўқима намуналарини олишнинг технологияси ишлаб чиқилди.



Унга кўра, поябзал устлиги учун мўнжалланган янги тузилишдаги икки қатламли трикотажд тўқималари чизиқли зичлиги 20 текс х 4 йигирилган пахта ипи, 150 Dх4 полиестр ипи ҳамда 20 D клей ипидан фойдаланиб тўқиб олинди. Поябзал устлиги учун мўнжалланган янги тузилиши икки қатламли трикотажд тўқима намуналари бир-биридан ишлаб чиқариш усули ва тўқима тузилиши ўзгариши билан фарқ қилади.

Поябзал устлиги учун мўнжалланган янги тузилишдаги икки қатламли трикотажд тўқима намуналари ясси икки игнадонли трикотажд машинасида қуйидагича тартибда тўқиб олинди.

Поябзал устлиги учун мўнжалланган янги тузилишдаги I вариант икки қатламли трикотажд тўқимасинининг I-қаторини ишлаб чиқаришда трикотажд машинасининг кареткаси чапдан ўнгга томон ҳаракатланади. Натижада олд игнадон игналари кўтарувчи зулфнинг ишчи ҳолатда бўлиши ҳисобига тўлиқ тугаллаш жараёнига кўтарилиб, полиестр хом ашёсидан тўқиманинг олд қатлами учун ўз ҳалқаларини, орқа игнадоннинг оралатиб танланган тоқ игналари эса, кўтарувчи зулфнинг яримга ўчирилиши ҳисобига тўлиқсиз тугаллаш жараёни

бажариш учун юқорига кўтарилади ва ярим ҳалқаларни ҳосил қилади. Жараён якунида олд игнадон игналарида тўлиқ ҳалқалар, орқа игнадон игналарида эса ярим ҳалқалар ҳосил бўлади. Трикотаж тўқимасининг II қаторини тўқишда эса машина кареткасининг ўнгдан чапга томон ҳаракатланишида олд игнадон игналари кўтарувчи зулфнинг ишчи ҳолатда бўлмаганлиги сабабли ҳалқа ҳосил қилиш жараёнида иштирок этмайди. Орқа игнадон игналари эса, кўтарувчи зулфнинг ишчи ҳолатда бўлиши ҳисобига тугаллаш жараёнига тўлиқ кўтарилади ва йиғирилган пахта ҳамда клей ипларининг ҳам ашёсидан глад ҳалқаларини ҳосил қилади. Трикотаж тўқимасининг III қаторини тўқишда каретка чапдан ўнгга ҳаракатланади, олд игнадон игналари кўтарувчи зулфнинг ишчи ҳолатда бўлиши ҳисобига тўлиқ тугаллаш жараёнига кўтарилиб, полиесрт ҳам ашёсидан тўқиманинг олд қатлами учун ўз ҳалқаларини, орқа игнадоннинг оралатиб танланган жуфт игналари эса, кўтарувчи зулфнинг яримга ўчирилиши ҳисобига тўлиқсиз тугаллаш жараёни бажариш учун юқорига кўтарилади ва ярим ҳалқаларни ҳосил қилади. Жараён IV қаторни тўқишда каретканинг ўнгдан чапга томон ҳаракатланишида олд игнадон игналари кўтарувчи зулфнинг ишчи ҳолатда бўлмаганлиги сабабли ҳалқа ҳосил қилиш жараёнида иштирок этмайди. Орқа игнадон игналари эса, кўтарувчи зулфнинг ишчи ҳолатда бўлиши ҳисобига тугаллаш жараёнига тўлиқ кўтарилади ва йиғирилган пахта ҳамда клей ипларининг ҳам ашёсидан глад ҳалқаларини ҳосил қилиш орқали якунланади. Натижада тўқиманинг олд ва орқа қатламлари ёпилмаган пресс ярим ҳалқалар ёрдамида бириктирилади. (1-расм). Трикотаж тўқимаси узайтирилган орқа қатлам ҳалқалари 1 дан, олд қатлам ҳалқалари 2 дан, икки қатламни бирлаштирувчи ярим ҳалқалар 3 ва протяжкалар 4 дан ташкил топган.


Бу жараёни ўзига хослиги шундаки, поябзал устлиги учун мўнжалланган янги тузилишли икки қатламли трикотаж тўқимасини олишда трикотаж машинасининг тўқув игналари ластик тартибда жойлашиб, ишлайдилар. Бу эса игналари ластик тартибда жойлашган янги тузилишдаги икки қатламли трикотаж тўқималарини олишда янги технология ишлаб чиқилганлиги билан ифодаланади. Кейинги икки қатламли намуналар ҳам ушбу усулдан фойдаланган ҳолда тўқиб ишлаб чиқарилди.



1-расм. Поябзал устлиги учун мўнжалланган янги тузилишдаги икки қатламли трикотаж тўқимасининг (I вариант) тузилиши (а) ва график ёзуви (б).

Янги тузилишдаги II вариант икки қатламли трикотаж тўқимасинининг умумий рапорти саккизта қатордан иборат бўлиб, тўқиманинг I-қаторини ишлаб чиқаришда трикотаж машинасининг кареткаси чапдан ўнгга томон ҳаракатланиши жараёнида, олд ва орқа игнадон игналари кўтарувчи зулфнинг ишчи ҳолатда бўлиши ҳисобига тўлиқ тугаллаш жараёнига кўтарилади ва тўқимани олд ва орқа қатламларини ластик ҳалқа қаторларидан ҳосил қилади. Трикотаж тўқимасининг II қаторини тўқишда эса машина кареткасининг ўнгдан чапга томон ҳаракатланишида олд игнадон игналари кўтарувчи зулфнинг ишчи ҳолатда бўлмаганлиги сабабли ҳалқа ҳосил қилиш жараёнида иштирок этмайди. Орқа игнадон игналари эса, кўтарувчи зулфнинг ишчи ҳолатда бўлиши ҳисобига тугаллаш жараёнига тўлиқ кўтарилади ва йиғирилган пахта ҳамда клей ипларидан глад халқаларини ҳосил қилади. Тўқиманинг III-қаторини тўқиб олишда трикотаж машинасининг кареткаси чапдан ўнгга томон ҳаракатланиши жараёнида олд игнадон танлаб олинган тоқ игналари кўтарувчи зулфнинг ишчи ҳолатда бўлиши ҳисобига тўлиқ тугаллаш жараёнига кўтарилади ва халқа ҳосил қилади, бир вақтнинг ўзида орқа игнадон танлаб олинган мос равишда жуфт игналари эса кўтарувчи зулфнинг яримга ўчирилиши ҳисобига тўлиқсиз тугаллаш жараёни бажариш учун юқорига кўтарилиб ярим халқаларни орқа қатлам учун ҳосил қилади. Трикотаж тўқимасининг IV қаторини тўқишда эса машина кареткасининг ўнгдан чапга томон ҳаракатланишида олд игнадон игналари кўтарувчи зулфнинг ишчи ҳолатда бўлмаганлиги сабабли ҳалқа ҳосил қилиш жараёнида иштирок этмайди. Орқа игнадон игналари эса, кўтарувчи зулфнинг ишчи ҳолатда бўлиши ҳисобига тугаллаш жараёнига тўлиқ кўтарилади ва йиғирилган пахта ҳамда клей ипларидан глад халқаларини ҳосил қилади. Тўқиманинг V-қаторини тўқиб олишда трикотаж машинасининг кареткаси чапдан ўнгга томон ҳаракатланиши жараёнида олд игнадон танлаб олинган жуфт

игналари кўтарувчи зулфнинг ишчи ҳолатда бўлиши ҳисобига тўлиқ тугаллаш жараёнига кўтарилади ва халқа ҳосил қилади, бир вақтнинг ўзида орқа игнадон танлаб олинган мос равишда тоқ игналари эса кўтарувчи зулфнинг яримга ўчирилиши ҳисобига тўлиқсиз тугаллаш жараёни бажариш учун юқорига кўтарилиб ярим ҳалқаларни орқа қатлам учун ҳосил қилади. Трикотаж тўқимасининг VI қаторини тўқишда эса машина кареткасининг ўнгдан чапга томон ҳаракатланишида олд игнадон игналари кўтарувчи зулфнинг ишчи ҳолатда бўлмаганлиги сабабли халқа ҳосил қилиш жараёнида иштирок этмайди. Орқа игнадон игналари эса, кўтарувчи зулфнинг ишчи ҳолатда бўлиши ҳисобига тугаллаш жараёнига тўлиқ кўтарилади ва йиғирилган пахта ҳамда клей ипларидан глад халқаларини ҳосил қилади. VII-қаторини ишлаб чиқаришда трикотаж машинасининг каретки чапдан ўнгга томон ҳаракатланиши жараёнида, олд ва орқа игнадон игналари кўтарувчи зулфнинг ишчи ҳолатда бўлиши ҳисобига тўлиқ тугаллаш жараёнига кўтарилади ва тўқимани олд ва орқа қатламларини ластик халқа қаторларидан ҳосил қилади. Трикотаж тўқимасининг VIII қаторини тўқишда эса машина кареткасининг ўнгдан чапга томон ҳаракатланишида олд игнадон игналари кўтарувчи зулфнинг ишчи ҳолатда бўлмаганлиги сабабли халқа ҳосил қилиш жараёнида иштирок этмайди. Орқа игнадон игналари эса, кўтарувчи зулфнинг ишчи ҳолатда бўлиши ҳисобига тугаллаш жараёнига тўлиқ кўтарилади ва йиғирилган пахта ҳамда клей ипларидан глад халқаларини ҳосил қилади. Жараён якунида орқа игнадон игналарида тўлиқ халқалар, олд игнадон игналарида эса глад ва ластик халқалар ҳосил бўлади. Натижада янги тузилишдаги икки қатламли трикотаж тўқимаси ишлаб чиқарилади (2-расм).




2-расм. Янги тузилишдаги икки қатламли трикотаж тўқимасининг (II вариант) тузилиши (а) ва график ёзуви (б).



III вариант икки қатламли трикотаж тўқимасинининг умумий рапорти ҳам саккиста қатордан иборат бўлиб, 1-3қаторлар, 5-7 қаторлар такрорланади. трикотаж машинаси кареткасининг чапдан ўнгга томон ҳаракатида тўқиманинг I-қаторини олд игнадон танлаб олинган тоқ игналари кўтарувчи зулфнинг ишчи ҳолатда бўлиши ҳисобига тўлиқ тугаллаш жараёнига кўтарилади ва халқа ҳосил қилади, бир вақтнинг ўзида олди игнадон танлаб олинган мос равишда жуфт игналари эса кўтарувчи зулфнинг яримга ўчирилиши ҳисобига тўлиқсиз тугаллаш жараёни бажариш учун юқорига кўтарилиб ярим халқаларни ҳосил қилади. Айти вақтда орқа игнадон учун ҳам зулфнинг ишчи ҳолатда бўлиши орқа танлаб олинган тоқ игналарининг кўтарувчи зулфнинг яримга ўчирилиши ҳисобига тўлиқсиз тугаллаш жараёни бажариш учун юқорига кўтарилиб ярим халқаларни ҳосил қилади жуфт игналари эса кўтарувчи зулфнинг ишчи ҳолатда бўлиши ҳисобига тўлиқ тугаллаш жараёнига кўтарилади ва халқа ҳосил қилади. Трикотаж тўқимасининг II қаторини тўқишда эса машина кареткасининг ўнгдан чапга томон ҳаракатланишида олд игнадон игналари кўтарувчи зулфнинг ишчи ҳолатда бўлмаганлиги сабабли халқа ҳосил қилиш жараёнида иштирок этмайди. Орқа игнадон игналари эса, кўтарувчи зулфнинг ишчи ҳолатда бўлиши ҳисобига тугаллаш жараёнига тўлиқ кўтарилади ва йигирилган пахта ҳамда клей ипларидан глад халқаларини ҳосил қилади. Трикотаж тўқимасининг III қаторини тўқишда эса машина кареткасининг чапдан ўнгга томон ҳаракатида тўқиманинг олд игнадон танлаб олинган тоқ игналари кўтарувчи зулфнинг ишчи ҳолатда бўлиши ҳисобига тўлиқ тугаллаш жараёнига кўтарилади ва халқа ҳосил қилади, бир вақтнинг ўзида олди игнадон танлаб олинган мос равишда жуфт игналари эса кўтарувчи зулфнинг яримга ўчирилиши ҳисобига тўлиқсиз тугаллаш жараёни бажариш учун юқорига кўтарилиб ярим халқаларни ҳосил қилади. Айти вақтда орқа игнадон учун ҳам зулфнинг ишчи ҳолатда бўлиши орқа игнадон танлаб олинган тоқ игналарининг кўтарувчи зулфнинг яримга ўчирилиши ҳисобига тўлиқсиз тугаллаш жараёни бажариш учун юқорига кўтарилиб ярим халқаларни ҳосил қилади жуфт игналари эса кўтарувчи зулфнинг ишчи ҳолатда бўлиши ҳисобига тўлиқ тугаллаш жараёнига кўтарилади ва халқа ҳосил қилади. Трикотаж тўқимасининг IV қаторини тўқишда эса машина кареткасининг ўнгдан чапга томон ҳаракатланишида олд игнадон игналари кўтарувчи зулфнинг ишчи ҳолатда бўлмаганлиги сабабли халқа ҳосил қилиш жараёнида иштирок этмайди. Орқа игнадон игналари эса, кўтарувчи зулфнинг ишчи ҳолатда бўлиши ҳисобига тугаллаш жараёнига тўлиқ кўтарилади ва йигирилган пахта ҳамда клей ипларидан глад халқаларини ҳосил қилади. Трикотаж тўқимасининг V қаторини тўқишда эса машина кареткасининг чапдан ўнгга томон ҳаракатида тўқиманинг олд игнадон танлаб олинган жуфт игналари

кўтарувчи зулфнинг ишчи ҳолатда бўлиши ҳисобига тўлиқ тугаллаш жараёнига кўтарилади ва халқа ҳосил қилади, бир вақтнинг ўзида олди игнадон танлаб олинган мос равишда тоқ игналари эса кўтарувчи зулфнинг яримга ўчирилиши ҳисобига тўлиқсиз тугаллаш жараёни бажариш учун юқорига кўтарилиб ярим ҳалқаларни ҳосил қилади. Айни вақтда орқа игнадон учун ҳам зулфнинг ишчи ҳолатда бўлиши орқа игнадон танлаб олинган жуфт игналарининг кўтарувчи зулфнинг яримга ўчирилиши ҳисобига тўлиқсиз тугаллаш жараёни бажариш учун юқорига кўтарилиб ярим ҳалқаларни ҳосил қилади тоқ игналари эса кўтарувчи зулфнинг ишчи ҳолатда бўлиши ҳисобига тўлиқ тугаллаш жараёнига кўтарилади ва халқа ҳосил қилади. Трикотаж тўқимасининг VI қаторини тўқишда эса машина кареткасининг ўнгдан чапга томон ҳаракатланишида олди игнадон игналари кўтарувчи зулфнинг ишчи ҳолатда бўлмаганлиги сабабли халқа ҳосил қилиш жараёнида иштирок этмайди. Орқа игнадон игналари эса, кўтарувчи зулфнинг ишчи ҳолатда бўлиши ҳисобига тугаллаш жараёнига тўлиқ кўтарилади ва йигирилган пахта ҳамда клей ипларидан глад халқаларини ҳосил қилади. Трикотаж тўқимасининг VII қаторини тўқишда эса машина кареткасининг чапдан ўнгга томон ҳаракатида тўқиманинг олди игнадон танлаб олинган жуфт игналари кўтарувчи зулфнинг ишчи ҳолатда бўлиши ҳисобига тўлиқ тугаллаш жараёнига кўтарилади ва халқа ҳосил қилади, бир вақтнинг ўзида олди игнадон танлаб олинган мос равишда тоқ игналари эса кўтарувчи зулфнинг яримга ўчирилиши ҳисобига тўлиқсиз тугаллаш жараёни бажариш учун юқорига кўтарилиб ярим ҳалқаларни ҳосил қилади. Айни вақтда орқа игнадон учун ҳам зулфнинг ишчи ҳолатда бўлиши орқа игнадон танлаб олинган жуфт игналарининг кўтарувчи зулфнинг яримга ўчирилиши ҳисобига тўлиқсиз тугаллаш жараёни бажариш учун юқорига кўтарилиб ярим ҳалқаларни ҳосил қилади тоқ игналари эса кўтарувчи зулфнинг ишчи ҳолатда бўлиши ҳисобига тўлиқ тугаллаш жараёнига кўтарилади ва халқа ҳосил қилади. Трикотаж тўқимасининг VIII қаторини тўқишда эса машина кареткасининг ўнгдан чапга томон ҳаракатланишида олди игнадон игналари кўтарувчи зулфнинг ишчи ҳолатда бўлмаганлиги сабабли халқа ҳосил қилиш жараёнида иштирок этмайди. Орқа игнадон игналари эса, кўтарувчи зулфнинг ишчи ҳолатда бўлиши ҳисобига тугаллаш жараёнига тўлиқ кўтарилади ва йигирилган пахта ҳамда клей ипларидан глад халқаларини ҳосил қилади. (3-расм).



3-расм. Янги тузилишдаги икки қатламли трикотаж тўқимасининг (III вариант) график ёзуви.

Иккинчи, тўртинчи, олтинчи ва саккизинчи ҳалқа қаторларини ишлаб чиқаришда эса орқа игнадоннинг барча игналари тугаллаш жараёнига кўтарилиб орқа қатлам учун глад ҳалқа қаторларини шакллантиради. Олд игнадон игналари эса ҳалқа ҳосил қилиш жараёнида иштирок этмайди. Натижада янги тузилишдаги икки қатламли трикотаж тўқимасининг III варианты ишлаб чиқарилади.

Натижада ясси игнадонли трикотаж тўқув машинасининг тўқув игналарини ластик тартибида жойлаштириш, ҳамда трикотаж тўқималарини олишнинг янги технологиясини ишлаб чиқилиши ҳисобига янги тузилишли икки қатламли трикотаж тўқималарининг янги ассортиментлари тўқиб олинди.

Олинган трикотаж тўқималарининг шакл ва иссиқлик сақлаш хусусиятлари юқорилигини ҳисобга олган ҳолда, устки трикотаж маҳсулотларини ишлаб чиқаришда фойдаланиш мақсадга мувофиқ бўлади.

### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати: (REFERENCES)

1. Kholikov, K.M; Zhuraboev, A.T; Shogofurov, Sh.Sh; Abduvaliev, D.M. (2020) Comprehensive assessment of the two-layer knitwear quality. The Way of Science. 2020.№ 1 (71).
2. M.M.Muqimov., Trikotaj texnologiyasi., Darslik. Toshkent – “O‘zbekiston” – 2002., 163 bet.
3. Shogofurov, Sh.Sh; Kamalova, I.I; Xoliqov, Q.M; Meliboev, U.X. (2020) Structure And Methods For Producing Refined Two-Layer Knitted Sheets. Solid State Technology. Vol. 63 No. 6 (2020). Pages 11798-11807. <http://www.solidstatetechnology.us/index.php/JSST/article/view/6183>

4. F.Kh. Sadykova, D.M. Sadykova, N.I. Kudryashova. Textile materials science and the basics of textiles production. M. : Legprombytizdat, 219-225p. (1989).
5. Ш.Исҳоқов. Тўқимачилик кимёси. Тошкент “Ўзбекистон” 1995.192 бет.
6. А.И.Кобляков, Г.Н.Кукин, А.Н.Соловьев. Лабораторный практикум по текстильному материаловедению
7. Juraboev, A.T; Kholiqov, Q.M; Shog‘ofurov, Sh. Sh (2020) The study of the technological parameters of double layer knitwear with various methods of connecting layers. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. Year:2020, V10.Issue 4. Pages 397-404.
8. N.R.Ханхаджыева, Naqsh hosil qilish nazariy asoslari., Darslik. T.: “Aloqachi”, 2010, 214 bet.
9. Турсункулова М. С. Применение творческих элементов в национальном ремесле //Интернаука. – 2021. – №. 25-1. – С. 21-22.
10. Турсункулова М. С., ўғли Ёқубханов Н. Н., Холиқов Қ. М. Маҳаллий хом ашёлардан фойдаланиб пойабзал устлиги учун юкори гигиеник хусусиятли трикотаж туқималари //INTERNATIONAL CONFERENCES. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 1169-1180.
11. Абдурахманова Ф. А., Узакова Л. П., Турсункулова М. С. Закономерности изменчивости и распределения антропометрических признаков //Техника. Технологии. Инженерия. – 2019. – №. 2. – С. 27-30.
12. Турсункулова М. С., Холиқов Қ. М., Рахматова С. У. Modern analysis of the properties of mixed fiber yarns //International conference. PTLICISIWS-2022. Scopus Web of Science indexed Indexed in leading databases–Scopus, Web of Science, and Inspec. Conference Committee.
13. Турсункулова М. С., Холмуродова Д. Д. Использование шерстяных волокон в детской одежде и их эффективность //International scientific and practical conference Modern psychology and pedagogy:«Problems and solutions. – С. 2021-2022.
14. ЧАСТИ И. ОБУВИ НА ОСНОВЕ ТРИКОТАЖНОЙ ТКАНИ МС Турсункулова, К Халиков, Н Якубханов //Наука и инновации. – 2022.
15. Турсункулова М. С. ўғли Ёқубханов НН, Холиқов ҚМ МАҲАЛЛИЙ ХОМ АШЁЛАРДАН ФОЙДАЛАНИБ ПОЙАБЗАЛ УСТЛИГИ УЧУН ЮКОРИ ГИГИЕНИК ХУСУСИЯТЛИ ТРИКОТАЖ ТУКИМАЛАРИ //INTERNATIONAL CONFERENCES. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 1169-1180.
16. Турсункулова М. С. Тўқимачилик трикотаж ишлаб чиқариш саноатида олимларимизнинг табиий толаларни таҳлили ҳақидаги қарашлари //International scientific and practical conference Modern psychology and pedagogy:«Problems and solutions.
17. Tursunkulova M., Lazizbek L., Xoliqov Q. IKKI QATLAMLI TRIKOTAJ TO‘QIMASIDAN POYABZAL USTLIGI UCHUN QOLLANILADIGAN MATERIALLARNING TEXNOLOGIK VA FIZIK-MEXANIK KO‘RSATGICHLARI TAHLILI //Interpretation and researches. – 2023. – Т. 2. – №. 3.

18. Suyarkulovna T. M. et al. POYABZAL USTLIGI UCHUN IKKI QATLAMLI G‘OVAKLI TRIKOTAJ TO‘QIMALARINING NAM O‘TKAZUVCHANLIK XOSSASINI TADQIQ QILISH //Interpretation and researches. – 2023. – T. 2. – №. 3. – С. 17-33.
19. Tursunkulova M., Xolikov K. POYABZALLAR ASTARLIGI UCHUN ISHLATILADIGAN MATERIALLARNING TURLARI, XUSUSIYATLARI VA ULARNING AFZALLIKLARINI TAHLIL QILISH //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. A4. – С. 269-274.
20. POYABZALLAR ASTARLIGI UCHUN ISHLATILADIGAN MATERIALLARNING TURLARI, XUSUSIYATLARI VA ULARNING AFZALLIKLARINI TAHLIL QILISH M Tursunkulova, K Xolikov - Science and innovation, 2022
21. IKKI QATLAMLI TRIKOTAJ TO‘QIMASIDAN POYABZAL USTLIGI UCHUN QOLLANILADIGAN MATERIALLARNING TEXNOLOGIK VA FIZIK-MEXANIK KO‘RSATGICHLARI TAHLILI M Tursunkulova, L Lazizbek, Q Xoliqov - Interpretation and researches, 2023
22. “Modern analysis of the properties of mixed fiber yarns”” ACADEMIC JOURNAL OF MODERN PHILOLOGY Journals Relevant To "Tursunkulova Maxsuda Suyarkulovna, Rakhmatova Sadoqat Umarjonovna, Kurbanali Kholikov “Modern analysis of the properties of mixed fiber yarns”” COMMITTEE PHILOLOGY POLISH ACAD SCIENCES, WROCLAW BRANCH , Poland, 00000 ISSN / eISSN: 2299-7164 / 2353-3218
23. Айлана игнадонли жаккард трикотажд тўқув машинасида олинган тўқимада спандекс ипининг тўқима физик механик хусусиятларига таъсири тадқиқи Холиқов Қ.М Турсункулова М.С., Қурбонов Б.М., Ёқубжонов Н.Н. Фан ва технологиялар тараққиёти. Илмий-техникавий журнал. 2022 7, 97 бет
24. Йигирувбоп пахта толали чиқиндилардан йигирилган ипларнинг физик-механик хосса кўрсаткичларини тахлили Турсункулова М. С. Фан ва технологиялар тараққиёти. Илмий-техникавий журнал. 2022 7, 93 бет
25. Yangi tuzilishdagi ikki qatlamli arqoqli trikotaj to‘qimalarning fizik-mexanik ko‘rsatgichlari tahlili... Tursunqulova M. Фан ва технологиялар тараққиёти. Илмий-техникавий журнал. 2022 йил 7 том, 103 бет
26. ТЎҚИМАЧИЛИК-ТРИКОТАЖ ИШЛАБ ЧИҚАРИШ САНОАТИДА ТАБИИЙ ТОЛАЛАР ТАҲЛИЛИ Турсункулова М.С., Холиков К.М., Раҳматова С.У. 2022 Фан ва технологиялар тараққиёти. Илмий-техникавий журнал. Том 4 № 4 бет 202
27. Турсункулова М. С., Холмуродова Д. Д. Использование шерстяных волокон в детской одежде и их эффективность //International scientific and practical conference Modern psychology and pedagogy: «Problems and solutions. – С. 2021-2022.
28. М.С. Турсункулова. Трикотажный волокна и их роль в жизни человека, преимущества. //International scientific and practical conference Modern psychology

- and pedagogy: «Problems and solutions. – С. 2021-2022. Том 2 Номер 2-part, 2-701. Pages. Committee List for Страницы 2-part, 2-701. Pages. Committee List for
29. ИККИ QATLAMLI JAKKARD TRIKOTAJ TO‘QIMALFRI TAHLILI Авторы Tursunqulova Maqsuda Suyanqulovna Дата публикации 2022 Журнал МАШИНАСОЗЛИК ИЛМИЙ-ТЕХНИКА ЖУРНАЛИ SCIENTIFIC AND TECHNICAL JOURNAL MACHINE BUILDING Том 6 Номер №6 (Махсус сон), 2022 йил web.andmiedu.u Страницы 332 Издатель №6 (Махсус сон), 2022 йил web.andmiedu.uz ISSN 2181-1539
30. POYABZAL USTLIGI UCHUN IKKI QATLAMLI G ‘OVAKLI TRIKOTAJ TO‘QIMALARINING NAM O ‘TKAZUVCHANLIK XOSSASINI TADQIQ QILISH TM Suyarkulovna, OG O‘Ralov Lazizbek Sayibnazar... - Interpretation and researches, 2023 ООО «Talqin va tadqiqotlar» Том 2. № 2 Ст 17-33
31. ИККИ QATLAMLI TRIKOTAJ TO‘QIMASIDAN POYABZAL USTLIGI UCHUN QOLLANILADIGAN MATERIALLARNING TEXNOLOGIK VA FIZIK-MEXANIK KO‘RSATGICHLARI TAHLILI M Tursunkulova, L Lazizbek, Q Xoliqov - Interpretation and researches, 2023 Maxsuda Tursunkulova, Lazizbek Lazizbek, Qurbanali Xoliqov 2023/3/18 Журнал Interpretation and researches
32. POYABZALLAR ASTARLIGI UCHUN ISHLATILADIGAN MATERIALLARNING TURLARI, XUSUSIYATLARI VA ULARNING AFZALLIKLARINI TAHLIL QILISH M Tursunkulova, K Xolikov - Science and innovation, 2022
33. Tursunkulova M., Khalikov K., Yakubkhanov N. RESEARCH OF PHYSICAL AND MECHANICAL INDICATORS OF THE UPPER PART OF THE SHOE ON THE BASIS OF KNITTED KNITTING TISSUE //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. А7. – С. 866-875.
34. Турсункулова М. С. Применение творческих элементов в национальном ремесле //Интернаука. – 2021. – №. 25-1. – С. 21-22.
35. ИССЛЕДОВАНИЕ ФИЗИКО-МЕХАНИЧЕСКИХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ВЕРХНЕЙ ЧАСТИ ОБУВИ НА ОСНОВЕ ТРИКОТАЖНОЙ ТКАНИ M Турсункулова, К Халиков, Н Якубханов Наука и инновации 1 (А7), 866-875
36. Modern analysis of the properties of mixed fiber yarns MC Турсункулова, ҚМ Холиқов, СУ Рахматова - ... conference. PTLICISIWS-2022. Scopus Web of ...
37. Тўқимачилик трикотажа ишлаб чиқариш саноатида олимларимизнинг табиий толаларни таҳлили ҳақидаги қарашлари MC Турсункулова - International scientific and practical conference Modern ...

## SILIKAGEL ASOSIDA OLINGAN TARKIBIDA KISLOROD VA AZOT BO'LGAN SORBENTNING INFRAQIZIL SPEKTRI TAHLILI

**Sherzod Kasimov Abduzairovich**

Termiz davlat universiteti k.f.d. professor

**Yodgorov Ravshan Abdimalik o'g'li**

Termiz davlat universiteti magistrant

E-mail: [y.ravshan1991@gmail.com](mailto:y.ravshan1991@gmail.com)

**Xudoyorova Nilufar Qaxramon qizi**

Termiz davlat universiteti magistrant

**Samariddinov Jasur Toxirovich**

Termiz davlat universiteti magistrant

### ANNOTATSIYA

Ushbu tadqiqot ishida tarkibida kislorod va azot bo'lgan ligandni silikagel matritsaga immobilash asosida sorbentlar sintez qilindi hamda uning strukturaviy tuzulishini tavsiflash uchun IQ-spektroskopiyasidan foydalanilgan. IQ-spektr tahlilida olingan natijalar bilan nazariy ma'lumotlardagi tegishli bog'larning tebranish chastotalari mos ekanligi aniqlandi.

**Kalit so'zlar:** silikagel, defenilkarbazon, natriydietilditiokarbamat, xloroform, Cu(II) ioni, IQ-spektr.

### ИНФРАКРАСНО-СПЕКТРАЛЬНЫЙ АНАЛИЗ СОРБЕНТА, СОДЕРЖАЩЕГО КИСЛОРОД И АЗОТ, НА ОСНОВЕ СИЛИКАГЕЛЯ

### АННОТАЦИЯ

В данной работе синтезированы сорбенты на основе иммобилизации лиганда, содержащего кислород и азот, в матрицу силикагеля, а для описания его структурного состава использована ИК-спектроскопия. Установлено, что частоты колебаний соответствующих связей в теоретических данных согласуются с результатами, полученными при анализе ИК-спектра.

**Ключевые слова:** силикагель, дефенилкарбазон, диэтилдитиокарбамат натрия, хлороформ, ион Cu(II), ИК спектр.

## INFRARED SPECTRUM ANALYSIS OF THE SORBENT CONTAINING OXYGEN AND NITROGEN BASED ON SILICA GEL

### ABSTRACT

In this research work, sorbents were synthesized based on the immobilization of a ligand containing oxygen and nitrogen in a silica gel matrix, and IR-spectroscopy was used to describe its structural composition. It was found that the vibrational frequencies of the corresponding bonds in the theoretical data are consistent with the results obtained in the IR-spectrum analysis.

**Key words:** silica gel, dephenylcarbazon, sodium diethyldithiocarbamate, chloroform, Cu(II) ion, IR spectrum.

### KIRISH

Tadqiqotimiz obykti sorbsion xususiyatga ega bo'lgan silikagel va difenilkarbazon (DK) ishtirokida sintez qilingan N va O tarkibli sorbent birikmasi hisoblanadi. Tadqiqotimiz uchun zarur bo'lgan sintez qilingan sorbent va adsorbsiyalangan sorbentning IQ-spektri Yaponiyada ishlab chiqarilgan SHIMADZU IQ- Furrye spektrofotometrida  $600-4000\text{ sm}^{-1}$  sohada olindi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI


Infraqizil spektroskopiya usuli universal fizik-kimyoviy usul bo'lib, u turli organik va noorganik birikmalarning struktura xususiyatlarini o'rganishda qo'llaniladi. Usul infraqizil diapazonda elektromagnit nurlanishning sinovdan o'tgan obyektning atom guruhlari tomonidan yutilish hodisasiga asoslangan. Absorbsiya infraqizil nur kvantlari tomonidan molekulyar tebranishlarning qo'zg'alishi bilan bog'liq. Molekula infraqizil nurlanish bilan nurlantirilganda faqat chastotalari molekulalarning cho'zilish, deformatsion tebranish chastotalariga mos keladigan kvantlarga yutiladi[1].

Ushbu diapazondagi atom guruhining maksimal yutilish zonasining aniq joylashuvi moddaning tabiatini ko'rsatadi (masalan, maksimal  $3710\text{ sm}^{-1}$  -OH guruhlari mavjudligini ko'rsatadi va maksimal  $3030\text{ sm}^{-1}$  guruhlarning mavjudligi = C-H aromatik tuzilmalar)[2].

Hozirgi vaqtda ko'pgina tadqiqot ishlarida silikagelni kimyoviy modifikatsiyalash usuli bilan tanlovchan sorbentlar olishga katta ahamiyat berilmoqda[3]. Hozirgi kunda jahon miqyosida sintetik sorbentlarni ishlab chiqarish o'tgan o'n yilga nisbatan ikki barobar ortgan [4].



Difenilkarbazon - qizil-jigarrang kristallar, suvda deyarli erimaydi, benzol, etanol, xloroformda oson eriydi. Ishqoriy eritmalarda difenilkarbazidning oksidlanishi



bilan sintezlanadi. Sof difenilkarbazon fenilgidrazinning fenildiazenkarboksilik kislotaning fenil efiri bilan reaksiyasidan olinadi[5].


Cu (II) zaharli og'ir metallardan biri sifatida tanilgan va ko'plab sanoat tarmoqlarida keng qo'llaniladi. Suvli eritmalardan og'ir metall ionlari va boshqa ifloslantiruvchi moddalarni olib tashlash uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan ko'plab tozalash jarayonlari mavjud bo'lib, Cu (II) va boshqa yumshoq metall ionlari uchun keng tarqalayotgan tarkibida kislorod va azot bo'lan ligandlarni silikagel matritsaga immobilizatsiyalash asosida olingan sorbentlardir[6].

Silikagel yangi texnik qo'llanilishini ta'minlash uchun ko'plab kimyoviy jarayonlarda keng qo'llanilib kelinmoqda. Boshqacha qilib aytganda, silikagel sirtida tarqalgan silanol guruhleri (Si-OH) bilan ichki siloksan guruhleri (Si-O-Si) dan tashkil topgan amorf noorganik polimerdir[7].

## TAJRIBAVIY QISM


**Silikagel asosli sorbent sintezi:** Dastlab silikagel granullaridan 10 g analitik tarozida o'lchab olinib uning sirtidagi qo'shimcha modda reagentlarni yuvib toalash maqsadida distillangan suvda yuvib qurutib olindi. Adsorbsion faollikni yo'qotish, tarkibidagi namlikni yo'q qilish maqsadida UN 30 markali qurituv pechida 150 C<sup>0</sup> da 2 soat davomida qurutib olindi. Natijada 0,35 g namlikning chiqib ketishi evaziga 9,65g silikagel quruq massasi qoldi. Tarkibida O, N saqlagan ligand defenilkarbazonni organik erituvchi xloroformda eritib 20 ml 0,01 M li eritmasi tayyorlab olindi hamda eritmaga 2 g quritilgan silikagel donachalaridan 3 kun muddatga solib qo'yildi.

Silikagelni nokavalent immobilizatsiya qilish natijasida SG-DK01 deb nomlangan yangi qattiq fazali sorbent sintez qilindi. Olingan mahsulotlar – to'q - qo'ng'ir, qizg'ish tusli qattiq moddalar bo'lib, uchuvchan emas.



**1-rasm.** Adsorbsiyalangan SG-DK01 sorbentining IQ-spektri

Ekologik toza modifikatsiya usuli sifatida ushbu bosqichda mis ionlarini suvli muhitdan olib tashlash uchun tekshirildi. Silikagelga xloroformda eritilgan defenilkarbazon qo‘shish natijasida olingan mahsulotga mis tuzlarining eritmalari ta’sir ettirilganda hosil bo‘lgan kompleksning IQ-spektrida  $1500\text{ cm}^{-1}$  sohadagi chiziq 20, 15, va  $10\text{ cm}^{-1}$  yuqori chastota sohalarga mos holda siljishi kuzatilgan. Kordinatsiyaga kislorod va azot atomlari orqali bo‘lganda  $\text{C} = \text{O}$ ,  $\text{C} = \text{N}$  bog‘larning valent tebranish chastotalari qoida bo‘yicha ortadi, bu siljishlar esa  $\text{C} = \text{N} \rightarrow \text{M}^{+2}$  koordinatsion bog‘i hosil bo‘lganidan dalolat beradi.



### XULOSA

Silikagelning sirtini modifikatsiyalash orqali silikagel metall almashinuvi qobiliyati va selektivlik xususiyatlarini yaxshilashga qiziqish ortib bormoqda. U azot va kislorod atomlariga boy organik birikmalardan biri sifatida defenilkarbazon

hozirda 5 jildli lug‘atning 1-jildi nashr etilgan. Lug‘atda shoir ishlatgan barcha so‘zlar izohi bilan berilishi maqsad qilingan. Ushbu maqolamiz orqali ushbu dolzarb vazifaga “Alisher Navoiy asarlarining izohli lug‘ati”da shaxs ma’naviy sifatlarini ifoda etuvchi atov birliklarni berilishini tahlilga tortish bilan biz ham o‘z hissamizni qo‘shmoqchimiz.

“Alisher Navoiy asarlarining izohli lug‘ati”da shaxs ma’naviy sifatlarini ifoda etuvchi quyidagi atov birliklar o‘z ifodasini topgan:

**Asarlik/ /Asarlig‘-ta’sirchan, jozibador**

**Afzunlig‘//Afsunlug‘-ko‘plik, ortiqlik, ziyodalik**

**Bahodirlik//Bahodirluq//Bahodirlug‘-qahramonlik, jasurlik, qo‘rqmaslik, pahlovonlik**

**Ahror**-oliyjanob va himmatlilar

**Abror**- yaxshi axloqu odoblilar, ezgular, xayr sohiblari, sofdillar

**Adl**-1. Adolat, odillik, haqlik, to‘g‘rilik, haqqoniylik:

Haqni botildan biorovkim qildi farq,

Adli birla ravshan etti g‘arbu sharq. Lison ut-tayr, 5-6;

2.insof:

Navoiy, ulcha kerak aylading ne qilg‘aysen,

Ishingni adl bila so‘rsa, yor agar nogoh.

Xazoyinul-maoniy, 116-557;

**Azizlik**-izzatlilik, obro‘-e’tiborlilik; ulug‘lik, ustunlik

Haqdin azizlik tilasang, eldin uz ta‘ma,

Kim xalqning azzi dedi azza man qana.

Xazoyinul-maoniy, 111b-292

**Azim** -1. katta, ulkan, buyuk:

Mavloni Muin Voiz.... holo o‘zi dag‘i azim voizdir va muridlari ko‘p.  
Majolisun-nafois, 144;

2. muhim;

...yana biri lutf va tovozu va adab va yumshoq so‘z kim, bu barchadin azimroqdur.

Holoti Sayyid Hasan Ardasher, 527;

3. og‘ir, qiyin;

4. juda ko‘p, benihoya, hisobsiz;

5. boy, martabali;

**Akbar** – ulug‘, katta, eng katta:

Lek jihod ichra bu asg‘ardirur,

Nafs bila aylagil akbardirur. Hayrat ul-abror,67-24.

**Axiy**- 1. Oliy saxovat egasi, eng saxiy kishi:

Birta o‘tmakni ikki bo‘lib, yarmin bir ochg‘a berganni saxiy de,

O‘zi olmay barini muhtojqa berganni axiy de. Mahbub ul-qulub, 112;

**Ahbobliq**-yoru do‘stlarga ega; yoru birodarlik:

Olamda hargiz do‘stliq kishi dushmansiz bo‘lmaydur va ahbobliq odami a’dosiz topilmaydur. Munshaot, 101.

**Akmal**- eng komil, eng yetuk, barkamol, afzal:

Gar valikim xalqdin akmaldur ul,

Var nabi qil farz kim mursaldur ul. Lison ut-tayr, 176-5

**Damsozliq**-ulfatlik, hamdardlik, sirdoshlik:

Hizni o‘lsa aylagan damsozliq,

Ayshida qilg‘on ayon hamrozliq. Lison ut-tayr, 22-10

**Ibo**-andishalik, ko‘ngilni bo‘lmaslik, tortinish:

Magar uch kishi kim xato qildilar,

Azimat qilurdin ibo qildilar. Saddi Iskandariy, 26862

**Idroklik** – tez fahmlik, aqli rasolik:

Kichik Mirzo...xo‘b ta‘blik, tez idroklik...yigit edi.

Majolisun-nafois, 202.

**Insoniy** – kamolotli, yetukli:

Oni bashar xaylining insoni bil,

Odamiylar odamiysin oni bil. Hayrat ul-abror, 142-5

**Maorifpanoh**- ilm-ma‘rifat homiysi:

**Insonliq** – insonlik, odamiylik:

Agar yo‘q odamiyliq menda yorimda, tong ermas,

Ki majnunda kishilik yo parida bo‘lmas insonliq.

Xazoyinul- maoniy, 116-320

**Insoflig‘**- sofdillik, to‘g‘rilik:

Hokimi insoflig‘ dono dile,

Xush oyin shahriyori odile. Lison ut-tayr, 20-14

**Iste‘dod**- 1. Qobiliyat, aqllilik, talant:

Piru iste‘dodu tavfiq o‘lmasa bo‘lmas bu ish,

Kimdururkim, bag‘ri bu hasratdin oning qon emas.

Xazoiyinul- maoniy, 16-722

**Ishqbozliq** –oshiqlik, ishqqa berilganlik:

Kishi yigitlar ila ishqibozliq qilsa,

Yigitligida erur xo‘bu munda ermas shak.

Xazoyinul-maoniy, IVb-738

**Yo‘ldoshlig‘**-do‘stlik, hamrohlik:

Ul jamoat ham qilib qo‘ldoshlig‘

Komu nokom ettilar yo‘ldoshlig‘. Lison ut-tayr, 87

**Kamolot** – 1. Mukammalliklar; fazilatlar; barkamollik:

Aning kamoloti ovozasin eshitib...

Xamsatul ul-mutahayyirin, 699

2. oliy daraja:

Har kimda ki bor esa xayoli

Kasb etmak ishq aro kamoli Layli va Majnun, 96619;

**Do‘stdorliq**-do‘stsevarlik, mehr-muhabbat:

Har kimda xotun yo‘q-g‘amgusorliq yo‘q, har kimda farzand yo‘q do‘stdorliq yo‘q...

Tarixi muluki ajam, 521

**Jonafro‘z**-jonga rohat beruvchi, yashnatuvchi:

Suyi kavsar suyidek jonafro‘z,

O‘ti do‘zax yolinidek purso‘z.

**Jonnavoz**-ko‘ngilni o‘ziga tortadigan, xursand qiladigan so‘z:

Takallum qilib shah base jonnavoz,

Demay jonnavoz, ayt mehmonnovoz.

Saddi Iskandariy, 282b11

**Juvonmard**-olijanob; saxiy, ochiq qo‘lli:

Xuroson mashoyixining juvonmardlaridandur.

Nasoyimul-muhabbat, xv-93

**Zabonliq**-muomalali:

...va mutavasnitul-hollarg‘a ishi muloyamat va xo‘b zabonliq.

Holoti Pahlovon Muhammad, 534.

**Ro‘po‘shlig‘**- yuzi yopiqliq, sharm-hayolik:

Ismat bahoristonining shukufta bog‘i va iffat shabistonining gavhari shabcharog‘i, ro‘po‘shlig‘ Qofining asmoi parisi

Sabbai sayyor (Xamsa), 928.

**Ravshanroy**-fikri porloq; mutafakkir; dono:

Shohi G‘oziy erur karam tengizi,

Poku sofiy zamiru ravshanroy.

Xazoyinul-maoniy, IIIb-698;

**Ravshanravish**- go‘zal axloqli, sharafiga g‘ubor tekkizmagan:

Garmro‘ Ravshan ravish el ko‘nglidin fayz istagil,

Kim yorutur dahrni xurshidi anvar ko‘nglidek.

Xazoyinul-maoniy, IIa-

182

**Pokravliq**-o‘zni tog‘ri olib yurishlik; axloqlilik:

Dahr aro yoqdi siyodat mash‘alin,

Pokravlaqtin brasululloh qizi.

Xazoyinul-maoniy, IIa-

412;

**Parhezkor** – saqlanuvchi; pokdomon, porso:

Darvesh Mansur... Darvesh va parhezkor va mumtoz kishi erdi.

Majolisun nafois, 42

**Sabrpayvandliq**- chidamlilik, sabr-toqatlilik:

Tutub borcha oyini xursandliq,

Qazo hukmig'a sabrpayvandliq.

Saddi Iskandariy (Xamsa), 1623.

**Sohibtamkin** – og'ir tabiyatli, vazmin:

... sohibtamkin ichkilar va xususiyat oyin gulchehralar va soyir eshik, borcha Pahlovong'a yor va havodor erdilar.

Holoti Pahlovon Muhammad, XIV-101.

**Taaqqulluq**- fahmli, idrokli:

Shoh G'arib Mirzo...nozuk tahayyulluq va daqiq taaqqulluqluq yigitdur.

**Xayrandish**- andishali, yaxshi fikrli:

Ko'nglim andishasi vaslingdirur, ummed bukim,

Haq murodig'a teguray, chu erur xayrandish.

Xazoyinul –maoniy, IVb-251.

**Xo'bzabonliq**- shirinso'zlik:

Xo'bzabonliq va fuqaro va masoking'a varzishimuvofaqat va naf'rasonlig'. Holoti Pahlovon Muhammad, XIV-95.

**Yakjihatlik**-birlik, ajralmaslik, ittifoqlik:

Quchti istab rahravi farzonani,

Yakjihatlig' bobida mardonani. Lison ut-tayr, 89-18

**Qobiliyatlig'**- iste'dodli, talantli:

Mavloni Qavsiy xeli qobiliyatlig' yigitdur.

Majolisun-nafois, 106

**Qo'ldoshlik**- do'stli, o'rtoqlik:

Ul jamoat ham qilib qo'ldoshliq,

Komu nokom ettilar yo'ldoshliq. Lison ut-tayr, XI-96

**Hazmozmoy**- matonatli mard:

Sipohin tuzub shohi razmozmoy,

Suron soldiyu tushti hazmozmoy.

**Hamdam, hamdamliq, hamdardliq**- do'stlik, o'rtoqliq; jonkuyar do'st, dardlashuvchi; hamdardlik.

**Haminonliq**-birgalik, yo‘ldoshlik.

Ayla birga bo‘lmoq, birga bormoq,

Ham qo‘narda posbonliq aylagin. Lison ut-tayr, 29-3

**Haqshunoslig‘**- haqiqatni sevuvchilik:

Boyqaro Mirzo...haqshunoslig‘i a’lo martabada erdi.

Majolisun –nafois, 202.

**Hikmatgard**- donishmand, ilm-u hikmat sohibi:

Bo‘lub Yunonda hikmartgardi aning,

Arastu bir kichik shogirdi aning. Farhod va Shirin, 35

**Hikmatpanoh**- bilimdonlar suyanchig‘i, homiysi:

Ki olamni olg‘anda Jamshedshoh,

Kim ul xisrave erdi hikmatpanoh.

Saddi Iskandariy (Xamsa),1397

**Hilm**-yumshoqlik, muloyimlik.

Viqgor gavhariyu hilm ma’dani bo‘lakur,

Desangki, qilg‘ay itoat sango gado ila shoh.

Xazoyinul- maoniy, Ib-728

**Himmatvar** –tirishqoq, zo‘r irodali,mard, saxiy:

Ki borsen hiradmandu ravshan ravon,

Juvonmardu himmatvaru pahlavon.

Saddi Iskandariy (Xamsa),1472

**Juvonmard**-olijanob; saxiy, ochiq qo‘lli:

Xuroson mashoyixining juvonmardlaridindur.

Nasoyimul-muhabbat, xv-93

Har qanday leksik birlik keng ma’naviy qurshovga ega bo‘lganligi sababli so‘zlarning umumiy lisoniy mohiyatini talqin qiluvchi lingvistik izohli lug‘atlar so‘zning barcha qirralarini oladi hamda ularning har birini turli nutqiy qurshovlarda namoyon bo‘luvchi ko‘rinishlari sifatida talqin qiladi.

Alisher Navoiy asarlarida aks etgan shaxs ma’naviy sifatlarini ifodolovchi atov birliklarini o‘rganish, mana shunday go‘zal fazilatlar-u xususiyatlarga ega bo‘lish, ularga doim amal qilib yashash-komil insonning ma’naviy boyligini belgilab beradigan asosiy mezonlar sanaladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, “Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi Qarori // *Новости Узбекистана – Uz Report. News. Google. www.uz.*
2. Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016.
3. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi.
4. Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1972.

## IMKONIYATI CHEKLANGAN INSONLAR UCHUN JAMOAT BINOLARIDA HARAKATLANISHLARIDAGI MAVJUD TURLI XIL MUAMMOLARNI ANIQLASH

**Xodjaev Abbas Agzamovich**

texnika fanlari doktori, professor,

**Mansurov Yashnar Marufovich**

Komoliddin Bexzod nomidagi Milliy rasomlik va dizayn instituti,  
“Dizayn” kafedra dotsenti, arxitektura fanlar nomzodi,

**Mannapova Nilufar Rovshanovna**

Komoliddin Bexzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti, dotsent

**Yulchiyeva Barno Baxtiyor qizi**

Kamoliddin Behzod nomli Milliy rassomlik va dizayn instituti magistranti

### ANNOTATSIYA

Imkoniyati cheklangan shaxslar uchun jamoat binolaridagi turli xildagi mavjud muammolarning yechimi taklif etildi. Jumladan yordamchi yo‘laklarni yanada qulaylashtirish binoning arxitektura va interyer fazoviy yechimini zamonaviylashtirish hamda innovatsion texnologiyalardan foydalanish, bino ostonasidagi muammolarni bartaraf, qilish bo‘yicha tavsiyalar berildi.

**Kalit so‘zlar:** Binolar, ostonalar, imkoniyati cheklanganlar, maxsus belgilar, jamoat binolari, insonlarga qulaylik yaratish, xavfsizlik choralari, arxitektura, zamonaviylashtirish, mavjud xato va kamchiliklar.

### АННОТАЦИЯ

Даны решения различных проблем в общественных зданиях для людей с ограниченными возможностями. В частности, даны рекомендации по выполнению более комфортных коридоров, модернизации интерьера и архитектурно-пространственного решения здания, применению ь инновационных технологий, улучшению устройства порогов входных групп зданий.

**Ключевые слова:** Здания, пороги, инвалиды, специальные знаки, общественные здания, создание комфорта для людей, меры безопасности, архитектура, модернизация, существующие и недостатки.



## ABSTRACT

Solutions to various problems in public buildings for people with disabilities are given. In particular, recommendations are given on the implementation of more comfortable corridors, modernization of the interior and architectural and spatial design of the building, the use of innovative technologies, and the improvement of the arrangement of thresholds for the entrance groups of buildings.

**Keywords:** Buildings, thresholds, disabled people, special signs, public buildings, creating comfort for people, security measures, architecture, modernization, existing even and shortcomings.

## KIRISH

Zamonaviy jamiyatning vazifalaridan biri nogironligi bo'lgan erkak va ayollarning jamiyatning boshqa a'zolari singari huquq va majburiyatlarga ega bo'lishini ta'minlashdan iboratdir. Shu bois O'zbekiston Respublikasining nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlarini himoya qilish sohasidagi davlat siyosati ustuvor yo'nalishlaridan biri nogironligi bo'lgan shaxslarga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida nazarda tutilgan fuqarolik, iqtisodiy, siyosiy va boshqa huquq va erkinliklarni amalga oshirishda xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalari va tamoyillari hamda O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq boshqa fuqarolar bilan teng imkoniyatlarni ta'minlash hisoblanadi.

Afsuskiy dunyoning ko'plab mamlakatlarida nogironligi bo'lgan shaxslarning o'z huquq va erkinliklarini to'la amalga oshirishiga to'sqinlik qiladigan va jamoat hayotidagi ishtirokini qiyinlashtiradigan to'siqlar mavjud. Shu bois nogironligi bor shahlar jamiyatning turli xil ijtimoiy tizimlari, masalan, xizmatlar ko'rsatish, ish, axborot va transportdan foydalanishdagi teng imkoniyatlarni ta'minlash orqali to'siqlarni bartaraf etish uchun zarur choralarni ko'rish talab etiladi. Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiya nogironlarning fuqarolik, madaniy, iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy huquqlarini qamrab olish, tenglik va kamsitmaslik asosida himoya qilish uchun etarli standartlarni taklif etadi. Bu nogironlarning o'z jamoalarida mustaqil yashash, tanlov qilish va jamiyatda faol rol o'ynash huquqiga egaligini aniq ko'rsatib turibdi.

## ASOSIY QISM

Davlat mehnat inspeksiyasining ma'lum qilishicha, bugun O'zbekistonda 750 mingdan ortiq nogironligi bo'lgan shaxslar mavjud, ularning 220 ming nafari yoki 29,4 foizi mehnat faoliyatining muayyan turlarini bajarishga layoqatli hisoblanadi. "Yagona mehnat milliy tizimi" idoralararo dasturiy apparat kompleksi bazasidan olingan ma'lumotlarga ko'ra, hozirgi kunda 27 ming nafar nogironligi bo'lgan shaxslar doimiy

ish o'rniga ega. Ushbu ko'rsatkich mehnatga layoqatli nogironligi bo'lgan shaxslarning 12,3 foizini tashkil etadi. Nogironligi bo'lgan shaxslarni ishga joylashtirish masalasida qator ishlar qilinayotganiga qaramay, mutaxassislar bu borada kamchiliklar talay ekanini ta'kidlamoqda. Shtat jadvalida 20 nafardan ortiq xodimi bor tashkilot va muassasalar uch foizgacha ish o'rnini nogironligi bor shaxslarga berishi kerak. Masalan, bir korxonada 100 nafar ishchi bo'lsa, shundan uch nafari ishga layoqatli nogironligi bo'lgan shaxs bo'lishi lozim [5]. Ushbu tartib "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi qonunining 43-moddasida belgilangan.

Ijtimoiy muhit kuzatuvchilari bir qancha muamoaliy masaslalarni aniqlashga imkon berdi. Jumladan:

Jamoat binolarida nogironlar uchun bir qator harakatlanish muammolari mavjud.

Kirish imkonsizligi: Ko'pgina jamoat binolari nogironlar kirishi uchun jihozlanmagan. Misol uchun, harakatchanligi cheklangan odamlarga yordam beradigan liftlar, tutqichlar yoki keng eshiklarning yo'qligi.

Harakatdagi to'siqlar: binolarda harakatlanish imkoniyati cheklangan odamlarning harakatlanishiga to'sqinlik qiluvchi to'siqlar bo'lishi mumkin, masalan, notekis pollar, ostonalar, tor yo'laklar, balandliklar farqi, liftlarning yo'qligi va boshqalar.

Axborotning etishmasligi: Ba'zi binolarda nogironlar uchun yo'nalishlar, liftlar jadvali va boshqalar uchun etarli ma'lumot berilmaydi.

Moslashtirilgan joylarning etishmasligi: Ko'pgina jamoat binolarida nogironlar uchun hojatxonalar, dushlar, kiyim almashtirish xonalari kabi ularning ehtiyojlarini qondiradigan moslashtirilgan joylar mavjud emas.

Xodimlarning etishmasligi: binolarda nogironlar bilan ishlash uchun o'qitilgan xodimlar etarli bo'lmasligi mumkin.

Bu muammolar nogironlar uchun qiyinchiliklarga olib keladi, ularning jamoat hayotida ishtirok etishiga to'sqinlik qiladi va harakat erkinligini cheklaydi.

Shuningdek, mazkur muammolar bir necha sabablarga qarshi kelishi mumkin, misol uchun:

1. Binoning tuzilishi: Eski binolar yoki ko'p qavatli binolar ko'pgina muammolarga olib kelishi mumkin. Bu tur binolar ko'pgina bo'lgan odamlar uchun qiyinchiliklar yaratadi. Bunday binolarni yangilash yoki qayta ishlab chiqarish kerak bo'lishi mumkin.

2. Qonuniy tutumlar: Boshqaruv organlari, binoning egasining yoki boshqalarining qonuniy tutumlari ko'pgina odamlar uchun qiyinchiliklarga sabab bo'lishi mumkin. Misol uchun, binoning egasi lift qo'yishni xohlamasa yoki yangi lift qo'yishga moliyaviy imkoniyati yo'q bo'lsa, ko'pgina bo'lgan odamlar uchun yordam birlashtirish imkoni yo'q bo'ladi.

3. Ko'p mijozli bizneslar: Ko'pgina mijozlar (masalan, restoranlar yoki kinoteatrlar) bilan ishlaydigan bizneslar ko'pgina odamlarni qiziqtirish va uni yo'qotishga sabab bo'lishi mumkin. Bunday bizneslar qavatli bo'lmasa yoki yo'qolmasa, yoki liftlarni yaratish uchun moliyaviy imkoniyati yo'q bo'lsa, ko'pgina bo'lgan odamlar uchun qiyinchilik yuzaga kelishi mumkin.

Bunday muammolarga yechim topish uchun, binolarni yangilash, qonuniy asoslarni o'zgartirish, bizneslarni qo'llab-quvvatlash va boshqa ishlar taklif etilishi mumkin.

Notekis pollar binolarda namlik va boshqa muammo yuzaga kelishiga olib keladigan sabab bo'lib, bundan tashqari, ularning harakatlanishi ham cheklanadi. Ostonalar esa, binolarda o'zgaruvchan muhitni tashkil etadigan va ko'chishni cheklashiga sabab bo'lishi mumkin. Tor yo'laklar va balandliklar farqi esa, binolarda harakatlanishning cheklanishiga olib keladigan fizikaviy sabablardandir.

Lift yo'qligi esa, ko'p qavatli binolarda harakatlanishning cheklanishiga olib keladigan eng muhim sabablardan biri hisoblanadi. Agar lift bo'lmasa, insonlar ko'p qavatli binolarda yuqori va pastga ko'chishlari kerak bo'ladi, bu esa ko'p vaqt va energiya sarflashiga sabab bo'ladi.

Barcha bu sabablarga qo'shimcha ravishda, binolarda harakatlanishning cheklanishi, binolarning yasash o'zgaruvchanligi, binolarning yoshi va qurilish materiallari, bino yasash usullari, bino muhitining xususiyatlari kabi bir nechta faktorlarga bog'liq bo'ladi.

Haqiqatan ham, bu juda muhim muddatli muammoning bir xil shakli hisoblanadi. Binolarda nogironlar, turli xil yo'nalishlar va xizmatlardan foydalanish uchun ma'lumotlarga muhtojlar. Bu ma'lumotlar esa turli xil shakllarda taqdim etilishi mumkin, masalan, liftlar uchun jadval, yo'nalishlarni ko'rsatadigan yorliqlar, shuningdek, binodagi xizmatlarni ko'rsatadigan paneller va boshqalar.

Biroq, bunaqa ma'lumotlarni taqdim etish binoning egasi yoki boshqaruvchilari uchun juda muhimdir. Ular binoga kiruvchi va undan chiquvchi odamlarning hayot va xavfsizligi uchun javobgarlar. Bu sababli, binoning xaritasi, yo'nalishlar va elevatorlar uchun jadval, xizmatlarni ko'rsatuvchi panellar va boshqa ma'lumotlar binoning noqulayligini kamaytiradi va odamlarning hayotini xavfsizlashtiradi.

Shuningdek, bugungi kunda, binolarda nogironlar uchun ma'lumotlarni taqdim etishning yanada yaxshi usullari mavjud. Masalan, binodagi QR-kodlar yordamida, barcha kerakli ma'lumotlarga tez va oson o'zaro ulanish mumkin. Bu usul, ma'lumotlarni ko'chirishni osonlashtiradi va odamlar uchun foydali va qulaydir.

Bu haqda gapirish uchun ko'pgina faktorlar mavjud bo'lishi mumkin, ammo har doim uchun ko'p binolarda nogironlar uchun hojatxonalar, dushlar, kiyim almashtirish xonalari kabi xizmatlar mavjud emas. Bu muammoni hal qilish uchun, ko'pgina

shaharlarda qonuniy hujjatlarda belgilangan minimal standartlarni o'zgartirish kerak bo'ladi, shuningdek, yangi binolar qurish davomida nogironlarga xizmat ko'rsatishga oid talablarni amalga oshirish kerak.


Biroq, bu muammoni hal qilish uchun turli xil yechimlar mavjud. Misol uchun, shaharlar va jamoat binolari tomonidan taqdim etilgan boshqa xizmatlar orqali, nogironlar uchun kerakli xizmatlar ko'rsatilishi mumkin. Bunday xizmatlar misol uchun, mahalliy ko'prikalar, mehmonxona xizmati, yoshlar uchun kiyim do'konlari kabi xizmatlar bo'lishi mumkin.

Bundan tashqari, katta shaharlarda boshqa xalqaro tashkilotlar, masalan, xayriya tashkilotlari va insiyativadorlar, nogironlar uchun ko'proq imkoniyatlar yaratish uchun ham faoliyat yuritishadi. Bu tashkilotlar, misol uchun, xususiy fondlar orqali kiyim va boshqa zarur xizmatlarni taqdim etish, mahalliy do'konlar va bazaarlar orqali arzon mahsulotlarni taqdim etish, shahar yoki mintaqadagi dasturlar orqali sog'lomlik va shifoxonalar xizmatlaridan bepul foydalanish kabi ko'plab imkoniyatlarni taqdim etishadi.

Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar va internet orqali xizmat ko'rsatish, shaharlarning ko'pgina qismlarida ham nogironlar uchun kerakli xizmatlarni taqdim etishga yordam berishi mumkin. Bu, misol uchun, ijtimoiy tarmoqda faoliyat yuritadigan yoshlar tomonidan qurilgan mobil ilovalar orqali, nogironlar uchun kerakli xizmatlarni taqdim etishadi.

Bularning hammasi, ko'pgina jamoat binolarida nogironlar uchun kerakli xizmatlarni taqdim etishni osonlashtiradi.

Hozirgi zamonaviy davr talabidan kelib chiqqan holda bino inshootlarni qulaylashtirish zamonaviy hamda krativ yechimlardan foydalanish yuqoridagi muamolarning yechimidir. Imkoniyati cheklangan insonlar uchun qilinayotgan imkoniyatlar bugunga kelib kengaymoqda. Binolar interyerlarida (aynan jamoat binolarida) ranglar gammalarida ham yechimlar berilishi imkoniyati cheklangan insonlar uchun yanada qullaylik keltiradi. Interyerlarda krativ yondashuvlar bilan nafaqat imkoniyati cheklangan insonlarga hamda sog'lom avlod uchun ham yengilik hisoblanadi. Interyerlardagi yechimlarda aynan yordamchi qurilmalar bilan ifodalanish bilan yechimga erishish mumkin. Hamda bunday yechimlar orqali interyerlarni yanada jozibalashtirishga erishish mumkin.



*1-rasm. Interyerlarda maxsus yordamchi vositalar va yechimlar.*

Nogironligi bor insonlarni turmush hamda harakatlanish sharoitlarini yanada zamonaviylashtirish orqali ularni boshqalar bilan tengma teng harakatlanishlari, jamoat joylarida erkin aloqaga kirishlarida yana ham imkoniyat yaratadi. Quvonarlisi bugungi kunga kelib bunday binolarni loyihalash ko‘lami oshmoqda. Ya’ni zamonaviy hamda kirativ binolar ko‘payishi bilan hamma jamiyat azolari birdak harakatlanishlarini taminlashi bu quvonarli.

Muassasalarda imkoniyati cheklangan insonlar o‘zini tabiiy muhit sharoitida chegara va to‘siqlarsiz bimalol boshqalar bilan tengma teng harakatlashishi, faoliyat yuritishi uchun mafbul muhitni yaratishga erishish mumkin. Ushbu vazifani bajarish maqsadida Ixsoslashtirilgan maktabdan tashqari ta’lim muassasasi binosining

tashqi va ichki muhitini universal dizayn asosida loyihalash hamda buning ilmiy asoslarini yanada takomillashtirish bo‘yicha mualliflar tomonidan ayni vaqtda maqsadli tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. Jahon Sog‘liqni saqlash tashkiloti, Nogironlik bo‘yicha dunyo hisoboti, 2011.
2. Шмыгаль Н.Е. Цветотерапия: лечение цветом / Журнал «РитМ Психология для всех». – 2012. - № 1. – С. 9 – 11.
3. КМК 2.08.02-09 “Жамоат бино ва иншоотлари”.
4. ШНК 2.07.02-07 “Кам ҳаракатли ва ногирон шахслар учун хаёт фаолияти муҳитини лойиҳалаш”.
5. <https://m.kun.uz/uz/news/2015/08/15/ozbekistonda-avtoturargohlarda-nogironlar-uchun-mahsus-belgilar-ornatiladi>.
6. [www.yuz.uz](http://www.yuz.uz)
7. [Konventsiya matni \(HTML\)](#)

## “SAB’AI SAYYOR” DOSTONIDAGI SHOH BAHROM OBRAZINING GENEZI VA O‘ZARO QIYOSIY TADQIQI MASALASIGA DOIR MULOHAZALAR

**Pirmamatov Muslim Abdulla o‘g‘li**

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi II kurs magistranti

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada “Sab’ai sayyor” dostonidagi shoh Bahrom obrazi, u haqidagi dostonlarning yaratilish genezi, ushbu obrazning dostonlar asosida qiyosiy tadqiq etilishi, tarixiy hukmdor va badiiy obraz sifatida namoyon bo‘lishi haqida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** “Sab’ai sayyor”, Alisher Navoiy, shoh Bahrom, Dilorom, genez, Varaxran V, xamsachilik, Go‘r, kanizak, Firdavsiy, Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, Ashraf Marog‘iy.

Shoh Bahrom haqdagi ilk yozma manbalarni eron shohlari tarixidan so‘zlovchi “Tarixi rusul va muluk”, “Xudoynamak” kabi tarixiy kitoblarda uchratish mumkin. 420-438-yillarda hukmronlik qilgan ushbu shaxs qariyb 18 yillik hukmronligi davrida boshqa hukmdorlardan deyarli farq qilmaydigan siyosat yuritdi, ammo u tarixiy asarlarda o‘z otasiga qarshi turganligi qayd etilganligi bilan ajralib turadi. Shoh Bahromning ovga ishqibozligi, mayparastligi hamda fojiali o‘limi tarixiy kitoblardan ham o‘rin olgan. Ammo bu qo‘llanmalarda real tarixiy fakt to‘la namoyon bo‘lmagan. Badiiy adabiyotda esa Bahrom Go‘r obrazi ilk bor Abulqosim Firdavsiyning “Shohnoma” asarida tilga olinadi. She‘riy usulda yaratilgan eron hukmdorlari tarixidan so‘zlovchi ushbu asar faqatgina tarixiy qo‘llanma emas. Yozuvchi o‘z oldiga buyuk badiiy asar yaratishni maqsad qilib olgan edi va shu bois ijodkor tarixiy voqelikka badiiy to‘qimalar, xalq og‘zaki ijodi namunalari, miflar, rivoyatlar, o‘z xayoloti mahsullarini ham kiritib borgan. Bu o‘rinda u tarixiy hukmdorlar obraziga ma‘lum detallar qo‘shadi. Xususan, Bahrom Go‘r obrazi ham bundan mustasno emas. Asarda Bahrom Yazdigirdning o‘g‘li Varaxran sifatidagina emas, balki adolatli podsho sifatida gavdalanadi. Yozuvchi o‘z idealidagi hukmdor sifatida Bahromni yaratgan bo‘lishi ehtimoli bor. Chunonchi, Bahrom Go‘r timsolida xalqparvarlik, adolatparvarlik, qahramonlik kabi xislatlarni mujassamlashtirganki, ijodkor asil hukmdor o‘zida mujassam etishi lozim bo‘lgan barcha sifatlarni ushbu asarga kiritadi. Bundan tashqari Eron va unga qo‘shni hududlar mifologiyasida mavjud bo‘lgan chaqmoq ilohi xususiyatlari ham aynan Bahrom obrazida yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Xususan, Bahrom uddaburon lashkarboshi, oliy nasabli podshoh, yengilmas quvvatga ega pahlavon sifatida gavdalanadi va bu hatto uning Go‘r deb berilgan laqabida ham o‘z ifodasini topgan. Olim S.Hasanov Bahrom obrazi genezini tadqiq etar ekan u haqida quydagi ma‘lumotlarni keltiradi: Navoiyning “Sab‘ai sayyor”ini rus tiliga tarjima qilgan olim S. Lipkin asar so‘zboshisida doston ildizlari hind-eron xalqlarining chuqur tarixiga borib taqalishini, asardagi Bahrom obrazi hind-eron xalqlari mifologiyasida katta o‘rin tutuvchi iloh hisoblanmish Veretragn, ya‘ni chaqmoq va momaqaldiraq xudosi, deya ta‘kidlaydi. Bundan tashqari Sharq mamlakatlarida Mars (Mirrix) yulduzi ham aynan Bahrom nomi bilan atalib, u urush, jang-jadal homiysi sifatida e‘tirof etiladi. Bu qahramon Turkman xalq eposlarida Shobehram, armanlarda Vahagn, gruzin xalq poemalarida Vaxtang Go‘rgasol, rus yodnomalarida Georgiy Pobedonosets deb yuritiladi<sup>1</sup>. Bahrom obrazi hatto rus adabiyotlarida ham uchrashi g‘ayritabiiydek tuyilishi mumkin, ammo yuqorida nomi qayd etilgan qahramon ko‘plab shaxsiy sifatleri bilan biz tahlilga tortayotgan shoh Bahromga o‘xshab ketadi. Olim Ferdinant Yusti Bahrom nomi kelib chiqishini juda qadim tarixga bog‘laydi. U bu nomni juda uzoq vaqtdan beri toat-ibodat bilan shug‘ullanib kelayotgan momaqaldiraq va chaqmoq xudosi Indra Veritragn bilan bog‘lab, uning sanskrit adabiyotida uchrashini qayd etadi<sup>2</sup>. Bundan tashqari adabiyotda Yazdigirdning o‘g‘li Bahrom V gacha Bahrom nomi bilan o‘n uch nafar hukmdor o‘tganligi, ularning birinchisi Bahrom-g‘olib, ikkinchisi Bahrom-mergan, boshqa biri Bahrom-shernajot, ayrimi Bahrom-zolim kabi laqablar bilan tanilganligi qayd etiladi. Keyinchalik, biz bilgan Bahrom V tarix sahnasiga chiqib keladi. Bundan tashqari sasoniylar saroyidagi hukmron doiralar, zardushtiylarning ruhoniylari Bahromni juda hurmat qilgan holda uni ideallashtirishga harakat qilganlar. Buning boisi Bahromning zardushtiylarning manfaatlariga har tomondan madad berib, nasroniylarni tazyiq ostiga olganligi bilan izohlanadi<sup>3</sup>. Xususan, u taxtga chiqishining ilk kunlaridanoq zardushtiylarga keng imkoniyatlar ochib berib ular bilan yaqinlashgan. Zardushtiylar esa o‘z navbatida Bahromni ideallashtirib, uni iloh darajasiga ko‘tarishdan manfaatdor ham edilar. Shu taxlit Bahrom V tarixiy shaxs bo‘lish bilan bir qatorda iloh Veretragnga ham aylana bordi. Uning shaxsiy hayotida chindan ham otasi Yazdigird zolim podshoh bo‘lgani, uni dushmanlari hujumidan asrash uchun Yamanga Nu‘mon huzuriga yuborilgani, Yaman ob-havosi salbiy ta‘sir ko‘rsatmasligi uchun bahavo joyda Havarnaq qasri qurilganligi, Yazdigirdning o‘limidan so‘ng Xusravshohning taxtga egalik qilmoqchi bo‘lganligi-yu Bahrom Nu‘mon bilan katta qo‘shin to‘plab Eronga bostirib kelishi, so‘ng ikki sher orasidan tojni olib xalq oldida adolatli siyosat yuritishga va‘da bergach

<sup>1</sup> Hasanov S. Navoiyning etti tuxfasi. – Tosh.: Faqur Fulom. 1991. B – 118-119.

<sup>2</sup> Usha asar, 119-bet.

<sup>3</sup> Usha asar, 119-bet.

taxtga chiqishi kabi voqealar ro'y berganligini biz "Xudoynomak", "Tarixi muluki ajam", "Tarixi tabariy" kabi asarlardan bilib olishimiz mumkin. Bahrom haqida Alisher Navoiy ham o'zining "Tarixi muluki ajam" asarida to'xtalib: "Bahrom binni Yazdijurd chun otasidin so'ngra saltanat taxtiga o'lturdi, otasi buzg'onlarni tuzdi va aning zulmiga adolat ko'rguzdi. Va ani Bahrom Go'r dedilarki, go'rni shersayd qilg'onda aning o'qi egnidan o'tib yerga tegdi. Ba'zi depturlarkim, go'r ovig'a ko'p moyil erdi".

Bahrom haqida keng tadqiqotlar olib borayotgan yana bir olim M.Muhiddinov akademik I. Orbelining fikriga quyidagicha to'xtaladi, Bahromning "Go'r" laqabi qadimgi Vavilon, Eron va Kavkaz xalqlari mifologiyasida mavjud bo'lgan "Gurg" (bo'ri) laqabidan kelib chiqqan. Bu afsonada ko'rsatilishicha, Bahrom tanasi odam, boshi bo'ri (gurg) shaklida tasvirlangan va u o'zining shijoati, bahodirligi bilan yovuz kuchlarni yengib borgan. Hozir ham kurd xalq afsonalarida Bahrom "Gurg" laqabi bilan tilga olinadi. Olim "Go'r" so'zi "Gurg" so'zining tarixiy o'zgarishidan paydo bo'lgan, deb ta'kidlaydi<sup>1</sup>. Biroq Firdavsiy "Shohnoma"sida tasvirlanishicha, Bahrom qulon (go'r) oviga ishqiboz bo'lganligi sababli "Go'r" laqabini olgan. Firdavsiy asarda Bahromning ijobiy tomonlari bilan bir qatorda salbiy xususiyatlarini ham ko'rsatib o'tgan. Ovg'a o'chlik, maishatparastlik, qahrining cheksizligi kabilar shular jumlasidandir. "Shohnoma"da Bahromning tug'ilishidan tortib to o'limigacha bo'lgan voqealar badiiy hikoya qilib beriladi. Bahromning tarbiyalanishi, otasi o'limidan so'ng kurash olib borib taxtga egalik qilishi, hukmdor bo'lgach tez-tez ovga chiqib biror qishloqda mehmon bo'lib qolishi, insof-adolat, baxillik va saxiylik, to'g'ri-no'to'g'ri siyosatlar haqida eshitishi yoki o'zi bularning guvohi bo'lishi kabilar tasvirlanar ekan, Bahromning adolatparvar hukmdor bo'lishi uchun ijodkor uni tayyorlab boradi. Asar rivoji davomida Bahrom Hind yurtiga qiyofasini o'zgartirib elchi niqobida boradi hamda shoh qizini nikohiga olib, Hindistonni o'z hukumronligi ostiga oladi. Chin xoqoni bilan kurashib uni mag'lub etadi. Doston yakunida esa Bahrom o'z qasrida vafot etadi. Ushbu doston va dostonning atigi bir faslini tashkil etuvchi shoh Bahrom tarixi hikoyati o'zidan keyin eron dostonchiligiga ulkan hissa qo'shdi. Ko'p ijodkorlar "Shohnoma"dan ta'sirlanib undagi voqealar silsilasiga ergashib yangidan yangi she'riy va nasriy asarlar yaratdilar. Xususan, Bahrom va uning o'z kanizagi ("Shohnoma"da Ozoda) bilan bo'lgan to'qnashuvi voqealari qalamga olingan asarlar vujudga keldi. "Shohnoma"da Bahrom kanizagi bilan go'r (kiyik) oviga chiqqanda Ozodaga kiyikni qanday o'tay, sen aytganingday o'ta olaman, deya maqtanadi va kanizagining istagiga binoan kamon o'qi bilan kiyiklarning erkagini urg'ochiga, urg'ochisini esa erkakka muguzini almashtirib, boshini oyog'iga chatib tashlaydi. Ammo shunday merganlik va

<sup>1</sup> Мухиддинов М. Кўнгил ҳайратлари.– Тош.: Тамаддун. 2021. Б – 234.



iqtidor uchun kanizagidan maqtov o‘rniga kiyiklarga berahmlik qilgani uchun ta’nama’lomatlar qilingan Bahrom g‘azab otiga minadi va kanizini tuya oyoqlari ostiga tashlab yanchtirib yuboriladi. Umuman olganda, Firdavsiy bu o‘rinda kanizak Ozodaga sira ham achinmagan. Uni qiziqtirgan va diqqat markazida turgan obraz Bahrom edi. Sha’ning toptalishiga jim qarab tura olmagan hukmdor o‘z mahbubini ayab o‘tirmasligi va keyinchalik bu qilmishidan afsuslanmasligi, nafaqat achinmaslik, balki Ozodani butunlay yodidan chiqarib yuborishi Bahromda mujassamlashgan ijobiy va salbiy xislatlarning bo‘y ko‘rsatishida yordam bergan. Firdavsiy u, avvalo, g‘uruli shoh edi va shu bois uni o‘z darajasiga ko‘ra hurmatlamaganlarning holi shu taxlid yakun topishi kerak, deya hisoblaydi. Ammo xuddi ana shu lavhadan ta’sirlangan Nizomiy Ganjaviy voqeani qayta ishlaydi va mashhur “Haft paykar” dostonini yaratadi. Ammo Nizomiy Firdavsiydan farqli o‘laroq u Bahromni nafaqat shoh, balki oshiq ham qilib gavdalantirgan. “Shohnoma”da Bahrom va Ozoda sarguzashti kichik bir sahna sifatida e’tirof etilgan bo‘lsa, “Haft paykar”da u butunboshli asar yaralishiga sabab edi. Ganjaviyning asarida Ozoda Fitna, Amir Xusrav Dehlaviyning “Hasht behisht” va Amir Alisher Navoiyning “Sab’ai sayyor”ida Dilorom nomlari bilan ataladi. Nizomiy Firdavsiy ta’riflagan Bahromning hukmdorlik, mohir sarkardalik, jasurlik kabi asosan ijobiy xislatlarini olib o‘zidan yana ko‘plab jarayonlar qo‘shadi, badiiy to‘qimalar asosida bu gal ishq tarannum etilgan sevgi dostonini yaratadi. Firdavsiyning “Shohnoma”sidan farqli o‘laroq Nizomiyning “Yetti go‘zal”ida Bahrom asosiy qahramon rolini o‘ynaydi. Shoir Bahrom haqidagi afsonani mukammalroq bayon etishga harakat qiladi. Bahrom to‘g‘risidagi rivoyatlar “Shohnoma”da ko‘proq tarixiy ruhda bayon etilgan bo‘lsa, Nizomiy uni o‘z g‘oyaviy-badiiy didiga moslab qayta yaratadi.

Nizomiy Ganjaviyning “Haft paykar”i bir-biri bilan bog‘liq bo‘lmagan besh hikoyatdan iborat. Firdavsiydan farqli o‘laroq Nizomiy kanizak Fitnani o‘ldirmaydi, chunki u Bahromni shoh deya ta’riflash bilan birga oshiq ham qilishi kerak edi. Ganjaviy Bahrom va Fitna obrazlarini tasvirlash uchun ketma-ket kelgan ikki bobni ajratadi. Ular “Bahrom va uning kanizagi haqida doston” hamda “Bahromning ovdan qaytayotib sarkardaning oromgohida mehmon bo‘lishi” deya nomlangan. Voqealar rivojida “Shohnoma”da bo‘lgani kabi shoh Bahrom Go‘r kanizagi bilan ovga chiqadi va go‘rlarni shunchalar mohirlik bilan otadiki, o‘zi ham bunga hayron qoladi. U o‘q yordamida kiyikning oyog‘ini qulog‘iga bog‘lagan edi. Ammo kanizak buni maqtov-u hamd-sanolar bilan e’tirof etmay, shunchaki mashq natijasi, deb aytgani uchun g‘azab otiga minib uni o‘ldirmoqchi bo‘ladi. Ammo saroy a‘yonlari Bahromdek ulug‘ hukmdorga bir ojiza ayolning qonini to‘kish yarashmaydigan ish, deb bunga qarshi chiqishgach Bahrom Fitnani o‘ldirishni sarkardasi Sarxangga topshiradi. Sarxang esa

uni o'ldirmay hayotini saqlab qoladi va keyinchalik Fitnaning tashabbuskorligi natijasida Bahrom va Fitna qayta topishadilar.

Amir Xusrav Dehlaviy shoh Bahrom sarguzashti uchun atab yaratilgan asarini "Hasht behisht", ya'ni "Sakkiz jannat" deya ataydi. Bu dostonida endi Firdavsiyning Ozoda, Ganjaviyning Fitnasi Diloromga aylanadi. Umuman olganda, Dehlaviyning maqsadi o'zaro bog'liq bo'lgan yetti hikoya yaratish emas, balki bir-biridan mustaqil sakkizta qiziqarli turli hikoyalar ijod qilish edi. Shuning uchun Nizomiyning "Haft paykar"idan uning "Hasht behisht"ining eng birinchi farqi ham aynan nomlanishida kuzatiladi. Voqealar rivojini yoritir ekan, shoir Bahrom hayotidagi ko'plab voqealarni qisqartiradi yoki butunlay olib tashlaydi. Xususan, Bahromning tarbiyalanishi, qahramonliklari, yetti qasrning qurilishi kabi o'rinlar qisqartirilgan bo'lsa, cho'pon bilan uchrashuv, xoin vazirning jazolanishi kabi o'rinlarni butunlay olib tashlaydi.

Endi Bahromning kanizak Dilorom bilan ovga chiqishi sahnasi gavdalanitiriladi. Bu voqea Firdavsiyning "Shohnoma"si va Ganjaviyning "Haft paykar"ida bo'lgani kabi tasvirlanadi. Go'rlarni ovlash bilan mashg'ul bo'lgan Bahrom Diloromga san'ati kuchini ko'rsatib maqtanish uchun undan kiyiklarni qanday otishni so'raydi. Diloromning istagiga ko'ra, u ota kiyik shoxini ko'chirib ona kiyikka o'tkazishi ("Shohnoma"dagi kabi), ya'ni ota kiyikni ona kiyikka, ona kiyikni esa, ota kiyikka aylantirishi kerak edi. Shoh Bahrom buni muvafaqqiyatli uddalaydi va buning evaziga Diloromdan maqtov so'zlari kutadi. Ammo Dilorom kutilganidek maqtov yog'dirish o'rniga hozirgi ov haqiqatda ajoyib bo'lganligini, ammo bundan-da zo'rrog'ini ko'z oldiga keltirish qiyin emasligini aytib qo'ya qoladi. Bundan darg'azab bo'lgan Bahrom o'zidan zo'rroq boshqa birov bu olamda topilmasligini, agar topilguday bo'lsa, Diloromga o'shaning oldiga ketishini aytib, uni otdan uloqtirib yuboradi va bir o'zini sahroda yolg'iz tashlab ketadi. Bu o'rinda insonning ruhiy holati real tarzda namoyon bo'ladi. Voqealar rivojida Bahrom va kanizak qayta topishadilar.

Sharq xalqlari tarixida xamsa ijodkorlari ko'pchilikni tashkil qiladi. Xususan, Kotib Turshiziy, Abdurahmon Jomiy, Badriddin Hiloliy, Abdullo Xotifiy, Shahobiddin Jomiy, Ashraf Marog'iylar shular jumlasidandir. Bulardan Kotib Turshiziy hamda Abdurahmon Jomiy Nizomiy va Dehlaviy "Xamsa"sining uchta dostoniga javob-nazira bitgan bo'lsalar, Ashraf Marog'iy har beshala dostoniga javob yozgan ijodkor hisoblanadi. Ammo negadir Marog'iyning ushbu "Xamsa"si el orasida yoyilib ketmadi. Ashraf Marog'iy haqida Alisher Navoiy hazratlari bir qancha asarlarida eslab o'tadilar. Masalan, "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida "yana chun "Sab'ai sayyor" rasadin zamirim bog'latur. Ashraf "Haft paykar"ining yetti hurvashini peshkashimg'a yarog'latur",– deya Marog'iyning "Haft avrang" ("Yetti taxt")iga yuksak baho beradi. Uning "Xamsa"si tarkibidagi to'rtinchi dostoni "Haft avrang" deya nomlanadi va u Bahrom tarixini madh etuvchi asar hisoblanadi. Endi "Haft avrang"da Bahrom

oshiq hukmdor emas, balki adolatli podshoh sifatida gavdalanadi. Ashraf talqinida Bahrom haqidagi epizodlar qisqartirilgan. Shoir bunda asosiy e'tiborni hikoyatlarga qaratadi. "Yetti taxt" Bahromning tug'ilishi hamda tarbiyalanishi uchun Yamanga yuborilishidan boshlanadi. Bunda ham Nu'mon Bahrom uchun Havarnaqni qurdiradi. Keyingi bob Yazdegird vafoti, Bahromning sherlar orasidan tojni olib hukmdor bo'lishi tasvirlariga bag'ishlanadi. Bu dostonda ham Bahrom kiyiklarni ovlashga ishqibozligi sababidan "Go'r" laqabini olgan. Ashraf Bahromni oshiq emas, adolatli shoh qiyofasida ko'rishni istaydi. Bahrom xalqni odillik bilan boshqaradi, keyinchalik yetti rangdagi yetti qasrni qurdirishga kirishadi va qurilishga Shod Shernajodni mas'ul qilib tayinlaydi. Qasrlar ikki yil-u uch oyda qurib bitkaziladi. Keyin yetti iqlim podsholariga ularning qizlariga uylanmoqchiligini bildirib xat yo'llaydi. Yetti iqlim hukmdorlari to'y-tomoshalar bilan qizlarini Bahromga nikohlab beradilar. Ashraf dostonda Firdavsiy, Nizomiy va Dehlaviydagi kabi Bahromning kanizak bilan bo'lgan sarguzashtlarini kiritmaydi. Har tun saroylarda eshitadigan hikoyalari ham uni uxlatish yoki dardiga shifo bo'lish uchun emas, aksincha uni g'aflat uyqusidan olib qolish maqsadida aytilar edi. Har bir hikoya Bahromni odil podshoh bo'lishi uchun pand-nasihat, yo'l-yo'riq vazifasini o'tashi kerak edi. Ayni shu jihati bilan Marog'iyning "Haft avrang"i o'zidan oldin yaratilgan shu ruhdagi asarlardan keskin farq qiladi. Ammo dostondagi hikoyalar syujeti, badiiy to'qimalar, xalq eposlariga boyligi, jin-u sehrli kuchlar ishtiroki ko'pligi jihatidan avvalgi asarlarga yaqin turadi.

Alisher Navoiyning "Sab' ai sayyor" ("Yetti sayyora")si esa tugal kompozitsion yaxlitlikka egaligi bilan Nizomiy, Dehlaviy va Marog'iyning dostonlaridan ajralib turadi. Navoiyning ushbu dostoni mazkur mavzuda o'zigacha bitilgan asarlar orasidagi birinchi turkiy doston edi. Asarning asosiy voqealari o'n ikkinchi bobdan boshlab hikoya qilinadi. Dostonda Bahrom va Dilorom haqidagi afsona yetti hikoyani o'zida qoliplovchi sevgi haqidagi asarning ajralmas qismiga aylantirilgan. Shu boisdan ham Navoiy an'anaviy kirish qismlarini tugatishi bilanoq ovga chiqqan Bahromning rassom Moniy bilan uchrashuvi va surat orqali Diloromni sevib qolishi tasvirini boshlab yuboradi. Bahrom Chinning bir yillik xirojini to'lash evaziga Diloromga erishadi. Shundan so'ng Bahrom qizga butunlay bog'lanib qoladi va davlat ishlarini unutib yuboradi. "Shohnoma"dagi kabi ovda Bahrom o'z mahoratini ko'rsatish uchun kiyikni qanday otishini so'raydi va Diloromning xohishiga ko'ra, kiyikning to'rt oyog'ini bir o'q bilan bog'lab, keyingisida kiyikni bo'g'izlaydi. Dilorom esa boshqa dostonlardagi kabi buni faqatgina mashqning natijasi deya bunga e'tibor bermaydi. G'azablangan shoh Bahrom mastlikda Diloromni oyoq-qo'lini bog'lab, sahroga tashlab kelishga buyruq beradi. Keyin esa mastlik tarqab o'ziga kelgach qilgan ishidan afsuslanadi, sahroga borib Diloromini izlaydi, ammo topa olmaydi.

Nizomiy va Dehlaviy dostonlarida Bahrom g'amginligini biroz bo'lsa-da tarqatish uchun musofir keltirishlarini va keltirilgan musofir biron bir qiziqarli voqeani aytib berib qissaxonlik qilishini buyuradi. Buyruqqa binoan keltirilgan qissago'ylar Bahromga bir-biridan ajoyib hikoyatlar aytib berishadi. Ushbu hikoyatlarning so'ngisida aytilgani Bahromni o'z Diloromiga yetishishi uchun ko'prik bo'lib xizmat qiladi. Hikoyatda aytilishicha, bir qiz musiqa ilmida jahonda qiyosi yo'q darajada mahoratga ega ekan. "Sab' ai sayyor" da u soz chalganida odamlar bir o'lib, bir tirilishi keltiriladi. Bu holat Dehlaviylikidan biroz farq qiladi. Xususan, Dehlaviy yaratgan Dilorom soz chalganda hayvonlar o'lib tirilar edi, deyilgan. Navoiy hazratlari bu yerda biroz mantiqiylikka yaqin keladilar, ya'ni san'at hayvon uchun emas, balki odamlar uchun ekanligiga ishora qiladilar. Musofir qizning doim qayg'uli qiyofada kofuriy libos kiyib yurishining sababini so'raydi. Qiz agar bu yerlardan ketishga va boshqa hech kimga bu haqida aytmassligiga va'da bersa, boshidan o'tganlarini so'zlab berishini aytadi. Musofir rozi bo'lgach qiz boshidan o'tganlarini aytib beradi. Musofir esa Bahromga jami olamdagi eng ulug' podshoh bo'lganligi uchun bu voqealarni aytib berganligini izhor etadi. Musofir hikoyati orqali Bahrom Diloromning daragini topadi va hushini yo'qotadi. Bahrom qanchalik jidd-u jahd aylab Dilorom tomonga qanot chiqarib uchib borishga shay bo'lsa-da bunga tabiblar norozilik bildirishadi. "Tog'ning odati o'z yerida istiqomat qilib turishdir, agar u qo'zg'aladigan bo'lsa, qiyomat qo'porilur. Bir necha g'amni ichga yutib, sabr etib, shu yerda tur-da, olam tartibini buzma", deyishadi ular. Shundan so'ng ilojisiz qolgan Bahrom axiyri xat yo'llashga majbur bo'ladi. Bahromdek ulug' hukmdor sevgilisiga yo'llagn maktubida tezroq yoniga qaytishini qattiq o'tinib so'raydi, agar kechiksa, Bahromning uzilgan joni uning gardanida qolishini aytib, pichoqsiz so'ymaslikni o'tinadi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, Nizomiyda ham, Dehlaviyda ham hukmdor kanizakka xat yo'llamaydi. Ularda shoh kanizaklari bilan uchrashganda, hatto qarshisida turgan qiz o'z kanizagi ekanligini ham bilmaydi. Bahromni o'z qilmishidan afsuslanishga majbur bo'lgandan so'ng o'zlarini tanitadilar. Maqsadlari xuddiki Bahromni qilgan qilmishidan pushaymon bo'lishiga majbur qilishdek tuyilib qolgan, vaholanki, ular hukmdorning marhamatiga qayta musharraf bo'lganlaridan xursand bo'lishlari kerak edi. Bir qarashda "Sab' ai sayyor" da sevishganlar uzoq ayriliqdan so'ng visolga erishganday tuyiladi. Darhaqiqat, shunday. Bahrom Diloromni topadi, ular qovushadilar. Lekin ularning baxti uzoqqa cho'zilmaydi: Bahromning sevgilisi Diloromni lashkar-ashyolari bilan yer yutadi – xotima yana fojiviy. Buning sababi shuki, shoir o'z zamonida oxiri fojia bilan tugamagan baxtiyorlikni ko'ra olmagan<sup>1</sup>. Bundan tashqari Navoiy Bahromning o'limini kengroq fojiviylik yo'sinida va qolgan salafalaridan

<sup>1</sup> Мухиддинов М. Кўнгил хайратлари.– Тош.: Тамаддун. 2021. Б – 242.

ishonchliroq qilib tasvirlaganki, bu Navoiyning yana bir ulkan yutug'i desak, mubolag'a bo'lmaydi. Akdemik A. Qayumov buni quyidagicha izohlaydi: "Navoiy "Sab' ai sayyor" dostoni mazmuniga o'zgartirishlar kiritdi, uni yaxshiroq va dilkashroq qildi. Bu dadilligi va o'zbilarmonligi (gustohligi) uchun ustozlaridan kechirim so'raydi. Chunki u ustozlar yo'l qo'ygan xatolarni tuzatmog'i kerak edi"<sup>1</sup>.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, shoh Bahrom va uning tarixi, badiiy obrazlarning yuzaga kelishi haqidagi ilmiy xulosalar turli-tuman va serqirradir. Shuning uchun ham Bahrom Go'r haqidagi har bir asar badiiy adabiyot, adabiyotshunosik, tarix, dinshunoslik kabi fanlarda juda muhim o'rin tutadi. Shu boisdan bu boradagi ilmiy izlanishlar o'z ahamiyatini yo'qotmaydi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. Ҳасанов С. Навоийнинг етти тухфаси. Тош., Фафур Фулом. 1991.
2. Муҳиддинов М. Кўнгил ҳайратлари. Тош., Тамаддун, 2021.
3. Қаюмов А. Асарлар. 3-қисм. Тош., Мумтоз сўз, 2009.

---

<sup>1</sup> Қаюмов А. Асарлар.– 3-қисм. Тош.: Мумтоз сўз. 2009. Б – 11-12.

## THE IMPLEMENTATION OF INTERACTIVE ACTIVITIES IN DEVELOPING SPEAKING SKILLS OF ESP STUDENTS BY PRESENTATION, PRACTICE AND PRODUCTION

**Kuchkarova Mukhabbat Yigitalievna**

Assistant, Department of Teaching Uzbek and Foreign Languages  
Ferghana Polytechnic Institute, Uzbekistan.

### ABSTRACT

This article reveals the role of interactive activities in the teaching of a foreign language. The author of the article believes that the importance of learning a foreign language is undisputed. But there are a lot of problems in the process of learning a foreign language. These include the problem of increasing the effectiveness of oral language learning in foreign language lessons, which is directly related to the gap between theory and practice and the passive nature of learning activities, while the absolute value of society becomes an educated active person capable of continuous self-education, self-development and self-improvement. If modern pedagogical technologies are used in the process of teaching foreign-speaking speech, it will increase the efficiency of teaching this type of speech activity. In order to facilitate the communication of students, we should take into account the specific features of this type of speech activity, such as motivation, purposefulness, activity, connection with the personality and thinking activity of a person, independence, pace and situations. If there are goals and motives of communication, taking into account the specific features of the participants of communication, their age, level of development, etc., then the act of communication will certainly take place within the framework of any speech situation.

**Keywords:** situation, communication, age, students, level of development, independence, participants of communication, speech, activity, efficiency, modern technology.

### АННОТАЦИЯ

данная статья раскрывает роль интерактивных видов деятельности в преподавании иностранного языка. Автор статьи считает, что значение изучения иностранного языка бесспорно. Но при обучении возникает множество проблем. К ним относятся проблема повышения эффективности обучения устной речи на уроках иностранного языка, которая непосредственно связана с разрывом между теорией и практикой и пассивным характером учебной деятельности, тогда как

абсолютной ценностью общества становится образованная активная личность, способная к непрерывному самообразованию, саморазвитию и самосовершенствованию. Если в процессе обучения иноязычной устной речи использовать современные педагогические технологии, то это позволит повысить эффективность обучения данному виду речевой деятельности. Чтобы способствовать общению студентов, мы должны учитывать специфические признаки данного вида речевой деятельности, такие как мотивированность, целенаправленность, активность, связь с личностью и мыслительной деятельностью человека, самостоятельность, темп и ситуативность. Если есть цели и мотивы общения, учтены характерные особенности участников общения, их возраст, уровень развития и т.д., то акт общения, безусловно, состоится в рамках какой-либо речевой ситуации.

**Ключевые слова:** ситуация, общение, возраст, студенты, уровень развития, самостоятельность, участники общения, речь, деятельность, эффективность, современные технологии.

## INTRODUCTION

PPP is a deductive approach to learning. Surely, it was used by almost every teacher in his practice. The approach is universal, does not require shamanic tambourine, unicorn tears, wise knowledge and preparation. First of all the approach is simple and logical - thanks to this it naturally fits into the learning process There is nothing to even talk about, the name shouts for itself. Each person is responsible for its own phase: Presentation, Practice and Production. And furthermore there some steps. The most important part of the lesson is that here the teacher will have to sweat a lot to clearly convey the essence of the lesson topic. It looks like this: the teacher sets the situation using history, video, audio, dialogue, a paragraph from the text - everything where you can find the structure you want to teach. We need a context that will reveal the function and meaning of the new topic in full. It can be either a new time in grammar or a separate structure. For example, for used to you can find a small video about life earlier and now, or just show your photos 5 years ago and recent (students like to learn different details of the life of their teachers. Sometimes I think they work for intelligence...) For instance, women used to wear long dresses. Now they can wear shorts and t-shirts. Women used to wear parasols in the sun. Now they prefer to wearing sunglasses, etc. It is very important that the information is presented in as much detail as possible and used by a direct value. Avoid exclusions to avoid confusing students for starters. Next, accordingly the teacher gives his examples with the structure studied so that students can see how to create and use it on their own. As a result, to make sure that the topic has “entered”, you need to set a couple of concept checking questions.

The drilling stage, where you have to be the notorious “parrot” and repeat the new structure for students, ask them to repeat it together or one at a time until they reach the ideal. There are many exercises for honing a skill at this stage - gap fill exercises, split sentences and matching sentences to pictures.

The main condition here is the complete control of students, their pronunciation, the use of grammar and the eradication of any errors. Timing can vary - it is worth spending as much time on this as it takes your students to understand and assimilate a new topic.

AI to'g'ridan-to'g'ri tarmoq tashqi ta'siri tufayli yuzaga keladigan ma'lumotlar bilan bog'liq miqyos tejamkorligini namoyish etadi (ko'proq mijozlar ko'proq ma'lumot ishlab chiqaradi, bu AIdan yuqori sifatli bashorat qilish imkonini beradi, bu esa o'z navbatida ko'proq mijozlarni yaratadi, ko'proq ma'lumot ishlab chiqaradi va hokazo). Ma'lumotlar iste'mol qilishda raqobatdosh bo'lmasa-da, katta ma'lumotlar to'plamlarini to'plash va ma'lumotlarni shaxsiy siloslarda saqlashga qodir bo'lgan yirik texnologiya kompaniyalari AI rivojlanishida etakchilikni saqlab qolishga qodir. Ma'lumotlarning monopolistik nazoratiga yo'l qo'yish kerakmi yoki yo'qmi, degan savolga siyosiy munozaralar davom etmoqda, chunki bu kichik firmalarning "katta ma'lumotlar" ga kirishiga to'sqinlik qiladi va AI innovatsiyasini sekinlashtiradi.

## **XULOSA**

Savdo siyosati va sun'iy intellekt o'rtasidagi interfeysni tahlil qilib, men savdo siyosatining AI boshqaruvi uchun muhim oqibatlariga olib kelishini ko'rsatdim, bu ko'pincha kam baholanadi:

- Yirik texnologik firmalar va hukumatlar ta'sir o'tkazish uchun kurashayotgan AI bo'yicha xalqaro yo'riqnomalar va standartlar ixtiyoriydir, ammo ular savdo bitimlarida o'zaro havola qilinganda katta ahamiyatga ega bo'ladi. Xalqaro standartlar sun'iy intellektdan foydalanish va jarayonlarni qamrab olganligi sababli, ular jamoat manfaatlarini aks ettirishi muhim, biroq standartlarni o'rnatishda sanoatning yirik ishtirokchilari va ayrim hukumatlar ustunlik qiladi.

- Sun'iy intellekt texnologiyalariga savdo shartnomalari, jumladan algoritmlar va manba kodlari uchun qo'shimcha intellektual mulk huquqlari berilyapti, bu esa dominant firmalarning bozor qudratini kuchaytirish va algoritmik shaffoflik va hisobdorlik sari harakatga to'sqinlik qilish xavfini tug'diradi.

- AI texnologiyalari tarmoq effektlari va miqyosi va ko'lami iqtisodini namoyish etib, raqamli bozorlarda kontsentratsiyani kuchaytiradi. Yirik raqamli firmalarning global ko'lamini inobatga olgan holda, raqamli bozorlarda raqobatni rivojlantirish uchun xalqaro hamkorlik juda muhim, biroq hamkorlik hali boshlang'ich bosqichida va xususiy shaxslarning bozor hukmronligini hal qilish qoidalari xalqaro savdo huquqida kamchilik bo'lib qolmoqda.

- Raqamlashtirish natijasida iste'molchilar va ishchilar har qachongidan ham ko'proq transchegaraviy iqtisodiy tranzaksiyalar bilan shug'ullanmoqdalar, ular algoritmik tizimlar samaradorligidan foyda ko'radilar, lekin transchegaraviy algoritmik zararlarga ham duchor bo'lishadi. Iste'molchilar va ishchilar huquqlarini himoya qilish uchun xalqaro tartibga solish va hamkorlikning yangi shakllari kerak bo'ladi, ammo bu endigina tan olinmoqda.

- Savdo bitimlari sonining ortib borishi AI texnologiyalarining ishlashi uchun muhim bo'lgan transchegaraviy ma'lumotlar oqimi bo'yicha majburiyatlarni o'z ichiga oladi; ba'zilari, shuningdek, AI innovatsiyasini yanada targ'ib qiluvchi ochiq hukumat ma'lumotlarini targ'ib qiladi. Shunga qaramay, ular shaxsiy ma'lumotlar himoyasini kuchaytirish uchun kam ish qiladilar, garchi ma'lumotlarni olish va nazorat qilish fuqarolarning shaxsiy hayotiga putur etkazishi mumkin; Shuningdek, ular yirik texnologiya kompaniyalari tomonidan ma'lumotlar to'plamlari ustidan imtiyozli nazoratni nazarda tutmaydi, bu esa kichikroq AI firmalari uchun kirish uchun to'siq bo'lishi mumkin.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Ada Lovelace Institute (2021), ‘Regulate to Innovate: A Route to Regulation that Reflects the Ambition of the UK AI Strategy’, November, <https://www.adalovelaceinstitute.org.uk/report/regulate-innovate>.
2. Adams-Prassl, J. (2019), ‘What If Your Boss Was an Algorithm? Economic Incentives, Legal Challenges, and the Rise of Artificial Intelligence at Work’, *Comparative Labor Law and Policy Journal*, **41**, 123.
3. Bertuzzi, L. (2021), ‘Setting the AI Standards: The Underlying Struggle for the Future of Artificial Intelligence’, *Tech.Eu*, 3 December, <https://tech.eu/2021/12/03/setting-the-ai-standards-the-underlying-struggle-for-the-future-of-artificial-intelligence/>.
4. Bessen, J. E., Impink, S. M., Reichensperger, L., and Seamans, R. (2020), ‘GDPR and the Importance of Data to AI Startups’, April, <https://doi.org/10.2139/ssrn.3576714>.
5. European Commission (2021a), ‘Proposal for a Directive of the European Parliament and of the Council on Improving Working Conditions in Platform Work’, 2021/0414 (COD), Brussels, <https://ec.europa.eu/social/BlobServlet?docId=24992&langId=en>.
6. (2021b), ‘EU–US Trade and Technology Council Inaugural Joint Statement’, European Commission, accessed 1 March 2022, [https://ec.europa.eu/commission/presscorner/detail/en/STATEMENT\\_21\\_4951](https://ec.europa.eu/commission/presscorner/detail/en/STATEMENT_21_4951)

## INNOVATSION BOSHQARUVDA TA'LIM MUASSASASI MONITORINGNI TASHKIL ETISH TIZIMI

**Mamatqulova Kimyoxon Abdujalilovna**

Nizomiy nomidagi TDPU pedagogika  
fanlari falsafa doktori, dotsent

**Xudoyqulov Salohiddin Shokir o'g'li**

Nizomiy nomidagi TDPU  
Maktab menejmenti yo'nalishi 4-bosqich talabasi

### ANNOTATSIYA

Maqolada boshqaruvda ta'lim muassasasi monitoringni tashkil etish, monitoring metodlari an'anaviy va noan'anaviy metodlar haqida tushunchalar, monitoring natijalarini rasmiylashtirish haqida so'z boradi. Shuningdek, monitoring o'tkazishning o'ziga xos talab va mezonlarini takomillashtirib borish bo'yicha tavsiyalar berilgan

**Kalit so'zlar:** reyting, ta'lim sifati, monitoring, monitoring metodlari, baholash mezonlari, indikatorlar.

Tarixiy nuqtai nazardan oladigan bo'lsak, XX asrdan boshlab fanda monitoring tushunchasi qo'llanila boshlandi. Monitoring boshqaruv tizimida sifatli axborot to'plash, ilmiy asoslangan axborotni qayta ishlash, saqlash, tarqatishni o'z ichiga oladi. U ilmiy izlanish orqali to'planganligi uchun u yoki bu sohani tahliliy xulosalar asosida kelgusidagi istiqboli va rivojlanishini ta'minlaydi. Aniq bir sohaning hozirgi kundagi ahvoriga baho beradi, uning istiqbolini bashorat etish asosida taraqqiyotini belgilaydi<sup>121</sup>.

Monitoring metodlari ikkiga bo'linadi: an'anaviy va noan'anaviy metodlar.

**An'anaviy metodlar** – kuzatish, eksperiment, tajribani umumlashtirish va ommalashtirish, so'rovnoma o'tkazish, ichki nazorat, natijalarni chizma jadval asosida tahlil etish, jadval va tarixiy tahlili.

**Noan'anaviy metodlar** – o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini hamda ta'lim jarayoni ishtirokchilarining faoliyatini talab darajasida ishlab chiqilgan mezonlar asosida reyting bahosini aniqlash, tahlil etish, mavjud bo'lgan bo'shliqlarni belgilash.

<sup>121</sup> Ахлидинов Р.Ш. Мактабни бошқариш санъати. Монография. - Т.: Фан, 2006. -303 б

**Monitoring ob'ekti** – ta'lim tizimiga tegishli bo'lgan qarorlarning bajarilishi, ta'lim muassasasi ish rejasining bajarilishi, o'quv jarayoni, tarbiya jarayoni, uslubiy ishlar, innovatsion jarayon, o'quv-tarbiya jarayonining ta'limlanganligi, ta'lim muassasasidagi psixologik holat.

**Monitoring natijalarini rasmiylashtirish** – uslubiy qo'llanma, tavsiyanoma va dars ishlanmasi, o'qituvchilarning ijodiy hisobotlari, bilim, ko'nikma va malakalarning chizma ko'rinishidagi (diagrammalar) tahlili, qatnashchilar yakuniy reytingi, so'rovnomalar, yozma tahlil, yutuqlar va kamchiliklar natijasi hamda muammolar.

**Monitoring natijalarini pedagogik jamoaga yetkazish** – pedagogik va metodik kengash, ishlab chiqarish yig'ilishlari, direktor huzuridagi yig'ilish, maktabning umumiy ota-onalar majlisi, metodbirlashmalar yig'ilishi, devoriy ko'rsatmalar, devoriy gazetalar, monitoring kabineti, videofilmlar.

Monitoring o'tkazishning o'ziga xos talab va mezonlari quyidagilardan iborat:

– axborotning aniqligi, ravshanligi, jarayonning aniq axborotga suyanmog'i kerakligi. Ma'lumotlar qisqa, lo'nda, ya'ni ularni qayta ishlash va uzatishga qulay bo'lishi;

– ma'lumotlar o'zaro qiyoslangan bo'lishi, olingan ma'lumot faqat ahvolni emas, undagi o'zgarishlarni ham ko'rsatishi, natijaga ko'ra uni qiyoslash va taqqoslash imkoniyati bo'lishi;

– ichki, tashqi va tizimdagi o'zgarishlarni aniq ko'rsatishi;

– olingan ma'lumotlar tizim kelajagini bashorat qila olish hamda maqsadni amalga oshirish yo'llarini oldindan tasavvur qilishga erdam berishi.

**Maktab faoliyatini boshqarishda monitoring quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:**

– yangicha yondashuv va qarashlar samaradorligi ta'minlanadi;

– ta'lim jarayonining ichki boshqaruvida samarali uslublar qo'llanadi;

– o'zini oqlamagan va samarasiz uslublardan, o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatini o'rganishda ilmiy, uslubiy, diagnostik, nazariy asosga ega bo'lmagan ishlarni qo'llashdan hamda tasodifiy sinovlardan voz kechiladi;

– o'qituvchi, maktab psixologi va rahbar o'rinbosari faoliyatlarini to'g'ri yo'naltirish ta'minlanadi;

– o'quvchi faoliyatini nazorat etuvchi, ota-onalar, jamoatchilik fikrini o'rganuvchi me'yoriy hujjatlar bazasi yaratiladi va tartibga solinadi;

– har bir maktabning ichki nazoratini amalga oshirish loyihasi – dasturi va Nizomi ishlanadi;

– yaratilgan dasturlarni tajriba-sinovdan o'tkazish, uning shakli, mazmuni, hajmi va muddatlari takomillashtiriladi.

Boshqarilayotgan ob'ektlarning axborot modellarini boshqarishning zaruriy sharti ta'lim tizimi faoliyati maromiga mos keladigan tartibda ularni doimiy yangilab borishdan iborat. Buning uchun ob'ektning istalgan natijaga mosligini aniqlash maqsadida uning holatini doimiy nazorat qilish, boshqarilayotgan ob'ekt holatining monitoringi zarur. Kuzatuv kiritilgan ko'rsatkichlar tizimi bo'yicha ob'ektning holatini yaqqol ko'rsatib beruvchi ma'lumotlarni to'plash orqali amalga oshiriladi.

Ta'limda monitoring pedagogik faoliyatni doimiy kuzatish orqali va u haqda axborot to'plash, saqlash, qayta ishlash va tarqatish orqali uning ahvoli, rivojlanish va taraqqiyotiga ta'sir etishdan iborat. Masalan, o'quv jarayonining o'quvchi shaxsiga ta'sirini o'rganish bo'yicha doimiy kuzatuvlar orqali axborot to'plash, saqlash va qayta ishlash asosida uning ahvoli hamda kelgusi istiqboli belgilanadi.

O'quv-tarbiya jarayonini baholashning turli strategiyalaridan, ya'ni rasmiy va norasmiy, diagnostik va umumiy yondashuvga asoslangan baholash usullaridan foydalanish.

Maktab rahbarlari tomonidan ta'lim sifatiga erishish va uni boshqarishning samaradorlik darajasini aniqlash uchun o'quv jarayoni ichki monitoringi ta'sirchanligi va haqiqiylikni ilmiy-amaliy jihatdan ta'minlash.

Nazoratlarning davriyligi, muddati va mazmunini belgilab olish, nazoratning ochiq va oshkora o'tkazilishi, natijalarning ob'ektivligini ta'minlash. Maktabda har tomonlama namunali hisoblangan o'quvchilar nazoratlar davrida maktab ma'muriyati va o'qituvchilar jamoasining e'tiboridan chetda qolmaslikni oldini olish hamda ularni rag'batlantirib borish.

Faol va namunali o'quvchilarni o'rnak qilib ko'rsatishda o'sha o'quvchilarning manmanlikka berilib ketmasliklari o'qituvchilar tomonidan nazorat qilib turish.

O'quvchilar bilimida aniqlangan bo'shliqlarni to'ldirish uchun o'quv fanlari kesimida tasirchang chora-tadbir belgilash, maktabdagi mavjud ichki imkoniyatlardan mohirona foydalana bilish, zarur hollarda vaziyatni ijobiy tomonga o'zgartirish uchun tezkor muqobil qarorlar qabul qilish.

Maktab faoliyatini boshqarishda monitoring pirvard natijasining samaradorligini ta'minlash.

Monitoring o'tkazishning o'ziga xos talab va mezonlarini takomillashtirish. Axborotning aniqligi, ravshanligi

– jarayon aniq axborotga suyanmog'i kerakligi hamda axborot, raqamlar qisqa, lo'nda, ya'ni qayta ishlash, uzatishga qulay bo'lishini ta'minlash.

Ta'lim jarayonini avvaldan ishlab chiqilgan tizim yoki mezon indikatorlar yordamida tahlil qilish. Ma'lumotlar o'zaro qiyoslanganligi, olingan ma'lumot bo'layotgan o'zgarishlarni ko'rsata olganligi, natijaga ko'ra uni qiyoslash, taqqoslash mumkin bo'lishini ta'minlash.



Maktab faoliyatini boshqarishda monitoring pirvard natijasining samaralari yangicha yondashuv va qarash yaxshi natijalar berishiga, ichki, tashqi o'zgarishlar asosida tizimdagi o'zgarishlarni aniq, ravon ko'rsatilishiga erishish. Olingan ma'lumot tizim kelajagini oldindan bashorat qila olishligi hamda maqsadni amalga oshirish yo'llarini oldindan tasavvur qilishga yordam berishini yangicha yondashuv va qarashlar samaradorligini ta'minlash.

Umuman, ta'limdagi monitoring pedagogik kategoriya bo'lib, bir vaqtda boshqaruvni tartibga solib borishga yordam beradi.

Axborotlar tahlili asosida pedagogik tizim jarayonida, sog'lom ruhiy muvozanatni saqlash, boshqaruvni samarali yo'lga solishga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Monitoring uchun axborotlarni to'plashni o'z yo'nalishiga qarab quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

- ta'lim jarayonini hech qanday o'lchov, qiyosiy birliklarsiz tahliliy-bayoniy ko'rinishda (tahlil, tanqid, taklif, tatbiq);

- ta'lim jarayonini bevosita parametrlarning fizik (strukturaviy) o'lchovlari orqali tahlil qilish;

- ta'lim jarayonini avvaldan ishlab chiqilgan tizim yoki mezon indikatorlar yordamida tahlil qilish;

- ta'lim jarayonini ma'lum qabul qilingan ilmiy asoslangan texnologiyalar yoki avvaldan ilmiy izlanishlar asosidagi kuzatuvchilar tahlillari.

Ta'lim jarayonidagi monitoringni bir necha yo'nalishga bo'lish mumkin.

**Birinchi yo'nalish.** Ta'lim jarayonidagi suhbat; savol-javoblar, so'rovlar natijalarini to'plash, boshqaruv bo'yicha axborotlar tizimini yaratish (qonun, qaror, nizom va tavsiyalar va boshqalar).

**Ikkinchi yo'nalish.** O'quvchilar bilim, ko'nikma va malakalarining o'sishini kuzatuvchi monitoringni yaratish (DTS ijrosi bo'yicha). Bunda sinflar, fanlar, o'quv guruhlari kesimida ayrim bo'limlar, boblar, mavzular bo'yicha qiyosiy tahlil qilinadi va ko'zda tutilgan maqsad, o'quv jarayoni boshqaruviga tuzatishlar kiritish, o'zgartirish, rivojlantirish orqali istiqboldagi vazifalar aniqlashtiriladi.

Yuqoridagi tahlillarning amalga oshirilishi boshqaruvni modernizatsiyalash bo'yicha rahbarlarga yordam beradi.

**Uchinchi yo'nalish.** Kirish-chiqish modeliga asoslangan monitoring, masalan, boshlang'ich ta'lim davlat ta'lim standartlarini bajarish samaradorligini, 9-sinf bitiruvchilariga qo'yilgan standart talablarning amaldagi ahvolini o'zlashtirish darajasini aniqlovchi monitoring. Bunda o'quvchining maktabga birinchi bor kelgan paytdagi ijtimoiy ahvolidan, bitirishgacha standart me'yorlarni o'zlashtirish darajasi aniqlanib, tahlil va takliflar asosida kelgusi vazifalar belgilanadi.

**To'rtinchi yo'nalish.** Ta'lim masalalaridagi qo'llanilayotgan innovatsiyalar, texnologiyalar, noan'anaviy usullarning samaradorligini, ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi omillarni, o'qituvchining malakasini, mahoratini, darajasi ta'sirini ko'rsatuvchi, aniqlovchi monitoringdir.

Maktabda ta'lim sifati monitoringi asosiy vosita bo'lib, standartlarning o'zlashtirilish darajasi, o'qituvchi mahoratiga baho, ichki boshqaruvning maqsadga to'g'ri yo'naltirilganligini real aniqlashga yordam beradi.

Sifat monitoringi diagnostika, reyting, testlar orqali aniqlanadi. Ular orqali o'quvchining intellekti, tarbiyalanganlik darajasi, bilim, ko'nikma, malaka va qobiliyatlari haqidagi ma'lumotlar jamlanadi. Shuningdek, monitoring natijalari asosida o'quvchilarning oiladagi ijtimoiy ahvoli, o'zaro aloqa va munosabatlari, o'qituvchining innovatsion faoliyati, yangi texnologiyalarni qo'llay olishga oid kasbiy mahorati, uning ta'lim-tarbiyadagi o'rnini aniqlanadi, ijtimoiy ahvoli masalalari oydinlashtiriladi, xulosalar chiqariladi, chora-tadbirlar ko'riladi.

Ta'lim sifatining monitoringi maktab darajasida tuman-shahar kesimida, viloyat, respublika miqyosida olib boriladi.

Ularda takomillashtirilgan davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlarini modernizatsiya qilish darajasi maktab, tuman, viloyat kesimida qiyoslanib, tahlil etiladi, xulosalar chiqariladi, tadbirlar tuziladi, qarorlar qabul qilinib, choralar belgilanadi.

Xulosa qilib aytganda, ta'limda monitoring shunga olib kelishi kerakki, u zamonaviy boshqaruvning asosiy vositalaridan biriga aylanmog'i lozim. Ta'lim monitoringi ta'limning sifat va samaradorligini ta'minlashda, maktab ichki boshqaruvini tashkil etishda eng qulay va istiqbolli yo'l hisoblanadi.

Ta'lim jarayonida paydo bo'layotgan muammolarni, to'siq bo'lishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarni bashoratlash, uning rivojlanish dinamikasini kuzatish, kutilayotgan pirovard natijalarni bashorat qilish, qiyoslash masalalari monitoringning qay darajada tashkil etilganligiga bog'liq.

Monitoring ko'p qirrali faoliyat bo'lib, u ta'lim-tarbiya jarayonining pirovard natijalari; o'quvchining rivojlanganlik darajasi, o'qitish sifati darajasini; ijtimoiy faoliyati, ma'naviy barkamolligi darajasi, tarbiya topganligi, ichki nazoratning naqadar maqsadga muvofiq qo'yilganligi, boshqaruv samaradorligi, natijalarni tahlil etish, natijalash, xulosa chiqarish, o'z vaqtida chora-tadbirlar ko'rish uchun qulay sharoit yaratadi.

Umuman, ta'lim jarayoniga monitoringni tatbiq etishning ilmiy-nazariy asoslanganligini izga solish ta'lim-tarbiyaviy ishlar mazmunini, o'qitish texnologiyasi, metodlari, shakli va vositalarini yangi bosqichga olib chiqish imkonini ochib beradi. Bu, o'z navbatida, ta'lim sifatini oshiradi, o'quvchilar tomonidan Davlat ta'lim standarti talablarini o'zlashtirishni kafolatlaydi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Ахлидинов Р.Ш. Мактабни бошқариш санъати. Монография. - Т.: Фан, 2006. - 303 б
2. Джураев Р.Х., Тургунов С.Т., Ахмедова НД. Таълим бошқаруви (менежменти): назария ва амалиёт масалалари. - Т.: УзПФТИ, 2013. - 144 б.
3. Звонников В.И., Чельшкова М.Б. Контроль качества обучения при аттестации: компетентностный подход. М.: Университетская книга, 2009. 272 с
4. Ключарев.Г.А. Формирование общества, основанного на знаниях. Новые задачи высшей школы. Доклад Всемирного банка. М.: Вес мир, 2003; Непрерывное образование и потребность в нем /: Наука, 2005.
5. Лернер И.Я. Дидактические основы методов обучения М.: Педагогика, 1981. - 186 с.

## YENGIL AVTOMOBILLARNING OYNA REZINA ZICHLAGICHLARINI ISHLAB CHIQRISH JARAYONIDAGI NUQSONLAR TAHLILI

**Komolov Azizbek Zokirjon o'g'li**

Andijon Mashinasozlik instituti magistranti

E-mail: [akamolov1797@gmail.com](mailto:akamolov1797@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Oxirgi yillarda yengil avtomobillar uchun rezina detallarni mahalliy xom ashyolar asosida ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan. Bulardan biri cobalt avtomobilining oyna rezina zichlagich butlovchi qismini ishlab chiqarish jarayonida mexanik yuzaga keladigan nuqson va nuqson tahlili.

**Kalit so'zlar:** rezina, oyna, ekstruder, zichlagich, arra, mahalliyashtirish, cobalt.

### KIRISH

Bugungi kunda maxalliy korxonalar sharoitida avtomobil rezina detallarini ishlab chiqarishning o'ziga xos jixatlarini va ishlab chiqarishda mahsulot sifatiga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish va takomillashtirish orqali sifatli maxsulot ishlab chiqarish hamda yuqori unumdorlikka erishish dolzarb masaladir.

### ASOSIY QISM

Rezina traktor va avtomobil sanoatida keng qo'llaniladi, chunki rezinaning asosiy tarkibiy qismi hisoblangan kauchuk juda elastik bo'ladi. Rezina juda kuchli (1000 foizgacha) deformatsiyalanishi mumkin, lekin yuklanish olinganidan keyin rezina avvalgi holatiga deyarli butunlay qaytadi. Bundan tashqari, rezinaning kimyoviy chidamliligi, yemirilishga qarshilik ko'rsatish qobiliyati yuqori, yaxshi elektr izolyatsion xossalarga ega, zichligi uncha katta emas. Hozirgi zamon avtomobillarida bir necha yuz xil rezina detallar mavjud. Ishlab chiqariladigan kauchukning anchagina qismi (taxminan 60 foizi) avtotraktor texnikasi uchun shinalar ishlab chiqarishga sarflanadi. Rezina buyumlarni sinchlash. Rezina detallarni mustahkamligini oshirish uchun ularni boshqa puxtaroq (gazlama, simli karkas, metall tolalari) elementlar (armaturalar) bilan sinchlanadi. Buning natijasida olinadigan rezina buyumning mustahkamligi asosan rezina tarkibidagi armirlovchi elementning mustahkamligiga asosan aniqlanadi. Sinchlangan rezina detallarning cho'zilishdagi elastikligi sof rezinaning elastikligidan sezilarli darajada kam bo'ladi, ammo ularni egilish va siqilishdagi talab etilgan chegaradagi deformatsiyalanish xususiyatlarini saqlab qoladi.

Andijon shahrida joylashgan Ma'suliyati Cheklangan Jamiyat shaklidagi

«Uz-Metertech» qo‘shma korxonasida yengil avtomobillar oynalari uchun rezina zichlagichlarini mahalliy hom ashyolardan foydalanib ishlab chiqarilmoqada.

Ishlab chiqarilayotgan butlovchi qisimlarni ishlab chiqarish jarayonida bir nechta kamchiliklar tufayli detallar zarar yetib nuqsonlar kelib chiqmoqda, bulardan biri mexanik arra yordamida ishlov berish jarayonida.

Ekstruderdan to‘xtovsiz chiqib turadigan yarim zagatovka mexanik arra yordamida kesiladi. Kesish vaqtida zagatovka to‘xtovsiz kelib turgani tufayli kesish vaqtida arrani qisib qoladi va nuqson kelib chiqadi,





**nuqsonli detall**



**nuqsonsiz detall**

shuning uchun zagatovkani vaqtincha to‘xtatib turish kerak. Nuqsonni y‘oq qilish uchun qisqichdan foydalanib tajriba o‘tgazdib, bu tajribadan ijobiy natija olindi.



## XULOSA

Ishda keltirilgan ma’lumotlarga asoslanib, mexanik qisqichdan foydalanish yaxshi natija berdi. Nuqsonsiz bo‘lgan maxsulot olish imkonini beradi degan xulosaga kelish mumkin. Bu usul eng arzon va soddaligini hisobga olsak, ulardan foydalanishni kengaytirish ushbu maqolada keltirilgan istiqbolli texnikalar, shu jumladan avtosanoati mahsulotlari yordamida mumkin.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. A.C. To‘raxonov. “Metallshunoslikvatermikishlash” “O‘qituvchi” nashiryoti Toshkent – 1968
2. Rezina qorishmalarini ishlab chiqarish texnologiasi asoslari Toshkent.
3. Transport vositalarida ishlatiladigan nometal materiallar fanidan o‘quv- uslubiy majmua Namangan Muxandislik- Pedagogika instituti

## ETILEN-PROPILEN KAUCHUK ASOSGA EGA BO'LGAN REZINA TAYYORLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA ULARNI MASHINASOZLIK DETALLARIDA QO'LLANISHI

**Komolov Azizbek Zokirjon o'g'li**

Andijon Mashinasozlik instituti magistranti

E-mail: [akamolov1797@gmail.com](mailto:akamolov1797@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Yuqori issiqlik, ob-havo va sovuqqa chidamli kauchuklarni yaratish uchun etilen-propilen kauchuklarining afzalliklaridan maksimal darajada foydalanishga imkon beradigan texnikalar ko'rsatilgan. Etilen-propilen kauchuklari harorat va iqlim ta'sirining keng diapazonida ishlaydigan maxsus maqsadlar uchun mo'ljallangan kauchuklarni yaratish uchun polimer asosidir va ular eng arzon maxsus kauchuklar qatoriga kirishini hisobga olgan holda o'z ishlab chiqarish doirasini kengaytiradi, degan xulosaga keldi. foydalanish istiqbolli ko'rinadi.

**Kalit so'zlar:** kauchuk, etilen propilen kauchuk, issiqlikka chidamlilik, azonga chidamlilik.

### KIRISH

Maxsus maqsadlar uchun konstruksiyalar va mahsulotlarning chidamliligini oshirish BИAM ning materiallar va ularni qayta ishlash texnologiyalarini ishlab chiqish sohasidagi strategik yo'nalishlaridan biridir [1-4]. Haroratning o'zgarishi, azon va atmosfera kislorodiga ta'sir qilish kabi tabiiy omillarning ta'siri, shuningdek, masalan, yuqori harorat ta'siri kabi omillar aviatsiyada kauchuk mahsulotlarining ajralmas qismidir. Sanoat [5-8].

Ko'rsatilgan ta'sirlarga chidamli materiallarni yaratish bugungi kundagi dolzarb masalalardan biridir. Kelajakdagi mahsulot uchun elastomerni tanlash kauchuk formulalarini ishlab chiqishning eng muhim bosqichi hisoblanadi. Polimerning tabiati asosan unga asoslangan kauchukning xususiyatlarini aniqlaydi.

Texnik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, etilen-propilen sopolimeri yuqori kimyoviy qarshilikka (ayniqsa, azonga), harorat ta'siriga chidamliligiga, sezilarli yuklarda yuqori quvvatga va qutbli suyuqliklarda shishishga chidamliligiga ega.

Hozirgi vaqtda mashinasozlik va aviatsiya uskunalari uchun kauchuk mahsulotlarini ishlab chiqarishda foydalanish uchun etilen-propilen kauchukga asoslangan uchta kauchuk birikmasi mavjud (TU38 0051166-98). Biroq, ushbu

maqolada keltirilgan nazariy tadqiqotlar uning qo'llanilishini kengaytirish uchun katta imkoniyatlardan dalolat beradi.

### ASOSIY QISM

Hozirgi vaqtda etilen propilen kauchuklarining keng turlari ishlab chiqarilmoqda. Bunday kauchuklarni ishlab chiqarish AQSh, Germaniya, Niderlandiya, Italiya, Buyuk Britaniya, Frantsiya, Kanada, Yaponiyada o'zlashtirilgan. Shuni ta'kidlash kerakki, Rossiya Federatsiyasida kimyoviy tarkibi bo'yicha bir-biridan farq qiluvchi ikkita sintetik kauchuk zavodida bir qator navlar ommaviy ishlab chiqariladi: to'liq chegaralangan (SKEP navlari) va asosiy zanjirda diyenlarni o'z ichiga olgan uchlik (SKEPT navlari). vulkanizatsiya tezligini oshirish uchun ishlatiladigan monomerlar. Disiklopentadiyenli va 5-etiliden-2-norbornen (ENB) an'anaviy ravishda diyen monomerlari sifatida ishlatiladi. Polimerlanish jarayonida konfiguratsiyalanmagan diyenlar, qoida tariqasida, bitta qo'sh bog'ni iste'mol qiladilar va bu holda polimerlar to'liq to'yingan asosiy zanjir va yon zanjirlarda to'yinmagan holda hosil bo'ladi. Bu uchlik etilen-propilen kauchuklarning eskirib qarshiligini keltirib chiqaradi.

Etilen va propilen birliklarining miqdoriy nisbati bilan farq qiluvchi etilen propilen kauchuklari ham ishlab chiqariladi. Etilen va propilen tarkibining nisbati etilen-propilen kauchuk asosidagi kauchuk birikmalari va vulkanizatlarining xususiyatlariga kuchli ta'sir qiladi va etilen tarkibining ko'payishi bilan texnologik xususiyatlar yomonlashadi va fizikaviy xususiyatlari yomonlashishiga olib keladi ammo mexanik xususiyatlar yaxshilanadi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, SKEPTda kristallarning erish nuqtasi 18-41°C harorat oralig'ida, dekrystallanish issiqligi (erish) 2-10 kJ/g, polietilen uchun 295 kJ/g va polipropilen uchun 147 kJ/g [9], ya'ni CKEP kristallarining morfologiyasi polietilen va polipropilen morfologiyasidan farq qiladi.

Etilen propilen kauchuklari turli xil yopishqoqlik (100°C da) ishlab chiqariladi - 30 dan. birliklar Muni (SKEP(T)-30) bo'yicha 80 gacha. birliklar Muni (SCEP(T)-80) bo'yicha, bu asosan sopolimerning molekulyar og'irligi va uning morfologiyasi bilan belgilanadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, etilen-propilen kauchuk asosidagi kauchuk birikmalariga ularning xususiyatlarini yomonlashtirmasdan, ularning narxiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan katta miqdordagi to'ldiruvchi moddalarini (100 m. dan ortiq) kiritish mumkin. Bundan tashqari, yuqori darajada to'ldirilgan kauchuk birikmalar yaxshi texnologik xususiyatlarga ega. Tajribalar shuning kabi CKEP to'ldiruvchi moddasiga asoslangan kauchuk birikmalarning qayta ishlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi [9]. Propilen va uchinchi monomer miqdori ortishi bilan termal eskirishga qarshilik pasayadi [10]. Antioksidantlardan foydalanish CKEP kauchukiga asoslangan kauchuklarni 80°C haroratda ishlatish uchun zarur emas deb hisoblanadi [10].



Oltugugurt bilan vulkanizatsiyalangan CKEP kauchuklari asosidagi kauchuklarning qarishi jarayonida yo‘q qilinishi sulfid miqdorining pasayishi bilan kuchli o‘zaro bog‘lanish bilan birga keladi [10]. Bundan tashqari, oltugugurt vulkanizatlari 150°S haroratda funktsional bo‘lib qoladi. Issiqlikka chidamli vulkanizatlarni yaratish uchun organik peroksidlardan foydalanish kerak [10].

Sovuqqa chidamliligi ham maxsus mo‘ljallangan kauchuklarga qo‘yiladigan talablardan biridir [18]. Kauchuk markasini to‘g‘ri tanlash bilan (asosiy zanjirdagi etilen va propilen birliklarining nisbati bo‘yicha) -60 ° C haroratda kristallanishga ega kauchuk olinishi mumkin. Shu bilan birga, kauchukning sovuqqa chidamliligi ish paytida pasayishini hisobga olish kerak. Shunday qilib, ushbu maqola mualliflari CKEP asosidagi kauchukning siqilgan holatda 150 ° C da 120, 720, 1440 va 1920 soat davomida eskirishi paytida kristallanishga o‘tish harorati mos ravishda -61 ° C dan -56 gacha ko‘tarilganligini ta’kidladilar. , - 47, -33 va -25 ° S. Xuddi shu tendentsiyalar boshqa kauchuklarga xosdir. Shunday qilib, 150 ° C da 120, 720 va 1680 soat davomida sinov paytida nitril butadiyenli kauchukga asoslangan kauchuklarni muhrlash uchun dekompaktsiya harorati mos ravishda -40 dan -25, -15 va +4 ° C gacha ko‘tarildi. Minimal ish harorati ham asosan mahsulot ishlaydigan muhit bilan belgilanadi. Etilen-propilen kauchuk asosidagi aviatsiya sanoatida foydalanish uchun tavsiya etilgan kauchuklar (IRP-1375, IRP-1376, IRP-1377) NGZh-5U suyuqligidagi qattiq va cheklangan harakatlanuvchi bo‘g‘inlar uchun muhrlash qismlari sifatida 55°C - gacha bo‘lgan haroratlarda ishlatilishi mumkin. Etilen propilen kauchuklari asosidagi to‘ldirilmagan vulkanizatsiyalar, butadienli kauchuklar asosidagi vulkanizatsiyalar bilan bir qatorda, boshqa kauchuklarga (masalan, BSK, NK, BNK, PB markalari) nisbatan suvni singdirish darajasi pastligi bilan ajralib turadi [11].

Ko‘rsatkichlar		
1)	Zichlikkg/m <sup>3</sup>	1090-1210 7,4-
2)	Mustahkamlikchegarasi,	17,
3)	Cho‘zilishdagi mustahkamlik chegarasi, %	4 380-770
4)	Shor usuli boyicha qattiqlik A	42-94
5)	Yeyilishga qarshilik, J/mm <sup>3</sup>	80-306
6)	Yirtilishga qarshiligi, kN/m,	12-51

Shuni ta’kidlash kerakki, etilen-propilen kauchuklari asosidagi kauchuklar aviatsiyada keng qo‘llaniladigan po‘lat, alyuminiy va titan qotishmalari bilan aloqa qilishda korroziv faollikni ko‘rsatmaydi.

Etilen-propilen kauchuklarga asoslangan kauchuklarning asosiy xususiyatlari jadvalda keltirilgan.

Agressiv muhitga, spirtlar, glikollar, efirlar, kislotalar, ishqorlar, suv va bug'gidravlik suyuqliklar, etilen-propilen kauchuklari asosidagi kauchuklarning ta'siriga yuqori qarshilikka ega bo'lgan qutubsiz bo'lmagan suyuqliklarda kuchli shishiradi, shuning uchun ulardan foydalanishni istisno qilish kerak. yog'lar, yoqilg'ilar yoki aromatik erituvchilar bilan aloqa qiladigan mahsulotlar.

Etilen-propilen kauchuklarga asoslangan kauchuk birikmalaridan foydalanishni cheklovchi qiyinchiliklar, shuningdek, ularning past yopishqoqligini ham o'z ichiga oladi, bu esa ko'p qatlamli mahsulotlarni ishlab chiqarishni qiyinlashtiradi. Ushbu kamchilikni faqat retsept bo'yicha omillar yoki texnologik parametrlarni tanlash yordamida qisman yo'q qilish mumkin. Ushbu muammoni hal qilishning istiqbolli usullaridan biri modifikator sifatida aralashmaga boshqa polimerlarni kiritishdir.

## XULOSA

Ishda keltirilgan ma'lumotlarga asoslanib, kauchukni yaratishda etilen-propilen kauchuklardan foydalanish keng ko'lamli maxsus xususiyatlarga ega bo'lgan materiallarni olish imkonini beradi degan xulosaga kelish mumkin. Ular eng arzon maxsus kauchuklar qatoriga kirishini hisobga olsak, ulardan foydalanishni kengaytirish ushbu maqolada keltirilgan istiqbolli texnikalar, shu jumladan aviatsiya sanoati mahsulotlari yordamida mumkin.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Каблов Е.Н. Стратегические направления развития материалов и технологий их переработки на период до 2030 года //Авиационные материалы и технологии. 2012. №5. С. 7-17.
2. Каблов Е.Н. Химия в авиационном материаловедении //Российский химический журнал. 2010. Т. LIV. №1. С. 3-4.
3. Каблов Е.Н. Материалы и химические технологии для авиационной техники //Вестник Российской академии наук. 2012. Т. 82. №6. С. 520-530.
4. Каблов Е.Н. Шестой технологический уклад //Наука и жизнь. 2010. №4. С. 2-7.
5. Кириллов В.Н., Ефимов В.А., Шведкова А.К., Николаев Е.В. Исследование влияния климатических факторов и механического нагружения на структуру и механические свойства ПКМ //Авиационные материалы и технологии. 2011. №4. С. 41-45.
6. Власенко Ф.С., Раскутин А.Е. Применение полимерных композиционных материалов в строительных конструкциях //Труды ВИАМ. 2013. №8. Ст. 03 (viam-works.ru).

7. Елисеев О.А., Краснов Л.Л., Зайцева Е.И., Савенкова А.В. Разработка и модифицирование эластомерных материалов для применения во всеклиматических условиях //Авиационные материалы и технологии. 2012. №5. С. 309-314.
8. Ефимов В.А., Шведкова А.К., Коренькова Т.Г., Кириллов В.Н. Исследование полимерных конструкционных материалов для применения при воздействии климатических факторов и нагрузок в лабораторных и натуральных условиях //Труды ВИАМ. 2013. №1. Ст. 05 (viam-works.ru).
9. Нурмухаметова А.Н. Резины на основе этиленпропиленового каучука, наполненные минеральными наполнителями на основе шунгита: Автореф. дис. к.т.н. Казань. 2012. 19 с.
10. Федюкин Д.П., Махлес Ф.А. Технические и технологические свойства резин. М.: Химия. 1985. 240 с.
11. Polysar butyl handbook. SamiaPolysar Limited. 1977. 100 с.

## MAIN WAYS OF EXPRESSING MODALITY IN THE MODERN ENGLISH LANGUAGE

**Suyunova Hayriniso**

2<sup>nd</sup> year Master of SamSIFL

### ABSTRACT

The present article is devoted to investigation of ways of expressing modality in English. This or that meaning is to a great degree determined by communicative type of the sentence and the form of the infinitive. That is a huge problem for foreign learners of English, who make a great deal of mistakes in this field. So, the aim of the work is to show how modal verbs can be used and expressed in different situations and meanings.

**Key words:** modality, meaning, modal verb, context, model, construction.

The study of language modality and modal verbs - one of the thorniest issues in theory and practice of language teaching. In connection with this problem of differentiation of modal verbs is relevant for the study. Therefore, the central concept of our work is the notion of modality in English, means of expression, the specific use of modal verbs. It is evident that traditional beliefs did not cover the whole fullness of modal verbs as a research problem.

The actuality of the theme of the research is the central concept of our work and the notion of modality in English, means of expression, the specific use of modal verbs determined due to the fact that the investigation in grammatical structure of the modality in the English language plays the great role in studying English as a second language.

The aim of the research is modal verbs are of particular interest to us, because first of all modal verbs are designed to express a purely personal attitude of the speaker to the subject of his speech. In our case, we are wondering the practical application of these verbs in the field of business communication, since at first glance, the scope limits the freedom of verbs by turning them into an element of well-established formal phrases.

The scientific novelty is vivid in the following:

investigation of models of business English correspondence has been fulfilled;

the study of the functional style leads us to the observation that the speaker resorts to a certain functional style due to such extra lingual factors: the character of the situation in which communication takes place (official, ceremonial, informal, private or other);

the relations between the communicants (formal, official, friendly, spontaneous); the aim of communication (transference of specific information, emotional attitudes, establishment of business contacts); oral or written communication have been defined and proved by examples.

The main ways of expressing modality in question are modal verbs, forms of mood, tone and modal words. In the dictionary of linguistic terms is given as the division of the modality by type:

- 1) the modality of the hypothetical, which involves presentation of the contents statements as alleged;
- 2) modal verb - modality expressed by the verb;
- 3) the modality of surreal - presentation of the contents statements as impossible, unrealizable;
- 4) the modality of the negative - view the content of the utterance as inappropriate reality [1, p. 246].

We find the following modal verbs in English: **can, may, must, ought, shall, should, will, need and dare**. Besides, **to have** and **to be** in some of their uses are also classed among modal verbs. A modal verb in combination with the infinitive forms a **modal compound predicate**.

Modal verbs have the following peculiarities:

- 1) they are followed by the infinitive **without** the particle *to* (with the exception of *ought, to have* and *to be*);
- 2) their interrogative and negative forms are built up **without** the auxiliary *do*.

Most of the verbs have more than one meaning. Each of their meanings is characterized by a specific usage.

- 1) Some of the meanings may be found in all kinds of sentences; others occur only in affirmative of interrogative or negative sentences;
- 2) Different meanings may be associated with different forms of the infinitive – simple and perfect (both in the active and passive forms), continuous and perfect continuous;
- 3) If the modal verbs have more than one form (*can – could, may – might, will – would*, also the verbs *to have* and *to be*), their different meanings are not necessarily found in all those forms.

The use of modal verbs is in most cases independent of the structure of the sentence: the use of this of that modal verb is determined by the attitude of the speaker towards the facts contained in the sentence. In this case we may speak of the free or independent use of modal verbs [2, p. 273].

**E. g.** He admires you. He thinks you're a little beauty. Perhaps I oughtn't to have told you that.

He may be in the hall now, waiting for me.

But sometimes the use of certain modal verbs depends on the structure of the sentence, mainly on the type of the subordinate clause, and occasionally also on the lexical character of the predicate verb in the principal clause. This may be called the **structurally dependent** use of **modal verbs**.

**E. g.** It is obviously necessary that an investigation should be made.

Christine feared she might not be met at all.

The analysis of modal verbs is made rather difficult by other factors. The point is that their past tense-forms do not often refer to past time at all [3, p. 109]. Such are the verbs *can* and *may*, *shall* and *will*, for instance, which are not easily defined in formal terms of grammar learning. Morphologically they have the present and the past tense-forms, but in modal phrases they are not regularly used to mark time relations. Moreover, to indicate past time does not seem to be their main function. We naturally distinguish different time relations in:

(1) *He can speak English fluently*

(2) *He **could** speak English fluently when he was a boy.* But there is no **time** difference in many cases like the following:

(1) ***He may go** → **He might go.***

(2) *Dark as the night **shall** be... → Dark as the night **should** be...*

It seems reasonable to characterise the dual nature of the modals used in complex verbal predicates as follows.

Modal verbs may function as a) "fully lexical" verbs expressing ability, possibility, permission, power, admonition, duty, obligation, need, will or readiness to do something associated with the activity of **the** subject, e. g.: *One **must** do one's duty. **Can** she speak English? **May** I come in?* b) modal auxiliaries of weakened predication: *will/would, can/could, may/might, must* and *ought* In this latter case they weaken their original meaning and come to express supposition, logical inference, certainty or uncertainty with regard to the action expressed by the notional verb.

Compare the following:

(a) 1) <i>If I do the thing, I will do it thoroughly, but I <b>must</b> have a free hand.</i> (Galsworthy)	(b) 1) <i>They tell me Jolyon's bought another house... he <b>must</b> have a lot of money — he <b>must</b> have more money than he knows what to do with!</i> (Galsworthy)
2) <i>"I <b>can't</b> tell", he would say: "It worries me out of my life".</i> (Galsworthy)	2) <i>It must be a mistake. She <b>can't</b> be there alone. 3) "Land <b>ought to</b> be very</i>
3) <i>I <b>ought to</b> go there.</i>	<i>dear about there", he said.</i> (Galsworthy)
4) <i>May I come in?</i>	4) <i>I shall be guarded. He <b>may</b> throw some light.</i>

Thus, English modality can be expressed not only by modal verbs. Modality can be expressed by different linguistic means. In actual speech all forms expressing modality work together to make the meaning clear. But in every case there is some leading form that expresses the main attitude. These forms fall into four categories: phonetic (intonation), grammatical (mood), lexico-grammatical (modal verbs), lexical (modal words and phrases). But the most important from them is the third form, which includes modal verbs. It is important to take into account one more feature peculiar to modal verbs. They all show that a certain action is represented as necessary, doubtful, etc. From the point of view of the speaker, there are verbs which ‘help’ other verbs to express a meaning: it is important to realize that “modal verbs” have no meaning by themselves. A modal verb such as would has several varying functions; it can be used, for example, to help verbs express ideas about the past, the present and the future. It is therefore wrong to simply believe that “would is the past of will”: it is many other things.

### CONCLUSION

This analysis allowed us to systematize the knowledge of modal verbs and use them for further study in the field of business communication. Based on the examples of the use of modal verbs in speech situations, business communication, we identified a number of peculiarities of the verbs in our chosen field. We have identified these characteristics the use of modal verbs as their frequency, identified a number of the most frequently used verbs, and with it the most commonly used values of the selected verbs. Also, the investigation of our study was to include and determine some of the most frequently used modal values and the definition of the diversity of options for their expression. It should also be noted that, despite the specificity of the business style of communication, yet we can in the process of business communication to show his own attitude toward the seemingly formal and well-established phrases.

## REFERENCES:

1. Quirk R., Greenbaum S. A Concise Grammar of Contemporary English. –New York: Hartcourt, 1973. – 484p.
2. Stern G. Meaning and Change of Meaning. –Göteborg,1931. -P. 273.
3. Van Deemter K., Odjik J. Context modeling and the generazation of spoken discourse // Speech Communication, 1997. Vol.21. –P. 101-121.



## ZARAFSHON MILLIY TABIAT BOG‘I AVIFAUNASINING BIOTOPIK TARQALISH XUSUSIYATLARI

**Turdoliyev Mirjalol Nosir o‘g‘li**

Samarqand davlat universiteti

2-bosqich magistranti

E-mail: [mirjalolturdaliyev322@gmail.com](mailto:mirjalolturdaliyev322@gmail.com)

**Belyalova Leyla Enverovna**

b. f. n. dots.

Samarqand davlat universiteti

### ANNOTATSIYA

Zarafshon milliy tabiat bog‘ida qushlarning tarqalishi haqida ba‘zi ma‘lumotlar keltirilgan. Maqolada tadqiqot qilinadigan hududning biotopik tuzilishi tasvirlangan. Qo‘riqxonada 5 ta tipik biotop mavjud. Qushlarning dominant turlari soni berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Zarafshon, Milliy bog‘, Biotop, Dominant tur, To‘qay, Qushlar.

## ОСОБЕННОСТИ БИОТОПНОГО РАСПРЕДЕЛЕНИЯ ОРНИТОФАУНЫ ЗЕРАВШАНСКОГО НАЦИОНАЛЬНОГО ПРИРОДНОГО ПАРКА

### АННОТАЦИЯ

В статье приведены некоторые данные о распространении биры на территории: Зарафшанский национальный природный парк. В статье описана биотопическая структура исследуемой территории. В заповеднике 5 типичных биотопов. Приведено количество доминирующих видов птиц.

**Ключевые слова:** Зарафшан, национальный парк, биотоп, доминирующие виды, лес, птицы.

## CHARACTERISTICS OF BIOTOPE DISTRIBUTION OF AVIFAUNA OF ZARAFSHAN NATIONAL NATURE PARK

### ABSTRACT

In the article some data of the bir's distribution on: Zarafshan National Nature Park are given. The article describe biotopical structure of the investigated area. There are 5 typical biotope in the reserve. Number of dominant species of birds are given.

**Key words:** Zarafshan, National Park, Biotope, Dominant species, Forest, Birds.

## KIRISH

Zarafshon milliy tabiat bog'i Zarafshon daryosining o'rta oqimining o'ng qirg'og'ida joylashgan(2). Dastlab to'qaylarning biotopini va qo'riqxonada yashovchi endemik kenja turlarni muhofaza qilish maqsadida tashkil etilgan. Qo'riqxonadagi qushlarning turli xil boitoplarda tarqalishini kuzatdik. Qushlarning turli xil biotoplar bilan bog'lanish shakllari bilan belgilanadi: iqlim, o'simliklar, tuproq qatlami, relyef, suv manbalarining mavjudligi darajasi, bezovta qiluvchi omillarning mavjudligi;

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Daryo vodiysi Zarafshon Markaziy Osiyodagi eng qadimiy vohalardan biri hisoblanadi. Ilgari u bir necha kilometr kenglikdagi o'tib bo'lmaydigan chakalakzorlar bilan qoplangan. Qishloq xo'jaligining rivojlanishi munosabati bilan to'qaylar maydonlari tez qisqarib, ularning o'rnida madaniy landshaftlar shakllangan. Qolgan o'rmonlarni qirg'oqni himoya qilish inshootlari sifatida saqlab qolish uchun daryoning o'rta oqimi bo'ylab tor oraliqli o'simliklar chizig'i. Zarafshon, 1948 yilda Samarqand o'rmon xo'jaligining davlat o'rmon fondiga o'tkazilgan. To'qay majmuasi va oddiy qirg'ovulning mahalliy kenja turini saqlab qolish maqsadida O'zbekiston SSR Vazirlar Kengashining 1975 yil 11 maydagi 264-sonli qarori 1975 yil 1 sentyabr. Zarafshon qo'riqxonasi tashkil etilgan bo'lib, Samarqand viloyatining Jomboy va Bulung'ur tumanlari hududida joylashgan bo'lib, idoraviy jihatdan O'zbekiston O'rmon xo'jaligi vazirligiga qarashli Glavoxotaga bo'ysunadi.

Zarafshon milliy tabiat bog'i daryo to'qaylarini saqlab qolish maqsadida 1975-yilda davlat qo'riqxonasi sifatida tashkil etilgan bo'lib, vodiyning sof tabiatini saqlab qolishga qaratilgan edi. Hozirgi kunda Zarafshon milliy tabiat bog'ining umumiy maydoni 2426.4 gektar bo'lib, uning 1772 gektari qo'riqxonaga bo'limi hisoblanadi. Zarafshon milliy tabiat bog'i faoliyatini tashkil etish to'g'risidagi 2018-yil 7-fevralda Vazirlar Mahkamasining 82-son qarori bilan Zarafshon davlat qo'riqxonasi nigizida tashkil etildi.

Bog'da sutemizuvchilarning 24 turi, qushlarning 216 turi ,baliqlarning 28 turi , sudralib yuruvchilarning 10 turi, hashoratlarning 88 turi uchraydi. O'simliklarning esa 300 turi mavjud bo'lib, ulardan 80 turi dorivor , 20 turi dekorativ, 23 turi sanoat uchun mo'ljallangan.

Natijalar va muhokamalar. Zarafshon milliy tabiat bog'i (1) hududida ushbu omilarning ta'sir darajasiga qarab quyidagi biotoplarni ajratib ko'rsatish mumkin

1. Jiyda, tol, chakanda, shakldagi mevali daraxtlar bilan ifodalanuvchi daraxt to'qaylari

2. Yulg'un, chakanda, namatak, zirk, maymunjon shakllari bilan ifodalanishi mumkin bo'lgan buta-to'qay biotopi.

3.O't- buta biotopi- erylantus, kendir, qamish, qizilmiya, qamish formalari hosilalari bilan ifodalanishi mumkin bo'lgan biotoplar.Bunday biotoplar juda kam uchraydi. Odatda daraxt-but, o't-but, aralash biotoplarni tashkil etuvchi moziakali o'simliklardan tashkil topadi, chunki ba'zi hududlarda daraxtlar ancha siyrak bo'lib bu buta yoki o't o'simliklarni o'sishiga zamin yaratadi.

4. Sohil biotopi. Qo'riqxon, hududi Zarafshon daryosining o'ng qirg'og'ida joylashgan bo'lib ko'plab kanallar teskari suvlarga boy, suv sathi yil davomida o'zgarib turadi. Yuqorida keltirilgan barcha suv manbalari suv-botqoq qushlari uchun migratsiya mavsumida dam olish uchun juda qulay hisoblanadi va bu yerda to'xtab otishadi.

5. Yarim cho'l biotopi- siyrak o't o'simlik bilan qoplangan ochiq hududlar.

Daraxt o'simliklarning ornitokompleksida qushlarning jig'iltoy, qirg'iy, oqqanotli qizilishton, gov kaptar, qumri, zag'izg'on, qora, qarg'a, buxoro chittagi ko'proq uchraydi. Bu yerda bahor (aprel) da buxoro chittagi (37,5%), zag'izg'on (19,3) ko'k kaptar(10,2%), mayna (6,8 %) ustunlik qiladi.

1-jadval

Tur	Hisoblangan/ soat	%
Buxoro chittagi	33	37,5
Zag'izg'on	17	19,3
Ko'k kaptar	9	10,2
Mayna	6	6,8
Kulrang pashshaxo'r	5	5,6
Yashil penochka	5	5,6
Qoraboshli inuya	4	4,5
Qishloq qaldirg'ochi	3	4,5
Zarafshon qirg'ovuli	2	2,2
Gov kaptar	2	2,2
Kulrang moyqut	2	2,2
Qumri	1	1,1
Oqqanotli qizilishton	1	1,1
Bog' chumchug'i	1	1,1
Oddiy qizilbosh chumchuq	1	1,1

May oylarida daraxtsimon to'qaylar orasida qamishzor to'qay chumchug'i(22,4%), ko'k kaptar (12,4%), mayna (10,2%) bilan dominantlik qiladi.

3-jadval

Tur	Hisoblangan/ soat	%
Qamishzor chumchug'i to'qay	11	22,4
Ko'k kaptar	6	12,4
Mayna	5	10,2
Kurkanak	4	8,2
Janub bulbuli	3	6,1
Buxori chittagi	2	4,1
Zarg'aldoq	2	4,1
Chug'urchuq	2	4,1
Oqqanotli qizilishton	2	4,1
Gov kaptar	1	2,0
Hind chumchug'i	1	2,0
Zarafshon qirg'ovuli	1	2,0
Kulrang moyqut	1	2,0
Qirg'iy	1	2,0
Miqqiy	1	2,0
Qorashaqshoq	1	2,0
Qumri	1	2,0
Kulrang pashshaxo'r	1	2,0
To'qay chumchug'i	1	2,0
Qoraboshli inuya	1	2,0

Iyun oyida daraxtsimon o'simliklar biotopida qamishzor to'qay chumchug'i(29,4%), zag'izg'on (13,7%), buxoro chittagi (13,7%) bilan ustunlik qiladi.

4-jadval

Tur	Hisoblangan/ soat	%
Qamishzor chumchug'i to'qay	15	29,3
Zag'izg'on	7	13,7
Buxori chittagi	7	13,7
Gov kaptar	3	5,8
Janub bulbuli	3	5,8
Zarafshon qirg'ovuli	3	5,8
Ko'k kaptar	1	1,9
Dala chumchug'i	1	1,9
G'urrak	1	1,9
Kulrang moyqut	1	1,9
Oqqanotli qizilishton	1	1,9
Qorashoqshoq	1	1,9
Kulrang pashshaxo'r	1	1,9
Zarg'aldoq	1	1,9
Qora qarg'a	1	1,9
Qoraboshli inuya	1	1,9
Qirg'iy	1	1,9
Mayna	1	1,9

Yozning o'rtalarida (iyul) bu biotopda tillarang kurkunak (21,4%), ko'k kaptar (14,2%), kulrang moyqut (14,2%) bilan ustunlik qiladi

5-jadval

Tur	Hisoblangan/ soat	%
Tillarang kurkunak	6	21,4
Ko'k kaptar	4	14,2
Kulrang moyqut	4	14,2
Zag'izg'on	3	10,7
Mayna	3	10,7
Qirg'iy	2	7,1
Jig'iltyoy	1	3,6
Zarafshon qirg'ovuli	1	3,6
Buxoro chittagi	1	3,6
Janub bulbuli	1	3,6
Kurkanak	1	3,6

Iyul oyida (daraxtsimon to'qay) baland bo'yli teraklardan iborat bo'lgan daraxtzor to'qaylarida qushlarning 25 turi qayd etilgan bo'lib ulardan asosan buxoro chittagi (27,4%), qamishzor to'qay chumchug'i (8,1%), zag'izg'on (8,1%) bilan ustunlik qiladi

6-jadval

Tur	Hisoblangan/ soat	%
Buxoro chittagi	17	27,4
Qamishzor to'qay chumchug'i	5	8,1
Zag'izg'on	5	8,1
Qoraboshli inuya	4	6,4
Kulrang moyqut	4	6,4
Gov kaptar	3	4,8
Janub bulbuli	3	4,8
Oqqanotli qizilishton	2	3,2
Qumri	2	3,2
Qirg'iy	2	3,2
Miqqiy	1	1,6
Ko'k kaptar	1	1,6
G'urrak	1	1,6
Zarafshon qirg'ovuli	1	1,6
Oddiy kakku	1	1,6
Zarg'aldoq	1	1,6
Sassiipopishak	1	1,6
Hind chumchug'i	1	1,6
Dala chumchug'i	1	1,6
Oddiy chug'urchuq	1	1,6
Mayna	1	1,6
Qora qarg'a	1	1,6
Qora peshonali qarqunog	1	1,6
Tuqay bulbuli	1	1,6
Kurkanak	1	1,6

Iyun oylarida buta biotoplarida qulshlarning 16 turi dominant qush turi sifatida qayd qilingan bo'lib, ular zich chakalakzor bo'ylab tarqalgan, ular orasida qamishzor to'qay chumchug'i (32,5%), buxoro chittagi (13,7%), zag'izg'on (9,8%), gov kaptar(9,8%) bilan ustunlik qiladi.

7-jadval

Tur	Hisoblangan/ soat	%
Qamishzor to'qay chumchug'i	18	32,5
Buxoro chittagi	7	13,7
Gov kaptar	5	9,8
Zag'izg'on	5	9,8
Janub bulbuli	3	5,9
Ko'k kaptar	1	1,9
Zarg'aldoq	2	3,9
Kulrang moyqut	2	3,9
Qora qarg'a	1	1,9
Hind chumchug'i	2	3,9
To'qay chumchug'i	1	2,0
Zarafshon qirg'ovuli	1	2,0
Qirg'iy	1	2,0
Kurkunak	1	2,0
Miqqiy	1	2,0
Qorashaqshaq	1	1,9
Qumri	1	2,0
Kulrang pashshaxo'r	1	1,9
Qoraboshli inuya	1	2,0
Oddiy qizilbosh chumchuq	1	2,0

Iyun oyida eryantus va olмали bogi' bilan ifodalanuvchi aralash to'qaylarda qushlarning 26 turi qayd etilgan bo'lib ular orasida mayna (16,3%), zag'izg'on (12,7%), buxoro chittagi (10,9%) bilan ustunlik qiladi

8-jadval

Tur	Hisoblangan/ soat	%
Mayna	9	16,3
Zag'izg'on	7	12,7
Buxoro chittagi	6	10,9
Gov kaptar	5	9,1
Zarafshon qirg'ovuli	3	5,4
Qoraboshli inuya	3	5,4
Ko'k kaptar	3	5,4
Qumri	1	1,8
Oddiy kakku	1	1,8
Qirg'iy	1	1,8
G'urrak	1	1,8

Qora uzunqanot	1	1,8
Oqqanotli qizilishton	1	1,8
Sassiqpopishak	1	1,8
Qorashaqshoq	1	1,8
Kulrang pashshaxo‘r	1	1,8
Zarg‘aldoq	1	1,8
Qora qarg‘a	1	1,8
Qishloq qaldirg‘ochi	1	1,8
Qora peshonali qarqunoq	1	1,8
Janub bulbuli	1	1,8
Oddiy qizilbosh chumchuq	1	1,8
Qamishzor to‘qay chumchug‘i	1	1,8
Kulrang moyqut	1	1,8
Dala chumchug‘i	1	1,8
Hind chumchugi	1	1,8

Iyun oyida turangi bilan qoplangan to‘qay aralash buta (asosan qoraqat) biotopida 15 turdagi qushlar qayd etilgan bo‘lib ular orasida mayna (21,8%), zarafshon qirg‘ovuli (15,6%), zag‘izg‘on (12,5%) bilan ustunlik qiladi.

9-jadval

Tur	Hisoblangan/ soat	%
Mayna	7	21,8
Zarafshon qirg‘ovuli	5	15,6
Zag‘izg‘on	4	12,5
Gov kaptar	2	6,3
Buxoro chittagi	2	6,3
Qora qarg‘a	2	6,3
Qamishzor to‘qay chumchug‘i	2	6,3
Qirg‘iy	1	3,1
Oqqanotli qizilishton	1	3,1
Qoraboshli inuya	1	3,1
Kulrang pashshaxo‘r	1	3,1
Janub bulbuli	1	3,1
Qishloq qaldirg‘ochi	1	3,1
Qora peshonali qarqunoq	1	3,1
Kulrang moyqut	1	3,1

Iyun oyida turangi, akatsiya, terak, yong‘oq o‘simliklaridan tashkil topgan daraxtzor to‘qaylarida qushlarning 22 turi qayd etilgan bo‘lib, ular orasida Buxoro chittagi (14,2%), mayna (12,2%), zag‘izg‘on (8,2%), kulrang pashshaxo‘r (8,2%) bilan ustunlik qiladi.

9-jadval

Tur	Hisoblangan/ soat	%
Buxoro chittagi	7	14,2
Mayna	6	12,2
Zag'izg'on	4	8,2
Kulrang pashshaxo'r	3	8,2
Janub bulbuli	3	4,1
Qamishzor to'qay chumchug'i	3	4,1
Gov kaptar	2	4,1
Ko'k kaptar	2	4,1
Oqqanotli qizilishton	2	4,1
Qoraboshli inuya	2	4,1
Zarg'aldoq	2	4,1
Zarafshon qirg'ovuli	1	2,0
Qirg'iy	1	2,0
Jig'iltyoy	1	2,0
Miqqiy	1	2,0
Oddiy kakku	1	2,0
G'urrak	1	2,0
Qora qarg'a	1	2,0
Qora peshonali qarqunoq	1	2,0
Qishloq qaldirg'ochi	1	2,0
Dala chumchug'i	1	2,0
Oddiy chug'urchuq	1	2,0

Iyul oyida asosan baland teraklardan iborat daraxtsimon to'qaylarda qushlarning 27 turi qayd etilgan bo'lib ular orasida mayna (17,6%), buxoro chittagi (11,8%), gov kaptar (8,8%), zag'izg'on (7,4%) bilan ustunlik qiladi Subdominant turlar dala chumchug'i va kulrang pashshaxo'rlar hisoblanadi

10-jadval

Tur	Hisoblangan/ soat	%
Mayna	12	17,6
Buxoro chittagi	8	11,8
Gov kaptar	6	8,8
Zag'izg'on	5	7,4
Dala chumchug'i	4	5,8
Kulrang pashshaxo'r	3	4,4
Zarg'aldoq	3	4,4
Qamishzor to'qay chumchug'i	2	2,9
Qoraboshli inuya	2	2,9
Ko'k kaptar	2	2,9
Qumri	2	2,9
Oqqanotli qizil ishton	2	2,9
Sassiqqopishak	2	2,9



Hind chumchug'i	2	2,9
Oddiy chug'urchuq	2	2,9
Zarafshon qirg'ovuli	1	2,9
Qirg'iy	1	2,9
Jig'iltyoy	1	2,9
Miqqiy	1	2,9
Oddiy kakku	1	2,9
G'urrak	1	2,9
Qora qarg'a	1	2,9
Qorapeshonali qarqunoq	1	2,9
Kulrang moyqut	1	2,9
Jabub bulbuli	1	2,9
Qishloq qaldirg'ochi	1	2,9

Iyul oyida qo'riqxonaning qo'riqlanadigan hududida turli xil biotoplar ( qirg'oq, daraxt-buta-o'tlar biotoplar (baland bo'yli teraklar, tol, qaraqat, yong'oq,eriyantus, qamish iborat)) da 22 turdagi qushlar qayd etilgan, ular orasida oddiy chug'urchuq (43,7%), mayna (16,9%), hind va dala chumchug'i (10,9%) bilan ustunlik qiladi. Subdominant turlar esa kulrang pashshaxo'r, daryo chigirtkachisi hisoblanadi

11-jadval

Tur	Hisoblangan/ soat	%
Oddiy chug'urchuq	80	43,7
Mayna	31	16,9
Hind chumchug'i	20	10,9
Dala chumchug'i	10	5,5
Kulrang pashshaxo'r	7	3,8
Daryo chigirtkachisi	5	2,7
To'qay chumchug'i	4	2,1
Ko'k kaptar	3	1,6
Qishloq qaldirg'ochi	3	1,6
So'fito'rg'ay	3	1,6
Tillarang karkunak	2	1,1
Buxoro chittagi	2	1,1
Zag'izg'on	2	1,1
Janub bulbuli	2	1,1
Qamishzor to'qay chumchug'i	2	1,1
Qoraboshli inuya	2	1,1
Qirg'iy	1	0,5
Jig'iltyoy	1	0,5
Sassiqpopishak	1	0,5
Qashg'aldoq	1	0,5
Kurkunak	1	0,5
Uzundumli qarqunoq	1	0,5

Buta va o't o'simliklar bilan qoplangan, asosan majnuntol, na'matak, eryantus o'simliklar bilan qoplangan sukssesiya joyida 14 turdagi qushlar qayd etilgan bo'lib, ular orasida buxoro chittagi va zag'izg'on dominantlik qiladi.

12-jadval

Tur	Hisoblangan/ soat	%
Buxoro chittagi	16	47,0
Zag'izg'on	6	17,6
Qirg'iy	1	2,9
Ko'k kaptar	1	2,9
Zarafshon qirg'ovuli	1	2,9
Qoraboshli inuya	1	2,9
Kulrang moyqut	1	2,9
Janub bulbuli	1	2,9
Hind chumchug'i	1	2,9
Qishloq qaldirg'ochi	1	2,9
Oddiy chug'urchuq	1	2,9
Mayna	1	2,9
Qorapeshonali qarqunoq	1	2,9
Kurkunak	1	2,9

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki Zarafshon milliy tabiat bog'i to'qaylar turli abiotik va antropogen omillar ta'sirida Zarafshon daryosi suv sathi pasayishi natijasida to'qay o'simliklarni kamayishiga olib kelmoqda. Bu esa o'z navbatida milliy bog' to'qaylarida yashovchi qushlarning yashash va ko'payishi, oziqlanishiga salbiy ta'sir o'tkazib kelmoqda. Bu kabi antropogen omillarning oldini olishga qaratilgan amaliy ishlarni olib borish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

#### СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ: (REFERENCES)

1. Салимов Х.В. Орнитологические комплексы тугаев и перспективы их сохранения. Автореферат на соиск. уч. степени к.б.н.- Москва, 1981.20 с.
2. Фундукчиев С.Э., Багдасарова В.А. Зарафшанский государственный заповедник Заповедники СССР. -Москва,1990. Изд-во:Мысль.- С. 246-253

## KO‘P O‘LCHAMLI BERILGANLARNI ASP.NET IMKONIYATLARI BILAN VIZUALLASHTIRISH

**Maxsumov Axrorjon Ne‘matjon o‘g‘li**  
O‘zbekiston Milliy universiteti magistranti  
E-mail: [axror94@umail.uz](mailto:axror94@umail.uz)

### Annotatsiya:

Ushbu maqolada, tabiiy yoki hisoblash eksperimentlari jarayonini ASP.NET texnologiya asosida vizuallashtirish ko‘rib chiqiladi.

**Kalit so‘zlar:** ASP.NET texnologiya, funksiya va jadvalli ma‘lumotlar

Keng ma‘noda axborotni vizuallashtirish masalasi o‘n minglab yillardan beri qo‘llanilayotgan so‘z hisoblanadi. Qoya tasvirlari, hududlarning birinchi xaritalari, zamonaviy kartografiya va iqlimshunoslik, tomografik tadqiqotlar, mintaqaviy iqtisod, tarmoqlarda axborotni saqlash va qidirish tizimlari, tasvirlarni aniqlash, mobil robototexnikada navigatsiya, texnik tizimlarni loyihalashda ko‘p o‘lchovli tahlillar va h.k.

Ushbu maqolada, tabiiy yoki hisoblash eksperimentlari jarayonida olingan haqiqiy, uzluksiz yoki diskret shakldagi sonlar ko‘rinishidagi ikki o‘lchamli berilganlar massivlarini ASP.NET texnologiya asosida vizuallashtirish ko‘rib chiqiladi.

Agar ikki o‘lchamli berilganlar diskret holda berilsa, ularni jadvalda tasvirlash va berilganlarni ikki o‘lchamli massivda berish mumkin (1-jadval).

	1-ustun	2-ustun	...	n-ustun
1-qator	$b_{11}$	$b_{12}$	...	$b_{1n}$
2-qator	$b_{21}$	$b_{22}$	...	$b_{2n}$
...	...	...	...	...
m-qator	$b_{m1}$	$b_{m2}$	...	$b_{mn}$

Agar ikki o‘lchamli berilganlar uzluksiz holda biror formula orqali ifodalansa, ularni ikki o‘zgaruvchili funksiya  $z = f(x, y)$  ko‘rinishida yozish mumkin, bu yerda  $x$  o‘zgaruvchining o‘zgarish oralig‘i  $x \in [a, b]$ ,  $y$  o‘zgaruvchining o‘zgarish oralig‘i  $y \in [c, d]$  beriladi.

Masalan, konlardangi qazilma boyliklarning (mis, temir, qo‘rg‘oshin, aluminiy, kumush, oltin, platina) oxirgi 5 yil mobaynida o‘zlashtirilgan miqdorini ifodalashni ikki o‘lchovli massiv sifatida tasvirlash qulay (2-jadval).

## 2-jadval

	Mis	Temir	Qo'rg'oshin	Aluminiy	Kumush	Oltin	Platina
2018	45	70	35	83	110	32	17
2019	48	75	36	90	115	35	18
2020	51	87	37	95	120	45	18
2021	55	90	37	88	125	48	19
2022	50	98	40	94	128	50	20

## ASP.NET dagi kodi va grafigi

Nuqtalar sonini kiriting:


Grafik ma'lumotlarini kiriting:

Grafik turi:  
Chiziqli

Grafik nuqtalari:

X:	Mis	Temir	Qo'rg'osh	Aluminiy	Kumush	Oltin
Y:	2018	2019	2020	2021	2022	2023
Z:	45	70	35	83	110	32

## Jadval grafigi



## Grafig kodi:

```

<p>Nuqtalar sonini kiriting: </p>
<div class="mb-3 input-group">
  <input type="number" min=2 max=20 name="nuqtalar_soni"
id="nuqtalar_soni" class="form-control">
  <button onclick="Nuqtalar_soni()" type="button" class="btn btn-
primary">OK</button>
</div>

<p>Grafik ma'lumotlarini kiriting: </p>

```

```
<div class="mb-3">
  <label for="grafik_turi" class="form-label">Grafik turi: </label>
  <select class="form-select" name="grafik_turi" id="grafik_turi">
    <option value="lines">Chiziqli</option>
    <option value="markers">Nuqtali</option>
    <option value="linear">Chiziqli + nuqtali</option>
    <option value="soha">Soha</option>
  </select>
</div>
<div class="mb-3">
  <label class="form-label">Grafik nuqtalari: </label>
  <table class="table table-bordered">
    <tr id="X">
      <td>X:</td>
    </tr>
    <tr id="Y">
      <td>Y:</td>
    </tr>
    <tr id="Z">
      <td>Z:</td>
    </tr>
  </table>
</div>

<button onclick="Chizish()" class="btn btn-primary">Chizish</button>

<div id='myDiv'></div>

<script src='/js/plotly-2.18.2.min.js'></script>

<script>
  function Nuqtalar_soni() {
    let nuqtalar_soni = document.getElementById('nuqtalar_soni').value;
    let X = document.getElementById('X');
    let Y = document.getElementById('Y');
    let Z = document.getElementById('Z');
    let _x = "", _y = "", _z = "";
    for (let i = 0; i < nuqtalar_soni; i++) {
```


```
    _x += '<td> <input type=text class="jadvalli_x" name="X[]" value="{i
+ 1}"> </td>';
    _y += '<td> <input type=text class="jadvalli_x" name="Y[]" value="{i
+ 1}"> </td>';
    _z += '<td> <input type=text class="jadvalli_y" name="Z[]"> </td>';
  }
  X.innerHTML = "<td>X:</td>" + _x;
  Y.innerHTML = "<td>Y:</td>" + _y;
  Z.innerHTML = "<td>Z:</td>" + _z;
}
```

```
function Chizish() {
  const Xs = [...document.querySelectorAll("input[name='X[]']")].map(el =>
el.value);
  const Ys = [...document.querySelectorAll("input[name='Y[]']")].map(el =>
el.value);
  const Zs = [...document.querySelectorAll("input[name='Z[]']")].map(el =>
parseFloat(el.value));
  const shakl = document.getElementById('grafik_turi').value;
  let turi = 'scatter3d';
  if (['linear', 'scatter', 'lines'].includes(shakl)) turi = 'scatter3d';
  if (['soha'].includes(shakl)) turi = 'mesh3d';
  if (turi === 'scatter3d') {
    var graph = {
      x: Xs,
      y: Ys,
      z: Zs,
      type: turi,
      mode: shakl,
    };
  }
  else {
    @* let _Xs = [], _Ys = [], _Zs = []; *@
    @* for (let i = -1; i <= 1; i = i + 0.1)
      for (let j = -1; j <= 1; j = j + 0.1) {
        _Xs.push(i);
        _Ys.push(j);
        _Zs.push(Math.cos(i) - Math.cos(j));
      }
  }
}
```

```
    } *@  
var graph = {  
    x: Xs,  
    y: Ys,  
    z: Zs,  
    type: turi,  
};  
}  
  
console.log(graph);  
var data = [graph];  
  
var layout = {  
    title: 'Jadval grafigi',  
    showlegend: false  
};  
  
Plotly.newPlot('myDiv', data, layout, { scrollZoom: true,  
modeBarButtonsToRemove: ['zoom2d', 'lasso2d', 'select2d', 'zoomIn2d',  
'zoomOut2d', 'resetScale2d'] });  
}  
</script>
```

Endi uzluksiz shaklda berilganlar uchun misol keltiramiz. Bir jinsli qattiq jism  $x$  nuqtasining  $t$  vaqtdagi harorati  $z = f(x, y)$  bo'lsin, bu yerda  $x \in [0, \pi]$ ,  $t \in [0, 1]$ . Agar qattiq jismning turli qismlarining harorati turlicha bo'lsa, hususiy holda  $z = e^{-a^2 t} \sin x$  formula bilan ifodalash mumkin, bu yerda  $a^2 = \frac{k}{c \cdot \rho}$ ,  $k$  - issiqlik o'tkazuvchanlik ko'effitsiyenti,  $\rho$  - qattiq jism zichligi,  $c$  - solishtirma issiqlik sig'imi, misol uchun  $a^2 = 2$  bo'lsin.

ASP.NET dagi kodi va grafigi



Grafigi kodi:

`<p>Nuqtalar sonini kiriting: </p>`

`<div class="alert alert-danger" id="xato" style="display:none">`

Formulada xato! Formulani tekshiring, o'zgaruvchi sifatida x va y dan foydalaning!

`</div>`

`<div class="mb-3">`

`<div class="row g-1 align-items-center">`

`<label for="formula">Formula</label>`

`<input type="text" name="formula" id="formula" class="form-control">`

`</div>`

`<div class="row">`

`<div class="col-2 align-self-center"> X uchun:</div>`

`<div class="col-10">`

`<div class="row">`

`<div class="col m-1">`

`<label for="min">Minimum</label>`

`<input type="number" name="min" id="min" class="form-control">`

`</div>`

`<div class="col m-1">`



```
        <label for="max">Maximum</label>
        <input type="number" name="max" id="max" class="form-
control">
    </div>
    <div class="col m-1">
        <label for="h">Qadam</label>
        <input type="number" name="h" id="h" class="form-control">
    </div>
</div>
</div>
</div>
<div class="row">
    <div class="col-2 align-self-center">Y uchun:</div>
    <div class="col-10">
        <div class="row">
            <div class="col m-1">
                <label for="miny">Minimum</label>
                <input type="number" name="miny" id="miny" class="form-
control">
            </div>
            <div class="col m-1">
                <label for="maxy">Maximum</label>
                <input type="number" name="maxy" id="maxy" class="form-
control">
            </div>
            <div class="col m-1">
                <label for="hy">Qadam</label>
                <input type="number" name="hy" id="hy" class="form-control">
            </div>
        </div>
    </div>
    </div>
    <button onclick="Nuqtalar_soni()" type="button" class="btn btn-
primary">Nuqtlarni hisoblash</button>
</div>

<div class="mb-3">
    <div class="mb-3">
```

```
<label for="grafik_turi" class="form-label">Grafik turi: </label>
<select class="form-select" name="grafik_turi" id="grafik_turi">
  <option value="lines">Chiziqli</option>
  <option value="markers">Nuqtali</option>
  <option value="linear">Chiziqli + nuqtali</option>
  <option value="soha">Soha</option>
</select>
</div>
<label class="form-label">Grafik nuqtalari: </label>
<table class="table table-bordered">
  <tr id="X">
    <td>X:</td>
  </tr>
  <tr id="Y">
    <td>Y:</td>
  </tr>
  <tr id="Z">
    <td>Z:</td>
  </tr>
</table>
</div>

<button onclick="Chizish()" class="btn btn-primary">Chizish</button>

<div id='myDiv'></div>

<script src='/js/plotly-2.18.2.min.js'></script>
<script src="/js/parser.js"></script>

<script>
  let natijalar = [];
  let natijalar_srf = [];
  let turi = 't';
  let tickx = [], ticky = [];
  let tickx_ = [], ticky_ = [];
  function Nuqtalar_soni() {
    natijalar = [];
    natijalar_srf = [];
```

```
tickx = [], ticky = [];  
tickx_ = [], ticky_ = [];  
  
let formula = document.getElementById('formula').value;  
let min = parseFloat(document.getElementById('min').value);  
let max = parseFloat(document.getElementById('max').value);  
let h = parseFloat(document.getElementById('h').value);  
let miny = parseFloat(document.getElementById('miny').value);  
let maxy = parseFloat(document.getElementById('maxy').value);  
let hy = parseFloat(document.getElementById('hy').value);  
let X = document.getElementById('X');  
let Y = document.getElementById('Y');  
let Z = document.getElementById('Z');  
let _x = "", _y = "", _z = "";  
natijalar = [];  
natijalar_srf = [];  
natijalar_srfx = [];  
natijalar_srfy = [];  
try {  
  const ifoda = Parser.parse(formula);  
  for (let i = min; i <= max; i = i + h) {  
    srf = [];  
    for (let j = miny; j <= maxy; j = j + hy) {  
      const natija = ifoda.evaluate({ x: i, y: j });  
      natijalar.push({ x: i, y: j, natija: natija.toFixed(2) })  
      srf.push(natija.toFixed(2));  
    }  
    natijalar_srf.push(srf);  
  }  
  for (let i = min; i <= max; i = i + h) { tickx.push(i); tickx_.push(i); }  
  for (let i = miny; i <= maxy; i = i + hy) { ticky.push(i); ticky_.push(i); }  
  xato.style.display = 'none';  
}  
catch (error) {  
  xato.style.display = 'block';  
  return;  
}
```

```
for (let natija of natijalar) {
  _x += '<td name='X[]'>${natija.x}</td>';
  _y += '<td name='Y[]'>${natija.y}</td>';
  _z += '<td name='Z[]'>${natija.natija}</td>';
}
X.innerHTML = "<td>X:</td>" + _x;
Y.innerHTML = "<td>Y:</td>" + _y;
Z.innerHTML = "<td>Z:</td>" + _z;
}
let Xs = [], Ys = [], Zs = [];
function Chizish() {
  Xs = [...document.querySelectorAll("td[name='X[]']")].map(el =>
el.textContent);
  Ys = [...document.querySelectorAll("td[name='Y[]']")].map(el =>
el.textContent);
  Zs = [...document.querySelectorAll("td[name='Z[]']")].map(el =>
parseFloat(el.textContent));
  const shakl = document.getElementById('grafik_turi').value;
  turi = 'scatter3d';
  if (['linear', 'scatter', 'lines'].includes(shakl)) turi = 'scatter3d';
  if (['soha'].includes(shakl)) turi = 'mesh3d';
  if (['soha'].includes(shakl)) turi = 'surface';
  if (turi === 'scatter3d') {
    var graph = {
      x: Xs,
      y: Ys,
      z: Zs,
      type: turi,
      mode: shakl,
    };
  }
  else {
    var graph = {
      x: tickx,
      y: ticky,
      z: Zs,
    };
  }
  @* z: Zs, *@
  z: natijalar_srf,
```

```
        type: turi,
    @* colorscale: 'Greens', *@
    };
}
    @* console.log(Xs); *@
    @* console.log(graph); *@
var data = [graph];

var layout = {
    title: 'Jadval grafigi',
    showlegend: false
};
rangemin = Math.min(...Zs);
rangemax = Math.max(...Zs);
rangeXmin = Math.min(...Xs);
rangeXmax = Math.max(...Xs);
rangeYmin = Math.min(...Ys);
rangeYmax = Math.max(...Ys);
var layout_srf = {
    title: 'Jadval grafigi',
    showlegend: false,
    scene: {
        aspectmode: "manual",
        aspectratio: {
    @* x: 3.5, y: 3.5, z: 1, *@
        x: 3, y: 3, z: 1,
        },
    xaxis: {
    @* nticks: tickx.length, *@
    @* ticktext: tickx, *@
    @* tickvals: tickx_, *@
    @* tick0: -10, *@
    @* range: [-200, 100], *@
    @* range: [rangeXmin * 5, rangeXmax * 5], *@
        },
    yaxis: {
        nticks: 7,
    @* range: [-100, 100], *@
```

```
@* range: [rangeYmin * 5, rangeYmax * 5], *@
    },
zaxis: {
    nticks: 10,
    *@ range: [rangemin * 5, rangemax * 5], *@
    }
},
};
console.log(rangemin * 5, rangemax * 5);
if (turi == 'surface') layout = layout_srf;
```

```
Plotly.newPlot('myDiv', data, layout, { scrollZoom: true,
modeBarButtonsToRemove: ['zoom2d', 'lasso2d', 'select2d', 'zoomIn2d',
'zoomOut2d', 'resetScale2d'] });
}
</script>
```

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Романова И.К. Современные методы визуализации многомерных данных: анализ, классификация, реализация, приложения в технических системах. Наука и Образование. МГТУ им. Н.Э. Баумана. Электрон. журн. 2016. № 03. С. 133–167.
2. <https://learn.microsoft.com/ru-ru/aspnet/web-pages/overview/data/7-displaying-data-in-a-chart>
3. <https://professorweb.ru/>

## **BOLALARNI NUTQINI O‘STIRISHDA HIKOYA JANRIDAN FOYDALANISH**

**Maziyayeva Muqaddasxon**  
FarDU Magistri

**Yuldasheva Dilafuz**  
filologiya fanlari nomzodi dotsent

### **ANNOTATSIYA**

Mazkur maqolada bolalar nutqini o‘stirishda hikoya janirida foydalanishda ahamiyati yoritib berilgan. Tarbiyachi hikoya janiridan foydalanish masalalariga ijobiy yondashgan.

**Kalit so‘zlar:** Nutq, hikoya, janr.

Badiiy adabiyotning asosiy ish quroli so‘zdir. O‘zi ko‘zga ham ko‘rinmaydigan so‘z yordamida nafaqat atrofdagi narasa- hodisalar, balki boshdagi o‘ylar, ko‘ngildagi sezimlargacha ifodalash mumkin. Shuning uchun ham sa‘nat turlari orasida adabiyot muhim o‘rin tutadi. Kishilarning o‘y-hayollari, istagu armonlari badiiy adabiyotda to‘liq namoyon bo‘ladi.

Badiiy adabiyot, sa‘nat asarlari inson ruhiyati va tafakkuriga ijobiy ta‘sir etadi. Adabiyot atamasi keng va tor ma‘noda qo‘llaniladi. Uni tor ma‘noda badiiy adabiyotni anglatsa, keng ma‘noda esa inson tafakkurining mahsuli bo‘lmish ijtimoiy ahamiyatga ega har qanday yozma asarni o‘z ichiga oladi. Badiiy adabiyot tushunchasi olamni obrazli ko‘rish va timsollar asosida aks ettirish mahsulidir. Bunda asarlardan nimanidir o‘rganish, bilib olish uchun emas, balki kishilar qalbining tovlanishlarini tuyg‘ularining ranginligini his etish, uning quvonch iztiroblarini his etish uchun o‘qiladi va muhokama qilinadi. Shu bois kishilarning faqat aqliga emas, balki tuyg‘ulariga va ichki kechinmalariga ham ta‘sir etadi, kishilar hissiyotini boyitib, ruhiyatini sog‘lomlashtirishga xizmat qiladigan bitiklar badiiy adabiyot hisoblanadi va adabiyot atamasi asosan shu ma‘noda qo‘llaniladi.

Badiiy adabiyotni qachon faydo bo‘lanligini aniq aytish qiyin. Chunki ilmiy adabiyot atamasi yozma ma‘lumotlarni qamrab olsa, badiiy adabiyot tushunchasi xalq og‘zaki ijodini o‘z ichiga oladi. Xalq og‘zaki ijodining qanchon faydo bo‘lganini aniqlash deyarli mumkin emas. Har holda, odamzod faydo bo‘lishi bilan uning badiiy ijodi ham dunyoga kelgan bo‘lishi kerak. Birinchi she‘r Odam ato tomonidan aytilgani rivoyat qilinadi.1

Adabiyot ma'naviyat xazinasini sababi ishundaki, uning bag'rida hozirga qadar insoniyat ardoqlab kelayotgan eng noyob hislar- insonparvarlik, adolat, rahm-shavqat, o'zaro hamjihatlik, do'stlik, mehr va muruvvat, sevgi- muhabbat, go'zalikka tashnalik singari o'lmas insoniy tuyg'ular jamu-jamdir. Adabiyotga oshno tutingan kishi qalbiga bu hislar ko'chib o'tishi, uni hazrati insonga aylantirishi hayotga nur olib kirib, turmushini turfa mazmun bilan boyitishi aniqdir. qolaversa, adabiyot so'zi aslida obod so'zidan olingan bo'lib, qadimdan sharq mamlakatlarida adabiyotga insonni odob va ahloqqa yo'naltiruvchi ruhiy- ma'naviy manba sifatida qaralgan.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda badiiy adabiyotga bo'lgan qiziqish va muhabbatni yanada rivojlantirish badiiy asardagi go'zallikni, nafosarni his etish ko'nikmasini kuchaytirib borish bugungi kunning muhim masalasidir. Kichik yoshidan bolalarni xalq og'zaki ijodining janri bo'lgan hikoyalar bilan tanishtirish orqali ularda asarga nisbatan qiziqishlarini oshirish orqali bolalarda so'z qudratini, obrazli fikrlarni his etib, ularda ifoda etilgan chuqur ma'nolarni tushunib boradilar. Hikoyalarga nisbatan hurmati yanada kuchaytiriladi va shu bilan birga sharqning buyuk allomalari, bugubgi kunda o'zbek adabiyotini rivojlanishiga hissa qo'shgan yozuvchi va shoirlar haqida hamda ularni asarlariga nisbatan hurmat hissi tarbiyalanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kichik yoshdagi bolalarni tarbiyachilar yoki ota-onalar tomonidan aytilgan hikoya yoki ertakni nihoyasiga etkazishga, jummalarni qisqa, lo'nda tuzishga, tasviriy vositalardan foydalanishga o'rgatib boriadi. Shu yo'llar bilan bolalarda shaxsiy tajribalari asosida tarbiyachi taklif etgan hayotiy mavzular bo'yicha mantiqiy rivojlanib boruvchi, hikoya va ertak tuzish qobiliyatlari rivojlantiriladi. Qahramonlarning ruhiy kechinmalarini ta'sirchan aytib bera olish ko'nikmasi rivojlantiriladi. Bolalar mazmunli rasmlar asosida ham hikoyalar tuzishni yaxshi ko'radilar. Rasmlarda aks ettirilgan voqealarni izchil bayon qilishni, qahramonlarning xatti-harakatiga nisbatan o'z munosabatini bildirish, hikoyani mantiqli tugatish ko'nikmasiga ega bo'ladilar.

Maktabgacha ta'limda hikoya janriga mansub kichik hajmda badiiy asarlarda kishilar hayotida yuz berishi mumkin bo'lgan ma'lum voqea-hodisalar hayotning muhim janrlari umumlashtirilib tasvirlanadi. Hikoyalarda, odatda, biror kishi hayotida bo'lgan bir epizod tasvir obyekti qilib olinadi. Hikoyalardagi mazmunning mohiyati ertakardagi mazmunga nisbatan hayotiy bo'ladi. Hikoya mazmunan ham, shaklan ham maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar uchun mos janr hisoblanadi chunki maktabgacha yosh davridagi bolalarda yoshlari besh yoshdan o'tgandan so'ng ular mavhum narsalardan ko'ra real ya'ni aniq bo'lgan voqea-hodisalarga qiziqqa boshlaydilar.



Kichik maktabgacha yoshdagi bolalarni qahromonlarning xatti-harakati, tashqi ko‘rinishi, portret tasviri, voqea-hodisalar haqidagi hikoyalar qiziqtiradi. Kichkintoylarni hikoya matni bilan tanishtirishning syujetini tushuntirishga bog‘lab olib borish samarali bo‘ladi. Tayyorlov guruh yoshiga yetgach hikoya ustida ishlashga bag‘ishlangan izohli o‘qish bosqichlarida o‘qilgan matni qayta hikoyalash kabi asosiy ish turlaridan foydanatilaniladi. Hikoya mazmuni odatda savol va topshiriqlar asosida tahlil qilinadi. Savol va topshiriqlardan hikoya mazmunini tahlil qilish; dalil mulohaza hamda xulosalarni taqoslaydi, voqea-hodisa va xatti-harakatlar o‘rtasidagi bog‘lanishlarni aniqlash, hamda umumlashtirish; kichkintoylarni mustaqil fikrlash va erkin faoliyatga; o‘z ma‘naviy kamoloti yo‘lida o‘zining ishtirokini ta‘minlash, kashf etish, lazzatlanish tuyg‘usi shaklanadi. Shu asosda badiiy asarlarni tinglashga qiziqtirish maqsadida foydalaniladi.

Darhaqiqat, bu ishlarning barchasi pedagoglar hamda ota-onalarning savol va topshiriqlari asosida amalga oshiriladi. Maktabga tayyorlov guruhi bolalariga o‘qilgan hikoya mazmuni yuzasidan beriladigan dastlabki savollar hikoya kichkintoylarga yoqqan –yoqmaganligini, undagi qaysi qahramonlarning xarakteri, kimga qanday nima ucin yoqqanligi haqida muhokama yuritib, salbiy va ijobiy, to‘g‘ri va noto‘g‘ri, halol va haromni farqlashni, unga qanday ta‘sir etganini aniqlash maqsadida beriladi. So‘ngra hikoya syujeti, voqealarning rivojini ochishga, qahramonlarning xarakterini tushunishga, asardagi yetakchi qarashlarni bilib olishga, ular haqida farqlashga, o‘z ma‘naviyatini sog‘lomlashuv jarayonida bevosita ishtirok etishga yo‘naltirilgan savol va topshiriqlardan foydalaniladi. Badiiy asarni tahlil qilayotgan vaqtda, asarni to‘liq tushunishga berilib ketib, qahramonlarga tavsif berish, hodisalarning sabablarini aniqlash, ijobiy va salbiy sifatlarni farqlash ishlarni e‘tibordan chiqarmaslik kerak

Hikoya janridagi bitiklar hayotiyliigi bilan o‘ziga xos xususiyatga ega. Unda voqealar tez rivojlanib boradi. Hikoyada inson shaxsi va hayoti bilan bog‘liq voqealar bayon etiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar qahramonlarning xarakteri, ularga xos bo‘lgan xususiyatlar bilan qiziqadilar, ular haqida tengdoshlari bilan o‘zaro fikr almashadilar. Maktabgacha ta‘lim tashkilotining “Ilk qadanm” o‘quv dasturida taqdim etilgan hikoyalar mavzu jihatidan xilma-xildir. Odatda har qanday hikoyalar matni biror davr bilan bog‘liq bo‘ladi. Kichkintoylar hikoyadagi qahramonkarning ma‘naviyatiga, xarakteriga bo‘lgan qiziqishlari tufayli hayotning nurli va qorong‘u tomonlari xususida tushunchagaa ega bo‘ladilar. Ularda go‘zallik va nafosatga muhabbat, yovuzlikka nisbatan nafrat tuyg‘usi hikoyalar bilan tanishtiriish va uni tahlil qilish vaqtida rivojlanib biradi. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun yozilgan hikoyalar badiiy tur sifatida o‘ziga xos xususiyatga ega. Hikoyadagi har bir so‘z, gap va iboralar

o'xshatishlar yozuvchining fikrini ifodalshga xizmat qiladi. Hikoya matni uning mazmunini yoki badiiy xususiyatlarini o'rganibgina qolmay, balki tahlilning ifodali, badiiy shartli yoki ijobiy o'qish, muammoli usullardan foydalanish uchun ham manba bo'ladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarni badiiy asarlar bilan tanishtirish talimiy faoliyatlarda yoki kunning ikkinchi qismida amalga oshiriladi, hikoyalarni o'qib berishda bolalar tushunmaydigan. so'z va iboralar ma'nosini tushuntirib berish ham muhim usullar bo'lib o'z samarasini beradi. Aks holda esa, bolalar hikoya mazmunini to'liq tushunmay qolishlari mumkin. Bu o'z navbatida, o'qilgan matni didaktik tahlili samaradorligiga ham putur yetkazishi mumkin. Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarga hikoyalarni o'qib berish orqali ularni so'z boyliklarini oshirishga erishishladi. Tarbiyachi hikoyani o'qib bergach bolalardan uning mazmuni haqida o'ylashlari, tassurotlarini tiniqlashtirib oilshlari, o'z fikr-mulohazalarini aytishga tayyorlanib olishlari uchun ma'lum vaqt berish va tanishuv suhbatini o'tkazishi ijobiy natija beradi. Hikoyani o'rganishda savollar tarbiyachi tomonidan beriladi. Shu usul bilan birga asar mazmuni, asardagi qahramonlar shaxsinig xulq-atvorini ochish yuzasidan beriladigan savollar ham o'zini samarasini berishi mumkin. Bu usul bolalarda o'z fiktini izchil bayon etishga, mazmun va voqealar orasidagi bog'lanishni to'liq va uzoq muddat esda saqlab qolishiga yordam berdi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi . F.Yusupova
2. Bolalar nutqini o'stirish nazariyasi va metodikasi D.R.Babayeva
3. Nutq o'stirish uslubiyoti O.Shodiyeva.
4. Sog'lom farzand-oila quvonchi. M.Z.Rajabboyeva

## YUQORI CHASTOTALI TOK BILAN TERMİK ISHLOV BERISH QURILMASI ORQALI LEMEXLARNING YEYILISHGA MUSTAHKAMLIGINI OSHIRISH

**Mo‘minov Saidabrор Nabijon o‘g‘li**  
Andijon Mashinasozlik Instituti magistranti

### ANNOTATSIYA

Maqolada qishloq xo‘jaligida yerga ishlov berishda foydalaniladigan plug lemexlari haqida ma‘lumot keltirilgan. Lemexlar abraziv muhitda ishlaganligi sababli ular tez yeyiladi va ko‘p miqdorda sotib olishga to‘g‘ri keladi. Tajribalarda lemexlarning yeyilishga chidamliligini termik ishlov berish usuli orqali orttirishni amalga oshirish mumkinligi kuzatiladi.

**Kalit so‘zlar:** Lemex, plug, yeyilish, resurs, mexanik xususiyat, toblash, abraziv muhit, qattiqlik.

## ПОВЫШЕНИЕ КОРРОЗИОННОЙ СТОЙКОСТИ ЛЕМЕХОВ УСТРОЙСТВОМ ТЕРМООБРАБОТКИ ТОКОМ ВЫСОКОЙ ЧАСТОТЫ

### АННОТАЦИЯ

В статье приведены сведения о вилочных лемехах, применяемых при обработке почвы в сельском хозяйстве. Поскольку лемехы работают в абразивной среде, их быстро съедают и их приходится покупать в больших количествах. Эксперименты показывают, что повысить коррозионную стойкость лемехов можно термической обработкой.

**Ключевые слова.** Лемех, плуг, износ, ресурс, механические свойства, упрочнение, абразивная среда, твердость.

## INCREASING THE CORROSION RESISTANCE OF LEMEXES BY THERMAL TREATMENT DEVICE WITH HIGH FREQUENCY CURRENT

### ABSTRACT

The article provides information on plug lemexs used in tillage in agriculture. Because Lemexs work in an abrasive environment, they are eaten quickly and have to be purchased in large quantities. Experiments show that it is possible to increase the corrosion resistance of lemexs by heat treatment.


**Keywords.** Lemex, plug, wear, resource, mechanical property, hardening, abrasive environment, hardness.

Jahon mamlakatlarning ilmiy-tadqiqot markazlarida, qishloq xo‘jaligida tuproqqa ishlov beruvchi mashinalari ishchi organlarining yeyilishini kamaytirish va resursini orttirishga yo‘naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ularda lemex materiallari, konstruktiv parametrlari, termik ishlov berish rejim va parametrlari asoslangan.

Mamlakatimizda qishloq xo‘jaligini isloh qilish, tejamkor texnologiyalarni joriy etish hamda qishloq xo‘jaligini zamonaviy texnikalar bilan ta‘minlash borasida ko‘plab vazifalar qo‘yilgan. Ushbu maqsadlarga erishish uchun qishloq xo‘jaligi texnikalarini takomillashtirish ustida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

O‘zbekiston bozorlarida Almaz, Lemken, Noot, Kverneland, Djon dir kabi firmalarning plug lemexlarini ko‘rish mumkin.

Lemexlar ustida olib borilgan tadqiqotlarga ko‘ra II-702 lemexlarining resursi tuproq sharoitiga qarab 5-20 ga ni tashkil etmoqda. Omochlarni lemexlar bilan ta‘minlashda 40,5 ga resurs belgilangani holda ularning o‘rtacha resursi 9.5 ga ni tashkil etmoqda. Tuproqqa ishlov beruvchi mashinalar ishchi organlarining resursi juda kam va yetarli emas. Agar statistik ma‘lumotlarga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, Respublikamizda ishlab chiqarilayotgan lemexlarning resursi tuproq-iqlim sharoitiga (ayniqsa, toshli qumloq tuproqlarda) 5-20 ga ni tashkil etadi xolos. Solishtirish uchun Lemken firmasiga qarashli omochlar lemexlarining resursi 250 ga gacha yetishi aniqlangan. Ammo Lemken firmasiga qarashli omochlar lemexlarining tan narxining qimmatligi ulardan keng foydalanishga to‘siq bo‘lib turibdi.



*a* – trapetsiyasimon; *b* – iskanasimon; *v* - o‘yikli; *g* - uchburchaksimon;  
*1* – tumshuq; *2* – magazin; *3* – qanot; *4* – tig‘;

### **1-rasm. Lemexlarning turlari**

Lemex palaxsani tagidan qirqadi va ag‘dargich bilan birga uni egat devoridan ajratadi. Qirqilgan palaxsa ag‘dargich yuzasi bo‘yicha siljib uvalanadi va ag‘dariladi. Lemexlari o‘tmas bo‘lib qolishi natijasida plugning sudrashga qarshiligi ortadi (50 foiz

gacha), hamda uning belgilangan chuqurlikka botishi qiyinlashib, ravon harakatlanishi ta'minlanmaydi [1; 63-b.,].

Detallarga termik ishlov berib ish resursini oshirishning qator usullari mavjud bo'lib, bu usullar ichida induksion tok bilan yuza toblash alohida o'rin tutadi. Bu usulning muhim xususiyatlari sifatida termik ishlov berilayotgan detalni butun yuzasi bo'yicha, uning alohida qismi yoki asosiy yuklanishni qabul qiluvchi sohalarni toblash mumkinligi, termik ishlov berish vaqtining qisqaligi, detallarni 1...5 mm gacha toblash mumkinligi kabilarni keltirish mumkin. Usul yuqori ish unumiga ega bo'lish bilan birga jarayonni mexanizatsiyalashtirilganligi plug lemexlarini toblashda yaxshi samara beradi. Bu usulda detallar ma'lum qalinlikkacha induksion termik ishlov berish yo'li bilan yuza toblanadi, bunda detallarning ishchi yuzalari puxtalanadi va natijada ularning ish resursi hamda abraziv yeyilishga chidamliligi oshadi.



**2-rasm. Yuqori chastotali tok bilan termik ishlov berish qurilmasi**

Ma'lumki, po'latlardan quymalar, prokat mahsulotlari va pokovkalar olishda ular butun hajmi bo'yicha bir tekis sovimaganligi sababli strukturalari bir tekis bo'lmaydi. Shu boisdan ichki zo'riqish, kuchlanishlar, tarkib notekisliklari uchraydi. Bular, o'z navbatida, uning xossalariga putur yetkazadi. Shu sababdan kutilgan maqsadga jumladan, zagotovkalarini keyingi texnologik ishlovlarga tayyorlashga yoki uzil-kesil ishlab detallarga zaruriy xossalar berilishiga ko'ra termik ishlovlar xili belgilanadi [2; 151 b;].

Shtamp listlardan tayyorlanadigan lemexlarni ishlab chiqarishda lemexlarning tig'i tomonidan 45 mm balandlikkacha mahalliy toblanadi va so'ngra o'rtacha haroratda bo'shatiladi. Ishchi yuzani 780-820 °C haroratgacha qizdirib, tig' qismini suv bilan sovutiladi so'ngra 350 °C temperaturada bo'shatiladi. Ushbu jarayonda toblanmagan yuzaning qattiqligi 23 HRC ga teng bo'lgan holatda lemex tig'i qattiqligi 47-50 HRC gacha yetishi mumkin.

Qishloq xo‘jaligi detallariga termik ishlov berishning optimal parametrlarini asoslash uchun ilmiy tadqiqot ishida etalon namuna sifatida C<sub>T</sub> 45 va C<sub>T</sub> 3 markali lemex materialini tanlab olishimiz mumkin. Ushbu lemexning ishchi qismiga yuqori chastotali tok bilan termik ishlov berish qurilmasi orqali (2-rasm) talab etilgan haroratgacha issiqlik ta’sir ettiriladi. Qizigan metallni tezlik bilan suv muhitida toblash amalga oshirildi.

Namunaning toblashdan oldingi va toblashdan keyingi qattiqligi laboratoriya sharoitida Rokvel usulida o‘lchandi va natijalar qayd qilib borildi:

-C<sub>T</sub> 45Г markali po‘lat namunasining termik ishlov berishdan oldingi qattiqligi: 27-31 HRC

-C<sub>T</sub> 45Г markali po‘latdan tayyorlangan namuna yuqori chastotali tok bilan termik ishlov berish qurilmasida kerakli haroratgacha qizdirilib, suv muhitida tezlikda sovitilganda: 48-52 HRC

-C<sub>T</sub> 3 markali po‘lat namunasining termik ishlov berishdan oldingi qattiqligi: 28-29HRC

-C<sub>T</sub> 3 markali po‘latdan tayyorlangan namuna yuqori chastotali tok bilan termik ishlov berish qurilmasida kerakli haroratgacha qizdirilib, suv muhitida tezlikda sovitilganda: 36-38HRC

Tajriba sinovlaridan ko‘zda tutilgan asosiy maqsad termik ishlov berish orqali plug lemexlarining abraziv muhitda yeyilishga qarshiligini orttirishni ta’minlashdan iborat. Laboratoriya sharoitida yeyilishga sinash tajribalarini olib borishda materiallarni abraziv muhitda yeyilishga sinash qurilmasidan foydalanildi (3-rasm)



**3-rasm. Materiallarni abraziv muhitda yeyilishga sinash qurilmasi**

Sinov natijalaridan ko‘rish mumkinki, termik ishlov berilgan namunalarning nisbiy yeyilishga chidamliligi toblanmagan Ст 45Г po‘lat namunasiga nisbatan 3,5-5,2 martagacha, toblanmagan Ст3 po‘lat namunasiga nisbatan 1,03-1,58 martagacha yuqori ekanligi aniqlandi.

## XULOSA

Tajriba natijalaridan aniqlandiki, 45 markali po‘latdan tayyorlangan termik ishlov berilmagan lemexning yeyilish jadalligi 165-166 g/ga ni tashkil etdi. Termik ishlov berilgan o‘rtacha yeyilish jadalligi 78-81 g/ga ni tashkil etdi. Ushbu holatda payvandlab qoplab resursi oshirilgan lemex 2 barobargacha ko‘proq yerni shudgorlashi mumkinligi kelib chiqadi. Bundan lemexlarning yeyilishga chidamliligini termik ishlov berib oshirish hisobiga ularning resursi ortganligini ko‘rish mumkin.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Nuriev K.K. “Рекомендации по повышению ресурса лемехов и долот двухъярусных плугов.”Ташкент, Издательство “Fan” 2008.
2. V.A. Mirboboyev Konstruktion materiallar texnologiyasi T. “O‘zbekiston” 2004
3. Bulkin V.V. Qishloq xo‘jaligi mashinalari remonti. – Toshkent: O‘qituvchi.
4. Qosimov K.K., Madazimov M.T., Qodirov N.U. Omoch lemexlarini ishlab chiqarish sinovlari natijalari // Zamonaviy ilm-fanning Innovatsion rivojlanishi: Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Andijon, 2019. – B.
5. Qosimov K.Z., Muypdinov A.Sh., Madazimov M.T., Xoshimov X.X. Перспективы восстановления изношенных деталей машин наплавкой композитсионных порошковых материалов // БГАУ научный журнал “ВЕСТНИК”. – № 3 (43). – Башкортостан, 2017.
6. Nuriev K.K., Madazimov M.T., Tuproqqa ishlov beradigan mashinalar ish organlari tig‘ining yeyilish dinamikasini analitik tadqiq etish natijalari // Ilm fan, ta’lim va ishlab chiqarishning innovatsion rivojlantirishdagi zamonaviy muammolar: Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallar to‘plami. – 1-tom. – AndMI, Andijon, 2020.
7. Tenenbaum M.M. Сопротивление абразивному изнашиванию. – М.: «Машиностроение», 1976. – 271 s.
8. K.Z. Qosimov, M.T. Madazimov, N.U. Qodirov, R.Sh. Sulstonov Plug lemexlarini o‘rganish natijalar tahlili. FerPi Ilmiy texnika jurnali 2022 yil Tom 26 №1. Farg‘ona 2022
9. K.Z. Qosimov, M.T. Madazimov, N.U. Qodirov, R.Sh. Qishloq xo‘jaligida qo‘llaniladigan plug lemexlari resursini o‘rganish natijalari. FerPi Ilmiy texnika jurnali 2022 yil Tom 26 №.2 Farg‘ona 2022

## QO'SHMA GAPLAR HAQIDA BA'ZI MULOHAZALAR

**Salimov Azizbek Samat o'g'li**

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti magistranti

### ANNOTATSIYA

G'ulomov A., Asqarova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili hamda Umumiy o'rta ta'lim 9-sinf "Ona tili" darsligida qo'shma gaplarning berilishi haqida ba'zi mulohazalar keltiriladi.

**Kalit so'zlar:** Uyushiq kesim, murakkab lisoniy birlik, kesimlar miqdori, intanatsiya, mazmuniy axborot berish, predikativ birliklar

Qo'shma gap muammosi o'zbek tilida XX asrning 30-yillaridan keyin ma'lum darajada o'rganila boshlandi. Qo'shma gaplar dastlab ikki asosiy turga bo'linib kelingan. V.A. Bogorodskiy ham qo'shma gaplarni ergashgan va bog'langan deb ikkiga ajratish birmuncha sun'iy ekanligi, u tildagi jonli turli-tumanlik, xilma-xillikni o'zida aks ettira olmasligini aytgan.

I.A. Batmanov o'zbek tilidagi qo'shma gaplarni uchga bo'lib tekshiradi: shart ergash gap, o'zgar gapi, bog'langan qo'shma gaplar.

A.K. Borovkov qo'shma gapning ikki asosiy turi mavjud ekanligini ko'rsatadi. Xuddi shu xildagi fikr A.N. Kononov ishida ham ta'kidlangan.

M. Asqarova qo'shma gaplarni ikki guruhga bo'lib o'rganadi.<sup>1</sup>

G'.A.Abdurahmonov esa qo'shma gaplarni uch turga ( bog'lovchisiz qo'shma gaplar, bog'langan qo'shma gaplar, ergashgan qo'shma gaplar) bo'lib tekshiradi.<sup>2</sup>

N.A. Baskakov qo'shma gaplarni uch guruhga bo'lib tekshiradi: bog'langan qo'shmagaplar, (bog'lovchili, bog'lovchisiz), ergashgan qo'shma gaplar (bog'lovchili, bog'lovchisiz) va ko'chirma gaplar ergashgan qo'shma gap.

Tarkibidagi predikativ birliklar o'zaro bog'lovchi yoki bog'lovchi vazifasidagi so'z yordamida emas, balki boshqa vositalar yordamida birikkan Qo'shma gaplar bog'lovchisiz qo'shma gap hisoblanib, bunday qo'shma gaplarda ohang muhim rol o'ynaydi. Bog'lovchisiz qo'shma gaplar aksar hollarda bog'langan va ergashgan qo'shma gaplar bilan o'xshash, munosabatdoshday ko'rinsada, ular ana shu turdagi gaplarning bog'lovchisiz varianti emas, balki qo'shma gaplarning alohida turi

<sup>1</sup>Asqarova M. Hozirgi zamon o'zbek tilida qo'shma gaplar. -T., 1960. 6-7-betlar.

<sup>2</sup> Абдурахмонов Ф.А. Основы синтаксиса сложного предложения современного узбекского литературного языка. АДД. -Т., 1960. -С.6



hisoblanadi: “Saodatxon eshikni ochib yubordi, uyga muzday kuz havosi kirdi” (S.Zunnunova). “Sultonmurod o‘zini chetga olishga tirishdi, xalq to‘lqini uni surib ketdi” (Oybek).

Tarkibidagi predikativ birliklar o‘zaro teng bog‘lovchilar yordamida birikkan (teng aloqali) qo‘shma gaplar bog‘langan qo‘shma gap deyilib, uning tarkibiy qismlari shaklan mustaqil ko‘rinsa-da, mazmunan va tuzilish jihatdan bir butunlikni tashkil etadi. Masalan: “Bahor keldi va gullar ochildi”. “Dilafro‘z chindan ham o‘zgargan. Ammo o‘ktam kulgusi, quralai ko‘zlarining kibrona boqishi o‘sha-o‘sha edi” (O‘.Hoshimov). Tarkibidagi predikativ birliklar (sodda gaplar) bosh va ergash holatida bo‘lib, ya‘ni bosh va ergash gaplardan tuzilib. ergashtiruvchi bog‘lovchilar, bir qancha fe‘l shakllari, yuklama va ko‘makchilar, nisbiy so‘zlar va tobelanish ohangi yordamida birikib, biri ikkinchisini aniqlash, to‘ldirish kabi vazifalarni bajaradigan qo‘shma gap turi ergash qo‘shma gap yoki ergash gapli qo‘shma gap deyiladi. Masalan: “Bir kuni ko‘chada ketayotsam, Umri bir bosh uzum ko‘tarib kelyapti” (A.Qahhor) gapidagi, “bir kuni ko‘chada ketayotsam” qismi ergash gap bo‘lib, u bosh gapdagi (Umri bir bosh uzum ko‘tarib kelyapti) ishharakatning amalga oshish payti (vaqti)ni aniqlab, uni to‘ldirmoqda, predikatdagi shaklga ko‘ra tobe holatda turibdi. Demak, bosh gap ergashgan qo‘shma gap tarkibidagi hokim komponent, ya‘ni ergash gap tomonidan o‘zi yoki biror bo‘lagi aniqlanadigan, ergash gap tobe bo‘ladigan gapdir. Masalan: “Qaysi kishi ertalab shunday mashq qilsa, u dardga chalinmaydi” gapi ega ergash gapli qo‘shma gap bo‘lib, undagi “u dardga chalinmaydi” qismi bosh gap hisoblanib, bosh gapning egasi ergash gap orqali izohlanmoqda. Yoki “Shoshish kerak emas, chunki bu yil toshqin xavfi yo‘q” gapida esa “Shoshish kerak emas” bosh gap bo‘lib, ergash gap bosh gapdan anglashilgan harakatning sababini ko‘rsatmoqda. Ergash gapli qo‘shma gap tarkibidagi tobe qism ergash gap hisoblanadi. Ergash gap bosh gapga ergashib (tobelanib), bu gapni yoki uning biror bo‘lagini qandaydir (payt, o‘rin, sabab, natija va boshqalar) jihatdan aniqlab, belgilab keladi. O‘zbek tiliga doir mavjud darslik va qo‘llanmalarda ergash gaplar (ergash gapli qo‘shma gaplar) mazmun va vazifalariga ko‘ra 14 turga ajratiladi.

Qo‘shma gap sintaktik birlikning eng yuqori shaklidir. Qo‘shma gaplar uchun sodda gaplar qurilish materiali sanaladi. Qo‘shma gaplar mustaqil sodda gaplardan emas, balki mazmun va grammatik jihatdan bir-biriga bog‘liq birliklardan tashkil topadi.

Mazmuni, grammatik tuzilishi hamda intonatsiyaga ko‘ra bir butunlikni tashkil etgan, turli xil grammatik, leksik-grammatik va leksik vositalar yordamida birikkan tuzilmalar qo‘shma gap deyiladi.<sup>1</sup>

<sup>1</sup> Gulomov A., Asqarova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. T., 1985. 172-bet.

Demak, qo'shma gap grammatik shakllangan va birdan ortiq axborotni tashish uchun mo'ljallangan nisbiy mustaqil sodda gapning grammatik, semantik, intonatsion va kommunikativ jihatdan yaxlitlangan butunligidir.

Qo'shma gap va uning turlari, qo'shma gaplarning tabiati masalalari rus va yevropa tilshunosliklari qatori o'zbek tilshunosligida ham keng, atroflicha o'rganilgan. Bu sohada, ayniqsa, akademik G'.Abdurahmonov va M.Asqarovalarning xizmatlarini alohida qayd etmoq kerak. Shuningdek, A.G'ulomov, H. G'oziyev, F. Kamolov, A. Azizova, H. Rustamov, E. Azlarov, A. Kononov, E. Grunina, X. Abdurahmonov, A. Nurmonov, N. Mahmudov va boshqa ham o'zbek tilida qo'shma gap sintak-sisini o'rganish va rivojlantirishga munosib hissa qo'shganlar. Keyingi yillarda (o'tgan asrning 90-yillaridan) o'zbek tilshunosligida qo'shma gaplarni, umuman sintaktik hodisalarni yangicha nuqtai nazar bilan sistemaviy-struktur usulda o'rganish boshlandi.

Qo'shma gaplar haqida qanday ta'rif berilganigiga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, "Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik" to'ldirilgan 4-nashrida sodda va qo'shma gaplarni ajratishga "Kesimning nechtaligi gaplarni sodda va qo'shma gaplarga ajratishga asos bo'ladi"<sup>1</sup> degan qoida berilgan. Bunda uyushiq kesimlardan farqlash kerak.

"Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik" to'ldirilgan 4-nashrida uyushiq kesimlarga "Kesim uyushib kelganda uni shakllantiruvchi vositalar (zamon, shaxs-son, mayl, tasdiq-inkor shakllari, bog'lama va ko'makchi fe'llar) oxirgi bo'lakka qo'shiladi: Mavzuni yaxshi tushunish uchun, avvalo, darsni diqqat bilan tinglash, berilgan topshiriqlarni bajarish, muntazam takrorlash kerak.

Agar ushbu vositalar har bir kesimga qo'shilsa, bunday gap uyushiq kesimli sodda gap emas, qo'shma gap hisoblanadi: Nutq qudratli kuch: u ishontiradi, undaydi, majbur etadi.<sup>2</sup>

Bu qoidaga tayanadigan bo'lsak, uyushiq kesimlar bundan mustasno deb ta'rif berilganda maqsadga muvofiq hisoblanib, qo'shma gaplar tarkibidagi sodda kesimlar mazmun va gramatik jihatdan shakllangan gaplar deb berilganda o'rganuvchilarda uyushiq kesim va qo'shma gap yuzasidan tushunmovchiliklar kelib chiqmagan bo'lardi.

Ammo, uyushiq kesimli gaplar haqida R.Sayfullayevaning "Hozirgi o'zbek adabiy tili" kitobida "Semantik yondashuvda bir egali, lekin birdan ortiq kesimli gap ham qo'shma gap sifatida ta'riflanadi. Negaki har bir kesimda shaxs-son, zamon, tasdiq-inkor, modallik (kesimlik) ma'nolari birdan ortiq shakl bilan ifodalanadi. Bu esa

<sup>1</sup> N.M.Mahmudov, A.Nurmonov, A.Sh.Sobirov Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik. T.,2019. 17-bet.

<sup>2</sup> M.Qodirov, H.Ne'matov, M.Abduraimova, R.Sayfullayeva, B.Mengliyev Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik. T.,2019. 110-bet.

semantik nuqtayi nazardan ularning har birida alohida axborot mavjudligidan dalolat beradi”<sup>1</sup> deb aytib o‘tilgan.

Bunda uyushiq bo‘lakli gaplarni mazmun tomoniga tayanib, uyushiq kesimli gaplarni deb alohida mustaqil sodda gaplar sifatida qarash mumkin.

Shuni ham aytish kerakki, bu yondashuv oliy ta‘limda o‘rganuvchilar uchun qiyinchilik tug‘dirmasligi mumkin. Lekin maktab o‘quvchilariga bu tushunarsiz bo‘lishi mumkin. Shuning uchun darslikdagi qoidaga aniqlik kiritilsa maqsadga muvofiq bo‘lardi deb hisoblayman.

Qo‘shma gapni tashkil etuvchi sodda gaplar mazmun va intonatsiyasi jihatidan yaxlitlikni, bir butunlikni tashkil etadi.

Qo‘shma gap tarkibidagi sodda gap alohida olingan sodda gapdan nisbatan mustaqil emasligi bilan ajralib turadi. Avvalo, bu — grammatik va ohang jihatdan nomustaqillik. Qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplar sintaktik jihatdan gap tarzda shakllangan bo‘lsa ham, mazmun jihatdan qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplar o‘zaro bog‘lanadi.

Keyingi yillarda qo‘shma gaplar tarkibidagi sodda gaplarning qurilish qolipiga ko‘ra tasniflash tavsiya etiladi.

Qo‘shma gaplarni tasniflaganda ularning tarkibidagi sintaktik aloqa va munosabatlarni ham hisobga olish lozim bo‘ladi.

Qo‘shma gap ham lisoniy birlik sifatida murakkab tabiatli bo‘lib, bu murakkablik uning lisoniy sathda tutgan o‘rni, tarkibidagi sodda gapning grammatik shakli va bog‘lovchi vositalari hamda mazmuniy munosabatining rang-barangligi bilan belgilanadi. Shuningdek, qo‘shma gap turlarini xilma-xil asoslarda turlicha tasniflash mumkin bo‘ladi. Tasnif asosining aniqligi va izchil amalga oshirilishi masala mohiyatini oydinlashtirishda muhim.

---

<sup>1</sup> R.Sayfullayeva Hozirgi o‘zbek tilida qo‘shma gaplarning substansional talqini. T...-2007. 58-bet.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Asqarova M. Hozirgi zamon o‘zbek tilida qo‘shma gaplar. –T., 1960
2. Абдурахмонов Ф.А. Основы синтаксиса сложного предложения современного узбекского литературного языка. АДД. -Т., 1960
3. G‘ulomov A., Asqarova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. T., 1985.
4. N.M.Mahmudov, A.Nurmonov, A.Sh.Sobirov Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik. T.,2019.
5. M.Qodirov, H.Ne’matov, M.Abduraimova, R.Sayfullayeva, B.Mengliyev Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik. T.,2019.
6. R.Sayfullayeva Hozirgi o‘zbek tilida qo‘shma gaplarning substansional talqini. T.,- 2007

## JISMONIY TARBIYANING TARAQQIY TOPISHI VA UNING MANBALARDA YORITILISHI TARIXI

**Eshboyev Shaxriyor Furqat o‘g‘li**

Jizzax davlat pedagogika universiteti

“Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazaryasi va metodikasi mutaxassisligi”

II bosqich magistranti

E-mail: [eshboyevshaxriyor55@gmail.com](mailto:eshboyevshaxriyor55@gmail.com)

**Dungalov Toshtemir Shukurullayevich**

Jizzax davlat pedagogika universiteti

“Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazaryasi va metodikasi mutaxassisligi”

II bosqich magistranti

### ANNOTATSIYA:

Ushbu maqolada jismoniy tarbiya rivojlanish tarixi manbalarga asoslanib bayon e‘tilgan. Shuningdek, jismoniy tarbiya taraqqiy topishi inson va jamiyat uchun ahamiyatini ochib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Jismoniy tarbiya, mehnat, inson, jamiyat, mashq, ov, ong, olov, jismoniy sifatlar.

## HISTORY OF DEVELOPMENT OF PHYSICAL EDUCATION AND COVERAGE IN SOURCES

### ABSTRACT

This article describes the history of the development of physical education based on sources. Also, the importance of the development of physical education for a person and society is revealed.

Информационные системы и технологии создают широкие возможности для развития различных сторон экономической деятельности. Одним из направлений управления инвестиционными проектами являются информационные системы. Инвестиционная деятельность связана с определенными рисками, и для их минимизации предлагается использовать различные методы расчета критериев эффективности проекта. Развитие этих приемов с помощью информационных технологий является одним из современных направлений развития информационных систем. Этот вопрос можно рассматривать отдельно или в составе более глобальной проблемы, связанной с управлением инвестиционными проектами. Этот процесс представляет собой автоматизированное решение, которое включает в себя несколько шагов, а также практические задачи, которые необходимо выполнить. Проработка идеи перед проектом — один из первых этапов этого вида деятельности, и он имеет приоритеты, учитывая его особую значимость. Структура системы управления инвестиционной информацией в значительной степени зависит от точного планирования ресурсов и задач, а также контроля за ходом проекта, затратами и коэффициентами выполненных работ. Помимо программных модулей, выполняющих основную функцию, существуют вспомогательные программы, выполняющие важную работу, но не относящиеся к специфике бизнеса, например, модуль электронного документооборота.

**Ключевые слова:** цифровая экономика, информационные системы и технологии, программные модули, электронный документооборот, эффективность, инвестиции, инвестиционный проект.

## THE ROLE OF INFORMATION SYSTEMS AND TECHNOLOGIES IN THE IMPLEMENTATION OF INVESTMENT PROJECTS

### ABSTRACT

Information systems and technologies create wide opportunities for the development of various aspects of economic activity. One of the areas of investment project management is information systems. Investment activity is associated with certain risks, and in order to minimize them, it is suggested to use different methods of calculating project efficiency criteria. The development of these techniques with the help of information technologies is one of the current trends in the development of information systems. This question can be considered separately or as part of a more global problem related to the management of investment projects. This process is an automated solution that involves several steps as well as practical tasks to be performed. Studying the idea before the project is one of the first stages of this type of activity, and it has priorities given its special importance. The structure of the investment information management system relies heavily on the accurate planning of resources and tasks, as well as monitoring the progress of the project, costs and ratios of completed works. In addition to the software modules that perform the main function, there are auxiliary programs that perform important work, but do not apply to the specifics of the business, for example, an electronic document circulation module.

**Key words:** digital economy, information systems and technologies, software modules, electronic document circulation, efficiency, investments, investment project.

## INVESTITSION LOYIHALARNI AMALGA OSHIRISHDA AXBOROT TIZIMLARI VA TEXNOLOGIYALARINING ROLI

### ANNOTATSIYA

Axborot tizimlari va texnologiyalari iqtisodiy faoliyatning turli jabhalarini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Investitsiya loyihalarini boshqarishni amalga oshirish yoʻnalishlaridan biri bu axborot tizimlaridir. Investitsion faoliyat maʼlum risklar bilan bogʻliq boʻlib, ularni minimallashtirish uchun loyiha samaradorligi mezonlarini hisoblashning turli usullaridan foydalanish taklif etiladi. Bu texnikalarni axborot texnologiyalari yordamida ishlab chiqish axborot tizimlarini rivojlantirishning hozirgi tendentsiyalaridan biridir. Bu savol alohida yoki investitsiya loyihalarini boshqarish bilan bogʻliq yanada global muammoning bir qismi sifatida koʻrib chiqilishi mumkin. Bu jarayon bir necha bosqichlarni, shuningdek, bajarilishi kerak boʻlgan amaliy vazifalarni oʻz ichiga oladigan avtomatlashtirilgan yechimdir.

Loyihadan oldin g'oyani o'rganish ushbu turdagi faoliyatning dastlabki bosqichlaridan biri bo'lib, uning alohida ahamiyatini hisobga olgan holda ustuvorliklarga ega. Investitsion ma'lumotlarni boshqarish tizimining tuzilishi ko'p jihatdan resurslar va vazifalarni aniq rejalashtirishga, shuningdek, loyihaning borishini, xarajatlar va bajarilgan ishlarning nisbatlarini kuzatishga tayanadi. Asosiy funktsiyani bajaradigan dasturiy modullardan tashqari, muhim ishlarni bajaradigan, ammo biznesning o'ziga xos xususiyatlariga taalluqli bo'lmagan yordamchi dasturlar mavjud, masalan, elektron hujjat aylanishi moduli.

**Kalit so'zlar:** raqamli iqtisodiyot, axborot tizimlari va texnologiyalari, dasturiy modullar, elektron hujjat aylanishi, samaradorlik, investitsiyalar, investitsiya loyihasi.

Barcha sohalar faoliyati bir-biriga ta'sir qiladi – bir yo'nalishdagi kashfiyotlar zanjir reaksiyasi orqali ikkinchi sohadagi o'zgarishlarga olib keladi. Bir sohada yangi usul va vositalarning paydo bo'lishi boshqa sohalarning rivojlanishi uchun yangi imkoniyatlar ochadi. Ilmiy-texnika taraqqiyoti an'anaviy ravishda har qanday iqtisodiy sohaning rivojlanishiga katta miqdorda ta'sir ko'rsatadigan omil bo'lib kelgan. Bundan tashqari, bugungi kunda bir qarashda tashkiliy va ishlab chiqarish jarayoni bilan bevosita bog'liq bo'lmagan olimlarning g'oyalari har qanday shakldagi tashkilotlarda joriy qilinmoqda. Turli yo'nalishlarning mavjudligi qo'yilgan muammoli vazifalarni o'zgartirish, ularni amalga oshirishning umumiy jarayonida birlashtirish imkonini beradi. Bugungi kunga qadar sohadagi ilmiy kashfiyotlar elektronika, informatika va hisoblash iqtisodiga katta o'zgarishlar kiritdi. Axborot tizimlarining imkoniyatlari muhim ahamiyatga ega bo'lgan amalga oshirish yo'nalishini va vazifalarini aniqlash, iqtisodiy rivojlanish majmuasida ham korxonada darajasida, ham makroiqtisodiyotda hal qilinishi kerak. Shunga ko'ra, butun jamiyat rivojlanishning yangi strategiyasini oldi va raqamli iqtisodiyotga o'tishni e'lon qildi [1]. Raqamli iqtisodiyotni o'tish bilan birga jamiyatni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratilishi kerak. Tovarlarini ishlab chiqarish va sifatini oshirish orqali va zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalangan holda raqamli iqtisodiyotda ishlab chiqarilayotgan xizmatlar hajmi oshadi, shu bilan birga xabardorlik va raqamli savodxonlik darajasi sezilarli darajada ko'tariladi Yangi talablarga javob berish natijasida iqtisodiyot inqirozli vaziyatlarda yuqori barqarorlik darajasiga chiqishi kerak. Bugungi rivojlanish asosan moddiy ne'matlarni keng ishlab chiqarilishini qisqartirishga qaratilgan, bu esa milliy mulkning o'sishiga sabab bo'ladi. Investitsiya faoliyati buning ajralmas va muhim qismi sanaladi. Investitsiyalarni amalga oshirish yoki yirik investitsiya loyihalari bo'yicha qarorlar qabul qilish uchun investitsiyalar barcha harakatlarni qamrab oladi Inson sa'y-harakatlari bilan barcha vazifalarni bajarish vaqt jihatidan ancha qimmatga tushishini va inson resurslari hajmini hisobga olish kerak. Shu sababli, axborot texnologiyalarini

joriy etish bu vazifani osonlashtirishining eng katta usuli bo'lishi mumkin. Ushbu muammoni har tomonlama ko'rib chiqish va har jihatdan asoslantirilgan so'nggi tadqiqotlar va nashrlarning tahlili umumiy muammoning avval hal etilmagan qismlarini ta'kidlaydi. Investitsion muammolarning muhimligini hisobga olgan holda iqtisodchilar axborot texnologiyalarining rolini oshirish haqida o'ylay boshladilar. Ko'pchilik mualliflar samaradorlikni baholash muammosi yuzasidan loyihalarni ko'rib chiqdilar.[2,3] Bu tadqiqot o'z ichiga investitsiyalarning barcha jihatlarini har tomonlama tahlil qilish imkonini beradigan keng ko'lamli chora-tadbirlarni joriy etish vazifalarini o'z ichiga oladi. Bu sohada asosiy qiyinchilik shundaki yagona mezonlar mavjud emas. Bugungi kunda investitsiya loyihalari yuqori darajadagi iqtisodiy noqulay sharoitida amalga oshirilmoqda. Bunga, birinchi navbatda, dunyodagi beqaror iqtisodiy vaziyat ta'sir ko'rsatadi. O'tgan yillardagi noqulay omillardan biri davlatlardagi valyuta kurslarining dollarga nisbatan beqaror nisbati edi. Bundan tashqari COVID-19 pandemiyasi tarqalishi natijasida o'rnatilgan cheklovlar ham sabab bo'lgan. Oxirgi noqulay vaziyat ko'plab sanoat korxonalarini ishdan chiqardi. Yangi korxonalar va ob'ektlar qurilishini sekinlashtirdi. Hatto hujjatlar bilan ishlash, axborot almashinuvi kabi jarayonlar ham murakkablashdi. Hujjatlar bilan ishlash iqtisodda yordamchi, lekin muhim ahamiyatga ega va investitsiya loyihalarini nazorat qilish va boshqarishning bir qismi sifatida zarurdir.[4] Shu bois elektron hujjat aylanishiga o'tish va qog'oz tashuvchilar bilan ishlashni bekor qilish ishlarini albatta tashkil etish kerak. Pandemiya kabi vaziyatlar iqtisodiyotning ishlash jihatlari zaifligini ko'rsatadi, ammo korxonalarining shunday sharoitlarga tayyor emasligi jiddiy oqibatlariga olib keladi, bu esa birinchi navbatda moliyaviy yo'qotishlarda o'z ifodasini topadi. Bundan tashqari, bunday omillarning paydo bo'lishini oldindan taxmin qilish qiyin masaladir. Shuningdek, investitsiya loyihalarini boshqarish o'ta muhim masalalardan biridir. Bu masalaning yechimining bir qismi sifatida vazifani bajarish uchun ko'plab mutaxassislar korxonaning investitsion portfeli tushunchasidan foydalanadilar. Umuman olganda, u moliyaviy va real elementlar majmuasini o'z ichiga olgan boshqaruv ob'ektlaridan biri hisoblanadigan sarmoyadir. Bugungi kunda turli mutaxassislar oldida faoliyat sohalari vazifasi yangi texnologiyalar va usullarni izlash, shuningdek, yangi investitsiya loyihalarini boshqarish samaradorligini oshirishdir [5, 6]. Loyihaning butun muddati davomida monitoring rejalashtirish, tashkil etish, rag'batlantirish jarayonlari o'z ichiga olishi mumkin. Baholash usullarini tanlashda ham jarayon samaradorligi, ko'plab avtomatlashtirilgan investitsiya loyihalarini boshqarish vositalari paydo bo'ldi. Bu, bir tomondan, analoglar mavjudligini hisobga olgan holda ijobiy omil, sog'lom raqobatni shakllantirish bozor va texnologiya narxini barqarorlashtirish, boshqa tomondan, tanlovni qiyinlashtirishdir.

Maqolaning maqsadlarini shakllantirish. Axborot tizimlari va texnologiyalarining investitsiya loyihalarini ishlab chiqish, rag'batlantirish va ekspluatatsiya qilishning asosiy yo'nalishlaridagi rolini o'rganish.

Vazifani belgilash. Muammoni tahlil qilish amaliy iqtisodiy soha masalalari, investitsiya loyihalarini qo'llab-quvvatlash (samaradorlik, boshqaruv va boshqa yordamchi masalalarni aniqlash) yordamida turli muammolarni hal qiluvchi axborot texnologiyalarining mavjud analoglarini ko'rib chiqish va tahlil qilish. Tadqiqotda qo'llaniladigan usul, texnikalar va texnologiya. Ushbu tadqiqot jarayonida asosiy mavzu bo'yicha tahlil o'tkazildi muammolar va ularni hal qilish yo'llari ko'rsatish orqali tahliliy ish olib borildi. Tanlangan mavzuning barcha jihatlarini o'rganish uchun keng ko'lamli uslubiy yondashuvlar va vositalardan foydalanildi. Ma'lumot qidirish uchun ilmiy nashrlar bilan ishlashning innovatsion usullari - ilmi ma'lumotlar bazalari qo'llanildi. [7,8].

Zamonaviy iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida investitsiya loyihalarini tuzilmasiz boshqarish bundan buyog'iga maqsadga muvofiq emas. Ilgari undan faoliyatning kichik shakldagi loyihalarida foydalanish mumkin edi, lekin vazifalarning murakkabligi ortib borishi bilan, boshqaruv jihatlarini nazorat qilish yomonlasha boshlaydi. Bugungi kunda hatto kichik investitsiya faoliyatini ham ramiylashtirilish talab qilinadi. Bularning barchasi ziddiyatli vaziyatlarni va quyida keltirilgan vaziyatlar bilan bog'liq xatolarni bartaraf etish uchun zarurdir: tanlangan strategiya, rejalarga rioya qilish, resurslarni taqsimlash, barcha zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun real sharoitlarni yaratish. Hozirda axborot tizimlari bu vazifani muvaffaqiyatli bajarmoqda. Axborot tizimlari vazifalarni rejalashtirish, ularni kichik vazifalarga ajratish, xodimlarni taqsimlash, asosiy tadbirlarni o'z vaqtida bajarish bilan bog'liq ishlarni bajarishi mumkin. Investitsiya loyihalarini boshqarish jarayonini avtomatlashtirish uchun ko'plab analoglar allaqachon ishlab chiqilgan va muvaffaqiyatli ishga tushirilgan. Shu bilan birga, bunday tizimlar bir nechta dasturiy modullarning ishini birlashtiradi. Har qanday investitsiya loyihasini shartli ravishda bosqichlarga bo'lish mumkin, har birining amalga oshirishadigan ish va vazifasiga qarab shartli ravishda maxsus dasturlar kiritilgan:

- loyiha investitsiya oldidan tahlili;
- asosiy tadbirlarni rejalashtirish;
- loyiha boshqaruvi;
- umumlashtirish.

Ko'p sonli baholash usullari ham iqtisodiy jihatdan samarali bo'lmasligi mumkin. Bugungi kunda bir qator muammolar moliyaviy tahlil va strategik rejalashtirish bilan shug'ullanadigan dasturiy ta'minot orqali hal qilinadi. Ammo bu holda axborot tizimlari rejalashtirishni baholashning samarali metodologiyasini tanlash muammosini



hal qila olmaydi. Investitsiya yo‘nalishlarining xilma-xilligini hisobga olgan holda har bir holatda loyihalar turli usullar bilan samarali bo‘ladi. Dasturiy ta‘minot ko‘pincha faqat foydalanuvchi tomonidan tanlangan harakatlar algoritmlarini bajaradi. Ko‘pchilik allaqachon foydalanilgan tizimlar mavzu bo‘yicha qo‘shimcha tahlilga ega emas va qaysi metodologiya baholash uchun eng yaxshi bo‘lishini mustaqil ravishda aniqlay olmaydi. Yangi axborot tizimlariga so‘nggi paytlarda tobora rivojlanib borayotgan sun‘iy intellekt orqali baholash modulini kiritish mumkin. Bundan tashqari, yangi bilim sohalari uchun vazifalarni taqsimlash paydo bo‘ldi: agar ilgari arxitektura tizimlarini va turli xil algoritmlarni qidirishda keskin muammo bo‘lgan bo‘lsa, bugungi kunda mavjud materiallarni optimallashtirishga ko‘proq e‘tibor qaratilmoqda. Sun‘iy intellekt yordamida nafaqat murakkab iqtisodiy hisob-kitoblarni amalga oshirish, balki mashg‘ulotga kiritilgan, loyihaning o‘ziga xos xususiyatlariga mos keladigan bir nechta usullarni tanlash mumkin bo‘ladi. Loyiha tasdiqlangandan so‘ng ular asosiy faoliyatni rejalashtirishga o‘tadilar. Bu yerda avtomatlashtirilgan quyidagi harakatlar: asarlar to‘plamini taqsimlash va har xil turdagi resurslar, vaqtinchalik rejalashtirish loyihaning bosqichlari (zamonaviy texnologiyalarga muvofiq - nazorat punktlari guruhini rejalashtirish), moliyaviy rejalashtirish. Ushbu bosqichda odatda bir necha turdagi dasturlar ishga jalb qilinadi. Birinchidan, bu muhim to‘g‘ri hisob-kitoblarni amalga oshirish va olingan ma‘lumotlarni hisobot shaklida ko‘rish imkonini beruvchi buxgalteriya dasturi. Ikkinchidan, avtomatlashtirilgan rejalashtirish texnikasi muhim ahamiyatga ega.[9]. Axborot tizimini loyihalashda investitsiya loyihalarini boshqarishda ishlab chiquvchilar funktsiyaning ishlashini ta‘minlashning bir necha rejalashtirish usullariga egadir. Ular tayyor dasturiy ta‘minotdan foydalanishi va uni birlashtirishi yoki o‘z usullarini yozishlari mumkin. Oxirgi variant ba‘zan arzonroq, chunki dasturni sotib olish litsenziyani sotib olishni va doimiy qo‘llab-quvvatlash talab qiladi, bundan tashqari boshqa kompaniya bilan hamkorlikda qo‘shimcha qiyinchiliklarga olib keladi. Biroq, ba‘zi hollarda, tayyor echimning integratsiyasi eng tejamkor hisoblanadi. Bunga yaqqol misol Microsoft ofis standart to‘plamidir. Bu dastur eng mashhur va keng tarqalgan dasturlardan biri va barcha firmalarda qo‘llaniladi. Shuning uchun, standart formatlarda ma‘lumotlarni uzatishda umuman muammo kelib chiqmaydi. Avval eski variantlardan foydalanishda qiyinchiliklar bo‘lishi mumkin edi, ammo hozir bu xatoliklar tuzatildi.

Har bir axborot tizimining asosiy elementi sifatida bunday paketlar allaqachon mavjud, shuning uchun, qoida tariqasida, bunday vazifalarni bajaradigan qo‘shimcha vositalar amalga oshirilmaydi. Investitsion loyihani rejalashtirish bu bilan cheklanmaydigan murakkab jarayondir, diagramma tuzishning o‘zi ko‘proq murakkab grafikalar va dasturlarni talab qiladi [10]Qurilish yoki sanoat loyihalarini amalga oshirishda qo‘shimcha elektron ulanishga qodir qurilmalar va sensorlar internet orqali

bir-birlari bilan va ishning tugashi yoki biron bir voqea sodir bo'lganligi haqida xabarlarni uzatishadi. Ushbu harakatlarni ko'rish uchun vizual dastur ham kerak bo'ladi. Hozircha bu juda keng tarqalgan va faqat alohida holatlarga ega texnologiyadan investitsiya loyihalarini rejalashtirishda foydalanilmagan. Tizimlar va elektron raqamli qurilmalar rivojlanishdan to'xtamaydi, taraqqiyot Internetini takomillashtirish tomon ketmoqda, keyinchalik aqlli faoliyatni rivojlantirish (aqlli sanoat, aqlli shaharlar) uchun optimal muhit yaratiladi. Loyihani boshqarish bosqichida bir nechta dasturlar orasidagi ma'lumotlarning faol almashinuvi mavjud: rejalashtirish, hisobot berish va ixtisoslashtirilgan dasturlar. Ixtisoslashtirilgan dasturlar to'plami investitsiyalarning o'ziga xos xususiyatlariga bog'liq bo'lgan loyihadir. Rejalashtirish tizimi bilan ishlash muddatlar va resurs xarajatlarini kelishish paytida amalga oshiriladi [11]. Hisobotlar har qanday natijalar olingan zahoti amalga oshiriladi va har birida dastlabki hisobot uchun bir xil nazorat punkti bo'ladi. Bunday ehtiyoj hujjatlar boshqaruv sifatini yaxshilaydi va bu jarayonni soddalashtiradi. Hamma statistik materiallar tayyorlanadi, shuningdek reja bilan bajarilgan ishlarni tekshirish uchun nazorat qilinadi. Butun boshqaruvli axborot tizimining muvaffaqiyatli ishlashi uchun hujjat aylanishini tashkil etish zarurdir. Texnik jihatdan bu vazifani amalga oshirish qiyin emas, ammo bu tizimni to'liq axborot texnologiyalaridan foydalanish tizimiga o'tkazish qiyin masala. Ehtimol, ma'lumotlar xavfsizligi masalalariga ishonch yo'q, shuning uchun barcha asosiy jarayonlar qog'ozda takrorlanishda davom etmoqda, bundan tashqari, hujjat shakli electron shakldan ustun turadi. Qabul qilingan strategiya bilan bog'liq holda davlatlar iqtisodiyotini raqamlashtirishga o'tish yo'lida rivojlantirish, deyarli barcha investitsiyalar kompaniyalar o'z faoliyatini amalga oshirish uchun texnologiyalarni joriy etish masalasini hal qilishga o'tdilar. Bu masala dolzarbligidan kelib chiqib, iqtisod va texnika fanlari mutaxassisleri o'rtasida muhokama qilingan va ulardan biri eng ommabop mavzular investitsiya loyihalarini boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimlari edi. Shunday qilib, tizimlarning ko'p sonli analoglari mavjudligi tizimlarning umumiy integratsiyalashuviga to'sqinlik qiladi va natijada ma'lumotlar uzatish va o'zaro ta'sirni murakkablashtirishi mumkin.[12]

Ilmiy-texnik vositalarning katta majmuasi investitsiya va loyiha faoliyatining turli masalalarini hal qilish imkonini beradi. Bir loyiha bilan ishlash katta hajmadgi biznes jarayonlarini taklif qiladi, ularning oraliq natijalari doimiy nazorat ostida bo'lishi kerak. Bugungi kunda hatto kichik loyihalarni ham maxsus ma'lumotlardan foydalanmasdan amalga oshirib bo'lmaydigan ko'pgina vazifalarni o'z zimmasiga oladigan tizimlar bordir. Tizimlarning ishlashi vazifalarni kichik vazifalarga ajratish imkonini beradi: vaqt, moliyaviy va inson resurslarini vizual rejalashtirishni amalga oshirish, korxonalar faoliyati ustidan aniqroq nazoratni amalga oshirish, qog'ozlar bilan ishlashni tartibga solish va bo'limlar va bo'limlar o'rtasida ma'lumotlarni uzatishni

soddalashtirish. Investitsiyalar bilan bog‘liq ishlarda avtomatlashtirilgan texnologiyalardan foydalanish nafaqat eng muvaffaqiyatli loyihalarni aniqlash imkonini beradi, balki ularning samaradorligini baholash yo‘li bilan yanada puxta dizayn orqali ko‘pchilik loyihalarning har bir bosqichini yanada muvaffaqiyatli qilishga sharoit yaratadi. Hatto ko‘pgina muvaffaqiyatli g‘oyalar ham to‘g‘ri rejalashtirish, Shuningdek, mablag‘larni sarflash jarayonini monitoring qilishning samarali tizimi mavjud emasligi tufayli kutilgan rivojlanishni darajasiga chiqa omaydi. Har qanday faoliyat sohasiga axborot texnologiyalarini joriy etish murakkab va uzoq davom etadigan jarayondir. Avval har bir mavzu bo‘yicha ma‘lumotlarni to‘plash, umumiylikni aniqlash, mijozlarning individual istaklari va boshqa xususiyatlari bilan murakkablashgan edi. Vaqt o‘tishi bilan ishlab chiquvchilar ko‘pchilik dasturlarni amalga oshirishda, ayniqsa investitsiya loyihalarini boshqarish faoliyatida tajriba orttirishdi, shuning uchun ko‘p masalalar soddalashtirilgan, ammo ular davom ettirishni amalga oshirish ma‘lum vaqt talab qiladi. Har qanday axborot tizimi bir necha qismlardan: apparat, dasturiy modullardan tashkil topgan murakkab kompleksdir. Shuning uchun ularni amalga oshirish olti oydan bir necha yilgacha vaqtni oladi, bu esa bir nechta muhim kamchiliklardan biridir. Inqirozli vaziyatlar muddatlarni tezlashtirish zaruratini kuchaytiradi va loyihalar narxining oshishiga olib keladi. Pandemiyaning bahorgi davridan keyin ko‘plab rivojlanish kompaniyalari ma‘lumotlarning yangi arzonroq va oddiyroq tizimlarda amalga oshiriladigan shaklini taklif qila boshladilar. Katta investitsiyaviy kompaniyalar to‘liq ma‘lumot bazalarini almashtira olmasligi mumkin, ammo kichik va o‘rta biznes uchun eng muqobil variant.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. Зюкин Д.А. Использование информационных технологий при решении социальных вопросов и роль государства в экономической поддержке их продвижения // Вестник Курской государственной сельскохозяйственной академии. 2020. № 7. С. 118-126.
2. Разуваева Т.А. Анализ и прогноз эффективности инвестиционных проектов предприятий // Научный журнал. – 2019. - №6 (40). – С. 51-55.
3. Сиднева А.М., Мазепов П.Е. Инвестиционные проекты в современном коммерческом обороте // Образование и право. – 2019. - №2. – С. 98–02.
4. Курганова М.В. Проблема выбора системы электронного документооборота на предприятии для создания базы знаний в условиях цифровой экономики // Бизнес. Образование. Право. – 2020. - №3 (52). – С. 211–216.

5. Сидоров Н.В., Лисицкая И.А. Оценка системы управления инвестиционной деятельностью банка и эффективность деятельности // Нормирование и оплата труда в промышленности. – 2019. - №1. – С. 55-63.
6. Аблякимова Л.Р. Управление инвестиционными проектами // Энигма. – 2019. – Т.1. - №12-1. – С. 33–36.
7. Игошин А.Н., Черемухин А.Д., Курмашева Н.Е. Факторы эффективности научной деятельности сотрудников университета и их влияние на систему оплаты труда // Вестник НГИЭИ. 2020. № 6 (109). С. 114-128.
8. Мельков С.А., Салтыкова М.В. Осевое время цифровой трансформации: экспертная оценка актуальной публичной научной коммуникации // XXI век: итоги прошлого и проблемы настоящего плюс. 2020. Т. 9. № 3 (51). С. 39-44.
9. Дрынова И.В., Кужелева С.А. Проблемы и перспективы создания автоматизированных информационных систем управления инвестиционными проектами // Актуальные вопросы современной науки. – 2010. - №13. – С. 7784.
10. Эпштейн Д. Структура декомпозиции работ и предварительное планирование проекта // Управление проектами и программами. – 2019. - №3. – С. 208–220.
11. Гапуова А.Е. Аналитическое обеспечение инвестиционного планирования на промышленном предприятии // Вектор экономики. – 2018. - №11 (29). – С.130.
12. Ие О.Н. Характеристика и факторы возникновения цифрового планирования экономики // Политика, экономика и инновации. - 2019. - № 3 (26). - С. 16.

## VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA AN'ANAVIYLIK VA ZAMONAVIYLIK

**Zokirova Sohiba Muhtoraliyevna**

Farg'ona davlat universiteti dotsenti

**Tojialiyeva Dilnoza Rasuljon qizi**

Farg'ona davlat universiteti magistranti

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada boshlang'ich sinflardavatanparvarlik ruhida tarbiyalashda an'anaviylik va zamonaviylik jihatlari ochib berilgan

**Kalit so'zlar:** vatanparvarlik ruhi, boshlang'ich ta'lim, an'anaviylik va zamonaviylik.

Bugungi o'zgarishlar sharoitida yoshlarni har tomonlama sog'lom va barkamol qilib voyaga yetkazish nafaqat davlat siyosati darajasidagi vazifa, balki umummilliy strategiya hisoblanadi. Ularni ma'naviy va ma'rifiy jihatdan yetuk, milliy qadriyatlarimizni oqilona idrok etadigan, tafakkuri keng insonlar etib kamolga yetkazish, g'ururli va or-nomusli, fikr va g'oyalarini mustaqil ravishda aniq ifoda eta oladigan shaxslar sifatida rivojlantirish dolzarb ijtimoiy vazifadir. Ushbu maqsadlarga erishishda eng avvalo, an'anaviy va zamonaviy qarashlarni o'zaro uyg'unlashtirish muhimdir. Falsafiy tafakkurning ijtimoiy-siyosiy asoslari har qanday jamiyatning ijtimoiy ongini o'zgartirishga hamda uning pirovard maqsadlariga xizmat qilishga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasining hozirgi davri, bundan keyingi taraqqiyoti va istiqboli hamda mustaqilligining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, madaniy-ma'naviy zamin va qadriyatlarini mustahkamlash uchun yosh avlodga dunyo standartlari darajasida bilim berish hamda vatanparvarlik ruhda tarbiyalash har doim jamiyatning eng dolzarb muammolaridan bo'lib kelgan. Mazkur vazifalarni o'z o'rnida, to'la-to'kis amalga oshirilmagan taqdirda ijtimoiy taraqqiyot ham ta'minlanmaydi. Chunki jamiyat manfaati yo'lida o'zidagi barcha bilim, qobiliyat va iste'dodini baxshida etadigan o'z kasbi va yurtiga fidoyi, yuksak bilim va ko'nikmaga ega, mustahkam hayotiy pozitsiyasi shakllangan, tadbirli va ishbilarmon yetuk kadrlargina O'zbekistonni dunyodagi har tomonlama ilg'or davlatlar safiga chiqib borishini ta'minlab beradi.

Vatanga muhabbat shundan iboratki, har bir yosh avlodni ma'rifatli qilib voyaga yetkazish va yurt ravnaqi yo'liga safarbar etishdir. Shuning uchun Islomda haqiqiy fidoiylilik, bu ilm yo'lidagi jiddu-jahd hisoblanadi. Bu esa shubhasiz mamlakatning gullab yashnashiga ta'sir etadi.

Shuning uchun ham yoshlarda vatanparvarlikni tarbiyalashda ularning ijtimoiy mas'uliyatini oshirish, millat, xalq va vatan oldidagi majburiyatlarini tushuntirish talab etiladi. Mazkur jarayonda mas'uliyat falsafiy kategoriya sifatida ijtimoiy voqelikda insonning anglanilgan xatti-harakatlarini ifodalaydi. "Bu falsafiy kategoriya orqali insonlarning ijtimoiy-ma'naviy, moddiy-jismoniy, ruhiy-tabiiy mas'uliyat kabi xislatlari qamrab olinadi va tahlilga tortiladi"<sup>1</sup>.

Mas'uliyatning ijtimoiy-ma'naviy funksiyasi turli zamon va makonga qarab o'zgacha mazmun kasb etib boradi. Bu bevosita shaxslararo, guruhlararo, davlat va jamiyatlararo munosabatlar tarzida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, shaxs ma'naviy taraqqiyotining har bir bosqichida o'z ifodasini topgan mas'uliyat darajasi ham o'zgarib boradi va shaxs ma'naviy faoliyati, uning turfa xususiyatlari bilan bir butunlikda kechadi. Demak, ijtimoiy mas'uliyat inson ma'naviy hayotining mazmun mohiyatini tashkil qiluvchi bosh omil hisoblanadi. Har bir shaxs o'zining vatan, xalq, jamiyat oldidagi fuqarolik burchi vijdon ishi ekanligini his qilmog'i lozim. Zero, o'z burchini, mas'uliyatini yaxshi his qilgan odamlarning xalq, yurt oldida obro'yi, qadr-qimmatini, mavqeyi oshib, bunday shaxslarni barcha birday e'zozlaydi<sup>2</sup>.

Mutafakkir olim Abdurauf Fitrat mas'uliyatni shaxsning "ma'naviy xatti – harakatlari majmui" sifatida talqin etadi<sup>3</sup>. Darhaqiqat, inson ma'naviy mavjudot ekan, uning xatti – harakatlarida ham ma'naviylik aks etishi tabiiy holdir. Shaxs qachon o'zining harakatlari oqibatini o'ylasa va buning uchun ma'naviy javobgarligini vijdonan his etsa, ana shunda mas'uliyat haqiqiy ma'naviy xatti-harakatlar majmuasiga aylanadi. F.A.Mamadaliyeva tadqiqotida: "Mas'uliyatda shaxsning o'ziga xos ma'naviy jihatlari namoyon bo'ladi. Masalan iymon-e'tiqodlilik, vijdoniylik, or-nomuslilik, iroodalilik, ruhan poklik, samimiylik, g'ururlilik, insonparvarlik, vatanparvarlik"<sup>4</sup>. Demak, bugungi tahlikali bir davrda ma'naviy barkamol shaxsni shakllanishida mas'uliyatning o'rni beqiyos.

Yoshlarda mas'uliyatni o'stirish ularda mustaqillik, shijoatlilik, dominantlik, o'ziga ishonchlilikni shakllantirishga xizmat qiladi. Psixolog olim N.S.Safoyev, "Inson hayot qonuniyatlarini bilish va ularni o'z faoliyatida qo'llashga qodir ekan, demak shu

<sup>1</sup>James W. Essays in Radical Empiricism. N.Y. 1922. P. 282. Lawler P.A.Pragmatism, Existentialism and Crisis in American Political Thought. - International Philosophical Quarterly.1980 Vol 20 №3. Прагматика и познание. Наука.1973.с 360

<sup>2</sup>Эргашев И.С. Шахс маънавий камолотида эркинлик ва ижтимоий масъулият уйғунлиги. номз. дисс. автореферати . – Тошкент: 2011. – Б. 12.

<sup>3</sup>Маънавий асосий тушунчалар изоҳли луғати. – Тошкент, 2010. – Б. 633.

<sup>4</sup>Мамадалиева Ф.А. Исломий кадриятларда шахс масъулияти муаммоси. Дисс. (PhD). – Тошкент: 2020, – Б. 17

nuqtai nazardan uning xulq-atvorini ijtimoiy me'yorlar bilan boshqarish mumkin. Qolaversa, inson o'z qilmishlari uchun mas'uliyatni his qilishi lozim"<sup>1</sup> – deb ta'kidlaydi.

Yana bir psixolog olimi N.Sagindikova “Mas'uliyat o'zi va boshqalar, jamoa oldidagi o'z xatti-harakatlari uchun mas'ullikni bo'yniga olib, shaxsning o'zini boshqarishi va xulq-atvorini shakllantiruvchi eng asosiy xarakter sifatidir”<sup>2</sup> – deb ta'riflab o'tadi.

“Mas'uliyat” arab tilidan olingan bo'lib, “javob bermoq”, “javobgar bo'lmoq” degan ma'nolarni anglatadi. Mas'uliyat tushunchasi Yevropa ilmida ilk bora falsafiy tushuncha sifatida XIX asrning 2-yarmidan boshlab qo'llanila boshlangan. “Mas'uliyat” tushunchasi birinchi marta falsafaga 1859 yilda Alfred Ben tomonidan kiritilgan<sup>3</sup>.

Psixolog olimi N.D.Sagindikova, “mas'uliyat o'zi va boshqalar, jamoa oldidagi o'z xatti – harakatlari uchun mas'ullikni bo'yniga olib, shaxsning o'zini o'zi boshqarishi va xulq-atvorini shakllantiruvchi eng asosiy xarakter sifatidir”<sup>4</sup> – deya ta'rif beradi.

Bugun mamlakatimiz O'zbekistonda keng qamrovli islohotlar amalga oshirilayotgan bir davrda shaxsning jamiyat oldidagi mas'uliyatini yuksaltirish har qachongidan ham muhimligi namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, globallashtirish sharoiti ta'sirida avj olayotgan “ommaviy madaniyat” kabi tahdidlarga qarshi turishda shaxsda mas'uliyat tuyg'usini takomillashtirish bugungi davrning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Darhaqiqat, insonni hayvonot olamidani farqlovchi jihati bu unda mas'uliyat hissining mavjudligidadir. Mana shu mas'uliyat tuyg'usi orqali inson o'zining ma'naviy mavjudot ekanligini anglab boradi. Inson o'zining ma'naviy kamolot imkoniyatlarini yuzaga chiqarish lozimligini anglab yetgan sari o'zligini anglay boshlaydi. Har qanday insonni shaxs deb atay olish qiyin. Shaxsga ijtimoiylik xususiyatlari xos. “Insonlar shaxs bo'lib dunyoga kelmaydilar, ijtimoiylik xususiyatlari nasldan naslga o'tmaydi, balki kishilar ijtimoiy muhitda, jamiyatda shaxs bo'lib shakllanadilar. Inson jamiyatdagi kishilar bilan muloqoti jarayonida ijtimoiy munosabatlarga kirishadi va unda sekin asta individdan shaxsga aylana borish imkoniyati yuzaga keladi”<sup>5</sup>. Ijtimoiylashuv sababli insonda yangidan-yangi shaxsiy

<sup>1</sup>Сафоев Н.С. Психологические особенности национального самосознания студенческой молодежи. автореф. дисс. ... док. псих. наук. –Ташкент, 2005, – С. 14.

<sup>2</sup>Сагиндикова Н.Д. Талабалар ўқув фаолиятида масъулиятнинг гендер хусусиятлари. (PhD) док. дисс. автореферати . – Тошкент, 2017, – Б. 13.

<sup>3</sup>Сагиндикова Н.Д. Талабалар ўқув фаолиятида масъулиятнинг гендер хусусиятлари. (PhD) док. дисс. автореферати . – Тошкент, 2017, – Б. 11.

<sup>4</sup>Сагиндикова Н.Д. Талабалар ўқув фаолиятида масъулиятнинг гендер хусусиятлари. (PhD) док. дисс. автореферати . – Тошкент, 2017, – Б. 12.

<sup>5</sup>Хуқукий нуқтаи назардан ҳам "шaxс" тушунчаси "Ўз хатти-ҳаракатлари ва билдирган фикр-мулоҳазалари учун тўла жавобгарликни ўз зиммасига оладиган ёш даври"га тўғри келади (изоҳ ўзимизга тегишли).

xislatlar paydo bo'ladi, ya'ni o'zining xatti-harakatlari uchun javob berish, o'zini o'zi nazorat qilish, o'zi-o'zini tarbiyalash, ijtimoiy faollik, mustahkam e'tiqodga, o'z dunyoqarashiga egalik, mustaqil qarorlar qabul qilish va o'z fikrlarini erkin bayon etish shaxsga xos xususiyatdir. Inson qachon o'zining oila a'zolari oldidagi, millat oldidagi, Vatan oldidagi, jamiyat oldidagi va, qolaversa, umuminsoniyat oldidagi mas'uliyatini jiddiy his etsa, uni tom ma'nodagi haqiqiy shaxs hisoblash mumkin. Shulardan kelib chiqib, shaxs mas'uliyati insonning haqiqiy mohiyatini belgilaydi, deb xulosa qilish mumkin.

Ma'lumki, jamiyat va mamlakatning barcha jabhalardagi rivojlanishida insonning ijtimoiy faoliyati, xususan, uning Vatan oldidagi mas'uliyati birinchi o'rinda turishi kerak. Ana shu jihat qancha yuqori bo'lsa butun jamiyatda farovon hayot kechirishga imkon yaratiladi, chunki jamiyatning eng katta boyligi ana shu insonlar va ularning go'zal fazilatlaridir. Agarda yuksak ma'naviyatli jamiyat shakllanishiga qat'iy ishongan, bunga chuqur e'tiqod etadigan kadrlar yetishtirilsa, avvalo shunday jamiyat bo'lishiga komil ishonchi va e'tiqodi bo'lgan imonli, barkamol insonlarni tarbiyalay olinsagina ana shu jamiyat va davlatda barqarorlik, farovonlik, osoyishtalik, taraqqiyot tezlashadi. Shuning uchun ham mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab, toki bugungi kunga qadar bu masalaga davlat siyosati darajasida qarab kelingan. "Bugungi kunda farzandlarimizning ma'naviy olamini yuksaltirish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash"<sup>1</sup> masalasi biz uchun eng dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. Abobakirova, O. (2020). INTERPRETATION OF THE PERIOD AND HEROES IN UZBEK CHILDREN'S STORIES. *Theoretical & Applied Science*, (5), 821-825.
2. Buzrukova, D. M. (2023). "Muhabbat" konseptining lingvomadaniy o'ziga xosligi. *FarDU. ILMIIY XABARLAR 1 (UDK: 811.161.1)*, 318-321.
3. Buzrukova, D. M. (2023). "MUHABBAT" HISSIY KONSEPTINING TURLI LINGVOMADANIYAT VAKILLARI IDROKIDAGI TASVIRI. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIIY JURNALI*, 3(1), 178-183.
4. Gafurova, M. (2021). Intellectual and Cognitive Activities of School Pupils. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 3(2), 447-450.
5. Gafurova, M. A. (2021). Developing Cognitive Activities of Primary School Students based on an Innovative Approach. *International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding*, 8(10), 236-242.

---

<sup>1</sup>Сагиндикова Н.Д. Талабалар ўқув фаолиятида масъулиятнинг гендер хусусиятлари. (PhD) док. дисс. автореферати . – Тошкент, 2017, – Б. 13.



6. Gafurova, M. A. (2023). Development of Cognitive Activity of Elementary School Students in Mathematics Lessons. *Global Scientific Review*, 14, 35-39.
7. Gofurova, M. A. (2020). Развитие познавательной деятельности учащихся при решении задач. *Theoretical & Applied Science*, (1), 677-681.
8. Jo,rayev, V. T. (2019). The advantage of distance learning courses in the process of education. *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology*, 1(9), 220-224.
9. Jo'rayev, V. T. (2020). The role and advantages of distance courses in the innovative educational system. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 2(10), 434-439.
10. Jurayev, V. T. (2020). PEDAGOGICAL SOFTWARE IN THE PREPARATION OF FUTURE TEACHERS OF INFORMATICS IN AN INNOVATIVE ENVIRONMENT. *Theoretical & Applied Science*, (4), 182-185.
11. Mamurkhanovna, D. B. (2022). The Concept Of "Love" As An Important Element Of The Emotional World Landscape. *EPRA International Journal of Research and Development (IJRD)*, 7(5), 95-98.
12. Mukhtoralievna, Z. S. (2022). INFORMATION TECHNOLOGIES IN EDUCATION. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 162-165.
13. Mukhtoralievna, Z. S., & Odilovna, B. R. (2023). AGE AND PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL BASES OF SPEECH DEVELOPMENT OF PRESCHOOL CHILDREN. *Open Access Repository*, 4(2), 763-767.
14. Mukhtoralievna, Z. S., & Salimovna, R. M. (2022). HISTORY OF UZBEK FOLK GAMES. *Innovative Technologica: Methodical Research Journal*, 3(10), 191-198.
15. Mukhtoralievna, Z. S., & Tavakkalovna, A. G. (2022). History of Information Technologies in Education. *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, 6, 359-363.
16. Muxtoraliyevna, Z. S., & Odilovna, B. R. (2023). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA MULOQOT MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY TUSHUNCHALARI VA XUSUSIYATLARI. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 3(4), 147-152.
17. Shuhratovna, D. S. (2022). COGNITIVE LINGUISTICS AND NEUROLINGUISTICS. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(10), 308-321.
18. Teshaboyev, D., & Abdumutalova, M. (2023). BOSHLANG „ICH SINF DARSLIKLARIDA QO „LLANGAN XALQ OG“ZAKI IJODIYOTI NA“MUNALARIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 3(3), 37-42.

19. Tursunova, D. T., Abobakirova, O. N., Buzrukova, D. M., Mahmudova, O. T., Ubaydullayeva, Z. H., & Kholmatova, N. N. (2022). Principal Principles And Important Factors Of Student Women’s Social Activity. *Journal of Positive School Psychology*, 6262- 6269.
20. Valijonovna, K. I., Rakhmatjonovich, T. D., & Mukhtoraliyevna, Z. S. (2022). Informational Technology at Education. *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, 6, 262-266.
21. Zokirov, M. T., & Dadabayeva, S. S. (2020). ABOUT THE ROLE OF LANGUAGES CONTACTS IN THE DEVELOPMENT OF LANGUAGES. *Theoretical & Applied Science*, (4), 687-691.
22. Zokirov, M. T., Zokirova, S. M., & Dadabayeva, S. S. (2021). About The Influence Of The Uzbek Language In Rishtan Tajik Dialects Of Ferghana Region. *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry*, 12(4).
23. Абобакирова, О. (2014). Особенности развития речи у дошкольников. *Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук*, (6-2), 76-78.
24. Абобакирова, О. Н. (2016). Особенности наглядно-образного мышления у детей с общим недоразвитием речи. *Молодой ученый*, (4), 734-736.
25. Абобакирова, О. Н. (2018). Формирование у старших дошкольников эстетических чувств средствами кукольного театра. *Молодой ученый*, (18), 148-150.
26. Бузрукова, Д. (2022). ҲИС-ТУЙҒУЛАР УНИВЕРСАЛЛИГИ ВА ҲИССИЙ-ЛИСОНИЙ ОЛАМ МАНЗАРАСИГА ПСИХОЛИНГВИСТИК ЁНДАШУВ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(11), 239-242.
27. Гафурова, М. А. (2022). МЕТОДЫ И ФОРМЫ ОРГАНИЗАЦИИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧАЩИХСЯ НА УРОКЕ МАТЕМАТИКИ В НАЧАЛЬНОМ КЛАССЕ. *Scientific Impulse*, 1(5), 598-602.
28. Тешабоев, Д. Р. (2022). ЭРГАШ ГАПЛИ ҚЎШПРЕДИКАТИВ БИРЛИКЛАР ФАЛСАФИЙ МАЗМУН КАТЕГОРИЯСИ СИФАТИДА. *BARQARORLIK VA YETAKSHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(11), 51-55.
29. Тешабоев, Д. Р. (2022). ЭРГАШ ГАПЛИ ҚЎШПРЕДИКАТИВ БИРЛИКЛАР ФАЛСАФИЙ НАРСА КАТАГЕРИЯСИ СИФАТИДА. *IJTIMOiy FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(11), 25-30.
30. Тешабоев, Д. Р., & Ахмаджонова, М. Б. (2021). SON SO‘Z TURKUMINING BOSHLANG‘ICH SINF DARSLIKLARIDA IFODALANGAN SHAKLLARINI AKT ORQALI TUSHUNTIRISH. *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА*, 4(1- 1

## O‘SMIRLIK DAVRIDAGI YOSHLARNING IJTIMOIIY PSIXOLOGIK MUAMMOLARI

**Narziyeva Mashhura Mirzayevna**

Buxoro viloyat Jondor tuman 3-umumta’lim  
maktabi amaliyotchi psixologlari

**Ziyodullayeva Gulchiroy Bahodirovna**

### **Annotatsiya:**

Ushbu maqolada jamiyat va aholi o‘rtasida psixologik savodxonlikni oshirish va takomillashtirish hamda bugungi kunda psixologiyaning inson hayotida qay darajada muhimligi haqida so‘z yuritiladi. Mamlakatimizda psixologiya sohasiga oid korporativ boshqaruv markazlarining olib borayotgan targ‘ibot-tashviqot ishlarini keng k o‘lamda yoritib berish.

**Kalit so‘zlar:** Globallashuv, milliy qadriyatlar, ommaviy madaniyat, milliy mentalitet, tarbiya, yoshlar ruhiyati, diniy qadriyatlar, internet, ijtimoiy tarmoqlar Axborot texnologiyalari, amaliy bilim, nazariy bilim, xarakter, insonshunoslik, kategoriya, kadr, pedagog, tajriba, mutaxassis, moddiy, ma’naviy , psixologiya, jamiyat, tafakkur.

O‘zbekiston Respublikasi o‘z mustaqilligini jahon miqyosida yil sayin barqarorlashtirib borar ekan, uning istiqboli bugungi yoshlarimizga bog‘liqdir.

Kelajak bugundan boshlanadi. Ayni damda tarbiya masalasiga e’tibor qilmasak, kelajak boy beriladi. Ma’naviy va axloqiy poklanish, imon, insof, diyonat, or- nomus, mehr-oqibat va shu kabi chinakam insoniy fazilatlar o‘z-o‘zidan kelmayda, hammasining zaminida tarbiya yotadi .Kundalik turmush tashvishlaridan ortib bag‘ringizda o‘sib ulg‘ayotgan farzandingiz yoki uning do‘stlarining fe’l-atvorlari, qiziqishlarini hech kuzatganmisiz? O‘g‘lingiz yoki endigina balog‘atga yetayotgan qizingiz bilan dildan suhbatlashganmisiz?

Aslida farzand ota - ona bilan ko‘proq yaqinroq bo‘ladi, deyishadi. Bu isbotlangan hayot tajribasi. O‘sha yaqinlikni yaratish esa onaning qo‘lida. Ishda o‘tirib telefon orqali nazorat qilishingiz yoki ma’lum bir fanga, to‘garaklarga vaqtini biriktirib qo‘yishingiz mumkin. Lekin bolaning ham o‘z xayollari, dilida saqlab yuradigan gaplari bo‘ladi. Bir o‘ylab ko‘ring-a, bolangiz sizni yaxshi ko‘rishini, yoki qalbidagi shirin orzularini,iztirobi yoki quvonchini baralla ayta oladimi? “Agar meva donagini chaqib, mag‘zini yerga eksak, albatta u unib chiqmaydi. Agar ustidagi qobig‘i bilan

tuproqqa qadasak-chi unib, o'sib gullab yashnaydi". Danak ruh, qobig'ini jism deb olsak, demak, bolalarimiz bir maqsadga erishmoqchi bo'lsalar har ikkala asosga suyanishi zarur. Aks holda, maqsadiga erishishi qiyin bo'ladi. O'ylagan maqsadiga erishishi uchun uning ruhiyati sokin, xotirjam bo'lishi kerak. Bola ruhiyati qachonki oilasi tinch va ota-onasining unga bo'lgan munosabati yaxshi bo'lsa, unga o'z vaqtida e'tibor qaratib, mehrini bersa, dildan suhbatlashsa, bolaning dardini tinglasa, unga ham gapirishi uchun navbat bersa, bolaning fikrlari teran va sog'lom buladi.

Tarbiya bilan ta'limni bir biridan also ayro tasavvur qilib bo'lmaydi. Tarbiya asosida insoniy fazilatlar rivojlantirilsa, ta'lim jarayonida esa bilim, ko'nikma va malakalar egallandi. Qaysi davlatda mana shu ikkita narsa to'g'ri yo'lga qo'yilgan ularning uzviy bog'liqligi ta'minlangan bo'lsa bunday davlatda kamol topayotgan har bir yosh dunyoqarashi keng bo'lib ulg'ayadi.

Bizlarga yaxshi ma'lumki, mamlakatimizda amalga oshiriladigan barcha islohatlar va o'zgarishlar, keng ko'lamlı dasturlar yagona va ulug' bir maqsadga qaratilgan.

Hamмамizga ma'lumki, ro'zg'or tashvishlari yoki davlat ishlari tufayli ko'plab ota-onalarimiz chet elga ishlash uchun ketishgan. Farzandlarini kimningdir qaramog'iga qoldirgan. Ayni damda farzandida o'tish, o'zgarish davri boshlangan bo'lsa-chi? U o'z fikrini kimga aytadi? Kimning qaramog'ida qolgan odamga ayta oladimi? Tingovchi shaxs buni to'g'ri tushuna oladimi? Yoki tinglash uchun vaqt ajrata oladimi? Ota-ona o'z farzandini eshitmasligi, samimiy suhbatdosh bo'lolmasligi yomon. Fikri tinglanmagan yoki rag'batlantirilmagan bola o'zining shaxsiy fikrlariga ega bo'lsa ham jur'atsiz va kamgap bo'lib qoladi. Unga qancha pul, mol-u davlat bermang, sizni mehringiz va bir og'iz shirin gapingizni o'rnini bosa olmaydi.

Mehr-oqibat va shu kabi chinakam insoniy fazilatlar bola qalbida o'z-o'zidan kelib qolmaydi, hammasining tag zaminida tarbiya yotadi. O'zbek xalqining asriy an'analari, jumladan, tarbiya sohasidagi an'analari ajdodlarimizning tabarruk dini bilan bog'liq. Yoshi kattalarga salom berish, ularni hurmat qilish, yoshi kichiklar va kuchsizlarni avaylash, ilm olish va kasb o'rganishga da'vat, halol mehnat qilishga chaqirish, qo'shnilar bilan xushmuomala bo'lish, oila bilan birgalikda ovqatlanish, oilaviy kitob o'qish va uni tahlil qilish, birgalikda katta-katta ishlarni birgalikda amalga oshirish kabi an'analari o'zbeklar oilalarida, ularning dinga munosabatlaridan qat'iy nazar, yoshlarga singdirib kelingan. Afsuski, ilg'or qarashli, o'qimishli, odobli va kelajagini bugundan, yoshlik chog'idan qurayotgan yoshlar bilan bir qatorda, ishyoqmas, qo'pol, takasaltang, savodsiz va gumroh o'spirin yoshlar ham uchrab turibdi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, bunday holatarning yuzaga kelishida ota-onalarning e'tiborsizligi, yoki ota-onaning, ikkalasining aqli kaltaligi yoshlarga salbiy ta'sirini ko'rsatib yoshlarni ham dunyoviy, ham diniy savodsiz bo'lib,

kelishiga asos bo'lib qolmoqda. Ota ishlash uchun uzoq safarga ketsa ham lekin asosiysi, ona farzandlari yonida bulishi, unga to'g'ri tarbiya berishi, haddan ziyod taltaytirib yubormasligi kerak deb o'ylayman. Hozirgi kunda yoshlarimiz orasida ijtimoiy muammoning ortib borayotgani ham har ikkala suyanchning bolalari yonida bo'lmayotgani, mol-u davlat orqasidan erta-yu kech quvishlari, natijada farzandlarning qarovsiz, e'tiborsiz qolishi, ularga vaqtda mexr berib dardlarini tinglamayotgani oqibatida, endigina katta hayotga qadam tashlab borayotgan yoshlarimizning to'g'ri yo'ldan adashayotganlariga sabab bo'ladi.

O'z faoliyatim davomida o'quvchilar bilan ishlash jarayonida ota-onasi chet el safarida ishlash maqsadida farzandlarini bobo-buvisi qaramog'ida qoldirgan o'quvchilar bilan ko'plab muammoli vaziyatlarga duch kelganman. 4-sinf o'quvchilari 8-mart "Xalqaro xotin-qizlar" kuni munosabati bilan "Nafosat malikalari" deb nomlangan tadbir tashkil qilishdi. Mana shu tadbirda ishtirokchi qizlarni baholash va kuzatuvchi sifatida qatnashdim. Tadbir juda ko'tarinki ruhda boshlandi va shartlar e'lon qilinib qizlar birmabir o'z chiqishlarini namoyish etishdi. Meni ta'sirlantirgan shart "Oyimga maktub" sharti bo'ldi. Jasmina ismli ishtirokchi qizimiz oyisiga yozgan maktubini o'qishi bilan tadbirda qatnashayotgan barcha ishtirokchilar juda ta'sirlandi hatto ko'zlari yoshlandi. Jasmina maktubida oyijonisini juda ham sog'inganini, u bilan dildan to'yib-to'yib suhbatlashishni qo'msashini, birgalikda vaqtlarini o'tkazishni sochlarini o'rib, bag'riga bosishini ko'zida yosh bilan o'qib berdi. Bunday muammo birgina Jasmina qizimizda emas deb o'ylayman. Hozirgi vaqtda aksariyat bolalarning ota-onalari ulardan uzoqda. Hech bo'lmaganda farzand tarbiyasi uchun birta ma'sul shaxs onalarning bolalari yonida bo'lishi tarafdoriman. Chunki bolani tinglovchi, unga dalda bo'luvchi to'g'ri yo'l ko'rsatuvchi inson borligini his qilgan farzand yo'lda adashmaydi. Barchamizga ma'lumki, o'smirlik davri - eng murakkab davr. Bu vaqtdagi ruhiy va jismoniy o'zgarishlarni ota-onalarimiz asta-sekinlik bilan qiz o'g'illarimizga tushuntirib to'g'ri yo'lga solishlari zarur, ayni ularga kerak paytimizda ularga suyanch bo'lmasak, o'z ishimizga o'ralashib qolsak, bolani gapi qilayotgan ishi xato bo'lsa-da, so'zini so'zsiz qilaversak, xatosini tuzatmasak, bilingki, tarbiyada biz adashyapmiz. Yoki qo'lga uyali telefonlarni olib berib qoyayapmiz-u, u telefondan qanday foydalanayapti, bunisiga ishimiz bo'lmay qoldi. Shu uchun ham ayrim yoshlarimiz internet orqali, kimlarningdir ayyorona gaplariga uchib, turli yo'llar bilan Suriya va boshqa mamlakatlarda terroristik harakatlarda ishtirok etib, Vataniga xiyonat qilmoqda. Internet va begonalaridan noto'g'ri ma'lumot olib bir umrga sizdan uzoqlashib ketishlari juda ayanchli holat deb o'ylayman. Aziz birodar xalqim, ota-yu onajonlarim, kelinglar birgalikda bolaga to'g'ri tarbiya beraylik. Barcha muammolarni ilm-ma'rifat orqali yengish mumkin ekanini uning ongiga singdiraylik. Ularni tadbirkorlikka, ishbilarmonlikka, turli sohalarga

yo'naltiraylik. Atrofimizdagi o'z mehnati bilan hurmatga erishgan, saxovatpesha insonlarga aylangan kishilarning izidan borishga yo'naltiraylik. Yoshlarimizga yangi ish o'rinlari ochib berishga, ish bilan ta'minlashga harakat qilaylik. Xalqimiz bekorchidan Xudo bezor deb bejizga aytmagan. Zero, biz Alisher Navoiy, Al-Buxoriy, Amir Temur, Abu Ali Ibn Sino avlodimiz. Shunday buyuk insonlar izidan ergashishimiz, xalqimizni, buyuk O'zbekistonimizni ko'kka olib chiqishimiz kerak deb o'ylayman.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak shiddat bilan o'zgarib borayotgan zamonda milliy ma'naviyat, milliy qadriyatlar asosida tarbiyalanmagan yoshlar o'zligini, tarixini yo'qotadi. Bunday yoshlar esa millat va davlatning kelajagini yo'q qiladi. Shuning uchun ham ota-bobolarimizdan qolgan qadriyatni yanada rivojlantirish, ularga nisbatan biz yoshlarda hurmat va ehtiromni shallantirish zarurdir. Milliy qadriyatlar va milliy mentalitet asosida tarbiya topgan yoshlar har doim yurt manfaatini, millat sha'nini, davlat kelajagini birinchi o'ringa qo'yadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. Jo'raboyev K. "O'quvchi – yoshlarni kasb – hunarga yo'naltirish bo'yicha psixologik – pedagogik o'yinlar, mashqlar va metodikalar" Uslubiy qo'llanma. "KOMRON PRESS" Toshkent 2017 yil 5-7 betlar.
2. Soatov.A.J. Bo'lajak pedagog-psixologlarda psixologik maslahat berish ko'nikmalarini shakllantirish texnologiyasi. O'quv qo'llanma. Toshkent: Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi. 2020 yil 31-32 betlar.
3. Soatov.A.J. Pedagogika-psixologiya ixtisosligi talabalarida psixologik maslahat ko'rsatish ko'nikmalarini shakllantirish texnologiyasi. UzACADEMIYA ilmiy-uslubiy jurnal 2 jild. Avgust 2020. 489-496 betlar.
4. I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" T :Ma'naviyat 2008 yil.
5. E. B .Shoumarov "Oila psixologiyasi" 2008 yil
- 6.Sh.Mirziyoyev "Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug',hayoti yorug' va kelajagi faravon bo'ladi". T., "O'zbekiston" 2019-yil. [233]-bet

## EVALUATING THE EFFECTIVENESS OF TREATMENT METHODS FOR REFRACTIVE AMBLYOPIA IN CHILDREN

**Boboeva Rano Rakhimovna**

Senior teacher of the Department of Otorhinolaryngology and Ophthalmology  
of the Bukhara State Medical Institute  
E-mail: [ranoboboyeva3553@gmail.com](mailto:ranoboboyeva3553@gmail.com)

### ABSTRACT

In three cases, in the treatment of refractive amblyopia in the children's department of the Bukhara Regional Ophthalmological Hospital, the device MACDEL-08 "Speckle" was used and its results were studied. 35 patients aged 7-18 years were examined in the outpatient clinic. Examination of children was carried out according to standard plans, and groups of outpatients used methods of lymphostimulation, laser stimulation. The pre- and post-treatment results were analyzed to evaluate treatment outcomes.

Zamonaviy o‘quvchi – o‘qitishda an’anaviy ta’lim-tarbiya usullaridan foydalanib emas, balki ularga mustaqil bilim olish hamda egallagan bilimlarini takomillashtirishga intilish malakalarini shakllantirishi hamda o‘rgatishi zarur. Ushbu maqolada pedagogikada bolalarning sog‘lom ruhiy muhitda tarbiyash usullari tadqiq etilgan.

**Kalit so‘zlar:** pedagogika, nutq madaniyati, sog‘lom muhit, innovatsiya, pedagogik mahorat, tarbiya, xarakter.

### KIRISH

Maktab ostonasiga oyoq qo‘yish har bir inson uchun nihoyatda katta hayotiy burilishdir. Mana shu davrdan boshlab bolalikning eng beg‘ubor onlariga bir qadar cheklanishlar kirib keladi. Endi bola oilada nafaqat oilaviy ba’zi burchlarni, vaholanki, uz shaxsi uchun zarur bo‘lgan xususiy vazifalarni bajarishi shart davrga o‘tadi. Bu bilan uning oiladagi roli bir qarashda kamayganday emas, aksincha ko‘paygan bo‘ladi. Ya’ni u o‘z obro‘sinini endi nafaqat oila a’zolari o‘rtasida, aksincha, jamiyat o‘rtasida oila obro‘sinini o‘z shaxsiy harakati bilan himoya qilish davri boshlanadi.

Bizga ma’lumki, har qanday odam boshqa odamdan o‘zining individual-psixologik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bundan ma’lum bir odamga xos bo‘lgan xislatlar nazarda tutiladi. Psixologiyada xarakter deganda mazkur shaxs uchun tipik hisoblangan faoliyat usullarida nomoyon bo‘ladigan, tipik sharoitlarida ko‘rinadigan va bu sharoitlarga shaxsning munosabati bilan belgilanadigan individual psixik xususiyat yig‘indisi tushuniladi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ruhiy muhiti sog‘lom oila a’zosi bo‘lgan bolaning birinchi bor maktabga borishi qanchalik hayajonli bo‘lmasin bola uchun jiddiy qiynchiliklar tug‘dirmaydi. Chunki maktabda o‘qituvchi hamma bolalarga bir ko‘z bilan qaraydi. Oilada ham bolaga maktabga borganligi munosabati bilan alohida erkatoyga qarash qilmasdan, maktab uning o‘zi uchun kerak bo‘lgan burch, sifatida qaragan ma’qul. Chunki, mana shunday qaralgandagina bola uy vazifalariga, maktabda berilgan topshiriqlarga shaxsiy burch sifatida qarashga o‘rganib boradi.

O‘z burchini sezgan shaxsda esa o‘z shaxsiga hurmat tuyg‘usi tobora ortib yaxshi shakllanadi. Hammamizga ma’lum tushuncha, ya’ni o‘zini hurmat qilmaydigan shaxs boshqalarni hurmat qilishni bilmaydi. Bu o‘rinda tarbiyaning, maktab va oila tarbiyasining bola shaxsiyatiga bir yo‘nalishda mutanosib olib borilishi jiddiy e’tiborga molik.

Maktab bolani kengroq jamiyatga kirishiga yordam beradi. Maktabda bola o‘zining individual qobilyati va qiziqishiga qarab kengroq bilimga ega bo‘la boshlaydi. Maktabda bolaning olgan ta’lim tarbiyasiga qarab dunyoqarashi kengaya boshlaydi va shu bilan birga uning ochilmagan qirralari ya’ni xar xil soxaga bo‘lgan qiziqish va qobilyatlari namoyon bo‘la boshlaydi. Qiziqish qobilyat bolaning individual hususiyatlari qatoriga kiradi. Qiziqish va qobilyatdan tashqari, temperament va xarakter ham individual hususiyatlar qatoriga kiradi.

## **NATIJALAR**

Har bir bolaning o‘ziga yarasha individual hususiyatlari mavjud bo‘ladi. Individual xususiyatlarga to‘xtalib o‘tamiz;

Qobilyat—insonning individual salohiyati va imkoniyatlaridir. Qobilyat bilimdan keskin farqlanadi, bilim mutolaa natijasi hisoblanadi, qobilyat shaxsning psixologik va fiziologik tuzilishining xususiyati sanaladi. Qobilyat ko‘nikma, malakadan farq qiladi. Aksariyat ilmiy manbalarda mohirlik bilan qobilyat anglashtiriladi. Qobilyat inson tomonidan ko‘nikma va malakalarning egallanishi jarayonida takomillashib boradi.

Har qanday qobilyat turi shaxsga tegishli murakkab psixologik tushunchadan tashkil topgan bo‘lib, u faoliyatning talablariga mutanosib xususiyatlar tizimini o‘z ichiga oladi. Shuning uchun qobilyat deganda birorta xususiyatning o‘zini emas, balki shaxs faoliyatining talablariga javob bera oladigan va shu faoliyatda yuqori ko‘rsatkichlarga erishishni ta’minlashga imkoniyat beradigan xususiyatlar sintezini tushunmoq lozim. Barcha qobilyat uchun tayanch xususiyat — kuzatuvchanlikda, ya’ni insonni fahmlash, ob’ektdan u yoki bu alomatlarini ko‘ra bilish, ajrata olish ko‘nikmasidir.

Qobilyatning yetakchi xususiyatlaridan biri — narsa va hodisalar mohiyatini ijodiy tasavvur qilishdir. U shaxsning shakllanishi va rivojlanishi natijasi bo‘lishi bilan birga, tabiiy manbaga ham ega. Bu tabiiy manba ko‘pincha zehn tushunchasi bilan yuritiladi. Zehn muayyan bir faoliyatga yoki ko‘pgina narsalarga nisbatan ortiqcha qiziquvchanlikda, moyillikda, intilishda namoyon bo‘ladi. Zehn nishonalari deganda qobilyat ichki imkoniyatlarning mohiyatini tushunish lozim. U ishtiyoq, moyillik, mehnatsevarlik, ishchanlik, talabchanlik kabilarning mahsulidir.

Qobilyat umumiy va maxsus turkumlarga ajratiladi. Umumiy qobilyat deganda yuksak aqliy imkoniyat va taraqqiyot tushuniladi. Qobilyat tabiiy ravishda shakllanishi

va muayyan reja asosida rivojlantirilishi mumkin. Qobilyatni ma'lum faoliyatga moyillik yoki intilish orqali, tabiiy zehn nishonalarini aniklash, mutaxassis rahbarligida uzluksiz faoliyatga jalb etish, qobilyatni takomillashtirishning maxsus vositalarini qo'llash, shaxsning faollik alomatlarini maksimal darajada rivojlantirish, inson shaxsiga alohida yondashuvni umumiy talablar bilan uyg'unlikda olib borish va boshqa orqali rivojlantirish yo'llari mavjud. Qobilyatning yuqori darajasi iste'dod va daholikda namoyon bo'ladi.

## MUHOKAMA

Xarakter termini fanga qadimgi yunon olim va faylasufi Teofrast tomonidan kiritilgan. Xarakter tug'ma o'zgarmaydigan xususiyat emas. U kishining hayot sharoitlarga bog'liq holda tarkib topib, o'zgaruvchan va tarbiyalanuvchandir: maxsus sharoitda, maxsus ta'lim-tarbiya ta'sirida salbiy xarakter xislatlarini bartaraf qilish, ijobiy xarakter xislatlarini tarbiyalash mumkin.

Yendi individual hususiyatlarni ta'lim jarayoniga bog'laymiz. Bolalarni ta'limga o'rgatish avvalo uning qiziqish va qobilyatidan kelib chiqsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu masalaga pedagoglar alohida ahamiyat berishlari kerak. Har bir bola o'z individual hususiyatiga qarab o'zi qiziqqan va qobilyati bo'lgan sohani tanlaydi. Qaysidir bola aniq fanga qiziqsa qaysidir bola gumanitar sohaga qiziqadi. Shuning uchun aniq fanni bilmagan bolani biz qobilyatsiz bola deb ayta olmaymiz. Biz ular qaysi sohaga qiziqishi va qobilyati mavjudligini aniqlab uni o'sha soxaga yo'naltirishimiz darkor.

Har bir inson yoshligidanoq kamchiligu yutuqlari, o'z imkoniyatlari haqida oz bo'lsa-da tasavvurga ega bo'la boshlaydi. Yoshligidanoq bolalar fe'l-atvori haqida oldin ota-onalari, keyin esa atrofdagilari o'z munosabatini bildira boshlaydi. Tashqi ta'sir natijasi o'laroq, har bir insonda o'ziga-o'zi baho berish qobilyati shakillana boshlaydi. Qaysidir bola o'ziga juda yuqori baho bersa, yana qaysidir bola o'zi haqida salbiy fikrga ega bo'ladi. O'ziga yuqori baho bergan bolalar ham past baho beradigan bolalar ham ta'lim dargohida bilim olishga qiynaladi. Yuqori baho bergan bolalarning qiynalishini sababi shundaki, uning o'zi haqidagi fikri real imkoniyatlaridan ko'ra ilgarilab ketgan bo'ladi. Bunday bolalar atrofdagilaridan norozi bo'lishadi, ularning o'zi haqidagi fikrini ijobiy tomonga o'zgartirgandan so'nggina u bilim olishga qiynalmaydi. Ularning o'zi haqidagi fikrlarini o'zgartirish ham qiyin kichadi. Buning uchun o'zgalarning yutig'ini ko'rib, u bilan o'z imkoniyatlarini taqqoslash, atrofdagilarining unga nisbatan to'g'ri muomila qila olishi muhum ahamiyatga ega ekanligini tushuntirish darkor.

O'zi haqida salbiy fikriga ega bo'lgan bolalarga ham oson emas. Ularning boshqalar bilan muomilaga kirishlari, yangi tanishlar orttirishlari qiyin kichadi shu

bilan birgalikda ta'lim olishlari ham qiyin kechadi. Ularni doim bir ishni boshlashdan oldin "men to'g'ri yo'l tutyapanmikin" kabi shubhali savollar qiynaydi. Bunday shubha gumonlardan qutilish uchun bolalarga avvalambor o'zlariga chettan nazar solish kerakligini tushuntirish kerak. Ularga hech kimdan kam emasligini shu bilan barobarda boshqalardan ustun jihati mavjudligini tushuntirish va shu jihatni his qila bilishni o'rgatish kerak. Ana shundagina bola hayotda o'z o'rnini topa oladi.

Maktab, akademik litsey, kasb hunar koliji o'quvchilarining qaysi sohaga qiziqish va qobilyati mavjudligini aniqlab ularni shu sohaga yo'naltirish uchun o'qituvchilar quydagi inovatsion metodlardan foydalanishsa yuqori natijalarga erishadilar;

-“qobilyatni aniqlash testi” bu test o'quvchilarning hayotda o'z yo'nalishlarini to'g'ri tanlashga yordam berishi bilan birgalikda, o'qituvchilarga o'quvchilarning qobilyatini aniqlab qiziqishlariga qarab dars samaradorligini oshirish imkoniyatini beradi.

-“ijodiy qobilyatlarni aniqlash so'rovnomasi” mazkur so'rovnoma shaxsda ijodiy faollik bilan bog'liq bo'lgan 4ta asosiy xususiyat- qiziquvchanlik, yaxshi rivojlangan xayol, murakkab hodisalarni yechishga intiluvchanlik, tavakalchilikka moyilik darajasini aniqlashga imkon beradi.

-“Gottshald shakillari” mazkur metodika shaxsning bilish faoliyatida ikki kognetiv uslub maydonga tobe va maydondan mustaqil uslubning qaysi biri ustunligini aniqlash uchun qo'laniladi. Bunda maydonga tobelik odamning olamni bilish jarayonida tashqi chalg'ituvchi omillar ta'siriga kuchli berilishini, maydondan mustaqil uslub esa bunday ta'sirdan yetarlicha holi ekanligini anglatadi.

## **XULOSA**

Bolalarning qobilyatiga qarab ularni o'z xayotida o'zi qiziqqan soha mutaxasislari bo'lishlari uchun ularga to'g'ri yo'nalish berish kerak. Ba'zi bir bolalar judayam qobilyatli bo'lishadi leki judayam qaysar bo'lishadi ular bilan ko'proq shug'ullanish kerak. Ana shundagina ular ham o'z hayotida o'z o'rniga ega bo'lishadi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Khankeldiev S. K., Uraimov S. R. EXPERIMENTAL SUBSTANTIATION OF THE METHODOLOGY FOR CONDUCTING PHYSICAL EDUCATION LESSONS IN THE SCHOOL EDUCATION SYSTEM, TAKING INTO ACCOUNT REGIONAL FACTORS //Herald pedagogiki. Nauka i Praktyka. – 2021. – T. 1. – №. 1.
2. Allamuratov S. I., Uraimov S. R. MOTOR TRAINING OF STUDENT YOUTH IN THE PROCESS OF TRAINING IN SPECIALIZED MILITARY-TECHNICAL LYCEUMS IN CONDITIONS OF HYPERTHERMIA //Herald pedagogiki. Nauka i Praktyka. – 2021. – T. 1. – №. 1.

3. Kipchakova, Y. X., & Kodirova, G. A. (2020). INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN MODERN EDUCATION. *Теория и практика современной науки*, (5), 29-31.
4. KIPCHAKOVA, Y., ABDUXAMIDOVA, M., & RAXMONALIYEVA, M. THE IMPACT OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN IMPROVING STUDENT KNOWLEDGE. *СТУДЕНЧЕСКИЙ ВЕСТНИК Учредители: Общество с ограниченной ответственностью "Интернаука"*, 37-38.
5. Sh A. et al. Research Of The Physical Education Of Students Of The Military Technical Lyceum" School Of Temurbeks" Taking Into Account The Influence Of Regional Factors //Turkish Journal of Computer and Mathematics Education (TURCOMAT). – 2021. – Т. 12. – №. 11. – С. 7009-7011.



## “XAMSA” DOSTONLARI NA’T BOBLARINING ISLOM TARIXI BILAN MUTANOSIBLIGI

**Sharofova Maxliyo Shokirjon qizi**

O‘zbekiston Xalqaro Islom Akademiyasi magistranti

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqola sharqning buyuk mutafakkiri Alisher Navoiyning “Xamsa” asari va uning tarkibidagi na’ t boblarining islom tarixi bilan mutanosibliyi yoritib berilgan. Tadqiqotning maqsadi doston tarkibidagi hamd va na’ t larni tahlil qilish orqali ularning dostonidagi o‘rni belgilash hamda sharq klassik adabiyoti na’ mularini hamd va na’ t larsiz to‘laqonli tushunib bo‘lmasligini isbotlashdan iborat.

**Kalit so‘zlar:** na’ t, Muhammad payg‘ambar, islom tarixi, Me’roj voqeasi

### PTOPOTION OF NAT CHAPTERS OF “KHAMSA” EPIC WITH ISLAMIC HISTORY

### ABSTRACT

His article was highlighted by the work of Alisher Navoi’s great thinker Alisher Navoi’s work and his Nat chapters with Islamic history. The purpose of the study is to prove their place in the analysis of prent and services in the epic and that Eastern classical literature is not fully understood without full understanding.

**Keywords:** Nah’ t, Muhammad Prophet, Islamic History, Meroj Event

Bugungi adabiyotshunoslikning umuminsoniy masalalaridan biri o‘zbek adabiyoti, xususan, Navoiy ijodida o‘ziga xos o‘rin tutgan nubuvvat mavzusi talqini hisoblanadi. Hozirgacha adabiyotshunoslik lug‘atlarida nubuvvat (payg‘ambarlik ta’limoti) tushunchasi mazmun-mohiyatini to‘liqroq izohlaydigan biror sharh ko‘zga tashlanmaydi. U qadimgi yahudiy va arab tillarida “nabi” (xabar) ma’nosini bildirib keladi, mohiyatan esa nihoyatda keng qamrovli tushunchadir. Nubuvvat masalalari talqini yuzasidan jahon va rus adabiyotshunosligida ancha samarali tadqiqotlar olib borilgan. Hatto profetologiya (“prorok” – payg‘ambarlik, “logos” – ta’limot) adabiyot ilmi tarkibiy qismi sifatida qaraladigan o‘rinlar ham uchraydi.<sup>1</sup> Sharqshunos E. Bertels tasavvufsiz Sharq mumtoz adabiyotini anglab bo‘lmasligini ta’kidlagan edi. Xuddi shunday, nubuvvat ma’rifatisiz tasavvuf adabiyotining o‘zini ham anglash mushkuldir.

<sup>1</sup> Гимаева, АделяРавилевна. Профетология Корана: истории пророков как элемент построения коранического текста. Авт. канд. дисс. по филол. наук. – Москва: 2008. – 24 с.

Tasavvuf va tasavvuf adabiyotining shakllanishi, maqom va ifodalarining vujudga kelishi, klassik she'riyat mavzular ko'lamining teranligi, tasvir ifodalari boyligi, obraz – timsollar rang-barangligi va boshqa masalalar bevosita nubuvvat bilan ham bog'liqdir. Buni Alisher Navoiy ijodi yaqqol asoslab beradi. Aynan mutafakkir ijodida nubuvvat mavzusi badiiy talqinlari o'zining barcha jihatlari bilan namoyon bo'lgan. Shoir ijodida nubuvvat ma'rifati, birinchidan, mavzuni xos adabiy janr-shakllarda bevosita tasvir etgan ijod namunalarida, ikkinchidan, barcha xil va tur asarlari tarkibidagi bevosita talqinlarda ifoda etilgan. “Tarixi anbiyo va hukamo”, “Xamsa” dostonlari va “Lison ut-tayr”dagi na't, me'rojnomalar, madhiyalar, vasflar, shuningdek, na't g'azallarni birinchi guruhga kiritsak, lirikasidagi mavjud janrlar va umuman barcha tur asarlaridagi kichik parchalar va satrlarni esa ikkinchi xil talqin deyib baholash mumkin. Nubuvvat masalalari talqinida asar hajmi emas, balki mohiyat muhim o'rin tutadi. “Tarixi Tabariy”(Muxammad ibn Tabariy), “Qisas ul-anbiyo”(Ibn Kasir), “Qisas ar-Rabg'uziy”(Rabg'uziy) kabi asarlardan “Tarixi anbiyo va hukamo” asari xarakter xususiyatlari bilan farqlanadi. Sharqda “Qisas ul-anbiyo”lar tarixiy va badiiy xaraktyerga ega bo'lganligi ma'lum. Nubuvvat tarixiy talqinlarda ixchamroq, ba'zan bir yoki bir necha fabulalar asosida ham yaratilgan.<sup>1</sup>

Sharq manbalarida, “nubuvvat – tavhid yo'li”, “islom – barcha payg'ambarlar dini” sifatida talqin etiladi<sup>2</sup>. O'zbek adabiyotida nubuvvat madhi tavsifida tavhidga tayaniladi. Shu bois dastlab tavhid talqiniga e'tibor qaratildi. At-tavhid – arabcha “vahhada” fe'lidan olingan bo'lib, “yakka-yagona deb bilmoq”, “bir deb anglamoq” ma'nolarida qo'llaniladi. Tasavvufda tavhid insoniy irodaning ilohiyotga qo'shilishi, Haqqa fanolik (hulul ul-Haq), Haqdan boshqa borliq yo'qligi maqomi tushuniladi. Ibn Arabiy tavhid mushohadasi asosida vahdat al-vujud falsafasiga asos soladi. Tavhidga binoan, Alloh abadiy mavjud, ibtido va intihosiz, yaratilmagan, yaratilganlarga o'xshamaydi, zamon va makonga bog'liq emas, osmonga chiqish ham, yerga tushish ham unga yaqinlashtirmaydi, U barcha narsa va hodisalarga yaqin, insonga jon tomirlari qadardir (“Biz unga jon tomiridan ham yaqinroqmiz”, “Qof” surasi). U o'zi yaratadi, kashf qiladi, barcha narsa-hodisalarni biladi, “qorong'uda qora toshda yuruvchi qora chumoli”ni ham ko'rib turadi. “Agar siz oshkora gapirsangiz ham (va yoki xufyona gapirsangiz ham U zotga barobardir). Zero, U sirni ham, eng maxfiy narsalarni ham bilur” (“Toha” surasi). Hech bir hodisa irodasidan tashqarida sodir bo'lmaydi, qarorlari o'zgarmas, “biluvchi, eshituvchi, ko'ruvchi”(“Haj” surasi)dir. Unga eshitilmas ovoz, ko'rinmas narsa yo'q. Qur'on, Tavrot, Injil, Zabur – elchilari orqali yuborgan so'zlari va borlig'i bunga dalildir. Nubuvvat tavhid haqiqatlarini

<sup>1</sup> Усмон Қобилов. Алишер Навоий ижодида нубувват мавзуси талқини. Мақола, 2018. Navoiy va XXI asr

<sup>2</sup> Раҳматуллоҳ қори Обидов. Пайғамбарлар тарихи исломият тарихидир (Қуръони Каримда пайғамбарлар сиймоси). 1. 2 китоб. – Тошкент: “Мовароуннаҳр” 2005 йил

namoyon etadi. U “xabar-vahiy” ma’nosida ishlatiladi. Vahiy so’zi “inmoq”, “tushmoq” ma’nolarini bildiradi.<sup>1</sup>

Alloh taolo barcha mavjudotlardan avval komil inson – Muhammad Mustafoning nurini yaratgan ekan, demak, kamolotga intilish, hayvoniy hislatlardan poklanib, makorimi axloq – go’zal xislatlar bilan ziynatlanish va xotamul-anbiyo kabi yashash har bir insonning bu dunyodagi eng oliy maqsadi bo’lmog’i zarur. Alisher Navoiyning o’z ijodida Muhammad payg’ambar siymosini yaratishi ham odamlarni ana shunday oliy maqsad va ulug’ g’oya sari chorlashning o’ziga xos ifodasidir.

“Xamsa” tarkibidagi dostonlarda hamddan keyin na’t beriladi. Na’larda Payg’ambar alayhissalomning siyratlari, sunnatlari u zot bilan bog’liq voqealar nazarda tutilib, baytlar yoziladi. Muhammad (sollallohu alayhi vasallam)ning vasflarini alohida bob qilinishi ul zotning buyuk shaxs ekanliklaridan darak beradi.

“Hayrat ul-abror” dostonining oltinchi, yettinchi, sakkizinchi, to’qqizinchi, o’ninchi boblari na’t boblar sanaladi. Jami 5ta na’t bobi mavjud bo’lib, birinchi na’tda Muhammad alayhissalomning tug’ilishlari, olamlarga rahmat payg’ambar ekanliklari berilgan. Bundan tashqari yan Nuri Muhammadiyaga ham to’xtalib o’tib bu nur dastavval Odam Atoga, so’ng Momo Havvoga undan so’ng Shis alayhissalomga va ularning barcha avlodlariga o’tgani oxiri payg’ambarimizning otalari Abdullohdan Muhammad (sollallohu alayhi vasallam)ga o’tgani haqida so’z boradi. Shu jihatdan Odam alayhissalom ul zotga ham ota, ham o’g’il ekanliklari, otalarining ismlari Abdulloh bo’lgani aytiladi:

Nurunga tob ikki jahondin burun,  
Har ne yo’q andin burun, andin burun.  
Topdi azal subhi chu bazming charog’,  
Ne tong agar yorusa yuz ming charog’.  
Bo’ldi sanga Odam sabqatnamo,  
Avval o’g’ul, so’ngra gar o’lsa ato<sup>2</sup>.

Ikkinchi na’tda Hazrat Navoiy Muhammad sollallohu alayhi vasallamning vasflarini yana keltirar ekanlar tug’ilishlari, yoshlik chog’lari haqida so’z boradi. Savdo ahli ularga ergashib, “u minib ketayotgan tuya bundan ham xursand, go’yoki farishta ustiga ustiga nur yog’ilayotganday, shundan kelib chiqib savdo ahli unga “Amin” laqabini berib, shu sababdan u Jabroilga hamdam bo’lib qoldi”<sup>3</sup> deb ta’rif berilgan.

<sup>1</sup> Қобилов У. Ўзбек адабиётида нубувват мотиви ва образлари талқини (XIV- XV асрлар). Филол. фан. бўйича фал.докт. (PhD) дисс. ... автореф. – Самарқанд, 2017. –14 б.

<sup>2</sup> Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Еттинчи том. – Тошкент: Фан, 1991.

<sup>3</sup> Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Еттинчи том. – Тошкент: Фан, 1991.

Ko'z tutub el na'fu basorat anga,  
Ummat etib, sudu tijorat anga.  
Noqag'a markablig'idin ko'p surur,  
O'ylaki tushganda malak uzra nur.  
Deb laqabin ahli tajammul Amin,  
Andin o'lub hamdami Ruhul-amin.<sup>1</sup>

Uchinchi na'tda keltirilishicha, “kofir xalqining “Manot” degan buti bo'lib, sen uni bo'ynidan sindirganingdan so'ng u “mot” bo'ldi – yengildi. Sen kufr boshini kesish bilan o'z qahrini ko'rsatding. Boshi shukuhdan ajralganidan keyin, gavdasi boshsiz qoldi” deb ajoyib so'z o'yini qilingan:

Kufr eliga ulki bore di manot,  
Bo'ynini sen sindiribon bo'ldi mot.  
Kufr boshin ke sting etib qahr fosh.  
Boshig'a far qolmadi, jismig'a bosh.<sup>2</sup>

To'rtinchi na'tda Muhammad (sollallohu alayhi vasallam)ning mushriklar, kofirlar bilan bo'lgan voqealari baytlarda o'z ifodasini topadi. Shundan so'ng islom tarixida Ul zot bilan bo'lgan mo'jizalarga ishora baytlar beriladi:

Panjayi islom chu mahkam solib,  
Kufr eti qo'rg'onidin xums olib,  
Dema ilik, tig'eki bir bormog'i,  
Oyni ikki bo'ldi ishora chog'i,  
Tong emas ar ul kafi mo'jiznamoy,  
Qilg'ach ishorat iki ayrilsa oy.  
Noqasi yer uzra chu raftor etib,  
Har izi “shaqqol-qamar” izhor etib.

Alloh taolo o'z payg'ambarini bir mo'jiza ila qo'lladi. Oyning yorilishini ul zotga mo'jiza etib berdi. Imom Buxoriy rivoyat qilishlaricha, Makka mushriklari Muhammad payg'ambardan haqiqiy payg'ambar ekanliklariga dalil sifatida hujjat mo'jiza ko'rsatishni so'radilar. Rosululloh (sollallohu alayhi vasallam) duo qildilar, Alloh taolo U kishining duolarini ijobat qildi – oy ikkiga bo'lindi, ikki bo'lakning orasida Hiro G'ori ko'rinib turardi. Ushbu baytlarni keltirishi, ulardagi ma'noni ulkan saviyada ochib bera olishi hazrat Navoiyning ulkan ilmiy va diniy salohiyatidan darak beradi.

Imom Ahmad Jubayr ibn Mut'amdan shunday rivoyat qilinadi: “Nabiy alayhissalomning vaqtlarida oy yorilib ikkiga bo'lindi. Bir bo'lagi manabu tog'ning

<sup>1</sup> Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Еттинчи том. – Тошкент: Фан, 1991.

<sup>2</sup> Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Еттинчи том. – Тошкент: Фан, 1991.

ustida, yana bir bo‘lagi anabu tog‘ning ustida ko‘rindi. Mushriklar: “Muhammad bizni sehrlab qo‘ydi”, - deyishdi. So‘ng ular: “Bizni sehrlashsa ham barchani sehrlay olmaydi, musofirlar kelishini kutib turinglar”, - deyishdi. Musofirlar kelishgach, ulardan ham so‘rab ko‘rishganda, ular ham o‘yning yorilganini ko‘rishganini aytishdi. Shunda mushriklar: “Muhammad hammani sehrlab qo‘ydi”, - deyishdi.” Ushbu voqeadan so‘ng Alloh taolo “Qamar” surasining avvalini tushirdi. Bu juda mashhur hodisa bo‘lib, o‘sha kechada bo‘lgan hamma o‘yning yorilishini ko‘rgan va mushohada qilgan.<sup>1</sup> Alisher Navoiy ham o‘sha mashhur voqeani “Xamsa”ga kiritgan. Yuqoridagi baytning davomida mushriklarning zulmiga uchrab, Muhammad (sollallohu alayhi vasallam) va Abu Bakr Siddiq roziyallohu anhaularning tog‘da qolishlari aks ettirilgan:

Qo‘ydi chu ul dom ila dona g‘or,  
Ko‘rki ne davlat qushin etti shikor.  
G‘orda yori bila ul tez xush,  
Tog‘ ichda o‘ylaki oltin-kumush.  
Kufr chu e‘loyi libo aylabon,  
Nusrat uchun ding‘a duo aylabon.<sup>2</sup>

Abdulloh ibn Abbos (roziyallohu anhu)dan Ahmad ibn Hanbal quyidagi rivoyatni keltiradilar: “Quraysh bir kecha makkada mashvarat qildi. Kimdir: “Ertalab Muhammadni ushlab, bog‘lab qo‘yinglar”, dedi. Boshqalari esa: “Yo‘q, uni o‘ldirish kerak”, deyishdi. Ba‘zilari: “Makkadan chiqarib yuboringlar”, deyishdi. Alloh taolo buni bildirdi. Hazrati Aliy Rosullohning to‘shaklariga kirib yotdi. Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) esa Makkadan chiqib, Savr g‘origa yetib bordilar. Mushriklar Aliy (roziyallohu anhu)ni Rosululloh (sollallohu alayhi vasallam) deb o‘ylab, kechasi bilan poylab chiqishdi. Ertalab yopirilib kirib, Aliyni ko‘rganlarida Alloh ularning makrlarini puchga chiqardi. Ular: “Og‘ayning qani?” deb so‘rashdi. Hazrati Aliy: “Bilmayman”, dedi. Ular Rosulullohning izlaridan axtarib ketishdi... Rosululloh o‘sha joyda uch kun qoldilar. Ul zot sheriklari hamrohligida makkadan chiqib, Savr goriga bordilar. Quraysh ularni yana ham jiddiyroq izlashga tushdi. Shunda Abu Bakr (roziyallohu anhu) shunday dedi: “Agar ulardan biri oyog‘ining ostiga qarasa, bizni ko‘radi”, dedilar. Shunda Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam): Uchinchilari Alloh bo‘lgan ikki kishi haqida nima gumon qilasiz? Mahzun bo‘lmang, Alloh taolo biz bilandir”,-dedilar<sup>3</sup>. Hazrat Navoiy yuqoridagi baytda mana shu voqealarga ishora qilar ekan, baytning davomida Muhammad alayhissalomga zulm bergan Abu Jahl, Umar kabilarning qismati azobli ekanligini, ikkinchisi yani Umarning duolari ijobat bo‘luvchilar qatoriga qo‘shilishi haqida yozilgan:

<sup>1</sup> Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va hayot 19-juz. –T.:HILOL NASHR, 2015.

<sup>2</sup> Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Еттинчи том. – Тошкент: Фан, 1991.

<sup>3</sup> Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Islom tarixi 1-juz. –T.:HILOL NASHR, 2015.

Kim ikki tandin birin et tojvar,  
Biri Abu Jahlu birisi Umar.  
Qismati avvalg'ining o'ldi azob,  
Bo'ldi ikkinchida duo mustajob<sup>1</sup>.

Beshinchi na'tda payg'ambar alayhissalomning Me'rojga chiqishlari, bir kechada Ka'badan Aqso masjidiga borib qolganlar bayon qilingan bo'lib, "aning subutig'a ikki sodiq guvoh bor", degan jumalalar keltirilgan. "Ikki sodiq guvoh"ning kimlar ekanligini bilish uchun islom tarixiga nazar tashlash lozim. Islom tarixida Muhammad (sollallohu alayhi vasallam) bilan bog'liq mashhur Isro va Me'roj kechalari haqida ma'lumotlar berilgan. Ularda keltirilishicha, hijratdan bir yil oldin Alloh taolo Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam)ni "Buroq" nomli otga mindirib, "Bayt ul-Maqdis"ga sayr qildirdi. U zotga Jabroil alayhissalom hamroh bo'ldilar. Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) u yerda nabiy'larga imom bo'lib namoz o'qidilar, so'ngra Alloh taolo u zotni osmonga ko'tardi. U yerda nabiy'lar bilan uchrashdilar. So'ng "Bayt ul-Ma'mur"ga, u yerdan esa "Sidratul-muntaho"ga ko'tarildilar.<sup>2</sup> Demak, "ikki sodiq guvoh" Muhammad (sollallohu alayhi vasallam)ning otlari Buroq va Jabroil alayhissalomlar ekan.

Bob davomida yetti qavat osmonning har birida kimlar bilan uchrashganlari, bu bilan bog'liq voqealar bayon qilingan. Hazrat Navoiy Rosulullohning Me'rojga chiqqanlari va qaytib kelganlari bir onda yuz bergan bo'lib, aql bundan hayron ekanligini yozadilar va davomida "qancha ajoyibotlar va mo'jizalar ko'p bo'lsa, ularni idrok etishda aql ojiz bo'ladi. Uning chiqishi va qaytishiga ketgan vaqt kichikning kichigi bo'lib, bu fursat tahlilga arzimaydi" deb yozadi. Islom tarixiga nazar tashlasak, muhaddislarning rivoyat qilishlaricha, payg'ambarimiz (sollallohu alayhi vasallam) Ummu Xohi' bint Abu Tolibning uyida uxlab yotganida uyning shifti ochildi va Jabroil alayhissalom u zotni baytullohga olib chiqdi. Shu bilan Isro hodisasi boshlandi. "Buroq" nomli ulovga minib, "Bayt-ul Maqdis"ga bordilar. So'ng u yerdagi katta xarsangtosh ustida qubba-gumbaz qurilgan. Uning dumaloq gumbaz shaklidagi suratlari butun dunyoga tarqalgan. Ko'pchilik bilmaganlar uni Masjid ul-Aqso deb tushunadilar.<sup>3</sup>

Na'tning so'ngida Alisher Navoiy "bu baxtli safar tugab, qutlug' yo'lboshchi ruxsat oldi, Olam podshohi taxtiga o'tirib, Olam ishini intizomga solishda davom etdi"<sup>4</sup>, deb yozib, Me'rojga bag'ishlangan bobni yakunlaydi:

<sup>1</sup> Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Еттинчи том. – Тошкент: Фан, 1991.

<sup>2</sup> Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Islom tarixi 1-juz. –T.:HILOL NASHR, 2015.

<sup>3</sup> Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Islom tarixi 1-juz. –T.:HILOL NASHR, 2015.

<sup>4</sup> Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Еттинчи том. – Тошкент: Фан, 1991.

Taxti uza olam shahi aylab maqom  
Olam ishiga beribon intizom.  
Shar'i tili noma bayozin o'qub,  
Tig'i suyi kufr savodini yub.<sup>1</sup>

Yuqoridagilardan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, hamd misralarida Qur'oni Karim oyatlariga to'liq va qisman berilgan ishoralarning mohiyatini ochib berish, na'tlarda ko'zlangan voqealarning islom tarixi bilan mutanosibligini yoritib berish orqali Alisher Navoiy ijodini to'g'ri va keng ma'noda tushunish mumkin.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Навоий Алишер. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик. Т.: Фан, 1978-1988.
2. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Еттинчи том. – Тошкент: Фан, 1991.
3. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Islom tarixi 1-juz. –Т.:HILOL NASHR, 2015.
4. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va hayot 19-juz. –Т.:HILOL NASHR, 2015.
5. Раҳматуллоҳ қори Обидов. Пайғамбарлар тарихи исломият тарихидир (Қуръони Каримда пайғамбарлар сиймоси). 1. 2 китоб. – Тошкент: “Мовароуннахр” 2005 йил
6. Қобилов У. Ўзбек адабиётида нубувват мотиви ва образлари талқини(XIV-XV асрлар). Филол. фан. бўйича фал.докт. (PhD) дисс. ... автореф. – Самарқанд, 2017. –14 б.

---

<sup>1</sup> Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Еттинчи том. – Тошкент: Фан, 1991.

## ЎҚУВЧИЛАРДА ЛЕКСИК КОМПЕТЕНТЛИКНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ВА РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ

Одилжонова Камола Абдувосит кизи

Андижон давлат педагогика институти

2-босқич магистранти

[kamola\\_odiljonova@mail.ru](mailto:kamola_odiljonova@mail.ru)

### АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада педагогика соҳасида ўқувчиларда тил сатҳларига доир лингвистик компетенцияларни шакллантириш, ривожлантириш ва такомиллаштиришга доир замонавий педагогик технологияларни яратиш ҳамда таълим тизимига жорий этиш тил таълимининг бош устувор вазифасига айланиши, она тили таълимида назариядан амалиётга тамойили асосида ўқувчиларни тилнинг асосий фонетик, лексик-семантик, грамматик сатҳи ва бирликларига доир лингвистик компетенцияларини ривожлантиришга жиддий эътибор қаратилган.

**Калит сўзлар:** компетенция, лексика, педагогик технология, инновация, тил сатҳлари, билим, малака, кўникма, лексикология.

### THEORETICAL PRINCIPLES OF FORMATION AND DEVELOPMENT OF LEXICAL COMPETENCE IN STUDENTS

#### ABSTRACT

In this article, in the field of pedagogy, the creation of modern pedagogical technologies for the formation, development and improvement of students' linguistic competences on language levels and their introduction into the educational system become the main priority of language education, based on the principle of theory and practice in mother tongue education, students are taught the basic phonetic, lexical-semantic, grammatical level of the language and serious attention is paid to the development of linguistic competences.

**Keywords:** competence, lexicon, pedagogical technology, innovation, language levels, knowledge, competence, skill, lexicology.

#### КИРИШ

Инсоннинг камолот даражаси унинг сўзи орқали, миллатнинг маданият даражаси тили билан белгиланади. Шунинг учун тил миллатнинг қалби



ҳисобланади [1]. Инсон шахсини ҳар томонлама камол топтириш, ўсиб келаётган ёш авлодга умуминсоний ва миллий қадриятларга ҳурмат, ўз халқининг анъаналарига ифтихор туйғуларини сингдиришда тилнинг, хусусан, она тилининг ўрни беқиёсдир. Президентимиз Шавкат Мирзиёевнинг ҳам “Она тилимиз – миллий маънавиятимизнинг битмас-туганмас булоғидир. Шундай экан, унга муносиб ҳурмат ва эҳтиром кўрсатиш барчамизнинг нафақат вазифамиз, балки муқаддас инсоний бурчимиздир”, [2] деган фикрлари тилнинг нечоғли аҳамиятли эканлигини яна бир бор англатиш билан бирга она тили фанини умумтаълим мактабларида ўқитишнинг асосий мақсадини белгилаб беради.

Мамлакатимизда барча соҳаларда олиб борилаётган ислохотлар жараёни тилдан амалий фойдаланиш самарадорлигини ошириш, ўқувчиларнинг муайян нутқий вазият, шароит ҳамда ижтимоий муҳитда ундан оқилона, самарали фойдаланиш малакаларини оширишга асосий эътиборни қаратиш, республикамизнинг давлат тили бўлмиш ўзбек тилини ўқитишни янада такомиллаштириш ва компетенциявий ёндашув асосида ўқув дастурлари мазмунини қайта кўриб чиқиш борасида катта ишлар амалга оширилишига сабаб бўлди. Ҳозирги кунда ҳар томонлама етук шахсни тарбиялаш таълимнинг бош вазифаси экан, бунинг учун таълим олувчилардан керакли компетенцияларга эга бўлишлари талаб этилади. Атаманинг изоҳига эътибор берадиган бўлсак, унинг замирида Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 6 апрелдаги “Умумий ўрта ва ўрта махсус, касб-ҳунар таълимининг давлат таълим стандартларини тасдиқлаш тўғрисида”ги 187-сонли қарорида назарда тутилган маънавий баркамол ва интеллектуал ривожланган шахсни тарбиялаб, вояга етказишдек эзгу мақсад ётганлигини кўришимиз мумкин. Чунки бугун мамлакатимизда ўқувчи шахсига, унинг фаоллигига катта эътибор қаратилиб, “Фарзандларимизни мустақил фикрли, замонавий билим ва касб-ҳунарларни эгаллаган, мустақкам ҳаётий позицияга эга, чинакам ватанпарвар инсонлар сифатида тарбиялаш биз учун долзарб аҳамиятга эга бўлган масала ҳисобланади” [3].

Англия, Германия, Россия, Жанубий Корея каби ривожланган мамлакатларнинг нуфузли илмий-тадқиқот марказларида таълим жараёнини компетенциявий ёндашув асосида лойиҳалашни амалга оширишнинг илмий асосланган методик тизимини яратиш борасида салмоқли амалий натижаларга эришилган. Шунга кўра, ижодий фикрловчи, изланувчан, керакли ахборотларни мустақил равишда излаб топувчи ва уларни ўз амалий фаолиятида қўллай олувчи мутахассисларни тайёрлаш тизимини самарали ташкил этиш, бундай компетенциявий ёндашувга асосланган таълимга алоҳида эътибор қаратиш зарур ҳисобланади.

Компетенциявий ёндашувга асосланган таълим – бу ўқувчиларда эгалланган билим, кўникма ва малакаларни ўз шахсий, касбий ва ижтимоий фаолиятларида амалий қўллай олиш нуқтаи назаридан бериладиган таълимдир.

Компетенциявий ёндашувга асосланган таълимдан мақсад эса ўқувчини кенг қамровли фикр-мулоҳаза юритадиган ва мулоқатга кириша оладиган баркамол шахс қилиб етиштиришдир.

Компетенциявий ёндашув умумий ўрта таълимни модернизациялаш нуқтаи назаридан янги педагогик воқелик ҳисобланади. Мазкур ёндашув доирасида амалий фаолият тажрибаси, компетенция ва компетентликни дидактик бирликлар сифатида кўриб чиқиш ҳамда таълимнинг анъанавий уч элементи (триада) – “Билим – Кўникма – Малака”ни олтига бирлик (секстет) – “Билим – Кўникма – Малака – Амалий фаолият тажрибаси – Компетенция – Компетентлик” тарзида таҳлил қилиш талаб этилади.

### **АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ**

Компетенция (лотинча сўз бўлиб, “эришаман”, “тўғри келаман” маъноларини билдиради) – субъектнинг мақсадни қўйиш ҳамда унга эришиш учун ташқи ва ички заҳираларни самарали амалга оширишга тайёргарлиги, бошқача қилиб айтганда, бу субъектнинг муайян фаолият объекти билан боғлиқ муаммоларни муваффақиятли ҳал этишга доир шахсий қобилиятидир [4]. Шунинг алоҳида таъкидлаш лозимки, “компетенция” тушунчасига берилган аксарият таърифлар касбий таълим, касбий фаолият билан боғлиқликда баён этилган. Жумладан, илмий педагогик, психологик манбаларда берилишича, компетенция, компетентлилик ўта мураккаб, кўп қисмли, кўпгина фанлар учун муштарак бўлган тушунчалар бўлиб, унинг талқинлари ҳам ҳажман, ҳам таркибига кўра, ҳам маъно, мантиқ мундарижаси жиҳатидан турли хил. Атаманинг моҳиятини шунингдек, “мослашувчанлик”, “самарадорлик” “муваффақиятлилик”, “ютуқлилик”, “натижалilik”, “тушунувчанлик”, “уқувлилик”, “хосса”, “хусусият”, “миқдор”, “сифат” каби тушунчалар асосида ҳам тавсифланмоқда.

Олимлар компетенциянинг 3 дан 140 тагача бўлган турларини кўрсатиб ўтишган. Мисол тариқасида тадқиқотчи Г.К.Селевкoning классификациясини олишимиз мумкин. Тадқиқотчининг фикрига кўра, компетенциянинг тури сифатида қуйидагиларни кўришимиз мумкин:

1. Коммуникатив компетенция.
2. Математик саводхонлик компетенцияси.
3. Ахборот билан ишлаш компетенцияси.
4. Оммабоп компетенция.
5. Мустақил ривожланиш компетенцияси.
6. Ахлоқий компетенция.

## 7. Ижтимоий компетенция.

“Компетентлик” тушунчаси “компетенция”дан фаркли ўлароқ, шахснинг йўналтирилган таснифи, битирувчининг маълум соҳада фаолият кўрсата олиш кўникмаси эканлиги таъкидланади. Бу умумий ўрта таълимнинг мазмунига эга бўлган интеграциялашган натижа бўлиб, ўқувчининг ўзлаштирган билим, малака, кўникмалардан фойдаланишга тайёргарлиги ҳамда аниқ ҳаётий вазиятларда амалий ва назарий топшириқларни бажаришдаги иш усуллари [5]. Н.А.Муслимов компетентликни куйидагича таърифлаган: “Компетентлик бу талабанинг шахсий ва ижтимоий аҳамиятга эга касбий фаолиятининг амалга оширилиши учун зарур бўлган билим, кўникма ва малакаларнинг эгаллиниши ҳамда уларни касбий фаолиятда қўллай олиши билан ифодаланади” [6]. А.Х.Маҳмудов эса, компетентликка “доимо ўзгариб бораётган шароитларда ёки мутахасиснинг касбий фаолиятини самарали олиб боришга имкон берувчи шахсга хос интеграллашган сифатлардир” [7]. деб таъриф беради. Бутун дунё бўйича катталар таълими соҳасида фаолият олиб бораётган ўқитувчиларнинг малакасига қўйиладиган таянч меъёрларини белгиловчи Curriculum globale дастурида “Компетентлилик – бу шунчаки билим ва кўникмага эга бўлишдан кўра кўпроқ маънони англатади. У аниқ мазмун-моҳият касб этган ҳолда психо ижтимоий (кўникма ва йўналишлар билан биргаликда) ресурслардан фойдаланиш ва сафарбар қилиш йўли билан эҳтиёжлар мажмуасини қондириш қобилиятини ўзида мужассам қилади”. Компетенция мос равишда бир қатор алоҳида қисмлар (билим, кўникма, қарашлар ва ҳ.к.)ни, шунингдек уларнинг бир-бири билан ўзаро муносабатга киришишга мажбурлаш ва уларни аниқ вазиятларда керагича қўллай олиш қобилиятларини ўз ичига олади” деб таъриф берилади.

## НАТИЖАЛАР

“Компетентлилик”, “компетенция” тушунчалари тавсифларида куйидаги ҳолатларга алоҳида эътибор қаратилади:

- 1) билимлар мажмуининг амалда қўлланилиши;
- 2) шахснинг укуви, хислатлари, фазилятлари;
- 3) амалий фаолиятга тайёргарлик ўлчови;
- 4) муаммоларни ҳал этиш, амалда зарур натижаларни қўлга киритиш лаёқати;
- 5) шахснинг профессионал фаолиятини таъминловчи билим, кўникма, малакалар яхлитлиги;
- 6) фаоллашган, амалиётга татбиқ этилган ўқув, билим, тажрибалар мажмуи.

Шунингдек, компетентлиликка бағишланган айрим адабиётларда умумий ва касбий компетентлилик фарқланади ҳамда касбий компетентлиликка эга бўлган шахс умумий компетентлиликка ҳам эга бўлиши лозимлиги таъкидланади. Бундан кўринадики, компетенциявий ёндашувга асосланган таълим ўқувчиларда мустақиллик, фаол фуқаролик позициясига эга бўлиш, ташаббускорлик, медиаресурслар ва ахборот-коммуникация технологияларидан ўз фаолиятида оқилона фойдалана олиш, онгли равишда касб-ҳунар танлаш, соғлом рақобат кўникмаларини ҳам шакллантиради.

Дунё тилларида компетенция атамасининг социология, бизнес, иқтисод, таълим-тарбия билан боғлиқ жиҳатлари бўйича кўзга кўринарли олимлар Э.Зеер, И.Зимняя, В.Кан-Калик, А.Кыверялг, Н.Кузьмина, М.Лукьянова, А.Маркова, С.Мироненко, В.Сластенин, Т.Сорокина, Г.Спенсерлар томонидан илмий-тадқиқот ишлари олиб борилган. У ғарб ва рус тилшунослигида анчадан бери қўлланилиб келинаётган бўлса-да, она тилимизда мазкур атамага мустақиллик йилларидан сўнг эътибор берилма бошланди [8]. Жумладан, О.Қўйсинаев, У.Мингбоев, Х.Юлбарсова, З.Алимардонов, Н.Нарзиева, К.Рискулова, И.Тўхтасинов, Х.Маматкулов каби бир қатор тадқиқотчиларнинг илмий изланишларини мисол сифатида келтиришимиз мумкин. Айниқса, Вазирлар Маҳкамасининг компетенциявий ёндашувга асосланган “Умумий ўрта ва ўрта махсус, касб-ҳунар таълимининг давлат таълим стандартларини тасдиқлаш тўғрисидаги” қарорининг қабул қилиниши таълим тизимида ўқитишга нисбатан тубдан янгича ёндашиш бўлди. Бунда умумтаълим фанларини ўқитишда замонавий технологияларни қўллаш, таълим жараёнига компетентлик нуқтайи назаридан ёндашиш орқали таълим олувчиларнинг лаёқатлилик даражасини ошириш мақсад қилиб олинди. Қабул қилинган мазкур Давлат таълим стандартининг яна бир эътиборли жиҳати шундаки, ўқувчиларда ўзлаштирилган билим, кўникама ва малакаларни амалиётда қўллаш олиш, таянч ва фанга оид компетенцияларини шакллантириш ва ривожлантириш алоҳида инobatга олинган. Шунингдек, ўқувчиларда коммуникатив, ахборотлар билан ишлаш, ўзини ўзи ривожлантириш, ижтимоий фаол фуқаролик, миллий ва умуммаданий, математик саводхонлик, фан ва техника янгиликларидан хабардор бўлиш каби таянч компетенцияларнинг шакллантирилиши уларнинг ақлан ва руҳан камол топишига, келажак ҳаётда дадил ва мустаҳкам қадам ташлашига замин ҳозирлайди.

Таълимда компетенциявий ёндашувни қўллаш муайян натижаларга эришиш ва муҳим компетенцияларни эгаллашга қаратилади. Бундай шароитда таълим жараёни янги мазмунга эга бўлади, у ўрганиш ва ўргатиш жараёнига айланади, яъни касбий ва ижтимоий аҳамиятга эга компетентликни мустақил ўқиб

ўрганиш, ижтимоий-меҳнат, маданий, маиший соҳаларида фанларда олинган назарий билимларини қўллашга эришилади, анъанавий таълим мақсади, мазмунини тубдан ўзгартириб, унинг услуб ва технологияларини қайта кўриб чиқишни тақозо этади. Шундагина, ҳозирги мактабларда “аълочи”, яъни ўқув фани бўйича етарли даражада академик билимларга эга, лекин ундан шахсий, ижтимоий ва касбий фаолиятида амалий қўллай олмайдиган ўқувчи, “компетентли” ўқувчига айланади [9].

### **МУҲОКАМА**

Умумий ўрта таълимнинг Давлат таълим стандартида компетенция тушунчасига қуйидагича таъриф берилган: “Компетенция – мавжуд билим, кўникма ва малакаларни кундалик фаолиятда қўллай олиш қобилияти” [10]. д.р, яъни компетенция бу аниқ фаолиятни амалга ошириш учун билим ва тажрибаларга эга бўлган шахс тавсифи бўлиб, у таълим олувчи томонидан алоҳида билим ва кўникмаларни эмас, балки ҳар бир мустақил йўналиш бўйича интеграллашган билимлар ва сифатларнинг ўзлаштирилишини назарда туттади. Бирор бир соҳада компетентли инсон шу соҳа ҳақида асосли фикр юритиш ва унда самарали фаолият олиб бориш учун мос билим ва қобилиятга эга ҳисобланади. Билим, кўникма ва малакани инкор этмаган ҳолда, эгалланган билимларни амалда қўллай олиш қобилиятини ривожлантиришга катта эътибор қаратилади.

Компетенциявий ёндашув асосида такомиллаштирилган Давлат таълим стандартида ҳар бир фан бўйича белгиланган таълим мазмуни асосида ўқувчиларда шакллантириладиган таянч ва фанга оид компетенциялар қайд этилган. Бу компетенциялар ўқув дастурларига киритилган мавзулардан иборат бўлиб, таълимнинг барча турларида ўқув материалларининг узвийлиги ва узлуксизлигини таъминлашни талаб этади [11]. Масалан, она тили фани мазмунида асосий диққат-эътибор нутқий ва лингвистик компетенцияларни шакллантиришга йўналтирилган бўлиб, ушбу лингвистик билимлар воситасида ўқувчиларнинг кундалик турмуш, ижтимоий-маданий ҳаёт, мутахассислик соҳаларида оғзаки ва ёзма эркин мулоқот юрита олишлари назарда тутилган. Мазкур компетенциялар бошланғич таълимдан бошлаб, босқичма-босқич узлуксизликда ривожлантириб борилади.

Давлат таълим стандартида нутқий фаолиятнинг ҳар бир тури юзасидан тил материали, тил воситалари ва грамматик билимлар, ҳосил қилинадиган зарурий кўникма ва малакалар белгиланган. Бунда ўрганилаётган ўзбек тилининг фонетикаси, лексикаси ва грамматикаси бўйича нутқнинг оғзаки ва ёзма шаклларида кенг ва ўринли фойдаланиш учун зарур бўлган илмий-амалий маълумотлар бериш, ўзбек тилида тўғри талаффуз, имло ва пунктуациянинг

асосий қоидаларини ўзлаштириш, муайян бир хабарни ёки маълумотни турли шаклларда бера олиш, кундалик ҳаёт учун зарур бўлган иш қоғозларни юритиш, бадиий, илмий, сиёсий асарларни ўрганиб, улар ҳақидаги фикр-мулоҳазаларини баён эта олиш имкониятларидан самарали фойдаланиш талаб этилади, зеро она тили бўйича компетентли шахс деганда: мустақил фикрлай оладиган, нутқ ва мулоқот маданияти ривожланган, саводхон шахс тушунилади.

Таниқли тилшунос, филология фанлари доктори А.Нурмоновнинг фикрича, компетенциявий таълим концепцияси тил таълими олдида ёшларда муайян компетенцияларни, хусусан, лингвистик, нутқий, креатив (мустақил ва ижодий фикрлаш), прагматингвистик сингари компетенцияларни шакллантириш вазифасини кўяди. Ўқувчининг нутқий компетенцияси муайян тил имкониятларидан амалда фойдаланиш малакасини [12]. Сўзловчи тил ҳақидаги билим асосида нутқий фаолиятга киришса-ю, лекин нутқий тажриба асосида ҳосил бўладиган билимга етарли эга бўлмаса, унинг лингвистик компетенцияга тўлиқ эга эмаслиги сезилиб қолади. Тилнинг назарий жиҳатлари, қонун-қоидалари таълим жараёнида ўргатилади ва натижада ўқувчиларда тил ҳақидаги билимлар мажмуаси яратилади. Тил сатҳлари, тилнинг қурилиши ва функциялари ҳақидаги билим, кўникмалар ва улардан турли вазиятларда ўринли фойдаланиш маҳоратига лингвистик компетенция деб қаралади, яъни тил вазиятларида билим ва кўникмаларини мустақил қўллаш олиш тажрибасига эга бўлган хислатлар тушунилади. Буни янада соддароқ қилиб, тил билимининг етуклиги деса ҳам бўлади.

### **ХУЛОСА**

Лингвистик компетенция ўқувчининг она тили фанининг фонетика, лексика, фразеология, морфология, синтаксис, орфография, пунктуация, стилистика сингари бўлимлари ҳақидаги билимлари, бу билимлардан турли хил вазиятларда фойдаланиш кўникмаси ва малакаси бўлиб, муайян изчилликда қўллаш натижасида такомиллашиб боради. Тилшунос олим, филология фанлари доктори Н.Улуқов фикрича, лингвистик компетентлик қуйидагилардан таркиб топади:

- 1) ўз фикрини она тилида равон, тушунарли, аниқ ва лўнда ифодалай олиш;
- 2) адабий тилда сўзлаш;
- 3) имловий, ишоравий ва услубий хатоларсиз ёза олиш;
- 4) давлат тилида иш ҳужжатларини юрита олиш;
- 5) хорижий тилларни билиш ва ҳоказо.

Демак, лингвистик компетентлик она тили фани ҳақидаги билим ва малака ўртасидаги муносабатдан иборат. Она тили ҳақидаги билим эса ўзбек тилининг функцияси, она тили фанининг бўлимлари, тил системаси ва унинг бирликлари,

бу бирликларнинг маъно ва вазифалари, сўз туркумлари ва уларнинг ўзига хос хусусиятлари, гап бўлаклари ва гапнинг ифода мақсадига, тузилишига кўра турлари, уларнинг услубий белгилари, имловий хусусиятлари системасидан ташкил топади. Атроф-муҳитни англаш, бўлаётган воқеа-ходисаларни сергаклик билан кузатиб, улардан керакли хулосаларни чиқариш, ҳар бир ҳодисага ижодий ёндашган ҳолда, ўзининг мустақил фикрини эмин-эркин айта олиш лингвистик компетенциянинг мазмун-мундарижасини белгилайди.

### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати: (REFERENCES)

1. Нурмонов А. Танланган асарлар. 3-жилд. – Тошкент: Академнашр, 2012. – Б. 293.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг ўзбек тилига давлат тили мақоми берилганининг ўттиз йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи. 2019 йил, 21 октябрь.
3. Мирзиёев Ш. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамыз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – Б. 157.
4. Иноятов У., Ходжаев Б. Умумтаълимий компетенцияларни лойиҳалаштиришнинг концептуал асослари // Халқ таълими илмий-методик журнали, 2016.–№ 2. – Б. 8.
5. [http://uchebnikionline.com/pedagogika/pedagogika\\_\\_moyseyuk\\_nye/kompetentsiya\\_sut\\_struktura\\_osnovni\\_vidi.htm](http://uchebnikionline.com/pedagogika/pedagogika__moyseyuk_nye/kompetentsiya_sut_struktura_osnovni_vidi.htm).
6. Муслимов. Н.А., Усмонбоева М.Ҳ., Сайфуров Д.М., Тўраев А.Б. Педагогик компетентлик ва креативлик асослари. – Тошкент, 2015. – 120 бет.
7. Маҳмудов А.Х. Узлуксиз таълим жараёнига компетентлик ёндашувини жорий қилишнинг дидактик асослари // Узлуксиз таълим, 2012. № 4. – Б. 8-12.
8. Собиров А. Узлуксиз таълимда тил компетенцияси // Нутқ маданияти ва ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари. Республика илмий-амалий анжуман материаллари. – Андижон, 2016. – Б. 87.
9. Турдиев Н., Асадов Ю., Акбарова С. Умумий ўрта таълим тизимида ўқувчиларда компетенцияларни шакллантиришга йўналтирилган таълим технологиялари. – Тошкент: Нисо Полиграф, 2007. – Б. 4.
10. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 6 апрелдаги “Умумий ўрта ва ўрта махсус, касб-хунар таълимининг давлат таълим стандартларини тасдиқлаш тўғрисида”ги 187-сонли қарори.
11. Мухиддинова Х. ДТС: Салоҳиятли кадр тайёрлаш сари...//Тил ва адабиёт таълими, 2017, 7-сон, – Б. 8.
12. Нурмонов А., Зиёдуллаева Г. Ўқувчиларнинг тил компетентлиги шакллантириш ва ривожлантириш муаммолари. “Маърифат” газетаси, 2014 йил 18 июль.

## FANLARNI O‘QITILISHIDA BARQAROR DIQQATNI TA’MINLASH USLUBLARI. BILISH JARAYONLARINING AHAMIYATI

**Jo‘rayeva Nafisa Elmurodovna**

Buxoro viloyati Jondor tumani 25-IDUM  
amaliyotchi psixologi

**Davronova Dilafro‘z Samadovna,  
Iskandarova Zebiniso Tuyg‘unovna**  
20- maktab amaliyotchi psixoglari

### ANNOTATSIYA

Bilamizki, umumta’lim maktabida tarbiyalanayotgan har bitta tarbiyalanuvchi ongining psixik rivojlanishi ahamiyatga molik sohadir. Dars jarayonida diqqatning ko‘chishi va barqaror iqrorning uzoq muddat davomiyligini ta’minlash, rivojlanishning ahamiyati haqida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** diqqat, xotira, fikrlash, tasavvur, nutq, shaxs rivojlanishi, ixtiyoriy va ixtiyorsiz diqqat. “Men” ni anglash, o‘z-o‘zini baholash.

Diqqat psixik jarayon sifatida inson aqliy faoliyatining asosini tashkil etadi. Chunki, insonning har qanday bilish jarayoni bevosita diqqat bilan chambarchas bog‘liqlikda o‘tadi. Masalan, biz diqqat qilib tinglaymiz, diqqatimizni to‘plab fikr yuritimiz, diqqatimiz bizga o‘tmishdagi ma’lumotlarni xotirlash va kelajak uchun yodda olib qolish imkonini beradi. Ya’ni diqqat o‘z xususiyatiga ko‘ra insonning barcha ixtiyoriy harakatlarini ta’minlovchi omildir. Demak, o‘quv jarayonida o‘quvchining diqqatini qanchalik uzoq vaqt ushlab turolsak, ta’lim samarasi ham shunchalik yuqori bo‘lishi tabiiy. Lekin bu oddiy tushunchaning qiyinligi shundaki, o‘quvchi doim ham o‘z diqqatini ixtiyoriy tarzda ob’ekt ustida jamlay olmaydi. Uning ixtiyori beixtiyor ravishda boshqa obektlarga chalg‘ib, ko‘chib turadi. Har qanday psixologik adabiyotda, diqqatning asosiy ikki turi qayd etilgan: ixtiyoriy (irodaviy) va ixtiyorsiz (beixtiyor) diqqat. Inson, uyg‘oq holatdan tashqi olamdan uzluksiz tarzda ma’lumot olib turadi va bu jarayonda ixtiyoriy va ixtiyorsiz diqqat turlari o‘zaro o‘rin almashib boradi.

Bola diqqatini ongli ravishda ma’lum bir predmetlarga va ob’ektlarga yo‘naltirib va jamlab tura oladi. Diqqatning barqarorligi ortishi – 20-25 daqiqa, diqqat hajmi 7-8 ta predmetni qamrab oladi. Bola ikkiyoqlama tasvirlarni ko‘ra olishi mumkin.



